

821.572.133
83.3(509)
R25

ASULOVA

17 000 savolga
17 000 javob

ADABIYOTDAN MUKAMMAL SAVOL-JAVOBLAR

o'qituvchilar, abituriyentlar, o'quvchilar,
olimpiada, bilimlar bellashuvi ishtirokchilari uchun



XX ASR ADABIYOTI

Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Avaz O'tar, So'fizoda, Abdurauf Fitrat, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, G'afur G'ulom, Oybek, Abdulla Qahhor, Mirkarim Osim, Maqsud Shayxzoda, Hamid Olimjon, Mirtemir, Usmon Nosir, Zulfiya, Shuhrat, Turob To'la, Asqad Muxtor, Said Ahmad, Saida Zunnunova, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, Ozod Sharafiddinov, Jumaniyoz Jabborov, Xudoyberdi To'xtaboyev, To'ra Sulaymon

Nilufar RASULOVA

**ADABIYOTDAN
MUKAMMAL
SAVOL-JAVOBLAR**

3-kitob

o'qituvchilar, abituriyentlar, o'quvchilar,
olimpiada, bilimlar bellashuvi ishtirokchilari uchun

Toshkent
"Nurafshon ziyo yeg'usi"
2018-yil

UO'K 821(079.1)

KBK 83.3v6

R 25

Rasulova, Nilufar.

Adabiyotdan mukammal savol-javoblar [Matn] K.3. [Matn] /
N.Rasulova. – Toshkent: «Nurafshon ziyo yog'dusi», 2018. – 512 b.

To'rt qismdan iborat adabiyot fanidan savol-javoblar kitobi amaldagi umumta'lim maktablari, akademik litsey, kasb-hunar kolleji darsliklari asosida tayyorlandi. Ushbu qo'llanmadan o'qituvchilar, abituriyentlar, o'quvchilar, olimpiada, bilimlar bellashuvi ishtirokchilari foydalanishlari mumkin.

Tuzuvchi:

Nilufar Rasulova

Taqrizchilar:

Hoshimjon Ahmedov,
filologiya fanlari nomzodi,

Donoxon Usmonova,
ona tili va adabiyot fani muallimasi, oliy toifali o'qituvchi,

Jamoliddin Shermuhammad o'g'li,
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'zbek tili va adabiyotini o'qitish metodikasi kafedrası ilmiy kengashining 2018-yil 2-oktyabr dagi 8 son bayonnoması bilan nashrga tavsiya etilgan

Abdulla Qodiriy nomidagi

viloyat AKM

INV № 169270 - 2020

ISBN 978-9943-5159-4-9

© «Nurafshon ziyo yog'dusi», 2018

© Nilufar Rasulova, 2018

MAHMUDXO'JA BEHBUDIY (1875 – 1919)

1.	Qaysi sohalarning shakllanishi va vujudga kelishi Behbudiy nomi bilan bog'liq?	Behbudiy – XX asr o'zbek adabiyoti, matbuoti, madaniyatining atoqli namoyandasi. Milliy dramaturgiya va sahna san'atining shakllanishi, yangicha ilg'or hamda serko'lam publitsistikaning, yangi usuldagi pedagogikaning vujudga kelishi uning nomi bilan bog'liq	10
2.	Behbudiy qaysi tashkilotning asoschisi va rahnamosi bo'lgan?	Behbudiy davrning eng ilg'or harakati – jadidchilikning Turkistondagi asoschisi va rahnamosidir	
3.	Behbudiy adabiyotdagi qaysi sohaning asoschisi?	O'zbek dramaturgiyasining	10
4.	Mahmudxo'janing taxallusi...	Behbudiy (behbud – foyda, najot, sog'lomlik; baxtli, osoyishta)	
5.	Mahmudxo'ja Behbudiy qachon qayerda tavallud topadi?	1875-yilda Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog'ida tug'ilgan	10
6.	Behbudiy yoshligidan qaysi tillarni o'rgandi?	Arab, fors, turkiy tillarni	
7.	Mahmudxo'ja Behbudiy arab tili grammatikasini kimdan o'rgangan?	Kichik tog'asi mulla Odildan o'rgangan	10
8.	Bolalikda Mahmudxo'ja-ga kimlarning ta'siri kuchli bo'ldi?	Tog'alari – mufti Odilqori va qozi Muhammad Siddiqning	10
9.	Qaysi gazetani muttasil o'qib boradi?	«Tarjumon»ni	

10.	Uning dunyoqarashida chuqur iz qoldirgan sayohatlari...	Arabiston, Turkiya, Orenburg, Qozon, Moskva, Peterburg shaharlarida bo'lishi	
-----	---	--	--

Quyidagi yillarda adib qaysi shaharlarga sayohatga boradi?

11.	1899 – 1900-yillar...	Arabistonga haj ziyoratiga boradi	10
12.	1903 – 1904-yillar...	Moskva, Peterburgga	10
13.	1906-yili...	Qozon, Ufa, Nijniy Novgorod, Misr va Turkiyaga	10

14.	Behbudiyning mehnat faoliyati...	– Muhammad Siddiq – qozi tog'asi – yonida mirzolik qiladi; – Samarqandda yangi usuldagi maktablar ochadi; – <u>1913-yilda Samarqand gazetasi va «Oina» jurnalini nashr etishda bosh-qosh bo'ladi;</u> – 1918-yil o'rtalarida «Musulmon ishchi va dehqon sho'rosi»ga maorif xalq komissari bo'ladi; – Turkistonning davlat tili to'g'risidagi dekret loyihasini tayyorlashda jonbozlik ko'rsatadi; – «Nashriyoti Behbudiya» nomli nashriyot ochadi.	10
15.	Behbudiy qanday qo'llanmalar yaratdi?	«Bolalar uchun kitob», «Rusiyaning qisqacha jo'g'rofiyasi», «Aholi jo'g'rofiyasiga kirish»	

16.	Behbudiy qachon kim tomonidan qatl ettiriladi?	1919-yilning bahorida – 25-martda Buxoro amirining Shahrisabzdagi kishilari tomonidan qo'lga olinadi va «Sho'roning ayg'oqchisi, jadid, sho'roga sotilgan» degan ayblar bilan Qarshi shahrida qatl etiladi (Behbudiyning qabri qayerda ekanligi noma'lum)	10
-----	--	---	----

Behbudiy fikrlarini davom ettiring

17.	Agar bizning hayotimiz hurriyat va xalq baxt-saodati uchun qurbonlik sifatida kerak bo'lsa...	Biz o'limni ham xursandlik bilan kutib olamiz	
18.	Haq olinur...	Berilmas	
19.	Yetti pushtini bilmaydigan, avlod-ajdodini tanimaydigan kimsalarni...	Marquq derlar	
20.	Barchamizga oftob kabi ravshan va ayondirki, makotib (maktablar) taraqqiyning boshlang'ichi...	Madaniyat va saodatning darvozasidir	10
21.	Har bir millat, eng avval, makotibi (maktablari) ibtidoiysini zamoncha isloh etib ko'paytirmaguncha...	Taraqqiy yo'liga kirib madaniyatdan foydalanmas	10
22.	Behbudiy nashri maorif sohasida «Vatanimizning birinchi qahramoni» deb qaysi gazetada ta'riflandi?	1922-yilda «Zarafshon» gazetasida	
23.	Birinchi jahon urushi arafalaridayoq uning shu vaqtgacha bosilib chiqqan maqolalari soni...	200 ga yaqin edi	

24.	«Turkiston idorasi», «Turkistonda maktab jarida», «Buxoroda usuli jadid», «Yoshlarga murojlat», «Ehtiyoji millat», «Ikki emas, to'rt til kerak» nomli publitsistik asarlari qaysi janrda yozilgan?	Maqola	
25.	«Turkiston qoloqlikdan qachon qutuladi?» – degan savolga Behbudiy qanday javob beradi?	«Yoshlarni Rusiya, Yevropaning markaziy shaharlariga, Arabiston va Turkiyaning mashhur oliy o'quv yurtlariga yuborib o'qitish kerak», – deydi	
26.	Behbudiy qaysi maqolasida «Kelgusida, shubhasiz, Kattaqo'rg'on, Jizzax, Samarqand atrofidagi yerlarni o'zlashtirish kerak. Biroq buning uchun suv muammosini hal qilish kerak. Amudaryodan suv olib chiqish esa, bu masalani hal etishning eng maqbul yo'lidir», – deydi	«Buxoro xonligiga sayohat» (1912) nomli maqolasida	
27.	Qaysi maqolasida Behbudiy shu davr Rusiya hayotidagi siyosiy ahvol va kurashni juda chuqur bilganligi va ularga o'zining mustaqil munosabatini bildirgan siyosatchi va nazariyoichi bo'lganini ko'rsatadi?	1906-yil «Xurshid» gazetasida bosilgan «Felyeton» nomli maqolasida	

Behbudiyning «Felyeton» maqolasidagi tanqidiy fikrlarini davom ettiring

28.	Rusiyadagi sotsial-demokratlarning partiya dasturi hayotga joriy etilgudek bo'lsa...	Dunyo xonavayron bo'lishi mumkin. Bizning esa o'z mustaqil yo'limiz bo'lishi kerak	
-----	--	--	--

29.	Agar biz o'z manfaatlarimizni qattiqroq himoya qilmasak...	Yaqin yigirma yil ichida ko'p oyoqosti bo'lishimiz ehtimol	
30.	1917-yil aprelidagi Umumturkiston musulmonlari qurultoyida u qanday g'oyasini o'rtaga tashladi?	Turkistonni o'zini-o'zi boshqaruvchi mustaqil davlatga aylantirish g'oyasini	
31.	Behbudiy vafotiga marsiya yozgan ijodkorlar...	Xoji Muin, Fitrat, Sadriddin Ayniy, Cho'lpon	
32.	«Saning tarixi davroning, saning osori urfoning, Saning noming, saning shoning jahon qoldiqcha qolmasmu? Vatan avlodi yod etdi, sani hurmatda shod etdi Va lekin intiqomingni ololurmu, ololmasmu?» (1920) Ushbu marsiya misralari qaysi ijodkorning qalamiga mansub?	Sadriddin Ayniyning	
33.	Behbudiy vafotiga bag'ishlab qaysi ijodkor qanday pyesa yozdi?	Dramaturg Hojimurod «Maorif qurbonlari» nomli pyesa yozdi	
34.	Sho'ro yillarida Behbudiyga qanday munosabatda bo'lishdi?	Behbudiyga ashaddiy millatchi, xalq dushmani tamg'asi yopishtirildi	
35.	O'zbek adabiyotidagi birinchi drama...	Behbudiyning «Padarkush» dramasi	10
	Bir la'li (qadah) sharob, non, dasturxon. Choynak, piyola, chilim. Mehmonxonaga keraklik gilam, ko'rpa-yostuq. Boyning yotoq asbobi va karavot. Bir kaltak, 1 qo'l kishani,	Behbudiyning «Padarkush» dramasi	10

36.	1 qanab, 1 hushtak, 1 shiqishqa. Bir o'n shisha suv va kvas. Besh-olti istaqon (stakan). Bir sanduq. Bir hamyon, ichig'a pulg'a o'xshash nimarsa. Bir katta pichoq. Bir tapponcha. Sanduqni ochaturgan temir asbob. Mukammal pristuf libosi, 2 politsayskiy mukammal libosi, 2 qorovul kaltagi. Bu narsalar qaysi dramatik asarni sahnalashtirilganda kerak bo'ladi?		
-----	--	--	--

**«Padarkush»
yoxud «O'qimagan bolaning holi» dramasi**

37.	«Padarkush» dramasi qachon yozildi?		1911-yilda yozildi, 1913-yilda kitob holida nashr etildi	10
38.	Drama 1911-yilda yozilgani holda nima uchun 1913-yilda nashr etildi?	Yerli xalqni ezib, uning taraqqiy etishiga, o'z g'ururini anglash, o'z milliy adabiyoti, tili, madaniyatini rivojlantirishga to'sqinlik qilib kelayotgan chor Rossiya amaldorlari, uning Turkistondagi mustabidlari o'z vaqtida kitob qilib chiqarishga yo'l qo'ymadilar		
39.	1913-yilda «Padarkush» kam nusxada nashr etildi. Biroq uning muqovasida nima uchun rus tilidagi «Rusiyaning fransuz istibdodidan qutulishi va mashhur Borodino muhorabasi xotiralari yubileyiga bag'ishlayman» degan yozuv bor edi?		Chor senzurasidan o'tish uchun muallif shunday qilgan	

40.	1914-yilda pyesa Samarqand shahrida qo'yilganida «xalq nihoyatda ko'p kelib, chipta yetmagani va joy yo'qligi uchun uch-to'rt yuz kishi qaytib ketdi... Uch so'm berib tikka turmoqqa ham rozilar bo'ldi». Ushbu ma'lumotlar qaysi gazetada yozilgan?	«Oina» gazetasida	
41.	Liza va boyning xotini rollarini qaysi aktyor ijro etgan?	U vaqtda aktyorlar masalasi ham murakkab edi. Pyesadagi Liza va boyning xotini rollarini bir kishi, u ham bo'lsa, erkak aktyor Abdulla Badriy o'ynagan	
42.	Asarni sahnaga qo'ygan teatr truppasiga kim rahbarlik qilgan?	Mahmudxo'ja Behbudiy	
43.	Pyesa Toshkent truppasi tomonidan qo'yilganida boy rolini qaysi aktyor o'ynagan?	Abdulla Avloniy	
44.	1914-yilda qaysi gazeta pyesa Yevropa teatrlari darajasida qo'yildi deb baholadi?	«Turkiston viloyati gazetasi»	
45.	«Padar-kush» dramasi-ning asosiy g'oyasi...	Asarda ma'rifatparvarlik g'oyasi yetakchilik qiladi. Xalq o'qish, ma'rifat, ilm egallash bilangina qoloqlikdan chiqishi mumkin; turmushni yaxshilash natijasida jahonning taraqqiy etgan xalqlari darajasiga ko'tarilish mumkin. Jaholat, madaniyatsizlik va boshqa jamiki illatlarning sababi ham mana shunda – ilmga, ziyoga, ma'rifatga bepisandlik bilan qarashda, demoqchi bo'ladi muallif butun asari davomida	

46.	«Padarkush» asarining to'liq nomi...	«Padarkush yoki o'qu-mog'on bolaning holi»	10
47.	Drama necha pardadan iborat?	3 parda 4 manzarali	10
48.	Pyesa qahramonlar...	Boy, Toshmurod, Domla, Ziyoli, Xayrulla, Tangriqul, Davlat, Nor, Liza, Artun, Pristuf – ikki politsayskiy, 2 qorovul, 3 nafar erkak, boyning hamsoyasi, Boybuchcha	10

Quyidagi qahramonlarning yoshini ayting

49.	Boy	50 yashar	10
50.	Toshmurod	15 – 17 yashar.	10
51.	Domla	30 – 40 yashar	10
52.	Xayrulla	18 – 20	10
53.	Boybucha	30 – 40 yashar	10
54.	Boyning o'g'li...	Toshmurod	10
55.	O'ruscha o'qug'on, millatchi musulmon (ovro'po libosida)	Ziyoli	10
56.	Yangi fikrli bir mullo...	Domla	10
57.	Boyning mirzo va mahrami...	Xayrulla	10
58.	Boyning qotili...	Tangriqul	10
59.	Bo'z bolalar...	Davlat va Nor	10
60.	Rus xotuni, qabiha shaklinda...	Liza	10
61.	Armani mayxonachi...	Artun	10
62.	Boyning xotini...	Boybuchcha	10
63.	Tabiatida musulmonchilik ham, millatparvarlik ham jamlangan obraz...	Ziyoli	10
64.	Oyiga yetti so'm maosh oladigan, kunduzlari mirzolik va oqshomlari mehmonxona ishini qiladigan, kitob ham o'qib beradigan va hatto xodimi qiladigan boyning xizmatkori...	Xayrulla	10

65.	Boyning o'g'li Toshmurod qayerda o'qiydi?	Toshmurod na jadid maktabida o'qiydi, na eski maktabda	10
66.	Boyga o'g'lini o'qitish kerakligini da'vat qilgan obrazlar...	Avval Domla, so'ngra Ziyoli	10

Quyidagi gaplar qaysi qahramonlarga taalluqli?

67.	«O'qumoq qarz va ilm sababi izzati dunyo va sharofati oxiratdir»	Domla	10
68.	«Dunyoning sababi, izzati – boylik. Oxiratga bo'lsa, Xudoning qilgan taqdiri bo'lur»	Boy	10
69.	«Qordan qutulub, yomg'urga uchragaymiz»	Boy	10
70.	«Hozir yangi va boshqa bir zamon- dir. Bu zamonga ilm va hunarsiz xalqning boyligi, yeri va asbobi kun- dan kun qo'lidan ketgandek, axloq va obro'yi ham qo'ldan chiqar, hatto dini ham zaif bo'lur»	Ziyoli	10
71.	«O'quganni biri – siz, yemoqg'a no- ningiz yo'q» deb Boy kimga aytadi?	Domlaga	10
72.	«Xayrulla! Kursi keltir. Bu kishi yerg'a o'ltura olmaydur». Boy «Bu kishi» deb kimni nazarda tutadi?	Ziyoli odamni	10
73.	Olimi diniy sinfi- ga kiruvchilar...	Imom, xatib, mudarris, muallim, qozi, mufti	10
74.	Ziyoli Hazrat Payg'ambarimizning qaysi nasihatlarini tilga olgan?	«Ilm Xitoyga ham bo'lsa, talab qilingiz»	10
75.	Toshmurodning do'stlari...	Tangriqul, Nor, Davlat	10

76.	Sharob ichib mast bo'lgan ulfatlardan qaysi biri Liza (yomon yo'lga yuruvchi ayol)ni esladi?	Davlat	10
77.	Boyning uyiga o'g'irlikka tushish fikri kimdan chiqdi?	Davlatdan	10
78.	O'g'irlikka kimlar borishdi?	Toshmurod va Tangriqul	10
79.	Toshmurodga to'pponchani, Tangriqulga pichoqni kim berdi?	Toshmurodga to'pponchani Davlat, Tangriqulga pichoqni Nor berdi	10
80.	Tangriqul, Nor, Davlat, Toshmurodlarga pul nima uchun kerak bo'ldi?	Lizani olib kelish uchun yigitlarga naqd pul zarur edi	10
81.	Boyni kim o'ldirdi?	Tangriqul (u boyning qorniga pichoq suquib oldi, Toshmurod otasi qo'lidagi kaltakni ushlab turdi)	10
82.	Toshmurodga qanday jazo berilishi mumkin?	Sibirga surgun qilinadi	10
83.	Boybuchchaga kim sabr tiladi?	Domla	10
84.	Politseyskilar, pristuf, qorovullar kimlarni qo'lga olishdi?	Toshmurod va Tangriqulning qo'lga kishan solishdi, Davlat va Norning qo'lini bog'lashdi	10
85.	Quyidagi parcha qaysi qahramon nutqidan olingan? «Bizlarni xonavayron, bachagiryon va bewatan va bandi qilgan tarbiyasizlik va jaholatdur: bewatan, darbadarlik, asorat, faqr-u zarurat va xorliklar hammasi ilmsizlik va betarbiyalikning mevasi va natijasidir»	Ziyoli	10

86.	«Padarkush» dramasi­dagi millatni sevib dinini esda tutadigan, ayni damda, dinini sevib millatni ham esdan chiqarmaydigan obraz...	Ziyoli	10
87.	«Ikki emas to'rt til lozim» maqolasi qachon qaysi jurnalning qaysi sonida berilgan?	«Oyna» jurnali, 1913-yil, 1-son, 12 – 14-betlar	

**«Ikki emas to'rt til lozim» maqolasiga
doir savollarga javob bering**

88.	Qaysi tillarni o'rganish kerak?	Turkiy, forsiy, arabiy, rusiy	
89.	Firdavsiy Bedil, Sa'diy, Jaloliddin Rumi­y asarlarini o'qish uchun qaysi tilni o'rganish kerak?	Forsiy tilni	
90.	Jaloliddin Rumi­yning mashhur asari...	«Masnaviy»	
91.	Turkiy tilni bilganlar qaysi ijodkorlarning asarlardan lazzat oladilar deb ta'kidlanadi?	Fuzuliy, Navoiy, Boqiy, Somiy, Abdulhaq Homid, Akrambek, Sanoyi, Nobiy, Nojiylar va Tolstoy, Jyul Vern asarlarining turkiy tarjimasidan	
92.	Maqolada qaysi fizik olimlar tilga olingan?	Kopernik, Nyutonlar	
93.	Madrasa va udabo tili...	Forsiy til	
94.	Buxoro hukumati tili...	Forsiy til	
95.	Usmonli shoir, «Sumbul qasidasi» muallifi...	Mahmud Abdul Boqiy (1526 – 1600)	
96.	«Qomisul a'lom» asari muallifi...	Somiy (1850 – 1904)	

97.	1852 – 1937-yillarda yashagan mashhur turk shoiri...	Abdulhaq Homid	
98.	1847 – 1914-yillarda yashagan «g'arbchi» jadidchi shoir...	Akrambek – Rijoizoda Akram	
99.	1826 – 1874-yillarda yashagan mashhur turk masalnavis shoiri...	Sanoyi (Ibrohim Shinosiy bo'lsa kerak)	
100.	1640 – 1712-yillarda yashagan usmonli shoirlardan...	Nobiy (Yusuf Nobiy)	
101.	1850 – 1893-yillarda yashagan «sharqchi» shoir...	Muallim Nojiy	
102.	Maqolada keltirilgan hadisda yahudiy tilini o'rganib, shu tilda yozilgan xatlarni payg'ambarga o'qib beruvchi sahoba...	Zayd bin Sobit	

«Teyotr nadur?»

103.	«Teyotr xonalari masharabozxona bo'lmay, balki...» Fikrni davom ettiring	Ibratxonadir	
104.	Millat naif uchun ko'ngillilar sahna-da qo'ygan «Padarkush» dramasi-dan tushgan to'rt-besh ming so'mni qanday hayrli ishga sarflashdi?	Maktablar foydasiga berishdi	
105.	«Kuldurguchi va ham yig'latguchi nosih va nofe' asar...»	«Padarkush»	
106.	«Teyotr nadur?» maqolasi qaysi jurnalda berilgan?	«Oyna» jurnalida	

**Behbudiy asarlaridagi eskirgan
so'zlarning ma'nosini ayting**

107.	g'alat	sahv, xato, yanglish	
108.	bovujud	shunday qilib	
109.	bir nav'i	bir narsa qilib	
110.	amri ma'ruf	yaxshilikka undash	
111.	ha, 'cza	xomuza	
112.	taqrir	bayon	
113.	ehmol	qiyinchilik, mashaqqat	
114.	sarrof	pul almashtiruvchi	
115.	ehtisob	hisob-kitob, tahlil	
116.	tasnif	bunyodga kelmoq	
117.	mushaxxis	ijrochi, aktyor	
118.	bolo	yuqori	
119.	siloh	qurol	10

ABDULLA AVLONIY (1878 – 1934)

1.	Abdulla Avloniy tarixda qanday nom qoldirgan?	Yozuvchi, shoir, dramaturg, olim, o'qituvchi, jurnalist, noshir, darsliklar muallifi, rejissor, aktyor, jamoat arbobi	
2.	Abdulla Avloniy qachon qayerda qanday oilada tavallud topgan?	1878-yilning 12-iyulida Toshkent shahrining Mergancha mahallasida hunarmand-to'quvchi oilasida tug'ildi	5
3.	Abdulla Avloniyning bobosi asli qayerlik?	Qo'qonlik	
4.	Avloniy qanday ilm dargohlari-da tahsil oldi?	U yetti yoshida O'qchi mahallasidagi boshlang'ich maktabga o'qishga bordi, uni 1890-yilda tugatgach, shu mahalladagi madrasada tahsil oldi. Keyinroq o'qishni Shayhontohurdagi madrasada davom ettirdi	5
5.	Yosh Abdulla oilasi tirikchiligiga qanday yordam berdi?	Asosan kuz va qishda o'qib bilimini orttirdi, oila tirikchiligiga ko'mak berish maqsadida bahor va yozda odamlar eshigida mardikorlik qildi, g'isht quydi, duradgorlik va suvoqchilikni o'rganib, ustachilik qildi	5
6.	Abdulla Avloniy necha yoshlaridan she'r yoza boshladi?	15-16 yoshlaridan	5
7.	Avloniyning ilk she'riy mashqlari nechanchi yilda bitilgan?	1894-yilda	5
8.	Nechanchi yildan o'z mashqlari bilan matbuot sahifalarida ko'rina boshladi?	1905-yildan boshlab	5

9.	Abdulla Avloniy qanday taxallus bilan ijod qilgan?	Hijron	5
10.	Abdulla Avloniy 1905 – 1908-yillarda qanday ish bilan shug'ullandi?	«Taraqqiy», «Xurshid» gazetolari tahririyatida ishladi	5
11.	Avloniy dastlabki nashrlardan biri bo'lmish qaysi gazetani qachon chiqardi?	«Shuhrat» gazetasini, 1907-yilda	5
12.	Abdulla Avloniy ishlagan qaysi gazeta tahririyatlari yopildi?	Avvalo, «Taraqqiy» va «Xurshid», so'ngra «Shuhrat» va 1908-yilda nashr qilina boshlagan «Osiyo» gazetasi	5
13.	XX asrning boshlarida Abdulla Avloniy qanday harakatning asosiy vakillaridan biri edi?	Jadidchilik harakatining	L
14.	Jadidlarning asosiy maqsadi...	Xalqni jaholatdan qutqarish, el orasida ma'rifatni yoyish, yurt ozodligiga erishish	
15.	Abdulla Avloniy Toshkentning qaysi mahallasida jadid maktabini ochdi?	Toshkentning Mirobod mahallasida yangi «usuli savtiya» – jadid maktabini ochdi. O'zi mudirlik va o'qituvchilik qildi	5
16.	Kambag'al, yetim-yesirlarga ko'mak beruvchi qanday uyushma tashkil etdi?	1909-yilda «Jamiyati xayriya» degan uyushma tashkil etdi	5
17.	A.Avloniy 1919 – 1920-yillarda qanday vazifada ishladi?	Diplomatik vazifalarda (so'ng umrining oxirigacha O'rta Osiyo davlat universitetida dars berdi)	5

Abdulla Qodiriy nomidagi
viloyat AKM

INV № 169270 - 2020

18.	Abdulla Avloniy qanday unvonlar bilan taqdirlangan?	1927-yilda «Mehnat qahramoni» unvoni, 1930-yilda «O'zbekiston xalq maorifi zarbdori» unvoni berildi	5
19.	Abdulla Avloniy ta'limga qanday yangiliklar kiritdi?	Turkistonda birinchilardan bo'lib maktabga geografiya, kimyo, handasa, fizika fanlari kiritilishiga ta'sir ko'rsatdi. Ta'limni real turmush bilan bog'lashga intildi, bir dars bilan boshqasi o'rtasida muayyan tanaffusni, bir sinfdan ikkinchisiga o'tishdagi imtihonni joriy etdi	
20.	Abdulla Avloniyning maktablar uchun yaratgan darslik va qo'llanmalari...	«Birinci muallim» (1909), «Ikkinchi muallim» (1912) darsliklari, «Turkiy Guliston yoxud axloq» (1913), «Maktab gulistoni» (1916), «Adabiyot yoxud milliy she'rlar» (1909 – 1916, 6 qismdan iborat) qo'llanmalari	L, 5
21.	Adibning 6 qismdan iborat, maktablarda qo'llanma vazifasini o'tagan asari...	«Adabiyot yoxud milliy she'rlar»	L, 5
22.	Jadid maktablari muallimlarining iltimosiga ko'ra 1913-yilda yaratilgan asari...	«Turkiy Guliston yoxud axloq»	
23.	Avloniy muharrirligidagi «Shuhrat» gazetasining birinchi soni qachon bosmadan chiqdi?	1907-yil 4-dekabrda	5
24.	1917-yilda ta'sis etgan «Turon» gazetasiga qanday shiorni tanladi?	«Yashasin xalq jumhuriyati»	
25.	Avloniy yana qaysi gazetalarda ishladi?	«Sadoyi Turkiston»da ishladi, 1918-yilda «Ishtirokiyun» gazetasida muharrirlik qildi	

26.	Abdulla Avloniy 1913-yilda qanday jamiyatni tashkil etdi?	«Turon» jamiyatini	5
27.	1913-yilda Avloniy tashkil etgan jamiyatning asosiy vazifasi...	Aholi o'rtasida sahna ishlariga qiziqish uyg'otish, xalq uchun spektakllar qo'yib berish va ular orqali ommaga ma'naviy oziq berish, klub, musiqa kurslari, kutubxona va qiroatxonalar ochish; o'quvchilarga moddiy yordam ko'rsatish va hokazolar	5
28.	«Turon» jamiyati qoshida tashkil etilgan «Turon» teatri uchun Avloniy qanday pyesalarni sahnalashtirdi?	O'ntaga yaqin pyesani ozarbayjon tilidan o'zbekchaga tarjima qildi, 3 ta yangi pyesa yozdi va ularni sahnalashtirdi	5
29.	Avloniy o'z atrofiga qaysi yoshlarni yig'ib, o'zbek milliy teatriga asos soldi?	Nizomiddin Xo'jayev, birinchi o'zbek rejissori Mannon Uyg'ur, Mirsho- hid va Mirahmad Miroqi- lov singari yoshlarni	
30.	Avloniy qaysi ijodkorlarning pyesalarini sahnalashtirdi?	O'zining, Behbudiy, Hamza, Qodiriy, hamda ozarbayjon dramaturglarining (o'zi ham kezi kelganda aktyor bo'lib rollar ijro etdi)	
31.	Adib 7-sinf o'qish xrestomatiyasini qachon tuzib nashr ettirdi?	1930- yillarda	5
32.	Abdulla Avloniy pyesalari...	«Advokatlik osonmi?», «Pinak», «Biz va Siz», «Ikki muhabbat», «Portugaliya inqilobi»	L
33.	San'atning yaralishi ha- qida Avloniy qarashlari qaysi asarida berilgan?	«Sanoye nafisa» maqolasida	L

34.	«Tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir». Ushbu hikmatli so'z qaysi asardan olingan?	«Turkiy guliston yoxud axloq» asaridan	
35.	Abdulla Avloniyning «Vatan» she'ri qaysi kitobiga kiritilgan?	«Maktab gulistoni» kitobiga	5
36.	«Sening isming bu dunyoda muqaddasdur, Har kim sening qadring bilmas, aqli pastdur. Sening tuyg'ung yuraklarga savdo solur, Sening darding boshqa dardni tortib olur». Ushbu parcha qaysi she'rdan olingan?	«Vatan» she'ridan	5

Abdulla Avloniyning quyidagi asarlari qaysi kitob (to'plam)lariga kiritilgan?

37.	«Biz millat», «Maktab haqinda» she'rlari	«Adabiyot yoxud milliy she'rlar» birinchi juzida	L
38.	«Hijron so'zi» she'ri	«Maktab gulistoni» milliy she'rlari beshinchi juzida	L
39.	«To'g'rilik» hikoyasi	«Birinchi muallim» kitobida	L
40.	«Xurus ila bo'ri», «Jan-jalchilik zarari», «Yal-g'on do'st» hikoyalari, «Chin do'st» she'ri	«Ikkinchi muallim» kitobidan	L
41.	«Vatanni suymak»	«Turkiy Guliston yoxud axloq»	L

42.	Bir kampirning uyida bir tup balx tuti bor edi. Pishgan vaqtida qurutib, sotib tirik-chiligini o'tkazar edi. Shahar podshohi ayvon solmoqchi bo'lib, kampirning tuti-ni ming oltinga sotib oldi. Bir kuni kampir jannat kabi ayvon o'rtasida turgan tutini ko'rib keldi. Bu voqealar Avloniy-ni qaysi hikoyasida berilgan?	«To'g'rilik» hikoyasida	L
43.	«Yolg'on do'st» hikoyasining mazmunini so'zlang	Ikki do'st tog'lar orasida ketayotganda bir yo'lbarsni ko'rishdi. Ulardan biri darhol yugurib, daraxt ustiga chiqib oldi. Ikkinchisi shoshilib nima qilishini bilmay, yerga cho'zilib yotdi. Yo'lbars kelib iskab-iskab, o'lik gumon qilib, qaytib ketdi. O'rtog'i daraxtdan tushib: «Birodar, yo'lbars qulog'ingga nima dedi?» – deb so'radi. Yo'ldoshi: «Shodligingda o'rtog' bo'lib, g'am vaqtingda tashlab qochadigan kishilar bilan yo'ldosh bo'lma!» – deb so'zlab ketdi, deb javob beribdi	L
44.	«Chin do'st» she'rining ma'nosi...	Ikki do'st safarga chiqishdi. Daryoda kemada ketishayotganida asov to'lqinlar sabab suvga yiqilishdi. Qutqaruvchi do'stlarning birini tutsa, avval o'rtog'ini qutqarishini iltimos qilib yolvorardi, qutqaruvchi ikkinchi do'stni oldiga borsa, u ham avval do'stini qutqarishni iltimos qilardi	L
45.	«Xurus (xo'roz) ila bo'ri» hikoyasining mazmunini ayting	Bir bo'ri daraxt ustida turgan Xurusga: «Ey o'rtoq, hayvonlar bilan qushlar o'rtasida sulh tuzildi. Pastga tush, birga o'ynaymiz», – deb aldadi. Xurus bo'rining hiylasiga aldanadigan nodon va	L

		ahmoq bo'lmaganligi uchun unga shunday dedi: «Bir oz sabr qil. Sendan boshqa ikki it ham sulh xabarini keltirurlar». Bu gapni eshitib tulki qochib ketdi. Xurus bo'ridan qochishining sababini so'raganida u shunday javob berdi: «Bu zolim itlar sulhni buzganga o'xshaydi»	
46.	Ko'prikda bir-biriga yo'l bermay, oqibatda ikkisi ham suvga g'arq bo'lgan echkilar qaysi hikoya qahramonlari?	«Jan-jalchilik zarari»	L

Quyidagi misralar Avloniyning qaysi she'rlar va hikoyatlardan olingan?

47.	Biling, o'g'lonlarim, sizlarni g'amdan qutqarur maktab... Jahonda barcha ne'matdan laziz ilm o'lmasa, nedir... Hama xursandlikni ma'danidur ilm, ey o'g'lon... Takabburlar qatorida havog'a bo'lmasang mag'rur...	Maktab haqida	L
48.	Tug'ilib o'sdim bu vatanda, Vatanim misli yo'q jahonda!.. Toshkand emas, toshqand erur, Kesaklari gulqand erur... Men ketsam-da, sen bo'l omon! Omon – Vatan, Vatan – omon!	Hijron so'zi	L
49.	«Ey tutim, to'g'rilig'ing qildi bizi davlatg'a yor, Egri bo'lsang, san o'tun bo'lg'ay eding, man xor-zor. To'g'rilar jannatning ayvonidadur, O'g'rilar ranj-u alam konindadur»	«To'g'rilik» asaridan	L

50.	Aql egasi hiylaga aldanmagay, Hiylagarning hiylasi boshin yegay. Do'st ila dushman so'zining farqi bor, Fahm etar har kimki, o'lsa hushyor	«Xurus ila bo'ri» asaridan	L
-----	---	----------------------------------	---

«Turkiy Guliston yoxud axloq»

51.	O'zbek pedagogikasi va adabiyoti tarixida o'ziga xos o'ringa ega asari...	«Turkiy Guliston yoxud axloq»	L
52.	«Turkiy Guliston yoxud axloq» asari shakl, mazmun va qurilishiga ko'ra kimning qaysi asariga monand?	Fors adabiyoti buyuk namoyandasi Shayx Sa'diyning «Guliston» va «Bo'ston» asariga	L
53.	«...Turkiston maktablarida o'z shevamizda yozilmish mukammal axloq kitobining yo'qlig'i afrodi millatning shunday bir asarga tashna muhtoj ekanlig'i o'zum muallimlar jumlasidan o'ldig'imdan manga ham ochiq ma'lum o'ldi. Shuning uchun ko'p vaqlar tajriba so'ngidan adibi muhtaram Shayx Sa'diy usulida yozmoqni, garchi og'ir bo'lsa ham o'zimga muqaddas bir vazifa ado qilaroq bu kamchilikni oradan ko'tarmakni munosib ko'rdim». Ushbu parcha Avloniyning qaysi asaridan olingan?	«Turkiy Guliston yoxud axloq»	L
54.	Risola necha qismdan iborat?	Ikki qismdan: «Yaxshi xulqlar» va «Yomon xulqlar»	L

55.	Asarda nechta fazilat va illatga ta'rif beriladi?	«Yaxshi xulqlar» qismida 31 fazilatga, «Yomon xulqlar» qismida 20 axloqiy illatga alohida boblarda ta'rif beriladi	L
56.	Asarda muallif fikrlarini qaysi allomalarning ibratli so'zlari bilan dalillaydi?	Payg'ambar hadislarini, Arastu, Aflotun, Muhyiddin Arabiy, Ibn Sino, Jaloliddin Rumiy, Sa'diy kabi allomalarning fikrlari bilan bezaydi	L

**«Turkiy Guliston yoxud axloq» asaridan
berilgan quyidagi parchalarda nuqtalar
o'rniga tushirilgan jummalarni qo'ying**

57.	«Alhosil tarbiya bizlar uchun...»	«Yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir»	L
58.	«Ilm insonlarning...»	«Madori hayoti, rahbari najotidir»	L
59.	«Din va e'tiqodi salomat bo'lmagan kishilar...»	«Haqni botildan, foydani zarardan, oqni qoradan, yaxshini yomondan ayira olmas»	L
60.	«Islomiyat butun insoniyatdur. Insoniyat esa...»	«Yaxshi xulqdan iboratdur»	L
61.	«Qanoat bir xazinadurki, naqdinasi...»	«Kundan kun ortar»	L
62.	«Sabr shunday kuchli bir narsadurki, shahvatni ...»	iffatga	L
63.	G'azabni...	shijoatga	L
64.	Shiddatni...	hilmga	L
65.	Kattalikni...	tavozuga	L
66.	Yomonlikni...	yaxshilikg'a aylantir-makg'a quvvati yetar»	L

67.	«Har bir millatning dunyoda borlig'in ko'rsatadurgan o'ynayi hayoti...»	«Til va adabiyotidir»	L
68.	«Hayo deb...»	«Ishda, so'zda adabni rioya qilmak aytilur»	L
69.	«Hayo dilni ravshan qiladurgan bir nurdirki, inson har vaqt...»	«Shul ma'naviy nurning ziyosiga muhtojdur»	L
70.	«Shariat buyurmagan, odamlar suymagan ishlarni ishlamak – g'iybat, hajv, masxara, safsata, so'kuv kabi odamlarning nafsiga, izzatiga tegadurgan adabsiz so'zlarni so'zlamak...»	«Zo'r hayosizlikdur»	L
71.	«Iffatning pardasi, vijdonning niqobi...»	«Hayodir»	L

«Advokatlik osonmi?»

(Bir pardalik kulgi)

Turkiston turmushidan olinib yozilmishdur

72.	«Advokatlik osonmi?» pyesasi qahramonlari...	Davronbek, Xudoyberdi, Xushvaqt, Haydarali, Rapoil, Egamberdi, Mehriniso, Abdujabbor	L
73.	Musulmon advokat, 24 yoshda	Davronbek	L
74.	Yer sotgan chol, qulog'i kar, 55 yoshda	Xudoyberdi Topildivoy o'g'li	L
75.	Ot yo'qotgan tojik, 30 yoshda.	Xushvaqt	L
76.	Mol yo'qotgan duduq, 24 yoshda	Haydarali	L
77.	Nasiyag'a mol sotgan, 60 yoshda	Rapoil	L
78.	To'y qilub qarzdor bo'lgan aravakash, 35 yoshda	Egamberdi	L
79.	Eri bilan urushub, ajrashmoqchi bo'lgan xotun, 32 yoshda	Mehriniso	L
80.	Xizmatchi, qiziq, 22 yoshda	Abdujabbor	L
81.	«Advokatlik osonmi?» pyesasining bosh qahramoni	Davronbek	L

82.	Davronbek Yevropada necha yil o'qigan?	7 yil	L
83.	Davronbek oldiga najot so'rab keluvchilar...	Kambag'al, ezilgan, xo'rlangan xalq vakillari	L
84.	Advokat nima uchun najot so'rab keluvchilarga yordam berolmaydi?	Savodsiz, qonun-qoidalarini tushunmagan odamlar zo'ravonlar qo'lida aldanib, hujjatlarga qo'l qo'yib beradilar. Shuningdek, bilimsizlik, nodonlik, jaholat avj olib ketganki, advokat hech qanday chora topa olmaydi	L
85.	Advokatning xizmatchisi Abdujabbor advokat Davronbekni ishning ko'zini bilmaydi, xalqni aldab, pulini olish ilmini o'rgangan emas deb, undan nolib yurardi. Shuning uchun advokat yo'qligida uning kiyimini kiyib, barcha keluvchilarga ariza yozib, konvertga solib berdi. Yarim soat ichida necha so'm pul topdi? Asar qanday yakunlandi?	20 so'm pul topdi. Eshikdan ariza yozdirganlar kelib xizmatchini yaxshilab urishdi	L

«Kim nimani yaxshi ko'rar?»

maqolasiga doir savollarga javob bering.

Quyidagi xislatlar qaysi toifadagi odamlarga taalluqli?

86.	Toat va ibodat, pand-u nasihat, zikr-u tasbeh o'rning'a to'ylarda to'n kiyub, ko'p oshab, ko'p uxlashni yaxshi ko'rurlar	Eshonlarimiz	L
87.	Dars-u ta'lim o'rning'a, bir-birlari ila o'run talashib mukarrir va mudarris bo'lishni, o'zlari bo'lolmay qolsalar, eshikma-eshik yurub saylovni buzishni yaxshi ko'rurlar	Ulamolarimiz	L

88.	Xaloyiqg'a va'z va nasihat o'rnig'a, to'y va janozalarda yurub, joma kiyishni yaxshi ko'rurlar	Imomlarimiz	L
89.	Orqa-o'nglarig'a qaramasdan, foyda va zararlarini oyirmasdan bir-birlarig'a raqobat qilaman, deb «bonka» va «kredit»larini ko'payturub, do'ffilari tor kelganda rus va yahudiylarning mollarini bukub-sinishini yaxshi ko'rurlar	Boylarimiz	L
90.	Namoz va niyoz o'rnig'a, masjid eshigiga yig'ilub o'turub, har kimni g'iybat va shikoyat qilishni yaxshi ko'rurlar	Mo'ysafidlarimiz	L
91.	Bir-birlaridan qizg'onishub, bolalarni arzon o'qitaman deb, bir o'zlariga yuz, yuzdan ortuq bola yig'ub, o'zlari to'y va ma'rakalarda bo'lub, bolalarning umrini bekor o'tkarishni yaxshi ko'rurlar	Muallimlarimiz	L
92.	«To'ylikni to'yi o'tar, to'ysizni kuni o'tar» degan so'zga amal qilmay, qaysi mahallada to'y bo'lsa, dasturxonchilik qilishni yaxshi ko'rurlar	Savdogarlarimiz	L
93.	Azonni yaxshilab adoyi maxraj qilub aytishni o'rganmay, bir joyda to'y bo'lub qolsa, «Falonchinikiga oshga-ho!» deb qiroat ila qichqirishni yaxshi ko'rurlar	Muazzinlarimiz	L
94.	Ishlarini tartib-la solmay, zamonag'a muvofiq ish yuritmay, Mallaxon zamonidan qolg'on eski do'kon, eski tos, eski tartiblarini yaxshi ko'rurlar	Do'kondorlarimiz	L

95.	Bilim va tarbiya o'rnig'a erlari ila urushub-talashub qizlarig'a mol qilmakni yaxshi ko'rurlar	Onalarimiz	L
96.	Bolalarig'a o'qutmak va ta'lim bermak o'rnig'a: «O'g'lum, emdi kattakon yigit bo'lding, shuncha o'quganing yetar, pul top!», deb «tashishka» – hammollik qildirishni yaxshi ko'rurlar	Otalarimiz	L
97.	Bir-biridan mollarini arzon sotaman deb tezgina yirtiladurg'on, tikishlar undan urub, mundan chiqq'on, suvni yetti chaqirim yerdan chaqiradurg'on mahsi va etiklar tikub, sotishni yaxshi ko'rurlar	Kosiblarimiz	L
98.	Yigirma tiyinlik kumush, o'n tiyinlik tillo orasig'a mum va saqichlar joylab, ismini qiz hayron, zebigardon qo'yub, besh-o'n so'mga sotishni yaxshi ko'rurlar	Zargarlarimiz	L
99.	Dolchin, zanjabil, hubbul malik, filfil kabi bir necha attorni qutisida yo'q narsalardan murakkab doru va ma'junlar yasab, bechora nodon xalqni pulini olishni yaxshi ko'rurlar	Tabiblarimiz	L
100.	To'y va bazmlarga bir mardakni(ng) ismini bachcha qo'yub, o'zlari ila barobar olib yurub, «milliy adabiyot» o'rnig'a «Xonim yalola, begim yalola» deb bachchaga tashlayotgan pullarni bo'lub olishni yaxshi ko'rurlar	Mashshoq va hofizlarimiz	L

101.	Jarida va jurnallar, tarix va roʻmonlar oʻrnigʻa Daqyonus zamonidan qolgʻon, xurofotlar ila toʻlgʻon «Andogʻ urdilarki, gardgard boʻlub ketdi», deb loflar yozilgʻon kitoblarni ogʻizlarini koʻfur turub oʻqumoqni yaxshi koʻrurlar	Savodxonlarimiz	L
102.	Milliy majlis va suhbatlar oʻrnigʻa toʻkma va samavarlarda, rasta va doʻkonlarda oʻlturub, «Falonchining oʻgʻli xoʻb yaxshi bola boʻlubdur, kecha falonchining mehmonxonasigʻa qamab, qiyqirtirub bazm qilduk. Emdi fistonchining oʻgʻlini(ng) ham bir bazm qilsak, dunyodan armonsiz ketar eduk» deb, islomiyatdan uzogʻ insoniyat nomiga yarashmagan ishlarni qilmoq va soʻzlashmoqni yaxshi koʻrurlar	Yigitlarimiz	L
103.	Ilm va maʼrifatli boʻlishni, hunar, sanʼat oʻrgonishni oʻrnigʻa, oʻzlariga zeb berub tor shim ila kalta kamzul, qotirma yoqalarga bino qoʻyishni yaxshi koʻrurlar	Yoshlarimiz	L
104.	Ilm va hunardan mahrumligi sababli boshqa millatlar ilm-u maʼrifatlari soyasida kuniga 4 – 5 soʻm ishlab turgan bu zamonda kuniga uch tangagʻa mardikorlikni, oyigʻa oʻn besh soʻmgʻa qorovullikni, yigirma soʻmgʻa fanar yoqishni, oʻn soʻmgʻa koʻnka yoʻlini tozalashni va shularga oʻxshash eng past va ogʻir xizmatlarni yaxshi koʻrurlar	Ishchilarimiz	L

105.	Otalarimizning ilm qadrin bilmagan, ilm uchun pulni ko'zlari qiymaganlik sababli o'qumoq va o'rganmoq o'rniga: «Oh pul, jonim pul», deb «tashishka» – hammollikni yaxshi ko'rurlar	Bolalarimiz	L
106.	Ko'b-ko'b oqcha olib, oz-oz yozishni yaxshi ko'rurlar	Muharrirlarimiz	L
107.	Foydali maqolalar o'rnig'a xabarlarini yaxshi ko'rurlar	Mushtariylarimiz	L
108.	Majlisga kelib, ustulga suyolub farog'at qilib turg'on vaqtlarida, bir tarafdin qattiqroq tovush chiqsa, cho'chib uyg'onishni yaxshi ko'rurlar	Dumalarimiz	L
109.	Milliy she'r va adabiyot yozishni o'rnig'a muvashshahmi yoki «qoshingdan, ko'zingdan», deb, javonlarni maqtab fasod axloqq'a sabab bo'ladurg'on she'rlar yozishni yaxshi ko'rurlar	Shoirilarimiz	L
110.	Hozirgi zamonda indamasdan turishni yaxshi ko'rurman	Abdulla Avloniy	L

AVAZ O'TAR (1884 – 1919)

1.	Avaz O'tar yashagan yillar...	1884 – 1919	6
2.	Avaz O'tar qachon, qayerda qanday oilada tavallud topdi?	1884-yil 25-avgustda Xiva shahrida hunarmand oilasida	6
3.	Shoirning otasining ismi va kasbi...	Polvonniyoz o'g'li Gadoyniyoz o'g'li, kasbi – sartarosh, xalq o'rtasida usta O'tar nomi bilan mashhur bo'lgan	6
4.	Qaysi shoirlar Avaz O'tarning otasi bilan do'stona munosabatda bo'lar, doimiy muloqot qilar edi?	Ogahiy, Komil Xorazmiy, Mujrib Xonaxarobiy, Bayoniy kabi	6
5.	Avaz O'tar necha yoshida maktabga boradi?	8 yoshida, maktabdan keyingi tahsilni madrasada davom ettiradi	6
6.	Avaz O'tar qaysi shoirlar ijodini qiziqib o'rganadi?	Xo'ja Hofiz, Nizomiy, Jomiy, Lutfiy, Navoiy, Fuzuliy kabi	6
7.	Zamondoshlaridan qaysi shoirlar bilan yaqin muloqotda bo'ladi?	Munis, Ogahiy, Komil, Feruz kabi	6
8.	Avaz O'tar necha yoshidan she'r yozishga kirishgan?	14 yoshidan	6
9.	Necha yoshidan yetuk shoir nomini olib, ko'pchilikning e'tiboriga tushgan?	18 yoshida	6

10.	Nima sababdan Avaz O'tarning xon saroyidagi hayoti uzoq davom etmaydi?	Saroydagi biqiq ijodiy muhit shoir ko'ngliga o'tirmaydi, qolaversa, uning she'rlariga hasad bilan qaraydigan ayrim kimsalar turli bo'htonlar to'qib, Avazni xonga yomon ko'rsatadilar	6
11.	Xonning buyrug'i bilan shoir qanday jazolanadi?	200 darra uradilar va hatto aqldan ozganga chiqarib, yomonotliq qiladilar	6
12.	Xiva xoni Muhammad Rahimxon II vafotidan so'ng otasi o'rniga taxtga o'tirgan Isfandiyorxon Avaz O'targa qanday munosabatda bo'ladi?	Isfandiyorxon ham Avaz O'targa zulm qiladi. Saroydan ketib, ota kasbi sartaroshlik bilan kun kechirayotgan shoirni bog'lab, 50 darra urdiradi	6
13.	Ma'naviy va jismoniy qiynoqlardan muttasil azob chekkan shoir necha yoshida vafot etadi?	Avaz O'tar uzoq yashay olmaydi – 35 yoshida vafot etadi	6
14.	Avaz O'tar qanday janrda she'rlar yozgan?	G'azal, muxammas, masnaviy, mustazod, ruboiy, qit'a	6
15.	Shoirning she'riy devoni...	«Saodat ul-iqbol»	6
16.	Avaz O'tarning chet tillarni o'rganishga da'vat qilingan she'ri...	«Til» she'ri	6
17.	«Til» she'ri qanday janrda yaratilgan?	G'azal	6
18.	Mazlum xalq ahvoliga achinishi, uning mashaqqatli hayotidan cheksiz afsuslanishi shoirning qaysi she'rida yaqqol sezilib turadi?	«Fidoi xalqim» she'rida	6

19.	«Dil ishqingga muhtalo bo'lubdur» deb boshlanuvchi she'ri qaysi janrda yozilgan?	Muxammas	6
20.	«Har odamning talab yo'lida gar ixlosi komildur» misralari bilan boshlanuvchi she'ri qaysi janrda?	Musamman	6

**Avaz O'tar qalamiga mansub quyidagi
misralarni davom ettiring**

21.	Fidoyi xalqim o'lsun tanda jonim...	Bo'lub qurbon anga ruhi ravonim	6
22.	Ochingerlar, millati vayronni obod etgusi maktab...	O'qusin yoshlarimiz, ko'ngilni shod etgusi maktab	6
23.	Biling ushbu zamon g'amnokidurman, Kuyib o'rtanmish elning xokidurman. Avazkim, nazm elin cholokidurman...	Boshin olmoqqa xonning pokidurman	6
24.	Har tilni biluv emdi bani odama jondur...	Til vositayi robitayi olmiyondur	6
25.	G'ayri tilini sa'y qiling bilgali yoshlar...	Kim ilm-u hunarlar bilonki ondin ayondur	6
26.	Lozim siza har tilni biluv ona tiliuek...	Bilmakka oni g'ayrat eting foyda kondur	6
27.	Ilm-u fan uyiga yuboringlar bolangizni...	Onda o'qug'onlar bori yaktoyi zamondur	6
28.	Zor o'lmasun onlar dog'i til bilmay Avazdek...	Til bilmaganidan oni(ng) bag'ri to'la qondur	6

MUHAMMADSHARIF SO'FIZODA (1869 – 1938)

1.	Muhammadsharif So'fizoda qayerda qanday oilada tavallud topdi?	Chustda hunarmand oilada tug'ildi	L
2.	Ota-onasi haqida ma'lumot...	Otasi Egamberdi So'fi pichoqchilik bilan shug'ullangan. Onasining ismi – Zaynab xola	
3.	Muhammadsharif qayerda savodini chiqaradi?	Yon qo'shnisi Manzura otin qo'lida savod chiqaradi, so'ng mahallasidagi eski maktabda ta'lim oladi	
4.	Muhammadsharifning taxalluslari...	«Vahshiy», «So'fizoda»	
5.	So'fizoda 1900 – 1913-yillarda nima sababdan ona diyoridan uzoqda darbadar hayot kechirishga majbur bo'ldi?	So'fizodaning mutaassib dindorlarni, mavjud ijtimoiy tuzum homiylarini sharmanda qiluvchi zaharli hajviyalari shoir boshiga katta tashvish olib keldi. Uni «dahriy» deb e'lon qildilar. Unga «beadab», «badasl» degan tavqi la'nat bosdilar. Bu ham yetmagandek, uni qatl etish lozimligi haqida gap chiqdi. Shuning uchun shoir o'z yurtini tashlab ketishga majbur bo'ldi	

6.	So'fizoda qaysi shaharlarda bo'ldi?	Tiflis, Boku, Arabiston, Turkiyada	
7.	So'fizoda chet el shaharlarida yurganida qaysi gazetalarda faol qatnashib turdi?	«Turkiston viloyatining gazetasi», «Sadoyi Turkiston» gazetalari	
8.	So'fizoda jadid usulidagi maktabni qachon ochadi?	1913-yilning oxirlarida Chustga qaytganda	
9.	So'fizoda Hindistonda qanday vazifada ishladi?	So'fizoda Hindistonda o'qituvchilik qiladi, bu yerda ham ingliz politsiyasi bilan to'qnashadi. Natijada u yerdan Afg'onistonga o'tib ketadi.	
10.	So'fizodaning Afg'onistondagi hayoti haqida ma'lumot bering	Afg'onistonda u kallapazga shogird tushadi, karvonsaroylarda yashab, kun kechiradi. Nima bo'ladi-yu, afg'on gazetasi «Siroj ul-axbor» («Xabarlar ziyosi»)da ilm-irfon haqidagi 3-4 forsiy she'ri bosilib, amir Habibulloxonning nazariga tushadi. Habibulloxon uni qabul qilib, maktab ochishga ruxsat beradi. Uning o'g'li Omonulloxon taxtga o'tirgach, maorif vazirligiga ishga olinadi. 1919-yilda Afg'oniston delegatsiyasi tarkibida o'z yurtiga kelib, qolib ketadi	
11.	So'fizoda qachon «O'zbekiston xalq shoiri» unvonini olgan?	1926-yilda	L
12.	So'fizodaning qaysi she'ri chustlik bir to'da ulfatlarning gapxonada o'tirishib, o'z qilgan ishlari bilan maqtanganlari, o'zlarini o'zlari fosh qilganlari quyuk, o'tkir bo'yoqlar, zaharxanda ohang bilan yozilgan?	«Chust boyonlarining bir gapxonada bir-birlariga maqtanishlari»	

13.	«Chust boyonlarining bir gapxonada bir-birlariga maqtanishlari» hajviy she'rida qanday illatlar qoralanadi?	Asarda toqat qilib bo'lmaydigan turmush manzaralari chizib beriladi. Shoirning fikricha eng katta illat – jaholat. Mutaassiblik, takabburlik, tekinxo'rlik, o'zgalar haqidan hazar qilmaslik, ziqnalik, laganbardorlik – bular hammasi ma'rifatsizlikdan. Fojia shundaki, bu bechoralar mana shu ma'rifatsizlik bilan maqtanadilar.	
14.	Muallimni quvib, maktabni yopgan chustilar, bizlar, Berib pora, pristavlarni topgan chustilar, bizlar. Duo qilsun dedik, qizlarni sotdik oqsoqollarga, Valekin qilg'uvchi olamni vayron chustilar, bizlar. Ko'ring insofni, pulsiz kambag'al, qirq yoshida bo'ydoq... Yesin to'qlar, eshik oldida tursin termulib ochlar... Ushbu misralar qaysi she'rdan olingan?	«Chust boyonlarining bir gapxonada bir-birlariga maqtanishlari» hajviy she'ridan	
15.	Tikso'z, haqparast shoir bo'lgani uchun So'fizodani obro'sizlantirish maqsadida kimlar uning onasi sha'niga har xil bo'lmag'ur gaplar tarqatib, o'zini buzuvlikda, kambag'allik, yalangoyoqlikda ayblaganlar?	Qozi va uning atrofida gilar	
16.	Qozi va uning atrofida gilarlarga javoban So'fizoda qaysi she'rini yozdi?	«Chust qozisi Abbosxon Hojimuhammad o'g'liga javob»	

17.	«Chust qozisi Abbosxon Hojimuhammad o'g'liga javob» she'ri qorayuraklarning aft-u basharasini ochib ko'rsatdi. She'r hukumat vakillarini larzaga soldi. Shoirga nisbatan qanday tazyiq boshlandi?	So'fizodani qamadilar, oyog'idan sudrab sazoyi qildilar. Ulamoilar: «Vahshiy» uchun baqqol mol sotmasun, sartarosh sochini olmasun, choyxona va yig'inlar uni tagjoydan mahrum qilsunlar», – deb fatvo berdilar	
-----	---	---	--

Quyidagi misralar So'fizodaning qaysi she'rlaridan olingan?

18.	Muncha yomon sho'rladi peshonalar, Qizlarimiz joriyai xonalar	«O'qing onalar»	
19.	Yashnatib dil g'unchasin, fasli bahor aylar gazet, Suv berib ko'ngul bog'ini sabzavor aylar gazet	«Gazeta to'g'risinda»	
20.	So'fizodaga qachon «O'zbekiston xalq shoiri» faxriy unvoni berildi?	1926-yil 27-fevralda	
21.	So'fizoda qanday halok bo'ldi?	1938-yilda 68 yoshida sho'rolar qatog'oniga uchradi	

ABDURAUF FITRAT (1886 – 1938)

1.	O'zbek milliy she'riyati, prozasi, maorifi, tilshunosligi, adabiyotshunosligi, jamiyatshunosligi singari o'nlab sohalar oyoqqa turishiga, rivojiga ulkan hissa qo'shgan alloma	Abdurauf Fitrat – shoir, yozuvchi, tarixchi, adabiyotshunos, tilshunos, san'atshunos, davlat va jamoat arbobi	L, 8
2.	Abdurauf Fitrat yashagan yillar...	1886 – 1938	8
3.	Abdurauf Fitrat qachon qayerda tavallud topgan?	1886-yilda Buxoro shahrida	8, 11
4.	Fitratning otasi haqida ma'lumot bering	Otasi Abdurahimboy zamonasining o'ziga to'q, o'qimishli, dunyo ko'rgan kishilaridan edi. Uning tirikchiligi sarroflik (pul almashtiruvchi) va savdogarlik bilan kechgan. Kasbi taqozosi bilan atrof yurtlarga, hatto Turkiya, Eron, Qashqarga tez-tez borib-kelib turgan	8
5.	Fitratning onasi haqida ma'lumot...	Onasining ismi Bibijon (to'la nomi Nastarbibi, ayrim manbalarda Mustarbibi deb aytiladi) bo'lgan. Fitrat 1937-yilda «xalq dushmani» sifatida qamoqqa olinganida onasi hayot edi	8
6.	Abduraufning ukasi va singlisining ismi...	Abdurahmon, Mahbuba	8
7.	Fitrat qaysi bilim dargohlarida tahsil oladi?	Dastlab eski maktabda, keyin mashhur Mir Arab madrasasida o'qiydi	8, 11

8.	Abdurauf haj ziyoratiga borish uchun qaysi yillarda qanday mamlakatlarda safarda bo'ladi?	1904 – 1907-yillar oralig'ida Turkiya, Eron, Hindiston, Arabiston, Rusiya singari mamlakatlarda bo'ladi	8
9.	Abdurauf Fitrat bir necha hamshaharlari bilan qachon qayerda o'qiydi?	1909 – 1913-yillarda Istanbul (Turkiya)da «doru muallimin» – muallimlar gimnaziyasida tahsil oladi	8, 11
10.	Fitrat qaysi shaharlarda usuli – jadid maktablarini ochadi?	Shahrisabz va Karkida	8
11.	Fitrat qachon qaysi fiqraga sarkotib bo'lib saylandi?	Fitrat 1917-yil fevral inqilobidan keyin siyosiy harakatlarga yanada faolroq aralasha boshladi. Buxoro jadidlarining «Yosh buxoroliklar» fiqqasiga sarkotib bo'lib saylandi	8
12.	Fitratning Samarqanddagi publitsistika sohasidagi faoliyati haqida ma'lumot bering	Samarqandda chop etiladigan «Hurriyat» gazetasida o'zining o'tkir maqolalari bilan ketma-ket chiqishlar qildi. Fitrat 1917-yil apreldan – 1918-yil martigacha bu gazetaga bosh muharrir bo'ladi	8, 11

13.	1917-yil oktabrida Rusiyada bolsheviklar tomonidan amalga oshirilgan davlat to'ntarishini har kim har xil kayfiyatda qarshi oladi. Kimdir unga katta umid bog'lagan bo'lsa, ko'pchilik bo'lib o'tgan hodisaning asl ma'nosini anglolmay, taraddudda qolgandi. Fitrat bu hodisaga qanday baho berdi?	Fitrat bu hodisaga o'zining uzil-kesil bahosini shu kunning o'zidayoq ochiq e'lon qildi. «Hurriyat» gazetasining 1917-yil 7-noyabr sonida u: «Rusiyada yana bir balo bosh ko'tardi: bolshevik balosi!» – deb yozdi	8
14.	Fitrat qanday nomdagi turkum she'rlarida bolsheviklar bizning yurtimizga yanada ko'proq qayg'ular olib kelishini oldindan bashorat qilgan?	«Yurt qayg'usi» nomli turkum she'rlarida	8
15.	Sho'rolar 1917-yil 27-noyabrda tuzilgan Turkiston muxtoriyati qonuniy hukumatini qachon mahv etdilar?	Oradan uch oy ham o'tmay	8
16.	1918-yil bahorida Toshkentga chaqirib olingan Fitrat qanday ishlarga jalb qilindi?	Maktablarda, dorilfununda til va adabiyotdan saboqlar berdi	8
17.	Fitrat qachon Cho'lpon bilan uchrashdi?	1919-yilning boshida	8
18.	Fitrat qachon qayerda ilmiy-ma'rifiy jamiyat tashkil etadi?	1918-yilda Toshkentda «Chig'atoy gurungi» deb nomlangan jamiyat tashkil etadi	8
19.	«Chig'atoy gurungi» jamiyati necha yil faoliyat ko'rsatdi?	Bu jamiyat bor-yo'g'i uch yil faoliyat ko'rsatgan bo'lsa-da, yangi davr o'zbek madaniyati, gumanitar soha fanlarining shakllanishida beqiyos rol o'ynagandi	8

20.	Fitrat qachon kimning taklifi bilan Buxoroga qaytadi?	1920-yil oxirlari 1921-yil boshlarida Fitrat o'zining sadoqatli do'sti Fayzulla Xo'jayevning taklifi bilan Buxoroga qaytadi. Unga Buxoro hukumatining yirik lavozimlari ishonib topshiriladi	8, 11
21.	Fitrat va Fayzulla Xo'jayev tashabbusi bilan 70 nafar yoshlar qaysi shaharga o'qishga yuborildi?	Germani-yaga	11
22.	Buxoro jumhuriyatida turk (o'zbek) tilini davlat tili deb qachon e'lon qilindi?	1921-yil mart oyidan	8
23.	Buxoroda yana qanday o'zgarishlar bo'ldi?	Buxoro teatri ish boshlaydi, ilmiy jamiyatlar tuziladi	8
24.	Yosh, mustaqil jumhuriyatning yuqorida keltirilgan yutuqlaridan xavotirga tushgan bolsheviklar partiyasining «Buxoro masalasi» muhokamasida ma'lumot bering	Bolsheviklar partiyasining markazqo'mi 1923-yil 12-iyunda o'zining maxsus majlisida «Buxoro masalasi»ni muhokama qiladi. Mazkur majlisda «Buxoro hukumati» nomi ostida ish ko'rayotganlarning xalq va sovet hukumatiga hech bir aloqadorligi yo'q ekani, «bu yerda hokimiyatga boylar, savdogarlar tortilgani, birorta ham dehqon yo'qligi» qattiq tanqid qilinadi. Oradan 11 kun o'tgach – 23-iyunda Buxoroda bo'lgan plenumda Buxoro hukumatining besh a'zosi partiyadan o'chirilib, ishdan haydaladilar. Ular orasida Xalq xo'jaligi kengashi raisining o'rinbosari Abdurauf Fitrat ham bor edi	8

25.	Fitrat kimning ko'magi bilan Moskva va Leningradga ketadi? U yerda qanday ishlar bilan shug'ullandadi?	Fayzulla Xo'jayevning ko'magi bilan adib Moskvaga ketadi va 1923 – 1924-yillarda Sharq tillari institutida mehnat qiladi. Shuningdek, hozirgi Sankt-Peterburg universitetining Sharq fakultetida sharq xalqlari tili, adabiyoti, madaniyatidan ma'ruzalar o'qiydi. professorlik unvoniga ega bo'ladi	8, 11
26.	Fitrat O'zbekistonga qachon qaytib keladi va qayerda ishlaydi?	Adib O'zbekistonga 1927-yilda qaytib keladi. Samarqandda tashkil etilgan Oliy Pedagogika institutida (hozirgi Sam-DUda) ishlay boshlaydi	8
27.	1930-yillardan keyin ketma-ket uyushtiriladigan turli majlislarda Fitratga qanday ayblovlar taqaldi?	«Millatchi», «turkparast», «islomparast», hattoki «g'arbning josusi» degan	8
28.	Fitratga qo'yilgan eng so'nggi ayb...	Nemis, ingliz razvedkasi ayg'oqchisi	
29.	Fitrat qachon nohaq qamoqqa olindi?	1937-yil 24-aprelda	8, 11
30.	Fitrat qachon vafot etdi?	1938-yining 4-oktabrida otildi	8, 11
31.	Fitratni qatl etilishiga qachon sud hukmi chiqarildi?	1938-yining 5-oktabrida	8
32.	Qaysi olimlar Fitrat hayoti va ijodi to'g'risida o'nlab yangi tadqiqotlarni e'lon qildilar?	H.Boltaboyev, B.Qosimov, I.G'aniyev, B.Ergashev va boshqalar	8

33.	«Ma'naviyat» nashriyotida Fitratning qanday nomdagi to'plami chop etilgan?	2 jildlik «Tanlangan asarlar» to'plami	8
34.	Abdurauf Fitrat O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni bilan qanday mukofotlar bilan taqdirlangan?	Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofoti va «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni berilgan	8

Fitrat ijodi

35.	Fitrat qaysi tillarda ijod qilgan?	Ikki tilda: o'zbek va forstojik tillarida	L
36.	Fitratning taxallusi..	Mijmar (xushbo'y narsalar solib tutatiladigan cho'g'don)	
37.	Istanbulda Fitratning qaysi kitoblari chop etilgan?	1909-yilda «Munozara» nasriy asari, 1911 – 1912-yillarda «Hind sayyohi bayonoti» nasriy asari, «Sayha» («Chorlov») nomli she'riy to'plami	8, 11
38.	Fitratning dastlabki yirik asari qachon e'lon qilindi?	1909-yilda (Bu «Munozara» kitobi edi)	8
39.	«Munozara» kitobi qaysi tilda yaratilgan?	Fors tilida	8
40.	«Munozara» kitobining to'liq nomi...	«Hindistonda bir farangi ila buxorolik mudarrisning jadid maktablari xususida qilg'an munozarasi»	8
41.	1911 – 1912-yillarda yaratgan asarlari...	«Sayha» («Na'ra»), «Hind sayyohi qissasi» («Bayonoti sayyohi hindi»)	8

42.	Fitratning forsiy yilda yozilgan she'riy to'plami...	«Sayha» («Na'ra»)	8
43.	«Hind sayyohi qissasi» («Bayonoti sayyohi hindi») qanday shaklda yozilgan?	Nasriy yo'lda	8
44.	1923 – 1924-yillarda Fitrat qaysi asarlarini yaratdi?	«Abulfayzxon», «Bedil», «Qiyomat», «Shaytonning tangriga isyoni»	11
45.	Fitrat 1915 – 1916-yillarda publitsistika va adabiyotning turli janrlarida qanday asarlar yaratdi?	«Rahbari najot», «Oila», «Begijon», «Mavludi sharif», «Abo Muslim»	8
46.	Fitratning yangi maktablar uchun yaratgan darsliklari...	«Muxtasar islom tarixi» (1915-yil), «O'qu» (1917-yil)	8
47.	Fitratning dramatik asarlari...	«Abo Muslim» (1916), «Temur sag'anasi» (1918), «O'g'uzxon» (1919), «Chin sevis» (1920), «Hind ixtilochilari» (1921), «Abulfayzxon» (1924), «Shaytonning tangriga isyoni» (1924), «Arslon» (1926)	L, 8
48.	Fitrat yana qanday dramatik asarlar yaratgan?	«Begijon» (1916), «Mavludi sharif» (1916), «Qon» (1920), «Vose qo'zg'oloni» (1927), «Ro'zalar» (1930)	8
49.	Fitratning ilmiy asarlari...	«Bedil» ilmiy-ommabop ocherki, «Sharq shahmati», «O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi», «Fors shoiri Umar Xayyom», 1936-yilda yozilgan «Aruz haqida»gi kitobi	8
50.	Fitratning musiqashunoslik sohasiga doir asarlari...	«Shashmaqom», «O'zbek klassik musiqasi ham uning tarixi», «Sharq musiqasi»	11

51.	Fitratning yangi maktablar uchun yaratgan darsliklari...	«O'qu», «Muxtasar islom tarixi»	8
52.	Fitratning darslik-qo'llanmalari...	«O'zbek tili qoidalari to'g'risida bir tajriba: Sarf (1-kitob), Nahv (2-kitob)», «Sarfi zaboni tojik», «Adabiyot qoidalari»	8, 11
53.	Fitrat yaratgan o'quv qo'llanmalari...	«Eng eski turkiy adabiyot namunalari» (1927), «O'zbek adabiyoti namunalari» (1928)	L
54.	Fitratning Sh.Rahimiy va Q.Ramazon bilan hamkorlikda yaratgan darsligi...	«Ona tili»	L
55.	Fitratning diniy-ma'rifiy mavzudagi asarlari...	«Rahbari najot», «Oila»	L
56.	Fitratning tarixiy mavzudagi asarlari...	«Amir Olimxonning hukmronlik davri», «Muxtasar islom tarixi»	L
57.	Abdurauf Fitrat XI asarda yaratilgan qaysi asarni ilm-fan ahliga tanishtirgan?	«Qutadg'u bilig» dostonining Namangan nusxasini	8
58.	«Aruz haqida»gi kitobini qachon e'lon qildi?	1936-yilda	8
59.	Fitratning qaysi she'rlarida yurt ozodligi, bosqinchilarga nafrat tuyg'ulari aks etgan?	«Yurt qayg'usi», «Mirrix yulduziga», «Sharq», «Shoir» va boshqa she'rlarida	L
60.	Fitratning qaysi asarlarida milliy qoloqlik, fanatizm qoralanadi?	«Munozara», «Sayyohi hindi» asarlarida	L
61.	Fitratning qaysi asari o'zbek fantastik adabiyotining yaxshi namunasi hisoblanadi?	«Qiyomat» hikoyasi	L

«Mirrix yulduziga» she'ri

62.	«Mirrix yulduziga» she'ri qachon yozilgan?	1920-yilda	8
63.	Bunchalik dard va fig'onga to'la she'r yozilishiga o'sha yillari qanday voqealar sabab bo'lgan?	1917-yil oktabrida Toshkentda hokimiyat sho'rolar (sovetlar) qo'lga o'tdi. 1920-yilga borib Buxoroda ham amir saltanati zo'rlik bilan bostirildi. Qizil qo'mondon M.V.Frunze boshchiligidagi qo'shin qadimiy shaharni shafqatsizlar-cha to'pga tutadi. Xuddi shu janglarda Turkiston o'lkasi tarixida ilk marotaba aeroplanlar – ibtidoiy samolyotlar yordamida shaharga bombalar yog'diriladi. Shahar xalqi vahshiyona qiriladi. Qadim Buxoroning ming yillik obidalari yer bilan yakson qilinadi. Bundan sal oldin – 1918-yilning fevralida sho'ro hukumatining yolg'on va'dalariga ishonib, Qo'qon shahrida tuzilgan Turkiston muxtoriyati va vodiyning o'n minglab fuqarosi qonga botirilgandi. Toshkent, Samarqand, Andijon, Farg'onada hali u, hali bu bahona bilan tinch aholi qirg'inbarot qilinar, milliy rahbarlarga turli ig'volar uyushtirilardi. Turkistonda bo'layotgan xunrezliklar adibning achchiq xulosalar chiqarishiga yetarli sabab edi	8
64.	She'rdan lirik qahramon kim?	Shoirning o'zi, yani Fitrat	8
65.	Lirik qahramon nima uchun Marsga murojaat qilyapti?	Jafokash vatan vujudida joylashib olib, qonini zulukdayin so'rgan kimsalar kirdikorlaridan ozorlangan lirik qahramon xayolan Mirrix yulduziga murojaat etadi.	

		Mirrix – Mars sayyorasi Shamsiy (Quyosh) yil hisobida Hamal (Mart) oyining homiy sayyorasi hisoblanadi. Bu oyning unsuri – xos belgisi – olovdir. Xalqimiz 21 martdan boshlanadigan oyni (Navro'zni) olqishlab: «Hamal keldi – amal keldi», – deydi. Shoir xuddi shunga ishora qilib, Mirrix yulduzini «yerimizning eng qadrlı tuqq'ani» – qarindoshi deb ataydi. Fitratning aynan Mars – Mirrix yulduziga murojaat qilishining yana bir ilmiy-mantiqiy sababi bor. Mars – Mirrix yulduzi boshqa bir mifologik qarashlarga ko'ra, jang-u jadal ramzi, yunonlarda urush xudosi hisoblanadi	8
66.	Shoir murojaatiga Mirrix yulduzi qanday javob beradi?	Afsuski, «yerimizning eng qadrlı tuqq'ani» – qarindoshi – go'zal Mirrix ham bu holdan lol qotgan – sira gapirmaydi, gapirolmaydi. Tabiatan o't-olovga qiyos beriladigan shu yulduz ham yer yuzida bo'layotgan adolatsizliklardan bezib uzoqlarga qochgan	8
67.	She'rda shoir o'z o'lkasida bo'lib o'tayotgan xunrezliklar ko'lamini urg'ulab ifodalamoq uchun uni qanday hodisalarga qiyoslaydi?	Jang-u jadallar makoni – Mirrix (qanday qizil sayyora!) bag'ridagi hodisalarga qiyoslaydi?	8
68.	«Mirrix yulduziga» she'rini yozib, Fitrat o'zini qanday xavf-xatarga qo'ygan?	1920-yilda sho'rolar har qanday qarshilikni shafqatsizlarcha bostirayotgan bir paytda «Mirrix yulduziga»dek	

	o'tli she'rlarni yozish ijodkordan juda katta qahramonlikni, jasurlikni talab etar edi. Bunday misralar bilan omma oldiga chiqish – o'z boshini kundaga tutib berish bilan barobar edi. Buni yaxshi his qilgan Fitrat xavf-xatardan qo'rqib o'tirmadi	8
--	---	---

«O'git» she'ri

69.	«Mirrix yulduziga» she'ri-ning mantiqiy davomi...	«O'git» she'ri	8
70.	Fitrat «O'git» she'rida o'zi va millati dardlariga najotni topganday bo'ladi. Shoir o'ylagan najotkor kim?	Bu najot – xalqning og'ir-vazmin, mulohazakor, biroq ko'zlari yoniq farzandlari – yigitlaridir! Bu yigitlarning nurli ko'zlarida shoir millatning ertangi kunini, baxt-u iqbolini ko'radi	8
71.	Oradan yillar o'tib, o'zbekning boshqa bir iste'dodli shoiri ushbu misralar bilan boshlanuvchi she'rni yozadi: «Yigit omon bo'lsa, xavf-u xatar yo'q...» Ushbu she'rning nomi va muallifi...	G'afur G'ulomning «Yigitlarga» she'ri	8
72.	«O'gut» she'rining zamirida qanday ma'no mujassam?	«Chaqiruv», «da'vat», «uyg'otish»	8
73.	«O'git» she'ridagi murojaat kimga qaratilgan?	Og'ir yigitga	8
74.	«Mirrix yulduziga» va «O'git» she'rlari qanday mavzudagi she'r?	Ijtimoiy-siyosiy mavzudagi	8

«Go'zalim, bevafo gulistonim...»

75.	«Go'zalim, bevafo gulistonim...» qanday mavzudagi she'r?	Ishqiy mavzudagi	8
76.	She'r qanday vaznda yozilgan?	Barmoq vaznida	8
77.	She'rda qanday badiiy san'atlardan foydalanilgan?	O'xshatish, jonlantirish, istiora, qochirim kabi	8

Quyidagi misralar qaysi she'rlardan olingan?

78.	«Bormi senda bizim kabi insonlar, Ikki yuzli ishbuzarlar, shaytonlar. O'rtoq qonin qonmay ichkan zuluklar, Qardosh etin to'yamay yegan qoplonlar»	«Mirrix yulduziga»	8
79.	«Orqadoshlar to'planaylik jahlning uyin yiqqali, El ko'zin olgan qorong'u pardalarni yirtqali. Biz erurmiz ma'rifat arslonlari, ilm erlari, To'planaylik turk eliga to'g'ri yo'llar ochqali»	«O'qituvchilar yurtiga»	L
80.	«Qizil gulim, borlig'imning sultoni... Nechun menga marhamating ozaydi?... Yovuz yorim yuzingga hech boqolmam... Ko'rganingda marhamat et, bir oz kul»	«Bir oz kul!»	L
81.	«Og'ir yigit, sening go'zal, nurli ko'zingda Bu millatning saodatin baxtin o'qidim»	«O'git»	8

82.	«Go'zalim, bevafo gulistonim, Bog'i umrimda toza rayhonim, G'am-u qayg'ularim hujumindan Sen eding mehribon nigahbonim»	«Go'zalim, bevafo gulistonim...»	8
83.	«Bormi senda butun dunyo tuzugin O'z qopchig'in to'ldirg'ali buzg'anlar. Bormi senda bir o'lkani yondirib, O'z qozonin qaytatg'uchi xoqonlar. Bormi senda qorin-qursoq yo'lida Elin, yurtin, borin-yo'g'in sotqonlar?»	«Mirrix yulduziga»	8
84.	«Turma – yugur, tinma – tirish, bukilma – yuksal, Hurkma – kirish, qo'rqma – yopish, yorilma – qo'zg'al!»	«O'git»	8
85.	«Meni behuda tashlading-ketding, Nega o'ldirmading-da, tark etding»	«Go'zalim, bevafo gulistonim...»	8
86.	«Yel yo'lini to'sib turgan eski bulutlarni Yondirib qo'y, yirtib tashla, barchasini yo'q et. Qilolmasang shu ishlarni, Sening uchun xo'rlikdir bu... Yiqil, yo'qol, ket!»	«O'git»	8
87.	«Ellari mahvdan qutqargan ilm erur, Bizlari ham bu kundan o'zi qutqarur»	«O'qituvchilar yurtiga»	L

Quyidagi so'zlarni izohlang

88.	sening dag'i	sening ham	8
89.	o'ksuz	baxtsiz	8
90.	chog'ir	sharob, may	8
91.	tuzuk	nizom, tartib, yashash tarzi	8
92.	yo'rilma	charchama, o'tirma	8

«Abulfayzxon» fojiasi

93.	Abulfayzxon haqida ma'lumot bering	Abulfayzxon Buxoroda hukmronlik qilgan Ashtarxoniylar sulolasining so'nggi vakili. U 1747-yil vaziri Rahimbiy otaliq fitnasi tufayli butun oila a'zolari bilan yo'q qilib yuborilgan. Shundan so'ng Buxoro taxtiga yangi sulola – Mang'it amirlari kelgan. Shu vaqtdan e'tiboran Buxoro xonligi «Buxoro amirligi» deb yuritila boshlagan	11
94.	Dramaning ikkinchi nomi...	Yo'qsil o'lkasining tarixidan besh pardali fojia	11
95.	«Abulfayzxon» dramasi qachon yozilgan?	1924-yilda	11
96.	Buxorodagi o'zbek xonlarining so'nggisi...	Abulfayzxon	11
97.	Xonning xo'jasaroyi (haram boshlig'i)...	Ulfat	11
98.	To'qsabo, xonning yaqin xizmatchilaridan...	Davlat	11
99.	Buxoroning qozikaloni...	Qozi Nizom	11
100.	Xonning inog'i, so'ngra otalig'i...	Hakimbiy	11
101.	So'ngra to'qsabo, so'ngra otaliq, Hakimbiyning o'g'li...	Rahim qurchi	11
102.	Rahimxonning hukmronlik tarixiga bag'ishlangan «Tuhfayi xoniy» asarining muallifi, Hakimbiyning odami...	Mir Vafo	11
103.	Hakimbiyning ukasi...	Doniyolbiy	11
104.	Xonning otalig'i...	Ibrohim inoq	11
105.	Mang'it beklaridan biri...	Tog'ayqulbek	11
106.	Mashhur xo'jalardan biri...	Xo'ja Kalon	11

107.	Buxoroning katta mullasi...	Oxund	11
108.	Mashhur Eron shohi...	Nodirshoh	11
109.	Nodirshohning o'g'li...	Rizoqulixon	
110.	Shohning bosh kotibi...	Mirzo Mahdiy	11
111.	Eronning qo'shin boshliqlari...	Aliqulixon, Husaynixon Ahmadxon	11
112.	Abulfayzxonning o'g'li...	Abdumo'minxon	11
113.	Qalandar kiyimli tilchilar, Hakimbiyning odamlari...	Yo'ldosh, Ergash	11
114.	Boshqa qatnashuvchilar...	Qorovullar, xizmatchilar, jallodlar, cholg'uvchilar	11

Quyidagi qahramonlarning yoshini aniqlang

115.	Abulfayzxon	40 – 50 yoshlarida	11
116.	Ulfat	40 – 50 yoshlarida	11
117.	Qozi Nizom	50 – 60 yoshlarida	11
118.	Hakimbiy	50 – 60 yoshlarida	11
119.	Rahim qurchi	30 – 40 yoshlarida	11
120.	Mir Vafo	50 – 60 yoshlarida	11
121.	Doniyolbiy	40 – 50 yoshlarida	11
122.	Ibrohim inoq	60 – 70 yoshlarida	11
123.	Abdumo'minxon	15 yosh	11
124.	Birinci parda bilan ikkinchi parda orasida necha yil o'tgan	7 yil	11
125.	Ikkinchi, uchinchi pardalar bilan to'rtinchi, beshinchi pardalar orasida necha yil o'tgan?	Bir yil	11

I parda

126.	Kimlar shaxmat o'ynayotgan edi?	Mir Vafo va Qozi Nizom	11
127.	«Shu kecha tushimda xoqonimizni ko'rdim, bo'z bir otga mingan, qo'llarida qilich, yiroqlarga qarab turg'anlar edi». Shu tushni qaysi qahramon ko'rganligini aytadi?	Mir Vafo	11
128.	Shaxmat musobqasida kim g'olib chiqdi?	Mir Vafo	11
129.	«Nodirshoh tomonidan yuborilgan Eron qo'shinining Qarshidan qaytishi uchun sizgina emas, Hakimbiy inoq ham ko'p tirishadilar. Otaliq shuni ko'rmak istamaydur chog'i». Abulfayzxonning buyrug'iga ko'ra kelgan Qozi Nizomning ushbu gapiga Farhod Otaliq qanday javob berdi?	«Eronning yangi to'p, miltiqlar bilan yaroqlangan qo'shini bizning qo'shinimizni buza olg'an bo'lsa ham o'zbekning botirlig'ini bilgani uchun hurkib turar edi. Bizga yordam uchun Xiva qo'shinining ham Buxoroga kelganini eshitgach, butun qo'rqdi, ustalik bilan urushni yotqizdi-da, qaytib ketdi. Bu ishda menim-da, Hakimbiy inoqning-da ayricha xizmatimiz Xiva qo'shini Buxorog'a kelgancha urushni uzatib turmoq bo'ldi»	11
130.	Xondan yashiringina Nodirshohga elchilar yuborib, xabarlashib turgan qahramon...	Hakimbiy inoq	11

131.	Qozi Nizomning: «Molimizni, jonimizni xoqoni olamning muborak oyoqlarida qurbon qilmoq hammamizg'a lozimdir. Shuni qilmag'anda, sultonimizning chin qullari bo'la olmaymiz. Siz shuncha kundan beri bittagina qizingizni tortiq qilmay turasiz?» – degan savoliga Farhod otaliq qanday javob berdi?	«Xonga yaxshi ko'rinmak uchun qiz qurbon qilg'uchilar ko'b, shularning qizlarini oldira beringiz»	11
132.	Farhod Otaliq bilan Abulfayzxonning murosasi nima uchun kelishmay qoldi?	Farhod otaliq haq gapni gapirgani va qizini Abulfayzxonga berishni istamagani uchun	11
133.	«Xoqoni olam! Otaliq eski bir qulingizdir. Kichkinagina bir erkalik qilg'oni uchun uni o'ldirmoq nechun bo'lar ekan?» – degan qahramon...	Qozi Nizom	11
134.	Farhod otaliqni «xitoy qipchoqning boshlig'i», – deb kim aytdi?	Abulfayzxon	11
135.	Abulfayzxonning topshirig'iga ko'ra Farhod otaliqning boshini kim kesib keltirdi?	Ulfat (xonning buyrug'iga ko'ra otaliqning boshini Childuxtaron qudug'iga tashladilar)	
136.	Otaliq vazifasiga Mir Vafo kimlarni tavsiya etdi?	Mang'itlardan Hakimbiy inoq, qalmoqlardan Jiy-anqulibiy, kenagaslardan Ibrohimbiyni	11
137.	Qo'rchi qanday lavozim?	Qo'rxona (qurol-aslaha yoki qimmatbaho narsalar saqlanadigan ombor) egasi, xon saroyidagi lavozimlardan, xazinador	11
138.	Abulfayzxonning otasi sotib olgan qullar kimlar?	Ulfat bilan Davlat	11

139.	Abulfayzxon qaysi odamlari haqida: «Shular kabi o'nta odamim bo'lsa edi, Buxoroni tinchg'ina saqlar edim. Ishning yo'llarini bilalar, teran tushunalar. Yomonlik, yog'iylikni esa sira o'ylamaylar», – deydi?	Ulfat bilan Davlat haqida	11
140.	Ibrohimbiy otaliq vazifasini olmaslikka qanday sabab ko'rsatdi?	«Farhod otaliq kabi o'tkir bir odamning bajara olmag'ani bir ishni men qanday bajararman?! . Shul Ulfat bilan Davlatni rozi qilmasam, siz quvonmaysiz, bu ikkisini rozi qilmoqda mumkin emasdir... Devona emas to'g'riman, to'g'rilikning devonalikdan yomonroq natijalar berganini bilaman. Yana to'g'rilikdan ayrila olmayman, xoqonim! Shu ikki odam bo'lmaganda, siz Farhod otaliqni yo'q qilmoq fikriga tushmas edingiz... Buyrug'ingizni qaytarmoq qo'limdan kelmaydir. Biroq bir kun menim ham o'limimg'a hukm chiqararsiz, xoqonim!»	11
141.	Farhod otaliq o'rniga kimni otaliq vazifasiga tayinlashdi?	Ibrohimbiyni	11
142.	Rahim qurchiga qanday mansab berildi?	To'qsabolik mansabi	11
143.	«Podshohliq qon bilan sug'orilaturg'on bir og'ochdir. Qon oqib turmag'on yerda bu og'ochning qurib qolishi aniqdir» Ushbu fikrlar qaysi qahramon nutqidan olingan?	Ulfatning	11
144.	Abulfayzxonni kim bir ota kabi asragan edi?	Farhod otaliq	11
145.	Abulfayzxon Ulfatga Farhod otaliqning qizini qachonga olib kelishini tayinladi?	Ertasi kuniga	11

146.	Birinchi parda oxirida xon uyqudan oldin qaysi kuyni eshitdi?	«Husayniy»ni	11
147.	Abulfayzxonning akasini kim o'ldirgan?	Akasining qotili – Abulfayzxonning o'zi	11

IV parda

148.	Abulfayzxonni kim taxtdan ag'darib, bir hujraga qamab qo'ydi?	Rahimbiy	11
149.	Abulbayzxon qamoqdaligida unga kim xizmat qildi?	Qurbongul	11
150.	Abulfayzxon Karmina begi va uning oilasiga qanday jazo bergan edi?	Karmina begini bola-chaqalari bilan tutib keltirib qamadi. So'ngra bitta-bitta hammasini bo'g'dirib, quduqqa tashlatdi	11
151.	«Tunov kun podsho bibiyim ulug' eshong'a ko'p pul yuborib, siz uchun duolar oldilar», – deb Abulayzxonga kim aytdi?	Qurbongul	11
152.	Xon quyidagi gaplarni kimga aytdi? «Otangiz menga otaliq edi. Bobongiz, meni taxtga o'tqizib, otaliq bo'ldi. O'zingiz Erondan kelgach, bot otaliq qildim. Butun hukumat ishlarini sizga topshirdim»	Rahimbiyga	11
153.	Abulfayzxonni taxtdan tushishiga Rahimbiy qanday sabab ko'rsatdi?	«Siz Buxoroni idora qilarlik darajada kuch ko'rsata olmadingiz. Davlatimizning buyuk-buyuk teraklarini o'z qo'lingiz bilan yiqita berdingiz, butun ishni menga emas, bir ahmoq mug'ambir bo'lgan Ulfatga topshirdingiz»	11

154.	Rahimbiy Erondan qo'shin olib kelganini qanday izohladi?	«Kattaqo'rg'ondan chiqqan Ibodullabek fitnasini bostirmoq uchun», – deya	11
155.	Qamalgan Abulfayzxon o'g'illarini kuzatganidan so'ng tashqarida qanday kuy chalinganini eshitdi?	Ikki g'ijjakning «Bebokcha» kuylagani eshitildi (<i>Bebokcha</i> so'zining lug'aviy ma'nosi: sho'x, shaddod. Bu yerda maqomda ufor usulida aytiladigan mashhur xalq qo'shiqlaridan biri. Navoiyning «Chashmi ohularmidir», Zebunisoning «Nashud» g'azallari shu usulda qo'shiq qilib aytilgan. Shu qo'shiqlarning kuyi nazarda tutiladi)	11
156.	Eron podshohi Nodirshoh o'lganligini Abulfayzxon kimdan eshitdi?	Ulfatdan (U Abulfayzxon o'tirgan uyning devorini teshib kiradi)	11
157.	Ulfat qayerda yashirib yurgan edi?	Nodirshoh qo'shini orasida edi	11
158.	Ulfat nega devorni teshib kirdi?	Maqsadi Abulfayzxonni olib qochib qutqarish, Eronga olib ketib, kuch yig'ib qaytib yana Rahimbiy bilan urushish edi	11
159.	Abulfayzxon qochib ketdimi?	Qochishga ulgurolmay qoldi va jallodlar qo'lida jon berdi	11
160.	Ulfat teshikdan qaytib kirdi va nima ish qildi?	Ulfat qo'lida katta bir pichoq bilan teshikdan chiqib sekingina jallodboshiga yaqinlashib pichoqni suqib yubordi va ikkinchi jallodga hujum qildi. U qichqirib qochdi. Ulfat xonning o'ligi ustiga kelib: «Yuraksiz	

	xon, qochmadi, o'ldi. Muhrni olay. Yo'lda kerak bo'lur», – deya muhrni olib, yugurib teshikka borib yo'qoldi	11
--	--	----

V parda

161.	Beshinchi pardada Chil dux-taron zindonida kimlarning o'liklari osilgan, o'tqizib bo'g'dirilgan, qonga bo'yalib yotgan bir holda turar edi?	Ulfat xo'jasaroy, Davlat to'qsabo bilan yana ikki-uch bekning	11
162.	Abulfayzxon va uning odamlarini kim o'ldirishga buyruq beradi?	Rahimbiy	11
163.	Rahimbiy kimni «Chumchuq kabi bir kichkina xon» deydi?	Abdumo'minxonni	11
164.	Eron shohi Nodirshoh bilan xufyona aloqa o'rnatgan qahramon...	Hakimbiy	11
165.	Nodirshohning oldiga borib uning qo'shinini keltirgan qahramon...	Rahimbiy	11
166.	Ko'zlari ko'r bo'lib qolgan qahramon...	Ibrohimbiy	11
167.	Rahimbiy bilan kimning fikrlari bir-biriga to'g'ri kelmadi?	Ibrohimbiyning	11
168.	Yo'ldoshning so'zicha, beklar Rahimbiyni xon bo'lishiga noloqi ekanligini aytishdi. Beklar qanday sabab ko'rsatishdi?	Chingiz avlodidan bo'lmagan kishi xon bo'la olmasligini aytishdi	11

Rahimbiyning quyidagi savollariga Oxund qanday javob berdi?

169.	«Shul to'rt-besh kunlik janjalimizda Abulfayzxon bilan yana bir necha kishi o'ldilar. Bularning o'limiga men sabab bo'ldim. Shuning shariatda hukmi nima bo'lsa?»	«Taqsir, «bolvoyi om»da o'lganlarning qotili hech kim bo'lmaydir. Ular bolvoyi omga sabab bo'ldilar, shariatning hukmi shudir (bolvoyi om – balo-qazolarning birdan ommaviy yopirilib kelishi)	11
170.	«Bizning oramizda bir so'z bor: Chingizxon avlodidan bo'lmag'an kishi xon bo'la olmaydir, deyilar. Bu to'g'rida shariatning hukmi nima bo'lsa?»	«Shariatda bunday bir narsa yo'qdir. Kimning qo'lidan ish kelsa, shul xon bo'la beradir»	11

Ibrohimbiy nutqidan olingan ushbu parchalardagi tushirilgan so'zlarni aniqlang

171.	«Bu taxt sizning ... yuqmagusidir»	Bolalaringizga	11
172.	«Rahmatlik Rajabxon bilan birlashib, Abulfayzxon'ga qashi urushg'onimizda, shunday kengashgan edikim: Buxorog'a borib kirsak, butun ... ni bir madrasaga solib, o't qo'yamiz-da, hammasini yondiramiz. Elimizni buzib, rasvo qilg'on shunlar. Bunlar diningizni tuzatamiz, deb dunyomizni murdor qildilar»	Mullolar	11

173.	«Men shariat-mariatni bilmayman. Ishingizni to'g'rilamoqchi bo'lsangiz ... chaqirasiz»	Qurultoy	11
174.	«Abulfayzxonning oldig'a kelib: «Bu kecha tushimda payg'ambarni ko'rdim, sizni so'rab yubordilar», – deb chopon kiyganingizni unutdingizmi? Tuna kun sizga chopon bergan soyayi xudoning o'limiga bu kun fatvo berasiz, hech uyolmay-sizmi? Tushingizda Abulfayzxonni so'rag'on payg'ambar, yana bir yo'la tushingizga kirib, uni so'rasalar, nima deysiz?» Ibrohimbiyning nutqi kimga qaratilgan?	Qozi Nizomga	11
175.	Rahimbiy: «O'taliqni siz qo'noq (mehmon) qilingiz. Bu kishiga yaxshi qarashib, hurmat ko'rsatingiz», – deb Ibrohimbiyni olib ketishni kimga tayinladi?	Doniyolbiyga	11
176.	Abulfayzxonning o'g'li 15 yoshlik Abdumo'minxonni kim qay holatda o'ldiradi?	Rahimbiy sharbatga zahar qo'shib berib o'ldirdi?	11
177.	Abdumo'minxon o'limidan oldin Rahimbiy unga qanday ishlarni bajarish lozimligini uqtirdi?	«Eron sardorlari yurtlarig'a qaytar ekanlar. Sizni ko'rib, fotiha olarlar. Siz taxtga chiqib o'tiringiz. Eron sardorlari kelganda: «Nechun ketasiz, bizning Buxoroda qolsangiz bo'lmasmi?!» – deb so'rang. Ular: «Yo'q, ketamiz», – deyilar. So'ngra bularga yigirma ming tangadan pul berilsin, deb menga buyuringiz... Erta Qozi Nizomga mirasadlik o'rnini bersangiz bo'lurmi?»	11

178.	Mirasad so'zini izohlang	«Mira» xoja, boshliq, katta ma'nolarini beradi, «sad» esa yuz raqamini anglatadi. Bu mansab saroydagi yuz-boshilikka yaqin mansablardan biri	11
179.	Husaynixon, Ahmadxonlar qayerlik?	Eronlik sardorlar	11
180.	«Ota pichog'i bilan bolalarini bo'g'uzladang. Bola xanjari bilan otalarni yiqitding. Do'stlarni bo'g'ushtirding... Tinchlik saqlamoq bahonasi bilan millionlarcha insonni chuqurdan-chuqurg'a yumalatmog'ingning zamoni hanuzgacha bitmadimi?!» Rahimbiy oldiga kafan kiygan holda 20 yashar eronlik bir aft – bir xayol chiqadi, taxtga qarab yuqoridagi so'zlarni aytadi. Rahimbiyning ko'ziga ko'ringan arvoh kim?	Siyovushning arvohi	11
181.	«Abulfayzxon» dramasi qanday bir mudhish ta'kid asosiga qurilgan?	Ulfat tomonidan aytilgan: «Podshohlik – qon bilan sug'orilaturg'on bir og'ochdir» degan ta'kid	11
182.	Asarning bosh g'oyasi...	Zulm asosiga qurilgan tuzumning oxir-oqibat inqirozga yuz tutishi	11
183.	Abulfayzxon bilan birlashmagan, o'z yurtini dushmanga emin-erkin topshirgan bir kimsa...	Hakimbiy	11
184.	Asarning uchinchi pardasi qanday boshlandi?	Nodirshoh va o'g'li Rizoqulixon suhbatini bilan boshlanadi. Nodirshoh: «Har o'lkani urushib olmoq siyosat emas. Urush choralarning eng so'nggisi. Bir o'lkani olmoq uchun eng yaxshi chora – shul o'lkaning o'zida do'stlar topmoq, shularni ishlatmakdir», – deya Hakimbiy va	

	uning o'g'li Rahimbiyga ishora qiladi. Chunki Hakimbiy Nodirshohdan o'g'lini taxtga o'tqizish va'dasini olib ulgurgan edi	11
185.	Asarda zamon ahvolidan oshkora norozi, yurt tinchligi uchun kuyingan kishilar qaysi obraz orqali tasvirlangan?	Ibrohimbiy 11
186.	Haqiqat tarafida turib xalq dardini, manfaatini ko'zlaydigan qahramon...	Ibrohimbiy 11
187.	Fitrat qalamga olgan asardagi asosiy hayotiy hodisa...	XVIII asrda Buxoroda hukm surgan ashtarxoniyalar sulolasi tugab, ular o'rniga mang'it amirlarining kelish hodisalari 11

Quyidagi parchalar asardagi qaysi qahramonlar nutqidan olingan?

188.	«Jiyanim, men Abulfayzxon bilan urushdim, chunki haqsizlik qilg'an edi. Siz bu kun undan ortiq haqsizlik qila turibsiz. Ko'zim bo'lsa edi, ertadan boshlab, siz bilan ham urushar edim. Nima qilaykim, ko'zim yo'q. Hay, siz-ku Buxoro taxtini olarsiz, Abdulmo'minni o'ldirarsiz. Balkim, meni ham o'ldirarsiz. Biroq shuni bilib qo'yingizkim, bu taxt sizning bolalaringizg'a yuqmag'usidir»	Ibrohimbiy obrazi nutqidan olingan	11
189.	«Sen fazilatli bilimlarning qo'l, qanotlarini uzib tashlading. Inju tizg'uchi adiblarning qalamlarini o'choq supurgisiga aylantirding. Ota pichog'i bilan bolalarni bo'g'izlading, bola pichog'i bilan otalarni yiqitding...»	Xayol (Siyovush) obrazi	11

Quyidagi so'zlarni izohlang

190.	jaldū	mukofot	11
191.	taxta	shaxmat nazarda tutilgan (taxta o'ynab o'tirishibdi)	11
192.	kat	so'ri, karavot	11
193.	yotish	xon saroyining tunashga kelgan mehmonlar uchun ajratilgan qismi	11
194.	qo'rchi	qo'rxona (qurol-aslaha yoki qimmatbaho narsalar saqlanadigan ombor) egasi, xon saroyidagi lavozimlardan, xazinador	11
195.	daf	chertib chalinadigan, yog'och gardishga xom teri tortilgan musiqa asbobi	11
196.	to'qsoba	aslida <i>to'qsabo</i> , O'rta Osiyo xonlik va amirliklarida oliy harbiy unvon va shu mansabga ega bo'lgan shaxs	11
197.	o'rtuk	parda	11
198.	tara	tahorat so'zining qisqa shakli	11
199.	toshnov	uyning bir burchiga suv ketadigan qilib qo'yiladi, buni «avraz» ham deyiladi	11
200.	mug'ambil	<i>mug'ambir</i> so'zining buzilgan shakli	11
201.	umuz	aslida <i>o'miz</i> , yelkaning qo'l bilan tutashgan qismi	11
202.	murdor	nopok, harom, o'limtik	11
203.	ismat	nomus, iffat, poklik	11
204.	ishtiholiq hayvonlar	yirtqich hayvonlar	11
205.	ko'ma	to'plam, uyum	11

HAMZA HAKIMZODA NIYOZIY (1889 – 1929)

1.	Shoir, nosir, daramaturg, jamoat arbobi, ko'plab yangi maktablar tashkilotchisi...		Hamza Hakimzoda Niyoziy	L
2.	Hamzaning she'riy kitoblari...	«Devon», «Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar»		L
3.	«Millatim nasli bashardur, Vatanim kurrayi arz, Ikkisin xizmati farzdur, ikkisindin jon qarz» misralari muallifi...		Hamza	7
4.	O'n yoshida «o'zbekcha, forschada tom savodli» bo'lgan ijodkor...		Hamza	7
5.	Sho'ro adabiyotshunosligi uzoq yillar davomida qaysi shoirning shaxsi va ijodini bir yoqlama talqin etdi, uni «sotsialistik realizm metodining o'zbek adabiyotidagi asoschisi» degan yasama sifatlar bilan «bezab» keldi?		Hamza Hakimzoda Niyoziyning	
6.	Hamza Hakimzoda Niyoziy yashagan yillar...		1889 – 1929	7
7.	Hamza qachon qayerda tavallud topdi?	Hamza Hakimzoda Niyoziy 1889-yilning 6-mart kuni Qo'qon shahrida tug'ildi		7
8.	Hamzaning otasi haqida ma'lumot bering	Hamzaning ta'biri bilan aytganda, «Buxoroga borib xalq do'qtiri bo'lib qaytgan»		7
9.	Hamza nima uchun o'z taxallusiga Hakimzoda nomini qo'shgan?	Uning otasi Yamin Xolboy o'g'li (o'zbekcha va forschadan savodli edi) mashhur tabib bo'lgan. Shu sabab shoir o'z		7

		taxallusiga Hakimzoda nomini qo'shgan	
10.	Onasining ismi...	Jahonbibi (tabobatdan yaxshi xabardor ayol bo'lgan)	
11.	Hamza qanday ilm dargohlarida ta'lim oldi?	10 yoshidan Qo'qondagi madrasalardan birida, 1908-yilda Namanganda o'qiydi, o'sha paytda urf bo'la boshlagan rus-tuzem maktabida rus tilini o'rganishga harakat qildi	7
12.	Hamza necha yoshidan madrasada o'qiydi?	O'n yoshidan Qo'qondagi madrasada o'qiydi	7
13.	Hamza qaysi yillardan she'rlar yoza boshlaydi	1899-1900-yillardan	
14.	Badiiy ijod sohasidagi uning dastlabki ustози...	Tatar maorifchisi Abdulla To'qmullin	7
15.	Abdulla To'qmullin bilan qayerda tanishadi?	Namanganda	7
16.	Namanganda Hamzaning tashabbusi bilan qanday kurs ochiladi?	Arab tili kursi	7
17.	Iqtidorli Hamza necha oyda arab tilini o'zlashtiradi?	Uch oy ichida (otasiga arabcha xatlar yoza boshlaydi)	7
18.	1907-yilda hajga ketayotgan otasini kuzatib Qashqargacha borgan Hamza jadidlarning qaysi gazetalari bilan ilk bor tanishadi?	«Vaqt», «Bog'cha-saroy»	7
19.	Mutaxassislarning fikricha, birinchi bo'lib sahna asari yaratgan ijodkor?	Hamza (1908-yilda)	7
20.	Hamza yana qaysi janrlarda birinchi bo'lib qalam tebratgan?	Roman va operada	7
21.	Hamza dramaturgiyaning qaysi janri asoschisi sifatida ham e'tirof etiladi?	O'zbek komediya-sining	L

22.	Hamzaning musiqa san'ati va teatrdagi faoliyati haqida ma'lumot bering	Bir qancha kuylarni notaga solgan, qo'shiqlarni o'rniga qo'yib kuylagan, ko'plab milliy va Ovro'po musiqa asboblari mahorat bilan chala olgan, o'zi yozgan qator pyesalarga rejissorlik qilgan, ularda asosiy rollarni o'ynagan	7
23.	1909-yilda Hamza qayerga borib yashadi?	Buxoroga	7
24.	Hamzaning 1910-yildagi ma'rifatchilik faoliyati haqida ma'lumot bering	1910-yilda Toshkentga kelgan Hamza ma'rifatchilik faoliyatini boshlaydi. Bu yerda Munavvarqori Abdurashidxon o'g'li boshchiligidagi jadidlar – yangilik tarafdorlari safiga qo'shiladi. Shaharning Qashqar mahallasida usuli jadid (yangi usulda o'qitadigan) maktabini tashkil qiladi	
25.	Yangi usuldagi maktabni 1911-yilda qayerda ochganida, hukmron chor ma'murlari tomonidan yopiladi?	Qo'qonda	
26.	1912-yilda Hamza haj safari davomida qaysi o'lkalarda bo'ladi?	Afg'oniston, Hindiston, Turkiya, Saudiya, Rossiya	7
27.	Hamza Istanbulda o'qish uchun to'xtaydi, lekin nima sababdan uyiga qaytishga majbur bo'ladi?	Oilaviy sharoit taqozosiga ko'ra	7
28.	Haj safaridan qaytgach Hamza yana qaysi shaharlarda yangi usuldagi maktab ochadi?	Marg'ilon va Qo'qon shahrida. Bu shaharlarda ochgan maktablari yana tazyiqqa uchraydi.	7

29.	«1914-yilning oxirida Marg'ilonda maktab ochdim. Sakkizinchi oygacha bormay, Andreyev ismindagi Skobel (<i>Farg'ona shahri nomini chor hukumati shunday deb o'zgartirgan edi</i>) maorif rahbari tomonidan majburiy yopildi... Undan yana Xo'qand kelib, yo'qsil bolalar uchun pulsiz o'qish maktabi ochdim... o'zim 4 oyga davom ettirgandan keyin uyezd nachayligi Medinskiy tomonidan tintuv bo'lib yopildi. Lekin hech bir qanday qog'ozlarim qo'lga tushmagani uchun qamalmay qutuldim». Ushbu ma'lumot kimning tarjimai holidan olingan?		Hamzaning	7
30.	Hamza qachon qanday nomdagi kutubxona ochadi?	1915-yilda «G'ayrat» nomidagi (kutubxona qoshida bosmaxona va nashriyot tashkil qilib, matbuot nashrlarini yo'lga qo'ymoqchi bo'ldi)		7
31.	Hamza qaysi jurnallar-ning muassisi edi, ya'ni nashrdan chiqargan?	«Kengash», «Hurriyat»		L
32.	Hamza Farg'onaga qachon qaytib keladi?	1921 – 1924-yillarda Buxoro, Xorazm, Xo'jaylida maorif muassasalarida xizmat qilgach, 1925-yilning avgustidan Farg'onaning Avval qishlog'iga qaytib keladi		7
33.	Hamza qachon qanday unvon bilan taqdirlanadi?	1926-yilda birinchilardan bo'lib Hamzaga adabiyot va teatr sohasidagi katta xizmatlari uchun «O'zbekiston xalq yozuvchisi» unvoni berildi		

34.	Hamza Qo'qondagi qanday maktabda o'qituvchi bo'lib ishlaydi?	Qo'qondagi rus-tuzem maktabida	
35.	Sho'ro yillarida Hamza hayotligida uning nechta kitobi nashr etildi?	Hamzaning birorta kitobi ham nashr etilmadi. Hamma bitganlari yo qo'lyozma holida yoki vaqtli matbuot sahifalarida qolib ketdi	7

Quyidagi davrlarda Hamza qanday mehnat faoliyati bilan shug'ullanadi?

36.	1917-yil...	«Kengash» va «Hurriyat» jurnallarini nashrdan chiqardi, bu jurnallarga muharrirlik qildi	
37.	1918-yil...	Farg'ona viloyati ma'daniy-maorif bo'limida xodim	
38.	1919-yil...	Teatr truppasida rejissor	
39.	1920-yil...	Muhtojlar uchun ochilgan maktabda mudir	
40.	1921-yil...	Buxorodagi teatr truppasida rahbar	
41.	1921 – 1924-yil...	Xorazm viloyatidagi madaniy-ma'rifiy muassasalarda mudir	
42.	Shoir dastlab qaysi vazndagi she'riy shakllarda ijod qilgan?	Aruz vaznidagi	
43.	Hamza dastlabki asarlariga qanday taxallus qo'llagan?	Nihoniy	
44.	Hamza qaysi yillardagi she'rlarini to'plab devon tuzgan, bu devonidagi asarlarga qanday taxallus qo'llagan?	1905 – 1914-yillarga oid she'rlarini to'plab devon tuzgan, bu asarlarida «Nihoniy» («yashirin», «maxfiy» ma'nosida) taxallusini ishlatgan	

45.	Hamza devonida nechta she'r jamlangan?	214 ta	
46.	«G'ayrat» kitobxonasini ochgan, bir umr ijodiy izlanishda bo'lgan, millat uchun qayg'urgan, «darig' tutmang ilm uchun ketsa mol-u jon» deya yoshlarni ilm olishga undagan shoir kim?	Hamza	7
47.	Hamzaning bevaqt o'limi haqida ma'lumot bering	Hamza bilan Shohimardondagi bir to'da diniy aqidaparastlar o'rtasida janjal chiqishi va ular tomonidan 1929-yilning 18-avgustida shoirning toshbo'ron qilib o'ldirilishida hukumat malaylarining bevosita qo'li bordir. Sho'ro davlatining manfur siyosati Hamza taqdirida qonli iz qoldirdi. Shohimardonda in qurib olgan bir guruh diniy mutaassib kishilarga Hamzani qarshi qo'ygan sho'ro idoralari, mohiyatan, bir hamla bilan ikki raqibni yo'q qilishga erishdi. Ya'ni hukumat Hamzani johil kimsalarga ro'para qildi, ular esa «Shohimardonday aziz joyni oyoqosti qilmoqchi, ayollarimizning yuzini ochmoqchi», degan uydirmalar bilan olomonni Hamzaga qarshi gijgijladi. Natijada, sho'ro davlati avval Hamzaning johil kimsalar tomonidan o'ldirilishiga, keyin esa «sho'ro shoirining qotili» sifatida dindorlarni Shohimardondan «supurib tashlanishi»ga erishdi	7
48.	Hamzaning «Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar» majmuasiga kirgan «Yor-yorlarim», «Sog'inib», «Salom ayting» kabi she'rlari qaysi kuy ohangida yozilgan?	«Savti chorgoh» kuyi ohangida yozilgan	

49.	Maktabning boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun yaratgan darsliklari...	«Yengil adabiyot», «O'qish kitobi» (1914), «Qiroat kitobi» (1915)	7
50.	Qaysi gazetalarda Hamzaning ma'rifatparvarlik ruhidagi o'nlab publitsistik maqolalari chop etildi?	«Sadoyi Turkiston», «Sadoyi Farg'ona»	
51.	1915-1919-yillarda qaysi she'riy majmuasini yaratadi?	«Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar» majmuasini	
52.	She'rlar nechta turkumdan tashkil topgan?	Yettita	
53.	Bu majmuaga kiritilgan turkumlar nomi...	«Atir gul», «Oq gul», «Qizil gul», «Pushti gul», «Sariq gul», «Yashil gul», «Safsar gul» to'plamlari	
54.	«Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar» majmuasidagi she'rlarni shoir nima uchun qadimiy qo'shiqlar vaznida yaratgan?	Aksariyat qismi savodsiz bo'lgan ommaga o'z qarashlarining tezroq singishini o'ylab shu vaznda yaratgan	
55.	O'zbek adabiyotida dastlabki romanlar muallifi...	Hamza	7
56.	Hamza qaysi yillarda qanday romanlar yaratgan?	1914 – 1915-yillarda «Yangi saodat», «Uchrashuv» singari milliy romanlar yaratgan	
57.	Hamza qanday dramatik asarlar yaratgan?	«O'ch», «Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari», «Ilm hidoyati», «Mulla Normuhammad domlaning kufr xatosi», «Ochlik qurbonlari», «Muxtoriyat yoki avtonomiya», «Kim to'g'ri», «Tuhmatchilar jazosi»,	

	«Boy ila xizmatchi», «Loshmon fojiasi», «Farg'ona fojiasi», «Maysaraning ishi», «Paranji sirlaridan bir lavha yoki Yallachilar ishi»	
--	--	--

Quyidagi yillarda Hamzaning qaysi dramatik asarlari yaratildi?

58.	1914-yil	«O'ch»	
59.	1916-yil	«Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari»	L
60.	1916-yil	«Ilm hidoyati»	
61.	1916-yil	«Mulla Normuhammad domlaning kufr xatosi»	
62.	1916-yil	«Ochlik qurbonlari»	
63.	1917-yil	«Muxtoriyat yoki avtonomiya»	
64.	1918-yil	«Kim to'g'ri»	
65.	1918-yil	«Tuhmatchilar jazosi»	
66.	1916-1918-yillar	«Loshmon fojiasi» (uch bo'lim)	L
67.	1919-yil	«Boy ila xizmatchi»	L
68.	1916-1920-yillar	«Farg'ona fojiasi» (to'rt bo'lim)	L
69.	1926-yil	«Maysaraning ishi»	L
70.	1927-yil	«Paranji sirlaridan bir lavha yoki Yallachilar ishi»	L

71.	Hamza Hakimzoda Niyoziy tavalludining 100 yilligi munosabati bilan necha jildlik asarlar to'plami nashr etildi?	Besh jildlik «Mukammal asarlar» to'plami	
72.	«1912-yildan boshlab aksar kosiblar zararlanib, mardikorlikka kira boshlaganlari uchun kuchsiz mardikorlarni bozor olmay, bu	1914-yil 10-avgustda yozgan, «Sadoyi Turkiston» gazetasining 34-sonida bosilgan «Faqirlik nimadan hosil o'lur?» nomli maqolasidan	

	yillardan alar gadoylarga qo'shulub, 1914-yil ramazonda gadoylar boshqalarga qaraganda 100 ga 40 protsent bo'lib ketgan desak ham lof bo'lmaydur... Kecha bir kafshg'a 20 tiyin olub, na'l qoqub bergan usta bugun darvozalar tagida: «Rabban min, yo rab, yo ramazon!» – deb qichqirmakdadir». Ushbu parcha Hamzaning qaysi maqolasidan olingan?		
73.	Hamza «Ilm ista», «Maktab», «Dardiga darmon istamas» she'rlariga qanday taxallus qo'yadi?	Nihon	
74.	«Dardiga darmon istamas» she'ri har bir bandi qanday yakunlanadi?	«Uxlama o'zbek eli, asli taraqqiy vaqtida»	7
75.	«Ilm ista», «Maktab», «O'quv», «Qalam» she'rlari qaysi yilda yaratilgan?	1914-yilda	
76.	«Jonlarning jononi vatan» she'ri shoirning qaysi majmuasiga kiritilgan?	«Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar majmuasi»ning uchinchi bo'limiga	7
77.	«Jonlarning jononi vatan» she'ri xalq og'zaki ijodidagi she'r kuyiga hamohang tarzda aytilganini shoir qanday izohlaydi?	«Qamchinbeklar osilgan Ho'qandda marsiya edarak aytilmish ashulaning ohangida milliy she'rlardir. Teatrlarda xor qilinsa-da muvofiqdir. Qamchinbegim: «Uv!» dedi, «Yo bir piyola suvi», – dedi-yo, Dor tagiga olib borganda ichmay turib, «Huv!» – dedi-yo. Ikki misrani bir kishi, ikki misrani ko'p kishi tarafidan aytilsa, ta'sirsiz qolmasa kerakdir»	7

78.	«Jonlarning jononi vatan» she'rida Hamza qanday taxallus qo'llagan?	Nihon	7
79.	«Dardiga darmon istamas» she'ri shoirning qaysi majmuasiga kiritilgan?	«Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar majmuasi»ning ikkinchi – «Oq gul» bo'limiga	7
80.	«Dardiga darmon istamas» she'ri xalq og'zaki ijodining qaysi kuyi ohangida?	«Do'st Mavlon-ey» kuyida Man bu yonga kelmas erdim, Yora, kelturding mani-yo! O'tga solsa, kuymas erdim, Yora, kuydirding mani-yo! Do'st Mavlon-ey, ko'nglim Olloh sandadur	7

Quyidagi misralar Hamzaning qaysi she'ridan olingan?

81.	«Qo'y o'yin, sayr-u tamoshoni, g'animat yoshliging, Shum fe'llardin o'zingni aylagil bezor, o'qi!»	«O'quv»	
82.	«Qoradur garchi izi, nuri haqiqatdir o'zi, Chunki bosgan yerda zulmatni ziyo qildi qalam»	«Qalam»	

Quyidagi she'rlardagi har bir banddan so'ng takrorlangan bir xil misralar(ya'ni refren)ni aniqlang

83.	«Jonlarning jononi vatan»	«Bir jon emas, ey suyguli, tomirlaring qoni, Vatan, Sensan, bale bilganlarga jonlarning jononi, Vatan!»	7
84.	«Dardiga darmon istamas»	Uxlama o'zbek eli asli taraqqiy vaqtida	7

Quyidagi so'zlarni izohlang

85.	oni	uni	7
86.	erkon	ekan	7
87.	bale	ha, to'g'ri	7
88.	ano	ona	7
89.	og'lo	yig'lab	7
90.	tug'gonlaring	tuqqanlaring, bolalaring	7
91.	boyonlara	boyonlarga	7
92.	Tangri buyrug'in tutmadi	Tangri buyrug'ini bajarmadi	7
93.	o'ng'aylamoq	tuzatmoq, o'nglamoq	7
94.	kechmog'lig'ingni	kechirmoqligingni	7
95.	chandon	juda, yaqindan	7
96.	mohi tobon	yorug' oy, to'lin oy	7
97.	oshufta	shaydo, oshiq	7
98.	lavhi tarab	maishat bitigi, shodlik yozuvi	7
99.	nafs-u havo	nafs istagi, kibr, maqtanchoqlik	7
100.	domi tama	tama tuzog'i	7
101.	xam	egilgan, bukilgan	7
102.	suyi samo	osmon taraflari, osmon tomonlari	7
103.	bing sanoyi ixtiro	ming xil kashfiyotlar yaratish	7
104.	bing	ming	7

«Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari»

105.	«Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari» yana qanday nomlanadi?	Turkistonning o'z maishatidan olingan qiz va kuyov fojiasi	L
------	--	--	---

Quyidagi ta'riflar qaysi qahramonlarga berilgan?

106.	O'rtā bo'ylik, mosh-gurunch soqol, qizil yuzli, o'rtacha kiyingan, 55 yoshda, o'zi davlatlik bo'lsa ham, ilm-ma'rifatdan yiroq kishi	Mirzo Hamdamboy	L
107.	Xipcha bo'ylik, xushmo'ylab, soqolsiz, sochlik, ko'zida oynak bor, butun ovropocha kiyingan, demak, eng yuqori darajada ochiq fikrli, xususiy muallim olub o'qimish, tarbiya ko'rmish	Mahmudxon	L
108.	Mirzo Hamdamboyning oshnosi. Mahmudxonga muhabbatlik, bir ozgina zamondan xabardor kishi. Uzun bo'ylik, qora soqol, rasmiy kiyingan	Abdiqodirboy	L
109.	Mirzo Hamdamboyning yolg'uz o'g'li, 18 yoshdadur	Mahmudxon	L
110.	Eski maktablarda o'qimish esa ham, Mahmudxonga muhabbat qo'ymoq munosabati ila ro'mon, gazeta, jurnol kabi maorif ta'sirotindin qalbi uyg'onmish. Mahmudxonning haqiqiy oshiqidir. O'zi husnli, 17 yoshda bo'lub, bir faqirgina kosibning qizi	Maryamxonim	L
111.	Uzun to'n va katta sallali	Eshon	L
112.	Maryamxonning onasi, 35 yoshlarda	Sora	L
113.	Maryamxonim bilan Mahmudxon orasinda xat yurituvchi kampir, 60 yoshda	Zaynab	L
114.	Mahmudxonning xizmatchisi	Mavsum	L

115.	«Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari» asarida «qatnashuvchilar» ro'yxatida ko'rsatilib, lekin sahnada umuman ko'rinmaydigan qahramon...	Mirzo Hamdamboy	L
116.	Mahmudxon «boy pochcha» deb kimga murojaat qiladi?	Abduqodirboyga	L
117.	«Mana axir o'qiyman dedi, xabaringiz bor, olti yildan baqqa qancha pullar sarf qildim, endi mulla bo'lib qilib bergan foydasimi bu?» Ushbu parcha qaysi asardan olingan, kimning tilidan aytilgan?	«Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari» asaridagi Mirzo Hamdamboy so'zlari	L
118.	Abduqodirboy Mirzo Hamdamboydan nimani iltimos qiladi?	Boyning o'g'li Mahmudxonga kosibning qizi Maryamxonni olib berishni	L
119.	Boy nima uchun Mahmudxon va Maryamxon sevgisiga qarshi chiqadi?	Maryamxonning oilasini nasl-u nasabda, mavqeda va boy-badavlatlikda teng ko'rmaydi. Kambag'al deb kamsitadi	L
120.	Abduqodirboy va Mirzo Hamdamboy Maryamxon va Mahmudxon to'g'risida suhbatlashayotganlarida kim kelib qoldi?	Hazrati eshonning Qosimjon degan xalfalari	L
121.	Maryamxonni eshonga nazr qilinganini kim aytdi?	Qosimjon	
122.	Eshonning nechta xotini bor?	Oltita	
123.	Eshonning qayerlik xotini o'lgan?	Oltiariqlik oyim o'lgan, hozir beshta xotini qolgan	L
124.	Qosimjon Eshon va Maryamxonlarning to'ylarini qachon bo'ladimi deb taxmin qildi?	Eshon murid ovidan qaytganidan so'ng – shu oy ichida	L

125.	Maryamxonning qanday orzulari bor edi?	O'zbek ayollari hayoti haqida gazetalarga maqolalar yozib turish, Mahmudxon ko'magida qizlar maktabini ochish	L
126.	Agar ota-onalari to'ylariga qarshilik qilsa, chet mamlakatga qochib ketish taklifi kimdan chiqadi?	Maryam-xondan	L
127.	Maryamxonni zo'rlik bilan kimga nikolashadi?	Eshonga	L
128.	Maryamxonning to'ydan keyingi hayoti qanday kechdi?	Eshon Maryamxonni har qancha majburlamasin, xotinlikka rozi bo'lmaydi, eshonning manfur qiyofasini fosh etib, uning uyidan qochib chiqadi (Bu ikkinchi parda voqealari)	L
129.	Asarning uchinchi pardasi haqida ma'lumot bering	Eshondan va jaholatga to'la bu hayotdan qutulish yo'lini topa olmagan Maryamxonimni zahar ichib, onasi Sora, suyuklisi Mahmudxon va uning maktublarini Mahmudxonga eltib berib iltifot ko'rsatgan Zaynab xola bilan vidolashuv epizodi o'rin olgan. Bu sahna oxirida Maryamxonim Mahmudxonning qo'lida jon beradi	L
130.	Mahmudxonning hayoti qanday so'ndi?	Maryamxonning qabri ustida o'zini o'ldirdi (otdi)	L
131.	Mahmudxon va Maryamxon o'limiga sababchilar...	Johil ota-onalar, to'g'rirog'i, jaholat, g'aflat, ilmsizlik	L

ABDULLA QODIRIY (1894 – 1938)

Ushbu fikrlar muallifi kim?

1.	«Yurtimizda Abdulla Qodiriy asarlari kirib bormagan birorta ham xonadon bo'lmasa kerak. U faqat o'zbeklarning emas, balki Turkiston xalqlarining ham sevimli adibi, ozodlik va istiqloq kuychisidir»	Islom Karimov	5
2.	«Men to'g'rilik orqasida bosh ketsa, «ih» deydirgan yigit emasman»	Abdulla Qodiriy	9
3.	«So'zim oxirida odil sudlardan shuni so'rayman: garchi men turli bo'hton, shaxsuyat va soxtalar bilan ikkinchi oqlanmaydurg'on bo'lib qoralandim. Loqal ularning, qoralovchi qora ko'zlarning ko'ngli uchun bo'lsa ham menga eng oliy bo'lg'on jazoni bera ko'ringiz. Ko'nglidagi shamsi g'uboroti, teskarichilik maqsadi bo'lmag'on sodda, vijdonli yigitga bu qadar xo'rlikdan o'lim tansiqroqdir. Bir necha shaxslarning orzusicha ma'naviy o'lim bilan o'ldirildim. Endi jismoniy o'lim menga qo'rqinch emasdir. Odil sudlardan men shuni kutaman, shuni so'rayman»	Abdulla Qodiriy (1926-yil 15-iyun, Samarqand. Abdulla Qodiriyning suddagi nutqidan)	7, 9
4.	«Shu miyonalarda bozor vositasi bilan tatarlarda chiqadurg'on gazetalarni o'qib, dunyoda gazeta degan gap borligiga imon keltirdim. 1913-yilda o'zbekcha «Sadoyi Turkiston», «Samarqand», «Oina» gazetalari chiqa boshlag'och menda shularga gap yozib yurish fikri uyg'ondi» degan adib...	Abdulla Qodiriy	9

5.	«Abdulla Qodiriyning prozasi, birinchi navbatda, g'oyatda hayotiyliги bilan ajralib turadi»	Oybek	10
6.	«Abdulla Qodiriy... yangi davr adabiyoti, Yevropa adabiyoti gazi bilan o'lchanganda ham to'laqonli asarlar yozgan, o'zbek romanchiligini boshlab bergan ulkan adibdir»	Abdulla Qahhor	
7.	«Abdulla Qodiriy... qalbi butun, o'ziga xos shaxs , tug'ma epik yozuvchi, keng ko'lamdagi master, yuksak ma'nodagi realist san'atkor»	Oybek	10
8.	O'zbek realistik hikoyachiligini boshlab bergan ijodkor...	Abdulla Qodiriy	10
9.	Abdulla Qodiriy bir maqolada o'zbek tili haqida qanday fikrlarni bayon qilgan?	«O'zbek tili kambag'al emas, balki o'zbek tilini kambag'al deguvchilarning o'zi kambag'al. Ular o'z nodonliklarini o'zbek tiliga to'nkamasinlar»	10
10.	«... Yozmoqqa niyatlanganim yangi zamon romanchiligi bilan tanishish yo'lida kichkina bir tajriba, yana to'g'risi, bir havasdir»	Abdulla Qodiriy («O'tkan kunlar»)	
11.	Ilk o'zbek romanlari bo'lishiga qaramasdan jahoniy e'tiroflarga sazovor bo'lgan asarlar...	«O'tkan kunlar», «Mehrobdan chayon»	L
12.	Hajviy-tanqidiy asarlari uchun Abdulla Qodiriy qanday nom bilan e'tirof etilgan?	«Fel'yetonlar qirol»	10
13.	Mustaqillik ordeniga birinchi bo'lib munosib ko'rilgan adib...	Abdulla Qodiriy	5, 10

14.	Abdulla Qodiriy qanday mukofot bilan taqdirlangan?	Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofoti bilan	5, 10
15.	O'zbek romanchiligining asoschisi	Abdulla Qodiriy	L, 10
16.	Abdulla Qodiriy qachon qayerda tavallud topdi?	1894-yil 10-aprelda Toshkent shahrida bog'bon oilasida dunyoga keldi	9, 10
17.	Abdulla Qodiriy 1917-yilgi to'ntarishlargacha qanday ishlar bilan shug'ullanadi?	U 9-10 yoshlarida maktabga boradi. O'ziga to'q xonadonlarda turli yumushlar bilan band bo'lgan: prikazchik (yugurdaklik) ustachilik, bog'bonlik qilgan	5
18.	12 yoshida kimning xizmatiga yollandi?	12 yoshida bir boy savdogar xizmatiga yollanadi (yozuv-chizuv ishlarida yordamlashadi). U Abdullani rus-tuzem maktabiga berdi	9
19.	Bo'lajak adibning estetik qarashlari va ijodiy qiyofasi shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan omil...	Rus-tuzem maktabida o'qishi (Maktabni 1912-yilda muvaffaqiyatli tugatdi)	9
20.	Rus-tuzem maktabini tugatgach qaysi madrasaga o'qishga kiradi?	1912-yilda rus-tuzem maktabini tugatib, ikki yil o'tgach, 1914-yilda Toshkentdagi Abulqosim shayx madrasasiga o'qishga kiradi	9
21.	Madrasada Abdulla Qodiriy qanday nimalarni o'rgandi?	Shariat ilmi, islom falsafasi, arab va fors tillarini o'rganadi	9

22.	Yozuv-chining oilaviy hayoti haqida qisqacha ma'lumot bering	U 1912-yilda Rasulmuhammadboy ismli savdogarga ishboshqaruvchi bo'lib ishga kiradi, 1914-yilda boyning katta qizi Rahbaroyga uylanadi va Nazifa (1916), Habibulla (1918), Adiba (1924), Mas'ud (1926), Anisa (1928) ismli farzandlarni tarbiyalaydi	9
23.	Abdulla Qodiriyning mehnat faoliyati haqida ma'lumot bering	A.Qodiriy 1917-yillarda ham dunyoviy, ham diniy bilimlarni puxta egallagan ziyoli sifatida shakllangan edi. 1918-yilda Eski shahar oziq komiteti sarkotibi, 1919-yilda «Oziq ishlari» gazetasida muharrir, «Ro'sta» gazetasida muxbir, «Ishtirokiyun», «Qizil bayroq» gazetalari xodim, «Inqilob», «Kommunist yo'ldoshi» majmualarida sarkotib va xodim bo'lib ishlaydi, «Mushtum» jurnalining tashkilotchilaridan biri sifatida ijtimoiy hayotda faol aralashadi	9
24.	Abdulla Qodiriy qaysi oliy dargohda tahsil olgan?	1924-25-yillarda Moskvadagi oliy jurnalistika institutida tahsil oladi	9
25.	Abdulla Qodiriy qachon qaysi maqolasi uchun nima sababdan qamoqqa olinadi?	Adib 1926-yilda «Yig'indi gaplar» maqolasi uchun «sho'ro rahbarlarini matbuot orqali obro'sizlantirdi» degan tuhmat bilan qamoqqa olinadi (dalillar uydirmaligi uchun ozod etiladi)	7, 9

26.	Qamoqxona A.Qodiriy nima sababdan ochlik e'lon qiladi?	Adolatsizlikka qarshi. (Respublika Oliy Sudi yetarli asosi bo'lmasa ham Qodiriyning ikki yilga ozodlikdan mahrum etish haqida hukm chiqaradi, lekin dalillarning uydirmaligi ko'rinib turgani uchun ham adibni qamoqqa tiqishga hozircha jur'at qila olishmaydi)	9
27.	Qamoqdagi adolatsizlikka qarshi adib qanday e'tiroz bildirdi?	Qamoqxonada ochlik e'lon qildi	9
28.	Yovuz kuchlar tomonidan Abdulla Qodiriy hayotiga qachon nuqta qo'yildi?	1937-yil 31- dekabr kuni Qodiriy ikkinchi bor hibsga olinadi. To'qqiz oylik qamoqdagi so'roq, qiynoq, xo'rlikdan so'ng, 1938-yil 4-oktabrda Cho'lpon, Fitrat kabi maslakdoshlari bilan qatl etiladi (adolatning ko'chasidan ham o'tmagan hukumatning uchlik sudi 1938-yilning 5-oktabrida o'limga hukm chiqaradi)	7, 9, 10
Abdulla Qodiriy ijodi			
29.	Qodiriy ijodining boshlanishi qaysi yillarga to'g'ri keladi?	1910-yillarga	10
30.	Qaysi gazetalarda Abdulla Qodiriy she'rlari, maqolalari berildi?	1913-yilda o'zbekcha «Sadoyi Turkiston», «Samarqand», «Oina» gazetalarida chiqarib boshlagach, xabarlar va she'rlari orqali matbuotda Abdulla Qodiriy nomi paydo bo'ladi	9

31.	Adib o'z asarlariga qanday taxalluslar qo'ygan?	«Qodiriy», «Julqunboy», «Ju-boy», «Dumbulboy», «Dumbulnisa», «Kalvak mahzum», «Toshpo'lat tajang», «Toshpo'lat», «Ovsar», «Dumbul», «Shig'oy» degan imzo-taxalluslar bilan e'lon qilgan	5, 10
32.	Abdulla Qodiriyning birinchi asari (maqolasi)...	«Sadoyi Turkiston» gazetasining 1-aprel sonida Abdulla Qodiriy deb imzo chekilgan «Yangi masjid va maktab» sarlavhali maqolasi	9
33.	Hayotdagi muhim tadbirlarni, yangiliklarni olqishlab, qo'llab-quvvatlovchi, targ'ib-tashviq etuvchi maqolalari...	«Matbuot kuni», «Ulug' ayyom»...	
34.	Murakkab insoniy taqdirlar haqida hikoya qiluvchi maqolalari...	«Otam ham bolshevik», «1918-yil yodgori», «G'irvonlik Mallavoy aka»...	
35.	Abdulla Qodiriy ijodidagi 20-yillar o'zbek tanqidchiligining eng yaxshi namunalari...	«Bizda teatru ishining borishi», «Ravot qashqirlari», «O'tkan kunlar» va «O'tkan kunlar» tanqidi ustida ba'zi izohlar» (Sotti Husaynga javob)... maqolalari	
36.	Adib ijodining dastlabki yillarida, 1913 – 1916-yillarda, qaysi asarlarini yaratdi?	«Ahvolimiz», «To'y», «Millatimga bir qaror!», «Fikr aylagil» she'rlari, «Baxtsiz kuyov» dramasi, «Juvonboz» hikoyasini	9
37.	Abdulla Qodiriy ilk asarlarlaridayoq fikrlarini qay tarzda bayon etdi?	Adib fikrlarini ochiq aytish, g'oyani yalong'och ifodalash yo'lidan bordi	9

38.	Millat tarixining «eng kirlik, qora kunlari»ni tasvirlash asnosida xalqning asl ma'naviy qiyofasi ko'rsatib berilgan asar...	«O'tkan kunlar»	9
-----	--	-----------------	---

**Quyidagi janrlarda Abdulla Qodiriy
qanday asarlar yaratdi?**

39.	Hikoya janrida...	«Uloqda», «Jinlar bazmi», «Juvonboz» hikoyalari	L, 5
40.	Qissa janrida...	«Obid ketmon» qissasi (1934)	
41.	Roman janrida	«O'tkan kunlar» (1926), «Mehrobdan chayon» (1928) romanlari	9
42.	Abdulla Qodiriyning yozuvchi sifatida elga tanitgan hajviy asarlari...	«Kalvak mahzumning xotira daftaridan», «Toshpo'lat tajang nima deydi»	5, 10
43.	Rahbarlardan biri vafot etadi. Ma'lum bo'lishicha, u sirtdan xudodan tonganlardan ekan. Ammo botinda din-u islomni do'st tutarkan. O'limi oldidan maxfiy bo'lsa ham janoza bilan dafn etishlarini vasiyat qiladi. Maxzum kechasi maxfiy ravishda marhumga janoza o'qishga boradi. Ertasiga esa partiyalilar kelib, yangichasiga araqxo'rlik bilan marhumni ko'mishga hozirlik ko'radilar. Qodiriy qalamga olgan bu taajjub hangoma qaysi asarida berilgan?	«Kalvak mahzumning xotira daftaridan»	
44.	«Obid ketmon» asari qachon yozilgan?	1934-yilda	9
45.	Abdulla Qodiriy yozmoqchi bo'lib, materiallar to'plagan, lekin adibning tugallanmay qolgan asarlari...	Abdulla Qodiriyning «Amir Umarxonning kanizagi», «Namoz o'g'ri», «Dahshat» kabi asarlari tugallanmay qolgan	9

46.	Abdulla Qodiriyning qaysi o'g'li shifokor va yozuvchi bo'lib yetishadi?	Qodiriyning katta o'g'li Habibulla Qodiriy (1919-1987) shifokor, yozuvchi bo'lib yetishib, «Otam haqida», «Abdulla Qodiriyning so'nggi kunlari» kabi asarlar muallifi sifatida tanilgan	
47.	Behbudiyning «Padarkush» dramasiga taqlidan yozilgan asari...	«Juvonboz» hikoyasi	
48.	Behbudiyning «Padarkush» dramasi ta'sirida yozilgan asari...	«Baxtsiz kuyov» (1915) dramasi	10
49.	O'qishini tashlab, buzuv, yomon yo'llarga kirib ketgan boyvachcha otasining mol-mulkini sovruradi, sindiradi; ota-onani dog'da qoldirib, oxiri jinoyatga qo'l uradi, qamaladi. Bu voqealar A.Qodiriyning qaysi asarida tasvirlangan?	«Juvonboz» hikoyasida	
50.	Qaysi asarida Abdulla Qodiriy qoloq odatlardan biri – hashamatli to'y, ortiqcha sarf-xarajatlar va ularning ko'ngilsiz oqibatlari masalasini ko'taradi?	«Baxtsiz kuyov» dramasida (Solih ismli yetim yigit katta qarz ko'tarib, dabdabali to'y qilib, boy xonadon qiziga uylanadi. Vaqtida qarzini uzolmay, garovga qo'yilgan hovli-joyidan ajralish oldida sharmandalikdan o'zini o'zi o'ldiradi. Sadoqatli umr yo'ldoshi ham o'ziga pichoq uradi)	10

51.	Abdulla Qodiriy: «Roman yozishga havaslantirgan ustoz», – deb kimni aytadi?	Jurji Zaydoniyni	
52.	1934-yilda yozilgan qishloq hayoti haqidagi qissasi...	«Obid ketmon»	9
53.	«Obid ketmon» asari qahramonlari...	Obid ketmon, Berdi tatar, Xatib domla, mulla Muhsin...	
54.	«...Domlalarining yurish-turishi, so'zlari, fikr yuritishi, xalqni aldashi va hokazo butun sifatleri o'quvchining ko'z oldida jonlanadi. Asarda domlarni yozuvchi yetaklamaydi, ular o'zlari domlarcha yuradilar. Ularning og'ziga yozuvchi o'z so'zlarini tiqmaydi, ular o'zlaricha so'zlaydilar...» Abdulla Qodiriy mahoratiga tan berilgan «Obid ketmon» asari haqidagi ushbu fikrlar muallifi...	Oybek	
55.	Abdulla Qodiriy qaysi asari haqida: «Bolalik davrimning yodgori bo'lganligi uchun ortiqcha o'zgartirishlar kiritmadim», – deb yozgan?	«Uloqda»	
56.	Oktabr inqilobigacha bo'lgan o'zbek adabiyotidagi realizmning cho'qqisi, realistik hikoyaning eng yaxshi, yetuk namunasi bo'lgan asar...	«Uloqda»	10
57.	«Uloqda» hikoyasida tashviqotchi-ning, voizning o'rnini san'atkor oladi. Yozuvchi bu asarda voqealar ustidan muhokama qilmaydi, tushuntirmaydi, isbot qilmaydi, balki obrazlar bilan ko'rsatadi», – degan fikrlarni kim bildirgan?	Oybek	

58.	Kolxozlashtirish tufayli o'zbeklar hayotida ro'y bergan o'zgarishlarni aks ettirgan asari...	«Obid ketmon» qissasi	9
-----	--	-----------------------	---

«Uloqda» hikoyasi

59.	«Uloqda» hikoyasi qachon yozilgan?	1915-yilda yozilib, 1916-yilda Toshkentda alohida kitobcha bo'lib nashr etilgan?	5
60.	«Uloqda» hikoyasining qahramoni...	Turg'un	5
61.	Turg'un necha yoshda?	O'n ikki yoshda	5
62.	Turg'un ota-onasidan qayerga borish uchun ruxsat so'radi?	Uloq o'yinini tomosha qilish uchun	5
63.	Turg'un ko'nglida qanday tilak bildirdi?	Kelasi yilda uloqda qatnashishni ko'ngliga keltirdi	5
64.	Turg'un chin to'racha bo'lish uchun qaysi kiyimlarini kiydi?	Oq jujuncha kamzul, o'ruscha shim, amirkon etik, duxoba do'ppisini kiyib, qora qashqa otiga mindi	5
65.	Turg'unning akasining ismi...	Mahkam	5
66.	Mahkam ertalab qayoqqa ketgan edi?	Uloqqa	5
67.	«Mahkam boyvachchaning ota-bobosi uloqchi bo'lib kelgan-da! Axir o'n ikki yashar ukasini ko'rmaysizmi, halitdan uloq chopmoqchi», – deb kim aytdi?	Mahkamning o'rtog'i – Sobir tegirmonchining o'g'li To'g'onboy	5

68.	Yuz-ikki yuz chavandoz ichidan yoppa-yolg'iz uloqni ajratib chiqadigan qahramon...	Turg'unning bobosi	5
69.	Uloq chopiladigan keng qir yaqinida – katta sadaqayrag'och tagida – bir-ikki kishi uch to'rt qop bodringlarini nima deb maqtashardi?	«Mirzaqiron bodring, kasir-kasir bodring!» – deb	5
70.	Hikoyada qaysi mashhur chavandozlar nomi tilga olingan?	Salim chavandoz bilan Murod chavandoz	5
71.	«Qozoqi ot, qamchi ko'tarmaydir, «hayt» desa, bas!» – kimning oti ta'riflangan?	Salim chavandozning	5
72.	Uloq necha yosh ekan?	10 yosh	5
73.	Salim va Murod chavandoz qanday otlarda kelishdi?	Birisi ko'k, ikkinchisi ola	5
74.	Turg'un qaysi o'rtoqlari bilan poyga o'ynadi?	Nurxon, Haydar soqov, Shokir mishiqlar bilan	5

Turg'un va o'rtoqlari qanday otlarni minib kelishdi?

75.	Turg'un	Qora qashqa	5
76.	Nurxon	Ola yo'rg'a	5
77.	Haydar soqov	Saman ot	5
78.	Shokir mishiqlari	Baytal	5
79.	«Uyalib ketdim. Mundan so'g'un biya minmayman», – deb qizarib-bo'zarib ketgan qahramon?	Shokir mishiqlari	5
80.	Turg'unning otining umildirig'ining bahosi...	O'n besh tanga	5

81.	Turg'unning qamchisi-ning dastasi nimadan?	Kumushdan	5
82.	Bolalarning poygasida kim g'olib bo'ldi?	Turg'un	5
83.	Poygada g'olib chiqolmaganiga o'rtoqlari qanday sabab ko'rsatishdi?	Nurxon otining chopmasligiga akasining issiq holda suv berganini, Haydar soqov bo'lsa, Eson ko'knorining o'g'li otining boshiga bexos tomdan guvala tashlab yuborganini sabab qilib ko'rsatdi	5
84.	«Saning otingg'a hech ot bolasi yetmaydi», – deb kim aytadi?	Haydar	5
85.	«Otdan saning baxting bor ekan», – deb kim maqtaydi?	Nurxon	5
86.	Bo'g'uzlangan uloqni kim olib keldi?	Orif sarkor	5
87.	Uloq boshlanganiga biror soat vaqt o'tgan paytda nima uchun uloqchilar tortish o'rniga to'planishib qolishdi?	Esonboyning ot bosgan edi	5
88.	Esonboy bayramda Turg'unga necha so'm hayitlik bergan edi?	Yarim so'm	5
89.	Turg'unning dadasi ertalab bozorga borish o'rniga qayerga ketgan edi?	Esonboyning janozasiga	5
90.	Quvonch va o'lim yonma-yon kelgan asar...	«Uloqda» hikoyasi	5
91.	Qanday asarlar kontrast usulida yozilgan deb hisoblanadi?	Badiiy asarlarda bir-biriga zid bo'lgan narsa va hodisalar tasvirlangan asarlar	5
92.	Yozuvchi tomonidan kuzatilgan, idrok etilgan ibratli voqea-hodisalarni ixcham shaklda badiiy ifoda etuvchi nasriy asar...	Hikoya janri	5

«Mehrobdan chayon» romani

93.	«Mehrobdan chayon» romani qachon yozilgan?	1928-yilda 15-fevralda	9
94.	Asar qachon qaysi shaharda bosilgan?	1929-yilda Samarqandda	
95.	Abdulla Qodiriy qaysi asarida tarixiy haqiqatni, shaxslarni «ortirmay va kamitmay», «o'z holicha ko'rsatish», «yo'qni yo'ndirmay, bor gaplarni yozish» yo'siniga amal qilgan?	«Mehrobdan chayon» asarida	
96.	«Roziya oyim mendan iymangan qiyofada: – Xon qursin, uning olgan xotinlarining hisob-kitobi yo'q, bolam, – dedi va manimcha juda to'g'ri so'zni aytdi». Ushbu parcha qaysi asardan olingan?	«Mehrobdan chayon»dan (Ilova qismida berilgan. Abdulla Qodiriy hayotda Xudoyorxonning Roziya oyim degan xotini bilan uchrashgan)	

«Baxmalbofda faqir bir oila»

97.	Tug'ilganida onasining «tilab-tilab olgani bo'lmagan, otasi ham «o'g'ul-chag'a» hisoblamagan, ota onaning baxtsizlik va qashshoqliklariga xizmat qiluvchi farzand...	Anvar	7
98.	Anvar qachon qayerda qanday oilada dunyoga keladi?	1271-hijriy yilda (1850 – 1851-yilda) Qo'qonning Baxmalbof mahallasida faqir bir oilada	7
99.	Baxmalbof qanday mahalla?	Duxoba to'qiydiganlar mahallasi	

100.	Anvar tug'ilganining nechanchi kunida beshikka belandi?	Tug'ilganining to'qqizinchi kunida og'alarining eski beshigiga belandi emas, tiqildi	7
101.	«Chillasi charog' ko'rmagan» chaqaloqqa necha kunligida kim ism qo'ydi?	Tug'ilganiga 22 kun bo'lganida 12 yoshli opasi Nodira Anvar deb ism qo'yadi	7
102.	Nodira kimga havas qilib ukasiga Anvar deb ism qo'ydi?	Yaqinlaridagi bir maxdumning o'g'liga havas qilib	7
103.	Anvarning otasining ismi va kasbi	Salim bo'yoqchi	7
104.	Onasining ismi...	Anorbibi	7
105.	Salim bo'yoqchining farzandlari nechta?	Anvar bilan oltita	7
106.	Shu yo'sinda Salim bo'yoqchining mavridsiz laylaklari ichida bemahal g'urrak bo'lib yana kim yashay boshladi?	Anvar	7
107.	G'urrak qanday qush?	Qashqaldoq (kaptarsimonlar oilasiga mansub, musichasimon qora qush)	7
108.	Hamisha yarim belidan nil suviga cho'milib yotgan bir kambag'al...	Salim bo'yoqchi	7
109.	Anvarga onalik martabasida qolguvchi, eng mehribon kishisi...	Nodira opasi	
110.	Salim bo'yoqchi oilasining umumiy «kasal»i nima?	Ro'zg'or tebratish	7
111.	Anvar uch yoshga kirganida oilasining boshiga yana qanday baxtsizlik tushdi?	Besh yillardan beri Salim akaga yopishib olgan bobosir kasali uni yiqitdi	7

112.	Salim bo'yoqchi qon-sirab, darmonsizlanib yotib qolganidan so'ng nimaning hisobiga muolaja oldi?	Nil, tuz va o'xshash dastmoyalarni sotib muolaja oldi	7
113.	Salim bo'yoqchiga qilingan muolaja foyda berdimi?	Dard ancha ulg'aygan edi. Bu chiqimlar foyda o'rniga zarar keltirdi	7
114.	Oila boquvchisi yotib qolganidan so'ng qanday ro'zg'or tebratishdi?	Do'kon dastgohini sotib ro'zg'or qilishdi	7
115.	Salim akaning to'rtinchi bolasi nima uchun o'ldi?	Shu qish ayniqsa qattiq keldi. Sovuqdan saqlanish uchun ularning hozirliklari yo'q edi. O'pkasiga sovuq tegdirib Salim akaning to'rtinchi bolasi o'ldi	7
116.	Salim bo'yoqchi qachon dunyo bilan vidolashdi?	Ko'klamga chiqar-chiqmas	7
117.	Anvarning yana bir akasining nima sababdan joni uzildi?	Anvar va yana ikki og'asiga qizamiq toshdi. Ulardan biri shu kasallik tufayli hayotdan ko'z yumdi	7
118.	Olti oy ichida Anorbibi kimlardan ayrildi?	Eridan va ikki bolasidan ayrilib, to'rt go'dak orasida beva bo'lib qoldi	7
119.	Anvarning opasi Nodirani kimga uzatishdi?	Bir bo'zchining bolasiga	
120.	Eridan Anorbibiga bolalarining kuniga yaraydigan nimalar qolgan edi?	Bir-ikkita xum, uch-to'rtta mo'ndi va shunga o'xshash rezrov, boshqa bir balo ham yo'q	7

121.	Mehnat bilan yashab, yetti-sakkizni tug'ib, yoshi ham qirqlarga borib, tusiga ajin kirib, keksaymasa ham qarimsiq bo'lib qolgan qahramon...	Anorbibi	7
122.	Anorbibiga o'xshagan tul xotinlarning qiladigan ishlari...	Mahallada dasturxonchilik, boylar eshigida oqsochlik, hunarmandroq bo'lsa – kinnachilik va hokazo	7
123.	Anvar necha yoshida onasidan ajraldi?	Olti yoshida (Anorbibi birovnikida yumush qila turib, to'satdan og'rib qoldi. Bir soatning ichida tildan ham qoldi. Yurak falajiga yo'liqqan edi)	7
124.	Anvarning akalarining ismi va yoshi...	Temur o'n bir yoshda, Qobil to'qqiz yoshda	7
125.	Marhuma onasining yodgorligi bo'lgan bu uch bolani begonalar qo'lida xor qilib qo'yishni Nodira istamasa ham, erining faqirligi uchun ikki bolani kimga berib yubordi?	O'g'illikka deb so'raganlarga	7
126.	Anvarning taqdiri qanday kechdi?	Nodira opasi uyiga olib ketib, yuvib-taradi. Mahalladan bir guzar nari bo'lgan Solih maxdum maktabiga berdi	7
127.	Anvarning savodi necha yoshida chiqdi?	11 yoshida	7
128.	Nodira Anvarni nima uchun Solih maxdum oilasiga berib yubordi?	Bu paytda Nodira ikki bolali bo'lgan edi. Faqirona hayot kechirishar edi. Eri: «Ukangni shogirdlikka berib yubor», – deb qistadi. Anvarning o'qishini zoye qilishga ko'zi qiymay Solih maxdum oilasiga berib yubordi	7

129.	Solih maxdum uyida Anvarni mehribonlik bilan kim qabul qilib oldi?	Solih maxdumning onasi Mohlar oyim	
130.	Solih maxdum xotining ismi...	Nigor oyim	7
131.	Anvar necha yoshida uchinchi oilani ko'rdi?	12 yoshida	7
132.	Asarda Nodira, Solih maxdumning onasi va xotini suhbatlashayotganida qanday maqol qo'llangan?	«Qush tilini qush biladi» maqoli	7

Quyidagi parchalar qaysi qahramon nutqidan olingan?

133.	«Agar o'lmasam shu do'ndiq qizimni berib, Anvarni o'zingga kuyav qilaman»	Mohlar oyim	7
134.	«Tomog'i-ku, yengil, kiyimi og'irroq. Kiyimini opasining ustiga qo'ymabsiz-da»	Solih maxdum	7
135.	«Nigor kelinni o'z yonig'a chaqirib: «Kuyavlik uchun Anvardan yaxshiroq yigitni topolmassiz, Ra'nog'a xudoyim umr berib bo'yi yetsa, albatta, Anvarga berdirgin», – dedi	Mohlar oyim	7
136.	Solih maxdum oilasiga ko'chib o'tishda Anvarni eng xursand qiladigan holat...	Maktabdagi bolalarning ozor berishlaridan qutulishi va domlanning asrandi o'g'li maqomini olishi bo'ldi. Bolalar uni ehtirom qilmasalar ham, unga avvalgudek yomon muomala qilishdan hayiqib qoldilar	7
137.	Anvar o'qishdan bo'shagan vaqtini qanday o'tkazar edi?	Ra'noni o'ynatib kechirar edi	7

138.	Anvar necha yoshida maktab programmasini tugatib, yosh bo'lsa ham, xalfalik, ya'ni domlaga ko'makchilik qila boshladi?	13 yoshida	
139.	Har kuni bolalar ozod bo'lganidan so'ng Maxdum Anvarga qaysi fanlardan saboq berar edi?	Qofiya (arab tili grammatikasi)dan dars berar, Sa'diyning «Guliston» asaridan bir necha band o'qitib, ma'nosi bilan yodlatar edi	7
140.	Anvar necha yoshida maktabni yolg'iz idora qilish darajasiga yetdi?	15 yoshida (yaxshigina forsiyxon va arab tiliga oshno bo'ldi)	7
141.	Solih maxdum Anvarni nima uchun madrasada o'qitmad?	Solih maxdum ilgari Anvarni madrasada o'qitish haqida aytib yursa ham, hozir bu gapni og'ziga olmay qo'ydi, chunki maktab ishida yalqovlanib Anvarga suyanib qoldi va madrasa masalasini unuttirish maqsadida arab, fors nahv-sarfidan o'zi dars berishga tirishdi	7
142.	Nahv, sarf so'zlarining ma'nosi...	Nahv – sintaksis, sarf – morfologiya	7
143.	Mohlar oyim nima uchun Marg'ilonga ketdi?	Maxdumdan arazlab	7

«Chin o'rtoq»

144.	Anvarning xarakteriga xos xislatlar...	Anvar yoshligidan bo'shanggina bola edi. O'z tengi bolalar bilan oz aloqa qilar, ularga kam aralashar va ortiqcha o'ynab-kulmas, hamisha uning ko'zida mung yotar edi. Maxdumning uyida tura boshlagach, Anvarda biroz o'zgarish ko'rildi. Shunda ham bolalar bilan aloqasini eskicha yuritib, faqat Ra'no yonidagina o'yin-kulgi bolasiga almashinar edi	7
------	--	---	---

145.	Anvar Ra'noga nimalarni tanishtirardi?	Anvar Ra'noga gullarning ismi, qushlarning navi, katta oqar suvlar va, ayniqsa, Ra'no kabi yosh qizchalar uchun bu suvlarga yiqilish xavfi va, shuningdek, boshqa masalalar bilan uni tanishtirardi	7
146.	«Menim ham onam o'lganda o'shandoq qilib ko'targan edilar... Men ham shu boladek mozorg'a yig'lab borg'an edim», – deb Anvar kimga aytdi	Ra'noga	7
147.	Anvarning bola chog'idan eng yaxshi ko'rgan narsasi...	Gulzor va undagi gullar	7
148.	Anvar bolalarning qaysi qilgan ishlari uchun o'qitib qo'yish bilan mukofotlar edi?	Ozor bermay kapalak tutib kelganlarni o'qitib qo'yish bilan mukofotlar edi (Bog'chaning gulzor qismi Anvar nazoratida edi. Gullarni sug'orish, o'tlarini yulib, tozalash vazifasini o'zi bajarar edi. Har kimning uyida bo'lgan yangi gullardan ko'chat va urug' olib yildan yilga gulzorni boyitdi)	7
149.	Anvarning o'qishdan bo'shagan kezlari qayerda kechar edi?	Gullar ichida, kapalaklar orasida	7
150.	Anvarning xush ko'rgan kishilari kimlar...	Birinchisi – Ra'no, ikkinchisi – maktabdagi saboqdosh, sirdosh eng yaqin do'sti – Nasim	7

151.	«Bu gadoybachcha bilan bekbachchaning o'zaro nima munosabatlari bor?» – deb odamlar nima sababdan taajjublanar edi?	Ikki bola suhbatlashib turganida Anvarni yirtiq bo'z kiyimlar ichida va Nasimni shohi-adraslar bilan g'arq holda ko'rib	7
152.	Nasim kimning o'g'li edi?	Xudoyorxonning mirzaboshisi Muhammad Rajabbek poygachining	7
153.	«Yosh bo'lsa ham, jiddiy va kichkina miyasi muhokamaga qobil, boshqa kishilar ustiga tushgan baxtsizlikdan ham mutaasir bo'lguvchi qahramon...	Anvar	7
154.	Muhammad Rajabbekning qanday iltifoti ikki do'stning aloqalarini bir-birlariga yanada qattiqroq bog'ladi?	Muhammad Rajabbekning bir necha hayit mavsumlarida Anvarga sarpolar (kiyimlar) bergani	7
155.	Solih maxdum qaysi voqeadan so'ng Anvarga boshqacha qarab qoldi va ichida: «Sen odam bo'lading'an ko'rinasan», – deb qoldi?	Muhammad Rajabbekning iltifotidan so'ng (Anvarning Muhammad Rajabbek kabi bir kishining o'g'li bilan do'stlashishi bir kamolot bo'lganidek, do'stlikning hatto sarpolar kiyishgacha borib yetishi maxdumning nazarida ayni fazilat edi)	7
156.	Anvar va Nasimning do'stligi nima uchun uzoq davom etmadi?	Nasim 15 yoshlarida chechak kasali bilan og'ridi va o'sha kezlari davosiz hisoblangan bu kasaldan tuzalмай vafot etdi	7

157.	«Ochilmay so'lsa har gul g'unchasi pir-u juvon yig'lar, Emas pir-u juvon, balki hama ahli jahon yig'lar. Ajal yag'molari bog'l zako ichra uzib zanjir, Rahmsiz ezsa ma'sum lolalarni chin xazon yig'lar. Nasimim ketdi olamdin meni qayg'u aro tashlab, Ko'zimdan oqsa xun hech bir ajab yo'q, chunki qon yig'lar. Jahonda erdi tanho men yatimga hamnishin dildor, G'ariblikning diyorida adashkan notavon yig'lar». Nasim vafotiga bag'ishlangan ushbu marsiyani kim yozgan?	Nasimning sadoqatli do'sti Anvar	7
158.	Muhammad Rajabbekning Anvarga iltifot etishiga sabab...	Bir jihatdan, ma'sumiyat, ikkinchidan, ko'rinib turgan iste'dod	7
159.	Muhammad Rajabbek o'g'lining qabr toshiga kimning she'ridan yozdirdi?	Anvarning do'sti xotirasiga bag'ishlagan marsiyasidan bir baytini yozdirdi	7
160.	Do'sti vafoti munosabati bilan Anvar Muhammad Rajabbek uyiga qaysi kunlari kelib turdi?	Avvaliga uch kun qolib ketdi, so'ngra uch haftagacha xatmi qur'on kechalari kelib turdi. (Ko'z yoshini marhumning ota- onasidan ham ko'p to'kdi)	7

**Anvar Muhammad Rajabbekning quyidagi
savollariga qanday javob berdi?**

161.	– Domlangiz uyida turasiz?	– Taqsir	7
162.	– Siqilmaysizmi?	– Yo'q	7
163.	– Ilmi hisob o'qug'aningiz bormi?	– Yo'q, taqsir	7
164.	– Domlangiz ilmi hisobni bilurmikin?	– Bilmaslar deb o'ylayman	7
165.	– Agar men bir domla tayin qilsam, hisob o'quysizmi?	Ustozim ruxsat bersalar, albatta, o'quyman	7
166.	Ertasiga Muhammad Rajabbek Solih maxdumga Anvar haqida nimalarni aytdi?	Anvarni o'rda xizmatiga olish fikrida bo'lganligini, buning uchun arabcha, forsiychadan yana ham chuqurroq ma'lumot olishi lozimligini va ilmi hisob o'rganishi kerakligini aytdi... Muhammad Rajabbek ilmi hisob (matematika) o'rganishi uchun o'zi domla topmoqchi bo'lib, maxdumga ruxsat berdi	7

Maxdumning baxti

167.	Solih maxdum Anvarni qachondan kuyov qilish fikriga tushdi?	O'rda xizmatiga olinishini eshitib, oyiga besh tillo – o'n tillo naqdina daromadni o'ylab	7
168.	Anvar o'rda xizmatiga kirish uchun qanday tayyorgarlik ko'rdi?	Muhammad Rajab poygachi tarafidan belgilangan bir muftida hisob, insho (tahrir) qoidalarini o'rgana boshladi. Maxdum ham jon otib arab va forsiyni kuchaytirdi. Anvar bir yil ichida hisobni o'rgandi. Ko'klamdan e'tiboran har kun o'rdaga borib, Muhammad Rajab munshiy qo'l ostidagi mirzolar yonida daftardorlik, nomanavislik usullarini bir yil chamasi o'rganib, tajribali mirzolar qatoriga kirdi	7
169.	Anvar bir yillik tajriba ish faoliyatida maosh oldimi?	Anvar maoshsiz ishladi, shunda ham hafta sayin Muhammad Rajabbek o'z kissasidan uch-to'rt tanga choy puli berib turar edi. Anvar shu arzimagan uch-to'rt tangani ham maxdumning qo'lga keltirib berar va hafta sayin o'ziga ustozining umidini kattaroq bog'latib borar edi	7
170.	Ikkinchi yildan boshlab Anvarga qanday imkoniyatlar eshigi ochildi?	Ikkinchi yildan boshlab yetti tillo mohona (oylik) bilan maoshlik mirzolar qatoriga o'tdi. Soliqlardan ham darxonliq (ozod etishlik) qog'ozini oldi. Soliqlardan darxonliq maxdumning ro'zg'origa katta yengillik edi. Chunki so'nggi yillarda xonlik tomonidan xalq ustiga tushib turgan soliqlar behad va to'lab bo'lmas darajada edi	7

Anvarning maoshi ustidagi savollar

171.	Anvarning maoshi – birinchi oyning yetti tillosining maxdum qo'liga tegishi go'yo to'y ustiga to'y edi. Domlaning yetti tillo olgandagi holini tasvirlang	Ko'zlari g'ilaylashgan, aftida qiziq o'zgarish ko'rilib, og'zining tanobi uzoq sayohatni ixtiyor qilgan – «habba ... hosiling durust, Anvar bolam, lekin pulga ehtiyot bo'l, bo'tam!» – degan edi	7
172.	Nigor oyim Anvardan nega ranjidi?	«Hamma pulingni domlangg'a chakki beribsan, Anvar; ust-boshingni, ko'rpa-yostig'ingni, ortib qolsa, Ra'no ukangning ustini tuzatishing kerak edi. Domlang tufiab tugishdan boshqani koshki bilsa!» – deb ranjidi	7
173.	Maxdum yetti tillo «naqdina»ni olib qancha shodlangan bo'lsa, nima uchun o'shanchalik tashvishga tushdi?	Yetti tillo moyana daragini eshitib, Anvarning tevaragida maslahatgo'ylar ko'payib qoldi. Opasi Nodira ham erining tazyiqi ostida Anvarni uyiga olib ketmoqchi bo'ldi. Solih maxdum esa Ra'noni Anvarga berish haqidagi fikrini ma'lum qildi (Ra'no bu paytda 11 yoshda edi)	
174.	Anvarning ikkinchi maoshi qanday taqsimlandi?	To'rt tilloni Solih maxdumga berdi. Uch tilloga Nigor oyim, Ra'no va o'ziga kiyimliklar sotib oldi. Nigor oyim sholpar, Ra'no atlas kiydilar	7
175.	Anvarning pinjiga kirib olib, kim o'z yo'liga sola boshladi?	Nigor oyim	7

176.	Anvar necha oygacha oltin berib, quruq duo va minnat-dorchilik oldi?	Yetti-sakkiz oygacha (har kun sovuq osh, xudo yorlaqagan kun ozodlikning palovi, shunda ham Anvar kech kelib, sovugan oshni yer, uyda issiq non yopilmas, hamisha panjshanba kun yig'ilgan non suvi qochib, taraqlab, kelasi panjshanbagacha kafolatni o'z ustiga olar edi	7
177.	Anvar navbatdagi maoshini Nigor oyim, Ra'no, opasi Nodira va jiyanlari va o'ziga kiyimlarga, shuningdek, ro'zg'orga sarfladi. So'nggi maoshlaridan Solih maxdumga har oy necha tillodan berib turdi?	Ikki tillodan (maxdum shunga qanoat qiladigan bo'ldi)	7

Chayonning namoyishi

178.	Anvar mirzaboshilik lavozimiga qanday erishadi?	Tug'ma qobiliyatli va teran aqli tufayli	7
179.	Anvarning mirzaboshi bo'lganiga kimlar hasad qilishdi?	Mulla Abdurahmon, Shahodat mufti, Kalonshoh mirzo	7
180.	Mulla Abdurahmon, Shahodat mufti, Kalonshoh mirzolar Anvar bilan xonning orasini buzish uchun qanday razillikni amalga oshirishdi?	Anvarning suyuklisi Ra'noning go'zalligi ta'rifini hukmdorga yetkazadilar va xotinboz xon qizni so'ratib, maxdumga odam yuboradi... (Maxdum rozilik bildiradi)	7
181.	Anvar va Ra'no bu zo'ravonlikka qanday javob berishdi?	Anvar va Ra'no bu zo'ravonlikka toqat qilib o'tirmay, ota uyidan qochib, yashirinishdi?	7
182.	Anvar qochib ketganidan so'ng, mirzaboshi mansabiga kim tayinlandi?	Sultonali	7

183.	Sultonali haqida fitna uyushtirish maqsadida kimlar qayerga yig'ilishdi?	Shahodat mufti va Kalonshoh mirzo mulla Abdurahmonning uyiga yig'ilishdi	7
184.	«Shu oqpadarning qo'l ostida ishlagandan devonni tashlab ketgan behroq». Shahodat mufti kim haqida gapirmoqda?	Sultonali haqida	7
185.	Anvar bilan Sultonali mojarosini mulla Abdurahmon kimdan eshitgan?	Mirzo Boisdan	7
186.	«Kichkina hovoncha boshidag'i oq tepchima to'ppi va qora uzun soqoli uni hindilarning savdogari qiyofatig'a qo'yg'an edi». Ushbu ta'rif qaysi qahramon haqida?	Mulla Abdurahmon haqida	7
187.	Shahodat mufti mulla Abdurahmon va Kalonshoh mirzoga qaysi voqeani aytib berdi?	Anvar Ra'noni olib qochib kechasi Sultonalinig uyiga kelganligi, ertalab ular uyquda yotganida Sultonali o'rdaga borgani va yasovullar olib kelgani, ular oshiqma'shuqni topolmay, Sultonliga atalgan, so'kib, tahqirlab yozilgan xatni topishganligini aytib beradi	7
188.	Shahodat mufti aytib bergan voqeaga kim ishonmay shubha bilan qaradi?	Abdurahmon domla	7
189.	O'zgalar tarafidan so'zlangan fikr yoki bahs har qancha mantiqiy bo'lganda ham qarshi chiqadigan qahramon...	Kalonshoh mirzo	7

Quyidagi gaplar qaysi qahramonlar nutqidan olingan?

190.	«Bu hammasi Sultonali bilan Anvarning o'yinidir»	Abdurahmon domla	7
191.	«Suygan yorim sen bo'lsang, ko'rgan kunim ne bo'lg'ay»	Shahodat mufti	7
192.	«Qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qur ekanmi?»	Abdurahmon domla	7
193.	Anvar va Ra'noni Sultonali o'z uyidan qochirganligi va mansab egallash maqsadida xonga yolg'on gapirganligi haqida kimlar imzosiz ariza tayyorlashdi?	Mulla Abdurahmon, Shahodat mufti, Kalonshoh mirzolar	7

Ikki xil sadoqat

194.	Yozuvchi nima uchun ikki xil sadoqat deb sarlavha qo'ygan?	Sultonali Anvar va Ra'noni qochirib, xon saroyiga boradi. Ularni «tutib berish» maqsadida soxta harakatlar qiladi va do'stini «sadoqatiga» qurbon qilib sarmunshiylik masnadini oladi	7
195.	Sultonali nima uchun sarmunshiylik mansabidan voz kechmadi?	Sultonali xonning «marhamatidan» bosh tortib, uzr bayon qilsa, Anvarni tutib berishga bo'lgan harakatining soxtaligi ochilish ehtimoli bor edi	7
196.	Anvar va Ra'no bir kampirikida yashirinib yotishganida Sultonali va Anvar o'rtasida kim xat tashuvchilik qildi?	Safar bo'zchi	7
197.	Sultonali xatida Anvarning akasi haqida qanday ma'lumotlarni yozdi?	O'n yillardan beri Qo'qonda bo'lmaganligi, buxorolik bir sarkarda eshigida xizmat qilganligi, qarindoshlarini ko'rish uchun Buxorodan Samarqandga	7

		kelib, u yerda katta og'asini topolmaganligi, Qo'qonga o'tib, bunda ham Anvarga yo'liqmaganligi haqida	
198.	Anvarni qidirib kelgan akasining ismi...	Qobilboy	7
199.	Qobil bilan birga kelgan o'rtoqlarining ismi....	Sharif, Rahim	7
200.	Qobilboy Anvar haqidagi voqeani kimdan eshitgan?	Opasidan	7
201.	Sultonali Anvarga yozgan xatida sarmunshiylik mansabidan kechilmaganini qanday izohlaydi?	«Bu «marhamat»dan bosh tortishqa hech bir yo'l topmadim, agar uzr bayon qilsam, sizni tutib berishka bo'lg'an harakatimning soxtaligi ochilish ehtimoli bor edi. Chunki xong'a sadoqat bizning «odamlar» fikricha, birar manfaat taqozosidir. Agar men xong'a «sadoqatlik qul» ekanman, bu «sadoqat» zahirida bir manfaatim bo'lmog'i lozimdurkim, ul ham bu do'stimni... «sadoqatimg'a» qurbon qilib, evaziga sarmunshiylik masnadini olishimdir. Basharti shu masnaddan bosh tortsam, menga ishonchsizlik tug'ilishi shubhasiz edi»	7

Barimta

202.	«Barimta» so'zining ma'nosi...	Garovga, kafilga olish	7
203.	Qobil akasining og'aynilariga Anvarning hadyasi...	Mehmon qilolmagani uchun Qobil orqali bir tillodan berib yubordi	7

204.	«Pala'nat» so'zini eng ko'p ishlatgan qahramon...	Rahim	7
205.	Sharif va Rahimlarning ota kasbi....	Birining otasi temirchi, ikkinchisining otasi shustagar (murda yuvuvchi)	7
206.	Qobil va uning do'stlari jarchining so'zlaridan nimani anglashdi?	Sultonolini qamashgan. Agar Anvar kelib, o'z aybiga iqrar bo'lmasa, xon Sultonolini dorga tortmoqchi	7
207.	«Dunyoga o'n tilla pulimiz qolaydimi yo uyga sochini tarab to'xtagan xotunimiz qolaydimi?» – degan qahramon...	Rahim	7

Xayr endi, Ra'no!

208.	Asardagi xotin-qizlar jinsidan irodasi kuchli, hatto erlardan ham jasurroq shaxs kim?	Ra'no	7
209.	Anvar Ra'noning qaysi fikriga qarshi chiqib: «Boshqa tadbir topamiz», – dedi?	Ra'noning onasini ko'rgani bormoqchi ekanligiga	7
210.	«Zero, zulm naqadar kuchaysa, umri shuncha qisqa bo'lishi tajribalar bilan sobitdir». Ushbu fikrlar Anvar tomonidan kimga nima sababdan aytilgan?	Ra'noni tinchlantirish uchun	
211.	Qobilboy, Anvar, Safar bo'zchi Sultonolini qutqarish haqida kengashishdi. Ular qanday qarorga kelishdi?	Qobil do'stlari bilan Sultonolini zindondan qutqarishga harakat qilmoqchiligini aytdi. Agar bu ish natija bermasa, Anvar xonga taslim bo'lib, Sultonolini qutqarishni maqsad qildi	7

212.	Anvarning iltimosiga ko'ra Ra'noni kim uyiga olib ketdi?	Safar bo'zchi	7
------	--	---------------	---

Qo'rqinch bir jasorat

213.	«Shunda o'rda arbobi bukun peshindan bir oz ilgariroq mujassam bir vijdon, tog'yurak bir yigit va o'lim sari kulib keluvchi bir arslonni o'z tarixida birinchi marotaba ko'rdi va tong ajabda qoldi. Bu ulug' jasorat bir necha daqiqalargacha zulm itlarini sukutga soldi, ularni ishdan to'xtatdi... Raqibni bu qadar jasoratda ko'rgan Xudoyorning kiprik ostlari uchib, soqol tuklari silkindi va biroz so'z topolmagandek tamshanib turdi» O'lim sari kirib kelgan bu jasoratli yigit kim?	Anvar	7
214.	Romandagi qo'rqinch bir jasorat qaysi voqea?	Sultonalini qutqarish uchun Anvarning Xudoyorxon huzuriga kelishi	7

Xudoyorxonning savollariga Anvar qanday javob berdi?

215.	– Sen bizga xiyonat qilding, it uvli!	– Iqrorman	7
216.	– Tuzumni unutding!	– Tonmayman!	7
217.	– Iqrorsan, tonmaysan, o'bdan ish! – dedi zaharxanda qilib xon. – O'luvdan ham qaytmaysan!	– Men sizdan marhamat so'rab kelgan emasman! – dedi iljayib Anvar. – O'zimni o'linga berib, bir gunohsizni qutqarish uchun kelganman!	7

218.	– Pusulmonchilig' qilg'on-san-da!	– Albatta! – dedi Anvar. – Boshqalar kishi gunohi uchun gunohsizni tutib, pusulmonchilikdan chiqqach, men pusulmonchilik bilan o'lishni o'bdan bildim!	7
219.	– Sening qilg'on ishing pusulmonchilikda bormi, it uvli?!	– Musulmonchilikda yuzlab xotin ustiga, bir kambag'al uylanmoqchi bo'lgan qizga ham zo'rlik qilish bormi, qiblayi olam!	7
220.	– Chiqar buni, jallod!!!	– Gunohsizni mening ko'z oldimda banddan ozod qilinmas ekan, Anvarni bu yerdan chiqara olmaslar, qiblayi olam	7
221.	Anvarning Xudoyorxonga aytgan oxirgi so'zlari...	– Sizda adolat bormi, janob!	7
222.	Xudoyorxonni insofga keltirgan Anvarning gaplari...	– Sizda adolat bormi, janob!	7
223.	Xudoyorxon Sultonliga nima dedi?	– Siz ozod bo'ldingiz! – dedi xon. – Devonga chiqib o'z ishing'izg'a qarang!	7
224.	«Dunyoda hayotidan qo'l yuvguvchidek tili uzun kishi bo'lmas». Ushbu fikr muallifi...		Shayx Sa'diy 7
225.	Insonni razolatga solguvchi nima?	Insonning manfaati taqozosi va o'limdir. Bu ikkisidan kechguvchiga esa podshohning qahri va jahannamning qa'ri farqsizdir	7
226.	– Shu odobsizning gunohini mening uchun kechirsinlar, – deb Xudoyorxondan Anvarning gunohidan kechishini kim so'radi?		Muhammad Niyoz domla 7

227.	Qo'li bog'langan dor va qo'lida yaltiragan xanjari bilan Anvarning boshini olmoqqa shaylanayotgan jallod oldida turgan Anvar iljaygan Abdurahmonga aytgan nutqi...	– Kulishga haqqingiz bor, domla, chunki o'ch olasiz! Faqat siz ifloslik natijasida kulasiz, men... men to'g'riлик samarasini o'raman; siz iflos vijdon bilan g'olibsiz, men sof vijdon bilan mag'lubman... Meni dor ostiga kim keltirdi? Vijdon emasmi, taqsir! Sizni bu yerda kim tomoshabin qildi? Ifloslik emasmi, taqsir? Mening holimni ko'ring, domla, qo'lim bog'langan, ustimda xanjar yaltiraydi. Lekin men kulaman... Nima uchun bunday, taqsir! Chunki vijdon rohatda, jon tinch, yurakda ishq!.. Durust, men ko'milgach, qabrim ustida ko'ksi dog'li qizil lolalar ko'karar... Nimadan bu? Bu – sizning kabi tubanlar solgan iz!..	7
228.	Anvarning boshini tanasidan judo qilmoqchi bo'lgan jallod engashdi, biroq orqadan berilgan kuchli bir zarb bilan Anvarning ustidan tushdi, qayerga tushdi?	Dor ostidagi qon oqizish uchun qazilgan chuqurga uchib tushdi, butun a'zosi eski qonlarga belandon jallod chuquridan chiqishga intilar edi	7
229.	Anvar qanday ozod bo'ldi?	Qobilboy, uning o'rtoqlari, asosan xalq yordam berdi	7
230.	Odamlardan biri yosh mullani kuchli shapaloq bilan urdi. Sallasi chuvalgan, yerga o'tirib qolgan mulla kim edi?	Mulla Abdurahmon	7

231.	Asardagi Anvar va Ra'noning she'r aytishuvida Ra'noning qaysi baytidan so'ng Anvar: «Yengding, Ra'no!» – deb yengilganini tan oladi?	«Muhabbat jomidin no'sh aylagan ahli zako bo'lmish, Fununi tibda majnundir kishining kuysa safrosi»	
232.	«Oila va kishilar bilan muomala», «Hayot sha'mi», «Ochiq xat» kabi bo'limlar qaysi asardan o'rin olgan?	«Mehrobdan chayon» romanidan	
233.	«Mehrobdan chayon» romani asosida qaysi film yaratilgan?	«Zulmatni tark etib» kinofilmi	
234.	«... Tabiat xasis emas; tikandan gul, aridan bol yarata beradi... Uni fazl va zakovatda ham o'tkan xon zamonlari asrining nodir uchrayturgan yakto fozila qizlaridan sanaymiz va sanashga ham o'zimizda majburiyat his etamiz. Jodu ko'z kishiga qattiq qaraganda qoralikdan boshqacha yana bir turlik nur sochar edi. Kipriklari ostida nafis bir surma doirasi bor edi. Qoshi tutash kabi ko'rinsa ham, ko'ndalang yotgan ikki qilich orasini nafis bir quyulib ko'tarilish ajratib tutar edi. Sochlari juda quyuq, sanoqsiz kokillari orqa, o'ngini tutib yotar, qaddi uzunlik bila qisqalikning o'rtasi, bu qiz yolg'iz Qo'qonninggina emas, umuman Farg'onaning kuylariga qo'shilib maqtaladurgan go'zallardan edi». Parchada qaysi qahramon ta'riflangan?	Ra'no	

235.	«Xayrul-umuri avsatuho» («Har ishning o'rtasi yaxshi») hadisini o'ziga shior qilib olgan qahramon	Solih maxdum	
236.	Oybek qaysi qahramonga yuksak baho berib, uni «asardagi hamma personajlar orasidan eng jonli, eng yorqin, eng tipik figura» deb atagan?	Solih maxdumni	
237.	«Y...lar to'kilsa yerga yotib yalar taqsim, <i>Bo'lsa bozorda pastlik sotib olar taqsim.</i>	Solih maxdum haqida Ra'no yozadi	
	«Menim uchun bir zirak, Ra'nobonuga jevak», <i>Desa oyim – «Ne kerak?!» yumma talar taqsim.</i>		
	«Quloq teshish fazl emas, pulni topish hazl emas, <i>Jevak taqish farz emas!» g'avg'o solar taqsim.</i> Kimning pastkashligi, xasisligi haqida qaysi qahramon ushbu hazil-mutoyiba she'ri bitadi?		

Ushbu she'riy parchalar qaysi qahramonning nutqidan olingan?

238.	«Agar Farhodning Shirin, bo'lsa Majnunlarning Laylosi, <i>Nasib o'lmish menga gulshan aro gullarning Ra'nosi</i> »	Anvarning	
239.	«Agar or etsa Layli haqlidir Qaysning jununidin, <i>Ne baxt, Ra'no, xaridoring talab ahlining «Mirzo»si</i> »	Ra'noning	

240.	«O'zini «onhazratning otgan o'qlari» sanaydigan, xon haramini do'ndiq qizlar bilan to'ldirib turishni kasb qilib olgan» qahramon...	Gulshan	
241.	Roziya oyim kimning rafiqasi...	Xudoyorxonning	7
242.	O'limga hukm qilingan Anvarning gunohidan kechishni Xudoyorxondan iltimos qilgan qahramon...	Muhammad Niyoz domla	7
243.	Anvarning jonajon do'sti...	Nasim	7
244.	Xon tomonidan Anvar o'limga buyurilgan lavhada kimning xatti-harakatini jasorat sifatida baholash mumkin?	Muhammad Niyoz domlaning	7
245.	Qodiriyning «Mehrobdan chayon» romanida yozilishicha, Anvar tomonidan aytilgan qo'rqinch va hayqiriq Xudoyorxonni insofga keltiradi. O'sha qo'rqinch va hayqiriq...	Sizda adolat bormi, janob!	7
246.	Qodiriyning «Mehrobdan chayon» asarida Anvarga homiylik qilgan sarmunshiy...	Muhammad Rajabbek poygachi	7
247.	Abdulla Qodiriy «Mehrobdan chayon» romanida «mehrobdagi chayonlar» deb kimlarni nazarda tutgan?	Xudoyorxon, Abdurahmon, Kalanshoh mirzo, Shahodat mufti	7
248.	Anvarning: «...zero, zulmi naqadar kuchaysa, uning umri shuncha qisqa bo'lishi tajribalar bilan sobitdir», – so'zlari kimga nima maqsadda aytilgan?	Ra'noga sabr qilish zarurligini tushuntirish uchun	7

249.	Anvarni o'z ixtiyori bilan xon huzuriga borishdan qaytarolmagan Qobilboy nima uchun ukasining xayrlashuviga javob bermay chiqib ketadi?	Do'stlari bilan ahdlashganday ukasini qutqarish haqida o'ylagandi	7
250.	Qodiriyning «Mehrobdan chayon» asarida o'limga hukm qilingan Anvarning gunohidan kechishni Xudoyorxondan iltimos qilgan shaxs...	Muhammad Niyoz domla	7
251.	«Mehrobdan chayon» romanida Qobilboy va uning ikki do'sti qanday qilib Anvarni qutqarishga muvaffaq bo'lishdi?	Xalq ularga yordam berdi	7
252.	«Xotin-qizlar jinsidan irodasi kuchli, hatto erlardan ham jasurroq shaxslarni ko'p uchratamiz. Shuning bilan birga, ularni naqadar kuchli irodaga molik bo'lmasinlar, yana hissiyotlarga mag'lub ko'ramiz». Ushbu fikrni qaysi adib qaysi asarida to'lqinlanib yozgan?	A.Qodiriy, «Mehrobdan chayon»	7
253.	Qodiriyning «Mehrobdan chayon» romanida yozilishicha, «Raqibni bu qadar jasoratda ko'rgan Xudoyorxonning kiprik ostlari uchib, soqol tuklari silkindi va bir oz so'z topolmagandek tamshanib turdi». Keyin Anvarga qarata nima dedi?	Sen bizga xiyonat qilding, it uvli!	7

**«Mehrobdan chayon» asaridan olingan
quyidagi soʻzlarning maʼnosini izohlang**

254.	Qofiya	arab tili grammatikasi, aslida «Kifoyat»	7
255.	nahv	sintaksis	7
256.	sarf	morfologiya	7
257.	pir-u juvon	keksa-yu yosh	7
258.	bogʻi zako	aql bogʻi	7
259.	ehtimomi tom	butun diqqat bilan	7
260.	mohona (moyana)	oylik	7
261.	darhon	ozod etish	7
262.	moloyaʼni	qiymatsiz narsa	7
263.	kulli yavmin batar	kundan kun battar	7
264.	havodis	hodisalar, voqealar	7
265.	sabnoma	soʻkib, tahqir qilib yozilgan xat	7
266.	maol	mazmun, maʼno	7
267.	baid	uzoq	7
268.	gʻayraz	boshqa	7
269.	qarobat	yaqinlik	7
270.	muroqaba	mushohada qilish	7
271.	masnad	martaba	7
272.	zohir	oshkora, ochiq	7
273.	vusuq	ishonch	7
274.	mahzi haqiqat	faqat toʻgʻri gap	7
275.	siforish	mehribonlik, himmat	7
276.	halli	hal qilinishi	7
277.	eʼtimod	ishonch	7
278.	muʼtamad	ishonchli	7
279.	rogʻib	moyil	7
280.	navqaslanmoq	kasallanmoq	7
281.	solib tashlash	yechib tashlash	7
282.	nar xar	hang, erkak eshak	7
283.	shustagar (murdashoʻy)	murda yuvuvchi	7
284.	magʻzi sar	miya qatigʻi	7

285.	gunohida toyildi zor	gunohiga qoldi bechora	7
286.	barimta	garovga, kafilga olish	7
287.	Chi balo shud?	Senga nima balo bo'ldi?	7
288.	isror	qat'iylik, o'jarlik	7
289.	habslar	qamaluvchilar, mahbuslar	7
290.	ovoq	avaxta, maxsus qamoq	7
291.	po'pisa	yolg'ondan qo'rqitish	7
292.	qiyom	tush	7
293.	hamoqat	ahmoqlik	7
294.	takya qilgan	suyangan	7
295.	shig'ovul	saroy marosimlarini boshqarib turadigan amaldor	7
296.	g'ayri	boshqa, o'zga	7
297.	hamnishin	birga o'tirganlar	7

«O'tkan kunlar» romani

298.	Adib «O'tkan kunlar» romani uchun material yig'ishga qachon kirishadi?		1917 – 1918-yillarda	9
299.	Yozuvchi romanni qachon yoza boshladi?		1919-yildan	9
300.	«O'tkan kunlar» romani qachon chop etildi?	1923 – 1924-yillarda romanning dastlabki boblari «Inqilob» jurnalida chop etildi. 1925 – 1926-yillarda romanning bo'limlari alohida-alohida uch kitob tarzida, 1926-yilda «O'tkan kunlar» yaxlit asar sifatida bosilib chiqdi		9, 10
301.	Romandagi voqealar qaysi shaharlarda bo'lib o'tadi?	Marg'ilon va Toshkentda		10
302.	«O'tkan kunlar» romani asosida nechta film suratga olingan?		2 ta	10

303.	«O'tkan kunlar» asari mavzusi...	«Tariximizning eng kir qora kunlari» bo'lgan «xon zamonlari»	10
304.	Romanning pafosini (jo'shqinligini) tashkil etuvchi masala...	El-yurtning mustaqilligi, birligi masalasi	10
305.	Turkistonning tanazzuli sabablari badiiy jihatdan keng yoritilgan roman...	«O'tkan kunlar»	10
306.	«O'tkan kunlar» romanidagi voqealarni yozuvchi sarlavhalar bilan nomlagan. 9-sinf darsligida romanning qanday sarlavhalar bilan nomlangan qismlari berilgan?	«Kiroyi kuyaving shundog' bo'lsa», «Kutilmagan baxt», «Ota-ona orzusi», «Dushanba kuni kechasi», «Oy etak bilan yopilmas», «Maktub»	9
307.	10-sinf darsligida «O'tkan kunlar» romanining qanday sarlavhalar bilan nomlangan qismlari berilgan?	«Otabek Yusufbek hoji o'g'li», «Bek oshiq», «Toshkand ustida qonliq bulutlar», «To'y, qizlar majlisi», «Kutilmagan baxt», «Yusufbek hoji», «Hukmnoma»	10
308.	Roman qanday boshlanadi?	«1264-hijriy dalv oyining o'n yettinchisi, qishki kunlarning biri, quyosh botgan, tevarakdan shom azoni eshitiladir», – degan jumla bilan boshlanadi	10
309.	Otabekning yurti...	Toshkent	9
310.	Otabekning quli (aslida ma'naviy otasi)...	Hasanali	9
311.	Otabek nima uchun Marg'ilonga keldi?	Savdo ishi yuzasidan	9

Otabek Yusufbek hojining o'g'li

312.	Og'ir tabiatli, ulug' gavgdali, ko'rkam va oq yuzli, kelishgan, qora ko'zli, mutanosib qora qoshli va endigina murti sabz urgan bir yig'it...	Otabek	10
313.	Otabek Marg'ilonga birinchi marta qachon keigan?	1264-hijriy, dalv oyining o'n yettinchisi, qishki kunlarning birida	10
314.	Gavgdaga kichik, yuzga to'la, ozroqqina soqol-murtli, yigirma besh yoshlar chamali yigit...	Marg'ilon boylaridan Ziyo shohichi deganning Rahmat ismli o'g'li	10
315.	Uzun bo'yli, qora cho'tir yuzli, chag'ir ko'zli, chuvoq soqol, o'ttiz besh yoshlarda bo'lgan ko'rimsiz bir kishi...	Homid	10
316.	Yuqoridagi qahramon yaxshigina davlatmand bo'lsa ham, lekin boyligi bilan emas, qanday nom bilan shuhratlangan?	«Homid xotinboz» deb	10
317.	Homidning Rahmatga qanday yaqinligi bor?	Homid – Ziyo shohichining qaynisi, Rahmatning tog'asi	10
318.	60 yoshlar chamasida, cho'ziq yuzli, do'ngirroq peshonali, sariqqa moyil, to'garak qora ko'zli, oppoq uzun soqolli qahramon...	Hasanali, Otabekning quli	10
319.	Yusufbek hoji Hasanalini qachon sotib olgan?	Hasanalini bolalik vaqtida Erondan kishi o'g'irlab kelguchi bir turkman qo'lidan Otabekning bobosi 15 tillo barobariga sotib olgan	10
320.	Hasanalining Otabeklar xonadonida qullikda bo'lganiga necha yillar bo'ldi?	Ellik yillar chamasi	10

321.	Hasanalining farzandlari bormi?	Farzandlari yo'q, bo'lsa ham yoshligida o'lib ketgan	10
322.	Otabek Toshkentdan Marg'ilonga qanday mollar olib keldi?	Gazmol, qalapoy abzali (oyoq kiyimning bir turi) va biroz qozon	10
323.	Homid Marg'ilonda qaysi mollar bozori chaqqonligini aytdi?	Gazmol va qalapoy abzalining	10
324.	Rahmat tog'asi Homid bilan Otabekning oldiga nega kelgan edi?	Mehmonga chaqirish uchun	10
325.	«Qamchiningdan qon tomsa, yuzta xotin orasida ham rohatlanib tiriklik qilasan», – degan qahramon...	Homid xotinboz	10
326.	Mirzakarim savdogar ma'lum vaqt qayerda qutidorlik qilgan?	Toshkentda	10
327.	Mizakarim qutidorning uyi qayerda?	Marg'ilon poyabzal rastasining burchagidagi imorat	10
328.	«Bizning Marg'ilonda bir qiz bor, shundog' ko'hlikki, bu o'rtada uning o'xshashi bo'lmas...» Ushbu ta'rif kimga berilgan?	Rahmat tomonidan Mirzakarim qutidorning qizi Kumushbibiga	10
329.	Rahmat Kumushbibini haqida so'z ochganida Otabek bu qizni ko'rgan edimi?	Otabek Marg'ilonga kelgan kunidan ikki kun o'tgach tahorat olish uchun Mirzakarim qutidorning tashqari hovlisiga kirgan va Kumushbibini tasodifan ko'rib, yoqtirib qolgan edi	10
330.	Hasanali Otabekka Kumushbibini so'rab kim bilan sovchilikka bordi?	Ziyo shohi-chi bilan	

«Kiroyi kuyaving shundog' bo'lsa»

331.	«Chorxari ayvonning o'rta bir yerida, ustiga atlas ko'rpalar yopilgan tanchaning to'rida devorga suyanib, avrasiga qora movut surilgan sovsar po'stin kiyib bir kishi o'tiradi». Bu kishi...	Mirzakarim qutidor	9
332.	Yozuvchi romanning qaysi hikoyasida bir o'rinda uch ayol bilan tanishtiradi?	«Kiroyi kuyaving shundog' bo'lsa» sarlavhali hikoyasida (Oftoboyim, Oyshabibi, To'ybeka bilan tanishtiradi)	9

Quyidagi ta'riflar qaysi qahramonlarga berilgan?

333.	Ichidan atlas ko'ylak, ustidan xonatlas guppi kiygan, boshiga oq dakanani xom tashlagan, o'ttiz besh yoshlardagi go'zal, xushbichim bir xotin. Yuzidan muloyimlik, eriga itoat, to'g'rilik ma'nolari tomib turgan bu xotin qutidorning rafiqasi...	Oftob oyim	9
334.	Yetmishlardan o'tgan bir kampir, Oftoboyimning onasi...	Oysha bibi	9
335.	O'choq boshida qo'polgina qirq besh yoshlardagi ayol – oilaning cho'risi...	To'ybeka	9
336.	Uzun zulfli, quyuq kipriklari qayrilgan, qoshlari qiyiq, ko'zlari tim qora, oq yuzlari to'lgan oydek g'uborsiz, qo'llari oq nozik, burnining o'rtomoniga tabiat nihoyatda usta qo'lli bilan qora xol qo'ndirgan, sariq atlas ko'ylak kiygan qiz...	Kumushbib	9

337.	Kumush boshini bir silkitdi. Silkinish orqasida uning yuzini to'zg'igan soch tolalari o'rab olib jonso'z bir suratga kirgizdi. Jonso'z so'zining ma'nosi...	Jon o'rtovchi, azob beruvchi	9
338.	Onasi nima uchun Kumush- bibini namozga ham uyg'otma- gan edi?	Bir necha kundan beri sovuq havo tegdirib, bosh og'rig'i va ko'z tinishiga o'xshash og'riqlardan shikoyat qilib yurgani uchun	9
339.	Kumushbibining yoshi...	17 – 18	10
340.	Otabek kimning o'g'li...	Toshkentlik Yusufbek hojining	9

Quyidagi gaplar qaysi qahramonlar nutqidan olingan?

341.	– Mehmonlar qanaqa kishilar ekan, tanidingmi?	Oftob oyim	9
342.	– Nax bizga kuyav bo'ladirg'an yigit ekan	To'ybeka	9
343.	– Tentagingning aqli balo, kiroyi kuyaving shundog' bo'lsa	Mirzakarim qutidor	9

«Toshkand ustida qonliq bulutlar»

344.	Marg'ilonda qanday xabarlar tarqaldi?	Toshkent hokimi bo'lgan Azizbek Qo'qonga qarshi bosh ko'targan, xon tomonidan xiroj (zakot, soliq) uchun yuborilgan devon beklarini o'ldirgan. Ikkinchi kun yana boshqa xabar: «Musulmonqul Normuhammad qushbegiga besh ming sipoh qo'shib, Toshkent ustiga jo'natgan!» – degan gaplar tarqaldi	10
------	--	---	----

Yusufbek hojining Otabekka yozgan maktubi mazmuni yuzasidan savollar

345.	Qo'qonga qarshi kim isyon qilgan?	Azizbek	10
346.	Xazina hisobini olishga kelgan devon beklarini Azizbek qanday jazoladi?	O'rda darvozasiga osib o'ldirdi	10
347.	Kirovchidan besh ming sipoh bilan Toshkent ustiga yurish qilish kimga topshirilgan?	Normuhammad qushbegiga	10
348.	Azizbek Toshkent xalqi oldida devon beklarini o'ldirganini qanday izohladi?	«Bular Musulmon cho'loqning sarkardalaridan, qipchoqlarning yo'lboshchilaridan va qora choponning dushmanlaridan bo'lg'an ikki to'ng'izning gavdalari! Men bularni siz qora chopon fuqarom tomonidan o'ch olish uchun o'ldirdim, siz qorachopon og'aynilarning qipchoq qo'lida shahid bo'lg'an qarindoshlaringizning ruhlarini shodlantirmoq uchun o'ldirdim!» – dedi Azizbek	10
349.	Yusufbek hoji maktubida Otabekka qanday maslahat berdi?	Siyosat to'g'risida o'ylab gapirishini tayinlaganidan so'ng: «Bu tinchsizlik bosilmag'uncha Toshkandga kelmasliging maslahatdir. Toshkand tinchlangandan keyin (agar salomat bo'lsam) o'zim xabar yuborurman», – dedi	10
350.	Yusufbek hoji maktubni qaysi sanada bitdi?	27-dalv oyida 1264-yilda yozildi	10
351.	Otabek kimni «tulki» dedi?	Azizbekni	10

To'y, qizlar majlisi

352.	To'y va qizlar majlisi qayerda bo'lib o'tadi?	To'y Marg'ilondagi Qutidorning hovlisida, qizlar majlisi esa Kumushbibi tog'asining uyida bo'lib o'tadi	10
353.	«Lolalar ichidagi bir gul va yo yulduzlar orasidagi to'lgan oy», – deya ta'riflangan qahramon...	Kumushbibi	10

Quyidagi gaplar qaysi qahramonlar nutqidan olingan?

354.	Biz nima uchun yig'ildiq-da, nimaga yēr chizishib o'tiramiz! Biz bu yerga aza ochqali keldikmi?	Gulsinbibi	10
355.	Tur, Savra! Havlig'a olov yoqib childirmangni qizit! Anorgul, sen dutoringni ol! Kumushbibi, siz ham uncha xayol surmang, kulib o'lturing!	Xonimbibi	10
356.	Anorgul dutorda qaysi kuylarni chaldi?	«O'rtoqlar», «Ifor» kuylarini	10
357.	Qaysi qizlar raqsga tushishdi?	Xonimbibi, Gulsinbibi	10
358.	Qizlar majlisi qaysi bazmni xotirlatmoqda edi?	«Ming bir kecha» ertagi «Alf Laylo» hikoyalaridagi «parilar» bazmini	10
359.	Gulsinbibi va Xonimbibi qizlar va dutor jo'rligida qaysi qo'shiqni kuylashdi?	«Yig'larman» qo'shig'ini	10

Quyidagi misralarni davom ettiring

360.	O'rtoqlarim qo'lga olsam torimni...	Beixtiyor yodlaydirman yorimni!..	10
361.	Bir ko'rinib yag'mo qilgan ko'nglimni...	Qaytib yana ko'rolmadim norimni!..	10
362.	Agar ko'rsam edi yana yorimni...	Bag'ishlardim hamma yo'q-u borimni!..	10
363.	Bilurmikin, bilasmikin u zolim...	Kunlar, tunlar tortgan oh-u zorimni!..	10
364.	Chindan ayting, o'rtoqlarim, menga siz...	Qayta boshdan ko'rarmanni yorimni?..	10
365.	Ketdi toqat, ketdi sabrim... ketdilar...	Sindirarman urib yerga torimni!	10
366.	Qizlar lapar aytishdi. Kelin, kuyov rolini kimlar bajarishdi?	Gulsin – kuyov, Xonimbibi kelin rovida lapar aytishdi	10

«Kutilmagan baxt»

367.	To'yi bo'layotgan Kumushbibi nima sababdan nikohga norozi edi?	Kuyov ariq bo'yida o'zi ko'rgan yigit (Otabek) ekanligini bilmagani uchun	9
368.	Domlaning so'roviga javoban Kumushning roziligi qanday olindi?	Kumushbibidan vakolat olish juda qiyin bo'ldi. Domlaning «Sizkim Kumushbibi Mizakarim qizi...» deb 6, 7 qaytarilganidan keyin, shunda ham yangalar qistovi bilan arang uning rizoligi olindi	9
369.	Soat nechada kuyov keldi?	Besh yarimlarda	9

370.	«Boshida simobi shohi salla, ustidan qora movut sirilgan sovsar po'stin, ichida o'zining Shamayda tiktirgani osmoni rang movut kamzul, movut shim: oyog'ida qala poyabzali, belida Kumushbibining usta qo'li bilan tikilgan shohi qiyig'... Yuzlar qizil, og'iz irpaygan, ko'zlar o'ynab allakimni qidiradir». Parchada kimning portreti tasvirlangan?		Otabekning	9
371.	Otabek va Kumushbibining vakillari...	Otabekning vakili – Ziyoshohichi, Kumushbibining vakili – amakisi Muhammadrahim		10
372.	Vakillar ko'p tortishishganidan so'ng mahrga qancha mablag' belgilandi?	300 oltin pul, bundan keyin olib berish va'dasi bilan Marg'ilondan o'radek bir hovli, sog'ish uchun sigir, ro'zg'or asbobi...		10
373.	Otabekning roziligi qanday olindi?	Kuyov domlanning uchinchi so'rog'ida javob berishi odat hukmida bo'lsa ham, Otabek bu takallufga chidamadi. Go'yo uchinchi so'roq o'rniga «Endi olmas ekansiz Kumushbibini» deyishadi deb o'ylab, ikkinchi so'roqdayoq «Qabul qildi!» deb yuboradi		9
374.	Otabekni otalik muhabbati bilan kelinning oldiga kim kuzatdi?	Hasanali		9
375.	«Kutilmagan bir baxt» deb kim aytdi?	Kumush		9
376.	Otabek Kumushbibiga qanday sovg'a taqdim etdi?	Kumushbibining bilagiga oltin uzuk (bilakuzuk) soldi		9

377.	Otabek va Kumush dastlab qayerda uchra-shishgan edi?	Marg'ilonga kelganining ikkinchi kunida poyabzal bozori yaqinidagi Qutidorning uyiga tahorat olishga kirgan Otabek tasodifan Kumushni ko'rgan, Kumush ham beixtiyor yigitga termilgan va yengilgina bir tabassum hadya qilgan edi	9
378.	Chingilin so'zining ma'nosi...	Kelishgan	9
379.	Asarda «chingilin» deb qaysi qahramon ta'riflangan?	Otabek	9

Yusufbek hoji

380.	Otabek, Mirzakarim qutidor, Ziyo shohichi va Rahmatlar nima uchun qamalishdi?	Kumushbibiga yetolmay dog'da qolgan Homid xotinboz qo'rboshi bilan til birlashtirib «Otabek isyon chiqarish uchun Marg'ilonga kelgan», – deb tuhmat qilgani uchun	10
381.	Hasanalini nega qamoqqa olishmadi?	U najot istab Toshkentga – Yusufbek hojining oldiga ketib qolgani uchun	10

Hukmnoma

382.	«Gunohkorlar»ga qanday jazo tayinlashdi?	Otabek va Mirzakarim qutidor o'lim, ya'ni dorga osish jazosiga, Ziyo shohichi va o'g'li Rahmat bir yil zindon jazosiga mahkum qilindi	10
383.	Hukmni kim o'qib eshittirdi?	Marg'ilon hokimi O'tabbay qushbegi (Qo'qon xoni Xudoyorxon nomidan)	10
384.	O'rda qorovuli kim?	Pirmat	10

385.	«Aybdorlar» nega jazo olishmadi?	Kumushbibi Yusufbek hojining Otabekka yozgan maktubini O'tabboy qushbegiga keltirib bergani uchun	10
386.	Kumushbibini «Najot farishtasi», – deb kim ta'rifladi?	O'tabboy qushbegi	10
387.	Ish bir tarafli bo'lguncha Otabek qochmasligi uchun kim kafil bo'ldi?	Bor mol-mulki bilan Mirzakarim qutidor	10

«Ota-ona orzusi»

388.	«...Ellik besh yoshlar chamaliq, chala-dumbul tabiatlik bir xotin bo'lsa ham, ammo eriga o'tkirligi bilan mashhur edi. Uning o'tkirligi yolg'iz eriga emas, Toshkand xotinlarig'a ham om edi. O'zga xotinlar uning soyasiga salom berib, to'ylarida, azalarida, qisqasi, tiq etgan yig'inlaridagi uylarining to'rini ...ga atag'an edilar». Parchada kim tasvirlangan? Bu qahramon qaysi hikoyada tanishtirilgan?	O'zbek oyim «Ota-ona orzusi» hikoyasida tanishtirilgan	9
389.	O'zbekoyim Otabekning uylanganini kimdan eshitadi?	Hasanalidan	9
390.	Hasanalining xotini – uyning xizmatkori...	Oybodoq	9
391.	O'zbekoyimning uyidagi cho'ri qiz...	Hanifa	9
392.	«Yusufbek hojining qiziq bir tabiati bor: xotin bilangina emas, umuman uy ichisi bilan har qanday masala ustida bo'lsa-bo'lsin uzoq so'zlashib o'lturmaydur. Otabekmi,	Agar ma'qul tushsa «Xo'b», gapga tushunmagan bo'lsa «Xo'sh», noma'qul bo'lsa	

	onasimi, Hasanalimi, ishqilib uy ichidan birartasining so'zlari va yo kengashlari bo'lsa, kelib hojining yuziga qaramasdan so'zlab beradilar; maqsad aytib bitkandan sekingina ko'tarilib uning yuziga qaraydirlar. Yusufbek hoji bir necha vaqt so'zlaguvchini o'z og'ziga tikiltirib o'tirganidan so'ng, qanday javob aytadi?	«Durust emas», – deydi va juda ham noma'qul gap bo'lsa, bir iljayib qo'yish bilan kifoyalanadi	9
393.	O'zbekoyim Yusufbek hojiga: «Bu kalvak o'g'lingiz marg'ilonliqning eshigida qul bo'lib yotib oladir...», – deydi. «Kalvak» so'zining ma'nosi...	Dovdir, bo'shang	9
394.	Otabekka «ota-onani haqsiz tashlab qo'ymaslik» va «ota-ona orzusiga haq berish»ni kim tushuntirgan?	Yusufbek hoji	9
395.	Otabekni uylantirmoqchi bo'lib, ota-onasi kimning qiziga unashtirishdi?	Olim ponsad-boshining qiziga	9
396.	Otabek nima uchun ikkinchi marta uylanishga rozi bo'ldi? Ota-ona orzusiga haq berish uchun rozilik beradi (Lekin Otabek ota-onasiga: «Kelingiz qarshisida meni bir jonsiz haykal o'rnida tasavvur qilingiz», – deydi)		9
397.	Otabek to'ydan avval ota-onasiga qanday shart qo'ydi?	Marg'ilonga borib, u yerdagilarga to'y haqida aytib o'tishni	9

Dushanba kun kechasi

398.	Otabek nima sababdan Kumushning uyidagilari tomonidan quviladi?	Ota-ona orzusiga ko'ra Toshkentdan ham uylanishga majbur bo'lgan Otabek Kumushni qo'lga kiritishga astoydil ahd qilgan yovuz Homidning hiylalari tufayli	9
399.	Otabek tortgan barcha azoblarning sababchisi...	Homid	9
400.	Otabek nechta jinoyatchini o'ldiradi?	Yolg'iz o'zi dushmanlariga qarshi omonsiz kurashga kirishgan Otabek uch nafar jinoyatchini o'ldiradi	9
401.	Jinoyatchilar kimlar edi?	Homid, Sodiq, Mutal	9
402.	Homid Kumushga erishish yo'lida kimni o'ldirgan edi?	Kumushga unashtirib qo'yilgan yigit Komilbekni	9
403.	«Tezroq keling, Homid aka, Otabekni o'ldirdik!» – deb kim aytdi?	Otabek	9
404.	Homidning kirdikorlari-ni ayting	1) Otabekni: «Qora choponchi, qipchoqlarga qarshi isyon chiqarish uchun Marg'ilonga keldi», – deb dor ostigacha olib borgan; 2) Musulmonqul qo'lga topshirgan; 3) Kumushga uylanmoqchi bo'lgan va u bilan unashtirilgan Komilbekni to'yi kuni o'ldirgan; 4) Otabek nomidan soxta taloqnoma va xat yozgan; 5) Sodiq va Mutalni Kumushni o'g'irlashga majbur qilgan hamda ularning o'lib ketishiga sababchi bo'lgan	9

Toshkentda qipchoqlar qirg'ini

405.	Shaxsiy hayoti yo'lga tushmagan Otabek yana nega azob chekdi?	Yurtning notinchligi, elning abgorligini ko'rib, yana azob chekadi	9
406.	Otabek otasidan nima uchun ranjiydi?	Toshkentda qipchoqlar ayovsiz qirg'in qilinganini ko'radi va bu ishga o'rdaga yaqin kishilardan bo'lmish Yusufbek hoji ham qatnashgan deb o'ylab otasidan ranjiydi	9
407.	Donishmand ota o'g'li Otabek bilan qanday mavzuda suhbatlashdi?	Mamlakatning ayanchli buguni va tahlikali ertasi to'g'risida	9
408.	Qipchoqlarni qatliom qilishga qaysi majlisda kengashgan edilar?	Rajabbeknikida bo'lgan majlisda	9
409.	Qipchoqlar qirg'iniga Yusufbek hoji ham rozi bo'ldimi?	Yusufbek hoji bu qirg'inga qarshi bo'ldi, majlis ahliga o'z fikrini uqdira olmaganini uchun u yerni tashlab chiqib ketdi	9
410.	«Yirtqichlarning bu qirg'indan qanday muddaolari hosil bo'larkin», – degan savoliga Yusufbek hoji qanday javob berdi?	«Maqsadlari juda ochiq, bittasi mingboshi bo'lmoqchi, ikkinchisi Normuhammad o'rnig'a minmakchi, uchinchisi yana bir shaharni o'ziga qaram qilmoqchi. Xudoyorxon esa Musulmonqulg'a bo'lg'an adovatini qipchoqni qirib alamidani chiqmoqchi»	9

411.	«Biz shu holda ketadigan, bir-birimizning tegimizga suv quyadirg'an bo'lsa, yaqindirki, o'rus istibdodi o'zining iflos oyog'i bilan Turkistonimizni bulg'atar va biz bo'lsa o'z qo'limiz bilan kelgusi naslimizning bo'ynig'a o'rus bo'yindirig'ini kiydirgan bo'larmiz». Ushbu fikrlar qaysi qahramon nutqidan olingan?	Yusufbek hoji	9
412.	Yusufbek hoji o'g'liga yurt tinchlighi, fuqarolarning osoyishtalighi va ruslarning bosqinchilighi haqida qanday fikrlarini aytdi?	«Men ko'b umrimni shu yurtning tinchlighi va fuqaroning osoyishi uchun sarf qilib, o'zimga azobdan boshqa hech bir qanoat hosil qilolmadim. Ittifoqni, ne el ekanini bilmagan, yolg'iz o'z manfaati, shaxsiyati yo'lida bir-birini yeb-ichkan mansab-parast, dunyoparast va shuhrat-parast muttahaamlar Turkiston tuprog'idan yo'qolmay turib, bizning odam bo'lishimizg'a aqlim yetmay qoldi»	9

«Oy etak bilan yopilmas»

413.	Otabek ko'pincha dadasining qaysi harakatidan so'ng o'zini bir tergov ostida ko'rar edi?	Dadasining salla olib, bosh qashinishidan keyin	9
414.	Yusufbek hoji Otabekning Marg'ilonda ikki yildan beri nima ishlar qilib yurganini qanday bildi?	Mirzakarim qutidorning xatidan	9

Quyidagi gaplar qaysi qahramonlar nutqidan olingan?

415.	Jo'n odamlar qatorida odam o'ldirib yurdim, degin?	Yusufbek hoji	9
416.	Jo'n odamlar qatorida emas, majburlar qatorida, zo'rlang'anlar qatorida...	Otabek	9
417.	Kumush «So'zimni o'zimning oxirgi ham chin baxt islari hidlagan tariximdan boshlayman» deb boshlanuvchi xatini qaysi voqeadan so'ng yozgan?	Otabekning jasoratidan so'ng Toshkentga yuborgan xatida	9
418.	Kumush, otasi va onasi Toshkentga yo'lga chiqishgan edi. Otabek Kumushga yaxshi munosabatda bo'lmaydi deb o'ylab, kimdan qo'rqardi?	Onasidan	9
419.	«Erta-indin ko'zimga yo'l ko'rinur, Yo'l bosishliq ko'ngilga bir umr ko'rinur» degan qahramon...	Kumushbibi o'z xatida yozadi	9
420.	Qaysi asarni o'zbek o'quvchisi, butun turkiy tilda so'zlashuvchi xalqlarning zukko kishilari bayramdek kutib olgan?	«O'tkan kunlar»ni	
421.	A.Qodiriy «O'tkan kunlar» romanida bir o'rinda kitobxonni uch ayol bilan tanishtiradi. Bular kimlar?	Oftoboyim, Oyshabibi, To'ybeka	9
422.	Ilk bor xuddi shu roman orqali o'zbek xalqi o'z bisotini, asl qiyofasini, ichki dunyosini kuchli va ojiz tomonlarini bor bo'yicha go'yo tiniq ko'zgudagidek aniq ko'rdi. Ta'riflangan roman...	«O'tkan kunlar»	9
423.	Cho'ri qiz Hanifa qaysi asar personaji?	«O'tkan kunlar»	9

424.	Xalq kimni jazolab, ot tuyoqlari ostiga tashlagan?	Azizbekni	
425.	Otabek Marg'ilon hokimi tomonidan birinchi marta qamalganida, u bilan birga qamalganlar...	Rahmat, Ziyoshohichi, Mirzakarim qutidor	
426.	Qipchoqlarni qirg'in qilish maslahati kimning uyida bo'lgan?	Rajabbekning	9
427.	«Xudoyorxon ham bir kun kechasi kelib, bizga mehmon bo'lganlar», – deb maqtangan qahramon?	O'zbekoyim	9
428.	«O'tkan kunlar»da asosiy yorliq kimning nomiga yoziladi?	Qayum ponsadning	
429.	«Cho'ltoq supurgi» deb ta'riflangan qahramon?	Musulmonqul	
430.	«Men shu choqqacha bandasiga bosh egishni va bandasi oldida tavba qilishni or bildim va shu orlanishim orqasida har kimning ustida yurdim...» – degan qahramon	Xushro'y	
431.	«Ota o'rnida ota», ma'naviy ota» maqomini olgan qahramon?	Hasanali	9
432.	Sodiqning onasi...	Jannat	
433.	Jannat, Usta Farfi, Usta Olim qaysi roman qahramonlari?	«O'tkan kunlar»	
434.	Otabek qanday halok bo'ladi?	Avliyo ota ustidagi chor askarlari bilan to'qnashuvda qahramonona kurashib shahid bo'lgan	

**«O'tkan kunlar» romanidagi quyidagi
so'zlarning ma'nosini aniqlang**

435.	jonso'z	jon o'rtovchi, azob beruvchi	9
436.	g'italanmoq	jonlanmoq	9
437.	Huvalbori	ul Tangri, ul Yaratguvchi	
438.	alauddavom	doimo, hamisha	
439.	rijo	umid, tilak	
440.	tamanno	istak, xohish	
441.	Kirovchi	Qurama bilan Telov orasidagi katta bir qishloq	
442.	yamin	ont, qasam, ishonch	
443.	mustahiq	munosib, loyiq, duchor	
444.	azl	bo'shatish, mansabdan tushirish	
445.	talaf	nobud bo'lish	
446.	addoyi	duo qiluvchi, duogo'y	10
447.	Shamay	Semipalat shahri. Xon zamonlarida Turkiston savdogarlarining o'ris bilan olish-berish savdo shaharlari bo'lgan	
448.	qala poyafzali	shaharcha oyoq kiyim, udumdagi poyafzal	10
449.	irpaygan	irshaygan, kulgisini yashirolmagan	9
450.	chingilin	kelishgan, ko'rkam	9
451.	om	ommaviy, yoppasiga	9

452.	mujrib	sabab	9
453.	itob	ta'na	9
454.	kalvak	dovdir, bo'shang	9
455.	ifo etish	ado etmoq, bajarmoq	9
456.	shuviy	emaklab	9
457.	o'ttasi	ertadan keyin, indin	9
458.	rafoqat	hamrohlik, yo'ldoshlik, eshlik	9
459.	elamadi	e'tibor qilmadi	9
460.	siporish	topshiriq	10
461.	miqroz	qaychi	10
462.	hamduna	asarda maymun muchali nazarda tutilmoqda	10
463.	tavanxona	to'ydagi dasturxonchilar xonasi	10
464.	duvur	davra	10
465.	tavan	xotinlar to'yga olib keladigan noz-ne'matlar	10
466.	bog'iyliq	isyonkorlik	10

CHO'LPON **(1897 – 1938)**

1.	Qaltis vaziyatda yashab turib, o'z millati sha'ni, ozodligi, tengligi uchun dadil va mardona kurashgan, haqiqat va hurlikni e'tiqodiga aylantirgan ijodkor...	Cho'lpon	9
----	---	----------	---

Cho'lpon va uning ijodi haqida qaysi adabiyotshunos olimlar quyidagi fikrlarni bildirishgan?

2.	«Cho'lponning ulug'vorligi shundaki, u XX asr o'zbek adabiyotini yangi pog'onaga ko'tarib, o'zbek adabiy tilining shakllanishi va ravnaq topishiga ulkan hissa qo'shibgina qolmasdan, xalqda «Vatan», «Millat», «Istiqlol» tushunchalarining teran ma'no kasb etishiga ham mislsiz darajada katta ta'sir ko'rsatdi. O'zga so'zlar bilan aytganda, u xalqda hurriyat tuyg'usini uyg'otdi. Uning fuqarolik jasorati xuddi shundadir»	Akademik Naim Karimov	11
3.	«Kecha va kunduz» romanida tugal badiiylilik baxsh etgan eng muhim omil shundaki, Cho'lpon xalq hayotining badiiy tahlilini ham, ijtimoiy hayot haqidagi o'zining mulohazalari va xulosalarini ham biron o'rinda yalong'och aytishga urinmaydi – ularning bari romanda jonli odamlar, ularning taqdiri, xarakterlari mantiqi vositasida ochiladi»	«O'zbekiston Qahramoni» Ozod Sharafiddinov	11

4.	«Milliy adabiyotimizda zamonaviy nasrchilik endigina shakllanayotgan pallada ijod qilgan Cho'lponning ijodiy izlanishlari nasrimizning poetik arenasini boyitishga sezilarli hissa bo'lib qo'shildi. Cho'lpon o'z ijodi bilan nasriy janrlarning turfa imkoniyatlarini namoyon qildi, turli poetik usul va vositalarni dadil tajriba qilib, ularning milliy adabiyotimizda o'zlashib qolishiga puxta zamin hozirladi»	Adabiyot-shunos olim Dilmurod Quronov	11
----	---	---------------------------------------	----

	Cho'lpon yashagan yillar	1897 – 1938-yillar	9
5.	Cho'lpon qayerda tavallud topdi?	Andijon shahrining Qatorterek mahallasida	9
6.	Cho'lponning ota-onasi haqida qisqacha ma'lumot bering	Otasi Sulaymonqul Muhammad Yunus o'g'li ma'rifatli, bilimli ziyolilardan bo'lib, asli savdo bilan (bazzoz – gazlama-furush edi) shug'ullansa-da, she'rlar ham yozib turgan. Onasi Oyshabibi maxsus tahsil ko'rmagan, ammo ko'ngli ochiq, suhbatlari yoqimli, ertag-u qo'shiqlarni ko'p biladigan ayol bo'lgan	7, 9
7.	Cho'lponning otasi qanday taxallus bilan she'rlar yozgan?	«Rasvo» taxallusi bilan she'rlar yozgan, hatto hajviy she'rlardan devon tartib qilgan	7
8.	Sulaymonqul o'g'li Abdulhamidni qaysi kasb egasi qilmoqchi bo'ldi?	Yetuk mudarris (o'qituvchi) qilmoqchi bo'ldi	9
9.	Abdulhamid qaysi dargohlarda ta'lim oldi?	Dastlabki ta'limni o'z mahallasida oldi. (Qur'oni Karimni yod oldi.) Andijondagi rus-tuzem maktabida o'qidi (Botish adabiyoti bilan tanishdi) Andijon, Toshkent madrasalari talabasi bo'lib, fors va arab tillarini o'rgandi	7, 9

10.	Abdulhamid qaysi tillarni o'rgangan?	O'zbek, turk, fors, arab, rus tillarini	7
-----	--------------------------------------	---	---

11.	Cho'lponning mehnat faoliyati haqida ma'lumot bering	1) 1918-yilda Orenburgga boradi va Boshqirdiston hukumatining raisiga kotib bo'ladi; 2) 1919-yilda «Chig'atoy gurungi»da faoliyat yuritdi; 3) 1919-yilda «Yangi Sharq» gazetasida ishlaydi; 4) 1920-yilga qadar TurkRosTA (Turkiston- Rossiya telegraf agentligida) muxbiri; 5) 1921 – 1922-yillarda Fitratning taklifi bilan o'zbek tilidagi «Buxoro axbori» gazetasini boshqardi; 6) 1922-yilda Toshkentga qaytib keladi, «Inqilob» jurnali bilan hamkorlik qiladi; 7) Cho'lpon Andijonda yangi chiqa boshlagan «Darxon» gazetasiga ishga yuboriladi; 8) «Darxon» gazetasi yopilgach, Toshkentga qaytib keladi; 9) 1924 – 1926-yillarda 24 nafar yoshlar bilan Moskvaga o'qishga ketadi va teatr-studiya (dramstudiya) da tarjimon va dramaturg bo'lib ishlaydi (V.Bryusov nomidagi adabiyot institutida saboq olgan)	9
-----	--	--	---

12.	Cho'lpon qaysi tillar vositasida dunyo adabiyoti durdonalarini o'qidi?	Turk, rus, fors, arab tillari vositasida	9
13.	«Bugungi turk eli va uning yaqin tarixi» asarining muallifi...	Zaki Validiy	9

14.	Cho'lpon qaysi ijodkorlarning ta'sirida turkchilik g'oyalari, jadid qarashlari bilan tanishadi?	Zaki Validiy va Fitrat	9
-----	---	------------------------	---

Quyidagi yillarda Cho'lpon hayoti va ijodi bilan bog'liq qanday voqealar sodir bo'ldi?

15.	1920-yil	Bokuda o'tkazilgan Sharq xalqlarining qurultoyi bo'lib o'tdi. Bu qurultoy Cho'lpon qarashlarining rivojida muhim ahamiyat kasb etdi	9
16.	1920-yil	Cho'lpon ijodi uchun samarali davr bo'ldi. 20-yillarning birinchi yarmida Turkistonda chiqib turgan deyarli barcha gazeta-jurnallarda Cho'lpon she'rlari bosilar va ular turkistonliklarni o'zlarini anglashga undardi	9
17.	1926-yil	Toshkentga qaytgan Cho'lpon sho'ro hukumati yuvindixo'rlari tomonidan iste'dodsiz kimsalarning qattiq hujumiga duch keldi. Uni «millatchi va badbin shoir» deya aybsitdilar. Respublika matbuotida Cho'lpon ijodi bo'yicha ur-surdan iborat munozara bo'lib o'tdi	9
18.	1927-yil oktabr	Madaniyat xodimlarining 1927-yil oktabrda bo'lib o'tgan II qurultoyida Cho'lpon ijodi «... g'oyaviy tutruqsiz» ekanligi respublikaning rahbarlaridan biri Akmal Ikromov tomonidan ta'kidlangach, shoir deyarli yakkalanib qoladi	9
19.	1930-yillarda	Cho'lponga nisbatan siyosiy-mafkuraviy zug'um yanada kuchayadi	
20.	1932-yil	Moskvaga ko'chib ketadi («Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti» kitobida 1931-yil Cho'lpon Fayzulla Xo'jayev tomonidan Moskvaga jo'natib yuborilishi yozilgan)	9

21.	1935-yil	Moskvadan Toshkentga qaytib keladi va Hamza nomli teatrdagi (shu teatrdagi tashkilotchilaridan biri Cho'lpon edi) adabiy emakdosh bo'lib ishlaydi. Bu yillarda Cho'lponga qaratilgan hujumlar yanada zo'rayadi. Adib asarlari o'zbek matbuotida bosilmay qo'yiladi	9
22.	Cho'lponni qo'llagan adiblar...	Qodiriy, Fitrat, Vadud Mahmud, Oybek	9
23.	Cho'lpon taqdiriga katta ta'sir ko'rsatgan Toshkent jadidlarining sardori...	Munavvarqori Abdurashidxonov	
24.	Qo'qon (Turkiston) muxtoriyatining kuychisi bo'lgan Cho'lpon qanday madhiya yozadi?	«Ozod turk bayrami» nomli	
25.	Cho'lpon uyidagilardan ruxsat olmay, qaysi shaharga ketib, ijod bilan shug'ullandi?	Toshkentga	
26.	Rossiyadagi siyosiy to'ntarishlar davrida Cho'lpon bir muddat Orenburgda yashaganida qanday ish bilan shug'ullandi?	Boshqird hukumati mahkamasida kotib bo'lib ishladi	9
27.	Cho'lpon Orenburgdan Toshkentga qaytganidan so'ng 1920-yilga qadar qayerda muxbir bo'lib ishladi?	TurkRosTAda (Turkiston-Rossiya telegraf agentligida)	9
28.	Cho'lpon Fitrat boshchiligidagi qaysi jamiyatga a'zo bo'lgan?	«Chig'atoy gurungi» jamiyatiga	9
29.	Qachon qayerda bo'lib o'tgan qurultoy Cho'lpon qarashlarining rivojida muhim ahamiyat kasb etdi?	1920-yili Bokuda o'tkazilgan Sharq xalqlarining qurultoyi	9

30.	Bokudan qaytgach Cho'lpon kimning taklifi bilan Buxoroga boradi va qanday faoliyat bilan shug'ullanadi?	Cho'lpon Fitratning taklifiga ko'ra Buxoroga boradi va 1921 – 1922-yillarda o'zbek tilidagi «Buxoro axbori» gazetasini boshqardi	9
31.	«Buxoro axbori» gazetasi kim rahbarlik qilganida o'zbek tilini rasmiy til sifatida yoyish, buxorolik mehnatkashlarni siyosiy hayotga jalb etish, adabiyot va san'atni rivojlantirish bo'yicha yetakchi nashr mavqeyiga erishgan?	Cho'lpon rahbarlik qilganida	9
32.	24 nafar yoshlar Moskvaga o'qishga yuboriladi. Ular orasida qaysi adib bor edi?	Cho'lpon	9
33.	Qaysi adabiy muhit Cho'lpon-ga jiddiy ta'sir ko'rsatdi?	Moskva adabiy muhiti	9
34.	Matbuotda Cho'lpon ijodi muhokama qilinayotganida uni kimlar qo'llab-quvvatlashdi?	Qodiriy, Fitrat, Vadid Mahmud singari adiblar shoirni turli yo'sinda qo'llaganliklariga, Oybek singari yosh talantlar Cho'lpon ijodiga yondashishning sog'lom yo'llarini taklif etganliklariga qaramay, shoir kommunistik mafkura yugurdaklari tomonidan ur kaltak qilindi	9
35.	Zamon og'irlashib bordi. Botu qamaldi, Munavvarqori otildi, Cho'lpon qanday kasalga muhtalo bo'ldi?	Qand kasalligiga	
36.	Cho'lponning eskilikka mukkasidan berilganini isbotlovchi dalil sifatida unga qarshi kurashda muxoliflarga dastak bo'lgan voqea...	Cho'lponning qand kasaliga muhtalo bo'lgani sababli shotut yeb yurishi	
37.	Cho'lpon taxallusini unga kim bergan?	Munavvarqori Abdurashidxonov	

38.	Zaki Validiy Cho'lponni qozoq uyg'onishining qaysi buyuk shoiri bilan qiyoslagan?	Mag'jon Jumaboy bilan	
39.	Buyuk iste'dod egasi qachon gamoqqa olinadi?	1937-yil 14-iyulda	9
40.	Adib davrining bir guruh asl farzandlari qatori qachon otib tashlanadi?	1938-yil 4-oktabrda	9
41.	Adibni otishga sud hukmi qachon chiqariladi?	1938-yil 5-oktabrda	9
42.	Alisher Navoiy nomidagi mukot bilan qachon taqdirlandi?	1991-yilda	
43.	Cho'lpon qachon Mustaqillik ordeni bilan mukofotlanadi?	1999-yilda	

Cho'lpon ijodi

44.	Abdulhamid necha yoshidan irod qila boshladi?	16 yoshiga yetib-yetmay	7
45.	Cho'lpon o'z yozmalarini qaysi nashrlarda e'lon qildi?	«Sadoyi Turkiston», «Sadoyi Farg'ona», «Turkiston viloyati gazetii» kabi nashrlarda	9
46.	Abdulhamid asarlarini qanday taxalluslar bilan chop ettirgan?	«Qalandar», «Mirza qalandar», «Andijonlik», «Q», «Cho'lpon»	9
47.	Cho'lponning ilk she'ri qaysi, u qachon qaysi gazetada bosildi?	1914-yil 18-aprelda «Sadoyi Turkiston» gazetasida «Turkistonli qarindoshlarimizga» she'ri bosildi	9
48.	Cho'lponning birinchi hikoyasi...	1914-yil 29-aprelda yozilgan «Qurboni jaholat» hikoyasi (Cho'lponning birinchi nasriy asari)	9

49.	Cho'lpon hikoyalari...	«Qurboni jaholat», «Do'xtur Muhammadiyor», «Qor qo'ynida lola», «Novvoy qiz», «Oq podshoning in'omi», «Oydin kechalarda», «Nonushta», «Gavharoy»...	9
50.	Dramatik asarlari...	«Mushtumzo'r», «Yorqinoy», «Halil farang», «Cho'rining isyoni», «Yana uylanaman», «O'rtoq Qarshiboyev», «Hujum» (V. Yan bilan hamkorlikda yozilgan, drama matni yo'qolgan)	L, 9
51.	Cho'lpon she'rlari qaysi to'plam va majmualardan o'rin olgan?	«O'zbek yosh shoirlari» (1923-y), «Go'zal yozg'ichlar» (1925-y), «Adabiyot parchalari» (1926-y)	9
52.	Cho'lponning she'riy to'plamlari...	«Uyg'onish» (1922-y, ilk she'riy to'plami), «Buloqlar» (1923-y, ikkinchi she'riy to'plami), «Tong sirlari» (1926-y, uchinchi she'riy to'plami), «Soz» (1935-y, to'rtinchi she'riy to'plami), «Jo'r» so'nggi she'riy to'plam bosilmay qolgan	9
53.	Cho'lponning she'rlari...	«Turkistonli qarindoshlarimizga», «Go'zal», «Qalandar ishq», «Yong'in», «Xalq», «Buzilgan o'lkaga», «Ko'ngil», «Kishan», «Vijdon erki», «Binafsha», «Go'zal Farg'ona», «Galdir», «Bahorni sog'indim»...	L
54.	Cho'lponning qaysi pyesalari milliy dramaturgiyamizni rivojlantirdi?	«Yorqinoy» (1921-y), «Halil farang» (1921-y), «Cho'rining isyoni» (1926-y), «Yana uylanaman» (1926-y), «O'rtoq Qarshiboyev» (1928-y), «Hujum» (1928-y)	9

55.	Cho'lponning tarjima asarlari...	Gogolning «Tergovchi», I.Franko-niing «Feruza», Andreevning «Osilgan yetti kishining hikoyasi», Shekspirning «Hamlet», Gorkiyning «Ona» romani, «Yegor Bulichev» pyesasi, Lohutiyniing «Yevropa safari», Karlo Gotsinniing «Malikayi Turandot», Pushkinning 25 she'ri, «Boris Godunov», «Dubrovskiy» asarlari, I.S.Turgenevning «Cho'ri qiz», Molyerning «Xasis», Goldonining «Ikki boyga bir qarol», Shillerning «Bosmachilar» asarlari	L, 9
56.	Cho'lponning ijtimoiy lirikaga mansub she'rlari...	«Ko'ngil», «Buzilgan o'lka-ga», «Yong'in», «Kishan», «Vijdon erki» she'rlari	9
57.	Cho'lponning jahoniy e'tiroflarga sazovor bo'lgan bebaho asari...	«Kecha va kunduz»	L
58.	Quyidagi parcha qaysi maqoladan olingan? «Adabiyot yashasa, millat yashar»	Cho'lpon	9
59.	«Zindondagi bandini hech bir xayol surmaydi deb, kim aytadi? Gadoy podshoh bo'lmoq istasa, yomonmi?» Ushbu jumlar qaysi asardan olingan?	«Kecha va kunduz» romanidan	L
60.	Quyidagi fikrni davom ettiring. «Ha, to'xtamasdan harakat qilib turgan vujudimizga, tanimizgasuv, havo naqadar zarur bo'lsa, maishat yo'lida har xil qora kirlar birlankirlangan ruhimiz uchun ham shul qadar...»	«Adabiyot kerakdir»	9
61.	1914-yilda yosh qalamkash o'z ijodining mohiyatini ifodalab bergan qaysi maqolasini e'lon qildi?	«Adabiyot nadur?» maqolasini	9

62.	1991-yilda Cho'lponning qanday nomdagi she'riy to'plami nashr etildi?	«Yana oldim sozimni» kitobi nashr etildi	
63.	Cho'lponning romani...	«Kecha va kunduz» (1936)	9
64.	«Haq yo'li, albatta, bir o'tilgusi...» misrasi qaysi ijodkorning qalamiga mansub?	Cho'lponning	9
65.	Cho'lpon adabiyotni qanday ta'riflagan?	«O'tkir yurak kirlarini yuvadurg'on ma'rifat suvi» deb	9
66.	Cho'lpon kimning asarlari ta'sirida turkchilik g'oyalari, jadid qarashlari bilan tanishdi?	Buyuk boshqird olimi Zaki Validiy va yosh o'zbek adibi Fitrat asarlari ta'sirida	9
67.	«Adabiyot yashasa, millat yashar... Adabiyot... o'tkir yurak kirlarini yuvadurgan toza ma'rifat suvi...» – degan oqilona fikrlarni Cho'lpon qaysi maqolasida yozgan?	«Adabiyot nadur?» maqolasida	9
68.	<i>Intim</i> so'zining ma'nosi...	<i>Intim</i> so'zi lotincha so'z bo'lib, «eng ichki», «yashirin» degan ma'nolarni bildiradi	9
69.	Intim lirikada shoir nimani tasvirlaydi?	Shoir bevosita o'ziga tegishli sezim, holat, tuyg'uni tasvirlaydi	9
70.	Cho'lponning qaysi she'ri intim lirikaning yorqin namunasi...	«Qalandar ishq»	9
71.	«Yig'lar yuragimda vatanim», «Men g'olibman, Buyuk lashkarman, Bosib oldim sevgim yurtini» misralari muallifi...	Cho'lpon	9
72.	Shoirning fikri va hissiyoti hayot hodisalari, odamlararo munosabatlar tufayli junbushga kelgan holda ifoda etilgan she'riyat...	Ijtimoiy lirika	9

73.	Ijtimoiy lirikani yuzaga keltiradigan omillar...	Jamiyatdagi adolatsizlik, zo'ra-vonlik, bosqinchilik, odamlarning beburdligi, riyokorlik, sotqinlik va boshqa ijtimoiy illatlar oqibatida tug'yonga kelgan sezimlar ifodasi	9
74.	Cho'lponning ijtimoiy lirikaga mansub she'rlari...	«Ko'ngil», «Buzilgan o'lkaga», «Yong'in», «Xalq», «Qo'zg'alish», «Xazon»	L, 9
75.	Cho'lpon lirikasining asosiy mavzusi...	Mavjud ijtimoiy tuzumga nisbatan isyondir	9
76.	Cho'lponning ishqiy she'rlarida qaysi obraz muhim ma'no tashiydi?	Soch obrazi	
77.	«Men g'olibman. Buyuk lashkarman, Bosib oldim sevgi yurtini» misralari muallifi...	Cho'lpon	9
78.	Shoir she'rlaridagi mustamlakachi davlatning, tuzumning ramzi...	Qor obrazi	
79.	Sho'rolar hukumatini dastlab «Sharqni qul emas, hur qilg'usidir» deb iliq kutib olgan, oktabr inqilobi bilan murosada bo'lgan shoir...	Cho'lpon	
80.	Boshini zo'r ishga berib qo'ygan shoir...	Cho'lpon	7
81.	1917-yil 28-noyabrdagi «Turkiston muxtoriyati»ni olqishlab, uni «ozod turk bayrami» sifatida qabul qilgan shoir...	Cho'lpon	
82.	«Talanmagan, yiqilmagan yer yo'q, Go'daklar nayza boshida...» Ushbu misralar qaysi she'rga epigraf qilib olingan?	«Yong'in» she'riga	L, 9
83.	Cho'lponning «Qalandar ishq» she'ri qanday mavzuda	Ishqiy mavzuda	9
84.	Cho'lponning «O'tkan kunlar» romani darajasidagi asar sifatida baho olgan romani...	«Kecha va kunduz»	9

85.	Cho'lponning «Yorqinoy» asari obrazi Yorqinoy xalqimizning qaysi qahramoniga o'xshash?		To'marisga	
86.	«Qalandar ishq» she'ri qaysi vazn, qanday bahrda?	Aruz vaznining hazaji musammani solim bahrida		
87.	«Qalandar ishq» g'azalining taqtesi...	Mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun V- - - V- - - V- - - V- - -		
88.	Karashma...	Birovga yoqish uchun qilinadigan nozli, yoqimli xatti-harakatdir		9
89.	«Qalandar ishq» she'rida shoir qizning karashmasini nimaga o'xshatyapti?	Dengizga		9
90.	«Go'zal» she'rida lirik qahramon go'zalni nimalardan so'raydi?	Yulduz, oy, tong shamoli, kun (quyosh)		7
91.	«Go'zal» she'rida go'zalni nimalar tushida ko'rganini aytadi?	Yulduz, oy		7
92.	«Go'zal» she'rining bandlari qanday yakunlanadi?	Birinchi bandi «Bizdan-da go'zaldir, oydan-da go'zal», ikkinchi bandi «Mendan-da go'zaldir, kundan-da go'zal», qolgan bandlari «Oydanda go'zaldir, kundan-da go'zal» misralari bilan yakunlanadi		7
93.	«Men shoirmi?» she'ri qanday boshlanadi?	«Tarjimayi holim»ga		L
94.	«Talanmagan, yiqilmagan yer yo'q, Go'daklar nayza boshida... (Xabar)». Yuqoridagi epigraf Cho'lponning qaysi she'ridan o'rin olgan?	«Yong'in»		L, 9
95.	Cho'lpon muhit erkiga taslim bo'lganini qaysi she'rida yozadi?	«Somon parcha?		L

96.	«Yong'in» she'ri qanday boshlanadi?	Nega menim qulog'imda tun va kun, Boyqushlarning shumli tovshi baqirar?	9
97.	«Somon parcha» she'ri yana qanday nomlanadi?	«Kundalik daftarim»dan	L
98.	«Somon parcha» she'rida shoir o'zini nimaga o'xshatadi?	Somon parchasiga	L
99.	«Kuz yomg'iri» she'ri qanday boshlanadi?	«To'kildi tomchilar...»	L
100.	«Kishan» she'ri qanday janrda yozilgan?	G'azal janrida	9

Quyidagi misralar Cho'lponning qaysi she'rlaridan olingan?

101.	«Shoirlik menda bir soyami, deyman...»	«Men shoirmi?»	L
102.	«Xalq istagi – ozod bo'lsin bu o'lka, Ketsin uning boshidagi ko'lanka»	«Xalq»	7
103.	«Ay, tutqunlar, ay ezilgan, Ay, qiynalgan, yo'qsil ellar...»	«Vijdon erki»	L, 9
104.	«Ey! Bo'ynimga kishan solib, halokatga sudragan, Ko'zlaringni zaharlatib o'ynatmagil, bas endi!»	«Qo'zg'alish»	L
105.	«Bo'rilardan omon kutmak – Tentaklarning ishidir ul»	«Vijdon erki»	L, 9
106.	«Ey, sovuq ellardan muz kiyib kelg'onlar, U qo'pol tushingiz qorlarda yo'q bo'lsin! Ey, menim bog'imdan mevamni terg'onlar, U qora boshingiz yerlarga ko'mulsin!»	«Xazon»	L

107.	«Yolg'iz bir o'chib, bir so'nish bordir. Bir o'chib, so'nib... yana yonish bor»	«Bahorni sog'indim»	L
108.	«Muhabbatning saroyi keng ekan, yo'lni yo'qotdim-ku, Asrlilik tosh yanglig' bu xatarlik yo'lda qotdim-ku»	«Qalandar ishqi»	9
109.	«Na mudhish, na sovuq-manxus (naxs bosgan), na qizg'anmas quchog'ing bor! Bashar tarixining har sahfasida qonli dog'ing bor!»	«Kishan»	9
110.	«Nega menim qulog'imda tun va kun Boyqushlarning shumli tovshi baqirar? Nega menim borlig'imga har o'yin Va har kulgi og'u separ, o't qo'yar?»	«Yong'in»	L, 9
111.	«Tiriksan, o'lmagansan, Sen-da odam, sen-da insonsen. Kishan kiyma, Bo'yin egma, Ki sen ham hur tug'ulg'onsen!»	«Ko'ngil»	9
112.	«Ay tutqunlar, ay ezilgan, Ay qiynalgan, yo'qsil ellar, Ay umidsiz, ay chizilgan Dor oldiga ... oppoq dillar!»	«Vijdon erki»	L, 9
113.	«Men yo'qsil na bo'lib uni suyibmen, Uning-chun yonibmen, yonib- kuyubmen, Boshimni zo'r ishga berib qo'yibmen, Men suyib... men suyib, kimni suyibmen?»	«Go'zal»	7
114.	«Bir qo'zg'alur, bir ko'pirar, bir qaynar, Bir intilur, bir hovliqar, bir o'ynar. Yo'qlikni-da, ochlikni-da yo'q etar, O'z yurtini har narsaga to'q etar...»	«Xalq»	7

115.	«Haqorat dilni og'ritmas, Tubanlik mangu ketmasmi? Kishanlar parchalanmasmi? Qilichlar endi sinmasmi?»	«Ko'ngil»	9
116.	«Ko'm-ko'k, go'zal o'tloqlaring bosilg'on, Ustlarida na poda bor, na yilqi, Podachilar qaysi dorga osilg'on?»	«Buzilgan o'lkaga»	7
117.	Jo' so'zining ma'nosi...	Ariq, daryo	9

Quyidagi misralarni davom ettiring

118.	Muhabbatning saroyi keng ekan...	Yo'lni yo'qotdim-ku	9
119.	Asrlik tosh yanglig' bu...	Xatarli yo'lda qotdim-ku	9
120.	Karashma dengizin ko'rdim...	Na nozli to'lqini bordir	9
121.	Halokat bo'lg'usin bilmay...	Qulochni katta otdim-ku	9
122.	Ajab dunyo ekan	Bu ishq dunyosi, ayo do'stlar	9
123.	Bu dunyo deb u dunyoni...	Bahosiz pulga sotdim-ku	9
124.	Uning gulzorida bulbul...	O'qub qon ayladi bag'rim	9
125.	Ko'zimdin yoshni jo' aylab	Alamlar ichra botdim-ku	9
126.	Qalandardek yurib dunyoni kezdim...	Topmayin yorni	9
127.	Yana kulbamga qayg'ular...	Alamlar birla qaytdim-ku	9
128.	Muhabbat osmonida...	Go'zal Cho'lpon edim, do'stlar	9

129.	Quyoshning nuriga toqat qilolmay...	Yerga botdim-ku	9
130.	Ko'ngil, sen munchalar nega...	Kishanlar birla do'stlashding?	9
131.	Na faryoding, na doding bor...	Nechun sen muncha sustlashding?	9
132.	Haqorat dilni og'ritmas...	Tubanlik mangu ketmasmi?	9
133.	Kishanlar parchalanmasmi?..	Qilichlar endi sinmasmi?	9
134.	Tiriksan, o'lmagansan...	Sen-da odam, sen-da insonsen	9
135.	Kishan kiyma, bo'yin egma...	Ki, sen ham hur tug'ilg'ansan!	9
136.	Xalq dengizdir, xalq to'liqindir, xalq kuchdir...	Xalq, isyondir, xalq olovdir, xalq o'chdir	7
137.	Xalq qo'zg'alsa, kuch yo'qdirkim, to'xtatsin	Quvvat yo'qkim, xalq istagin yo'q etsin	7
138.	Xalq isyoni saltanatni yo'q qildi...	Xalq istadi, toj va taxtlar yiqildi	7
139.	Xalq istagi – ozod bo'lsin bu o'lka...	Ketsin uning boshidagi ko'lanka	7
140.	Bir qo'zg'alur, bir ko'pirar, bir qaynar	Bir intilur, bir hovliqar, bir o'ynar	7
141.	Yo'qlikni-da, ochlikni- da yo'q etar	O'z yurtini har har narsaga to'q etar	7
142.	Butun kuchni xalq ichidan olaylik	Quchoq ochib xalq ichiga boraylik!	7

«Kecha va kunduz» romani

«Kecha»

1-kitob

143.	Birinci o'zbek roman-dilogiyasi muallifi...	Cho'lpon	7
144.	«O'tkan kunlar» romani darajasidagi asar sifatida baholangan roman...	«Kecha va kunduz»	7
145.	«Kecha va kunduz» asarining ikkinchi qismi nashr etilganmi?	«Kecha va kunduz» asarining ikkinchi qismi qo'lyozmasi Cho'lpon qamalgan paytda yo'q qilingan	7
146.	«Kecha va kunduz» romani qachon yozilgan?	1935-yil «Kecha va kunduz» romani «Sovet adabiyoti» jurnalida bosilgan, 1936-yilda roman to'liq chop etilgan	
147.	Cho'lpon «Kecha va kunduz» romani ustida qaysi yillarda jiddiy ishlagan?	1930-yillarda	11
148.	«Kecha va kunduz» romanining 1-qismi alohida kitob shaklida qachon bosilib chiqdi?	1936-yilda	11
149.	Romanda qaysi davrdagi voqealar aks ettirilgan?	XX asr boshlaridagi Turkiston ijtimoiy muhiti, xususan, chorizmning bosqinchilik siyosatining ichdan yemirilib borayotgani, mahalliy amaldorlarning razil qilmishlari real aks ettirilgan	11
150.	Roman uchun qanday epigraf tanlangan?	«Hamal keldi, amal keldi» (Xalq maqoli)	11
151.	Roman qanday tasvir bilan boshlangan?	Go'zal bahorning tarovati bilan	11
152.	Enaxon qanday oilaning qizi edi?	Yo'qsil	L

153.	Enaxonning oilasi haqida ma'lumot bering	Otasi yoshligida o'lib ketgan, onasi ikkovi birgina akaning boqimiga qarab qolgan edilar. Oilada olti kishi edilar (akasining ikki bolasi bor)	L
154.	Enaxonning akasining ismi...	Xolmat	L
155.	Xolmat yoshligida qanday ish bilan shug'ullangan?	Butun qishloqning podasini boqqan	L
156.	Xolmat ro'zg'orini qanday tebratar edi?	O'z bisotida bir shapaloqqina sholipoyasi bor; u ham marhum qaynatasidan tekkan, bor kuchini shunga sarf qilib oilasini boqadi	L
157.	Enaxonlar kuzda kimlarnikiga mehmonga borishdi?	Enaxon, kelin va ikki farzandi shaharga, Saltanatlarnikiga borishdi (va ularni ham o'z uylariga mehmondorchilikka taklif qilishdi)	L
158.	«Muncha ham ovozi chiroyli bu qizning!..» Bu ta'rif kim haqida, qaysi qahramonning nutqidan olingan?	Zebi haqida, Enaxonning kelinbibisi	L
159.	Enaxon Saltanatni bir-ikkita tengdoshi bilan birga qishloqqa kelishga qachonga taklif qildi?	Bahorga	L
160.	Saltanatning otasi nima ish bilan shug'ullanadi?	Ayronchi	L
161.	Kambag'al oila mehmonlarni kutib olish uchun qanday tayyorlik ko'rishdi?	Ular bisotlaridan kiyimlik materiallardan sotishdi va suyuq osh, oshqovoq somsa, palov tayyorlaydigan bo'lishdi. Shuningdek, mingboshining	

		qizi va kichik xotini Sultonxonni ziyofatga chaqirib, Zebixonning qo'shiq aytish mahoratini ko'rsatib, bu orqali keyingi ziyofatni mingboshining uyida o'tkazib, mehmonlarini xushnud qilishmoqchi bo'ldilar	L
162.	Zebi necha yosh?	15 yosh	11
163.	Qish ichi ham kimning uyidan sovchilar uzilmadi?	Zebining	11
164.	Bahor kelishi bilan Zebining ko'ngli nimani tusay boshladi?	Poxol to'shalgan aravada bo'lsa ham, allaqaylarga, dala-qirlarga chiqib yayrashni	11
165.	Halol-haromni kop farq qilmaydigan, lekin avrodda o'tiradigan, hammadan keyin qolib machit shamlarini puflab o'chirib chiqadigan qahramon...	Razzoq so'fi	11
166.	Avrod so'zini izohlang	Bomdod namozidan so'ng o'qiladigan oyat va duolar	11
167.	Zebining dugonasi Saltanat qanday xushxabar bilan kirib keldi?	Yoyilma soydagi o'rtog'i Enaxonnikiga olib borish uchun Zebini taklif etgani keldi	11
168.	Saltanat nazaridagi qovog'idan doim qor yog'ib turgan sovuq bir kimsa...	Razzoq so'fi	11
169.	«Bu odamga eng ma'qul bir masalani bo'lsa ham uqtirib roziligini olmoq uchun yo o'zining piri, yoki katta bir davlatga ega bo'lish kerak edi. U odam o'z tenglaridan hech birining hech qachon hech bir gapini tinglagan emasdi. Ayollardan maslahat, ayniqsa, o'z xotinidan bir taklif eshitmoq uchun bu odamning qayta boshdan bunyodga kelishi kerak bo'lardi». Parchada qaysi qahramonning xarakteri ta'riflangan?	Razzoq so'fining	11

170.	O'z uyining qabristonlar qadar jimjit, xonaqohlar qadar unsiz, o'z ko'ngli qadar tund va xo'mraygan bo'lishini istagan qahramon...	Razzoq so'fi	11
171.	Razzoq so'fi ko'chadan uyiga kirib kelib boq nega: «Bu nima qiyomat!!!» – deb shovqin soldi?	Ikki qiz: Zebi va Saltanat «o'zim supuraman» deya supurgi talashib, butun hovlini boshlariga ko'tarib, shovqinlar va qiyqirishlar bilan dunyoni buzib, bir-birlarini quvlashganlari uchun	11
172.	Razzoq so'figa jadidnamo bir hamshahari qanday ta'rif bergan?	«Ko'rgazmalarga qo'yulaturgan antiqa maxluqlardan edi», – deya	11
173.	Razzoq so'fi tug'ilganida sho'x va hazilkash doya Hamro ena nima degan?	«Aylanay mehmon, kimdan xafa bo'lib tushdingiz? Kim ozor berdi sizga? Ayting! Qovog'ingizni ochsangiz-chi! Yorug' dunyoga keldingiz! Shukur qiling! Sevining! Mundoq bir kuling! Kulimsirang! Iljaying!.. (O'shanda kulmagan Razzoq so'fi undan keyin ham kulmay o'tdi, uning kulishi kasal odamning kulishiday og'ir edi)	11
174.	Kamgap, indamas, damini ichiga solgan, ziqna odam...	Razzoq so'fi	11
175.	So'zga epchil ayol...	Qurvonbibi	
176.	Razzoq so'fi o'zidan kuchlilar gapirganida qanday javob beradi, o'zidan kuchsizlar gapirganida-chi?	Razzoq so'fining o'z hovlisidan tashqarida uning doimiy va birdan bir vazifasi: o'zidan ulug' va kuchlilar gapirsa – «hovva-hovva», o'zidan past va kuchsizlar gapirsa – yo'q-yo'q, degan ma'nida bosh chayqash bo'lardi	11

177.	XIX – XX asrlarda o'zbeklarda har bir erkak o'z xotinini qizi yo o'g'lining nomi bilan atab chaqiradi. O'z xotinining ismini aytib chaqirish yaramaydi. Razzoq so'fi esa xotinini nima deb chaqiradi?	«Fitna» deb	11
178.	Razzoq so'fi nima ish bilan shug'ullandadi?	Uning ma'lum bir kasbi, hunari yo'q. Na savdo-sotiq qiladi, na dehqonchilikka urinadi, na kosib-hunarmandchilik peshasini tutadi. Shu bilan birga, dasturxonni nonsiz, qozoni issiqsiz qolmaydi	11
179.	So'fi kart tomon qarab yurdi. Kart ustiga dasturxon yozilgan edi. Dasturxonga nimalar qo'yilgan edi?	Bir mistovoq non bilan piyolada qiyom, so'ng Qurvonbibi o'choqdan choyni olib keldi	11
180.	Zebi otasining ko'ngli qattiqligiga qanday o'xshatish qildi?	«Katta-katta xarsangtoshlarni soy bo'yiga devlar tashlagan, deydi... Eng kattasini otamning ko'kragiga tashlab qo'yib: «Mana shu sening ko'ngling!» – deganmikin yashamagurlar»	11
181.	Qurvonbibi qizini safarga chiqarishga Razzoq so'fini qanday qilib rozi qildi?	Qurvonbibi gapni eshondan boshlagani uchun yo'q deyolmadi: «Oydinko'ldagi Xalfa eshonimizning kichik qizlari bir-ikkita o'rtog'ini: «Bahorlashib ketinglar», – deb chaqirtirgan ekanlar. Shularning bittasi Zebi, yana bittasi uning o'rtog'i Saltanatxon ekan» (Undan tashqari, so'fining qo'liga biroz pul tushgan, shekilli, bu iltifot pulning kuchi bilan bo'lganligini xotini angladi)	11

182.	Razzoq so'fi Zebi ketishidan oldin unga qanday shart qo'yadi?	«Ovozim bor, deb ashulaga zo'r bermasin. Nomahramlarga ovozini eshitdirsa, rozi emasman», – deb	11
183.	Saltanatlarnikida kechgacha safarga tayyorlanishdi. Nimalar pishirishdi?	Birozgina patir bilan somsa yopishdi	11
184.	Qizlarni olib ketayotgan aravakash yigitning ismi...	O'lmasjon	11
185.	Zebi yo'lda dastlab nega ashula aytishga rozi bo'lmadi?	Otasidan hayiqqani uchun	11
186.	Saltanat, Qumri, Zebi va boshqalar jo'r bo'lib qaysi qo'shiqni kuylashdi?	«Yor-yor»ni	11
187.	Adib Zebining ovoziga qanday o'xshatish qilgan?	Jonon piyolaning jaranglab chiqadigan o'tkir bir ovoziga o'xshatadi, shuningdek, adib bu ovozni peshona ustida pilpillagan eng yorug' yulduz singari boshqa ovozlardan ochiq ajralib turishini ta'kidlaydi	11
188.	Qizlarga kim qo'z-quloq bo'lib bordi?	Ikki-uch oydan beri Saltanatlarnikida yashaydigan Savribibi degan kampir. Bu kampir aravada Zebining tizzasiga bosh qo'ygani holda uyquga ketgan va shu bo'yicha qishloqqa kelib yetganda ham ko'zini ochmagan edi	11
189.	«Shahardan bir arava mehmonlarni olib keldim, ena! Uyingiz kuydi toza! Ikki kunda bor-yo'g'ingizdan ajralib qoqlanasiz endi! Qani bo'ling, eshikni oching! Qornimiz o'lgudek och», – degan qahramon...	O'lmasjon	11

190.	Barcha qizlar ichkariga kirishdi, lekin Zebi bilan O'lmasjon nega anchagacha tashqarida qolib ketishdi?	Kampir uxlab yotgani uchun	11
191.	«U shu tobda o'zining yaqin kelajakdagi qora kunlarini, qay rangda ko'rinishi ma'lum bo'lmagan baxti, toleyini o'ylardi. Uning butun baxti Razzoq so'fining johil vujudiga bog'liq emasmi? O'sha sovuq so'fi shu quvnoq jonni va sayroq qushchani istagan vaqtida baxtli yoki baxtsiz eta olmaydimi? Uning bir og'iz «ha» yoki «yo'q» deyishi qiz bechoraning behad quvnab-yayrashiga yoxud xazon yaprog'iday bir nafasda so'lib, nobud bo'luvida yaramaydimi? Qiz sho'rlik, u bir umr qovog'i o'yig'liq va yuzi kulmas otadan hech bir hayriyat kutmaydi. Otasi to'g'risida o'ylagan vaqtida o'zini o'limga mahkum bir odam, otasini mahkumaning jallodi kabi ko'radi... va titraydi». Bu qora o'ylarni o'ylashga Zebini nima majbur qildi?	Bu qishloq sayohati, aravakash yigitcha bilan tasodifan tanishib qolishi, shu tanishuv orqasida ko'nglida sezgani besaran-jomliklar bechora qizni bu qora o'ylarni o'ylashga majbur qilgan edi	11
192.	Shaharliklardan yaxshi o'ynagan qiz kim bo'ldi?	Qumri	11
193.	Mehmon qizlarni uylariga ziyofatga kimlar taklif qilishdi?	Ertasiga ziyofatga o'ziga durustroq bir dehqonning qizi, indiniga mingboshining kichik xotini bilan qizi	11

194.	«... Belida kumush kamari, yonida kumush sopli qilichi, ustida zarbof choponi bo'lmasa, hech kim uni amaldor demaydi. Oddiy kiyimda ko'rganlar yo oddiy bir qishloq boyi, yo Yettisuv bilan aloqasi bor qo'ychi, yo bo'lmasa, yaylov tomon bilan ish ko'radigan tuyachi deb o'ylaydilar. Chakka suyaklari turtib chiqqan, peshana – bo'yiga tor, eniga keng va uzun-uzun uch chuqur ajinga ega... Burun o'rtacha, lekin qanshari past... Ko'z qisiroq kelgan, parda tomirlaridan ikki-uchtasi va ham ikkala ko'zining bir yonida jindak joyi hamma vaqt qizil, bir ko'zida picha shapag'liq asari ham bor... Iyak – keng, jag' – sergo'sht. Juda siyrak bo'lgan soqol iyakning o'rtasigagina to'planib, echkiniki singari pastga tomon sangillab tushgan. O'zi qoraroq xotin uchrab, bir chang solsa, hech narsa qolmaydi! Mo'ylov ham soqol singari siyrak. Usta To'xtashning «asrdiyd» do'kati ikki kunda bir qirib turganligidan lab ustidan kalta va tekis bo'lsa ham, umuman o'zi, yarmidan ko'pi yiqitilgan daraxtzor singari xunuk ko'rinadi, ikki uchida oltitadan o'n ikkita uzun qil, sichqonning dumiday ingichka bo'lib pastga cho'zilgan... Do'kat bilan ikkala tomonga ikki marta qo'l tegizilsa, u sichqon dumlaridan asar qolmaydi, shu bilan mo'ylov masxaraboz kepatasidan chiqib, odam nusxasiga kiradi.	Akbarali mingboshi	L
------	--	--------------------	---

	San'atiga berilgan usta To'xtash taassuf berilgan narsani yig'ishtirib qo'yib, «san'at – san'at uchun» degan nazardan qarab...» Parchada qaysi qahramon tasvirlangan?		
195.	Usta To'xtash ismli qahramon qaysi kasbning egasi?	Sartarosh	L
196.	Rus to'ralari kimni «soddadil, «sart» amaldori» deb ta'riflashadi?	Akbaralini	L
197.	«Assalomu alaykum!» deb dona-dona salom bersangiz, shoshilganidan bo'lsa kerak, «vass...», debgina qo'yadi. Shu bilan birga siz tomonga bo'ynini qiyshaytirib, juda kichiklik bilan alik oladi, doim kulimsirab turgan ko'zlarini siz tomonga qiyagina bir tashlab olib, yo'rg'alaginicha ketadi». Parchada qaysi qahramon tasvirlangan?	Miryoqub	L
198.	Zarbof choponini kiyib, tatti samanini yo'rg'alatib o'tadigan qahramon...	Akbarali	L
199.	«Kecha va kunduz» romanida «Yetti osilganlar» jumlasida kimning qaysi asari nazarda tutilyapti?	Leonid Andreyevning «Yetti osilganlar» qis-sasi asari	L
200.	Akbarali ellikboshi bo'lish uchun avvalgi mingboshiga qanday pora bergan?	Bir uloqchi ot	L
201.	Akbarali ellikboshining olti yillik umri qanday ishlar bilan o'tdi?	O'z qishlog'i bilan mingboshining mahkamasi o'rtasida daftar ko'tarib, ot chopish, qishloqdan odam haydab chiqib, katta yo'l-ga suv septirish bilan o'tdi	L

202.	Akbarali ellikboshilikka tayinlanganidan keyin olti yil mobaynida nimalarga ega bo'ldi?	Bu olti yil mobaynida bir uloqchi otning emas, necha uloqchi otlarning hissasi chiqargan, burungi besh-to'rt tanob yeriga yana besh-to'rt tanob yer qo'shgan edi	L
203.	Ellikboshilik amali qanday g'ayratni talab qilardi?	Ellikboshilik, har qalay, mehnat, urinish va yugurib-yo'rtishni talab qiladigan amallardan edi	L
204.	Miryoqub kimning yordamchisi?	Akbaralining	L
205.	Akbarali Miryoqub bilan qachon tanishgan?	Ostanaqul boyning katta bir qovun saylida	L
206.	Qovun saylidan ikki kun keyin Akbarali Miryoqubning uyiga nimalarni yubordi?	Ikki arava qovun-tarvuz bilan ikki zambar uzum, ikki chorak qayroqi bug'doy	L
207.	Akbarali qachon mingboshilik amaliga tayinlandi?	Miryoqubga himmat ko'rsatganidan keyin biror oy o'tar-o'tmas	L
208.	Akbarali mingboshi bo'lganidan keyin oz fursatda qayerdan hovli sotib olib, ko'chib bordi?	Miryoqub turgan qishloqdan	L
209.	Akbarali necha yildan beri mingboshilik mansabida?	13 yildan beri	L
210.	«Yurt ustidan bahor bulutlari kabi kelib ketgan edilar» degan fikr qaysi xon va beklar haqida?	Mallaxonlar, Xudoyorlar, Nasriddinbeklar haqida	L
211.	Odamlarning salomiga, shoshilganidan bo'lsa kerak, «Vass» deb javob qaytaridan qahramon...	Miryoqub	L
212.	Bir og'iz gapini silliqlik va yoqimli qilib gapirilmaydigan sodda va to'ng odam...	Akbarali	L

213.	«Jinqarchaday hamma vaqt va har qayda ko'rinib qoladigan bu <u>«asl mingboshi»</u> ga salom bermoqdan bellaringiz toladi». Parchada qaysi qahramon haqida fikr yuritilyapti?		Miryoqub	L
214.	Do'konidan har narsa topiladigan baqqolga qanday laqab qo'yishadi?		Farang baqqol	L
215.	Miryoqubning laqabi...		Miryoqub epaqa	L
216.	Akbaralining yordamchisiga nega «Miryoqub epaqa» deb nom berishgan?	Miryoqub aralashmagan ish epaqaga kelmasligi uchun		L
217.	Xudo kimga davlatni ikki qo'llab uzatsa-da, uni farzand to'g'risida bir oz o'ksitib qo'ygan?		Akbaralini	L
218.	Akbaralining yolg'iz farzandi...	Katta xotinidan bo'lgan qizi Fazilat (Akbarali o'zi yolg'iz qolganida «Bu qiz o'lgur ham boshqadan bo'lmasin...», – derdi)		L
219.	Kimnikida bo'lgan ziyofatda Akbarali rus bolakayni mahkam bag'riga bosib o'pdi?	Noyib to'ra (uye zd hokimining o'rinbosari) nikida (bolakay noyibning o'g'li)		L
220.	Farzanddan va esdan mahrum, lekin yer-suv, pul va boshqa boylikka ko'milgan bu odamning butun borlig'i kimning qo'lida?		Miryoqubning	L
221.	Akbaraliga qarashli bo'lgan qishloqdagi ikkita baqqollik, bitta qassoblik do'koni, guzarda ikkita samovar, yangi paxta zavodi kimning kuchi bilan aylangan?		Miryoqubning	L

222.	«Ikki tomon yoqasiga tilladan bolg'a surati o'rnatilgan, novcha bo'yli, mosh-birinch soqolli, xushmo'ylov va bir ko'zi jindak g'ilaydan kelgan bu kular yuzli odam»ni Miryoqub qayerda ko'rgan?	Parchada ta'riflangan odam injener, Miryoqub uni noib to'ranikida ko'rgan	L
223.	Miryoqub noyib to'raning uyiga nega borib turadi?	Hadya berish uchun	L
224.	Miryoqub nima sababdan juda ko'p suvsiz, noobod, tashlandiq yerlar sotib oldi?	Miryoqub o'sha joylardan poyezd yo'li o'tishini injener va noyib to'ra suhbatlaridan eshitgan edi	L
225.	Sartlar kimni «Parpi to'ra» deb atashar edi?	Noyib to'rani (uning ismi aslida – Fyodor)	L
226.	Noyib to'ra: «Sen xuddi amerikalikka o'xshaysan», – deb kimni maqtadi?	Miryoqubni	L
227.	Tashlandiq yerni obod qilishdi, qishloq paydo bo'ldi. U yerni qanday nomladilar?	«Parpi cheki» deb	L

Quyidagi qahramonlarning vazifalarini ayting

228.	Mingboshining rus mirzasi	Sokolov	L
229.	Mingboshining inoq mirshabi	Mirzabobo	L
230.	Mingboshining musulmon mirzasi	Hakimbek	L
231.	Mingboshining ustidan nega ariza berishdi?	Ekinlariga suv suv bermagani uchun	L
232.	Kimlar ariza berishdi?	Yodgorxo'ja, Umaraliboy	L
233.	Ariza bergan odamlarning laqablari...	Yodgor echki, Umarali puchuq	L

Quyida qaysi qahramonlar ta'rifi berilgan?

234.	«Bulbul singari ashula qilar ekan. Ovozi Dovud payg'ambarniki singari deydilar»	Zebi	L
235.	«Yaxshi qo'shiqchi deb, yer-u ko'kka sig'dirmay maqtaydilar... Eshak hangrasa, undan a'lo»	Tegirmonchi Shamsiddin	L
236.	Xotinlarga kalta gapiradigan, ular bilan ezilib o'tirishni o'z erkaklik sha'niga sig'dirolmaydigan qahramon...	Akbarali mingboshi	L
237.	Badbasharalikda tengsiz bo'lgan qahramon...	Akbarali mingboshi	L
238.	Miryoqub Zebi haqida kimdan eshitgan?	Xotini va qizidan	L
239.	Zebining yoshi	O'n besh-o'n oltida	L
240.	Hadichaxonning qizining ismi...	Fazilat	L
241.	Asarda qaysi mingboshilar nomi tilga olingan?	Shamsiddin mingboshi, To'raqul bo'lus, Abdusamad mingboshi	L
242.	Jadidlar tomonida haftada ikki marta zo'rg'a chiqadigan gazetani mingboshiga kim olib keldi?	Hakimjon (Akbaralining musulmon mirzasi)	L
243.	«Shamsiddin, To'raqul, Abdusamatlar qo'sh karnay bilan jar solishadi». Qaysi voqea haqida gap bormoqda?	Gazetada Akbarali mingboshini tanqid qil-inganganligi haqida	L
244.	Jadidlar tomonidan haftada ikki marta chiqariladigan gazetada Akbarali mingboshi haqida qanday tanqidiy fikrlar bor edi?	Gazetada Akbarali mingboshi butun bo'lusning uch oygina faoliyat yuritgan yagona usuli jadid maktabini yoptirgani, muallimni haq bermasdan haydattirgani,	L

		mingboshining o'zi esa xotin yangilashdan bo'shamayotgani haqida yozilgan edi	
245.	Gazetada Akbarali haqidagi tanqidiy maqolani kim yozadi?	Bir muallim	L
246.	Akbarali mingboshining: «Abdusamad mingboshi o'ntacha xotin oldi, hali ham to'rttasi qo'lida – naqd... nega uni yozishmadi?» – degan gapiga Miryoqub qanday javob berdi?	«Abdusamad o'z qishlog'iga yangi tartibda maktab ochgan, hovlisida o'g'illarini muallimga o'qitadi. Jadid maktabiga pul bilan qarashadi. Odamlarning bolalarini maktabga yubortiradi, o'zi jadid gazetasi o'qiydi»	L
247.	Jadid maktabini yoqtirishni Akbarali mingboshiga kim buyurgan edi?	Noyib to'ra	L
248.	Sart tilida chiqadigan hukumat gazetasida Akbarali mingboshi haqida qanday maqola bosildi? Maqola muallifi kim?	Jadidlar gazetasida chiqqan maqolaga javob tarzida Akbarali mingboshini oqlab, jadid muallimi qoralangan maqola bosildi. Maqola muallifi – Rivojiddin a'lam Mulkobodiy	L
249.	Maqolada Akbarali mingboshi necha yil oq podshoga sadoqat bilan xizmat qilganligi yozilgan?	14 yil	
250.	«...O'zi ajab bir xushtahrir odam! Yozishini ko'ring: suvday ravon! Hamma uqadi, hamma anglaydi!». Ta'rif qaysi qahramon haqida?	Mulla Rivojiddin	L
251.	«Yer mudavvardur, ya'ni misli tarvuz yumaloqdur, deb shariatga xilof ilmlardan ta'lim bermoqda». Parchada kim tanqid qilingan?	Jadid muallimi	L

252.	Akbarali mingboshi birovni jazolamoqchi bo'lsa, kimga topshiradi?	Mirzaboboga	L
253.	Mingboshining ustidan noyib to'raga kimlar nima sababdan arz qilishdi?	Yodgor echki bilan Umarali puchuq ekinlariga mingboshining odamlari suv bermasligida ayblab arz qilishdi	L
254.	Yodgorxo'ja bilan Umaraliboyning ta'zirini berishni Miryoqub kimlarga topshirdi?	Suv yetmay alamzada bo'lib yurgan qumariqlik uch dehqon yigitga (shu boylar tufayli sizlarga suv yetib bormaydi deb Miryoqub dehqonlarni ishontirdi)	L
255.	Yozuvchi bir o'rinda Miryoqubga ham «epaqa» laqabi kamlik qilishi, unga boshqa bir munosib laqab topish lozimligi, buning uchun qaysi alloma shoirlar turib kelishi darkorligi ta'kidlanadi?	Amir Navoiy yoki Mavlono Jomiy yo Shoh Mashrab	L
256.	Akbarali mingboshining Zebiga uylanishiga birinchi marta kim da'vat qildi?	Miryoqub	L
257.	Miryoqub Zebining bulbul singari kuylashini kimlardan eshitadi?	Xotini va qizidan	L
258.	Mingboshining xotinlari...	Hadichaxon, Poshshaxon, Sul-tonxon (mingboshining xotinlari to'rtta edi, biri vafot etgan)	L
259.	Zebining ko'ngil qo'ygan yigiti kim edi?	O'lmas aravakash	L
260.	Saltanat va qizlarni Enaxonlarnikiga kim olib borib keldi?	O'lmas aravakash	L
261.	Zebining otasi...	Razzoq so'fi	L
262.	Zebining onasining ismi...	Qurbonbibi	L
263.	Razzoq so'fi qizini mingboshiga bermaslikka qanday sabab ko'rsatdi?	Benamoz, betavfiq, buzuq yuradigan deb	

264.	Qizini mingboshiga berishga Razzoq so'fini kim ko'ndirdi?	Eshon	
265.	Sultonxonning o'rnini kim egalladi?	Zebixon	9
266.	Poshshaxonning jahliga tekkan holatlar...	1) mingboshi bilan Zebining xur-sand bo'lib yashashi; 2) mingboshining: «Bittagina bola tug'ib bersa, bor-u yo'g'im Zebiniki, boshqalarga besh-to'rt tanob yerni tirikligimda o'tkazib berib, qolgan davlatimni bata-mom shunga qoldiraman», – deyishi; 3) eng asosiysi, Sultonxonning beparvoligi	9
267.	Qor yoqqanidan beri qishloqning yarim xotin-qizlari bilan qor otishib chiqqan, uchtasi bilan «qorxat» o'ynab yutib olgan qahramon...	Sultonxon	9
268.	Miryobub kim bilan qayerga sayohatga ketdi?	Mariya bilan Sevastopolga	
269.	Zebini tez fursatda xomilador bo'lishi uchun Razzoq so'fining iltimosiga ko'ra eshon nima tayyorlab berdi?	Dam solingan «tabarruk» suv	9
270.	Bir o'q bilan ikki qushni ag'darishga harakat qilgan qahramon...	Poshshaxon	9
271.	Poshshaxonning asl maqsadi nima edi?	Zebini o'ldirish va qotillikni Sultonxon bo'yniga qo'yish (Poshshaxon: «To'rtinchi xotinning uchinchidan boshqa kundoshi bo'ladimi?» – deb o'yladi)	9
272.	Kuchala nima?	O'simlik nomi va uning zaharli mevasi	

273.	Poshshaxon mingboshini o'ldirish uchun qanday rejani amalga oshirdi?	Baqqoldan yashirincha oldirilgan kuchala kichkinagina dekchada ertadan-kechgacha qaynadi. Ertasiga mingboshining qolgan uchala xotini Dadaboy baqqolning katta qizirikiga ziyofatga chiqib ketgan edilar. Mingboshi esa shoshilinch sur'atda shaharga chaqirilgan edi. Poshshaxonning uyida allaqanday bir qarindoshi o'tirganligidan kundoshlari uni qistamadilar. Paytdan foydalangan Poshshaxon Zebining uyiga kirib «tabarruk» suvning o'rniga tayyorlagan og'usini quyib qo'ydi	9
274.	Ikki boyga qarshi musht ko'tarib chiqqanlar nima uchun qamoqqa olindilar?	Yodgorxo'ja bilan Umaraliboy bir bo'lib eng yaxshi advokatga ikki quloach arizani hokim to'raning nomiga yozdirib arz qilganlari uchun	9
275.	«Soddasan, Akbarali! Podsholik hamma vaqt yurtning obro'ylik odamlarini himoya qiladi. Obro'y davlat bilan topiladi», – degan qahramon...	Noyib to'ra	9
276.	«Bu xunuk xabarni haligi ikki boy bilan Abdisamat kaptarlarining qanotiga ilib, shamolning qo'ltig'iga qistirib, yomg'irning tomchisiga joylab, bulutning qo'yniga solib uchiradi, har bir uchgan qarg'a shuni aytib qag'illaydi, shu bilan ikki kun ichida u shumli xabar yer yuzini aylanib Makkatillogacha yetib boradi». Parchada qaysi xabar haqida gap boradi?	Akbaralining mingboshilik amalidan olinishi haqida	9

277.	Miryoqub yo'qligi uchun uning xatda yozgan ma'lumotiga ko'ra mingboshi kimdan yordam so'radi?	Zunnundan	9
278.	Zunnun Akbaralining ishi bitadigan bo'lsa, qancha pul kerakligini aytadi?	Ming, bir yarim ming	9
279.	Akbarali mingboshi qancha pul topishga jazm qildi?	3 ming	9
280.	Akbarali mingboshi qanday o'lim topdi?	Yarim kechasida uyg'onib ketib qich-qirib suv so'raydi. Zebi shoshib qolib, choynakdagi tabarruk suvni qo'lga oldi va hech narsa o'ylashga fursat yo'q – darhol mingboshiga uzatdi. Zaharli suvni ichgan mingboshi o'ldi	9
281.	O'q otib mo'ljalga tegizolmagan qahramon...	Poshshaxon	9
282.	«To'rt chaqaga arzimagan bu qurboni zamon» kim?	Akbarali	9
283.	Akbaralining qotili sifatida kimni aybdor qilishdi?	Zebini	9
284.	Asardagi absiz «aybdor» kim?	Zebi	9
285.	Sudda kimlar qatnashdi?	Sud raisi, prokuror, hokim, noyib, garnizon boshlig'i, politsiya boshlig'i, pop, oppoq va zo'r sallali chol – jome masjidning ingichka ovozli imomi, zakunchi, tilmoch, Zebi	9
286.	«Zebi ikki konvoyning yalong'och qilichi o'rtasida zalga kirib keldi; ustida qora barqut paranji, qora chimmat, oyog'ida qora amirkon mahsi-kavush bilan sud qarshisiga kelib to'xtadi. Bu omonsiz suddan va bu yaltiragan yalong'och qilichlardan ko'ra» nima qo'rqinchliroq edi?	Zebining o'sha qora qiyofasi	9

287.	Sud raisi Zebidan yuzini ochishni talab qildi. Zebi rozi bo'lmagach imomdomla uni qanday ko'ndirdi?	«Kofir bilan itning farqi yo'q. Itdan qochmaysizmi? Shunday bo'lsa, kofirdan ham qochmasangiz bo'ladi. Bu joiz». Domla bu so'zlarni past ovozda aytgach, o'zi to'rt-besh qator nariga borib o'tirdi	9
288.	Sudda Akbaralining o'limiga qanday siyosiy tus berishdi?	Suddagi barcha qatnashuvchular Zebining aybsizligini bilishsa ham xalq yuragiga qo'rquv solish uchun Zebini qotilga aylantirishdi. Prokuror nutqidan: «Men bu o'ldirishga oddiy o'ldirish deb qarolmayman. O'ldirilgan odam Rusiya davlatiga va podshoga sadoqati bilan tanilgan odam edi. Uni «yosh sart» maxfiylari, ayniqsa, ularning dushmanimiz bo'lgan Turkiya bilan fikran bog'lanishgan unsurlari yomon ko'rardilar. Men bu «sodda» va «gunohsiz» sart ayoqlining shunday unsurlar qo'lida o'yinchoq bo'lmaganidan amin emasman... Biz sart xalqiga allanechuk beparvolik bilan qarab o'rganganmiz: «Qo'yday yuvosh ular!» — deymiz. Albatta, ularning mamlakatlarini qon to'kib olgan fotihlar sifatida bu qarashimiz bir nav to'g'ri ham bo'la biladi. Faqat bizga endi bu noto'g'ri qarashni tashlash kerak! Durust, sart xalqining ko'pchiligi muazzam davlatimizga, sevimli podshohimizga sodiq... Eslik, tajriba ko'rgan kata savdogarlar qishloqning obro'yli boylari; ayniqsa, ulamo toifasi	9

		«yosh sart»larning nufuzini qirqish uchun zo'r bermoqdalar; bularni bil-aman. Lekin haddan tashqari ehtiyot bilan, sergaklik bilan ish olib bor-masak, bir kun emas, bir kun haligi ko'pchilikning «yosh sartlar» bayrog'i ostida bosh ko'tarishi juda mumkin narsa...»	
289.	Prokuror suddan Zebiga qanday jazo berilishini so'radi?	«Men bu «soddadil», «yuvosh» va «gunohsiz» sart qiziga eng oliy jazo (otuvga hukm qilinishini) talab qilmoqchi bo'laman», – deydi	9
290.	Zebiga qanday jazo tayinlandi?	7 yilga Sibirga surgun qilindi	9
291.	Sudning qarori...	«Aybdorning qilgan gunohi og'ir bo'lib... davlat odamiga qasd qilgani uchun falon moddalar bo'yicha oliy jazoga hukm qilish kerak bo'lsa-da, bovujud O'lka harbiy sudining sayyor hay'ati aybdorning madaniyatsiz yerli xalq ayoli ekanini, o'zining yosh, turmushda tajribasizligini va hamma gunohlarini nomus bilan iqrar qilib bo'yniga olganligini nazarda tutib, falon moddalar bo'yicha yetti yilga surgunga hukm qildi»	9
292.	Sudga domla-imomni nega chaqirishgan edi?	Basharti qasam lozim bo'lib qolsa, aybdor musulmon shariatiga muvofiq qasam berishi uchun	9
293.	Quyidagi dialog qaysi qahramonlar nutqi? – Qasam bermadilar-ku? – Lozim bo'lmadi, taqsir. Ayol o'zi iqrar...	Domla-imom va tilmoch nutqi	9

	– O'zi iqrar emas, inkor qildi shekilli-ku? – Damingizni chiqarmang, taqsir. Bu nuzik masala... – Ha, albatta, albatta.		
294.	Tilmoch domlaga sud raisining qanday iltimosini yetkazdi?	«Bu ayol Razzoq so'fi degan odamning qizi. Eri xizmati singgan mingboshilardan ekan. Prokuror otib o'ldirilsin degan edi, sud qabul qilmasdan, yetti yilga Sibirga kesdi. Ertaga jumadan keyin machitda ikki og'iz gapirib qo'ysangiz deydilar. Ya'ni oqpodshoning sobiq odamlariga kim qo'l ko'tarsa, oqibati mana shunday bo'ladi, degan mazmunda...»	9
295.	Tilmoch kulib: «Imon yo'q taqsirimda», – deganida kimni nazarda tutdi?	Oppoq va zo'r sallali chol – jome masjidning ingichka ovoqli domla-imomini	9
296.	Razzoq so'fi qizining qamalganini kimdan eshitdi?	Domla-imomdan	9
297.	Sud hukmini Hakimjon kimdan eshitdi?	Razzoq so'fidan	
298.	«O'risga ham qiyin. Unday usta amaldorni endi Chin-Mochindan topib kelmasa, bu yurtdan topilmas». Akbarali haqidagi ushbu fikrlar qaysi qahramon nutqidan olingan?	Razzoq so'fi	
299.	Akbaralining o'rniga mingboshilikka kimni tayinlashdi?	Zunnunboyini	
300.	«Eshon bobo nima qilsin? U kishi zakunchi edimiki, ariza bitib bersa? O'rus tilini bilarmidiki, amaldorlar, sudlar bilan chiqishsa? Basharti, zakunchiga, amaldorga, sudga	Razzoq so'fining	9

	beriladigan bo'lsa, hammasiga pul kerak, menda unaqa pul yo'q». Qaysi qahramon nutqi?		
301.	«U kishi, albatta, beraman desalar-ku, qo'llaridan keladi; har qalay katta zakunchining ishtahasini qondiradigan dunyolari bor. Faqat nechoraki, u kishi berib o'rganmaganlar, olib o'rganganlar; «O'rgangan ko'ngil o'rtansa qo'ymas», – deydi. U kishini berishga o'rgatish qiyin! U kishi shuncha badavlat bo'la turib, eshikdan gadoy kirs qo'lga qaraydi: «Nazri yo'qmikan?» – deb». Parchada kim ta'riflangan?		Eshon bobo 9
302.	Razzoq so'fi eshonning oldiga nima uchun bordi?		Maslahat so'rash uchun? 9
303.	Eshon so'figa qanday maslahat berdi?	Maslahat berish o'rniga: «Odam o'ldirgan bolaning otasiga qanday maslahat bo'ladi, so'fi? Bolasining yoniga nima uchun otasini jo'natmaydi bu ahmoq o'rus? Adolat bormi kofirda?!» – dedi eshon	9
304.	Aqldan ozayozgan Razzoq so'fi eshonga: «Xudo xudo bo'lib turib, avval jon beradi, undan keyin oladi. Sen kimsan? Xudodan zo'rmisan, taqsir?» – kabi so'zlarni aytadi. Eshon xizmatkorlarini chaqirdi. Ular so'fini qanday jazolashdi?	Hovuzning qalin muzini teshib, so'fini suvga pishdilar, so'ng chiqarib olib, ingichka novda bilan gavronladilar. Zarblarning soni anchaga yetgach, so'fi hushidan ketdi. Kechasi isitma chiqdi. So'fini yana kaltakladilar. O'ziga kelgandan keyin qamish savacho'pni kuydirib, kulini bog'ladilar	9

305.	Ikki kundan so'ng so'fi musichadek yuvosh va muloyim bo'lib qoldi. Muridlari eshonga: «So'fini haydab yuboraylikmi?» – deb so'rashdi. Eshon qanday javob berdi?	«Yura tursin. Endi o'zi bilib ketadi», – deb javob berdi	9
306.	Yana uch kun o'tgandan so'ng namozga turgan muridlar eshonning xonaqoda o'lib yotganini ko'rdilar. Soqollari yulingan, Tomog'ida chuqur barmoq izlari bor. Xonaqoning bir burchidagi jovon ochilgan, kitoblar ham sochilib yotar edi. Bir necha uch so'mlik va besh so'mlik qog'oz pullar sochilib yotar edi. – Ham moliga, ham joniga qasd qilgan ekan, bachchag'ar! – dedi bir murid. Eshonning joniga kim qasd qildi?	Razzoq so'fi	9
307.	Qurvonbibiga qizi Zebining qamalgani qanday ta'sir qildi?	Bechora ona – Qurvonbibi – aqldan ozdi	

**Quyidagi ta'riflar romandagi
qaysi qahramonlarga xos?**

308.	Olamga hayrat ko'zi bilan qaraydigan sodda, samimiy qahramon...	Zebi	
309.	O'z baloyi nafsiga o'ralashib, aysh-u ishratga berilgan qahramon...	Akbarali mingboshi	11
310.	Umri to'rt devor orasida o'tayotgan, na tirikchilikdan, na erdan yalchigan qahramon...	Qurvonbibi	

311.	Vaziyatga ta'sir ko'rsatishni, nobop hayotga qarshi isyon qilishni xayoliga ham keltirmaydigan, juda bo'lmasa, ko'pchilik ayollarga xos quvlik qilishni ham bilmaydigan qahramon...	Zebi	
312.	Dunyoda faqat eshonning so'zinigina haqiqat deb biladigan, johil odam...	Razzoq so'fi	
313.	O'zini «muhitning erki»ga bergan o'zbek qizi...	Zebi	
314.	Dumbul va savodsiz qahramon...	Akbarali	
315.	Hurkak o'hu singari go'zal va ilojsiz qiz	Zebi	
316.	Ayyor qahramon...	Noib to'ra	
317.	O'z soddaligi, husni, odobi, iffati, noyob iste'dodi bilan o'quvchilar mehrini qozongan qahramon...	Zebi	
318.	Insoniy beg'uborligi, o'zbekcha soddaligi bilan kishini o'ziga rom etadigan qiz...	Zebi	
319.	Cho'lpon o'z ijodida osmon jismlarining qaysilaridan unumli foydalangan?	Oy, quyosh, yulduz kabi	11

Quyidagi so'zlarni izohlang

320.	mahram	sirdosh, do'st, hamdam	11
321.	elchib	ilashib, ergashib	11
322.	avrod	bomdod namozidan so'ng o'qiladigan oyat va duolar	11
323.	jo'	ariq, daryo	9
324.	yiqiq	yiqitilgan, vayron qilingan	9
325.	yiqiqlar	yiqitilganlar, vayron qilinganlar	9
326.	chizilgan	tizilgan, sarflangan	9
327.	mone	to'siq, qarshilik	9

328.	yo'qsul...	kambag'al	1
329.	shoti	narvon	
330.	yo'rtmoq	yirik qadam tashlab tez yurmoq, yelmoq; lo'killamon	
331.	g'alati	ajoyib	
332.	mingboshi	daha yoki qishloq oqsoqoli, hokimi	
333.	asrdiyd	asrni ko'rgan	
334.	do . . .	qaychi	
335.	kepata	qiyofa holati (odatda, achinarli holat)	
336.	taassuf	afsuslanish, achinish, kuyinish	
337.	ellikboshi	kichik amaldor, oqsoqol	
338.	istihqoq	biror narsaga haqli bo'lish; loyqlik	
339.	masnad	kursi, suyanchiq; amal	
340.	qadari	daraja, imkon	
341.	jinqarcha	chittak	
342.	farang	yevropalik	
343.	epaqa	bajarish, uddalash qobiliyati baland	
344.	to'qli	bir yarim yoshga to'lmagan qo'zi	
345.	voqean	darvoqe, darhaqiqat	
346.	fayton	2 yoki 4 g'ildirakli arava	
347.	banka	bank	
348.	tilmoch	tarjimon	
349.	birinch	guruch	
350.	ma'ruf	taniqli, mashhur	
351.	no'qtalamoq	jilovlamoq	
352.	muqobala	qarshi kelish	
353.	desatin (ruscha «desyatina»)	10 gektarga teng yer o'lchovi	
354.	marza	chegara, egat, yo'l	
355.	muazzin	so'fi (azon aytuvchi)	
356.	betavfiq	din yo'l-yo'riqlariga ishonmaydigan, iymoni yo'q	
357.	evrilmoq	egilmoq	

358.	e'timod	ishonish, ishonch	
359.	birushta	tez-tez (shevada)	
360.	javdishmoq	tarqalmoq	
361.	bo'lus	bir necha qishloqdan iborat ma'muriy bo'linma boshlig'i	
362.	o'lan	bo'lgan	
363.	evlanmoq	uylanmoq	
364.	mo'laymoq	ko'zini javdiratib, ma'yuslanib, ezilib qaramoq	
365.	burov	uy hayvonlari tumshug'iga solinadigan sirtmoq; ko'ch, avj	
366.	sarzanish	koyish; tanbeh, haqorat	
367.	mustahiq	munosib, loyiq	
368.	mudavvar	yumaloq, doira, g'ildirak shaklli	
369.	tammat	oxiri, tugashi	
370.	paynov	ariq, havzalarning ortiqcha suv oqib chiqib ketadigan tomoni, egati	
371.	dasisa	hiyla, nayrang, makr	

G'AFUR G'ULOM (1903 – 1966)

1.	G'afur G'ulom qachon qayerda tavallud topdi?	G'afur G'ulom 1903-yil 10-mayda Toshkentdagi Qo'rg'ontegi mahallasida kambag'al oilada tug'iladi	5, 8
2.	Yosh G'afurning boshiga qanday musibatlar tushadi	Otdan (9 yoshida – 1912-yil), onadan (15 yoshida – 1918-yil) erta ajragan G'afur bolaligidanoq yetim qoladi	5
3.	Shoirning otasi qanday taxalluslar bilan g'azallar yozgan?	«Mirza», «G'ulom»	
4.	G'afur G'ulom oilani boqish uchun qanday ishlarni qilishga majbur bo'ldi?	U etikdo'z kosibga qarashdi, kunduz kunlari singillarini boqib, kechqurun tegirmonda qorovullik qildi, Sariboy degan boyning bog'ini qo'riqladi. Kosiblik, mixkorlik, aravakashlik qildi, bosmaxonada harf teruvchi bo'lib ishladi	5
5.	G'afur G'ulom qaysi bilim dargohlarida tahsil oldi?	G'afur G'ulom avval boshlang'ich maktabda, rus-tuzem maktabida, 8 oylik muallimlar tayyorlaydigan maktabda o'qiydi	5, 8
6.	G'afur G'ulomning mehnat faoliyati...	Avval o'qituvchilik, so'ng jurnalistlik qiladi (1923-yildan yetim bolalar uyida tarbiyachi, hatto bir muddat mudir bo'lib ham xizmat qiladi)	5, 8
7.	G'afur G'ulomning yuzlab katta-kichik maqolalari, felyetonlari qaysi gazeta va jurnallarda bosildi?	«Kambag'al dehqon», «Qizil O'zbekiston», «Sharq haqiqati» gazetalarida, «Mushtum» jurnalida	8

8.	G'afur G'ulom ko'proq qaysi vaznlarda she'r yozadi?	Barmoq, sarbast	8
9.	Ham she'riy, ham nasriy janrlarda birdek muvaffaqiyat bilan qalam tebratgan adiblar...	G'afur G'ulom, Oybek	8
10.	G'afur G'ulom qachon Akademik unvoniga sazovor bo'lgan?	1943-yilda	5, 8
11.	G'afur G'ulom bilan birga qaysi adiblar Akademik unvonini olishgan?	Oybek, Hamid Olimjon	5
12.	G'afur G'ulomning «Sharq va G'arb nasrchiligi sintezidan tug'ilgan badiiy tafakkurning yorqin namunasi» (S.Mamajonov izohi) hisoblangan asari...	«Yodgor»	L
13.	G'afur G'ulom qanday unvon va ordenlar bilan taqdirlangan?	O'zbekiston xalq shoiri (1963), Akademik (1943), «Buyuk xizmatlari uchun» (2000) ordeni bilan taqdirlangan	5, 8
14.	G'afur G'ulom 1946-yilda qaysi to'plami uchun Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi?	Urush yillarida yozilgan she'rlari jamlangan «Sharqdan kelayotirman» to'plami uchun	8
15.	G'afur G'ulomning birinchi she'riy to'plami...	«Dinamo» (1931)	8
16.	G'afur G'ulomning she'riy to'plamlari	«Dinamo» (1931), «Tirik qo'shiqlar» (1932, ikkinchi she'riy to'plam), «Sharqdan kelayotirman» kabi	8
17.	Ikkinchi jahon urushi davrida G'afur G'ulom qanday she'rlar yozdi?	«Kuzatish», «Sen yetim emassan», «Vaqt», «Sog'inish», «Onalar», «Oltin medal», «Bizning ko'chada ham bayram bo'lajak», «Men yahudiy» kabi	5, 8

18.	1930 – 1935-yillarda yaratilgan liro-epik janrda yozilgan asarlari...	«Ko'kan» poemasi, «To'y», «Ikki vasiqa» balladaları	8
19.	Shoirning 1945-yilda fashizm ustidan qozonilgan g'alaba munosabati bilan yozilgan she'ri...	«Vaqt» she'ri	8
20.	«Sog'inish» she'ri nechanchi yilda yozilgan?	1942-yilda	8
21.	1948-yilda Navoiyning tavallud to'yi munosabati bilan yozilgan she'ri...	«Alisher»	
22.	«Shum bola» qissasi qachon yozilgan?	1936-yilda yozilgan, 1960-yillarda qaytadan ishlangan	5
23.	Shoir «Sog'inish» she'rini kimga bag'ishlagan?	G'afur G'ulom o'z o'g'li Jo'raxonga bag'ishlagan (Jo'raxon keyinchalik frontda halok bo'lgan)	6

Quyidagi janrlarda G'afur G'ulomning qaysi asarlari yozilgan?

24.	Poema	«Ko'kan» (1933)	8
25.	Ballada	«To'y», «Ikki vasiqa»	8
26.	Hikoya	«Mening o'g'rigina bolam», «Hasan Kayfiy», «Hiylayi shar'iy», «Chorbo-zorchi», «Kim aybdor», «Eng rasvo namozi asr», «Elatiyadagi bir ov», «Afandi o'lmaydigan bo'ldi» (1965, Azroilni ham dog'da qoldirgan afandi obrazi berilgan)	L, 5
27.	She'r	«Sen yetim emassan», «Oltin medal», «Kuzatish», «Vaqt», «Sog'inish», «Bizning ko'chada ham bayram bo'lajak», «Men – yahudiy», «Onalar», «Turksib yo'llarida», «Yalovbardorlikka»	5, 8

28.	Qissa	«Netay» (1930), «Yodgor» (1936), «Tirilgan murda», «Shum bola» (1936-1963)	8
29.	Vaqt she'rini shoir kimga bag'ishlagan?	Shoirlarga soat taqdim etgan jiyani mayor Hamidulla Husan o'g'liga bag'ishlagan	
30.	G'afur G'ulomning «Sog'inish» she'rida qanday g'oya ifodalangan?	Insonning insonga mehri, yashashga chanqoqlik mehri	8
31.	Shuhratparastlikka intilib, ibodatxonani yoqib yuborgan xudbin Gerostrat kimning she'rida qoralanadi?	G'afur G'ulomning	8
32.	«Maqomi zolim oxir bar zaifonast arzoniy, Agar otash firu aftad baxokistar dexad jaro». Ushbu baytni sharhlang va muallifini aniqlang	Abdulqodir Bedil she'ri. Bayt mazmuni: Zolimning maqomi – qudrati, zulmi oxir-oqibat zaiflashib, kuchdan qoladi. Lovullab yonayotgan olov ham bir kun kelib kulga aylanadi	8
33.	Yuqorida berilgan she'rdagi fikr G'afur G'ulomning «Vaqt» she'rida qanday aks etgan?	«Iblisning g'arazi bo'lgan bu urush Albatta, yetadi o'zin boshiga	8
34.	G'afur G'ulomning qaysi she'rida shuhrat qozonmoq uchun Gerostratdek ibodatxonaga o't qo'yish shart emasligi bayon qilingan?	«Vaqt»	8
35.	G'afur G'ulomning qaysi she'rida «o'zbek otasi»ning bo'rtma, umumiy, hamma uchun tanish siymosi yaratilgan?	«Sog'inish»	8

36.	G'afur G'ulom qaysi she'rida fors shoiri Bedil she'rlarini o'qiganini aytadi?	«Sog'inish» she'rida	8
37.	Lahzaga abadiy haykal qo'yilgan she'r...	«Vaqt»	8

**Quyidagi misralar G'afur G'ulomning
qaysi she'rlaridan olingan?**

38.	Aziz asrimizning aziz onlari Aziz odamlardan so'raydi qadrin. Fursat g'animatdir shoh satrlar-la Bezamoq chog'idir umr daftarin.	«Vaqt»	8
39.	«Yetimlik nimadir, bizlardan so'ra, O'ninchi yillarning sargardonligi, Isitma aralash qo'rqinch tush kabi Xayol ko'zgusidan o'chmaydi sira...»	«Sen yetim emassan»	L
40.	Ona sutidan ham aziz narsa yo'q, Bag'ir: forsiy – siyna, arabchada – adr. Ko'krak suti bilan boqqan o'g'lini Ona yurt xalqlari qilmoqdadir qadr	«Alisher»	L
41.	Bir onning bahosin o'lchamoq uchun Oltindan tarozu, olmosdan tosh oz	«Vaqt»	8
42.	Bu yerda muzlagan Ajdar halqumli, Vahshat to'plarining Qahqahasi yo'q. Bu yerda – odamzod shaklida yurgan la'nati devlarning Manfur, yuqumli, Maraz namoyishi Topolmas huquq	«Sen yetim emassan»	L
43.	Kechqurun osh suzsak bir nasiba kam, Qo'msayman birovni – allakimimni. Doimo umidim bardam bo'lsa ham, Ba'zan vasvasalar bosar dilimni	«Sog'inish»	8

44.	Ulug'vor xalqimiz tarixda mashhur, Guvohlik berolur bunga Gerodot. O'zbekni, tojikni qabila atab, Biror lord qilolmas o'tmishni unut. Sharqimiz chumoli uya emasdir, Birin-birovidan tanib bo'lmasa, Sho'rluk boybachchalar, toleyingiz sho'r, Afsuski, tarixdan tonib bo'lmasa!.. Ne-ne tarixlarni boshdan o'tkazib, Talay jafolarni tortgan eski Sharq – Ne-ne daholarni tarbiyat qilib, Oftobday jahonni nurga qildi g'arq	«Alisher»	L
45.	Alhazar, Alhazar, Ko'pirar Tomirlarda qon Va portlar hademay Bu o'tli vulqon	«Sen yetim emassan»	L
46.	Sizlarni keldi, deb eshitgan kuni O'zing to'qib ketgan katta savatda To'latib shaftoli uzib chiqarman, G'alaba kunlari yaqin, albatta	«Vaqt»	8
47.	Hayot sharobidan bir qultum yutay, Damlar g'animatdir, umrzoq soqiy. Quyoshki falakda kezib yuribdi, Umrimiz boqiydir, umrimiz boqiy	«Vaqt»	8
48.	Tong yaqin, tong yaqin, oppoq tong yaqin. Bir nafas orom ol, Uxla, jigarim. Oq oydin tong oldi, Uxlamoqdasen. Lablaring shivirlar, Izlamoqdalar... Baiki bir erkalash, Bir ona bo'sa	«Sen yetim emassan»	L
49.	Hasharchi qo'shni qiz – uning sevgani, Ma'yus bosar edi orqamdan odim.	«Sog'inish»	8

«Mening o'g'rigina bolam» hikoyasi

1.	«Mening o'g'rigina bolam» hikoyasidagi asosiy voqea qaysi oyda bo'lib o'tadi?	Sentabr oyining oxiri, ilk kuz oqshomlarining birida	5
----	---	--	---

2.	«Mening o'g'rigina bolam» hikoyasi qahramoni onasidan qaysi yil va qaysi faslda ajraladi?		1917-yilning ko'klamida	5
3.	Hikoyadagi buvining ismi...	Roqiyabibi – «qora buvi»		5
4.	Roqiyabibi necha yoshda edi?	80 dan oshgan noskash kampir edi		5
5.	Roqiyabibi nabiralari bilan oqshomlari qayerda uxlashar edi?	Oldi ochiq ayvonda uvunto'da ko'rpa-yostiqlarga o'ralib, bittagina o'ratepaning kir ip sholchasi ustida uxlashardi		5
6.	Hikoya qahramonining hovlisini tasvirlang	Hovlilari, ota-buvadan qolgan, anchagina katta bo'lib, to'rtburchak tanobi hovlilardan edi. Gir atrofi imorat, shimol tomonda amakivachchalari turishardi. Lekin ular yozda bog'ga ko'chib ketardilar. Hozir ular tomon bo'sh		5
7.	Roqiyabibi o'g'ri kelganini qayoqdan bildi?	O'grining aksa urib yuborganidan		5
8.	O'g'ri qaysi paytda keldi?	Kechqurun – uch xo'roz qichqirig'i o'tgandan keyin, yetti qaroqchi yulduzi tik kelganda		5
9.	Roqiyabibi qancha vaqtdan beri biror soat mijja qoqib uxlagani yo'q?	6 oydan beri		5
10.	Roqiyabibining yetim nabiralari nechta?	To'rtta: bir o'g'il, uch qiz		5
11.	Hikoya qahramonining tog'asining kasbi...	Aravakashlik		5
12.	O'g'rining oila a'zolari...	Onasi, xotini, ikki farzandi		5
13.	O'g'rining ota kasbi...	Kosib – kavushdo'zlik		5
14.	Butun qolip-u shon-u so'zan, bigizlarini ulgurjisiga ikki pud jo'xori unga movoza qilgan (almashtirgan) devkor etikdo'zlardan biri...	Buvamat ota		5

**«Mening o'g'rigina bolam» hikoyasidagi
qahramonlarning kasbini aniqlang**

15.	Karimqori	chitfurush	5
16.	Odilxo'jaboy	pudratchi	5
17.	Matyoqubboy	ko'nchi	5
18.	Hikoyadagi kimning g'ulomgardishida (qul saqlaydigan joyida) miltiq ushlagan gorodovoy turadi?	Odilxo'jaboyning	5
19.	O'g'ri kimning otxonasidan nimalarni o'g'irlaydi?	Orif sassiqning otxonasidan to'rtta tovuq, bitta xo'rozni	5
20.	O'g'ri siri ochilmasligi uchun Rahmonxo'jaga pora uchun nima berdi?	Bitta xo'roz	5
21.	Rahmonxo'janing mansabi...	Ellikboshi	5
22.	Rabochiyga bormaslik uchun o'g'ri bola Rahmonxo'jaga necha so'm pora beradi?	83 so'm (sakson uch so'm)	5
23.	Kampir: «Ha, ishqilib, bola-chaqasi-ning egiligini (rohatini) ko'rsin», – deya kimni duo qildi?	Rahmonxo'jani	5
24.	Roqiyabibi o'g'ridan nimani iltimos qildi?	Yong'oq to'nkani yorib berishni	5
25.	Roqiyabibi o'g'riga nimani taklif qildi?	Ikkita zog'ora noni bor edi, birgalashib choy ichishni taklif qildi	5
26.	O'g'ri nima uchun kampirning taklifini rad etdi?	Roqiyabibining tanib qolishidan uyalib, andisha qildi	5
27.	«Mening o'g'rigina bolam» hikoyasida kampir o'g'riga nima bermochi bo'ladi? O'g'ri oladimi?	Bitta yarim pudlik qozonni, lekin o'g'rigina bola olmaydi	5
28.	O'g'ri kampir bilan xayrlashayotib unga qanday murojaat qiladi?	«Ona» deb	5

29.	Hikoya qahramoni yigitcha o'grini tanir edimi?	O'g'rini tanir edi, lekin kimligini haligacha hech kimga aytmagan	5
30.	Hikoya qahramoni qaysi voqea haqida: «Bizni ham odam deb yo'qleydigan kishilar bor ekan-da dunyoda? Ertaga o'rtoqlarimga toza maqtanadigan bo'ldim-da... G'urur bilan aytilsa bo'ladi. Lekin ishonisharmikan?» – deydi?	Uyiga o'g'ri tushgani haqida	5
31.	Hikoyada qanday maqollar uchraydi?	«Turib yeganga turumtog' chidamas», «Bir tovuqqa ham don kerak, ham suv kerak»	5
32.	Qaysi hikoyada quyidagi tasvir mavjud? «Qaysi burchakka, qaysi chordevorga bosh suqmang, o'n beshta yetim yuvuqsiz qo'lini cho'zib: «Amaki, non bering», – deydi»	«Mening o'g'rigina bolam» hikoyasida	5
33.	«Mening o'g'rigina bolam»ning «voqeiy hikoya» deb nomlanishiga sabab...	Chunki hikoyaga yozuvchi bolaligida guvoh bo'lgan hayotiy hodisa asos qilib olingan. Bu – avtobiografik xarakterga ega asardir	5
34.	«Mening o'g'rigina bolam» hikoyasi Qaysi chet el yozuvchisining qanday asariga o'xshaydi?	O.Genrining «Darddoshlar» asariga	
35.	Bu ikki asarning farqi nimada?	Genrining «Darddoshlar» asaridagi qahramonlar o'z dardlari haqida gaplashsa, «Mening o'g'rigina bolam» hikoyasidagi qahramonlar butun millat qayg'usi haqida suhbatlashadi	

36.	Qaysi hikoyada «Beshikdagi bolasi ham chetiga bayt yozilgan chinni kosada osh ichadi», – deb yozilgan?	«Mening o'g'rigina bolam» hikoyasida	5
-----	--	--------------------------------------	---

**Quyidagi iboralar qaysi qahramonlar
nutqidan olingan?**

37.	«Turib yeganga turumtog' chidamas»	Roqiyabibi	5
38.	«Bir tovuqqa ham don, ham suv kerak»	O'g'ri	5
39.	G'afur G'ulom hayotidagi og'ir kunlar asorati qaysi asarlarida yaqqol sezilib turadi?	«Sen yetim emassan» she'ri, «Shum bola», «Netay» qissalarida	5

**«Mening o'g'rigina bolam» hikoyasida
berilgan quyidagi so'zlarni izohlang**

40.	Uvunto'da	Eski, titilib ketgan	5
41.	Turmuchlab	Buklab	5
42.	Qut-loyamut	Yetarli ovqat	5
43.	Chavati non	Oshirilmagan xamirdan qilinadigan yupqa non	5
44.	Alining qilichi	Payg'ambarimizning sahobalaridan biri hazrati Ali qilichining dami ikki tig'li bo'lgan	5
45.	Ayolmand	Ko'p bolali	5
46.	Hammol	Yuk tashuvchi, mardikor	5
47.	Sirach	Kosiblar ishlatadigan yelim	5
48.	Rangi pano	Rangi o'chgan, qonsiz	5
49.	G'ulomgardish	Qul saqlanadigan joy, hikoyada «yo'lak» ma'nosida ishlatilgan	5
50.	Murt gardoni	Har kasbning o'z sir-sinoati	5
51.	Egiligi	«Rohati», «orzu-havasi» ma'nosida	5

52.	Anqoga shapig'	Nihoyatda tansiq, kam	5
53.	Rabochiyga ketish	Urush ortidagi ishlarga (mardikorlikka) olib ketish	5
54.	Hikoyada nomi tilga olingan Kerinska podsho haqida ma'lumot bering	Rossiyada 1917-yilning fevralidan oktabr oyiga qadar hukm surgan muvaqqat (vaqtinchalik) hukumat boshlig'i	5

«Shum bola» qissasi

55.	«Shum bola» qissasi qachon yaratilgan?	1936-yilda yaratilgan, 60-yillarda qayta ishlangan	6
56.	«Shum bola» qissasi qachon qaytadan tahrir qilindi?	1962-yilda	6
57.	«Shum bola» qissasining qayta tahririda qaysi obrazga juda ko'p detallar qo'shildi?	Hoji bobo obraziga	6
58.	G'afur G'ulom «Shum bola» qissasini necha yil ishladi?	Salkam 25 yil	6
59.	Qissaning birinchi va ikkinchi qismi qachon yozib tugatilgan?	1936-yilda	6
60.	Qissaning 3-qismi qaysi yilda tugatilgan?	40-yillarning oxirida tugatilgan, 60-yillarning boshlarida qayta tahrir qilingan	6
61.	«Shum bola» qissasining 3-qismi yozilayotganda qaysi yozuvchi G'afur G'ulomning yonida edi?	Said Ahmad	6
62.	«Shum bola» qissasini steno-grafiya usulida kim yozib olgan?	Shoahmad Shorahmedov	6
63.	Shum bolaning asli ismi nima?	Qoravoy	
64.	Shum bola nima uchun uyidan qochdi?	Onasini xafa qilib qo'yganidan xijolat bo'lib, qolaversa, biror oy mehnat qilib, pul topib kelish ilinjida yo'lga tushadi. U Toshkent atrofidagi qishloqlarda ish qidirib yuradi	6

65.	Shum bolaning sarguzashti necha oy davom etadi?	Olti oydan ortiq	6
66.	Shum bola kimning bog'iga ishlash maqsadida bordi?	Sariboyning	6
67.	Sariboyning olmazor bog'i necha tanob edi?	Ming tanob	6
68.	Sariboyning bog'ida Shum bolaga kim yo'lboshlovchilik qildi?	Uzumchi	6
69.	Sariboyning 20 chog' xizmatkori kechki ovqat ustida edilar. Ular shum bolaga qanday maslahat berishdi?	«Asl umring Sariboyda bekorga o'tib ketadi, uka, yosh ekansan. Bironta boshqa kasbning payidan bo'lganingda yaxshi bo'lar edi. Ha, mayli, sal o'zingni tutib olguningcha o'n-o'n besh kun ishlab tur. Keyin yo'lingni topib olarsan», – deyishdi. Bitta bo'sh sopol tovoqqa bir cho'mich go'ja va ikki burda jaydari non berdilar	6
70.	O'sha kuni Shum bola xizmatkorlar orasida yotib qoldi. Ikkita yashikni yonma-yon karavot qildi. Boshiga olma o'raydigan yog'och qirindisidan yostiqliq qilib, rohat-rohat uyquga ketdi. Bu uyqu asarda yana qanday tasvirlangan?	«Bu uyqu eshon xonaqosiga qaraganda juda shohona edi. Hech bo'lmasa, bu yerda, tong azonda avrodchi so'filarning qichqirib g'o'ldiraydigan har xil duolari kishini uyqudan bezovta qilmas edi»	6
71.	Sariboy Shum bolaga qancha haq beradigan bo'ldi?	Oyiga xom-pishiqliq aralash 2 pud 17 qadoqdan olma beradigan bo'ldi	6
72.	Shum bola Sariboyga qanday aybi borligini aytadi?	Har zamon-har zamonda yolg'on gapirib qo'yishini	6

73.	Shum bola Sariboynikida qanday yumushlarni bajarar edi?	Olmalarga tirgovuch qo'yadi, to'kilgan olmalarni terib, qoqi qiladi, bog' qo'riydi, ba'zan boyga pul zarur bo'lib qolganida xom-xatala olmalarni aravaga ortib sotib keladi	6
74.	Shum bola olmalarni qayerda sotadi?	Sariog'och, Darvoza atrofidagi bug'doykor qishloqlarda	6
75.	Molga to'g'rab bersa, mol yemaydigan olmalarni nima qilardi?	Cho'lda, bug'doy o'rib turgan dehqonlarga bir qadog'ini ikki qadoqdan bug'doyga alishadi	6
76.	Shum bolaning xo'jayinlarining ichida eng xudo urgan badbaxti, ziqnasi kim edi?	Sariboy	6
77.	Sariboy qanday odam edi?	Sariboy ezma va laqma edi. Uning qo'lida umrbod xizmat qilib charchagan kishilarning dard-u alami ichida. Hech biri yurak yutib xo'jayinga gap qaytara olmaydi. Gap qaytarish qayda, umuman, bu odamga ro'para kelishdan qo'rqib yurishadi. Chunki xoh yaxshi, xoh yomon gap bo'lsin, Sariboy nuqul: «Xo'sh, innaykeyin-chi», – deb odamni xit qilib yuboradi.	6
78.	Sariboy-ning qanday yomon odati bor edi?	Yoniga borgan odamga bo'lar-bo'lmas narsaga «Innaykeyin?» deb savol beraverar, agar «innaykeyin»ga javob topa olishmasa, boy ularni kaltaklardi. Boyga odam bolasi teng kelolmas edi	6
79.	Sariboy kimning mevazorini, ichki-tashqi qo'rg'onchasini, butun dov-dastgohining hammasini qanday qo'lga kiritadi?	Chuvalanchidagi Yusuf kontordan qimorda yutib oladi	6

80.	Olma pishgan vaqtda Sariboy qayerdagi bog'ga jo'nab ketadi?	Yusuf kontordan qimorda yutib olgan shinam bog'iga	6
81.	Sariboy bog'da qaysi xotini bilan yashar edi?	Do'ndiqqina qirg'iz xotini bilan (o'n-o'n besh kunlab Kalasga qaytmaydigan bo'lib qoldi)	6
82.	Shum bola ishlayotgan bog'da qanday muammo paydo bo'ldi?	Bog'da olmalar pishib, tagiga to'kilib, uvol bo'lyapti. Xo'jayin ruxsatisiz terishsa ham bir ba'o, vaqtda terilmay, qolib ketsa, yana bir balo. Har ikki holda ham bechora xizmatkorlar aybdor bo'lib qoladi. Otlarga yem-hashaklar yo'q. Xizmatkorlar och	6
83.	Sariboyning oldiga borishga nega hamma xizmatkorlarining yuragi dov bermaydi?	Har gapdan keyin beriladigan «Innaykeyin?» savolidan qo'rqadi	6
84.	Sariboyni chaqirib kelish kimning chekiga tushadi?	Bu muammoni yechib kelish Shum bolaning chekiga tushgan	6
85.	Sariboy shiyponda nima yeb o'tirgan edi?	Boy shiyponda kalla go'shti bilan nonushta qilib o'tirgan edi	6
86.	Shum bola boyning «Innaykeyiniga»-qanday javob topadi?	U bunga munosib javob topadi va boyni bezdirib tashlaydi. Shum bola Sariboyni uncha-buncha yangilik bilan lol qilib bo'lmasligini yaxshi biladi. Demak, nozik joyni ushlash kerak. Boyning nozik joyi esa mol-mulki, boyligidir. Shum bola bir xabarni ikkinchisiga shunday uladiki, boy «innaykeyin» degan be'ma'ni savol berishga yuragi dov bermadi	6

**Shum bola o'zi to'qigan quyidagi
voqealarni qanday izohlaydi?**

87.	Dandon sopli pichoq nima uchun sinadi?	Dandon sopli pichoq tozi itning terisini shilishayotganida suyakka tegib sinadi	6
88.	Tozi it nima sababdan o'ladi?	Harom o'lgan otning go'shtini ko'p yeb qo'ygani uchun	6
89.	To'riq qashqa nima uchun o'ladi?	Xomlik qilib o'ldi. Hech aravaga qo'shilmagan ekan, aravaga qo'shib, suv tashishgan edi, zo'riqib o'ldi. O'tni o'chirish uchun suv tashishgan edi	6
90.	O't nimadan chiqadi va tutashib qaysi binolar yonadi?	O't shamdan tutashib, qo'rg'onga, undan omborga, undan og'ilxonaga o'tadi	6
91.	Toshkentdan olib kelingan qirqinchi fanorlar turganida sham nima sababdan yoqiladi?	O'likning arvohiga	6
92.	Kim vafot etadi?	Boyning kenjatoy o'g'li Bo'riboyvachcha	6
93.	Bo'riboyvachcha nega halok bo'ladi?	Terakka chiqib, chumchuq bolasini olaman deb, yiqilib tushib, bir marta «dada» dedi-yu, «g'iyq...» etib jon berdi	6
94.	Shum bolaning qaysi gapidan so'ng Sariboy «innaykeyin-chi» deyishga ham holi qolmay, davomini eshitgisi kelmaganday, sekin, qo'rqa-pisa gapiradi?	Kimdir o'lganini eshitib	6
95.	Shum bola boyga qanday «xushxabar» aytdi?	Boyning turmushga chiqmagan qizi Adol opa o'g'ilcha tuqqani, chaqaloqning Badal aravakashga o'xshashini	6

**Sariboy Shum bolaning qaysi gaplaridan
keyin quyidagi holatlarga tushadi?**

96.	Soqolini yulib, dodlab yig'lamoqqa boshladi	O'g'li Boriboyvachchaning o'lganini eshitib	6
97.	Boy hushidan ketib yiqildi	Erga tegmagan qizi Adolning o'g'il tuqqanini, bola Badal aravakashga o'xshashini eshitib	6
98.	Alanglab qoladi	To'riq qashqaninig o'lganini eshitib	6
99.	Chaynab turgan yaxna tilni yutishga ham boyning darmoni qolmadi	O't tushganini eshitib	6
100.	Choy ichib turgan piyolasini chakkasiga urib yordi	O'g'li Boriboyvachchaning o'lganini eshitib	6
101.	Boy Shum bolaga: «Jinni bo'lib qolibsan, o'g'lim», – deydi	Sham yoqilgani va undan o't ketganini eshitib	6
102.	Asardagi uloqchi ot...	To'riq qashqa	6
103.	Omborda nimalar bor edi?	Bug'doy, guruch, yog', gazmol	6
104.	Boy minib kelgan ot...	Saman tulpor	6
105.	Shumxabarni eshitgan boy uyiga qay ahvolda kirib keldi?	Tulpor saman otda barlari osilib ketgan bir ko'zi yerda bir ko'zi osmonda , egar qoshiga qamchi dastasini tirab, yig'lab keldi	6
106.	Yolg'on gaplari uchun Shum bola qanday jazolandi?	Ertasiga boy Shum bolani chalpak qilib ko'tartirib oldirib keldi, bosh-ko'zi aralash yigirma qamchi savalatdi, so'ng ishdan haydadi	6
107.	Shum bola boyning bog'ida necha kun ishlagan edi?	Bir oy-u 19 kun	6

108.	Boy Shum bolaning ish haqini qanday to'ladi?	Yigirma ikki tiyin choychaqani bosib qolib, qayoqdagi sasigan, qurt tushgan olmalardan ikki pud olmani bitta chipta qopga solib berdi	6
109.	Bir pud necha kilogramm?	16 kg, 38 gr	
110.	Sariboyning eshigidan haydalganidan so'ng Shum bola qayerda tunab qoldi?	O'tovda	6
111.	«Xudoyi qo'noq» so'zining ma'nosi...	Tunab qolishga ijozat so'rash	6
112.	O'tovda Shum bola bolalarga ikkita-ikkita dan olma berdi, ular Shum bolani nima bilan mehmon qildilar?	Tuya suti – qimron bilan, qozonda yopilgan nondan yarimtasini oldiga qo'ydilar	6
113.	O'tovdan chiqib Shum qaysi bozorga yo'l oldi?	Sariog'och bozoriga	6
114.	Olmalarni necha so'mga pulladi?	Olti tanga bir miriga	6
115.	Shum bola bozorda nimalarga xaridor bo'ldi?	Tunuka vannaga, qunduz yoqalik bobrik paltolarga, mullavachchalarning sallasiday buralib-buralib ketgan do'ng peshonalik, katta bir qo'chqorga	6
116.	Shum bola bozorda kimni ko'rib qoldi?	Omonni	6
117.	Omon boshidan o'tkazgan qaysi voqealarni Shum bolaga aytib berdi?	«O'lik yuvdirgan ko'chmanchilarning qo'lidan arang qochib qutulibdi. «Ulardan bitta-yarimtasiga uchrab qolib, tag'in bir baloga yo'liqmay», degan xayol bilan qishloqma-qishloq gadoylik qilib yurib, adashib-uloqib o'n yetti kun deganda Chimkentga yetib boribdi. Chimkentda bir amakisini qora	6

		tortib borgan ekan, lekin bu bechoraning toleyiga amakisi ham allaqachonlar o'lib ketgan. Shu bilan... toshkentlik qo'ychi boylardan bittasiga bir yilga ikki to'qli-yu bir echkiga cho'ponlikka yollanibdi» («Xudo berib, har qaysisi ikkitadan egiz tug'ib bersa, zora xo'jayinimdek katta qo'ychi boy bo'lib ketsam», – deb mo'ljal qilibdi)	
118.	Shum bola kim bilan ishlashni xohladi?	Omon bilan	6
119.	Omon bilan Shum bola qo'ylarni qaysi bozorga haydab borishdi?	Ko'kterak bozoriga	
120.	Sariog'ochda qo'ychi boyning nechta qo'yi bozordan qaytdi?	Yetmish uchta (echkilarning hammasi sotilib bo'ldi)	
121.	Shum bola poyezdda qaysi shaharlarga borishni xohladi?	Qovunchi, Turkiston, Chinoz, Maskovga	
122.	Omon nima sababdan Shum bolaga nisbatan jiddiy kek saqlagan edi?	Poyezd shovqinidan qo'ylar hurkib, yarmi qishloq xonadonlariga va boshqa yoqlarga tarqalib ketdi. Omon va Shum bola bir amallab qo'ylarni yig'ib olishdi, lekin 6 – 7 qo'y topilmadi. Ko'kterak bozoriga borib, qo'ylarni qo'ychi boyga topshirishdi. U qo'ylarni sanaguncha Shum bola va Omon juftakni rostlashdi. Eng yomoni Omon xo'jayinidan o'z haqini ololmadi va bunga Shum bolani bosh aybdor deb o'yladi	
123.	Shum bola bilan Omon sabzi kavlab qoplayotgan odamlardan qaysi joyning yo'lini so'rashdi?	Qorasa-royni	6

124.	Shum bola va Omon qishloq boyining uyida ishlab qolishga rozi bo'lishdi. Boy ularga qanchadan haq to'lashini aytdi?	Qorin to'ydirish va haftada arzimagan choychaqa	6
125.	Shum bola Omon boyning uyida birinchi kuni qanday ish bilan shug'ullanishdi?	Shum bola ekindan bo'shagan yerlarda sigir boqqani chiqdi. Sigir kun bo'yi shataloq o'tib qochib Shum bolaning tinkamadorini quritdi. Shum bolaning oyoqlariga tikan-cho'kirtak kirib qonab ketdi. Omon esa ikkita terak to'nkasini kavlab chiqardi	6
126.	«Tering sangobda chirigur», «Go'shting olaqarg'aga xomtalash bo'lgur». Parcha qaysi qahramon nutqidan olingan?	Shum bola xo'jayinning sigirini shunday deb qarg'agan	6
127.	Shum bola Omon bir-birlarini qanday laqillatishdi?	Shum bola sigirni «juda yuvvosh ekan» deb ta'rifladi va kuni bilan uxlaganligini aytdi. Omon esa kun bo'yi ziyofatda bo'lganligini, hali manti, hali tandir kabob, hali lag'mon, hali holvaytarlarni ko'p yeb qo'yib bo'kib qolganligini aytib maqtandi	6
128.	Shum bola va Omon ertasiga o'rin almashtirdi. Shum bola qo'rg'onda qoladigan, Omon sigir boqadigan bo'ldi. Shum bola Omonga qanday maslahat berdi?	«Arqon karavotingni ola ket. Kecha zaxda yotaverib mening belim og'rib qoldi. Hozir kuz tushib qolgan vaqt, ayniqsa, to'qay yer, zaxkash, sigirni o'tlatib qo'yasan-da, o'zing	6

		karavotni bir salqin joyga qo'yib, maza qilib uxlayverasan»	
129.	Kech kirgandan so'ng Shum bola Omonning ahvoli qanday edi?	Shum bola ikkita katta terak to'nkasini kavlab chiqargan, juda holdan toygan, och-nahor holatda; Omon esa sigirni quvaman deb, oyoqlari qonagan, kun bo'yi karavotni ko'tarib yurib, orqalari shilinin ketgan edi	6
130.	«Maslahatli to'n tor kelmas». Parcha qaysi qahramon nutqidan olingan?	Shum bola	6
131.	Shum bola va Omon boyni uyidan qochmoqchi bo'lishdi va qanday reja tuzishdi?	Ikki kundan buyon ularni sargardon qilgan tentak sigirni so'yib, uning go'shtidan ko'targanicha olib, shuni sotib, tirikchilik qilmoqchi bo'lishdi	6
132.	Yarim kechadan o'tganda uyg'onishdi. Shum bola sigirni so'ydi. Olib ketish uchun qopga qancha go'sht solishdi?	Uch pudcha (1 pud – 16, 38 kg)	6
133.	Devor juda baland, undan qanday o'tishdi?	Shum bola to'nka bo'lib turdi. Omon tomga chiqdi. Arqon yordamida avval go'shtni, so'ng Shum bolani tortib olmoqchi bo'ldi. Lekin Shum bolaning ko'ngliga shubha oralab go'shtni bo'shatib, o'zi qopning ichiga tushib oldi. Shum bolaning gumoni to'g'ri ekan. Omon qopni tortib olgandan keyin pastga qarab: «Qo'lga tushdingku, qani endi xo'jayinga javob berib ko'r, ha, nomard!» – dedi-da, sekin avaylab qopni arqon bilan pastga – ko'chaga tushirdi-da, qopni orqalab jo'nab qoldi	6

134.	Omon qopda sigir go'shti emas, Shum bola borligini qanday bildi?	Omon ancha yo'l yurdi. Qaysidir qishloqqa kirib borishdi. Omonni itlar taladi. Itlardan biri kelib qopni tishladi. Shum bolaning: «Voydod, Omon, yuqoriroq ko'tarib ol!» – deb qichqirganidan bilib oldi	6
135.	«Oyoq-qo'ling chaqqongina, epchil yigitsan. Sen ham axir qarab turmasdan, boshqacharoq yo'l bilan bo'lsa ham tirikchilik payidan bo'lsang edi, o'g'lim ... Axir kissa-karmon degan gaplar bo'ladi. Naqdina pul ham yengil, ham qimmat, ham yashirishga oson bo'ladi. Naqdina bo'lsin, bolam, naqdina bo'lsin ...» «Shum bola» qissasida shum bolaga ushbu so'zlarni kim aytgan?	Eshon	6
136.	«Shum bola» qissasida «har gapga bir maqol o'qiydigan, ezmaroq tabiatli, ammo ko'ngli ochiq, baxilligi yo'q, hisobga no'noqroq, oltita narsani ketma-ket sanamoqchi bo'lsa, to'rtidan keyin yanglishib ketadigan» kishi kim?	Hoji bobo	
137.	Shum bola pochchasi avaylaylab boqayotgan nimalarga qatiq, suzma ichirib, harom o'ldirib qo'yadi?	Qimmatba-ho qushlar-ga	6
138.	Shum bola do'sti Omon bilan bilan birga kim boshchiligida kissavurlar bilan tunni o'tkazadi?	Sulton o'g'ri	6
139.	Qayerda o'lik yuvib, sharmanda bo'lishadi?	Ko'chmanchi qozoqlar ovulida	6
140.	Shum bola o'sallab qolgan ho'kiz o'rniga soppa sog' eshakni so'yib qo'yib kimdan rosa kaltak yeydi?	Masjid imomidan	6

141.	Kim Shum bolani to'g'ridan to'g'ri o'g'rilik qilishga yo'llaydi?	Yuzlab qalandarlarlarga yo'lboshchi bo'lib olib, har gapida qayta-qayta Xudoni tilga oladigan ikkiyuzlamachi Eshon	6
142.	Shaharning bir chekkasidagi xaroba uyni nashavand-bangilar yig'iladigan takyaxonaga aylantirgan, o'zicha xudojo'ylikda boyagi Eshondan qolishmaydigan qahramon...	Hoji bobo	6
143.	Shum bolaga katta odamlar qanday muomala qilishadi?	Shum bola qayerga bormasin, kim bilan to'qnashmasin, hamma joyda kattalarning o'ziga bepisand qarashi, qo'pol muomalasiga duch keladi. O'zlarini go'yo yetimning boshini silaydigan himmatli kishilar qilib ko'rsatadigan turli noinsof kimsalar uning navqiron kuchidan suvtekin foydalanib qolishga urinadilar. Bu ham mayli, yosh bolani turli qing'ir yo'llarga boshlovchilar ham topiladi. Xudoni tilidan qo'ymaydigan Eshon Shum bolani o'g'rilik qilishga undaydi	6
144.	Shum bola hayotda qanday odamlarga duch keladi?	Shum bola duch keladigan odamlarning ko'pchiligi ochko'z, xasis, nazari past kimsalar bo'lsa-da, Shum bola bunday kimsalarni bir ko'rishda taniydi, tezroq ulardan qutulish yo'llarini qidiradi va, albatta, topadi	6
145.	Masjidning imomi – domla Shum bolaga avval qanday muomala qiladi?	Avval yaxshi gapiradi, chunki Shum bolaning mehnatidan foydalanmoqchi edi	

146.	«Shum bola» qissasida Shum bola eshakni so'yib qo'yganidan so'ng domla uni qanday jazoladi?	Shum bolaning duch kelgan joyiga rosa savalaydi	
147.	Suyuqoyoq ayol va xotinboz erkakning xufiya uchrashuviga guvoh bo'lib qolganda, ularning qo'lidan qutulish uchun Shum bola nimani ishga soladi?	Dodlashni	
148.	«Shum bola» asarining qaysi o'rnida G'afur G'ulomning Sharq xalqlari og'zaki ijodidan ijodiy foydalanganligi ko'rinadi?	Shum bolaning Sariboy bilan bo'lgan suhbatida	6
149.	G'afur G'ulomning «Shum bola» qissasidagi Shum bolaning Sariboyni laqillatish sujeti aslida qaysi xalq ertagini yodga soladi?	«Uch yolg'ondan qirq yolg'on»	6
150.	«Qo'li ochiq, mehribon» deb ta'riflangan obraz...	Hoji bobo	
151.	Ko'kterak bozorida pulini o'g'irlatgan «jabrdiyda»	Sulton	
152.	G'afur G'ulomning yorqin avtobiografik xarakterga ega bo'lgan asari...	«Shum bola»	6
153.	G'afur G'ulom «Shum bola» asarini qachon yozgan?	1936-yilda yozishni boshlagan, 60-yillarda qayta ishlagan	6
154.	«Shum bola» qissasi ilk bor kitob holida chop etilganda, u qanday nomlangan edi?	«Dovdirash»	
155.	«Shum bola» qissasining 1936-yildagi varianti qaysi nom bilan chiqqan va Shum bola necha yosh deb ko'rsatilgan?	«Dovdirash», 17 yosh (so'ngra 14 yoshga o'zgartirilgan)	

156.	Adib «Shum bola» qissasida Shum bola Sariboyni mot qilish usulida qaysi ertakdan ijodiy foydalangan?	«Uch yolg'ondan qirq yolg'on»	6
157.	«Yana o'sha darbadarlik, yana o'sha makonsizlik balosi. Qo'ndiqdan ajragan kakku bolasiday, qo'narga shox-butoqsiz...» Shu paytda Shum bola qayerga boradi?	Bu paytda Shum bola Sariboyning uyidan haydalib, Kalasdan yuqoriroq tomon ketayotgan edi	6
158.	«Hazrat bo'lsa, o'zini umr bo'yi o'likdan boshqa narsani yuvmagan kishiday qilib ko'rsatishga harakat qilar edi». Keltirilgan parcha qaysi asardan olingan?	«Shum bola»	6
159.	«Ha, shunaqa, bolam. Ota-ona dunyoga mo'rt keladi. Endi bitta ona topsang bo'ldi. Ota o'z oyog'i bilan keladi...» Parcha qaysi qahramon nutqidan olingan?	Hoji bobo	6
160.	Qaysi voqeadan keyin Shum bola it quvlagan tulkiday holdan toygan edi?	Qishloq boyining sigirini o'tlatib kelganidan so'ng	6

Nuqtalar o'rnida qaysi so'zlar tushirib qoldirilgan?

161.	«It quvgan ... olazarak Omon menga ergashdi»	Tulkiday	6
162.	«O'choqdan chiqqan zangori tutun osmonga o'rlab, tevarak-atrofga ... yoyilar edi»	Ko'rpadek	6
163.	«Hazrat bo'lsa, o'zini umr bo'yi... boshqa narsani yuvmagan kishiday qilib ko'rsatishga harakat qilar edi»	O'likdan	6
164.	Sirlangan xumchaga tushgan ... to'rt tomonga alanglab, o'zimga bir najot yo'li qidirar edim»	Sichqonday	6

165.	«Xumchaga tushgan ...day» qamalib qolarman	Sichqonday	6
166.	«Zinadan chiqqan ... to'rt oyoqlab narvonga tirmashib tomga chiqdim»	Itdek	6
167.	«Ora-chorada tor ko'chalar yo'limni to'sib qolsa ham tulki quvlagan ... sakrab o'tib ketar edim»	Tovuqday	6
168.	«Xotin qozonning chopqog'ini ochdi – ... bo'lib, oppoq laganda moshkichiri chiqdi»	Baliqday	6
169.	«Qo'ylar xuddi sutga tushgan ... boshlarini ko'tarib suzar edilar»	Sichqonday	6
170.	«Har ikkovimizning yuragimiz dard tekkan ... qaltirab turibdi»	Terak yaprog'iday	6

Quyidagi so'zlarni izohlang

171.	avrodchi	duolar, oyatlar o'quvchi	6
172.	g'ulomgardish	xizmatkorlar (qadim o'tmishda qullar) yashashi uchun qurilgan boshpana	6
173.	sangob	teri oshlash uchun qilingan ohak yoki qum eritmasi	6
174.	bo'ka	hayvonlar terisi ustiga tushadigan parazit hasharot	6
175.	olasi	oladigani, undiradigan haqi	6
176.	cho't	hisoblash moslamasi	6
177.	kunlashmoq	hasad, rashk qilmoq	6
178.	xizmatga qoim	xizmatga tayyor	6
179.	muzd	xizmat haqi, to'lov	6
180.	korafta	tajribali, ko'pni ko'rgan	6
181.	sallox	qassob, teri shiluvchi	6
182.	pud	16, 38 kg ga teng o'g'irlik o'lchov birligi	6

MUSO TOSHMUHAMMAD O'GLI OYBEK (1905 – 1968)

1.	Oybekni «prozada shoir-u, poeziyada prozaik» deb kim ta'riflagan?	Hamid Olimjon	
2.	Muso Toshmuhammad o'g'li qachon qayerda tavallud topdi?	Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek 1905-yil 10-yanvarda Toshkentning Gavkush mahallasida hunarmand-to'quvchi (bo'zchi) oilasida dunyoga kelgan	5, 9
3.	Oybekning otasi qanday ishlar bilan shug'ullangan?	Yozuvchining otasi dastlab bo'zchilik, so'ng baqqolchilik qilgan	
4.	Oybekning tarbiyasi bilan ko'proq kimlar shug'ullangan?	Oybekning tarbiyasi bilan onasi Shahodat Nazar qizi va bobosi shug'ullanganlar	9
5.	Oybek qaysi dargohlarda ta'lim oldi?	Shoir dastlab eski maktabda, so'ngra 14 yoshida «Namuna» maktabida, 16 yoshida Navoiy nomidagi ta'lim va tarbiya texnikumida o'qidi. U 1925-30-yillarda ToshDUning ijtimoiy fanlar fakultetining iqtisod bo'limida o'qidi (1927-29-yillarda Sankt – Peterburgdagi Xalq xo'jaligi institutida o'qib kelgan)	5, 9
6.	Oybekning mehnat faoliyati...	Oybek 1935-yilgacha o'zi tugatgan dorilfununda siyosiy iqtisod va marksizm-leninizm asoslaridan dars berdi. 1935-yilda til va adabiyot institutida ilmiy xodim bo'lib ishlay boshladi. Qatog'onlik yillari yozuvchi institutdan ham, Yozuvchilar	9

		uyushmasidan ham haydaldi. 1943-51-yillar O'zbekiston Fanlar akademiyasining gumanitar bo'limi boshlig'i lavozimida ishladi. Ikkinchi jahon urushi tugagach, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisligiga saylandi va 1949-yilgacha shu lavozimda ham mehnat qildi. (1951-yil og'ir xastalikka chalindi)	
7.	«Oybek ori q va novcha yigit bo'lib, qo'ng'ir... qalin sochlari do'ppisidan toshib turardi. Yirik qora ko'zlari shogirdlik davridayoq teran ma'noli va xayolchan edi.. Oybek «Tong yulduzi gazetasining muharriri edi. U ba'zan yo'limni to'sar, gazetaga biror narsa yozib berishim yoki rasm solishimni so'rar edi. U bir kuni she'rga liq to'la qalingina, sariq muqovali daftarni qo'limga tutqazdi-da, she'rlarning boshi va oxiriga kichik-kichik rasmlar chizib berishimni so'radi. Yo'q deya olmadim va eng nozik mo'yqalam va akvarel bo'yoqlar ila rasmlar chizdim...» Bu taassurotlar kimning esdaliklarida yozilgan?	Oybekning rafiqasi Zarifa Saidnosi-rovaning	9
8.	Oybek bo'lajak rafiqasi Zarifaxonim bilan qayerda tanishgan?	Texnikumda birga o'qishgan	9
9.	1937-yilda Oybek boshiga qanday falokatlar yog'ildi?	Oybek til va adabiyot institutidan haydaldi. Yozuvchilar uyushmasi safidan chiqarildi. Mahalliy matbuot eshiklari uning uchun yopildi	9

Oybek haqidagi quyidagi ma'lumotlar kimlarning esdaliklarida yozilgan?

10.	«Biz har kuni ertalab hali u, hali bu tanishimizning qamalganini eshitamiz. Kunlar nihoyatda betinch. Hamma ziyolilar «xalq dushmani» deb e'lon qilinib qamalmoqda. Na kunduz halovat bor, na tunda – uyquda. Har daqiqa tashvish, har daqiqa yurak titroqda. Biz bolalarni qo'rg'onda qaynota-qaynonamga qoldirib, ikki temir karavotni bog'ning chetiga ko'chirdik. (Go'yo bizni bog'dan topisholmaydiganday)...»	Oybekning rafiqasi Zarifa Saidnosirovaning	9
11.	«Oybek shu qadar qizg'in ilhom bilan qalam tebratdiki, olti oy badalida milliy ozodlik harakatida mehnatkash xalq ongining munavvarlashishini tasvirlagan, badiiy jihatdan yuksak asar «Qutlug' qonni yozib bitirdi»	Adibning sinfdoshi, adabiyotshunos olim Homil Yoqubov	9
12.	«1968-yilning 1-iyulida, 63 yoshida Oybek vafot etdi. Men hayotimning birdan-bir ma'nosi bo'lgan ulug' insondan judo bo'ldim. Men hozir Oybekning o'limoldi kunlarini yozishga qanchalik shaylanmay, qo'lim qaltirab, nafasim tiqilib qolmoqda. Qulog'imda hali ham: «Men o'lyapman, Zarifa, rozi bo'!!» – degan so'zlari jaranglab turibdi!»	Zarifa Saidnosirovaning	9
13.	O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan Oybekning muhtasham haykali qachon qayerda qad rosladi?	2010-yilda poytaxtimiz Toshkentning eng so'lim maskanlaridan biri – Alisher Navoiy nomidagi Milliy bog'da Oybekning muhtasham haykali qad rosladi	5

14.	Oybek rafiqasining ilmiy darajasi	Ximik olima, professor	9
15.	Oybekning adabiyotga shoir sifatida kirib kelishida kimlarning ta'siri kuchli bo'ldi?	Cho'lpon hamda rus simvolistlarining	9
16.	Oybek qachon akademik unvonini oldi?	1943-yilda	5, 9
17.	Oybek 1951-yilda qanday xastalikka chalindi?	Gapirolmay qoladi, harakatlari cheklanadi, xotirasi susayadi	9
18.	Oybekning ilk she'ri qaysi gazetada chiqdi?	Ilk she'ri «Cholg'u tovushi» 1922-yilda texnikumning «Tong yulduzi» nomli devoriy gazetasida chiqdi	9
19.	Oybekning dastlabki she'riy to'plami qachon, qanday nom bilan chop etildi?	1926-yilda «Tuyg'ular»	L
20.	Toshkentlik savdogar tomonidan sotib olingan go'zal qozoq qizi va Toshkentda hunarmandlar va batraklarni boyga qarshi qo'zg'olonga ko'targan, nihoyat o'z sevgilisini ozod qilgan xalq oqini to'g'risidagi asari...	«Baxtigul va Sog'indiq» dostoni (1934)	
21.	1974-85-yillarda Oybekning necha jildli to'plami nashr etildi?	20 jildli «Mukammal asarlar to'plami» nashr etildi	
22.	Oybek tarjimalari...	Pushkinning «Yevgeniy Onegin», Lermontovning «Maskarad», Arman xalq eposining «Sosunli Dovud», Dantening «Ilohiy komediya», Bayronning «Kain» asarlarini tarjima qilgan	5
23.	Oybekning tarjimonlik ishining asosiy qismi...	Pushkinning «Yevgeniy Onegin» asari	5

24.	Oybekning bolalik xotiralari haqidagi qissasi qanday nomlanadi?		«Bolalik»	
25.	Oybekning birinchi she'ri...	«Cholg'u tovushi» (1922, birinchi she'ri, «Tong yulduzi» gazetasida chiqqan),		9
26.	Birinchi she'riy to'plami...	«Tuyg'ular» (1926, birinchi to'plami)		
27.	She'riy to'plamlari...	«Ko'ngil naylari» (1929), «Mash'ala» (1929), «Baxtigul va Sog'indiq» (1933), «Chimyon daftari» (1936) kabi she'riy to'plamlar		L
28.	Dostonlari...	«Dilbar – davr qizi » (1931), « O'ch » (1932), « Baxtigul va Sog'indiq » (1934), «Mashrab» (1937, lirik doston), «Qizlar» (1947), «Navoiy», «Hamza» (1948), «Guli va Navoiy» (1968), «Bobo» (avtobiografik xarakterda), « Davrim jarohati » kabi dostonlar		L, 5, 9
29.	Romanlari	«Qutlug' qon» (1938), «Navoiy» (1942), «Oltin vodiyydan shabadalar» (1949, bu romanga «Qizlar» dostoni eskiz bo'lgan), « Quyosh qoraymas » (1958, harbiy mavzudagi roman, unga «Olovli yo'llar» to'plami qoralama (badiiy asos) bo'lib xizmat qilgan), «Ulug' yo'l» (1967) kabi romanlar		5, 9
30.	Qissalari...	«Nur qidirib» (1958), «Bolalik» (avtobiografik qissasi), «Bola Alisher», «Alisherning bolaligi» (bu qissa 1974-yilda e'lon qilingan) kabi qissalar		5, 9
31.	Hikoyalari...	«Fanorchi ota», «Musicha», «Singan umid», «Tillatopar», «Gulnor opa» kabi hikoyalar		5
32.	Dramasi...	«Mahmud Torobiy» tarixiy drama (1942)		

33.	Oybekning «Tog' sayri» she'rida o'n ikki nomi bilan bog'liq timsollar necha marta uchraydi?	Yetti marta	9
34.	«Na'matak» she'ri nechanchi yilda yozilgan?	1936-yilda	
35.	«Yuksakda raqs etar bir tup na'matak» misrasida qanday badiiy san . . . qo'llangan?	Tashxis	9
36.	«Tog' sayri» she'rida shamol nimalarga muhabbat izhor qiladi?	Chashmalarga	9
37.	«Kelin ichki-tashqidang'illama hovlida, saroyday hashamatli, boy bezakli uylarda uni hech narsa qiziqitirmas, bu xonadonning odamlari ham, narsalari ham dushman, yot, sovuq ko'rinar edi». Ushbu parcha qaysi asardan olingan?	«Qutlug' qon» romanidan	9
38.	Oybek qaysi asarlarini nihoyasiga yetkazolmagan?	«Studentlar», «Temur» asarlarini	

Quyidagi misralar Oybekning qaysi she'rlaridan olingan?

39.	«Oyog'i bosmasdan shahar qopqasin, Xabari to'liqindek tarqardi, lokin Mahalla, choyxona, takya va guzar. Minutni soat deb yo'lga ko'z tutar... Ko'rmagan chizardi shoir siymosin. Ana, shoir kelar... Bir to'da bola – Uning orqasidan ajralmas soya»	«Mashrab» she'ri	L
40.	«Barglarini varaqlab, shamol tinmasdan Shivirlar chashmalarga... muhabbat izhor»	«Tog' sayri»	9

41.	«Mayin raqsiga hech qoniqmas ko'ngil, Vahshiy toshlarga ham u berar fusun. So'nmaydi yuzida yorqin tabassum, Yanoqlarni tutib oltin bo'sa – chun, Quyoshga tutadi bir savat oq gul! Poyida yig'laydi kumush qor yum-yum...»	«Na'matak» she'ri	L, 9
42.	«Sochlari potila, ko'zlari maxmur, Ko'zlarda sachraydi qora kuchli nur. Saraton quyoshi, qish izg'irini Ishlamish yuzlarning ma'no, sirini... Davlati – qalb she'ri va eski tanbur»	«Mashrab» she'ri	L
43.	«Axtarib topganimda o'n ikki buloq, Qalbmida o'n ikki she'r birdan jo'sh urdi»	«Tog' sayri»	9

«Fanorchi ota» hikoyasi

44.	«Fanorchi ota» hikoyasi qanday boshlanadi?	«Tor, qiyshiq ko'chaning o'ksiz oqshomi...»	5
45.	Hikoyada fanor kimning darvozasi tepasiga o'rnatiladi?	Tursunqul akaning churuk darvozasi tepasiga	5
46.	Past bo'yli, burushiq yuzli, yuvvosh, indamas bir chol...	Hikoya qahramoni – Fanorchi ota	5
47.	Mahalla bolalari bilan nima orasida dushmanlik uyg'ondi?	Fanor orasida	5
48.	Qaysi ishni qoyillatgan bola kerilar edi?	Fanorga do'ppi kiygazgan o'rtoq merganligi bilan kerilardi	5
49.	Bolalar fanorga nimalar bilan hujum qilishdi?	Tosh kesak bilan	5
50.	Fanorchi ota haftada necha marta fanorga «yangi ko'zoynak» taqib ketardi?	Haftada uch-to'rt marta	5

51.	Bolalarning qanday tilaklari yuzaga chiqmadi?	Bolalar: «Bizni tutib olish uchun poylasa, hatto birontamizni tutib ursal ekan», – der edilar. Ammo Fanorchi ota «lom» deb og'iz ochmasdi	5
52.	Bolalar ichidagi eng ko'p qo'rqmaydigan, eng battol bola...	Qosim cho'loq	5
53.	Fanorchi otaning ko'z oldida fanorni sindirish fikri kimdan chiqdi?	Qosim cho'loqdan	5
54.	Bu safar Fanorchi ota bolalarga tanbeh berib, qaysi voqeani aytib berdi?	Bir kuni o'zidan ham qari chol qorong'ida ariqdan chiqolmay yotganini va unga yordam berganini	5

Fanorchi ota ariqqa yiqilib, loyga botgan chol haqidagi hikoyasini tugatganidan so'ng quyidagi gaplar qaysi qahramonlarga taalluqli?

55.	– Yolg'on, yolg'on!	Qosim cho'loq	5
56.	– Rost!	Bolalar	5
57.	– Kim endi sindirsa, shuni tutib beramiz otamga	Ahmad	5
58.	Hikoya qahramoni hozir shu fanorni o'rnida nima yonib turganini aytadi?	Sim to'r bilan o'ralgan tuxumdan kattaroq elektr lampochkasi	5
59.	«Fanorchi ota» hikoyasida qaysi qahramonlar nomi tilga olingan?	Tursunqul aka, Fanorchi ota, Qosim cho'loq, Ahmad, bolalar	5
60.	«Fanorchi ota» hikoyasidagi bolalarning hatti-harakatini qanday baholash mumkin?	Sho'xlik emas, beboshlik	5

61.	«Fanorchi ota» hikoyasida qalbi mehr-shafqatga, bir so'z bilan aytganda insoniy hislarga limmo-lim to'lgan qahramon...	Fanorchi ota	5
-----	--	--------------	---

**«Bolaning ko'ngli podsho»
(«Bolalik» qissasidan)**

62.	Oybekning «Bolalik» asaridan berilgan parcha «Bolaning ko'ngli podsho» hikoyasi qahramonlari...	Musa, Dadaqo'zi ota, A'zam, Mirahmad ota, Musa baqqol, Sobir baqqol, Musaning oyisi, dadasi	5
63.	«Bolaning ko'ngli podsho» hikoyasidagi voqealar kim tomonidan bayon etiladi?	Musa tomonidan	5

Quyidagi so'zlarni izohlang

64.	Shashpar	Uchiga yumaloq, g'adir budur temir o'rnatilgan uzun dastali gurzi, cho'qmor	5
65.	Makkayi sano	Tropik va subtropik o'lkalarda o'sadigan ko'p yillik buta	5
66.	Tanda	Mato to'qish uchun uzunasiga tortilgan ip, o'rish	5
67.	Bo'zchilar dag'al, qilli, g'o'laday og'ir asbobni nima uchun tanda ustidan yurgazadilar?	Ipni silliqlash uchun	5
68.	Bo'zchilarning ko'pi qanday yoshdagi odamlar?	Qari-qartang odamlar	5
69.	Musa ariq bo'yida qanday o'yin o'ynab o'tirgan edi?	«Poq-poq»	5
70.	Musaning o'rto'g'i...	A'zam	5
71.	Uyidan otilib chiqqan A'zam Musaga nimani ko'rsatib maqtanadi?	Bir tilim handalakni	5

72.	«Supuruqsiz, qarovsiz qolgan keng hovli, juda baland, beo'x-shov eski paxsa devorli xona...» Kimning uyi tasvirlangan?	Mirahmad otaning	5
73.	Chollarning dialogida qaysi tarixiy shaxsning nomi uchraydi?	Musulmon-qulning	5
74.	Chollar kimlar, nimalar va qanday voqealar to'g'risida so'zlashar edilar?	Xonlar, beklar, qo'rg'onlar, urushlar to'g'risida; allakimlarning qandaydir katta darvozalarni berkitib qo'ygani, kimlardir shaharga suv bermagani, bog'dorlar qaylargadir qochib ketgani uchun bog'larda mevalar pishib sasib-chirib ketgani haqida suhbatlashar edilar	5
75.	Musa bobosiga nimani olib berasiz deb qistadi?	Handalak	5
76.	Musani aldash uchun gavronday hassasini qo'ldan-qo'lga chaqqon olib, xirillagan ovoz bilan qandaydir qiziq ashula aytib bergan qahramon...	Mirahmad ota	5
77.	Dadaqo'zi ota har vaqt Musaning tilagini amalga oshirmoqchi bo'lsa, qaysi gapni aytardi?	«Bolaning ko'ngli podsho»	5
78.	Musalarning uyidan tor ko'cha bo'ylab yuz qadamcha yurilsa, qaysi mahallaga chiqiladi?	Tosh terilgan katta ko'chaga – «Oqmachit» mahallasiga chiqiladi	5
79.	«Oqmachit» mahallasida nechta do'kon bor?	Uchta: Biri – qassoblik, ikkitasi – baqqollik	5
80.	Kimning do'koni bolaning ko'ziga har vaqt quruq ko'rinadi?	Musa baqqolning	5
81.	Muloyim, shirin so'z, sersoqol kekxa savdogar...	Sobir baqqol	5

**Quyidagi narsalar qaysi
savdogarlarning do'konida bor?**

82.	Faqat sabzi piyoz un kerosin	Musa baqqolning do'konida	5
83.	Pashshalardan qoraygan shoda-shoda teshikkulcha, «ot non»lardan, qurtlagan jiyda va turshaklardan tortib, to toshko'mir, quruq beda, «makkayi sano»gacha bor	Sobir baqqolning do'konida	5

84.	«Barakalla, azamatcha, buvalari to'ylarini ko'rsin», – deb Musani erkalatgan qahramon...		Sobir baqqol	5
85.	Dadaqo'zi ota handalakka nima uchun baqqol aytgan narxdan kamroq pul beradi?	Avvalo, Dadaqo'zi ota narx-navoni yaxshi biladi, qolaversa, o'g'li – Musaning dadasi – birovlariga xizmatkorlik qilib, qiynalib pul topadi, shuning uchun o'g'lining pulini tejab ishlatishi kerak		
86.	Musaning uyida handalakni ko'rib kimlar sevinishdi?	Akasi va opasi		5
87.	Hikoyada tasvirlangan Dadaqo'zi otaning nabiralari...	3 ta: ikki o'g'il, bir qiz		5

Dadaqo'zi ota ushbu gaplarni kimga aytdi?

88.	«Insof bilan sot-da, og'zingga siqqanini aytaverasanmi!»	Dadaqo'zi ota yo'lda o'z-o'zicha gapirdi. Sobir baqqolga nisbatan aytilgan	5
89.	«Tentak, sabrni bilmaysan. Bozordan kattasini olib kelardim»	Musaga	5

90.	«Qimmatga oldim. Bozorga tushardim-u, lekin ko'nmadi o'g'ling. Bolaning ko'ngli tilla... Omon bo'isin, orqamda qolsin. Bu tentakni juda yaxshi ko'raman»	Musaning onasiga	5
91.	Shundan keyin Dadaqo'zi ota har ikki-uch kunda nima olib keladigan bo'ldi?	Kattaligi piyolada yo'l-yo'l handalak	5

«Qutlug' qon» romani

92.	Gulnorning otasi...	Yormat	9
93.	Gulnorning onasi...	Gulsumbib	
94.	Mirzakarimboyning o'g'illari...	Hakimboyvachcha, Salimboyvachcha	9
95.	Mirzakarimboyning kuyovlari...	Tantiboyvachcha (asli ismi Miris'hoqboyvachcha), Fazliddin	
96.	Mirzakarimboyning kichik qizi...	Nuri	
97.	Yo'lchining onasi ...	Xushro'ybibi	
98.	Yo'lchining singlisi...	Unsin	
99.	Hakimboyvachcha va Salimboyvachchaning xotinlari...	Tursunoy va Sharofat	
100.	Yo'lchining do'stlari – Mizakarimboy dalasidagi qarollar...	Shoqosim, O'roz	
101.	Mirzakarimboy Shoqosimni nega ishdan bo'shatdi?	Kasal xotini vafot etib, qishning kunida to'rt yoshli o'g'ilchasi bilan qolgani, endi yaxshi ishlay olmasligi uchun	

102.	Yo'lchi nima uchun yerini sotishga majbur bo'ldi?	Kasal otasini qaratish maqsadida olingan qarzlardan qutulish uchun ota vafot etgach, yerlarini sotadi	9
103.	Yo'lchi kimning oldiga keladi?	Tog'asi Mirzakarimboyi qora tortib, Xo'jakentdan Toshkentga keladi	9
104.	Tog'asi Yo'lchiga qanday munosabatda bo'ladi?	Boy tog'asi Yo'lchining kuchidan foydalanib, haqini to'lashga kelganda, so'zida turmay, jiyanini aldaydi. Boy qarindoshlar bilan Yo'lchi o'rtasidagi munosabat dushmanlikka aylanadi. Ular mag'rur yigitning sha'nini toptashadi. Yo'lchi boynikidan chiqib ketadi	9
105.	Qaysi voqea Yo'lchi bilan Mirzakarimboy orasidagi yovlikni yanada kuchaytirib yuboradi?	Mirzakarimboyning Yo'lchi ko'ngil qo'ygan qiz Gulnorga uylanib olishi	9
106.	Onasining o'limidan keyin, Yo'lchi yolg'iz qolgan singlisini qayerga olib kelishga majbur bo'ladi?	Boy tog'asining	9
107.	Gulnorni o'g'irlashni kimlar rejalashtirishdi?	Salimboyvachcha va boyning katta kuyovi Tantiboyvachcha	
108.	Boyvachchalarning topshirig'iga ko'ra qizni o'g'irlagan Qora Ahmadning qo'lidan Gulnorni kim qutqardi?	Yo'lchi	
109.	Yo'lchiga Gulnorning Qora Ahmad qo'lida ekanligini kim aytdi?	Tantiboyvachchaning xizmatkori Qambar cho'loq	
110.	Shoqosimning hujrasiga yashiringan Gulnorning Mirzakarimboy va Olimxon ellikboshi changaliga tushishiga sababchi bo'lgan odam...	Yog'juvoz xo'jayini – Parpixo'ja	

111.	Yog'juvoz xo'jayini – Parpixo'jaga qarashli bo'lgan hujradan Gulnorni olib ketishga kimlar kelishdi?		Olimxon ellikboshi va Yormat	
112.	Gulnor umrining eng mas'ud, eng unutilmas, eng yorqin damlari...	Yo'lchi bilan bir kecha-kunduz Shoqosimning hujrasida yashashi		9
113.	O'n besh-o'n olti orasida bo'lgan, qoramtir, lekin toza, sog'lom yuzli, ko'zlari bolalarcha o'ynoq – sho'x, jingalak sochli, bo'ychan, qishloqcha sodda, samimiy bir qiz...		Gulnor	9
114.	Bu dardli hayotda Mirzakarimboyning xotini Gulnorga yagona baxt nima?		Yo'lchining singlisi Unsin	9
115.	Boyning uyida kimlar Unsinni cho'riga aylantirdilar?	Hakimboyvachchaning xotini – Tursunoy, Salimboyvachchaning xotini – Sharofatxon		9
116.	Unsin boyning uyida qanday ishlar bilan shug'ullanadi?	Tursunoy, Sharofatxonning bolalarini boqadi, kirlarini yuvadi, uy-joylarini yig'ishtiradi va har qanday yumushni so'zsiz bajaradi		9
117.	Boyning uyida Unsinning birdan bir mehriboni...		Gulnor	9
118.	Unsinga onasidan yodgor bo'lib qolgan narsa...		Kumush bilaguzuk	9
119.	Unsinni yolg'iz ko'rsa tegishaveradigan, unga yomon gaplar gapiradigan odam...		Salimboyvachcha	9
120.	Yo'lchi Mirzakarimboyning qaysi o'g'lini urdi?		Salimboyvachchani	9
121.	Yo'lchi Mirzakarimboy qo'lida ishlab qancha haq oldi?		Qirq so'mga yaqin	9
122.	Yo'lchi Mirzakarimboy qo'lida qancha vaqt ishladi?		Ikki yarim yil	9

**Mirzakarimboyning quyidagi gaplariga
Yo'lchi qanday javob qaytardi?**

123.	– Qayerdasan haromi? Bu yoqda shuncha ishni buvingga tashladingmi? Senday yigitni asragandan ko'ppak asragan yaxshi!..	Baqirmang, shu vaqtga qadar eshitdim, chidadim, endi-chi? Yo'q!	9
124.	– Sanga bu tilni qaysi qiztaloq berdi?	– Zulmingiz berdi	9
125.	– Qirq so'm pul emasmi? San nonko'rga bir tiyin bermayman. Da'vo qil kuching yetsa agar	– Bundan ko'ra go'ng titganing yaxshi emasmi, kekxa tovuq!	9
126.	«Or-nomus»ni biladigan va uni qo'riqlaydigan, o'zining va oila a'zolarining ustiga chang qo'ndirishni istamaydigan, oilasi bilan hech qanday oilani tenglashtirmaydigan kishi...	Hakimboyvachcha	9
127.	Farg'onadan qaytgan Hakimboyvachcha Yo'lchini kimlardan surishtirdi?	Xotini va Salimboyvachchadan	9
128.	Hakimboyvachcha ziyofat uyushtirib, bir katta xitoy laganda uyilgan qirg'ovul, kaklik go'shti qovurmasi, rang-barang qimmatbaho mevalar, qaymoqqa qorilgan nonlar bilan kimni siyladi?	Olimxonni	9
129.	Olimxonning mansabi...	Ellikboshilik	9
130.	Hakimboyvachchaning ziyofatdan maqsadi...	Ellikboshi yordamida Yo'lchini jazolash	9
131.	«Yaxshiki, o'ris to'ralari, politsiyalar – ishbilirmon, hokimlikka usta odamlar. Ular goh qamchin bilan, goh qilich, goh to'pponcha va	Olimxon ellikboshi	

	miltiqni ayamay ishlatib, xalqni bosib turishibdi. Bo'lmasa, xudo ko'rsatmasin, xalq allaqachon bosh ko'targan bo'lardi». Parcha qaysi qahramon nutqidan olingan?		
132.	Mirzakarimboyga orqavarotdan til tegizganini eshitib, u bilan uzoq zamon olishgan, sudlarga qatnagan, uning boshiga ko'p kulfatlar keltirib, nihoyat ko'pchilik orasida uzr aytishga uni majbur qilgan qahramon...	Hakimboy-vachcha	9
133.	Urushda oqpodshohning qo'li baland emasligidan kimning ko'ngli xira bo'ldi?	Hakimboy-vachchaning	9
134.	Urush nihoyatida oqpodshoh g'olib kelishini isbot qilishga tirishgan qahramon...	Olimxon el-likboshi	9
135.	Qahraton qish. Yo'lchi ishlash uchun bozorga hammollar yoniga bordi. U yerda qanday yoshdagi hammollar bor edi?	14-15 yoshli, xasta kabi rangsiz, oriqlar bolalar; yuk ko'tarish u yoqda tursin, aftidan, o'zini bazo'r eplab yuradigan tinka-madorsiz, yelkasi chiqiq, beli bukik chollar ham bor	9
136.	Hammollar qanday oyoq kiyimlari kiygan edi?	Hech birining oyog'ida etik yo'q. Ayrimlari poxol tiqilgan yaramas kavush yoki tushib qolmasin uchun kanop bilan oyoqqa chandib bog'langan eski kalish, yo shunga o'xshash bir narsa. Ba'zilar esa oyoqlarini churuk lattalar bilan o'raganlar. Sovuqdan ko'kargan loy, kir barmoqlari churuklar orasidan mo'ralab turadi	9

137.	Yo'lchi bir kunda hammollik qilib necha so'm pul ishladi?	Bir so'm yet-mish tiyin	9
138.	Choyxonada uzun bo'yli, uzun kulohli qalandar qaysi shoirning g'azallaridan o'qidi?	Mashrab g'azallaridan	9
139.	«Bu rus to'ra «sartlar» to'plangan joylarda birdan paydo bo'lar, g'azab chaqmog'ini chaqib, o'z hokimiyatidan «sartlar»ni ogohlantirib, yana yo'qolar edi. Ayniqsa, urush boshlangandan buyon bunday «kezishlarni» va zug'umini kuchaytirgan» qahramon...	Politsiya boshlig'i	9
140.	Choyxonada ko'zlari ko'k rus millatiga mansub politsiya boshlig'i Yo'lchini nega qamchi bilan savaladi?	Rus to'rasi oldida hamma odamlar kabi boshini egib, qo'l qovushtirib turmagani uchun	9
141.	Politsiya boshlig'i Yo'lchini nima uchun qamoqqa oldi?	Avvalo, o'ziga bo'ysunmagani uchun, qolaversa, Hakimboyvachchaning istagiga ko'ra (ular Yo'lchini uch kundan beri qidirib yurgan edi)	9
142.	Politsiya boshlig'i Yo'lchini turtib: «Ayda, yaman adam!» — degan gapiga Yo'lchi qanday javob berdi?	«San odam emas, cho'chqasan!»	9
143.	«Men qamalishdan qo'rqma, man, dordan ham, o'qdan ham qo'rqmayman. Turma! Bu dunyo turmadan yaxshimi? Olam zindondan qorong'iroq, iflosroq emasmi?» — degan qahramon...	Yo'lchi	
144.	Unsin qayerda yashay boshladi?	Yamoqchi, mahsido'z Shokir otanikida	9

145.	Unsin Mirzakarimboy-ning uyiga nega keldi?	Gulnor bilan dardlashmoq uchun	9
146.	Gulnor dastlab Unsinga akasini qamoqdan chiqarishga kimdan yordam so'rashga undadi?	Hakimboy-vachchadan	9
147.	Unsin kimdan yordam so'radi?	Mirzakarimboydan	9
148.	Mirzakarimboy Gulnorni qanday chaqiradi?	«Hay, kim» deb	9
149.	Akasini qamoqdan qutqarish uchun Mirzakarimboydan yordam so'rab, undan rad javobini olgan Unsin ketar chog'ida boyga nima dedi?	«Akamni shuncha yil ishlatib, haqini bermadingiz. Endi qamoqda chiritmoqchimisiz? Xudo sizga ham ko'rsatar!»	
150.	«Olato'g'anoq olg'ir bo'lsa ham qarchig'aydek bo'lmas» maqoli kimning tilidan aytilgan?	Mirzakarimboyning	
151.	Tuhmat bilan qamalgan qahramon...	Yo'lchi	
152.	Gulnorni kim zaharladi?	Salimboyvachcha	
153.	Boyning bolalari Gulnorni nima uchun zaharlab o'ldirishdi?	Farzand ko'rib otalarining mulkiga sherik bo'lishidan qo'rqib	9
154.	«Urush boylarning hamyonini to'ldirdimi? Bas, ular borsin! Birodarlar, o'ylab qaranglar, shu ham tirikchilikmi? Axir bu – bir zindon emasmi? Tokaygacha qon yutamiz, tokaygacha yerga cho'kkaalaymiz? Ovozimizni baland qo'yaylik, yo haq, yo o'lim!...» Parcha kimning nutqidan olingan?	Yo'lchining	

155.	Qanday kun keldi?	Zolimlarning, zamon zo'ravonlarining yoqalarini tutib, toptalgan huquqlarini dovlash, qonxo'r oq podshohning qora dovrug'ini, uning mazlum xalqlar boshida jilpanglagan ilon qamchisini sindirish kuni!	
------	-------------------	---	--

**Quyidagi dialog qaysi qahramonlar
nutqidan olingan?**

156.	– Ota, g'azotning chin ma'nosi nima?	Yo'lchi	9
157.	– Bo'tam, din islomda g'azot – musulmonlarning kofirlarga qarshi jang qilishidir. O'lsang, shahid, o'ldirsang g'oziy! Kitoblardagi asli urush mana shu bo'ladi!	Oppoq ko'rkam soqolli bir mo'ysafid	9
158.	– Yo'q, ota, to'g'ri emas. Bizniki boshqacha jang bo'ladi. Hamma musulmonlar bab-baravar deb o'ylaysizmi? Musulmonlar o'rtasida bo'rilar yo'qmi?.. Bizning urushimiz ozodlik urushi bo'ladi, ota. Biz hamma bo'rilarni, hamma qonxo'rlarni yanchib tashlaymiz!	Yo'lchi	9
159.	Qo'zg'olon avj olar edi. Mirshablar xalqqa qarshi chiqishdimi?	Go'dakka ham, keksaga ham zulm qiluvchi, qamchi o'ynatishga, shapaloqqa mohir mal'unlarning nafasi ichiga tushgan, yolg'iz ko'zlaridagina zahar yonadi	
160.	Qo'zg'olonchilar dastlab qaysi tomonga yo'l olishdi?	Politsiya mahkamasi tomonga	9

161.	Olomon politsiya mahkamasini o'rab oldi. Machalov buyrug'i bilan xalq boshiga o'q yog'ila boshladi. O'nlab ayollar, erkaklar jon taslim qildi. Bu holdan xalq orqaga chekindimi?	Odamlar ko'zida g'azab yashini yanada kuchliroq yondi. Erkak va ayollar hayqirib yana mahkama sari bosib bordi	
162.	Politsiya mahkamasida Yo'lchi sersoqol, dov askar bilan olishib, uning nimasini tortib oldi?	Qilichini	9
163.	Deraza orqasidan uzilgan o'q bilan, u tomiri tortishgan yoki garanglangan odam kabi, bir lahza qotib qoldi, so'ng qilichini mahkam ushlab, bukchayib, ohistagina yerga yiqilgan qahramon...	Yo'lchi	9
164.	Erkak va ayollar ustiga o'q yog'dirishga kim buyruq berdi?	Machalov	9
165.	Yo'lchining qaysi do'stlari uni ko'tarib qayerga olib borishdi?	Avval «Devonbegi» mahallasidagi tashlandiq bir uyga, so'ng Saodat kampirnikiga (Yo'lchi o'lgan edi)	9
166.	Unsin akasining qo'lga nimani taqdi?	Gulnor bergan uzukni akasiga hali topshirmagan edi. Yo'lchining jimjilog'iga taqdi, uzuk barmoqning yarmiga ilindi	9
167.	Yo'lchini so'nggi manzilga kimlar kuzatishdi?	Shokir ota, Qoratoy, O'roz – uch kishi janoza o'qishdi. Qoratoy va O'roz tobutni ko'tarib ketishdi, tobut orqasidan Shokir ota va Unsin ketdi	9

168.	«Bu juda katta o'lim. Akang, Yo'lchi o'g'lim, kim uchun, nima uchun qon to'kdi? O'zi uchun emas, xalq uchun, yurt uchun, jamiki alamzadalar, alamdiydalar uchun qon to'kdi. Bu qon eng qutlug', eng muborak, eng sof qon... Bunga gumonim yo'q. Qizim, akang mard yigit edi, nomusli yigit edi. Nomus bilan, mardlik bilan o'ldi. U zulm ildiziga bolta urdi. Inshoollo, zulm daraxti quriydi. Yo'lchining qoni behuda ketmaydi, sira behuda ketmaydi. Bu hikmatli qon, qutlug' qon». Unsinga dalda berish uchun aytilgan bu haq gaplar qaysi qahramon monologidan?	Shokir ota	9
169.	Romandagi polismeystrni xalq qanday atashdi?	Cho'chqa Kolesnikov	9
170.	«Qutlug' qon» romani Yozuvchilar uyushmasida qachon muhokama qilindi?	1939-yilda	9
171.	Oybek keyinchalik romaniga nima sababdan revolyutsioner Petrov obrazini kiritdi?	Muhokama chog'ida ayrim kishilar adibni asarda inqilobchi kuchlarni, rus proletariat vakillarini kiritmaganlikda ayblaganlari uchun	9
172.	Romanda qaysi qo'zg'olon tasvirlangan?	1916-yilda Toshkentda bo'lib o'tgan xalq qo'zg'oloni	9
173.	Yo'lchi boyning uyida qanday ishlarni bajaradi?	Har qanday ishni bajaradi – beda o'rish, kunda kovlash, mehmonlarga xizmat qilish kabi	

174.	Yo'lchi tabiatidagi olijanoblik qaysi o'rinlarda yaqqol ko'rinadi?	O'zi qachalik og'ir sharoitda yashayotgan bo'lishiga qaramay, Shokir otaga yordam berishga urinishi, Shoqosim, O'roz, Qoratoy singari nochorlarga qayishib turishida	
175.	Yo'lchi maqsadiga erishdimi?	Yo'lchi maqsadiga erisholmadi, u bosh qo'shgan kurash g'alaba bilan tugamadi. Chunki, zulmni, adolatsizlikni, yovuzlikni yengish hech qachon oson bo'lmagan. Lekin u haq yo'ldan qaytmagani, vijdoniga, imoniga xiyonat qilmagani, ezguliklarga ishonib, ularni qaror toptirishga intilib yashagani bilan tirikdir	
176.	«Qutlug' qon» mavzusiga ko'ra romanning qaysi turiga mansub?	Tarixiy roman	9

ABDULLA QAHHOR (1907 – 1968)

1.	Qisqa so'zda ko'p ma'no ifodalash mahorati egasi – mashhur hikoyanavis...	Abdulla Qahhor	7
2.	Badiiy so'zning chechan, tejamkor san'atkori...	Abdulla Qahhor	
3.	«... Kuydirish uchun kuyish, ardoqlash uchun ardoqlanish shart», – degan fikrlar muallifi...	Abdulla Qahhor	
4.	Abdulla Qahhor adabiyotni qanday ta'riflagan?	«Adabiyot atomdan kuchli, lekin uning kuchini o'tin yorishga sarflamaslik kerak»	6
5.	Abdulla Qahhor qachon qayerda tavallud topdi?	Abdulla Qahhor 1907-yilning 17-sentabrida Qo'qon shahri yaqinidagi Asht qishlog'ida Ko'mir bozori mahallasida temirchi oilasida dunyoga kelgan	6, 7
6.	Usta Abduqahhor tirikchilik uchun pul topish ilinjida Qo'qon atrofidagi qishloq-kentlarga ustaxonani ko'chirib borar, oila ham uning ortidan sarson-sargardon sudralib yurardi. Bir qishloqda yarim yil turilsa, boshqa birida ikki oyga yetar-yetmas temirchi usta qiladigan ishlarning tagi ko'rinib qolardi. Yana ko'ch-ko'ronni ko'tarib yo'lga chiqilar, qayerga borilsa, birovlarining uy yoki tashlandiq hovlisida sig'indi bo'lib yashashga to'g'ri kelardi. Ushbu tarjimayi hol qaysi ijodkor hayotidan olingan?	Abdulla Qahhorga	6

7.	Adibning otasi qaysi kasb bilan shug'ullanar edi?	Otasi usta Abduqahhor temirchilik bilan shug'ullanar edi	6, 7
8.	Usta Abduqahhorning farzandlari haqida ma'lumot bering...	Ustaning oilasida juda ko'p farzandlar tug'ilgan bo'lsa-da, ular orasidan faqat Abdullajongina yashab qoldi, boshqalari go'daklik chog'laridayoq turli sabablarga ko'ra vafot etishgan	6
9.	«Men bir qora kunda tug'ildim, Tug'ildim-u shu on bo'g'ildim» satrlari qaysi ijodkor qalamiga mansub?	Hamid Olimjon	6
10.	Abdulla Qahhorning bolaligi qaysi qishloqlarda o'tadi?	Uning bolaligi Qo'qon atrofidagi Yaypan, Qudash, Buvayda, Olqor, Oqqo'rg'on kabi qishloqlarda o'tadi	7
11.	Abdulla Qahhor qaysi bilim dargohlarida tahsil olgan?	Abdulla dastlab Buvaydadagi eski maktabda, keyin Oqqo'rg'on qishlog'idagi jadid maktabida, Qo'qondagi internatda, 1922 – 1924-yillar mobaynida esa Qo'qonda ochilgan o'qituvchilar tayyorlaydigan texnikumda tahsil oladi. 1926 – 1930-yillar O'rta Osiyo Davlat universiteti (hozirgi O'zMU)ning pedagogika fakultetida o'qiydi	6, 7
12.	Abdulla Qahhor qachon Toshkentga keladi va qanday ish bilan shug'ullanadi?	1925-yilda Toshkentga kelib, kechasi o'qib, kunduzlari «Qizil O'zbekiston» gazetasida ishladi	6, 7
13.	Abdulla Qahhor qachon qayerda vafot etadi?	1968-yil 25-mayda Moskvada	6, 7

14.	Abdulla Qahhor qayerga dafn etilgan?	Toshkentdagi Chig'atoy qabristoniga	6
15.	«Inson ichki dunyosining chuqur joylarigacha o'zida ko'rsatadigan ikki sahifalik chinakam proza biz uchun shoshmashosharlik va tumtaroq gaplar bilan yozilgan silliqqina qalin «asar»lardan ko'proq foydalidir». Ijod haqidagi ushbu fikrlar qaysi yozuvchi qalamiga mansub?	Abdulla Qahhor	
16.	Abdulla Qahhor ijodi qaysi yildan boshlangan?	1924-yildan	7
17.	Abdulla Qahhorning hikoya, felyeton va xabarlar qaysi matbuot nashrlarida bosildi?	«Mushtum» jurnali, «Yangi Farg'ona» va «Qizil O'zbekiston» gazetalarida	7
18.	Abdulla Qahhorga katta shuhrat keltirgan asari...	«Sarob» romani	7
19.	Abdulla Qahhorning taxalluslari...	«Nish», «Norin shilpiq», «Mavloni Kufur», «Erkaboy», «E-boy», «Sarimsoq», «Gulyor»	6
20.	Abdulla Qahhor, ayniqsa, qaysi janrning ravnaqiga katta hissa qo'shdi?	Hikoya janrining	L
21.	Abdulla Qahhorning ijodiy faoliyati davlatimiz tomonidan qanday taqdirlangan?	Abdulla Qahhor «O'zbekiston xalq yozuvchisi» unvoniga, mustaqillik davrida esa «Buyuk xizmatlari uchun» ordeniga munosib topilgan	6
22.	Adib tarjimalari...	Pushkinning «Kapitan qizi» qissasi, Gogolning «Uylanish» va «Revizor» komediyalarini, rafiqasi Kibriyo Qahhorova bilan birga Tolstoyning «Urush va Tinchlik» asarini o'zbek tiliga o'g'irgan	

23.	Abdulla Qahhorning dastlabki qissasi...	«Qishloq hukm ostida» qissasi (1932, ilk kitobi)	6
24.	Adib romanlari...	«Sarob» (1934, 1937-yilda esa kitob holida nashr etilgan), «Qo'shchinor chiroqlari» (1951-yil) romanlari (Dastlab bu asar 1949-yilda «Qo'shchinor» deb nomlangan, so'ng qaytadan ishlab (1951-yilda) nashr qilingan)	6
25.	Abdulla Qahhor qissalari...	«Qishloq hukm ostida» (1932)«Sin-chalak» (1958), «O'tmishdan ertaklar» (1965), «Muhabbat» (1968)	6
26.	Adibning tugallanmagan qissasi...	«Zilzila» (tugallanmagan) qissalari	6
27.	1935 – 1939-yillar oralig'ida adibning nechta «Hikoyalar» to'plami nashr etildi?	3 ta	6
28.	Abdulla Qahhor hikoyalari...	«Bemor», «Anor», «O'g'ri», «Kampirlar sim qoqdi», «Dahshat», «Mayiz yemagan xotin», «Ming bir jon», «Asror bobo», «Maston», «Tomoshabog'», «Millatchilar», «Adabiyot muallimi», «Ko'k konvert» kabi hikoyalari	L
29.	Abdulla Qahhorning dramatik asarlari	«Shohi so'zana» (1951), «Og'riq tishlar» (1954), «Tobutdan tovush» («So'nggi nusxalar», 1962), «Ayajon-larim» (1967) kabi komediyalar	L, 6
30.	Abdulla Qahhorning bolaligi to'g'risida batafsil hikoya qilingan avtobiografik asarlar...	«Sarob» romani (uning 1937-yildagi 1-nashridan o'rin olgan temirchining o'g'li Sarimsoq tarixi), «O'tmishdan ertaklar» qissasi	6

31.	Abdulla Qahhorning qaysi asarlari asosida telespektakllar, video va badiiy filmlar suratga olingan?	Bir qator hikoyalari, hajviy asarlari, «Sinchalak» qissasi, «Qo'shchinor chiroqlari» romani asosida	6
32.	Abdulla Qahhor o'limidan bir kun oldin qaysi rus yozuvchisi bilan uchrashadi?	Rus adibi K.Simonov Abdulla Qahhor bilan kasalxonada uchrashadi va keyinchalik shunday deydi: «... Men olamdan ko'z yumayotgan odamning bardam qo'l siqishlari-yu teran nigohlarini ko'rib hayratda qoldim...»	
33.	Abdulla Qahhor ko'pincha publitsistikaning qaysi janrlarida ijod qilgan?	Felyeton	
34.	«Mavsumda bir necha tonna paxtani bittalab terish, shuncha yukni bo'yniga osib, necha yuzlab kilometr yo'l bosish uchun afsonaviy Rustamning ham quvvati yetmaydi», – degan adib...	Abdulla Qahhor	
35.	Abdulla Qahhor qaysi buyuk yozuvchini o'ziga ustoz deb bilgan?	Chexovni	
36.	Qaysi yozuvchi mustabid tuzumda ruslashtirish siyosatining noxush oqibatlarini – «ko'pgina oilalarda bolalar o'zining ona tilini mutlaqo bilmasligi», bu hol «ota-onani zarracha ham tashvishga solmayotgani», «ba'zi bir oilalarda bola o'zining ona tilida gapirgani nomus qilayotgani»ni ham ta'kidlagan?	Abdulla Qahhor	
37.	Abdulla Qahhor qaysi asari haqida: «Romanni tanqid xush qabul qilgan bo'lsa ham, ta'bimdagi kitob emas», – deydi	«Qo'shchinor chiroqlari»	

38.	Abdulla Qahhor hiko- yalarini shartli ravish- da necha yo'nalishga ajratish mumkin?	3 yo'nalishga: tarixiy hikoyalar, hajviy hikoyalar, zamonaviy hikoyalar	
39.	«Xotinlar», «Asror bobo», «Ming bir jon», «Mahalla» hikoyalari qanday yo'na- lishda yozilgan?	Zamonaviy yo'nalishdagi hikoyalardir	

Quyidagi tasvirlar qaysi asarlarda berilgan?

40.	Ko'r oydin. Osmonning chekkasi sariq – kir uvadaga o'xshaydi. Bu kir shu'la qo'ynida past-baland uylar, shamolda egilayotgan, tebranayotgan daraxtlar qop-qora ko'rinadi»	«Dahshat» hikoyasida	7
41.	«Hamma yoq jim. Faqat pashsha g'ing'illaydi, bemor inqillaydi; har zamon yaqin-yiroqdan gadoy tovushi eshitiladi: «Hey do'st, shaydullo, ba nomi ollo, sadaqa raddi balo, baqavli rasuli xudo...»	«Bemor» hikoyasida	6
42.	«Lekin har safar o'tin qalaganida alanganing gurkirashi, chirsillashi mudrab yotgan arvohlarni uyg'otib yuborishidan qo'rqqandan uning ustiga o'zini tashlaguday bo'lardi»	«Dahshat» hikoyasida	7
43.	«Unsin xuddi dadasidan katta hayitlik olib bozorboshiga ketayotgan yosh boladay chopqillab, qarshisidan esayotgan shamolga so'z bermay, ba'zan irg'ishlab borar edi»	«Dahshat» hikoyasida	7
44.	O'zbek go'ristoni tasviri qaysi asarda berilgan?	«Dahshat» hikoyasida	7
45.	«Bemor» hikoyasida aslida kim bemor?	Butun jamiyat bemor	6

«Bemor» hikoyasi

46.	«Bemor» hikoyasida qaysi maqol epigraf qilib olingan?	«Osmon yiroq, yer qattiq»	6
47.	Kimning xotini og'rib qoldi?	Sotiboldining	6
48.	Sotiboldi xotinining sog'ligini tiklash uchun kimlarga ko'rsatdi? Ular bemorni qanday davoladi?	Sotiboldi kasalni o'qitdi – bo'lmadi, tabibga ko'rsatdi. Tabib qon oldi. Baxshi o'qidi. Aliaqanday bir xotin kelib, tolning xipchini bilan savaladi, tovuq so'yib, qonladi	6
49.	Qachon betobning ko'zi tinib, boshi aylanadigan bo'lib qoldi?	Tabib qon olganidan keyin	6
50.	Sotiboldining bemorni tuzatishga uringan barcha harakatlari nima bilan bo'ladi?	Albatta, pul bilan bo'ladi. Bunday vaqtlarda yo'g'on cho'ziladi, ingichka uziladi	6
51.	«Salqin, tinch parkda daraxtlar ichiga ko'milgan baland va chiroyli imorat; shisha qabzali kulrang eshigida qo'ng'iroq tugmasi bor». Parchada qaysi bino tasvirlangan?	Shahardagi bittagina doktorxona	6
52.	Sotiboldining xo'jayini qanday ish bilan shug'ullanadi?	Abdug'aniboy chigit po'choq va kunjara bilan savdo qiladi	6
53.	Abdug'aniboy omborda qulab ketgan qoplar ostida qolib o'ladi-gan bo'lganida bu doktorxonaga bormay qayerga ketgan edi?	Simga (Farg'ona-dagi doktorxonaga)	6
54.	Doktorxona deganda Sotiboldining ko'z oldiga nima keladi?	Izvosh va oq podshoning surati tushirilgan 25 so'mlik pul	6

55.	Bemor og'irlashgani uchun Sotiboldi xo'jayinining oldiga bordi, ammo bu borishdan muddaosi nima ekanini aniq bilmas edi. Abdu-g'aniboy Sotiboldiga yordam berdimi?	Yordam berish o'rniga faqat nasihat qildi: – Devonayi Bahouddinga hech narsa ko'tardingmi? G'avsula'zamga-chi?	6
56.	«Ko'p afsuslangan, qo'lidan kelsa hozir Sotiboldining xotinini oyoqqa bostirib berishga tayyor qahramon»...	Abdu-g'aniboy	6
57.	Sotiboldi bemorning oldidan jilmaslik va shu bilan birga tirikchilik uchun xonaki bir kasb qilishga majbur bo'ldi. U qanday ishni o'rgandi?	Har xil savatchalar to'qishni. U ertadan kechgacha oftobshuvoqda gavronlar ichida ko'milib savat to'qirdi	6
58.	Qo'lga ro'molcha olib, bemorning yuzini karaxt, xira pashshalardan qo'rigani; ba'zan qo'lida ro'molcha, mukka tushib uxlab qoladigan qahramon...	Sotiboldining to'rt yashar qiz-chasi	6
59.	«Bir kechasi bemor juda azob tortdi. U har ingraganida Sotiboldi chakkasiga...» Parchadagi fikrni davom ettiring	«Burov solingan kishiday talvasaga tushar edi»	6
60.	«Kampir bemorning to'zg'igan sochlarini tuzatdi, u yoq bu yog'ini siladi, so'ng-ra...» Parchadagi fikrni davom ettiring	O'tirib yig'ladi	6
61.	Kampir Sotiboldiga qanday maslahat berdi?	«Begunoh go'dakning saharda qilgan duosi ijobat bo'ladi, uyg'oting qizingizni!» – dedi	6
62.	Bola qanday duo qildi?	Kampir o'rgatganicha duo qildi: «Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin...»	6

63.	Bemor kundan kun battar, oxiri o'sal bo'ldi. «Ko'ngilda armon qolmasin» deb nima qildirishga to'g'ri keldi?		«Chilyosin» qildirishga	6
64.	Sotiboldi «Chilyosin» qildirish uchun pulni qanday topdi?	To'qigan savatchalarini ulgurji oladigan baqqoldan yigirma tanga qarz ko'tardi		6
65.	«Chilyosin»dan bemor qanday chiqdi?	«Chilyosin»dan bemor tetik chiqqanday bo'ldi; shu kechasi hatto ko'zini ochib, qizchasini yoniga tortdi va pichirladi: «Xudo qizimning saharlari qilgan duosini dargohida qabul qildi. Dadasi, endi tuzukman, qizimni saharlari uyg'otmang», – dedi		6
66.	Bemorning joni qachon uzildi?	Saharga borib uzildi		6
67.	Sotiboldi qizchasini o'lik yonidan olib, boshqa yoqqa yotqizayotganida, qizcha uyg'ondi va nima dedi?	«Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin...»		6
68.	«Bemor» hikoyasi qachon yozilgan?	1936-yilda		6
69.	Sotiboldining xotini yoshmi, qarimi?	Sotiboldining xotini hali nisbatan yosh ekanligini uning qizchasi bor-yo'g'i to'rt yoshga kirganidan anglashimiz mumkin		6
70.	Hikoyada bemorga foyda emas, zarar yetkazgan obraz...	Tabib		6
71.	Hikoyadagi qaysi qahramonga ko'richak ham, tomoq og'riq ham, ruhiy xastaliklar ham bir – farqi yo'q?!	Baxshiga		6
72.	Hikoyada bemorni kim tolning xipchini bilan savaladi, tovuq so'yib qonladi?	Allaqanday bir kampir		6

73.	«Butun boshli jamiyat bor – doktorxona bor, tabib bor, baxshi bor, qo'lida pul o'ynagan boylar bor, har qanday mehnat bo'lsa, qilishga rozi – tog'ni ura talqon qiladigan sotiboldilar bor... biroq najot yo'q!» Bor-yo'q umid nimada?	Shu to'rt yasharlik qizaloqning ojiz duosida	6
74.	«Faqat pashsha g'ing'illaydi, bemor inqillaydi; har zamon yaqin-yiroqdan gadoy tovushi eshitaladi: «Hey do'st, shaydullo, ba nomi ollo, sadaqa raddi balo, baqavli rasuli xudo...» Parcha qaysi asardan olingan?	«Bemor» hikoyasidan	6
75.	Asarda aslida kim bemor?	Butun jamiyat bemor	6
76.	Abdulla Qahhorning «Bemor» hikoyasida qanday mavzu qalamga olingan?	Qo'li kalta qashshoq kishining nochor holati ko'rsatilgan	6

«O'g'ri» hikoyasi

77.	Abdulla Qahhor «O'g'ri» hikoyasiga qanday epigraf tanlagan?	«Otning o'limi – itning bayrami»	7
78.	Kampir nima sababdan tong qorong'isida turdi?	Xamir qilgani	7
79.	Kampir ho'kiz yo'qolganini qachon bildi?	Tong qorong'isida	7
80.	Og'il qayerdan teshilgan?	Ko'cha tomondan	7
81.	Hikoyada nima sababdan: «Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho'kizi yo'qolmasin», – deyilgan?	«Bir qop somon, o'n – o'n beshta xoda, bir arava qamish – uy, ho'kiz topish uchun esa necha zamonlar qozonni suvga tashlab qo'yish kerak bo'ladi»	7
82.	Kim dod soldi?	Kampir	7

83.	Odamlar dod ovozig a o'rganib qolgan: birovni eri uradi, birovning uyi xatga tushadi, ammo nega kampirning dodiga odamlar tez to'plandi?	Chunki Qobil bobo va kampiri tinch, totuv yashagan. Ularning uylaridan umuman dod ovozi chiqmagan bo'lsa kerak	
84.	«...Yalangbosh, yalangoyoq, yaktakchan – og'il eshigi yonida turib dag'-dag' titraydi, tizzalari bukilib-bukilib ketadi, ko'zlari jovdiraydi, hammaga qaraydi, ammo hech kimni ko'rmaydi». Parchada kim tasvirlangan?	Qobil bobo	7
85.	Kimlar o'g'rini qarg'aydi?	Xotinlar	7
86.	Og'ilga kirib teshikni, ho'kiz bog'langan ustunni diqqat bilan ko'zdan kechirgan, negadir ustunni qimirlatib ham ko'rgan, Qobil boboni chaqirgan va pang tovush bilan: «Ho'kizing hech qayoqqa ketmaydi, topiladi», – degan qahramon...	Qobil boboning qo'shnisi – burunsiz ellikboshi	7
87.	«Ellikboshining og'ilga kirib qilgan taftishi Qobil boboga qanday ta'sir qildi?	Ellikboshining taftishi Qobil boboga bir umid bag'ishladi, uning so'zlari haddan ziyoda sevintirdi. Chol yig'lab yubordi	7
88.	Kim yig'idan to'xtab ellikboshini duo qila ketdi?	Qobil boboning kampiri	7
89.	«Ellikboshi o'g'ri teshgan yerni yana bir ko'rdi. Ellikboshining: «Yig'lama, yig'lama, deymen! Ho'kizing oq poshsho qo'l ostidan chiqib ketmagan bo'lsa, topiladi». Ellikboshining daldasi cholga qanday ta'sir qildi?	«Ellikboshi ho'kizni juda naqd qilib qo'ydi – go'yo u ko'chaga chiqsa, bas – ho'kiz topiladi. Bu «xudo yarlaqagur» shunchalik qilgandan keyin bir nima berish lozim-da. Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi. Bu odam ellikboshi bo'lish uchun	7

		ozmuncha pul sochganmi?.. Poshsholikdan oylik yemasa!»	
90.	Elliktoshi bu lavozimni egallashi uchun mingboshiga qancha pora bergan?	Yetti yuz bog' beda, bir toy bergani ma'lum	7
91.	Qobil bobo ellikboshiga nima berdi?	Hamyonini qoqishtirib borini berdi, yana uni qancha duo qildi	7
92.	Ellikboshining og'ilga kirib qilgan harakatlaridan maqsad nima edi?	Tamagirlik	7
93.	Ellikboshi beto'xtov kimga xabar qilmoqchi bo'lib chiqib ketdi?	Aminga	7
94.	Qobil bobo qachon aminning oldiga boradigan bo'ldi?	Kechqurun	7
95.	Qobil bobo kimga beriladigan porani: «Bu chiqim oxirgi va ho'kizni bo'ynidan bog'lab beradigan chiqim, shuning uchun pulning yuziga qarash aqldan emas», – deydi?	Aminga beriladigan porani	7
96.	Aminning oldiga bormoqchi bo'lganida, Qobil bobo qaysi maqolni esladi?	«Berganga bitta ham ko'p, olganga o'nta ham oz»	7
97.	Og'zini ochmasdan qattiq kekirgan, keyin baqbaqasini osiltirib kulgan qahramon...	Amin	7

Aminning savollariga Qobil bobo qanday javob berdi?

98.	– Ha, sigir yo'qoldimi?	– Yo'q... sigir emas, ho'kiz, ola ho'kiz edi	7
99.	– Ho'kizmi? Ho'kiz ekan-da. Hmm... Ola ho'kiz? Tavba...	– Bor-yo'g'im shu bitta ho'kiz edi...	7
100.	– Yo'qolmasdan ilgari bormidi? Qanaqa ho'kiz edi?	– Ola ho'kiz...	7

101.	– Yaxshi ho'kizmidi yo yomon ho'kizmidi?	– Qo'sh mahali...	7
102.	– Yaxshi ho'kiz birov yetaklasa keta beradimi?	– Bisotimda hech narsa yo'q...	7
103.	– O'zi qaytib kelmasmikin!.. Birov olib ketsa, qaytib kela ber, deb qo'yilmagan ekan-da! Nega yig'lanadi? A? Yig'lanmasin!	... Qobil bobo yerga qarab tek qoldi	7
104.	Amin Qobil boboga yuqoridagi savollarni nima uchun beradi?	Qobil boboning ustidan kulish uchun	7
105.	Aminning qaysi gapi Qobil boboga «Ma, ho'kizing», – deganday bo'lib ketdi?	«Qidirtirsakmikin-a? Suyunchisi nima bo'ladi? Suyunchidan chashna olib kelinmadimi?	7
106.	Amin beto'xtov kimga xabar beraman dedi?	Pristavga («Men beto'xtov pristavga xabar beraman. O'zi chaqirtiradi»)	7
107.	Bir hafta o'tdi. Bu hafta ichida kampir ho'kizini topish ilinjida qanday ishlar qildi?	«Duoning zo'ri bilan qulf ochadigan» azayimxonga obdastagardon qildirgani qatnab, yarim qop jiyda, uch yelpishtovoq jo'xori, ikki kalava ip eltdi, ammo ish chiqmadi»	7
108.	Qobil bobo aminning oldiga nechanchi kuni bordi?	Sakkizinchi kuni	7
109.	Amin Qobil boboga nima dedi?	Aminning tepa sochi tikka bo'ldi: «Ha, ho'kiz uylariga eltib berilsinmi? Axir, borilsin, arz qilinsin-da! Fuqaroning arzga borishi arbobning izzati bo'ladi!»	7
110.	Qobil bobo yor-do'stlari bilan kengashib qanday qarorga keldi?	Pristavga puldan boshqa nima olib borsa bo'ladi? Ma'lum bo'ldiki, uni begim deguncha kishining beli sinar ekan. Uchta	7

		tovuq, garchi biri kurk bo'lsa ham, Qobil boboning o'zidan chiqdi. Yuzta tuxumni qo'ni-qo'shni, yor-birodarlar o'zaro yig'ib berdi.	
111.	Qobil bobo pristavga deb olib borganlarini kimga berdi?	Ammo bu tortiq – uchta tovuq, yuzta tuxum bilan tilmochdan (tarjimondan) nari o'tib bo'lmadi	7
112.	Tilmoch beto'xtov pristavga yaxshilab tushuntirishni va'da berganidan so'ng chol qay holatga tushdi?	«Cholning butun bo'g'inlari bo'shashib ketdi, keyin tutoqishdi, ammo go'rda bir narsa deya oladimi? «O'ynashmagil arbob bilan – seni urar har bob bilan»	7
113.	Pristavga chol qanday tortiq qildi?	Bitta kulangir, bitta farangi tovuq, uch so'm pul	7
114.	Kulangir nima?	Xo'rozning bir turi	7
115.	«Yaxshilab tushuntirilgan» pristav Qobil boboning baxtiga: «Beto'xtov hokimga xabar beraman», – demasdan, cholga nima dedi?	«Aminga bor»	7
116.	Amin nima dedi?	«Ellikboshiga bor»	7
117.	Ellikboshi nima dedi?	– Gumoningizni ayting bo'lmasa! – dedi ellikboshi tajang bo'lib. – Kim olganini men bilmasam, avliyo bo'lmasam! Olgan odam allaqachon so'yib saranjomladi-da! Uzoq demasangiz, erinmasangiz, ko'nchilikka borib terilarni bir-bir qarab chiqing. Ammo terisi ko'nchilikka tushgan bo'lsa, allaqachon charm bo'ldi; xudo biladi, kavush bo'lib bozorga chiqdimi... Ey, yosh bolamisiz! Nega yig'laysiz? Kap-katta	7

		odam... Bitta ho'kiz bo'lsa bir gap bo'lar, xudo ajalga to'zim bersin! M ^o n qaynatamga aytayin, sizga bitta ho'kiz bersin. Bitta ho'kiz odamning xunimi?	
118.	Ellikboshi cholning muammo-sini qan-day hal qilib berdi?	«Ertasiga ellikboshi Qobil boboni boshlab qaynatasi – Egamberdi paxtafurushning oldiga olib bordi. Paxtafurush cholning holiga ko'p achindi va yerini haydab olgani bitta emas, ikkita ho'kiz berdi, lekin «kichkinagina» sharti bor. Bu shart kuzda ma'lum bo'ladi...»	7
119.	Hikoyada o'g'ri degan-da muallif kimlarni nazarda tutgan?	Amaldorlarni – ellikboshi, amin, tilmoch, pristavni	7
120.	Hikoya boshida Qobil boboni sensi-ragan hikoya yakunida esa uni siz-lagan amaldor...	Ellikboshi	7
121.	Muallif asosiy qahramonga nima uchun Qobil bobo deb ism tanlagan?	Oq podshsho mustamlakasi, shuningdek, mahalliy boylar zulmi ostida xo'rlangan, haq-huquqlari kamsitilgan, sodda, har qanday sharoitga sabr qiluv-chi mo'min-qobil odamlarning vakili bo'lgani uchun	7
122.	Hikoyada muallif qanday maqollarni qo'llagan?	«Otning o'limi – itning bayrami», «Tekinga mushuk oftobga chiqmaydi», «Quruq qoshiq og'iz yirtadi», «Berganga bitta ham ko'p, olganga o'nta ham oz», «O'ynashmagil arbob bilan – seni urar har bob bilan»	7

«Dahshat» hikoyasi

123.	«Dahshat» hikoyasi qanday boshlanadi?	«Yaqin ikki haftadan beri ko'z ochirmayotgan kuzak shamoli yaydoq daraxtlar shoxida chiyillaydi, g'uvullaydi; tomlarda vishillaydi, yopiq eshik va darchalarga bosh urib uf tortadi. Bunday kechalarda odamzod qo'ymijoz, g'uj bo'lib va nimanidir kutib, jimgina o'tirishni xohlab qoladi»	7
124.	Olimbek dodxoning nechta xotini bor edi?	8 ta	7
125.	Dodxo qanday amaldor?	Ariza qabul qiluvchi amaldor, mingboshi	7
126.	Olimbek dodxoning yoshi...	Payg'ambar yoshidan (63 dan) o'tgan	7
127.	Kundoshlar kimning uyiga yig'ilishdi?	Katta kundosh Nodirmohbegimning uyiga, sandal atrofida	7
128.	Halqa nima?	Taroveh namozi qatnashchilarining ommaviy qur'onxonlik marosimi	7
129.	Dodxo har kecha qayerga boradi?	Masjidga boradi, tarovesh namozidan keyin halqaga qoladi (bu kecha erta qaytdi)	7
130.	Kundoshlarning eng kichigi kim? Qayerlik? Uning bu dargohga tushganiga necha oy bo'ldi?	Kundoshlarning eng kichigi ganjiravonlik Unsinoi, bu dargohga tushganiga besh oygina bo'ldi	7
131.	Dodxo kirib kelganida kim chilim solib turdi?	Kelinchak Unsinoi	7
132.	Dodxo va xotinlari sandal atrofida o'tirgan paytda, tashqarida ob-havo qanday edi?	«Shamol goh och bo'riday uvullar, goh o'lim changaliga tushgan mushukday pixillar, vag'illar, hech narsa-hech narsa ko'rinmas edi»	7

133.	«Hozir go'riston qanaqa vahimali bo'lsa ekan...» deb kim nima maqsadda gapirdi?	Dodxo qisman xotinlarini asosan o'zini ovutish uchun gapirdi	7
134.	«Shamol bir huruj qilganida nimanidir keltirib darchaga urdi. U narsa darchani tirmalaganicha sidirilib pastga tushib ketdi. Hamma o'tirgan yerida go'yo bir qarich cho'kkanday bo'ldi...» Darchaga nima urilgan edi?	Bo'yra	7
135.	Bo'yra, odatda, nimaga solinadi?	Tobutga	7
136.	Go'riston haqidagi voqeani kim aytib berdi?	Nodirmohbegim	7
137.	Nodirmohbegimning hayotida bo'lgan voqeani aytdimi?	Voqeani Nodirmohbegim bolaligida dadasidan eshitgan edi	7
138.	Nodirmohbegimning rahmatli dadasi «gap» yer edi. Bir mehmonxona yigit. Mana shunaqa shamol kechasi ekan. Mehmonxonada qanday gap bo'libdi?	«Hozir kim go'ristonga borib, Asqarponsotning (ponsot – qo'rboshi, askarboshi) go'riga pichoq sanchib keladi?» – degan gap bo'libdi	7
139.	Nimadan garov bog'lashibdi?	Bir qo'ydan	7
140.	Asqarponsotning go'riga kim pichoq sanchib keladigan bo'libdi?	Bir kishi	7
141.	U yigit tong otguncha kelmabdi. Go'ristonga borib qarashsa o'lib yotgan emish. U yigit nima sababdan o'lgan?	«Bechora go'rga pichoq sanchganida etagini qo'shib sanchgan ekan, qaytay desa, etagidan birov tortganday bo'lganda...»	7

142.	Dodxoning nafsoniyati nima uchun qo'zg'adi?	Unsinning kundoshiga shivirlab: «O'lsin nokas odam ekan, bitta qo'yni deb... Koshki arziydigan narsa bo'lsa!...» – degani uchun. Dodxoday odam go'riston deganda tizzasi qaltirasa, biron «olamga podsho qilaman» degan taqdirda ham bormasa, borolmasa-yu, bu qiz mushtday boshi bilan, «arziydigan narsa bo'lsa, men boraman», – desa!	7
143.	Unsinning otasining kasbi...	Tegirmonchi	7

Dodxoning savollariga Unsin qanday javob berdi?

144.	Dodxoning g'ashi kelib Unsinni masxara qilib shunday dedi: – Obbo tegirmonchini-ning qizi!.. Bitta qo'yni nazarlari ilmaydi! Nechta qo'y bo'lsa arzir edi? Sen o'zing o'nta qo'y bersam pichoq sanchib kelasanmi? Yuzta qo'y, davlatimning yarmini bersam borasanmi?	Unsin bozvantidagi (bozvanti – ayollar sochiga taqiladigan bezak, sochpopuk) tangalarini o'ynab: – Menga davlat kerak emas, davlat kerak bo'lsa, borar edim, – dedi	7
145.	– Nima kerak?	– Javob bersangiz... Ganjiravonga ketsam... Bitta go'rga bitta pichoq emas, o'nta go'rga o'nta pichoq sanchib kelaman...	
146.	– Tag'in nima qilasan Ganjiravonda, borib kelganingga ikki oy ham bo'lgani yo'q-ku!?	Nodirmohbegim sandal ichidan oyog'ini uzatib Unsinning boldirini chimchiladi, ko'zi bilan: «Xayriyat, tushunmadi, bas, gapirma», – deb ishora qildi. Biroq Unsin jonidan kechgan	7

		kishining shijoati bilan dodxoga tik qaradi: – Yo'q, men butkul ketsam deyman, javobimni bersangiz demoqchiman	
147.	– Shunaqami?.. Xo'p, mayli, aytganing bo'la qolsin. Lekin go'ristonga pichoq emas, qumg'on olib borasan. Onhazratim sag'anasi oldida qumg'on qaynatib, bitta choy damlab kelasan, maylimi?	– Mayli, mayli! Lekin lafzingizdan qaytmaysiz	7
148.	Unsinning: «Lafzingizdan qaytmaysiz», – degan gapiga dodxo qanday javob berdi?	– Xo'p, lafzimdan qaytmayman, mana xotirjam bo'laqol: men hozir seni bir taloq qo'ydim, qaytib kelganingdan keyin uch taloqsan! Bor qumg'onni ko'tar!..	7
149.	«Nodirmohbegim Unsinning yuragiga quvvat bo'ladigan bir-ikki og'iz so'z aytish maqsadida ketidan chiqmoqchi bo'lgan edi...» Fikrni davom ettiring	Dodxo bir xo'mrayib joyiga o'tqazib qo'ydi	7
150.	Unsinning qaysi gapidan keyin dodxoning dami ichiga tushib ketdi?	– Mayli, mayli! Lekin lafzingizdan qaytmaysiz, – degan gapidan keyin	7
151.	Dodxoga nima haqorat bo'lib tuyuldi?	Bir gadoyvachchanning bu dargohdan ketishga oshiqishi	7
152.	Unsin uyiga kirib go'ristonga borish uchun nimalarni tayyorlab yo'lga chiqdi?	Paranji-chimmatini yopindi, qumg'onga suv to'ldirib, choynakka choy soldi-yu, jo'nadi	7
153.	Unsin hamma narsani olibdi-yu, biroq nimani esdan chiqargan edi?	O'tinni	7

154.	«Dahshat» hikoyasidagi «tiriklar go'ristoni» ...		Dodxoning uyi	7
155.	«Go'riston to'g'risida dodxo nimalar eshitgan bo'lsa, Unsin ham shuni eshitgan» deb boshlanadigan gapda «dahshat» so'zi necha marta qo'llangan?		Besh marta	7
156.	Unsinning diliga bir odamchalik quvvat bo'ladigan gap...		«O'likning joni yo'q!»	7
157.	Unsin qorong'i kechada qay holatda o'tin terdi?	Har sag'anadan bir qo'l, har go'rdan bir tovush chiqishini kutib o'tin qidirish vahimasi uning yuragiga yana raxna sola boshladi. Unsin o'ziga-o'zi baland tovush bilan: «O'likning joni yo'q!» – degan gapni og'zidan qo'ymay sag'ana va go'rlarni oralab o'tin qidirdi, Qamish sindirdi, yantoq, giyoh yuldi, qo'llari qonab ketganini ham payqamadi		7
158.	«Bir joyda yer o'pirilib, chap oyog'i taqimigacha botib ketdi va oyog'ining uchi yumshoq bir narsaga tekkanday bo'ldi». Buni Unsin nima deb o'yladi?		«O'likning qornimi-kan?» – deb	7
159.	Unsinning kalishi va paranji-chimmati qayerda qoldi?	Kalishi oyog'i botib qolgan joyda, paranji-chimmati sag'ananing oldida. Unsin ortiga qaytib borolmadi, nazarida hamma o'liklar sag'analardan, go'rlardan boshini chiqarib, ketidan qarab turganday edi		7
160.	Nimadir kelib Unsinning yelkasiga minib oldi, aftidan bo'g'moqchi bo'lib qo'l uzatdi. Bu...		Dodxoning maymuni	7
161.	Unsin qay ahvolga tushdi?	«Unsin ko'kragiga nihoyatda og'ir bir narsa bilan urilganday ko'ngli ozib tentirab ketdi-yu, yiqilmadi, lekin oyoq uzra turib, hushidan ketdi; oradan		7

		qancha vaqt o'tganini bilmadi, ko'zini ochib qarasa jonivor yelkasidan tushibdi, emaklab sag'ananing orqasiga o'tib ketdi. Unsin telba bir ahvolda bo'lsa ham fahmladi: maymun! Dodxoning maymuni! Maymunni dodxoning o'zi olib kelmagandir, birovdan berib yuborgan! Dunyoda dodxoday berahm odam yana bor ekanmi?! Unsin yelkasiga maymun mingan daqiqalarda qancha qo'rqqan bo'lsa, hozir shu qadar tinchidi, xotirjam bo'ldi: demak, qandoq berahm bo'lsa ham shu atrofda odam bor!	
162.	Unsinning uyiga qaytayotgan holatini tasvirlang	«Tushida yugurganday uning yo'li ko'paymas, ikki oyog'i gavdasidan keyinda qolar, qo'lidagi choynak tobora og'irlashib borar edi»	7
163.	Nodirmohbegimning uyiga kirgan Unsinni ko'rib, dodxo nima sababdan bir irg'ib sandaldan oshdi-da, o'zini eshikka urdi?	Unsinning rangi-ro'yini ko'rib, «jon berayotibdi» deb o'ylab, qochdi	7
164.	Nima uchun Nodirmohbegimning o'ng ko'zi momataloq bo'lib shishib ketgan, oq doka ro'molining u yer-bu yeriga qon tekkan edi?	«Nodirmohbegim Unsinning yosh joniga rahm qilishini, uni qaytarishini so'rab dodxoga yolvorganida, dodxo uni tutib olib xo'p urgan edi»	7
165.	Nodirmohbegim Unsinga nima ichirdi?	Go'ristondan qo'rqqanga davo bo'ladi deb go'ristondan oldirgan ikki chimdim tuproqni yarim piyola suvga chayib Unsinga ichirdi	7

166.	Nodirmohbegim Unsinning iltimosiga ko'ra bir xizmatkorni qayerga yubordi?	Ganjira-vonga	7
167.	Qachon Unsinning joni uzildi?	Peshinga yetmay	7
168.	«Bu dargohni endi yelkamning chuquri ko'rsin» – degan qahramon...	Nodirmoh-begim	7
169.	Marhumani aravada kim olib ketdi?	Nodirmohbegim	7
170.	«Dahshat» hikoyasidagi voqea qaysi faslda bo'lib o'tgan?	Kuzda	7
171.	Abdulla Qahhorning «Bemor» hikoyasida qanday g'oya ifodalangan?	Qo'li kalta qashshoq kishining nochor holati ko'rsatilgan	6
172.	A.Qahhorning qaysi asarida holat va kechinmalar uchun «sovuq ter chiqmoq», «bir qarich cho'kkanday bo'lmoq», «tizzasi qaltiramoq», «til-dan qolmoq», «yerga qapishib ketmoq», «lafzdan qaytmaslik», «yura-giga rahna solmoq», «dami ichiga tushmoq», «ko'z oldiga kelmoq», «ko'zlari jovdiramoq», «ko'pi ketib ozi qolmoq», «o'zini yerga tashlamoq», «yerning qa'riga yubormoq» kabi xalqona ibora va ifodalar o'ta mahorat bilan qo'llangan?	«Dahshat»-da	7
173.	«Dahshat» hikoyasida qanday fikr ilgari surilgan?	Inson erki, shaxs hurligini ulug'lash	7
174.	«Dahshat» hikoyasidagi Unsinning «O'g'ri»dagi Qobil bobo, «Anor»dagi Turobjon, «Bemor»dagi Sotibol-didan farqi nimada?	Unsin mutelik asirasi va jaholat qurboni bo'lib yashashni istamaydi	

175.	«Unsin xuddi dadasidan katta hayitlik olib bozorboshiga ketayotgan yosh boladay chopqillab, qarshisidan esayotgan shamolga soʻz bermay, baʼzan irgʻishlab borar edi». Unsin qayerga borayotgan edi?	Goʻristonga	7
------	---	-------------	---

Quyidagi soʻzlarni izohlang

176.	Dodxo	Ariza qabul qiluvchi amaldor, mingboshi	7
177.	Halqa	Tarovesht namozi qatnashchilarining ommaviy qurʼonxonlik marosimi	7
178.	Ponsot	Askarboshi, qoʻrboshi	7
179.	Bozvant	Ayollar sochiga taqiladigan bezak, sochpopuk	7
180.	Sagʻana	Qabr ustiga qurilgan maqbara	7

«Sarob» romanidan savollar

181.	Yozgi taʼtilda Munisxon akasi bilan Qrimga ketib kim shaharda yolgʻiz qoladigan boʻldi?	Saidiy	L
182.	Saidiyning ismi...	Rahimjon	L
183.	Munisxonning akasining ismi...	Salim	L
184.	Boradigan yeri, soʻzlashadigan kishisi yoʻq; kuni boʻyi hujrasida oʻtirib, turli yozuvchilarning maqtalغان asarlarini oʻqish va sheʼr, hikoya yozish bilan vaqtini oʻtkazadigan qahramon...	Saidiy	L
185.	Saidiy sheʼr va hikoyalarini yuboradigan jurnal adiblarni necha turga boʻlib, asarlarini taqdim qiladi?	Uch turga boʻlib: 1) talantli shoirlar; 2) tarbiya va kengashga munosib yosh qalamkashlar; 3) havaskor yozuvchilar	L

186.	Saidiy yuqoridagi turning qaysi biriga kirar edi?	Saidiy so'nggi uchinchi turga ham kirmas, uning ismi mudom oxirgi sahifada «bosilmaydi» so'zi bilan zikr qilinardi	L
187.	Saidiy o'zini tarbiya va kengashga munosib darajaga ko'tarish uchun nima ishlar qildi?	Juda ko'p kitoblar o'qidi, bir necha oy ichida ikki yuzdan ortiq badiiy asarlarni o'z ichiga olgan kutubxonaga ega bo'ldi; bulardan ko'pini o'qigan, qolganlarini ham o'qish uchun har bir bo'sh minutdan foydalanar edi	L
188.	Bur kuni u «balki asarim bosilishga muvofiq bo'lsa ham, qalam haqi to'lashga arzimas, shuning uchun boshqarma qaytarar» degan o'yga borib, so'nggi yuborgan asarlarining ustiga nima deb yoza boshladi. Bundan natija chiqdimi?	«So'nggi yuborgan asarlarining ustiga «gonorarsiz» deb yoza boshladi. Bundan ham natija chiqmadi – hamon o'sha, sira o'zgarmaydigan quyma javob chiqishda davom etdi»	L
189.	Saidiyning yashash tarzi qanday edi?	«U tarbiya va kengash berishga arziydiganlar qatoriga kiranman, deb o'zini qiynab qo'ydi, yoz bo'yi hech qayerda ishlamadi, bisotidagi puli tugashdan tashqari, ba'zi kiyimlaridan tortib ehsondan qolgan parqu yostiqqacha bozorga chiqdi. Shu kunlarda uning qora nondan boshqa narsaga kuchi yetmay qoldi, juda ozib ketdi, uch-to'rt soatdan ortiq ishlashga madori qolmadi, o'shanda ham kechasi ishlashga to'g'ri kelsa, kechasi bilan yomon tushlar ko'rib chiqardi»	L

190.	Universitetda uning uch oylik stipendiyasi bor, ammo Saidiy nima uchun uni ololmaydi?	Komsomol yacheykasidan qo'r-qadi, chunki shaharda turib sira majlisga bormadi, yacheykaga qorasini ko'rsatmadi; yaqinda keldim, deyolmaydi, chunki u vaqtda yacheyka qayerda, qanday ishlagani haqida hujjat so'raydi. Bunday hujjatni esa Munisxondan bo'lak kishi topib berolmas edi	L
191.	Yacheyka...	Sobiq sho'ro davridagi yoshlar uyushmasi	L
192.	Bir kuni Saidiyga kimdan xat keldi?	Munisxondan	L
193.	Munisxonning xati Saidiyning yozishga bo'lgan ishtiyoqini yangiladi, yangi ishtiyoqning birinchi, dardli minutlarini nima yozishga sarf qildi?	Munisxonga javob xati yozishga	L
194.	Saidiy xatni yuborgani chiqqanida pochtaxonada kimga duch keldi?	Ulfatga	L
195.	Kitob emas gazet, gazeta emas, hatto bosilib chiqqan o'z asarini ham ko'rib chiqolmaydigan qahramon...	Ulfat	L
196.	«Shallaqi bir kampirning uyida turaman shu ko'p bemaza qilayotir-da. O'ttiz so'm qarzim bor. Hozircha o'n to'qqiz so'mini ol, chorshanba kuni qolganini beraman, desam unamaydi-da!.. O'zingda yo'q – olamda yo'q. Muharrirdan so'ragan edim, unda ham yo'q ekan, bechora xijolat bo'ldi. Har kimdan so'rayvergani kishining yuzi chidamaydi. Uyga borishga yurak yo'q, kampirga ro'para bo'lgani toqatim qolmabdi». Parcha qaysi qahramonning nutqidan olingan?	Ulfatning	L

197.	Ulfat chorshanba kuni soat birga yetkazib berishni va'da qilib, Saidiyning so'nggi pulidan necha so'mini oldi?	O'n uch so'mdan o'n bir so'mini oldi (etajerka olib kelib beraman, deb ham va'da berdi)	L
198.	«Davlat nashriyotida pulim bor, – dedi Ulfat, – sira yubormaydi». Necha so'm pulim bor deb aytdi?	Ikki yuz yetmish bir so'm	L
199.	Qolgan ikki so'mni Saidiy necha kunga yetkizdi?	Besh kunga, oltinchi kuni esa och qolib, kechqurungacha yotib uxladi	L
200.	Saidiy boshqa boshqa joydan pul topish fikrini qildi, hech bir qarorga kelolmadi. Nihoyat, Saidiy Ulfatning oldiga borishga qaror qildi. Ulfat qanday qilib Saidiyning qo'ynini puch yong'oqqa to'ldirdi?	Saidiy o'z ovora qilganini, uyalib qolganini, ammo bunga minglarcha sabab borligini, kecha boraman, deb bel bog'laganida badbaxt Ilhom uni zarur bir ishga ro'para qilib qo'yganini, etajerkani bo'shlatirib qo'yganini, yana ozroq kutishg'a to'g'ri kelganini aytdi Ulfat Saidiy boshlab o'zi ishlaydigan xonaga olib kirdi. Saidiy uning har bir so'ziga «mayli, ataylab pul uchun kelganim yo'q», deb javob berardi. Ulfat Badbaxt Ilhomni bir joyga pulga yuborganganini, daragi yo'qligini, bachchag'ar ichib, bir joyda uchib qolganini, unga ishonib yonida bor pulini ham birov so'raganda berib qo'yganini, hali ovqat qilmaganini, u kelmasa ham bari bir, topishini, lekin Saidiy kutib qolishini Ilhom kelmasa juda chatoq bo'lishini, kechqurun birovga va'da berganini, yangi tanishgan qizi, o'n uch yo o'n to'rt yoshdaligi, u shu kunda go'dagini xohlab qolganini, o'psa ham yig'lashini aytdi	L

201.	Ulfat Saidiyga nimani taklif qildi?	«Vaqtingiz bo'lsa kechqurun istirohat bog'iga chiqaylik. Juda o'tkir qiz-da. Bundoq qilsak: men kechqurun sizning oldingizga borsam; keyin, ikkovimiz ovqat qilsak-da, qiz va'da bergan joyga borsak. Albatta, uning o'zi yolg'iz bo'lmaydi. Sizga ham bo'ladi... Nima dedingiz? Unang, xo'p deng», – deb qizlar bilan uchrashuvga chiqishni taklif qildi	L
202.	Ulfat bilan xayrlashib chiqqan Saidiy kimni ko'rib qoldi?	Shafrinni uzoqdan ko'rib qoldi. Shafrin bilan ko'rishishni istamas edi, ko'chaning narigi yuziga o'tdi. Shafrin uni ko'rib qoldi, chaqirdi va orqasidan yugurib bordi.	L
203.	Shafrin Saidiyga qanday mehribonchilik ko'rsatdi?	Saidiy uning ko'ziga kasal ko'rindi, hujraga kelgandan keyin ziyraklik qilib u «kasal»likni fahmladi shekilli, ko'chaga chiqib xarid qilib keldi. Ketishida kitobning ichiga uch so'm pul qo'yib ketdi. To'rt kundan keyin Saidiyning bir yuz yigirma so'm stipendiyasini olib kelib berdi	L
204.	Kechqurun – va'da qilgan vaqtida Ulfat Saidiyning oldiga keldimi?	U sersavlat, serpul shoir kechqurun ham kelmadi	L
205.	Oradan uch hafta o'tgandan keyin navbatdagi son jurnalda kimning she'ri bosilib chiqdi?	Ulfatning yana bir she'ri, Ulfat buni Yaltada yozgan edi	L
206.	Ulfat o'n bir so'm pulni qaytardimi?	Saidiy o'n bir so'midan umidini uzdi	L

207.	Shunday qilib, Saidiy yoz bo'yi urinib ham tarbiya va kengash doirasiga kiroldimi?	Kira olmadi	L
208.	Saidiy tarbiya va kengash doirasiga qanday qilib kirishi mumkin edi?	Bu doirani Ulfat, Abbosxon, Ilhom singari adabiyot maydonining «bahodirlari» o'rab olgan. Bular bir-biriga kirishgan temir halqalar bo'lib, bu doiraga kirish uchun shu halqalardan birini yo sindirish, yo eritish kerak edi. Sindirish Saidiyning qo'lidan kelmas, maxsus yo'l bilan bulardan birontasini eritib, qo'ltig'i ostida o'tib ketish mumkin edi	L
209.	Kalamush bilan ko'mir konida bo'ladigan halokat, mushuk bilan beda, Britaniyaning mustamlaka siyosati bilan Hindistonning oq sigiri, yer magniti bilan shimoldagi «kamalak», hatto tish og'rig'i bilan ko'z og'rig'i orasida ham bir munosabat – bog'lanish bor ekani-ga Salimxon ishonadi, ammo nimaga bosh qotirar edi?	Oliyjanob singlisi Munisxon bilan jo'n bir student Saidiy orasida qanday munosabat bo'luvi mumkin ekanligi haqida boshini qotirar edi	L
210.	Salimxon singlisi bilan notanish bir student, ya'ni Saidiy orasidagi aloqa kuzatib nimaga ishonch hosil qildi?	O'z tili bilan aytganda, «axloqsizlikdan» xoli ekanligiga ishonadi	L
211.	Saidiy, Salimxon va Munisxon suhbatlarida so'nggi vaqtda bosmachiga chiqib ketgan qaysi odamni eslashdi?	Is'hoq afandini	L
212.	Ishoq afandining o'limi to'g'risida bilganlarini kim so'zlab berdi?	Saidiy	L

213.	«Munixon, Saidiy so'zini tamom qilishi bilan mashq boshladi; mashqni tamom qilgandan so'ng avval akasi, so'ngra Saidiy so'ragan kuylarni chalib berdi». Munixon qanday musiqa asbobini chalardi?		Royal	L
214.	Salimxon qayerda tahsil ko'rgan?	Madrasayi oliyda		L
215.	Salimxon Saidiyni qaysi kunlari kelib turishga taklif qildi?	Juma kunlari		L
216.	Salimxon kimda zakovat belgilari ko'rganini, bu yigit oddiy studentlardan yuqori turishini so'zladi?	Saidiida		L
217.	Saidiy Munixonlar uyiga kelib, ikki-uch soat o'tirishni mo'ljallagan edi, kechasi soat o'n birgacha o'tirdi. U kelganda Munixon yo'q edi. Qayoqqa ketganini so'ragani bo'lmadi, ammo uni shu vaqtgacha bu yerga bog'lagan ip nima edi?	Har holda Munixon emas edi. Salimxon o'zining obro'yi, ulug' sifatligiga qaramay, takabbur emas, dilkash, ko'nglida kiri yo'q, kim qanday yomon ahvolda qolsa yordam qo'lini cho'zadi; madaniyatni sevadi, o'zbek xalqidan dohiylar chiqishini tilaydi; odam taniydi; kishidagi qobiliyat, zakovatni go'yo o'ta ko'radi. Xususan, shu so'nggisi o'sha ipning asosiy unsuri edi		L
218.	Saidiy va Salimxon qanday mavzular-da suhbatlashar edilar?	Panama kanalining qazilishi, Rus-Yapon urushining sabab va natijalari, «Imperatritsa» paroxodining halokati, ingliz olimi Ramzeyning yer ostidagi ko'mirni gazga aylantirib foydalanish mumkin ekanligini ochgani, Bayronning jahongashta bo'lgani,		L

		Angliyaning mustamlaka siyosati, To'qay davridagi tatar adabiyoti, insondagi qobiliyat va zakovat, islom va isloh, turklar bilan armanilar orasidagi adovat, kompartianing milliy siyosati, Turkistonning fath qilinuvi va hokazo. Bir juma kuni so'z Tolstoyning vafoti haqida ketib, Salimxon Abdulla To'qayning shu munosabat bilan yozgan sochma she'rini yod o'qib berdi	
219.	Tolstoy o'lganda Salimxon qayerda o'qirdi?	Ufa madrasasida bo'lib, yangi borgan choqlari edi	L
220.	Salimxonning dunyoqarashi kengayishiga kim sababchi bo'ldi?	«Otasi uni o'zining do'sti – taraqqiyparvar mashhur boy Husaynov Salimxonni Qozonga olib borib, o'zining yosh kuyovi bilan Ufaga yubordi. Uning kuyovi jonli, hushyor, qo'lidan har ish keladigan yosh bir yigit edi. Salimxon ko'p yillarni shu bilan hamhujra bo'lib o'tkazdi». Salimxonning dunyoqarashi kengayishiga sababchi – hamhujrasi	L
221.	So'nggi yillarda «Vaqt», «Tarjimon» va boshqa birmuncha gazetalarning nima deyayotganini anglab, Turkistondagi milliy harakatni shu g'oya bayrog'i ostiga burish uchun xizmat kamarini bog'lagan qahramon...	Salimxon. Bu davrdagi Turkistonning yosh ziyolilari esa shunday tajribali ustod qo'lidan chiqqan shogirdlarga muhtoj edi	L
222.	Saidiy o'zining qaysi she'r va hikoyasi bosilib chiqishi haqida maktub oldi?	«Vodiy» she'ri, «Qalandar» hikoyasi	L

223.	Saidiyga xat kim tomonidan yuborilgan edi?	Jurnal muxbiri Kenjadan	L
224.	Yozuvchilar majlisida kaltaklangan, beobro' qilingan yigit qayerda ishlar edi?	O'sha jurnalda muxbir edi	L
225.	Kenja Saidiyning asarlari haqida nima dedi?	She'rdam ham hikoyada ham kamchiliklar borligini aytdi. Muloyimlik bilan she'rni chiqitga chiqardi. Hikoya notamom, shuning uchun o'zi yakunlab, bir bob to'shganligini aytdi (Bundan Saidiy juda xursand bo'ldi)	L
226.	Shu paytgacha Saidiy jurnalga yuborgan asarlarining taqdiri qanday bo'lgan ekan?	Asarlari hatto o'qilmay turib, jurnalning oxirgi sahifasida «bosilmaydi» degan javob chiqqan	L
227.	Saidiyning «bosilmagan» asarlari yuzasidan muharrir qaysi jurnalistlarni chaqirdi?	Yoqubjon va Ilhomni	L
228.	Saidiy birinchi xayrixohlikni qildi?	Ilhomga	L
229.	«Bir hikoya, bahor kechalarining birida, shahar bog'ida pivo ichib o'tirib, – eridan uchta go'dak bilan qolgan xotin. Qish, uyidagi butun ro'zg'orini sotganda bir qadoq nonga yetmaydi. Kechqurun. Qattiq shamol. Ochdan o'lmaslik uchun xotin bolalarini yetaklab ko'chaga chiqadi. Odamlarning sovuqligi qishning sovuqligidan ham ortiqroq bo'ladi. Xotin yiqiladi, bolalari uning ko'kragida. Xotin jon beradi. Qor ko'madi. Istasangiz bolalarni ham o'ldiring, istasangiz ularni biron farzandsiz olib ketsin».	Ilhom	L
	Yuqoridagi voqea haqida hikoya yozishni Saidiyga kim maslahat berdi?		

230.	Saidiyning Kenjaga bo'lgan adovati nima sababdan ortdi?	Sovuqdan va ochlikdan o'lgan ayol haqidagi hikoyani Saidiy yozdi. Abbosxon buni jurnalning navbatdagi sonida bostirishni va 'da qilgan edi, biroq jurnal uch son chiqdi hamki, hikoya bosilmadi. Shu hikoya tufaylidan Kenja bilan Abbosxon orasida ko'p janjallar bo'libdi. Buni Saidiy keyinchalik Munisxondan eshitib, Kenjaga bo'lgan adovati yana ortdi	L
231.	«Sarob» romanida qanday mavzu qalamga olingan?	1920-yillar oxiri – 30-yillarning boshlaridagi «millatchilar» deb atalgan ijtimoiy kuchning mahv etilishi, o'z g'oya va orzularini amalga oshir olmay, inqirozga yuz tutishi jarayoni badiiy jihatdan ko'rsatib berilgan	L
232.	«Sarob» romanining bosh qahramoni...	Rahimjon Saidiy	L
233.	Rahimjon Saidiyning hammaslamlari...	Salimxon, Abbosxon, Murodxo'ja	L
234.	Rahimjon Saidiyning hammaslamlari kimlarga qarshi kurash olib borishgan?	Sho'rolarga qarshi maxfiy kurash olib borilgan	L
235.	Asar nima uchun «Sarob» deb nomlangan?	Asarda: «Saidiylar yo'li halokatli yo'ldir, bu orzular hech qachon amalga oshmaydigan ro'yo va sarobdir», – degan badiiy xulosa chiqarilgan	L
236.	Asarda Munisxon taqdiri qanday yakunlanadi?	O'zini o'zi otib o'ldiradi	L
237.	Murodxo'ja domla, Soraxon qaysi asar qahramonlari?	«Sarob» romani	L

MIRKARIM OSIM (1907 – 1984)

1.	Mirkarim Osim qachon qayerda tug'ilgan?	1907-yil Toshkentda tug'ilgan	5
2.	Mirkarim Osim qaysi bilim dar-gohlarida ta'lim oldi?	Dastlab eski maktabda, 1917 – 1920-yillar oralig'ida «Shams ul-urfon» nomli boshlang'ich maktabda, 1921 – 1924-yillarda shahardagi ta'lim-tarbiya texnikumida, 1926 – 1930-yillarda Moskvadagi pedagogika institutining tarix-iqtisod fakultetida tahsil olgan	5
3.	Mirkarim Osimning mehnat faoliyati...	Oliy o'quv yurtini tugatgach, Samarqanddagi o'qituvchilar tayyorlash kursida dars bergan, 1932 – 1949-yillarda Toshkent Pedagogika ilmiy-tadqiqot institutida, O'zbekiston Maorif xalq komissarligida ilmiy xodim lavozimida, 1959-yildan to 1972-yilgacha G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida muharrir vazifasida xizmat qilgan	5
4.	Qatag'on siyosati adib hayoti-da qanday iz qoldirdi?	Mirkarim Osim o'tgan asrning 50-yillarida sobiq sho'ro davlatining qatag'on siyosatidan cheksiz azob-uqubatlar tortdi. Uning xalqimiz shonli tarixidan hikoya qiluvchi, vatanparvarlik, millatparvarlik ruhida yozilgan asarlari qoralanib, yozuvchining o'zi 1950-yil 15-yanvarda qamoqqa olindi. O'n oy davom etgan tergov azoblaridan so'ng, adib «sovetlarga qarshi targ'ibot qilgan»likda ayblanib, 10 yil muddatga ozodlikdan mahrum etildi. 1955-yil nohaq qamalgan deb ozod etilgan	5

5.	Adib qanday unvon bilan taqdirlangan?	«O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi»	
6.	Adib dastlab ijodini qanday asarlar yozish bilan boshladi?	Dastlab she'rlar yozdi	
7.	Mirkarim Osim qaysi fandan qo'llanma, tavsiya, darsliklar yaratdi?	Tarix fanidan	5
8.	Adib Alisher Navoiy haqida qanday asarlar yaratgan?	Alisher Navoiyning hayoti va ijodi haqida «Astrobod», «Alisher Navoiy va Darvishali», «Badarg'a», «Navoiyning xislatlari», «Ulug'bek va Navoiy», «Zulmat ichra nur» kabi tarixiy asarlarini yozadi	5
9.	Mirkarim Osim asarlari nechta yo'nalishga bo'lingan?	Uch katta yo'nalishga: 1) tarixiy-qahramonlik mavzusidagi asarlari; 2) tarixiy-maishiy mavzudagi asarlari; 3) tarixiy-tarjimaiy hol tarixiy asarlari	
10.	Qahramonlik mavzusidagi asarlari	«O'tror», «To'maris», «Temur Malik», «Shiroq», «Iskandar va Spitamen», «Mahmud Tarobiy» va b	5
11.	Maishiy mavzudagi asarlari...	«Mohlaroyim va Xonposhsha», «Karvon yo'llarida», «Elchilar» va b.	5
12.	Tarjimaiy hol tarixiy asarlari	«Zulmat ichra nur» (Navoiy), «Jayhun ustida bulutlar» (Beruniy), «Ibn Sino qissasi», «Aljabrning tug'ilishi», «Singan setor» (Mashrab) va b	5
13.	Mirkarim Osimning dastlabki qissasi...	«Yangi ariq» (1925-y)	5

14.	Mirkarim Osimning dastlabki qissasi qachon yaratilgan?	1925-yilda	5
15.	Mirkarim Osimning tarixga oid dastlabki yirik asari...	«Astrobod» qissasi	5
16.	1937 – 1940-yillar ichida adib Alisher Navoiyning hayot va ijod yo'llarini keng aks ettiruvchi qaysi asarlarini yaratdi?	«Astrobod», «Alisher Navoiy va Darvishali», «Badarg'a», «Navoiyning xislatlari», «Ulug'bek va Navoiy»	5
17.	Mirkarim Osimning tarjima asarlari...	M.Sholoxovning «Tinch oqar Don», S.Borodinning «Yeldirim Boyazid» nomli romanlari, L.Batning «Hayot bo'stoni» qissasi va b.	5
18.	Tarixchi adib 70 yilligi munosabati bilan qanday unvon bilan mukofotlangan?	O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi	
19.	Mustaqillik yillarida adib mehnatlari uchun qanday orden bilan taqdirlangan?	2002-yilda «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan taqdirlangan	5
20.	Mirkarim Osim o'tgan asrning 60-yillarida Navoiy tavalludining 525 yilligi arafasida qaysi asarni yaratgan?	«Zulmat ichra nur» qissasini	5
21.	«Alisher Navoiy xalqimizning ongli tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyondasi, millatimizning g'ururi, sha'n-u sharafini dunyoga tarannum qilgan o'lmas so'z san'atkoridir. Ta'bir joiz bo'lsa, olamda turkiy va forsiy tilda so'zlovchi biron-bir inson yo'qki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e'tiqod bilan qaramasa». Ushbu fikrlar qaysi asardan olingan?	Islom Abdu-g'aniyevich Karimovning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asaridan	5

«Zulmat ichra nur» qissasi
(Tarixiy qissa)
«Yoshlik ayyomining ilk bahori»

22.	To'rt yoshlik Alisher kattakon kitobdan qanday suratlarni qiziqib ko'rar edi?	Ov va jang manzaralari tasvirlangan suratlarni	5
23.	Bu kitobning bahosi qancha edi?	Alisherning otasi – G'iyosiddin Bahodir kitobni Ikki qo'y bahosiga sotib olgan edi	5
24.	G'iyosiddin Alisher qo'lidan kitobni olib qo'yib, katta bo'lganida ajoyib kitoblar sotib olib berishga va'da berib, so'ngra unga cho'ntagidan nima chiqarib berdi?	Sopol qo'chqor	5
25.	Yosh Alisher uni kimning qo'chqori bilan urushtirmoqchiligini aytdi?	Husayn Boyqaroning	5
26.	Alisherning tog'alari...	Mirsayid – Kobuliy, Muhammad Ali – G'aribiy	5
27.	Alisherning tog'alari qaysi tilda she'r yozar edilar?	Forsiy va turkiy	5

Quyidagi ta'riflar Alisherning qaysi tog'alari haqida?

28.	Jiddiy, kamgap, sipo odam...	Mirsayid – Kobuliy (katta tog'asi)	5
29.	Xushchaqchaq, gapdon yigit bo'lib, tor va tanburni yaxshi chaladi...	Muhammad Ali – G'aribiy	5
30.	Alisher ko'cha-ko'yda bolalar bilan o'ynab qaysi tilni o'rganib olgan?	Tojik tilini	5
31.	Yosh Alisher majlis ahliga kimning she'rini o'qib berdi?	Qosim Anvor she'rini	5

32.	«Rindemu oshiqemu jahonso'zu joma chok, Bo davlati g'ami tu fikri jahon chi bok?» Qosim Anvor she'rini tarjima qiling	«Biz beparvo oshiqlarmiz, yirtiq chopon, o't nafas, Jahon g'ami sening g'amingga arzimas»	5
-----	---	---	---

**Quyidagi parchalar qaysi qahramonlar
nutqidan olingan?**

33.	«Ofarin, kichkina darvesh. Beparvo, rind oshiqlardanmiz degin. O't nafas bo'lsang dog'i, yirtiq chopon bo'lma»	Muhammad Ali	5
34.	«Qosim Anvorning she'rlari mag'zini bola ermas, kattalar ham chaqa bilmaydirlar, ammo ulug' shoirning otashin nafasidan bul go'dak bolaning yuragiga bir alanga tushibdur. Iloyo, yomon ko'zdan asrasin»	Mirsayid	5
35.	«Yazna, har kim oldida Mavlononing o'shul she'rini Alisherga o'qitmang, ko'z tegadur»	Muhammad Ali	5
36.	«Bid'at va xurofotdan yiroq, sog'lom fikrli» deb ta'riflangan qahramon...	G'iyosiddin Bahodir	5
37.	Alisher necha yoshida maktabga chiqadi?	To'rt yosh-u to'rt oyligida	5
38.	Husayn Boyqaro ajdodlari haqida qisqacha ma'lumot bering	Husayn Temurning avarasi Mansur binni Boyqaroning o'g'li edi. Husaynning bobosi Mirza Boyqaro zamon podshohi Shohruxga qarshi isyon qilgani sababli qatl ettirilgan, uning o'gli Mansur ham keyinchalik nazardan qolib, davlat ishlariga aralashmay qo'ygan edi	5

39.	«G'ayratli va zehnli, xipcha bel, yag'rini keng, qirg'iz qovoq» deb tasvirlangan obraz...	Husayn Boyqaro	5
40.	Husayn Boyqaro Alisher Navoiydan necha yosh katta?	Ikki yosh	5
41.	Yosh Husayn Boyqaro nimalarga qiziqadi?	O'yinchoq qo'chqor urishtirishga, shahar tashqarisidagi Gozurgohga chiqib, kamondan o'q otishga	5
42.	Hirotnliklar Boyqarolarning Xiyobon mahallasidagi ikki qavatli uyini qanday nomlashar edi?	«Davlatxona»	5

«Yazd cho'li»

43.	«Navro'z kuni podshoh hazratlari xachirga minib, Taborak sari borib, ulug'larning mozorini ziyorat qilib kelmoqchi bo'ldilar... Ammo xachir mozorlar ustiga qadalgan tug'lardan cho'chib, oyog'ini tirab oldi. Bir qamchi bosgan erdilar, harom o'lgur, shataloq otib, podshohimizni yiqitayozdi. Agar bizlar ul kishini suyab qolmasoq, egardan uchib ketgan va o'shul joydayoq jon taslim qilg'on bo'lur erdilar. Bizlar Shohrux janoblarini suyab, egardan tushirdik va avaylab, taxtiravonga soldik. To'rt mulozim taxtiravonni yelkalab, lashkargohdagi bir chodirga eltib, Shohrux janoblarini yotqizdilar. Ul janob shu yotganlaricha qaytib o'milaridan turmadilar». Temurning o'g'li – Shohruxning o'limi to'g'risidagi bu xabarni kim hikoya qilib berdi?	Mirsayid	5
-----	---	----------	---

44.	Shohrux Mirzo hayotining so'nggi kunlarida qayerda qishlagan edi?	Ray shahri yaqinida	5
45.	Shohrux Mirzo vafot etganida Mirsayid qayerda edi?	Ray shahri yaqinidagi lashkargohda	
46.	Asarda kimlar murda ustiga yopirilgan o'limtik qushlarga o'xshatilgan?	Ulug'bekning o'g'li Abdulatif, Boysunqurning o'g'li Sulton Muhammad, uning inisi – sharobxo'r Abulqosim	5
47.	Shohrux Mirzo qachon necha yoshida vafot etdi?	72 yoshida, zulhijja oyining yigirma beshida, yakshanba kunda	5

**Quyidagi fikrlar qaysi qahramonlar
nutqidan olingan?**

48.	«Bir-birlariga kushanda bo'lg'on shahzodalar va qonga tashna, o'ljatalab beklar emdi bir-birlarining boshlarini chaynardurlar, xalqning bor-yo'g'ini yag'mo etadurlar, ko'chib ketmoq kerak Xurosondin. Mabodo telba Mironshohning haromzodalaridan biri taxtga o'tirsa bormi, siz bilan mening boshimizda yong'oq chaqadur»	Mirsayid	5
49.	«Bir joydin ikkinchi joyga ko'chmoq oson gap emas. Kambag'alman desang, ko'chib boq, degan maqol bor. Shuncha mol-holni tashlab ketib, qayga boramiz?»	G'iyosiddin	5
50.	«E, yazna, shundog' zamonda mol-hol ko'rinadimi kishining ko'ziga. Jon omon qolsa, mol topiladur! Ixtiyor o'zingizda, men hammadan burun manovi jiyan-chamga achinamen. Ko'zlari o'tkir, peshonasi keng, odam bo'ladur bu bola!»	Mirsayid	5

51.	Temuriyzo- dalar o'rta- sida qan- day kurash bordi?	«Temurning nevara-evaralari, qonga tashna bo'rilardek, bir-birlari bilan g'ajishib, xalqning qonini suvdek to'ka boshladilar. Ulug'bekning o'g'li Abdullatif askar to'plab, o'ziga teskari bo'lgan amaldorlardan ko'pini boshini kestirdi, o'z buvisi Gavharshodni zindonga soldirdi. Shohruxning nabirasi, Boysunqurning o'g'li Abulqosim Bobur esa o'z akasi Sulton Muhammad bilan urusha boshladi»	5
52.	G'iyosiddin Kichkina oilasi, qarindoshlari bilan qayerga ko'chib ketishdi?	Kunbotish tomonga – G'arbiy Eronga	5
53.	Yazd vohasidagi Taft qishlog'ida bir xonaqohda yosh Alisher kimning duosini oldi?	Mashhur tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiyning	5
54.	G'iyosiddin bahodir Shohrux vafotidan besh-olti yil avval qanday vazifada ishlar edi?	Sabzavorda hokim edi	5
55.	Temur tarixini yozgan, Shohruxning yonida yurib, ko'rgan voqealarni bitgan, mashhur tarixchi...	Sharafiddin Ali Yazdiy	5
56.	G'iyosiddin Kichkina o'z oilasi bilan G'arbiy Eronda necha yil yashadi?	Uch yilcha	5
57.	G'iyosiddin Kichkina o'z oilasi bilan Xurosonga qaytayotganida poytaxt- ni kim egallagan edi?	Abulqosim Bobur o'z akasi Sulton Muhammadni o'ldirib, poytaxtni egallagan edi	5
58.	Jazirama cho'lda Alisher nega karvondan ajrab qoldi?	Yosh Alisher kunduzi uxlab olmagani uchun kechasi ot ustida uxlab qoldi, buni sezgan ot sekinlab, karvondan orqada	5

		qolib ketdi. Alisher otdan yiqilib tushdi. Ot boshi oqqan tomonga qochdi	
59.	Qumda piyoda borayotgan Alisher nimani topib oldi?	Uzoqdan gumbazga o'xshash bir narsa ko'zga chalindi. Yurgan sari gumbaz kichrayardi. Borib qarasa, gumbaz degani suv soladigan oddiy to'rsiq ekan	5
60.	Cho'lda yolg'iz qolgan Alisher qaysi tomonga yurishni qanday aniqladi?	Kunchiqish tomon yorishib kelmoqda edi. Alisher otasidan Iroq viloyati kunbotish tomonda, Hirot kunchiqishda, degan gapni eshitgan edi. Aqlli bola kun yorishib kelayotgan tomonga qarab yurdi va o'zini izlab kelayotganlarni ko'rdi	5

Quyidagi so'zlarning ma'nosini izohlang

61.	ilki	qo'li	5
62.	muguz	hayvon shohi	5
63.	valad	o'g'il bola	5
64.	zulhijja	qamariya yil hisobida 29 kundan iborat o'n ikkinchi oyning arabcha nomi	5
65.	to'rsiq	teridan yasaladigan xalta	5
66.	yazna	pochcha	5
67.	yag'mo	talon-taroj, buzg'unchilik	5

MAQSUD SHAYXZODA (1908 – 1967)

1.	«Shayxzodaning jo'shqin she'riyati, shekspirona ruh bilan sug'orilgan dramalari, teran fikrlar, nozik kuza-tishlarga boy ilmiy-tanqidiy asarlari, ehtirosli publitsistikasi, yuksak did bilan amalga oshirilgan tarjimalari bu-gun ham qimmatini yo'qotgan emas. Uning ijodiy tajribasi ko'pchilik uchun ibrat maktabidir». Shayxzoda haqida-gi ushbu fikrlar muallifi...	Ozod Sha- rafiddinov	L
2.	Maqsud Shayxzoda qay-si xalqlarning farzandi?	Ikki xalqning – ozarbay-jonlar va o'zbeklarning	8
3.	Maqsud Shayxzoda qachon qayerda tavallud topgan?	1908-yilda Ozarbayjon-ning Ganja viloyati Ag-dash (Oqtosh) shahrida ziyoli oilada tug'ilgan	5, 8
4.	Maqsud Shayxzodaning otasining kasbi...	Shifokor	
5.	Maqsud Shayxzoda qayerdagi oliygohga o'qishga kirgan?	Bokudagi Oliy pedagogika institutiga	5, 8
6.	Maqsud Shayxzoda Ozarbayjondagi mehnat faoliyati...	1925-yildan boshlab Darbanddagi 1-bosqich Ozarbayjon maktabida, Bo'ynoqdagi ta'lim va tarbiya texnikumida o'qituvchi bo'lib ishladi	5, 8
7.	Maqsud Shayxzoda qachon O'zbekistonga surgun qilingan?	1927-yilda aksilinqilobiy tashkilot a'zosi sifatida qa-moqqa olinib, 1928-yilning fevralida Toshkentga sur-gun qilinadi	5, 8

8.	Shayxzodaning O'zbekistondagi mehnat faoliyati...	Shayxzoda avval turli gazeta va jurnallar tahririyatlarida muharrir, 1935 – 1938-yillarda O'zbekiston Fanlar komiteti qoshidagi Til va adabiyot institutida ilmiy xodim, 1938-yildan umrining oxirigacha Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika instituti o'zbek mumtoz adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi bo'lib ishladi	5, 8
9.	Maqsud Shayxzoda olim sifatida qaysi shoir ijodi yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borgan?	Alisher Navoiy	5
10.	Alisher Navoiyga nisbatan qanday tasviriy ifoda qo'llagan?	G'azal mulkining sultoni	5
11.	Shayxzodaning dastlabki ijod namunalari qaysi yildan e'lon qilina boshladi?	1929-yildan	5, 8
12.	1930-yilda shoirning qaysi she'riy to'plamlari nashr qilingan?	«Loyiq soqchi», «O'n she'r», «Undoshlarim», «Uchinchi kitob», «Jumhuriyat», «O'n ikki», «Yangi devon», «Saylov qo'shiqlari»	8
13.	40-yillarda Maqsud Shayxzoda qanday she'riy to'plamlar yaratdi?	«Kurash nechun» (1941), «Jang va qo'shiq» (1942), «Kapitan Gastello» (1941), «Ko'ngil deydiki»	5, 8
14.	Maqsud Shayxzodaning qanday tarixiy dramatik asarlarini bilasiz?	«Jaloliddin Manguberdi» (1944), «Mirzo Ulug'bek» (1960)	5
15.	«Jaloliddin Manguberdi» dramasida Jaloliddin siymosini qaysi aktyor sahnaga olib chiqqan?	Shukur Burxonov	

16.	Maqsud Shayxzoda urushdan keyin qanday she'riy to'plamlar yaratgan?	«O'n besh yilning daftari», «Olqishlarim», «Zamon torlari», «Shu'la», «Chorak asr devoni»	5, 8
17.	Shayxzoda liro-epik janrda qanday dostonlar yaratgan?	«O'rtoq mulk», «Tuproq va chang», «Chirog'», «O'rtoq», «Meros», «Ovchi qissasi», «Iskandar Zulqarnayn», «O'n birlar», «Jenya», «Oqsoqol», «Ahmadjonning hikmatlari», «Uchinchi o'g'il», «Nurmat otaning tushi»	8
18.	Shayxzodaning o'zbek dramaturgiyasi rivojida juda katta o'rin tutadigan pyesasi...	«Mirzo Ulug'bek» tragediyasi	5
19.	«Mirzo Ulug'bek» tragediyasida sahnada Mirzo Ulug'bek rolini qaysi aktyor mahorat bilan ijro etgan?	Shukur Burxonov	5
20.	Maqsud Shayxzoda Toshkent haqida qachon qanday doston yaratgan?	1957-yilda «Toshkentnoma» falsafiy dostoni	5, 8
21.	Maqsud Shayxzoda 1960-yili qaysi asarini yozdi?	«Mirzo Ulug'bek» tragediyasi	5
22.	O'z yurtining ozodligi va mustaqilligi uchun mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashgan Xorazm shohining jangovar jasorati tarixan aniq va haqqoniy tasvirlangan asar...	«Jaloliddin Manguberdi»	5
23.	Maqsud Shayxzoda qachon qanday ayblov bilan qamalgan?	50-yillar boshlarida «xalq dushmani» degan tuhmatlar bilan	5
24.	Maqsud Shayxzoda va-fotidan so'ng necha jildlik asarlari nashr etildi?	Olti jildlik «Asarlar»i nashr etildi	5

25.	Maqsud Shayxzoda qachon qanday orden bilan taqdirlangan?	2001-yil, «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni	5
26.	Zabardast olim Maqsud Shayxzoda qaysi ijodkorlar haqida asarlar yaratgan?	Bobur, Muqimiy, Furqat, Oybek, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Fozil shoir, Nizomiy Ganjaviy, Shota Rustaveli, A.S.Pushkin, N.A.Nekrasov, A.N.Ostrovskiy, T.G.Shevchenko, A.P.Chexov kabi namoyondalarga bag'ishlangan asarlar yozgan	8
27.	Maqsud Shayxzoda mohir tarjimon sifatida qaysi ijodkorlarning asarlarini o'zbek tiliga o'g'irgan?	Sh.Rustaveli, V.Shekspir, A.S.Pushkin, M.Y.Lermontov, Nizomiy, Fuzuliy, Mirza Fatali Oxundov, Ezop, Esxil, Gyote, Bayron, Mayakovskiy, Nozim Hikmat va b.	8
28.	Maqsud Shayxzoda qanday orden bilan taqdirlangan?	2001-yilda «Buyuk xizmatlari uchun» ordeni bilan taqdirlangan	5

«Iskandar Zulqarnayn» ertak-dostoni

29.	«Iskandar Zulqarnayn» ertak-dostonidagi Iskandar obrazining prototipi kim?	Aleksandr Makedonskiy	5
30.	Aleksandr Makedonskiy – Iskandar Zulqarnayn nomi bilan bog'liq xalq o'rtasida qanday rivoyat bor edi?	Iskandarning boshida shohi bor ekan. Uni hech kim bilmas ekan. Qaysi sartarosh sochini olsa, ertasiga gumdon qilinar ekan. Oxiri ish shunga boribdiki, mamlakatda sartarosh qolmabdi. Oxirgisini olib kelibdilar...	5

31.	Aleksandr Makedonskiyni O'rta Osiyo xalqlari qanday atashgan?	Iskandar Rumiylar	
32.	Iskandar Rumiylar haqida qaysi ijodkorlar doston yaratishgan?	Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy	
33.	«Zulqarnayn» so'zi qanday ma'noni anglatadi?	«Qo'sh shoxli»	5
34.	She'riy ertaklar yaratishda yuksak mahorat ko'rsatgan adib...	Hamid Olimjon	5
35.	She'riy ertaklar qaysi o'zbek shoirlari ijodida uchraydi?	Furqat, Abdulla Avloniy, Elbek, Quddrat Hikmat, Zafar Diyor	5
36.	Hamid Olimjonning qaysi ertak-dostonlari yosh kitobxonlar orasida juda mashhur?	30-yillarda yaratilgan «Semurg' yoki Parizod va Bunyod», «Oygul bilan Baxtiyor»	5
37.	Iskandarning boshida nimasi bor ?	Qo'sh shoxi	5
38.	Iskandarning siri, ya'ni qo'sh shoxi borligi qanday ovoza bo'lib ketdi?	Iskandarning sochini olgan va siriga guvoh bo'lib qolgan sartarosh, uning sirini chohga – tubi suvsiz va quruq quduqqa – aytadi. Qudduqdan qamish o'sib chiqadi. Qamishdan podachi nay yasaydi va chaladi. Naydan chiqqan ovoz Iskandarning shoxi borligi haqida jar soladi	
39.	Podachining nayidan qanday sado chiqadi?	«Voydod, dunyolar shohi Iskandarning bor shoxi!»	5
40.	Shoir qamishlarni kimlarga o'xshatgan?	Rum lashkarlariga	5

41.	«Iskandar Zulqarnayn» ertak-dostonida qanday g'oya ilgari suriladi?	Dunyoda hech bir yomonlik jazosiz qolmaydi, tuban ishlarni qanchalik yashirmang, u baribir bir kuni oshkor bo'ladi degan ibratli g'oya ilgari suriladi	5
42.	«Iskandar Zulqarnayn» ertak-dostonining ibratli xulosasi...	O'z haddini bilmay, nafs balosiga berilgan, zulm, zo'rlik bilan ezgulikni mahv etib, o'z maqsadiga erishmoqchi bo'lgan yovuz kishilar pirovardida xalq la'natiga uchrab, avloddan avlodlarga yomon nom bilan o'tadi, har xil xunuk laqab orttirib mazax bo'ladi, degan fikr ertak-dostonning ibratli xulosasidir	

«Mirzo Ulug'bek» tragediyasi

43.	Buyuk olim, Movarounnahr hukmdori, 56 yoshdagi qahramon...	Mirzo Ulug'bek ibn Shohrux	8
44.	Mirzo Ulug'bekning o'gli, 30 yoshda...	Abdullatif Mirzo	8
45.	Ulug'bekning shogirdi va mahrami. Astronom, 35 yoshda...	Ali Qushchi	8
46.	Mashhur shoir. Ulug'bekning do'sti, 45 yoshda...	Sakkokiy	8
47.	Zamonasining taraqqiyparvar ulamolaridan, 65 yoshda...	Shayxulislom Burhoniddin	8
48.	Sayid Obidning o'g'li. Abdullatifning mahrami, 28 yoshda...	Abbos	8
49.	Mashhur tarixchi, 35 yoshda...	Abdurazzoq Samarqandiy	8
50.	Sardor, 50 yoshda...	Bek Arslon	8
51.	Samarqand qozisi, 70 yoshda...	Mavlono Shamsiddin Muhammad Miskin	8

52.	Mahbus, 80 yoshda...	Piri Zindoni	8
53.	Piri Zindoniyni ismi...	Hasan ohangar (chilangar)	8
54.	Ulug'bekning navkari, 35 yoshda...	Berdiyori	8
55.	Dehqon, 67 yoshda...	Ota Murod	8
56.	Ulug'bekning huzuriga qaysi millat elchilari kirib kelishdi?	Chin, Hind, Misr, Farang, Rus elchilari	8
57.	Mirzo Ulug'bek elchilarga qanday murojaat qildi?	Elchibeklar	
58.	Elchilar nima sababdan tashrif buyurishgan edi?	Ulug'bekning otasi Shohrux Mirzo vafoti ta'ziyasiga	

Quyidagi parchalar qaysi xalqning elchilari tomonidan aytilgan?

59.	«...Madrasangiz, rasadingiz tillarda doston, Samarqanddan Balx orqali Dehligi qadar Borib kelgan karvonlarning suhbatlarida, Ulug'bekning madrasasin xatm etib qaytgan ... mullalarning har kalomida Donishmandlar shohin shohi Ulug'bek nomi»	Hind elchisi	
60.	«Karvonlarga shohi bilan yuklansin do'stlik, Shohi kabi muloyimlik, paxtaday soflik!»	Rus elchisi	
61.	«Turkistonning, Xurosonning donishmandlari Yozgan nodir asarlari jahonda ma'ruf. Samarqandning, Buxoroning olimlariga Ilalabad minnatdordur arab ellari»	Misr elchisi	
62.	«Mulkingizga kelib ko'rdik va ishonidikki, «Sharq vahshati» borasida hamma gap bo'hton Va ko'rdikki, Ulug'bekning zamonasida Din-u millat xusumati yo'q Turkistonda. Ko'p bilimlar o'rgangusi faranglar sizdan»	Farang elchisi	

63.	«Muzli, qorli mamlakatdan keldim bu yerga, Ammo singdi yuraginga go'yo harorat. Turkistonning matolari Maskovda tanqis, Istar edik, uzilmasin karvonlar safi...»	Rus elchisi	
64.	Kitoblardan nusxa olib ketishga ruxsat so'ragan elchi...	Misr elchisi	
65.	Mirzo Ulig'bek muhim gaplarni aytanida yoki buyruqlar berishdan avval qaysi jumlani ishlatadi?	«Amir Temur himmatidin Ulug'bek so'zum!»	8
66.	Mirzo Ulug'bek elchilarga qanday tuhfa taqdim etdi?	Bir dasta qo'lyozma kitoblar. Bular Ulug'bekning yulduzlar jadvali edi	
67.	Mirzo Ulug'bek nechta yulduzni kashf qilgan?	1018 ta	

**Ushbu misralar qaysi qahramonlar
nutqidan olingan?**

68.	«Yulduzlardan oshnangiz qancha bo'lsa ko'b – Yo'lingizda adashmoqlik xavfi shuncha kam...» Elchilarga ushbu gaplarni aytgan qahramon...	Mirzo Ulug'bek	
69.	«Shahriyorga bisyor ravshan ma'lumdir shoyad Ahli Chinning kofirligi va bedinligi?»	Qozi Miskin	
70.	«Janob qozi, chalkash ekan tasavvuringiz, G'ayri dinda bo'lganlarni bedin demoqlik, Bu qanday gap? Har xalqning bor o'zicha dini, E'tiqodi, ibodati, o'z xudovandi»	Mirzo Ulug'bek	

71.	«Samarqandda bir yo'talsam buning zarbidan Yorilardi xalifayi Bog'dodning o'ti. Bir na'ramdan kular edi shohlarning toji, Poytaxtinga oqar edi dunyoning boji...»	Amir Temur	
72.	«Men oltmish yil ot belidan tushmadim, toki, Ilalabad avlodlarim bo'lsin jahongir. Hak kun besh bor aytar edim: butun yer yuzi Torlik qilar: sig'dirolmas ikki podshohni, Ammo bugun ko'ramanki, ellik shohga ham Kenglik qilar, ortib qolar shu latta dunyo... O'g'lim, sening irodangni yeb qo'ydi kitob, Sipohiylik rasmlarin qilmayin pisand, Yulduzlarning qo'shiniga bo'lding farmondor. Osmoniy o'lkalarni olmoqchi bo'lib, Yerdagi naqd diyoringni boy berding qo'ldan...»	Amir Temur	8
73.	«Yo'q, yo'q, sulton o'lsa hamki, donishmand yashar, Olimlarga mangu hayot tarixi – bashar...»	Mirzo Ulug'bek	8
74.	«Sultonlarga adovatni ko'nglimga bitdim, Zo'ravonning illatiga hech toqatim yo'q. Baloxo'rlar nazarimda ayni qalloblar. Tekin yegan hazratlar-chi, xuddi hasharot»	Piri Zindoniy	
75.	«Kech-kunduz el g'amida bezovta yurgan – Podshohlar yo'q deysanmi? Ular tashvishi Ming toshtarosh zahmatidan og'irroq, ishon! Yo'q, bularni haromtomoq deyish nohaqlik! Saltanatki, sultoni yo'q – boshsiz bir tana»	Mirzo Ulug'bek	

76.	«Eshitganman, o'taketgan fozil ekansiz, Ammo asli shoh o'g'lisiz, shu uchun har dam Ko'zingizni qamashtirar toj yaltirog'i»	Piri Zindoniyl	
77.	«Men shohlikni ma'rifatga qildim dastyor»	Mirzo Ulug'bek	
78.	«Toj boshdagi fikrga qafas»	Piri Zindoniyl	
79.	«Men sultonlar o'rtasida bo'ldim donishmand, Donishmandlar tepasida sulton sanaldim. Ma'rifatni hukumatga qilib rahnamo, Bu o'lkaning yerida ham yulduzlar yoqdim»	Mirzo Ulug'bek	8
80.	«Istasangiz, tiz cho'kayin oyog'ingizga, Sizga buyuk qalbli inson, ulug' munajjim. Ammo Sulton Ulug'bekka, sohibi tojga, Bosh egmayman, egolmayman, yo'q egolmayman»	Piri Zindoniyl	
81.	«Bu fursatda olomonga g'alayon solib, Bizga qarshi do'zg'atganlar bizga do'st emas, Ular Temur xonadonin yovuz dushmani. Bunday ovoz zindonlardan chiqmay bo'g'ilar». Ushbu gaplarni Mirzo Ulug'bek kimga qarata aytdi?	Piri Zindoniylga	
82.	Piri Zindoniyl necha yil zindonda bandi bo'ladi?	50 yil	
83.	Piri Zindoniyl donishmandlar kengashib turib, mamlakatni boshqarsalar el obod bo'lishini kimning kitobida yozilganini aytadi?	Abu Nasr Forobiyniyl	

84.	«Istasangiz, tiz cho'kayin oyog'ingizga, Sizga buyuk qalbli inson, ulug' munajjim. Ammo Sulton Ulug'bekka, sohibi tojga, Bosh egmayman, egolmayman, yo'q egolmayman». Piri Zindoniyning yuqoridagi so'zidan Mirzo Ulug'bekka bo'lgan qanday munosabatni angladingiz?		Piri Zindoni shoh Ulug'bekni emas, olim Ulug'bekni qadrlaydi	
85.	«Haq yo'lida, xalq yo'lida bosh qo'ygan ular, Halol, rostgo'y fuqarolar ekan hammasi». Ushbu fikrlarni qaysi mashhur tarixchi kimlar haqida aytgan?		Abdurazzoq Samarqandiy, sarbadorlar haqida	8
86.	Mirzo Ulug'bek zindondan kimni ozod qiladi?		Piri Zindoniyni	8
87.	Ulug'bekni top- shirig'iga ko'ra kimlar Piri Zin- doniyning qaysi shoirlarning panohiga top- shirishi kerak?	Ali Qushchi va Abdurazzoq Samarqandiy Piri Zindoniyni Jomiy va Lutfiy panohiga topshirishi kerak		8
88.	Mirzo Ulug'bek kimni «farzandi arjumand» deb ataydi?		Ali Qushchini	8
89.	«Bobo Temur, omonating saqlayolmadik, Avlodlaring chiqib qoldi g'oyat noqobil»		Mirzo Ulug'bek	8
90.	Mirzo Ulug'bek kimga: «Aziz o'g'lim», – deb murojaat qiladi?		Ali Qushchiga	8

91.	«O'g'illardan yalchimagan benasib padar, O'z shogirdin o'g'il deya topar tasalli»	Sakkokiy	8
92.	Abdurazzoq Samarqandiy sarbadorlar haqida kimdan eshitgan?	Tarixchi Hofiz Abrudan	8
93.	Taxtni topshirgan Mirzo Ulug'bek Abdullatif va uning odamlariga qanday shart qo'ydi? 1) mamlakatda fitna-fasod darhoi tugatilishi; 2) qo'ni qo'shni o'lkalarga bosqinchilik qilib, temuriylar nasliga qarg'ish va la'nat yog'dirmaslik; 3) Mirzo Ulug'bek xizmatidagi arboblardan qasos olmaslik; 4) haramdagi ahli ayolning iffati va izzatiga g'ubor cho'ktirmaslik; 5) madrasa va rasadxonalarga zavol yetkazmaslik; 6) kutubxona va kitoblarni omon saqlash 7) «Picha taskin topay deya ketgum safarga. Shartim shulki, berilmagay bizlarga halal». «Bilib qo'ying bu qasamni buzsangiz agar, Qayda bo'lmay, men o'zimman sizga da'vogar. Tangri sizni osiy sanar el sharmanda der, Tarix sizga la'nat o'qir»		8
94.	«Sadoqatli mard sardorim, ma'yus bo'lmangiz, Ketib qolsa bu shahardan hamma yaxshilar, Kimlar yeydi xaloyiqning, elning g'amini?» Ulug'bek bu gaplarni kimga aytadi?	Bek Arslonga	8

95.	«Mayli o'tsin oqpadarga ertangi kundan Saltanat ham, iztirob ham bezovtalik ham. Ko'p afsuski Abdullatif boshga toj qo'ygach, Otin tag'in yugurtirar zulm yo'lida. Unga mendek qirq yil sulton bo'lish qayerda. Qirq hafta ham taxt tutolmas... So'zimni eslang!» Parcha kimning nutqidan olingan?	Mirzo Ulug'bekning	8
96.	Abdullatif buyrug'iga ko'ra Mirzo Ulug'bekni qayerda qurshovga olishdi?	Otamurod-ning hovlisida	8
97.	Abbos nega otasining xuni uchun Ulug'bekdan qasos oldi?	Abbosning otasi amaldor Sayid Obidga jinoyati uchun Mirzo Ulug'bek eng yengil jazo tayinlagan – shahardan surgun qilgan edi. Lekin undan jabr ko'rgan olomon Sayid Obidni terakka osib o'ldirishgan. Bu ishda Mirzo Ulug'bekning ishtiroki yo'q edi	8
98.	Ulug'bekni kim himoya qiladi?	Yigitali	8
99.	«Yo'q, bo'shashgan. emas hali Ulug'bek qo'li. Men qilichni olmaslikka qasam ichgandim, Ammo bunga sen haromi majbur etasan, Goho kerak bo'lar ekan bobo merosi», – deb Ulug'bek o'zi hamda Firuzani himoya qilayotganida kim: «Fonusni ur! Yo'qsa unga bas kelolmaymiz!» – deb sipohlarga buyuradi?	Abbos	8

100.	«Bir meroski, zamon uni mahv etolmaydi, Bir meroski, vorislari bu vatan ahli, Bir meroski, bahra topar undan yer yuzi. Esiz, esiz, vatanimga so'ng xitobimni Na birovlar eshitadi va na yozmoqqa — Bu boylovliq va yarador qo'lim qodirdir». Ulug'bek bu gaplarni qachon aytadi?		Daraxtga bog'log'liq turganida	8
101.	Ulug'bek kimga Chotqol shunqori deb xitob qiladi?		Berdiyorga	8
102.	Yigitalini o'ldirishdi. Daraxtga bog'langan Ulug'bekning ko'ksiga Abbos xanjar tiqadi. Zaharli Toshkand xanjariga kimning ismi yozilgan edi?		Abdullatifning	8
103.	Berdiyor Ulug'bekni qutqarishga bir daqiqa kechikadi. U Ulug'bekka hujum qilishganini kimdan eshitadi?	Shu qishloq yaqinidan o'tishayotganida Ota Murodning jar solganini eshitib qoladi		8
104.	«Seni tirik qochirmayman!» – deb, Abbosni kim o'ldiradi?		Berdiyor	8
105.	Zaharli xanjarni ushlab: «Ey Xudo, sen guvoh bo'lg'in, bu xanjar bilan Abdullatif kallasini olmasam agar Yuz ming la'nat bo'lsin menga!», – degan qahramon...		Berdiyor	8
106.	Ulug'bekning so'nggi so'zlari...	«Sen ham bir oz kechikibsan ko'kning fonusi! Dushman meni yengolmasdi chiqsang oldinroq.		8

		Ortiq tamom g'urbatlarda daydib yurmoqdan Shu vatanda shahid bo'lmoq oliy saodat. Xayr sizga, sho'x yulduzlar, senga g'amli oy!.. Abdurazzoq, batafsil yoz bu qissalarni! Dunyo, dunyo, bevafo san, bilaman seni. Ammo senga yomon farzand emas edim-ku! Yorug' kunda, baxt ayyomi meni yod ayla. Bitdi nafas. Yig'lamayman, siz ham yig'lamang!	
107.	Abdullatif odamlari Ulug'bekni qayerda o'ldirishadi?	Ota Murod-ning hovlisida	8

Ushbu misralar qaysi qahramonlar nutqidan olingan?

108.	«Ey-voh! Endi yetim qoldi aql-u ma'rifat. Lak-lak ablah Abboslardek harom qotadi. Ammo, hayhot, tirilmaydi bitta Ulug'bek!»	Abdurazzoq Samarqandiy	
109.	«Koinotning chamaniga ochgan yo'lingiz Yo'lichilarsiz qolmas, biling, aziz muallim! Orta borar yulduz soni jadvalingizda, Qoningizdan o'sib chiqar shodlik gullari»	Ali Qushchi	8

110.	«Men ellik yil zindonlarda chiritdim tanim, Ne-ne balo, uqubatlar ko'rmadi ko'zim. Ammo tangri shohiddirki, biron lahza ham Ko'zlarimda ko'zyoshlari yalt etgan emas. Yoasaf, hech kimsadan uyalmay bugun Men yig'layman, yurak qoni bilan yig'layman! Yetim qolgan el dardiga kuyib yig'layman! Bosh qo'yaman tuprog'iga ulug' insonning!»	Piri Zindoniy	8
111.	Mirzo Ulug'bekning asli ismi...	Muhammad Tarag'ay	8
112.	Alisher Navoiy «Majolis un- nafois» asarining yettinchi va sakkizinchi majlislarini kimlarga bag'ishlagan?	Yettinchi majlisini temuriylarga mansub shoirarga, sakkizinchi majlisini temuriyzoda – Husayn boyqaroga bag'ishlagan	8
113.	Mirzo Ulug'bek qaysi asarida Ali Qushchini «Farzandi arjumand» – aziz farzandim deb ataydi?	«Ziji Ko'ragoniy»da	8
114.	«Mirzo Ulug'bek» tragediyasi sahnalashtirilgan, bu asar asosida qaysi kinofilm suratga olingan?	«Ulug'bek yulduzi» (rejissyor Latif Fayziyev)	8

115.	Maqsud Shayxzoda «Mirzo Ulug'bek» tragediyasi qanday yo'nalishdagi voqealarni qalamga olgan?	Ikki yo'nalishdagi, ya'ni saroy ixtiloflari va buyuk olim olib borgan ilmiy izlanishlarni	8
116.	«Ma'rifatni hukumatga rahnamo qilgan» hukmdor...	Mirzo Ulug'bek	8
117.	Ulug'bekning haqiqiy insonparvar sifatidagi qiyofasi asarning qaysi o'rnida yorqin ifodalangan?	Uning taxtdan iste'fo berish sahnasida	8
118.	Fojia qanday yakunlanadi?	Mirzo Ulug'bekning o'limi bilan	8
119.	Vatanimiz tarixining eng hasratli davridan hikoya qiluvchi mukammal sahna asar...	«Mirzo Ulug'bek»	8
120.	«Mirzo Ulug'bek» tragediyasi asosida qaysi rejissor tomonidan qanday kinofilm suratga olingan?	Latif Fayziyev tomonidan «Ulug'bek yulduzi» kinofilmi	8
121.	«Yulduzlarda ekan nigohim, bilmadim ne edi gunohim... Men dardimni kimga aytaman? Qancha g'amga botmagan edim, Qancha og'u yutmagan edim... O'z bolamdan kutmagan edim... men dardimni kimga aytaman». Ushbu parcha qaysi ijodkor she'ridan olingan?	Muhammad Yusuf	8

HAMID OLIMJON (1909 – 1944)

1.	«Men bir qora kunda tug'ildim, Tug'ildim-u shu on bo'g'ildim» satrlari qaysi ijodkor qalamiga mansub?	Hamid Olimjon	6
2.	Hamid Olimjon qachon qayerda tavallud topgan?	1909-yil 12-dekabrda Jizzax shahrida tug'ilgan	5, 6
3.	Hamid Olimjonning onasining ismi...	Komila aya	5
4.	Otadan erta, 4 yoshida yetim qolgan Hamid Olimjon kimning qo'lida tarbiyalandi?	Buvasi Azimbobo tarbiyasida ulg'aydi	6
5.	«Men bir qora kunda tug'ildim. Tug'ildim-u shu on bo'g'ildim» satrlarining tug'ilishiga sabab bo'lgan voqea?	1916-yilgi Jizzax qo'zg'olonining shafqatsiz ravishda bostirilishidir (Jazo otryadi tomonidan jazirama dashtga haydalgan jizzaxliklar orasida yetti yashar Abdulhamid ham bor edi)	10
6.	Kuylagan dostonlari va xalq qo'shiqlari bilan Hamid Olimjonga ta'sir o'tkazgan baxshi...	Fozil Yo'ldosh o'g'li	6

7.	«Gezi-gezi bilan Jizzaxga borib, ularga qo'nardim, bir hafta, ikki hafta turib, qadrdonlarimga qo'shiq aytib kelardim. Ular bilan dardlashib, o'zimning ham ko'nglimni yozib qaytardim». Ushbu parcha qaysi baxshining xotiralaridan olingan?	Fozil Yo'ldosh o'g'li (Bu mashhur baxshi Hamid Olimjonning bobosi Mulla Azimning do'sti bo'lgan)	K
8.	Hamid Olimjon qaysi bilim dargohlarida tahsil olgan?	1918-yilda Jizzaxdagi Narimonov nomli boshlang'ich maktabga o'qishga kiradi. So'ngra Samarqanddagi pedagogika bilim yurtida (1923 – 1926), O'zbekiston Oliy pedagogika institutida (1926 – 1931) tahsil oldi	5, 10
9.	Hamid Olimjonning mehnat faoliyati haqida ma'lumot bering	«Yosh leninchi» (hozirgi «Turkiston») gazetasida, «Qurilish», va «O'zbekiston sho'ro adabiyoti» jurnallarida, 1932 – 1937-yillarda Madaniy qurilish ilmiy-tekshirish institutida, 1938-yilning boshlarida O'quv-pedagogika nashriyotida, Navoiy komitetida (mas'ul kotib), 1939-yildan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi boshqaruvining kotibi vazifalarida ishladi	
10.	Abdulhamid 1931-yilda Pedakademiyaning tugatib, Toshkentga keladi va qaysi gazetada ishlay boshlaydi?	Yoshlar gazetasida (hozirgi «Turkiston»da)	6

11.	Hamid Olimjon qaysi yillarda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida ishlaydi?	1939-yildan Hamid Olimjon Yozuvchilar uyushmasiga mas'ul kotib etib tayinlanadi va umrining oxirigacha respublika yozuvchilariga rahbarlik qiladi	6, 10
12.	Shoir Mirtemir Hamid Olimjonni qanday ta'riflagan?	«Hamid Olimjon tug'ma va nodir talant edi. Uning qonida, o'zligida, ko'z qorachig'ida, to'qson ikki tomirida tug'ma bir zukkolik, shoirona bir sajiya, bilgichlik, burrolik, nurbaxshlik, yorqin qalb, odob ayon, peshanasida va yirik ko'zlarida ulug'lik ochiq-oydin edi. Uning bilmagani oz, o'qimagani kam edi. Hammadan, har narsadan xabardor, qisqaroq aytganda, chin ma'nosi bilan o'qimishli qalamkash edi»	K
13.	Hamid Olimjon qachon vafot etdi?	1944-yil 3-iyulda avtomobil halokati natijasida	5
14.	Hamid Olimjon necha yil umr ko'rdi?	34 yil	5
15.	Hamid Olimjon asarlari necha jildni tashkil etadi?	10 jildni (she'r, hikoya, ocherk, drama, publitsistik va adabiy-tanqidiy maqolalar hamda tarjimalar)	5, 10
16.	Hamid Olimjon necha yoshida akademik unvonini oladi?	33 yoshida (1943-yilda)	5
17.	Hamid Olimjonning birinchi she'ri...	«Kimdir» («Zarafshon» gazetasida, 1926-yil)	

18.	Hamid Olimjonning birinchi she'riy to'plami qanday nomlanadi va qachon nashr qilingan?	«Ko'klam», 1929-yilda, talabalik davridayoq	5, 6, 10
19.	Hamid Olimjonning tarixiy va zamonaviy mavzudagi she'riy dramalari...	«Muqanna» (tarixiy), «Jinoyat» (zamonaviy)	5
20.	Hamid Olimjonning hikoyalar to'plami...	«Tong shabadasi» (1930)	6, 10
21.	Hamid Olimjonning she'riy kitoblari...	«Olov sochlar» (1931), «O'lim yovga», «Poyga» (1932), «Daryo kechasi» (1936), «She'rlar» (1937), «O'lka», «Oygul bilan Baxtiyor», (1939) «Baxt» (1940)	6, 10
22.	«Hamid Olimjon nodir iste'dod egasi. Qonida, ko'z qorachig'ida, to'qson ikki tomirida tug'ma zukkolik, shoirona sajiya, bilgichlik ayon...», deb ta'riflagan shaxs...	Mirtemir	K
23.	Hamid Olimjonning talabalik yillarida chop etilgan to'plamlari...	«Ko'klam» she'riy to'plami, «Tong shabadasi» hikoyalar to'plami	10
24.	Hamid Olimjon bolaligi-da onasidan qaysi ertaklarni tinglagan?	«Oygul bilan Baxtiyor», «Tohir va Zuhra», «Yoriltosh» kabi	10
25.	Hamid Olimjonning darsliklarda nomi keltirilgan she'rlari...	«O'rik gullaganda», «Baxtlar vodiysi», «Bahorni sog'indim», «Daryo kechasi», «Ishim bordir o'sha ohuda», «G'uncha yanglig' burkanib», «G'azal», «O'zbekiston», «Ofeliyaning o'limi», «Bolalik»	K, L

26.	Hamid Olimjon urush yillarida qaysi she'rlarini bitgan?	«Ofeliyaning o'limi», «Holbuki tun...», «Ishim bordir o'sha ohuda», «Har yurakning bir bahori bor», «Janub kechasida», «Xayoling-la o'tadi tunlar...», «Muzimta daryosi», «Daryo tiniq, osmon beg'ubor», «Dunyo go'zal ko'rinur senga», «Eng gullagan yoshlik chog'imda»...	10
27.	«Semurg'» asarining janri...	Ertak-doston	
28.	Hamid Olimjonning qaysi asariga onasi aytib bergan ertak asos bo'lgan?	«Oygul bilan Baxtiyor»	5
29.	Hamid Olimjonning «Oygul bilan Baxtiyor» dostonini yaratish jarayonida orttirgan tajribalari uning keyinchalik bitgan qaysi asarlariga qo'l keldi?	«Zaynab va Omon», «Semurg'», «Roksananing ko'z yoshlari» singari doston va balladalarida	5
30.	Hamid Olimjonning doston va ertak-dostonlari...	«Ikki qizning hikoyasi», «Oygul bilan Baxtiyor», «Semurg' yoki Parizod va Bunyod», «Zaynab va Omon»	6
31.	«Oygul bilan Baxtiyor» ertak-dostoni qachon yozilgan?	1937-yilda	5
32.	Hamid Olimjon qaysi mashhur dostonni Fozil Yo'ldosh o'g'lidan yozib olib, izohlar bilan nashr ettirgan?	«Alpomish» dostonini	6
33.	Hamid Olimjon adabiyotshunoslik sohasida qanday ishlar qilgan?	Alisher Navoiy hayoti va ijodi, mumtoz adabiyotimiz vakillari hamda o'ziga zamondosh adiblar ijodi, adabiyotshunoslik	6

		masalalariga doir o'nlab maqolalar e'lon qilgan	
34.	Hamid Olimjonning qaysi she'rida barcha fasllar bir vaqtning o'zida namoyon bo'ladi?	«Chimyon esdaliklari» she'rida	10

«O'zbekiston» she'ri haqida

35.	«O'zbekiston» she'ri qachon yozilgan?	1939-yilda	
36.	«O'zbekiston» she'rining mavzusi...	Vatan	

«O'zbekiston» she'rida uchraydigan quyidagi timsollar qaysi tushunchaga nisbatan o'xshatilmoqda?

37.	Yosh kelin	O'zbekiston	
38.	Gilam	Ko'klam	

«O'rik gullaganda» she'ri haqida

39.	Quyidagi misralarda qanday badiiy san'at qo'llangan? «Yuzlarimni silab, siypalab, Baxting bor deb esadi yellar. Etgan kabi go'yo bir talab Baxting bor deb qushlar chiyillar»	Qiyosiy tasvir va jonlantirish	10
40.	O'rik gullaganda she'rining kulmi- natsiyasi va yechi- midek taassurot uyg'otadigan, unda ziddiyatli hayot va ikki xil vaziyat kuzatiladigan mis- ralarni aniqlang	«Mana senga olam-olam gul, Etagingga siqqanicha ol. Bunda tole har narsadan mo'l, To o'lguncha shu o'lkada qol. Umrda hech gul ko'rmay yig'lab O'tganlarning haqqi ham senda. Har bahorni yig'lab qarshilab Ketganlarning haqqi ham senda...»	10

Quyidagi misralarni davom ettiring

41.	Derazamning oldida bir tup...	O'rik oppoq bo'lib gulladi...	10
42.	Novdalarni bezab g'unchalar...	Tongda aytdi hayot otini...	10
43.	Va shabboda qurg'ur ilk sahar...	Olib ketdi gulning totini...	10
44.	Har bahorda shu bo'lar takror...	Har bahor ham shunday o'tadi...	10
45.	Qancha tirishsam ham u beor...	Yellar meni aldab ketadi...	10
46.	Mayli, deyman va qilmayman g'ash...	Xayolimni gulga o'rayman...	10
47.	Har bahorga chiqqanda yakkash...	Baxtim bormi deya so'rayman	10
48.	Yuzlarimni silab, siypalab...	Baxting bor deb esadi yellar...	10
49.	Etgan kabi go'yo bir talab...	Baxting bor deb qushlar chiyillar...	10
50.	Hamma narsa meni qarshilar...	Har bir kurtak menga so'ylar roz...	10
51.	Men yurganda bog'larga to'lar...	Faqat baxtni maqtagan ovoz...	10

«Chimyon esdaliklari» she'ri haqida

52.	She'rda shoir ko'llarni nimaga o'xshatadi?	Toshoynaga	10
53.	Baland va viqorli tog'ga chiqayotgan lirik qahramon o'zini nimaga o'xshatadi?	O'rmalayotgan chumoliga	10
54.	Tog'dagi eng asl gullar nimalarga o'xshatiladi?	Baxmal gilam, alvon poyandoz	

**«G'azal» baytidagi tugallanmay qolgan
misralarni davom ettiring**

55.	Na bo'lg'ay bir nafas men ham...	Yanog'ing uzra xol bo'lsam...	10
56.	Labing yaprog'iga tomgan...	Ki go'yo qatra bol bo'lsam	10
57.	She'r qahramoni – oshiqning orzusi...	Bol, bulbul, shamol bo'lishni orzu qiladi, o'z ma'shuqasiga yetishmoqni, uning e'tibori va e'tirofiga erishmoqni istaydi	10
58.	G'azal aruzning qaysi bahrída yozilgan?	Hazaji musammani solim vaznida: V --- V --- V --- V --- Mafoiylun mafoiylun mafoiylun mafoiylun	10
59.	Na bo'lg'ay bir nafas men ham yanog'ing uzra xol bo'lsam, Labing yaprog'idan tomgan ki go'yo qatra bol bo'lsam. Ushbu baytning rukni va bahrini aniqlang. Qisqa va cho'ziq hijolarga ajrating	Na bo'lg'ay bir nafas men ham V --- V --- yanog'ing uz ra xol bo'lsam, V --- V --- Labing yapro g'idan tomgan V --- V --- ki go'yo qat ra bol bo'lsam V --- V ---	10

**Quyidagi misralar Hamid Olimjonning
qaysi she'rlaridan olingan?**

60.	Na bo'lg'ay bir nafas men ham yanog'ing uzra xol bo'lsam, Labing yaprog'idin tomgan-ki, go'yo qatra bol bo'lsam	«G'azal»	10
-----	--	----------	----

61.	Qancha ma'sum bo'lsang, qancha vafodor, «Qorday oq bo'lsang-u muz qadar toza», Hech zamon kor etmas, shum falak badkor, O'qilur sevgingga qora janoza	«Ofeliyaning o'limi»	
62.	Umrda hech gul ko'rmay yig'lab, O'tganlarning haqqi ham senda, Har bahorni yig'lab qarshilab Ketganlarning haqqi ham senda... »	«O'rik gullaganda»	
63.	Nega kerak edi, shu chiroy, shu o't, Shu yoniq yulduzni ko'zga yashirmoq? Nega lablaringdan husn oldi yoqut, Nega siynang bo'ldi qor tog'iday oq?	«Ofeliyaning o'limi»	
64.	Yuzlarimni silab, siypalab, Baxting bor deb esadi yellar, Etgan kabi go'yo bir talab, Baxting bor deb qushlar chiyillar	«O'rik gullaganda»	
65.	Orzung bor kuylashga, lekin qalbingdan Tarqalar bir ma'yus va g'amgin sazo, Qo'yningda bir quchoq oq va nafis gul, Lekin, ruhing to'la motam va aza	«Ofeliyaning o'limi»	

«Oygul bilan Baxtiyor» nomli ertak-dostoni

66.	«Oygul bilan Baxtiyor» nomli ertak-dostoni qachon yozilgan?	1937-yil	5
67.	«Oygul bilan Baxtiyor» ertak-dostoni qanday boshlanadi?	Shoirning bolalik davri esdaliklari bilan boshlanadi: «Bolalik kunlarimda, Uyqusiz tunlarimda...»	5

68.	«Oygul bilan Baxtiyor» nomli ertak-dostoni qahramonlari...	Oygul, Baxtiyor, Darxon, Tarlon, xonlar, baliqchilar	5
69.	Jambildagi zolim xonga qarshi qo'zg'olonga kim boshchilik qilgan?	Keksa qul Darxon va uning mardona qizi Oygul	5
70.	Qo'zg'olon nima sababdan bostirildi?	Kuchlar teng bo'lmagani tufayli	5
71.	Darxonning taqdiri qanday yakunlandi?	Qizining ko'z o'ngida zolim xon tomonidan qatl ettirildi	5
72.	Oygulni zindondan kim qutqaradi?	Tarlon ismli kekxa qul qizni sandiqqa solib, daryoga oqizib yuboradi	5
73.	«Oygul bilan Baxtiyor» asaridagi qaysi voqea «Tohir va Zuhra» ertagini yodga soladi?	Oygulning sandiqda oqishi (Tohir Amudaryoda sandiqda oqib ketadi)	5
74.	Oqib borayotgan sandiqni kim ko'rib qoladi?	Jurjon degan yurtida o'tinchi kambag'al chol	5
75.	Sandiqni olib kelgan cholning taqdiri...	Chol o'rog'i yordamida sandiqning bir chetini ochdi, uning ichidan odam tovushi kelayotganidan cho'chib ketgan chol odamlar orasida ochay deb, sandiqni bozorga olib boradi va boshi baloga qoladi. Odamlar uni o'g'ri deb gumon qilib, podshoh saroyiga olib kelishadi. Podshoh surishtirmay, cholning boshini tanidan judo qildi	5
76.	«Oy deganda yuzi bor, Kun deganda ko'zi bor... Qaldirg'och qoshlaridan, To'nib qarashlaridan Hayot sochilar edi, Gullar ochilar edi». Parchada qaysi qahramon tasvirlangan?	Oygul	5

77.	Jurjon xoni bunchalik barno qizni aslo ko'rmagan edi. U Oygulga turmushga chiqishni taklif qildi. Oygul ichidan rozi bo'lmasa-da, bir hiyla ishlatib qochishni o'yladi va xondan necha kunga muhlat so'radi?	40 kunga	5
78.	Jurjon xoni necha kunga muhlat berdi?	Bir kunga	5
79.	Oygulni nima uchun Jayhun baliq yutib yubordi?	Oygulni xotin qilmoqchi bo'lgan zolim Jurjon xoni qizning xizmatiga 40 kaniz beradi. Oygul cho'milish bahonasida daryoga boradi, ko'zini chirt yumib o'zini suvga otadi. Bahaybat Jayhun baliq Oygulni bir hamla bilan yutib yuboradi	5
80.	Podachi yigit Baxtiyor qayerlik?	Susambillik	5
81.	Asarda Baxtiyor qaysi pahlavonga o'xshatilgan?	Sharqning buyuk afsonaviy qahramoni Rustamga	5
82.	Baxtiyor baliqchilardan nima so'radi?	Jinday non	5
83.	Baliqchilar Baxtiyorga nima berishdi?	Ulkan Jayhun baliqni	5
84.	Ulkan baliqni Baxtiyor qanday qilib uyiga olib keldi?	Ikki ho'kizga ortib	5
85.	Baliqni qanday qilib qornini yorishdi?	«Otasi pichoq soldi, O'g'li oybolta soldi»	5

Quyidagi dialogdagi parchalar qaysi qahramonlar nutqidan olingan?

86.	«Ota qabul qilsangiz, O'g'lingizga tegayin, Siz har narsa desangiz, Men bo'ynimni egayin»	Oygul	5
-----	---	-------	---

87.	«Qizim, bizda hech pul yo'q, Mol-u dunyo butkul yo'q. Qandayin to'y qilamiz?»	Baxtiyorning otasi	5
88.	«Men dunyo so'ramayman, Boy odamga bormayman. Siz xohlasangiz agar, Boshingizdan to'kay zar»	Oygul	5
89.	Oygul Baxtiyorning otasiga bergan ikki katta halqalik gavharni qayerdan olgan edi?	Baliqning qornida yotganida topib olgan edi	5
90.	Chol gavharlarni qanchaga sotdi?	Birini bir sandiq oltinga, ikkinchisini ikki sandiq oltinga	5
91.	Oygul qayerni jannatmisol yurtga aylantirdi?	Susambilni	5
92.	Oygul katta qo'shin bilan Jambil shahriga boradi va qanday o'zgarishlarni amalga oshiradi?	Qonxo'r xonni taxtdan qulatib, Jambilga Tarton otani rahbar etib tayinlaydi	5
93.	Soqchilar zolim Jambil xonini qayerda ushladilar?	Og'ilxonada (molxonada): «Soqchilar zolim xonni, Bu ajoyib hayvonni Og'ilda ushladilar, O'lguday mushtladilar»	5
94.	Oygul o'z xatti-harakatlari bilan qaysi o'zbek qahramoniga o'xshaydi?	To'marisga	5
95.	Asarda ozodlik uchun eng ko'p harakat qilgan qahramon...	Oygul	5
96.	Oygul qaysi yurtda o'z baxtini topadi?	Susambilda	5

97.	«Oygul bilan Baxtiyor» ertak-dostoni necha bo'g'inda yozilgan?	7 bo'g'inda	5
98.	«Qizning oldida bu xirs Ko'rsatib yovvoyi hirs». Parchada qaysi xon tasvirlangan?	Jambil xoni	5
99.	«Qizning oldida bu xirs Ko'rsatib yovvoyi hirs», – misralaridagi «Oygul bilan Baxtiyor» ertak-dostonida «xirs» va «hirs» so'zlari qanday ma'noni anglatadi?	Xirs – fors-tojik tilida ayiq, hirs – insonning qo'pol nafi	5
100.	Quyidagi misralarda qaysi yurt shohi tasvirlangan? Soqchilar zolim xonni, Bu ajoyib hayvonni Og'ilda ushladilar, O'lguday mushtladilar»	Jambil yurti shohi	5

«Muqanna» tarixiy dostoni

101.	«Muqanna» necha pardali tarixiy drama?	4 parda, 8 ko'rinishli tarixiy drama	L
------	--	--------------------------------------	---

Quyidagi qahramonlarga izoh bering

102.	Hoshim Hakim o'g'li...	Muqanna	L
103.	Fero'z	Qul xo'jasi	L
104.	Fero'zning qullari...	Otash, Gulobod, Guloyin	L
105.	Gulobod...	Otashning xotini	L
106.	Guloyin...	Otashning qizi	L
107.	Zarafshonlik dehqonlar...	Girdak, Xishriy, Bog'iy, Hakim	L
108.	Kulartakin...	Harbiy	L

109.	Sayidbattol...	Arab qo'shini qo'mondoni	L
110.	Jaloyir...	Arab ruhoniysi	L
111.	Ibn Muoz...	Arab qo'shini qo'mondoni	L
112.	Zayd...	Elchi	L
113.	«Muqanna» so'zining ma'nosi...	«Niqobli kishi»	L
114.	Asardagi voqealar qachon qayerda bo'lib o'tadi?	VIII asrning ikkinchi yarmida Movarounnahrda	L
115.	Asardagi tarixiy obrazlar...	Muqanna, Girdak, Xishriy, Bog'iy, Hakim, Kulartakin	L
116.	Asardagi to'qima obrazlar...	Otash, Gulobod, Guloyin	L
117.	Tabiatni, bahorni sevadigan, ko'katlarda soatlarcha yotadigan qiz...	Guloyin	L
118.	Xurosondan kelgan chopar arablar tomonidan qaysi shaharni yer bilan yakson qilinishi haqida xabarni keltiradi?	Paykandni	L
119.	Paykandni avval kim vayron qilgan edi?	Qutoyba	L

**Quyidagi fikrlar qaysi qahramonlar
nutqidan olingan?**

120.	«Xudo ham men, mening o'zim payg'ambar»	Muqanna	L
121.	«Ozodlikka topinardim yolg'iz man»	Guloyin	L
122.	«Isyon qildim, Muqannaga topindim»	Girdak	L

123.	«Yangi chiqqan bir nayrangboz payg'ambar. Shundaymi? Yo'q! Sehrgarmas, donishmand! Arab aytgan payg'ambardan ham baland. U, odam u. Odamlarga rahnamo, Boshin silar qayda bo'lsa benavo, Faqirparvar yo'lboshchi u. Va, ammo, Dushman bo'lsa ko'rinmasin ko'ziga, Uni ko'rgan dushman kelmas o'ziga»	Girdakning Muqanna haqidagi gaplari	L
124.	«Jaholatga ketmay desang bekafan, Sen qur'onga topinmoqqa majbursan»	Jaloyirning Otashga aytgan gaplari	L
125.	Arab bosqinchilariga qarshi kim bosh ko'targan?	Muqanna	L
126.	Muqanna nima sababdan o'zini payg'ambar deb e'lon qilgan?	O'z atrofiga xalq ommasini to'plash va ularning muhabbatlarini qozonish niyatida	L
127.	Marvlik, niqobdor, afsonachi, sehrgar kishi...	Muqanna	L
128.	Otash, Gulobod, Guloyinlar nimaga topinishadi?	Otashga (olovga), ular musulmon emas	L
129.	Arablar musulmon dinini qabul qilganlarga qanday himmat ko'rsatishdi?	Ular masjid qurishdi va juma kunlari namozgohga kelgan odamlarga pul tarqatishdi	L
130.	Muqannani ko'rish uchun odam qanday kiyinishi kerak edi?	Oq kiyim kiyishi kerak edi	L

131.	Jaloyir: «Zarafshonda yolg'iz kofir sen qolding», – deb kimni nazarda tutmoqda?	Otashni	L
132.	Otash, Gulobod, Guloyinni kimlar sudrab ketishdi?	Jaloyir va Battol	L
133.	Gulobod qaysi ishdan norozi?	Bosqinchilarga qulluq qilib, Feruzning qurganidan norozi	L
134.	Otash va Gulobodning qizi Guloyin qaysi dinga xayrixoh?	Otashparastlikka ham, bosqinchilar olib kelgan musulmon diniga ham loqayd	L
135.	Muqannaning sevgilisi...	Guloyin	L
136.	Guloyinning tez-tez takrorlab turadigan gapi...	«Oq kiyinar uni ko'rmoq bo'lganlar»	L
137.	Guloyin qanday halok bo'ladi?	Xoin qilichidan	L
138.	Dramaning 6-ko'rinishida qanday voqealar aks etgan?	Som tog'idagi qal'a maydonidagi voqealar aks etgan	L

MIRTEMIR (1910 – 1978)

1.	Qaysi shoir tarjimayi holida «Men tug'ilgan qishloqning kunbotarida qadim Turkiston shahri, janubida O'tror, Boybalk xarobalari va Yassi, Suyri qal'alaridan qolgan kultepalar, undan nari Sirdaryo...» – deya yozadi?	Shoir Mirtemir	7
2.	Adabiyotshunoslar ustoz Mirtemirga qanday ta'rif berishadi?	«O'zbek she'riyatining bobodehqoni»	
3.	Mirtemir Tursunov qachon qayerda tavallud topdi?	Mirtemir 1910-yil 10-mayda Qoratog' etaklarida – Turkiston shahrining Iqon qishlog'ida tug'ilgan	5, 7
4.	Shoirning otasi...	Tursunmat Umarbek (adabiyotga ixlosmand edi)	7
5.	Mirtemirning otasining kasbi...	Dehqon, chorvador	7
6.	Mirtemirning ona tomondan bobosining kasbi...	Mulla, maktabdor	7

Quyidagi ta'riflar qaysi shaxslar haqida?

7.	Uzun bo'yli, polvon jussali, qizil yuzli odam...	Shoirning ota tomondan bobosi	7
8.	O'rta bo'yli, charaqlagan qora ko'zli, qora va chechan odam...	Shoirning ona tomondan bobosi	7
9.	Mirtemir necha yoshida amakisiga qo'shilib Toshkentga qochib keladi?	11 yoshida	7

10.	Mirtemir Tursunov qaysi bilim dargohlarida ta'lim oladi?	Bobosi qo'lida, eski maktabda (No'g'ay domla maktabida), Toshkentdagi «Almai» nomli bolalar ishmaktabida (1921-1923), O'zbek Erilar bilim yurtida (1925-1929), Samarqand Pedagogika akademiyasida tahsil oladi	5
11.	Mirtemir Beshyog'ochdagi ishmaktabda necha yil o'qiydi?	Ikki yil	7
12.	«Ishmaktabda ham bilim yurtida ham o'zimiz ekar, o'zimiz yig'ar edik, o'zimiz tukar, o'zimiz kiyar edik. Deyarli hamma hunar o'rgatilar edi. Og'ir yillar edi; to 1924 – 25-yillargacha xo'ragimiz har kuni ikki yo uch marta bir burdadan qora non va tushlik bir cho'mich bo'tqa edi. Ishmaktabning bog'i Chilonzorda, bilim yurtining bog'i Ko'kterakda edi. Yoz bo'yi hamma bog'da ishlardi va rangga qon, bo'yga jir bitib qaytardik. Bilim yurtida o'qishlar og'ir, o'qituvchilar talabchan bo'lib, kechasi allamahalgacha sovuq bo'lmalarda dars tayyorlardik». Bu ma'lumotlar kimning tarjimai holidan olingan?	Mirtemirning	7
13.	1929-yilda Mirtemir yo'llanma bilan qaysi shaharga o'qishga keladi?	O'sha vaqtda poytaxt bo'lgan Samarqand shahriga	7
14.	Mirtemir Tursunov Samarqandda Pedakademiyada (hozirgi SamDUda) o'qib yurgan paytlarida qayerda ishlaydi?	O'zbekiston Markaziy ijroiya qo'mitasining raisi Yo'ldosh Oxunboboyevga shaxsiy kotib bo'lib ishlaydi	7

15.	Mirtemir Samarqandda qaysi shoir bilan do'stlashadi?	Hamid Olimjon bilan	7
16.	Mirtemir qachon nima sababdan qamaladi va qachon ozod etiladi?	Mirtemir 1932-yilda tuhmat bilan qamaladi va 1934-yilda Moskvadagi Dmitrov lageriga yuboriladi. U yerda adib Moskva-Volga – shimoldagi Belomorkanal qurilishida ishlaydi. 1935-yilda ozod etiladi	7
17.	Mirtemirning ish faoliyati haqida gapiring	Maktablarda muallimlik qiladi, nashriyotlarda, Yozuvchilar uyushmasida ishlaydi, institutlarda adabiyotdan dars beradi	5
18.	Mirtemir necha yoshida vafot etadi?	68 yoshida (1978-yil 24-yanvarda)	5
19.	Mustaqillik yillarida Mirtemir qanday orden bilan taqdirlangan?	«Buyuk xizmatlari uchun» ordeni	5
20.	1920-yillardayoq shoir qanday she'rlari bilan mashhur bo'ladi?	Sochmalari (nasriy she'rlar – mansuralar)	
21.	Mirtemir birinchi she'rini qachon necha yoshida yozadi? She'r qanday nomlanadi?	Birinchi she'ri «Tanburim ovozi» 1926-yil, 16 yoshida e'lon qiladi	5
22.	Mirtemirning ilk she'riy to'plami qachon qanday nom bilan nashr etilgan?	Ilk she'riy to'plami 1928-yilda «Shu'lalar qo'ynida» nomi bilan nashr etiladi	5

23.	Mirtemirning she'riy va dostonlar to'plamlari...	«Zafar», «Qaynashlar», «Tong», «Bong», «Poytaxt», «O'ch», «Surat», «Qoraqalpoq daftari», «Tingla, hayot!», «Izlaganim», «Tog'day tayanchim», «Yodgorlik»	5
24.	Mirtemir qaysi she'riy to'plami bilanoq o'zining kashfiyotchi ijodkor ekanini ko'rsatgan?	«Shu'lalar qo'ynida» she'riy to'plami bilan. Unda hozirgacha o'zbek adabiyotida yaxshi ma'lum bo'lmagan sochma (nasriy) she'r asosiy o'rin tutgan	L
25.	Adibni mashhur qilgan kitoblaridan biri...	«Qoraqalpoq daftari»	L
26.	Mirtemir ijodida alohida o'rin tutgan asari...	«Surat» dostoni	L
27.	Takrorlanmas poetik jarangga ega bo'lgan asarlariga misollar keltiring	«Onaginam», «Norbuvi», «Toshbu», «Pattining hasratlari»	L
28.	Qo'shiq sifatida hozirgacha tillardan tushmaydigan she'rlariga misollar keltiring	«Bir go'zal», «Bog' ko'cha», «Ustina», «Yali-yali», «O'ynasin», «Qaro ko'zli»	L
29.	Mirtemir qaysi yillarda ko'p vaqtini tarjimalarga bag'ishlaydi?	O'ttizinchi yillarda	5
30.	Mirtemir jahon adabiyoti namoyondalaridan kimlarning asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan?	A.S.Pushkin, M.Y.Lermontov, N.A.Nekrasov, P.Neruda, T.G.Shevchenko, Homer, Sh.Rustaveli, H.Heyne, R.Tagor, Maxtumquli, Abay, Berdaq, S.Vurg'un, N.Hikmatlarning she'riy asarlari, «Manas» qirg'iz xalq eposi, «Qirg qiz» qoraqalpoq xalq dostonlarini tarjima qilgan	L, 5

31.	Mirtemir umrining oxirida qanday nomdagi she'riy to'plamini tayyorladi?	«Yodgorlik»	5
32.	Keyinchalik shoirning necha jildlik «Asarlar»i nashr etildi?	To'rt jildlik	5
33.	Qaysi she'rning lirik qahramoni tabiatida pokizalik, sadoqat, mehnatsevarlik, insoniy g'urur tuyg'ulari mujassam?	«Toshbu»	7
34.	Mirtemirning yosh qalamkashlarga atab yozgan she'ri...	«Kipriklarim» (1960)	L
35.	«Bu men tug'ilgan tuproq» she'rida qaysi zolimlardan xalqimiz jabr-zulm ko'rganligi tasvirlanadi?	Kayxusrav, Chingiz, oq podsholardan	7
36.	«Botguvchi», «sizlatguvchi», «chekkuvchi», «tekkuvchi», «g'ajiguvchi», «achiguvchi» sifatlashlari qaysi she'rda qo'llangan?	«Onagi-nam» she'rida	7
37.	Shoirning o'zbek ayoli sadoqati va g'ururiga faxriya sifatida bitilgan she'ri...	«Toshbu»	7

Quyidagi she'riy parchalardagi ko'p nuqta o'rniga tushirilgan so'zlarni qo'ying

38.	«Ko'l-u tog'lik, Bog'u rog'lik ...»	O'zbek elim	5
39.	«Momo yurti. Bobo yurti ...»	Chambilbelim	5
40.	«Shavkatim, faxrim mening, Dengiz-u nahrim mening, Yuragim, bag'rim mening – Paxtakor...»	Respublikam	5

41.	«Seni sal xo'rlagan sira insonmas, Ko'zlaringda g'urur va baxtdan yosh bu. Sensiz O'zbekiston – O'zbekistonmas, Sensiz keng jahon ham sira jahonmas...»	Toshbu	7
42.	«Majnuntol tagiga o'tqazing meni» misrasi qaysi sherida necha marta takrorlanadi?	«Betobligimda» she'rida olti marta	7
43.	Mirtemirning qaysi she'rida Yusuf Xos Hojib obraz darajasida ishlatgan «qut» so'zi «baraka» obrazi darajasiga ko'tarilgan?	«Bulut» she'ri	5
44.	«Bulut» she'rida oq bulutlar nimaga o'xshatilgan?	Oq qushlar, qorli cho'qqilar, oq barqut, rassomning go'zal manzarasi, tepa-tepa paxta xirmonlariga	5
45.	«Bulut» she'ri necha qismdan iborat?	Ikki qismdan	5
46.	Mirtemirning bolalik xotiralari haqidagi she'rlari qaysi?	«Qishloq'im», «Baliq ovi»	5
47.	«Baliq ovi» she'rida lirik qahramon nechta baliq tutadi?	Baliq tutolmaydi (lekin umidini uzmaydi)	5
48.	Mirtemir 50-60-yillarda qaysi she'rlarini yozgan?	«Bulut», «Shudring»	5
49.	Mirtemirning qaysi she'ridagi hodisaning nomi faqat she'r sarlavhasidagina uchrab, she'r ichida biror marta uchramaydi?	«Shudring»	5

50.	«Shudring» she'rida paxtalar nimaga qiyoslanadi?	Qo'llar sutdek ko'pikni tutib turganga o'xshatadi	5
51.	«Shudring» she'rida shoir shudringni nimalarga o'xshatadi?	Inju (qimmatbaho tosh), kelinlar taqinchog'i, uzuk ko'zlari, ko'zmunchoq, qizlarning suzuk ko'zlari, ko'zlarning yarqiroq zamzamasi, onasining ko'z yoshlari va yashirin ma'noda tabiatning ko'z yoshlariga	5
52.	«Kechasi onam tag'in Yig'labdi-da chamasi... » misralarida shoir kimni yoki nimani nazarda tutadi?	Ona tabiatni	5
53.	Mirtemirning qaysi she'ri «Qishlog'im» she'rining mantiqiy davomi hisoblanadi?	«Baliq ovi»	5
54.	Mirtemirning qaysi she'ri «Baliq ovi» she'rining mantiqiy davomi hisoblanadi?	«Qishlog'im»	5
55.	Mirtemirning «Qishlog'im» she'rida qanday yeguliklar nomi tilga olinadi?	Zog'ora, so'k, yovg'on, umoch, yupqa, go'ja, talqon, qo'g'irmoch, qurut, jiyda, qatiq, ko'moch, qovurdoq, danak, qovunqoqi, qimiz, bo'za, no'xat sho'rva, kulchatoy	5
56.	Mirtemir qaysi she'ridan haqiqiy shoir o'z xalqining ovozi bo'lishi, uni ezgu ishlarga chorlashi, yorug' tuyg'ularni kuylashi kerak degan xulosa chiqadi?	«To'rg'ay»	5
57.	Tabiat hodisalarini kuzatish orqali teran falsafiy xulosalar, go'zal qiyoslar, betakror obrazlar yaratish mahorati Mirtemirning qaysi she'rlarida yaqqol seziladi?	«Bulut», «Shudring»	5
58.	Mirtemirning bolalik xotiralari bilan hayotiy kuzatishlarning uyg'unligi asosiga qurilgan she'ri...	«Shudring»	5

59.	Shoir qaysi she'rida endi kamolotga yetgan, hayotning ulg'aygan pallasida xotiralarga berilgan bir inson sifatida gavdalanadi?	«Qish-log'im» she'rida	5
60.	Mirtemir qaysi she'rida o'quvchiga yorug' kayfiyat bag'ishlash bilan birga, uni ulug'vor niyatlarga ham chorlaydi. Go'zallikni his etish orqali ma'naviy yuksalishga da'vat etadi	«Baliq ovi» she'rida	5
61.	Birinci misrasida «ch» tovushi bilan boshlanadigan uch so'z yonmayon kelgan she'ri...	«Toshbu» «Chayirsan, chechansan, chuchuksan, so'zsiz»	7
62.	«Onaginam» she'rida «botguvchi», «sizlatguvchi», chekkuvchi, «tekkuvchi», «g'ajiguvchi», «achiguvchi» so'zlari orqali qanday she'riy san'at ifodalangan?	Sifatlash	7
63.	Mirtemirning «Onaginam» she'ridagi lirik qahramon onasiga qilolmagan xizmatni elga qay yo'l bilan baxshida etmoqchi bo'ladi?	Tinimsiz mehnati	7
64.	Mirtemirning «Onaginam» she'rida qaysi tuyg'u izhori berilgan?	El xizmatida bo'lib, onadan xabar ololmayotgan o'g'il o'tinchi	7
65.	Mirtemirning «Toshbu» she'ridagi «Burmaliq ko'ylak ham nimcha-yu g'ijim, Sirg'alar sandiqqa tushdi. Bardosh bu...» satrlari orqali anglatilgan ma'noni toping	Urush sharoitida bezak, kiyimlar ko'ziga yomon ko'ringanligi	7
66.	«Surat» dostonidagi bevafo yor...	Oysuluv	L

67.	Adibning ona oldidagi farzandlik burchini o'tay olmagan kishining afsoslari ifodalangan she'ri...	«Onaginam»	7
-----	---	------------	---

**Quyidagi misralar Mirtemirning
qaysi she'ridan olingan?**

68.	«Esimda go'daklik – unutilmas chog', O'sha kunlarimdan qalbimda bor xat»	«Qishlog'im»	5
69.	«Shu kungacha men o'zni cheklab bo'ldim... Men uchun yig'lasin, men yig'lab bo'ldim»	«Betobligimda»	7
70.	O'limlardan hatlab... Na oltin, na javohir edim... Armonli bir yosh shoir edim. Zuhro bo'lmasang ham chiroyda, Men ishqingda naq Tohir edim.	«Surat» dostoni	L
71.	«Kayxusrav qilichidan kesikbosh bobom hoki, Kim noxos oynq qo'ysa, haqoratga yo'yaman»	«Bu – men tug'ilgan tuproq»	7
72.	Toshlon o'ldi, degan kim axir? Gulday so'ldi, degan kim axir? Nahot poymol qutlug' ishq ahdi, Bol bo'lurmi shunchalar taxir? Barchinoyday kutganing qani? Zardob-u qon yutganing qani? Umr yo'lida to yumguncha ko'z, Birga-birga ketganing qani?	«Surat» dostoni	L
73.	«Hayotni maqtaganim, Tongni ardoqlaganim – Yomonmi, hoy, sho'x o'g'lon?»	«To'rg'ay»	7

74.	Bazmlarning guli bo'lganing – Yolg'on bo'lsa, boq-chi ko'zimga. Maqtovlarning quli bo'lganing – Yolg'on bo'lsa ayt-chi o'zimga!	«Surat» dostoni	L
75.	«Bir askarday cho'k tushib, peshonamni qo'yaman. Fidoymen, shaydoman, o'pib- o'pib to'yaman. Erk deya shahid ketgan o'g'lonlarning hoki bu, Kim noxos o'qrayssa ham ko'zlarini o'yaman»	«Bu – men tug'ilgan tuproq»	7
76.	«Elga xizmatim – senga xizmatim emasmi, axir, El meni farzandim demasmi, axir! Rozi bo'l, odam sanalay menam... Dunyoga qaytib kelurman, Lekin boshqa o'g'il bo'lib»	«Onaginam»	7
77.	Qora terga botib ekarkan g'o'za, Egnidagi to'ni edi yuz yamoq. Buloq bo'ylarida qaqrarkan tomoq... Baxt u payt tuproqqa ko'milgan ko'za	«Oqsoqol»	L
78.	Hammasidan – kulishing yaxshi. Dilkash, munis turishing yaxshi. Ko'kragimga boshingni qo'yib, Taslim bo'lib turishing yaxshi. 1956 – 1957, Qoraqalpog'iston	«Surat» dostoni	L
79.	Epkin bo'lib saharda, Gulzoringda kezurman. Qo'shiqlarim avj parda, G'unchalaring uzurman. Nasim kabi sezdirmay, Kiprigingga to'qingum. Ozor bermay, bezdirmay, Suratingga cho'qingum...	«Men seni injitmayman...»	L

	Qush bo'lib qochar bo'lsang, tarlon bo'lib quvgayman, Tog'larda sharsharadek g'uboringni yuvgayman. Har mushkul, har xatarda, har balodan saqlagum, Qayrilsang-qayrilmasang, o'lguncha ardoqlagum		
80.	Seni jindak xushvaqt qilgani, Seni jindak xushbaxt qilgani — Tagsiz jarlardan o'tolmaganim, Seni so'nggi yo'lga o'zim uzatolmaganim — Tog'day zil	«Onaginam»	7
81.	Men seni injitmayman Va lekin tinchitmayman... Charx urib, bo'z to'rg'ayday bo'zlashim bor boshingda Ey, sochlaring to'lqini tun singari sim-siyoh, Xol kabi paydo bo'lgum yonog'ing yo qoshingda Ey, izlaring g'ubori ko'zlarimga to'tiyo... Saratonda sel bo'lib, Lolazor yaratgayman. Qahr to'ng'ida yel bo'lib, Gul atim to'atgayman. Yo'l yurib, cho'llab qolsang, Shildiragum buloqday. Yoki dashtga yo'l solsang, Yatangayman o'tloqday. Istab qolsang soyabon, Men darrov chinor bo'lgum, Cho'mar bo'lsang nogahon, Men darrov anhor bo'lgum	«Men seni injitmayman...»	L

Quyidagi so'zlarni izohlang

82.	inju	dur yoki marvarid munchoq	5
83.	bo'y-bo'y	bo'yga yetgan qizlar	5
84.	zamzama	xirgoyi, sekin kuylash	5
85.	zog'ora	makka unidan qilingan non	5
86.	so'k	tozalangan tariqdan qilingan ovqat	5
87.	yovg'on	go'sht va yog'siz tayyorlanadigan ovqat	5
88.	umoch	uvalangan xamirdan qilingan suyuq ovqat	5
89.	go'ja	kelida tuyulgan makka yoki bug'doydan tayyorlanadigan suyuq ovqat	5
90.	ko'moch	cho'ponlarning kulga ko'mib pishiriladigan noni	5
91.	bo'za	dondan tayyorlanadigan kayf beruvchi ichimlik	5
92.	to'g'och	katta bo'g'irsoq	5
93.	murdor	nopok	1
94.	o'mrov	ko'krak	1
95.	dov	urush, kurashuv	1
96.	injitmoq	ranjitmoq, xafa qilmoq	1

USMON NOSIR (1912 – 1944)

1.	O'z ijodi, she'ri bahosini umrning bahosiga teng deb bilgan ijodkor kim?	U.Nosir	8
2.	Lirikada badiiy soddalikning eng yaxshi namunasini namoyish qilgan shoir...	Usmon Nosir	8
3.	«Usmon she'riyatimizga shanoiday kirib keldi. Balki bo'ronday! U shunday to'polon va to'lqin bilan keldiki, uncha-muncha she'riy uslub va ijodni to's-to's qilib yubordi. Uni o'zimizda «o'zbekning Lermontovi», Moskva gazetalarida «Sharqda Pushkin paydo bo'ldi», deb yozishdi». Usmon Nosir haqidagi ushbu satrlar muallifi...	Turob To'la	8
4.	Usmon Nosir qachon qayerda tavallud topgan?	1912-yil 13-noyabrda Namangan shahrining «Chuqurcha» dahasida	5, 8
5.	Usmon Nosir otasidan ajragandan keyin qaysi shaharga ko'chib ketishadi?	Qo'qonga (otasi vafot etganidan so'ng, Usmon Nosir to'rt yoshligida onasi Xolambibi shu yerlik Nosirhoji degan kishiga turmushga chiqadi)	5, 8
6.	Usmon Nosir qaysi ilm dargohlarida tahsil olgan?	Avval Qo'qondagi internatda, so'ng Samarqanddagi O'zbekiston dorilfununida (1931-yilda oliy o'quv yurtiga kiradi)	5, 8
7.	Usmon Nosir umrining qaysi davrlarida badiiy ijod bilan shug'ullandi?	18 yoshidan 24 yoshigacha	8

8.	20 yoshligida uni qanday ta'riflashgan?	«Tabiatan shoir», «tug'ma shoir»	8
9.	Usmon Nosir o'zining eng buyuk ustoz deb kimni atagan?	Cho'lponni	
10.	Usmon Nosir kimlarni o'ziga ustoz deb bilgan?	Cho'lpon, Fitrat, A.Qodiriy	
11.	«Eng dahshatli sukunat – shoir jim yursa!» - degan fikrni kim aytgan?	Xurshid Davron	
12.	Usmon Nosir necha yoshligida qamoqqa olingan va qachon vafot etgan?	24 yoshligida qamoqqa olingan, 1944-yilning mart oyida Rossiyaning Kemerovo viloyatidagi mahbuslar lagerida vafot etadi	8
13.	Usmon Nosir necha yil umr ko'rgan?	32 yil	5, 8
14.	Usmon Nosirning ilk she'ri...	«Haqiqat qalami», 1927-yilda «Yangi yo'l» jurnalida bosilgan	
15.	Usmon Nosir qanday she'riy to'plamlar muallifi?	1) «Quyosh bilan suhbat» (1932); 2) «Safarbar satrlar» (1932); 3) «Traktorobod» (1934); 4) «Yurak» (1935); 5) «Mehrim» (1936)	8
16.	Usmon Nosir dostonlari...	«Norbo'ta», «Naxshon»	8
17.	Usmon Nosir dramalari...	«Atlas», «Zafar», «So'nggi kun», «Dushman»	8

18.	Usmoni Nosir jahon adabiyoti namoyondalaridan kimlarning qaysi asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan?	N.A.Dobrolyubovning «Haqiqiy kun qachon keladi?» asari, V.I.Kirshonning «Ulug' kun» dramasi, A.S.Pushkinning «Bog'chasaroy fontani», M.Y.Lermontovning «Iblis», dostonlarini	8
19.	Usmon Nosirning 1927-yildan 1932-yilgacha bo'lgan ijodida qanday uslub ko'proq ko'zga tashlanadi?	Publitsistika, voqealarga publitsistik munosabat, publitsistik pafos va ritorika ko'proq ko'zga tashlanadi. Shuning uchun uning she'rlari shior va chaqiriq bo'lib yangraydi. Bu xususiyat Usmon ijodining zamon talabiga hozirjavobligini ko'rsatadi	8
20.	Usmon Nosirning shogirdlari...	Amin Umariy, Nasrulla Davron, Ibrohim Nazir, O'tkir Rashid	8
21.	Qaysi she'rining lirik qahramoni – qarshi ishni qilmaydigan, pokiza tuyg'ulariga quloq soladigan, qalbi buyurganini bajaradigan shaxs?	«Yurak» she'rining	
22.	«Bog'imga» she'ri qanday janrda yozilgan?	Sonet (4+4+3+3=14)	
23.	Usmon Nosirning qaysi she'rida taqdiri haqidagi xavotirli bashorati ifodalangan?	«Nasimaga deganim»	
24.	Usmon Nosirning qaysi she'rini ikki og'iz so'z bilan «Erk haqida madhiya» deb atash mumkin?	«Nil va Rim»	8

25.	«Yurak» she'rida shoir fikricha, faqat bir o'rinda yurakka buyruq bermoq mumkin. Bu...	«Vatan rozi emas bo'lsa...»	8
26.	Usmon Nosir qaysi asarida "Rim yalang'och izlaydi", "Shoh Yuliy Sezar tilla qadahda qon ichadi", "Nil – qullar to'kkan ko'z yosh" kabi tashbehtar qo'llagan va o'zini "isyonning so'lmas avlodi" deya ta'riflagan?	«Nil va Rim»da	8
27.	«Ilhomning vaqti yo'q, selday keladi...» degan shoir...	Usmon Nosir	8
28.	Usmon Nosir qaysi she'rida yurtga nafi tegmaydigan ijoddan o'limni afzal biladi?	«Yurak» she'rida	8
29.	«Gulzor – chaman...» deb boshlanuvchi she'rida shoir kimga murojaat qilyapti?	Yoriga	5
30.	«Yurak» she'ri nechanchi yilda yozilgan?	1933-yilda	5
31.	Usmon Nosir «Yoshlik», «Gulzor – chaman» she'rlarini qachon yozgan?	1934-yilda	5
32.	«Bolaligimga» she'ri qanday boshlanadi?	«Kapalakning gul emganin ko'rdim, Eslab ketdim seni, malagim... Sen berdingmi shuncha shirin she'rni, Ey, barglari ko'm-ko'k palagim?»	5
33.	«Bolaligimga» she'rida bolalik nimaga o'xshatiladi?	Gulga, barglari ko'm-ko'k palakka, malakka	5
34.	«Bolaligimga» she'rida shoir o'zini asalariga o'xshatadimi yoki kapalakkami?	Kapalakka	5

35.	Usmon Nosirning qaysi she'ri bir xil misralar bilan boshlanib, bir xil misralar bilan yakunlanadi?	«Yur, tog'larga chiqaylik»	5
36.	«Yur, tog'larga chiqaylik» she'rida yoshlik nimaga o'xshatiladi?	Suvga	5
37.	«Yo'lchi» she'rida <i>yo'lchi, manzil, dardlar</i> kimning va nimalarning ramziy timsoli?	<i>Yo'lchi</i> – lirik qahramon, <i>manzil</i> – maqsadga eltuvchi yo'l, <i>dardlar</i> – muammolar	5
38.	«Yo'lchi» she'rida shoir nima uchun qora rangli otda yo'lga chiqadi?	Jang va sinovlarga otlangani uchun	5
39.	Usmon Nosirning «Tun qancha qora bo'lsa, oy shuncha yorug'» misralari qaysi asaridan olingan?	«Nil va Rim»	8
40.	Usmon Nosir «Yoshlik» she'rida nima uchun «Kunlarimni yoshligimdan ayamadim», – deydi? Usmon Nosir «Yoshlik» she'rida bolaligi va yoshligini qanday xotirlaydi?	Bolaligini og'ir, qiyinchilik bilan o'tganini, yoshlik chog'larini esa sog'inib eslaydi	5
41.	U.Nosirning "Naxshon" dostonida "Kiprigi ko'ksiga soya solgan qiz" degan ta'rif bor. Bunday mubolag'ali tasvirni yana kimning she'rida uchratish mumkin?	Muhammad Yusufning	8
42.	«Eng dahshatli sukunat – shoir jim yursa», – degan fikrlar qaysi ijodkorga taalluqli?	Xurshid Davron	5
43.	Usmon Nosir «Monolog» she'rida «guldin yaralgan pari», «toshko'ngilli» deb kimni ta'riflagan?	Biatriche	8

44.	Usmon Nosirning "Nil va Rim" she'ri g'oyasi...	Erk madhiyasi, tarixga nazar, qullar qismatiga achinish	5
45.	Usmon Nosirning she'ridan keltirilgan quyidagi misralar kimga yoki nimaga aytilgan? «Sen orada ko'prik bo'lding-da, Geyne bilan o'rtoq tutindim. Lermontovdan ko'mak o'tindim, Butun umrim sening bo'yningda, Saharda qon tupursam, mayli, Men Majnunman...»	She'riyatga	
46.	Usmon Nosirning "Nil va Rim" she'ridagi bosh g'oya...	Erk, ozodlik uchun kurash	8
47.	Usmon Nosir o'z she'rida hamma qulluq qilib turgan, ta'rifiga hamd-u sano keltirayotgan nimaga qarshi bosh ko'taradi?	Sevgiga	8
48.	Usmon Nosirning sevgi-muhabbat mavzusi mutlaqo yangi nuqtayi nazardan turib yoritilgan, talqin etilgan o'lmas asari...	«Monolog» she'ri	8
49.	«Oydin kecha – Sutdek oppoq Har yer Har bir joy, Doirayi kamondan Boqar kumush oy. Oy nurini Deraza Taqib suv oqar, Jimirlab Oy aksi yotar. Oy nurini Ko'zga solib	Peyzaj	5

	Ko'rdim yalangdan— Bodom gullab qolibdi Och pushti rangda...» She'rida asosan qanday badiiy san'at aks etgan?		
50.	«Oydek yuzlaring», «kunday yorug', tunday qora ekan ko'zlaring» degan tashbehlar shoirning qaysi she'rida uchraydi?	«Gulzor — chaman»	5
51.	1935-yilda, Usmon Nosir davolanish uchun shimolga — Boltiq va Oq dengiz bo'ylariga safar qilgan davrda yozilgan she'ri...	«Yurganmi- siz birga oy bilan»	5
52.	«Yurak» she'ri qachon yozilgan?	1933-yil Samarqandda	8

«Nil va Rim»

53.	«Nil va Rim»da «Sariq qumlar orasidan qon rangli quyosh — ko'tarilar», «Botayotgan quyosh kabi rangida qon yo'q» degan o'xshatishni ishlatadi. Agar tabiatga — yozda quyoshning chiqishi va botishiga razm solsak, aslida, buning aksiga guvoh bo'lamiz. Quyosh ko'tarilayotganda anchagina rangsiz, botayotganda esa qip-qizil rangga bo'yaladi. Endi savol tug'iladi: nima, Usmon Nosir «Nil va Rim»da mantiqsizlikka, noaniqlikka yo'l qo'ygani?	Mutlaqo! Hamma gap shundaki, shoir o'zi la'natlanayotgan davrda hayot, tiriklik mantig'i, insoniy turmush tarzining oyog'i osmondan keltirilganini mana shu «g'alati o'xshatishlar» orqali ham bo'rttirib ifodalaydi	8
-----	--	---	---

54.	«Nil va Rim»da Usmon Nosir nima uchun «Spartakning lashkarlari hali ham borur. Mana menman, u isyonning o'lmas avlodi, Mana menman, u qullarning hech so'nmas yodi» degan misralarni yozadi?	Yurtidagi adolatsizlik, xunrezliklarga guvoh bo'lgan shoir o'zini Spartakka qiyoslaydi	8
55.	Asarda Nil va Rim nimaga o'xshatiladi?	Nil – «qullar to'kkan ko'z yosh», Rim – «o'yindan o'lim kutgan jinni teatr»	8
56.	«Nil va Rim» qaysi yilda yozilgan?	1935-yilda	8

«Nil va Rim» asaridagi quyidagi so'zlarga izoh bering

57.	Ro, Azirisa, Tifon...	qadimgi misrliklar tushunchasidagi xudolar nomi	8
58.	Fir'avn...	Qadimgi Misr davlatini boshqargan hukmdor	8
59.	Minis, Ramzes, Kleopatra...	quldorlik davri Misr hukmdorlari	8
60.	ochun...	dunyo, olam	8
61.	Homer...	qadimgi yunon shoiri, ko'zi tug'ma ojiz bo'lgan	8
62.	Sezar...	Rim imperiyasini boshqargan hukmdor	8
63.	Spartak...	Rim quldorlik tuzumiga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olonning rahbari	8
64.	sud...	ma'no, mohiyat	8
65.	Aflotun (Platon)...	qadimgi yunon faylasufi	8
66.	Vergiliy	qadimgi yunon lirik shoiri	8

«Monolog» she'ri

67.	«Muhabbat ul o'zi eski narsa, lekin har bir yurak uni yong'orta (yangilaydi)», degan kim?	Tatar shoiri Xodi Toqtosh	8
68.	Usmon Nosir qaysi she'rida hamma qulluq qilib turgan, ta'rifiga hamd-u sano keltirayotgan sevgiga qarshi bosh ko'taradi?	«Monolog» she'rida	8
69.	«Monolog» she'rida qaysi she'riy san'atga eng ko'p murojaat qilingan?	Talmeh san'atiga	8

«Monolog» she'ridagi quyidagi shaxslarga izoh bering

70.	Petrarka...	qadimgi Rim shoiri	8
71.	Sapfo...	qadimgi Rim shoirasi	8
72.	Tasso...	o'tli ishq-muhabbat kuylangan asarning baxtsiz qahramoni	8
73.	Leonora...	adabiy qahramon	8
74.	Biatriche...	mashhur italyan shoiri Dantening sevgilisi	8
75.	Hamlet...	mashhur shoir va dramaturg Vilyam Shekspirning shu nomdagi tragediyasining bosh qahramoni	8
76.	Ofeliya...	Hamletning sevgilisi	8
77.	Dezdemon...	«Otello»ning bosh qahramonlaridan biri	8
78.	Otello...	«Otello» tragediyasida Dezdemonaning eri	8

**Quyidagi misralar Usmon Nosirning
qaysi she'ridan olingan**

79.	«Sherim! Yana o'zing yaxshisan, Boqqa kirsang, gullar sharmanda. Bir men emas, hayot shaxsisan, Jonim kabi yashaysan manda»	«Yana she'rimga»	8
80.	«Seni yaxshi bilaman, go'zal, Petrarkani o'qiganim bor. Buyuk Rimning Sapfosi azal Xayolimni oshiqday tortar»	«Monolog»	8
81.	«Xayollarim yaralangan qanotday og'ir»	«Nil va Rim»	8
82.	«Aqlidan ozganmi muhabbat? Mumkin emas, qarshi turmasdan!»	«Monolog»	8
83.	«Sen yuragimning chashma suvisan, Sen ko'zlarimning gavhar nurlari. Sening bahongni kim so'rasa, de: «Bahom – umring bahosiga teng»	«She'rim»	8
84.	«Bargdek uzilib ketsam Unutmas meni bog'im. Ishimni hurmat qilur, Gullardan haykal qurur. She'rlarim yangrab qolur, Ming yillardan keyin ham Unutmas meni bog'im»	«Bog'im»	8
85.	«Ki odamning o'ziniginamas, Hissini ham xarob qilgan davr! Qiyinalaman!.. Yuragimda hovur... Bu – qarshilik! Yo'q! Gina emas»	«Monolog»	8

86.	«Mana menman, u isyonning o'lmas avlodi, Mana menman, u qullarning hech so'nmas yodi. Mana menman, falaklarga lov-lov o't qo'yib, O'talarimning boshidan poydevor uyib... Ozodligim (kelajagim) obidasin qurgan insonman! O'sha jonman, o'sha qonman va o'sha shonman!!!» Ushbu misralar asarning qaysi bandlarida berilgan?	«Nil va Rim», 3, 6-bandlarida	8
87.	«Jim!.. Ufqdan botar quyoshni Shart kesilgan boshga o'xshatdim. Parcha-parcha kuygan shafaqlar Tirqiragan qonni eslatdi»	«Monolog»	8
88.	«O'lim yaxshi, odam agar shunday xor bo'lsa! Bir parcha non nima o'zi! Shunga zor bo'lsa!»	«Nil va Rim»	8
89.	«Men mast bo'lib qoldim bir kecha, Sil o'pkamni ancha yayratdim»	«Yurganmi- siz birga oy bilan»	5
90.	«Balki guldari yaralgan pari Tosh ko'ngilli Beatrice: – Gadosan, – deb qochmasa nari Dante baxtli bo'lardi picha!»	«Monolog»	8
91.	«Agar, darkor bo'lsa har choq, Chorlasa Vatan, Qo'lyozmalarimni tashlab, Shinel kiyaman»	«Gulzor – chaman...»	5
92.	«Tun qancha qora bo'lsa, oy shuncha yorug'»	«Nil va Rim»	8

93.	«Sevgil! Sening shirin tilingdan Kim o'pmagan, kim tishlamagan? Darding yoyday tilib ko'ksidan, Kim qalbidan qonlar to'kmagan?»	«Monolog»	8
94.	«Yoril! Chaqmoqqa aylan sen, Yoril! Mayli tamom o'lsam!»	«Yurak»	8
95.	«Agar xiyonatni bilmasa, Ezmasa fojia yuragin! Yo'q! Yo'q, shoir! Gar shunday bo'lsa, Shekspirning yo'qdir keragi»	«Monolog»	8
96.	«Esingdami, g'arib ona, u qishlarning zahri?»	«Oq yuvib, oq tarab»	5
97.	«Chirog'imga parvonadek urinar yillar — To'rt atrofim to'lib ketar kuygan qanotga»	«Nil va Rim»	8

Quyidagi she'rlar nomi va muallifini aniqlang

98.	«Mashrab osilganda qayoqda eding? Cho'lpon otilganda qayoqda eding? Surishtirganmiding Qodiriyni yo Qalqon bo'lganmiding kelganda balo? Hukmlar o'qilur sening nomingdan, Tarixlar to'qilur sening nomingdan, Nimasan, qandayin sehrli kuchsan, Nechun tomoshaga bunchalar o'chsan? Qarshingda hasratli o'yga tolaman, Qachon xalq bo'lasan, sen — ey Olomon!»	«Olomonga», A.Oripov	8
99.	«Tiriksan, o'lmagansan, Sen-da odam, sen-da insonsen. Kishan kiyma, Bo'yin egma, Ki sen ham hur tug'ulg'onsen!»	«Ko'ngil», Cho'lpon	8

ZULFIYA (1915 – 1996)

1.	«She'rlar minglarcha kishilar o'z qalbi va dili bilan his etib, o'zlariniki qilib olgandagina poeziyaga aylanadi» degan ijodkor...	Zulfiya	
----	--	---------	--

Shoira Zulfiya va uning ijodi haqidagi ushbu fikrlar mualliflarini aniqlang

2.	«Uning jahon minbarlaridan yangragan she'rlari Sharq ayolining aql-u zakosi, fazl-u kamolining yorqin ifodasi sifatida millionlab she'riyat muxlislariga odamiylik, muhabbat va sadoqatdan saboq bergan»	O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov	6
3.	«Aksar shoirlar she'r orqali fikr yuritishga intiladi. Zulfiya fikr yuritmaydi. Uning she'riyatida donishmandona fikrlar deyarli yo'q. Shoira fikrga befarqdek, uni chetlab o'tayotgandek tuyuladi. U hissiy manzaralar chizadi, tizadi, ularga o'z ichki, intim munosabatini bildiradi»	Suvon Meli	L
4.	«Nafaqat o'z she'rlari bilan, balki butun hayoti bilan o'zbek ayolining ma'naviy qiyofasini namoyon eta olgan atoqli, ...fidoyi inson bo'lib ... ma'naviy jasorat ko'rsatdi»	O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov	6

5.	O'zbekiston qizlariga fan, ta'lim, adabiyot, san'at, sport sohalaridagi yutuqlari uchun qaysi shoira nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti ta'sis etilgan?		Zulfiya-xonim	6
6.	Zulfiya Isroilova qachon qayerda tavallud topgan?	1915-yili Toshkent shahrining qadimiy Degrez mahallasida tavallud topgan		6
7.	Zulfiya qaysi bilim dargohlarida tahsil olgan?	Avval boshlang'ich maktabda, so'ng xotin-qizlar bilim yurtida tahsil olgan. 1935 – 1938-yillarda O'zbekiston Fanlar akademiyasining Til va adabiyot instituti aspiranturasida o'qigan		6
8.	1937-yilda shoira Zulfiyaning akalari boshiga qanday falokat tushgan?	Shoiraning akalari qamoqqa olingan		6
9.	Zulfiya uzoq yillar davomida qaysi nashrda ishlagan?	1953-yildan 1980-yilgacha 27 yil davomida «Saodat» xotin-qizlar jurnalida bosh muharrir bo'lgan		6
10.	Zulfiya qanday mukofotlar bilan taqdirlangan?	O'zbekiston xalq shoiri, xalqaro «Nilufar», Javoharlal Neru nomidagi Davlat mukofoti sohibasidir		6
11.	Zulfiyaning dastlabki kitobi...	1932-yilda chop etilgan «Hayot varaqlari» she'riy to'plami		6
12.	Zulfiyaning she'riy to'plamlari...	«She'rlar», «Qizlar qo'shig'i» (1938), «Uni Farhod der edilar» (1943), «Hijron kunlarida» (1944), «Dalada bir kun» (1948), «Tong qo'shig'i» (1953), «Yuragimga yaqin kishilar» (1958), «Kuylarim sizga» (1965), «O'ylar» (1965), «Aziz tuyg'ular», «Shalola»		6

13.	Zulfiya qaysi dostonlar asosida pyesa va opera librettolar yaratgan?	Hamid Olimjonning «Semurg'» va «Zaynab va Omon» dostonlari asosida	6
14.	Zulfiyaning poemalari...	«Quyoshli qalam» (1967), «Mushoira» (1958), «Xotira siniqlari» (1995)	6
15.	Zulfiya qaysi xalq shoirlarining she'rlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan?	Rus, ukrain, ozarbayjon, hind shoirlarining	6
16.	Zulfiyaning she'rlari qaysi tillarga tarjima qilingan?	Ingliz, nemis, rus, bolgar, xitoy, hind, yapon, arab, fors, vetnam...	6
17.	Shoira necha yoshida vafot etdi?	1996-yil 81 yoshida	6
18.	«Nevara» she'rini qaysi nabirasiga bag'ishlagan?	Ulug'bekka	6
19.	Shoira «Nevara» she'rida nabirasi Ulug'bekni kimga o'xshatadi?	Bobosi Hamid Olimjonga	6
20.	Zulfiyaning qaysi she'rlari bir xil misralar bilan yakunlanadi?	«Nevara» va «Bog'lar qiyg'os gulda» she'rlari («O'zi kashf etardi kashf etganday baxt»)	6
21.	Zulfiyaning qaysi she'ri turli millatlarning hamdo'stligi haqida?	«Bog'lar qiyg'os gulda»	6
22.	«Men o'tgan umrga» she'rida shoira o'tgan umriga achinganmi?	Aksincha, havas qilsa arzigulik hayot yo'li haqida yozgan	6
23.	«Nevara», «Bog'lar qiyg'os gulda» asarlari shoiraning qaysi to'plamiga kiritilgan?	«Aziz tuyg'ular»	6

24.	«Bunda orqa tog'siz bir tirik jon yo'q» misrasidagi «orqa tog'» birikmasini 6-sinf darsligi mualliflari qanday talqin qilishadi?	Orqa tog' – bu o'zbek xalqidir deb	6
25.	Hindiston mamlakati bilan aloqador asari ...	«Mushoira» (1958)	L
26.	Oybek ijodiga bag'ishlangan asari...	«Quyoshli qalam» (1967)	
27.	Shoiraning qaysi she'rida bolajon she'r bitilayotgan qog'ozni olib, varrak yasaydi?	«Nevara» she'rida	6
28.	«Bahor keldi seni so'roqlab» she'rida shabboda kimlarning yuzidan o'padi?	Hulkar va Omonning	
29.	Shoira qaysi asarida turli millat vakillarini mushoiraga chorlaydi?	«Mushoira» she'rida	L
30.	Shoira qaysi asarida hurriyat – istiqlolni sog'inib kutganligini ifodalaydi?	«Xotiram siniqlari» poemasi	L
31.	«Mushoira» asarida mushoira qayerda bo'lib o'tadi?	Hindistonda	L
32.	Shoira qaysi asarida she'r mavzusiga taalluqli bo'lmagan turli millat vakillarining oyoq kiyimlari – poyabzallari haqida yozadi?	«Mushoira» she'rida	L
33.	«Mushoira» asarida Zulfiya qaysi millat shoirining she'r o'qiyotganini «Irmoqday quyilar tinchlik so'zlari. Orom og'ushiga kirgan bo'lar yer, Yorqinroq chaqnaydi ko'k yulduzlari», – deya ifodalaydi?	Afrika shoirining	L

34.	Zulfiya qaysi asarida qatag'on davri dahshatlarini akasi misolida ko'rsatib o'tadi?	«Xotiram siniqlari»da	L
35.	Zulfiyaning qaysi asari yorqin avtobiografik xarakterga ega?	«Xotiram siniqlari»	L
36.	«Xotiram siniqlari» asarida shoiraning onasi qaysi shoirlarning she'rlarini o'qib berardi?	So'fi Olloyor, shoh Mashrab	L
37.	«Xotiram siniqlari» asari-da shoirani otasi uni qanday erkalatar edi?	«Boychechak» deb	L

Zulfiyaning quyidagi she'rlari qachon yozilgan?

38.	«Tun» (Bu she'rda shoira o'zining tongga ulanib ketadigan hijronli tunlarini tasvirlagan)	1944-yil	
39.	«O'g'lim, sira bo'lmaydi urush»	1954-yil	
40.	«Bahor keldi seni so'roqlab» (Hamid Olimjon xotirasiga bag'ishlangan)	1945-yil	
41.	«Mushoira»	1958-yil	
42.	«Xotiram siniqlari»	1995-yil	L

Quyidagi misralar Zulfiyaning qaysi she'r va dostonlaridan olingan?

43.	Urush! Noming o'chsin jahonda, Hamon bitmas sen solgan alam. Sen tufayli ko'p xonadonda Ota nomli buyuk shodlik kam	«O'g'lim, sira bo'lmaydi urush»	L
-----	--	--	---

44.	Vaqt yetsa shu xalqda qolar daftarim, Vaqt yetsa, bu yoqda qolar dardlarim...	«Xotiram siniqlari»	L
45.	Bahorga burkangan sen sevgan elda, Ovozing yangradi jo'shqin, zabardast. O'lmagan ekansan, jonim, sen hayot, Men ham hali sensiz olmadim nafas	«Bahor keldi seni so'roqlab»	
46.	«Yangi hayot» debmiz o'sha kunlarni, Betalab, benolish yashabmiz ko'p yil. Bir o'ylab ko'rmabmiz bu yurt hokimin Labi kulib, nechun rang-ro'yi zahil?!	«Xotiram siniqlari»	L
47.	Bas, bas, ezgu onalar qalbi Yashay olsin bexavf, baxt bilan. Mehnatimiz, g'azab, sevgimiz Tinchlik, deydi butun xalq bilan	«O'g'lim, sira bo'lmaydi urush»	L
48.	«Vatanparvar» debmiz o'z-o'zimizni, Dengizlar quribdi, chiribdi baliq, «Insonsan, boshingni ko'tar», demabdi, Ko'ngling qolganmidi bizlardan, xoliq?	«Xotiram siniqlari»	L

**Quyidagi misralar Zulfiyaning qaysi she'r
va dostonlaridan olingan?**

49.	Urush! Noming o'chsin jahonda, Hamon bitmas sen solgan alam. Sen tufayli ko'p xonadonda Ota nomli buyuk shodlik kam	«O'g'lim, sira bo'lmaydi urush»	L
50.	Vaqt yetsa shu xalqda qolar daftarim, Vaqt yetsa, bu yoqda qolar dardlarim...	«Xotiram siniqlari»	L
51.	Bahorga burkangan sen sevgan elda, Ovozing yangradi jo'shqin, zabardast. O'lmagan ekansan, jonim, sen hayot, Men ham hali sensiz olmadim nafas	«Bahor keldi seni so'roqlab»	

52.	«Yangi hayot» debmiz o'sha kunlarni, Betalab, benolish yashabmiz ko'p yil. Bir o'ylab ko'rmabmiz bu yurt hokimin Labi kulib, nechun rang-ro'yi zahil?!	«Xotiram siniqlari»	L
53.	Bas, bas, ezgu onalar qalbi Yashay olsun bexavf, baxt bilan. Mehnatimiz, g'azab, sevgimiz Tinchlik, deydi butun xalq bilan	«O'g'lim, sira bo'lmaydi urush»	L
54.	«Vatanparvar» debmiz o'z-o'zimizni, Dengizlar quribdi, chiribdi baliq, «Insonsan, boshingni ko'tar», demabdi, Ko'ngling qolganmidi bizlardan, xoliq?	«Xotiram siniqlari»	L

SHUHRAT (1918 – 1993)

1.	Shuhratning asli ot-u nasabi...	G'ulom Alimov Aminjon o'g'li (taxallusi – Shuhrat)	7
2.	Shuhrat qachon qayerda tug'ilgan?	1918-yilning 19-aprelida Toshkent shahrining Xastimom (Hazrati Imom) mahallasida tug'ilgan	7
3.	Shuhrat qaysi bilim dargohlarida tahsil olgan	Bo'lajak ijodkor oldin mahalladagi otinoyi maktabida keyin sho'ro maktabida o'qidi. 1932 – 33-yillarda transport texnikumida, 1934 – 36-yillarda O'rta Osiyo transport injenerlari institutida tahsil ko'radi. 1936 – 40-yillarda Toshkent Davlat pedagogika institutida ta'lim oladi.	7
4.	Shuhratning adabiyotga mehr qo'yishida kimning ta'siri bo'ldi?	Adabiyot o'qituvchisi Yunus Latifning	7
5.	Shuhratning birinchi she'ri qachon e'lon qilindi?	1935-yilda 17 yoshida e'lon qilindi	7
6.	Adib qachondan she'r-larida Shuhrat taxallusi-ni qo'llay boshladi?	1930-yillarning ikkinchi yarmidan	7
7.	Shuhrat qayerda ishladi?	Yozuvchilar uyushmasida	7
8.	Urush boshlanganida vatan-parvar adib qanday jasorat ko'rsatdi?	1941-yilda Ikkinchi jahon urushi boshlangach, shoir Shuhrat urushga safarbar qilindi va u yerda 1943-yilda og'ir yarador bo'lgunga qadar janglarda qatnashdi. Shuhrat janggohda ham ijodni to'xtatmadi	7

9.	«Garchand frontda muntazam ijod etolmagan bo'lsam ham, qachondir bu sevimli hunarimga qaytish ishtiyoqi bir lahza ham xayolimdan ketgani yo'q. Ba'zan zavq-shavqimni yoki dushmanga nafratimni qog'ozga tushirib qo'yar edim». Ushbu fikrlar qaysi ijodkorning tarjimai holidan olingan?		Shuhratning	7
10.	Shuhrat frontdan qaytgach urush mavzusi haqida qanday asarlar yaratdi?	«Shinelli yillar daftari» she'rlar turkumi, «Farzand», «So'lmas chechaklar» kabi dostonlar		7
11.	Urushdan so'ng Shuhrat qanday azoblarni boshidan kechirdi?	Urushda sho'ro tuzumi uchun qon to'kkan Shuhrat 1951-yilda shu hukumat idoralari tomonidan «millatchi» degan tuhmat bilan qamoqqa hukm qilinib, Shimoliy Qozog'istonga jo'natiladi. Yozuvchi to'rt yildan ortiqroq vaqt mobaynida qamoqda g'oyat og'ir azoblarni boshidan kechiradi. Shoir Shuhrat qanchalik og'ir azoblarga solinmasin, hech kimga qarshi ko'rsatma bermaydi, biror ijodkorga tuhmat qilmaydi. 1955-yilda noto'g'ri qamalgan kishi sifatida oqlanib, qamoqdan chiqariladi		7
12.	Qamoqdan qaytgach adib adabiyotning qaysi turida qalam tebratdi?	Qamoqdan qaytgach, Shuhrat she'rlar bilan birgalikda bir qancha nasriy asarlar ham yozdi		7

13.	Yozuvchi qaysi asaridaxalqimizning urush arafasidagi, urush yillaridagi, urushdan keyingi davr hayotidan qator jonli lavhalar yaratadi; shu bilan cheklanmay o'sha yillari hayoti bilan bog'liq o'tkir ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy muammolarga e'tiborni tortadi?	«Oltin zanglamas» romanida	
14.	Shuhratdan qachon judo bo'ldik?	1993-yilning 20-iyunida uzoq davom etgan o'n yillik og'ir kasallikdan so'ng	7
15.	O'zbek she'riyati, nasri va dramaturgiyasini rivojlantirishdagi katta xizmatlari uchun Shuhrat qanday unvon bilan taqdirlandi?	«O'zbekiston Xalq yozuvchisi» faxriy unvoni bilan	
16.	Yozuvchi qaysi kitobini«Yuragimning ochiq yarasi va shukronasi» deb ataydi?	«Oltin zanglamas» romanini	L

Quyidagi janrlarda Shuhrat qanday asarlar yaratgan?

17.	Dostoni...	«Orzu va qasos» (1940), «Farzand», «So'lmas chechaklar»	7
18.	Ertak-dostoni	«Mehrol» (1940)	7
19.	Balladalari...	«Ona va farzand», «Jamila», «Raymonda», «Uch qiz afsonasi», «Guldursun», «Qora va oq aravacha haqida ertak»	7
20.	Romanlari	«Shinelli yillar» (1958), «Oltin zanglamas» (1965), «Jannat qidirganlar» (1968) romanlari	7

21.	Dramatik asarlari	«Besh kunlik kuyov» (1970), «Qo'sha qaringlar» (1971), «Ona qizim» kabi pyesalari	
22.	40-yillarda Shuhrat qaysi asarlarini yaratgan?	«Orzu va qasos» dostoni, "Mehrol" ertak-dostoni	
23.	Adabiyotshunos olim Umarali Normatovning fikricha, Shuhrat qaysi romanida «Shinelli yillar»ga qaraganda mahorat jihatdan ancha ilgari ketdi?	«Oltin zanglamas» romanida	L
24.	O'zbek adabiyotida birinchi bo'lib, chet eldagi o'zbeklar hayoti aks ettirilgan asar qaysi javobda berilgan?	«Jannat qidirganlar»	7
25.	Shuhratning qaysi asarida Sho'ro tuzumining eng adolatsiz, eng chirkin bosqichi bo'lmish qatog'on davri mahorat bilan aks ettirilgan?	«Oltin zanglamas»	7
26.	«Oltin zanglamas» romani nima sababdan ulkan muvaffaqiyat qozondi?	Adib asarda aks ettirgan voqealarni o'z boshidan o'tkazganligi uchun tasvir tabiiy chiqqan, asar muvaffaqiyatga uchragan	7

**Shuhratning qaysi asarlari romanning
quyidagicha turlariga mansub?**

27.	Roman-xronika	«Shinelli yillar»	L
28.	Problematic roman	«Oltin zanglamas»	L
29.	Shuhratning «Mardlik afsonasi» balladasi qaysi mard qahramonning shijoati haqida?	To'maris	7

30.	«Mardlik afsonasi» balladasida To'maris kimga qarshi kurashgan?	Kayxusravga	7
31.	«Mardlik afsonasi» balladasida ushbu fikrlarni kim aytgan? «Qo'li bog'liq yashashdan o'lim a'lodir... Aqling – daryo, mehring ko'l, har bir so'zing – dur! El tinchidi, o'lkada ur-sur yo'qoldi. Yovdan faqat tuproqda qonli iz qoldi»	Xalq	7
32.	Adibning qaysi balladalarida markazida bolalar turadi?	«Ona va farzand», «Jamila», «Raymonda»	7

Quyidagi mavzular Shuhratning qaysi asarlarida aks etgan?

33.	Arab qizining fransuz bosqinchilariga qarshi kurashi	«Jamila» balladasida	7
34.	To'maris jasorati	«Mardlik afsonasi» balladasida	7
35.	Sho'ro yerlarida bo'lgan urush voqeasi aks etgan	«Ona va farzand»	7
36.	Vyetnamda borayotgan urushga qarshi turgan fransuz qizi jasorati...	«Raymonda»	7

37.	Shuhratning birinchi romani...	«Shinelli yillar» (1958)	7
38.	Ijodkorga katta obro' keltirgan asari...	«Shinelli yillar» (1958)	
39.	Shuhratni elga mashhur qilgan asari...	«Oltin zanglamas» (1965)	7

40.	Shuhrat: «Asardagi hayotni men yaxshi bilan, ular men bilan bo'lgan, menga uchragan kishilarning hayoti. Men bu hayotning atrofidasam, naq ichida bo'lganman. Bu mavzuda biron narsa yaratmasam, ko'nglim o'rniga tushmas edi», – deb qaysi romani haqida aytadi?	«Oltin zanglamas» haqida	7
41.	Shuhratning tugallanmay qolgan romani...	«Mashrab»	7
42.	«To'maris», «Shiroq» afsonalari muallifi...	Mirkarim Osim	
43.	«Oyoqosti bo'lmasin ajdodim go'ri» misrasi qaysi asardan olingan?	«Mardlik afsonasi» balladasidan	7
44.	«Mardlik afsonasi» balladasida «Qon yig'ladi» birikmasi necha marta takrorlanadi?	9 marta	7
45.	«Mardlik afsonasi» balladasida To'maris Kayxusravning uzilgan boshini qayerga otadi?	Qon to'la chuqurga	7
46.	«Mardlik afsonasi» balladasidan olingan quyidagi misrani davom ettiring: «Axir qancha chuqurdan qaynasa buloq...»	«Suvi shuncha pok bo'lur, shuncha totliroq!»	7

«Oltin zanglamas»

47.	Tuhmat bilan nohaq qamalgan qahramon...	Maktab direktori Sodiq	L
48.	Sodiqni so'roq qilayotgan tergovchi...	Chuxanov	L

49.	«Juda o'zgachadek bo'lib tuyulgan bu yoshgina yigit oq-sariqdan kelgan, ko'zlari ko'm-ko'k, qoshlari sezilar-sezilmas kulrang, burnining uchi birov chertib qo'ygandek to'mtoq, engagi uchli, labi cho'g'dek qizil». Ta'riflangan yigit kim?	Pushkaryov	L
50.	Chuxanovga yordamlashgan tergovchi...	Pushkaryov	L
51.	Sodiq nima sababdan kurortga bepul putyovka olgan kishidek quvondi?	Pushkaryovning Sodiqning ahvolini so'rab qilgan mehribonligidan	L

Quyidagi parchalar qaysi qahramonlar nutqidan olingan?

52.	– Rostingizni ayting, so'vetlardan norozi bo'lgan yillaringiz bo'lganmi? Hech jinoyatga qo'l urganmisiz?	Pushkaryov	L
53.	– Mutlaqo! Xayolimga ham kelmaçan. Buning uchun asos ham yo'q; badavlat xonadondan chiqmaganmanki, otamning sho'ro hukumati tufayli qo'ldan ketgan mol-mulkini eslab, xumori tutsa; chet elda bo'lganim yo'qki, uning usti yaltiroqligiga uchsam, o'shanday hayotni orzu qilsam; birorta mafkurasi buzuoq odamda o'qiganim yo'qki, u meni yo'ldan urgao bo'lsa!	Sodiq	L
54.	«Bo'yingizga oling qo'ying-da, o'zingizni qiynab nima qilasiz, siz kuch bergan to'nka endi ko'karmaydi»	Saydullayev (aslida Sa'dullayev)	L
55.	– Yolg'on! Tuhmat!	Sodiq	L

56.	– Baqirmang! Qo'l ostingizdagilarga baqiradigan direktorlik vaqtingiz o'tib ketgan. Men bu gaplarni o'z og'zingizdan eshitganman	Mirsalim	L
57.	– Sovet kishisini haqorat qilmang, grajdanin Qo'chqorov	Saydullayev	L
58.	– Sening-ku tilyog'lama, ichidan pishganligingni bilardim, lekin yuragi qora, iflos, ig'vogarligingdan bexabar ekanman. Mayli, gapir, og'zingga siqqancha gapir, vijdonsiz!	Sodiq	L
59.	– Qo'chqorov! Yengillik qilmang! Haqiqat doim shunaqa achchiq va zalvorli bo'ladi. Shularning barchasini shu vaqtgacha o'zingiz tartibi bilan aytib berishingiz mumkin edi. Birovning og'zidan eshitish va fosh bo'lish, albatta, og'ir! Nachora!	Chuxanov	L
60.	– Shukurov, sizning tuhmatchiligingizga emas, it yeganini qusadiku, lekin qo'lingizga tarbiyalash uchun ishonib topshirilgan bolalarga jonim achiyapti. Essiz bolalar! Essiz tarbiya!	Sodiq	L
61.	– Siz o'zingizning g'amingizni yeyavering	Saydullayev	L
62.	– Mening vijdonim pok. Itning tili tekkani bilan daryoning suvi harom bo'lmaydi. Yolg'onning oyog'i qisqa, uzoqqa borolmaydi, bir kuni misi chiqadi. Lekin sizlarning bunday g'alamislar gapiga ishonganinglarga hayronman.	Sodiq	L
63.	– Xalq dushmani Boltaqul sizning maslakdoshingiz ekanini unutmang!	Chuxanov	L
64.	– U dushman emas!	Sodiq	L

65.	«U guvohlikka kelgan ekan. U shunaqa ayblarni Sodiqqa taqadiki, uncha-muncha odamning tiligacha muzlab ketadi. Sodiq o'z tug'ilgan qishlogida bir necha maslakdosh kishilari bilan sovetlarga qarshi ishlar qilgan emish. Maqsadi – yoshlarni yo'ldan urish bo'lgan emish. Shu niyatda maorif sohasiga ko'chgan, qamalgan Boltaqul uning o'ng qo'li ekan. O'z faoliyatini kengaytirish maqsadida markazga ko'chib kelgan, uni ham verbovka qilishga uringan, u yon bosmaganidan keyin turli yo'llar bilan qisa boshlaganmish». Sodiqqa qarshi kim yolg'on guvohlik berdi?	Mirsalim	L
66.	«Sodiqni maktabdagi halol o'qituvchilarni quvg'in qilish, ta'qib ostiga olish, talabalar orasida diniy targ'ibot olib borish (qaldirg'ochni Makkayi-mukarramadan kelgan degan, taloq haqida odobsiz latifa aytib berganmish), maishiy jihatdan buzilib, yosh xotinga uylanish, ochilgan xotin-qizlarni tahqirlashda aybladi. «Hukumat xotin-qizlarni erkaklar bilan teng qilaman, deb bekor urinadi, yigirmata xotinning aqli bir tovuqnika yo'q. Bir ayolning g'iybati qirqta eshakka yuk bo'ladi», degan emish». Yolg'on, bo'htondan iborat bu uydimalarni to'qigan va guvohlik bergan shaxs...	O'qituvchi Shukurov	L

67.	«Sodiq Chuxanov uzatgan qog'ozni o'qidi- yu, ustidan sovuq suv quyilgandek hushyor tortdi». Bu qanday qog'oz edi?	Qog'oz uning partiyadan o'chirilganligi va partiya biletini shahar partiya komitetiga topshirilgani haqida edi.	L
68.	Asarda deputatlikka nomzod qaysi ayol nomi keltiriladi?	Mavjuda Abdurahmonova	L
69.	Oscavixim nishoni taqib olgan qahramon...	Saydullayev	L

TUROB TO'LA (1918 – 1990)

1.	Turob To'la qachon, qayerda tavallud topgan?	1918-yil 24-dekabrda hozirgi Janubiy Qozog'iston viloyatining Turbat qishlog'ida tug'ilgan	6
2.	Shoir qaysi o'quv yurtlarida tahsil olgan?	Ota-onasidan erta ayrilgan Turobjon bolalar uyida ta'lim-tarbiya oladi. 1934 – 38-yillarda Toshkent teatr bilim yurtida, 1938 – 1941-yillar oralig'ida Toshkent pedagogika instituti til va adabiyot fakultetida o'qiydi	6
3.	Turob To'la qayerda, qaysi vazifalarda ishladi?	Yoshlar gazetasida adabiy xodim, O'zbekiston Davlat radioeshittirish qo'mitasida muharrir va suxandon, O'zbekiston Davlat nashriyoti (O'zdavnashr)da muharrir, «O'zbekfilm» kinostudiyasida ssenariy bo'limi mudiri, respublika kinochilar uyushmasida kotib, Madaniyat vazirligi san'at ishlari boshqarmasi boshlig'i, Hamza nomidagi teatr direktori, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi huzuridagi Adabiyotni targ'ib etish markazi rahbari singari vazifalarni bajaradi	6
4.	Turob To'la ijodiy faoliyatini necha yoshidan boshladi?	15-16-yoshidan	6
5.	Dastlabki she'riy to'plami qachon qanday nom bilan chop etildi?	1939-yilda «She'rlar» nomi bilan	6

6.	Ikkinchi jahon urushi yillarida qaysi she'riy to'plamlari e'lon qilindi?	1941-yilda «Shodligim», 1944-yilda «Tabassum»	6
7.	Shoirning she'r va dostonlar to'plamlari...	«Baxt tongotari» (1948), «Muborakbod» (1949), «Bolalar dostoni» (1950), «Qanotlan qo'shiqlarim» (1955), «Tanlangan asarlar» (1958), «Oromijon» (1961), «Gulyor» (1968), «Oftob nayzada» (1974)	6
8.	Adibning qaysi asarlari zamondosh o'zbek adabiyoti va san'ati namoyondalariga bag'ishlangan?	«Nafosat» (1967), «Kamalak» (1972)	6
9.	Turob To'la samarali ijodiy va mehnat faoliyati uchun qanday taqdirlandi?	Shoir «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi», «O'zbekiston xalq shoiri» unvonlari bilan taqdirlangan	
10.	Shoirning ushbu mashhur qo'shiqlari qaysi to'plamidan joy olgan? «Hayo bilan», «Sumbula», «Ko'chalar», «Do'ppi tikdim», «Sartarosh qo'shig'i» va boshqalar	«Qanotlan qo'shiqlarim» to'plamidan	6
11.	Turob To'la qaysi kino-filmlarni yaratga olinishida faol ishtirok etgan?	«Maftuningman», «Shashmaqom», «Furqat»	6
12.	Turob To'laning pyesalari...	«Qizbuloq», «Nodirabegim», «Momo yer»	6
13.	Shoirning opera libretto va balet librettolari...	«Zulmatdan ziyo», «Malikayi ayyor» opera liberettolari hamda «Samarqand afsonasi» balet liberetto	6

14.	Turob To'la chet el ijodkorlarining qaysi asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan?	Shekspirning «Qiyiq qizning quyulishi» komediyasini, Pushkin, Lermontov, Nekrasov, Shevchenko, To'qay asarlarini ona tilimizga mahorat bilan o'g'irgan	6
15.	Taniqli shoir, nosir, dramaturg va tarjimon Turob To'la qachon olamdan o'tdi?	1990-yil 20-aprelda	6
16.	Turob To'laning nasriy janrda yaratilgan bir necha katta-kichik hikoyalar yagona syujet ipiga mohirlik bilan tizilgan qissasi...	«Yetti zog'ora» qissasi	6
17.	Turob To'laning nasrda yozilgan birinchi asari qaysi?	1981-yilda yozilgan «Yetti zog'ora» qissasi	6
18.	«Do'nan» hikoyasi qaysi asardan olingan?	«Yetti zog'ora» qissasidan	6

«Yetti zog'ora» qissasi

19.	Yozuvchi «Yetti zog'ora qissasi»da xalq og'zaki ijodining qaysi janrlaridan foydalandi?	Rivoyat, afsona, ertaklardan	6
20.	Asardagi «o'ziga to'q, tinch oilada katta bo'lgan yolg'iz o'g'il» kim?	Toshtemir	6
21.	«Yetti zog'ora qissasi»da voqealar qanday rivojlanadi?	Yosh Toshtemir Baxshilla maxsumdan Turbat qishlog'iga olib borishni iltimos qiladi? Baxshilla maxsum o'z hayotida ko'rgan-kechirganlarini, kattalardan eshitgan rivoyatlarni nabirasiga yo'l davomida nihoyatda qiziqarli tarzda aytib boradi	6

22.	Jonivorlarni sevgani uchun Baxshilla maxsum Toshtemirni kimga o'xshatadi?	Buvasiga, yani o'ziga	6
23.	Oyoqlarining to'pig'ida olasi bor, peshanasida qashqasi. Ko'zlari katta-katta, kiyiknikiga o'xshagan chiroyli qahramon...	Baxshillalarning uyida yangi tug'ilgan qulun (otning bolasi)	6
24.	Yangi tug'ilgan qulunni Baxshillaga kim: «Bu seniki», – dedi?	Buvasi	6
25.	Otni kim parvarishladi?	Baxshilla	6
26.	Otning odamga o'xshash xislatlari...	Baxshillaning ilon xavfidan qutqarib qolishi, o'rta ariqdan emas, Toshloqdagi buloq suvidan ichishi, yo'lning o'ng tomonidan yurishi, uyga o'zi kirib kelishi, ovqatni tanlab yeyishi	6
27.	Baxshilla otini, bobosi o'rgatganidek, nima bilan yuva boshladi?	Jambil bilan	6
28.	Baxshilla otiga nima taqib qo'ydi?	Ko'z tegmasin deb, ko'zmunchoq	6
29.	Baxshilla otni qayerlarga minib borardi?	Ko'plari tomosha qilish uchun va o'roq mahalida dehqonlarga yordam berish uchun	6
30.	Bug'doy qayerda ko'p bitardi?	Matansoyda	6
31.	Baxshilla o'roqchilarga nima olib chiqardi?	Go'ja, ayron	6
32.	Do'nan kim bilan do'stlashib qoldi?	Baxshilla bilan	6

33.	Baxshilla nimani yesin deb otini qo'yib yubordi?	Mashoq terib yesin deb (Baxshilla g'aram soyasida uxlab qoldi)	6
34.	Do'nan Baxshillani nimaning xavfidan saqlab qoldi?	Ilonning	6
35.	Turbat qishlog'iga mehmon kutishda qanday udum (odat) bor edi?	Mehmonning ko'ngliga yoqqan narsani unga berib yuborish	6
36.	Baxshillaning oyisi...	Bashor kelin (Bashorat)	6
37.	Mehmonni kutib olish uchun kim yordamga keldi?	Fayzi dasturxonchi	
38.	Mehmon kutib olish uchun qanday tayyorgarlik ko'rishdi?	Bir qozonda sho'rva, bir qozonda qazi, bir o'choqda non, bir o'choqda somsa, xullas, to'yga ham o'xshab ketardi	6
39.	Asardagi ko'zi yomon, tikilganni yiqitadigan qahramon...	Mehmon	6
40.	Mehmonning ko'zi yomonligini eshitib yaxshi ko'rgan narsalarini ko'zdan nariga olib, yomon ko'rgan narsasini ko'rinadigan joyga qo'yishdi. U narsalar nima edi?	Bo'g'oz qo'y, ikkita bo'rdoqi, sayrab turgan kaklikni ko'zdan nariga olishdi, Bashor kelinning taklifiga binoan, Fayzi dasturxonchi kuchukni ko'zga ko'rinadigan joyga bog'lab qo'ydi	6
41.	Mehmon kelganda Baxshillaning Do'nan otini ko'zga ko'rinadigan joyga kim bog'lagan edi?	Baxshillaning akasi	6

42.	Shang'illab butun hovlini boshiga ko'targan qahramon...	Fayzi dasturxonchi	6
43.	Do'nan necha yoshli ot?	3 – 4 yoshli	6
44.	Do'nan kimni o'xshatib tepgan, yoniga ham yo'latmas edi?	Baxshillaning akasini	6
45.	Mehmon nimani yoqtirib qoldi?	Baxshillaning Do'nan otini	6
46.	Oti olib ketilgandan so'ng Baxshulla qay ahvolda qoldi?	Ishtahasi bo'g'ilib, ko'ngli ovqat tilamay qo'ydi, uch kunda «qiltiriq» bo'lib qoldi. Oyisi ham qo'rqib ketdi	6
47.	Mehmon qaysi qishloqdan edi?	Chorpo'latdan	6
48.	Baxshilla otni kim o'rnida ko'rar edi?	Odam o'rnida	6
49.	Baxshilla nima uchun ketib qoldi?	Otni qidirib, lekin topolmay qaytib keldi	6
50.	Baxshilla kasal bo'lib qolganidan so'ng otasining ko'rsatmagan tabibi qolmadi. Axiri otni olib kelishga kim fatvo berdi?	Qishloq oqsoqoli	6
51.	Mehmon olib ketgan otning holati qanday edi?	Mehmonning uyida Do'nan hech ovqat yemadi, suv ichmadi, tinimsiz kishnadi, oxir-oqibat qovurg'alari sanalib qoldi	6
52.	«Yetti zog'ora qissasi»dagi «Do'nan» hikoyasi qanday yakun topdi?	Mehmon otni qaytarib Baxshillaga olib kelib beradi	6
53.	Voqealar rivojida nima isbotlandi?	Baxshillani suygan otidan, otni esa boladan ajratish also mumkin emasligi	6

54.	«Yetti zog'ora qissasi»da qaysi buyuk shaxslar nomi tilga olingan?	Amir Temur, Ismoil ota, Avliyo ota, Xoja Ahmad Yassaviy, «Navoiyni mahliyo qilgan donishmand Otoyi» singari buyuk shaxslar	6
55.	O'tgan asrning 70 – 80-yillarida sobiq sho'rolar mamlakatida xalqlar va milliy madaniyatlar tarixiga, millatlarning din-u diyonatiga past nazar bilan mensimay qaralar edi. Bu mavzularda ilmiy yoki badiiy izlanishlar olib borish qattiq ta'qib etilar, ijodkorlar ayovsiz tanqid ostida qolardilar. «Bularning barchasi zamirida sovet mafkurasiga xos bo'lgan, odamzotni tarixiy xotira, Vatan tuyg'usidan judo qilishga qaratilgan g'arazli intilishlar mujassam ekanini anglash, tushunish qiyin emas». Ushbu fikrlar kimning qaysi asaridan olingan?	I.A.Kari-movning «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asari-dan	6
56.	Turli sabablar jamuljam bo'lib yuzaga kelgan murakkab vaziyatga tushib qolgan odamlar va ... hayvonlarning nozik kechinmalari tasvirlangan asar...	«Yetti zog'ora qissasi» asaridagi «Do'nan» hikoyasi	6

ASQAD MUXTOR (1920 – 1997)

1.	«Asqad Muxtor – Sharq klassiklaridan Bedil, XX asrning ulkan shoirlari G'afur G'ulom, Maqsud Shayxzoda singari faylasuf shoir. Agar G'afur G'ulom falsafasi inson g'ururining hayotiy asoslarini, kelajak romantikasidagi farahbaxshlikni tasdiq etsa, Maqsud Shayxzoda falsafasi, asosan, vatanparvarlik, oliyanoblik va ona yurtga bo'lgan mehr-muhabbat asoslarini badiiy umumlashma – xulosalarda namoyon etadi». Asqad Muxtor haqidagi ushbu fikrlar muallifi...		N.Rahimjonov	L
2.	Asqad Muxtor qaysi soha fidoyisi?	Asqad Muxtor shoir, nosir, dramaturg, tarjimon, jurnalist hamda jonkuyar tashkilotchidir		
3.	Asqad Muxtor qachon qayerda tavallud topgan?	Adib 1920-yilning 23-dekabrida Farg'ona shahrida Ma'sud temiryo'ldi oilasida tug'ildi		5, 7, 8
4.	Adibning oilasi asli qayerdan ko'chib kelgan?	Adibning oilasi asli Tataristondan kelgan bo'lib, farg'onaliklar orasiga singishib ketgan		7
5.	Asqad Muxtor necha yoshida otasidan ajraladi?	11 yoshida		7, 8
6.	Asqad Muxtor qaysi ilm dargohlari-da o'qidi?	1931-yilda otasi vafot etadi. Nochor oila 12 farzandning uchinchi bo'lgan Asqadni bolalar uyi – yetimxonaga topshirishga majbur bo'ladi. U mehribonlik uyidagi maktabni bitirdi,		7, 8

		1936-yili Toshkentga kelib, jurnalistika kursida o'qidi (gazetada ishladi). 1938-yili Samarqanddagi O'zbekiston davlat dorilfununiga o'qishga kiradi, Ikkinchi jahon urushi boshlangach, Samarqand dorilfununi Toshkentdagi O'rta Osiyo dorilfununiga vaqtincha qo'shib yuboriladi. Shu tariqa o'qishini Samarqandda boshlagan Asqad Muxtor Toshkentda tamomlaydi	
7.	Asqad Muxtorning ilk she'ri o'smirlar gazetasi-da qachon e'lon qilingan?	O'n besh yoshlarida	5
8.	«O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasida qaysi she'ri bosildi?	«Bizning avlod» (1938)	7
9.	Asqad Muxtorning mehnat faoliyati...	Uni Andijonga ishga yuboradilar. Uch yil davomida Andijon davlat pedagogika institutida o'zbek adabiyoti kafedrasini mudiri lavozimida faoliyat yuritadi. 1945-yilda Asqad Muxtor Toshkentga qaytadi. U avval markaziy gazetalarda – «Yosh leninchi», «Qizil O'zbekiston»da – bo'lim mudiri, mas'ul kotib, 1960 – 1965-yillarda «Sharq yulduzi» jurnalida, so'ng «Guliston» jurnallarida bosh muharrir bo'lib ishladi. O'zbekistondagi birinchi haftalik gazeta – «O'zbekiston adabiyoti va san'ati»ga rahbarlik qildi. Respublika Yozuvchilar uyushmasida kotib lavozimida ishladi	7, 8
10.	Asqad Muxtor haqida qanday naql paydo bo'ladi?	«Asqad Muxtor tahrir maktabi» degan	

11.	Tarjimonlik sohasida Asqad Muxtor qanday ishlarni amalga oshirgan?	Sofoklning «Shoh Edip» fojiasini, Shekspir va Shiller tragediyalari, Evripid, Pushkin, Lermontov, Aleksandr Korneychuk, Tagor, Gorkiy, Shevchenko, Blok, Mayakovskiy, asarlarini mahorat bilan o'zbek tiliga o'g'irgan	5, 7, 8
12.	Asqad Muxtorning asarlari qaysi tillarga tarjima qilingan?	Asqad Muxtorning juda ko'p asarlari jahonning qator tillariga, jumladan, rus, hindu, urdu, vyetnam, xitoy, rumin, ingliz, va boshqa tillariga tarjima qilingan	
13.	Asqad Muxtor qanday unvon bilan taqdirlangan?	«O'zbekiston xalq yozuvchisi» faxriy unvoni bilan	5, 7
14.	Asqad Muxtor qaysi asari uchun Davlat mukofoti olgan?	1974-yilda «Chinor» romani uchun	5
15.	Asqad Muxtor qachon vafot etgan?	Asqad Muxtor 1996-yilning 17-aprelida Toshkent shahrida vafot etdi	7, 8
16.	Asqad Muxtorning nechta kitobi bosilib chiqqan?	50 dan ortiq	5
17.	Asqad Muxtorning ilk she'riy asarlari...	«Tilak», «Tong edi», «Totli damlar» (1935 – 1938-yillar)	8
18.	Asqad Muxtorning she'riy kitoblari...	«Po'lat quyuvchi» (1947), «Hamshaharlarim» (1949), «Rahmat, mehribonlarim» (1954), «Chin yurakdan» (1956), «99 miniatura» (1962), «Karvon qo'ng'irog'i» (1964), «She'rlar» (1966), «Quyosh belanchagi» (1971), «Sizga ayta so'zim» (1978)	5, 8

19.	Asqad Muxtor qissalari...	«Daryolar tutashgan joyda» (1950), «Qoraqalpoq qissasi» (1958), «Buxoroning jin ko'chalari» (1980, prototipi – Fayzulla Xo'jayev), «Bo'ronlarda bordek halovat», «Jar yoqasidagi chaqmoq» (1982), «Kumush tola» (1987)	5, 8
20.	Asqad Muxtor romanlari...	«Opa-singillar» (1954 – 1955), «Tug'ilish» (1960 – 1963), «Davri mening taqdirimda» (1964), «Chinor» (1969 – 1973), «Amu» (1984)	5, 8
21.	Asqad Muxtor pyesalari...	«Mardlik cho'qqisi» (1948), «Yaxshilikka yaxshilik» (1949), «Zar qadri», «Samandar» (1978) kabi pyesalari	5, 7
22.	Asqad Muxtorning hikoyalar to'plami...	«Hayotga chaqiriq» (1956), «Dunyo» (1962), «Insonga qulluq qiladurmen» hikoyalar to'plami (1994)	
23.	Asqad Muxtorning bolalarga bag'ishlangan kitoblari	«Chin yurakdan» (1956) nomli she'riy, «Hayotga chaqiriq» (1956), «Dunyo bolalari» (1962) nomli hikoyalar to'plamlari	5, 8
24.	Asqad Muxtor qaysi asari orqali katta ijodkorlar nazariga tushadi?	«Po'lat quyuvchi» poemasi (1947)	7
25.	Adibning birinchi qissasi	«Daryolar tutashgan joyda» (1950)	7
26.	Qaysi shoirlar «Sog'inish» nomli she'r yozgan?	G'afur G'ulom, Asqad Muxtor	
27.	Asqad Muxtorning Ikkinchi jahon urushi yillari yozgan she'rlari...	«G'alaba ishonchi», «Jangchining bayram kechasi», «Tug'ishganlar qaytdi», «Sog'inish»	8

28.	Hozirgi hayot, ma'naviyat, madaniyat va badiiy ijod borasidagi mulohazalari aks ettirilgan asari...	«Uyqu qochganda»	
29.	O'sha paytda adabiy jamoatchilik va kitobxonlar e'tiborini qozongan asari...	«Opa-singillar» romani	7
30.	Qaysi kitobidagi asarlari o'zining yuksak saviyasi bilan kitobxonlar e'tiborini tortdi?	«Insonga qulluq qiladurmen» hikoyalar to'plami (1994)	7
31.	Adibning so'nggi kitobi...	«Uyqu qochganda» (1997)	7
32.	«Uyqu qochganda» kitobining ikkinchi nomi...	«Tundaliklar»	
33.	«Tilak», «Tong edi», «Totli damlar» qanday janrda yozilgan?	She'rlar	8
34.	«G'alaba ishonchi», «Jangchining bayram kechasi», «Tug'ishganlar qaytdi», «Sog'inish» she'rlari qaysi davrda yozilgan?	Urush davrida	8
35.	Asqad Muxtorning qaysi she'riy to'plamlaridan joy olgan lirik asarlari o'z davri adabiyoti piligining sezilarli darajada ko'tarilishiga sababchi bo'lgan?	«99 miniatura», «Karvon qo'ng'irog'i»	8
36.	Matonatli shaxs, betakror ijodkor – Asqad Muxtorning insoniyatga qoldirgan vasiyatidek yangragan asari...	«Uyqu qochganda» («Tundaliklar», 1997)	
37.	Asqad Muxtor she'riyatini o'z davrida qanday baholashgan?	Falsafiy xarakterdagi she'riyat deb	7

38.	Asqad Muxtorga katta shuhrat keltirgan asar...	«Chinor» romani	8
39.	Asqad Muxtorning «O'zimniki emas bu umr» she'ridagi «Yengil-yelpi o'tsa umrdan bir dam, Rozi-rizo bo'lmas egasi», misralarida gap kim haqida boryapti?	O'z vatandoshlari uchun jon fido qilgan insonlar haqida	7
40.	«Yo'l» she'rida shoir (Asqad Muxtor) uchun yo'l qanday mazmun kasb etgan?	Ijod	7
41.	«Yulduzim» she'rida yulduz uchib qayerga tushadi?	Jizzax cho'liga	7
42.	«Yulduzim» she'rida mo'jizaga yo'yilgan yulduz parchasini shoir nima deb ta'riflaydi?	«Bola baxtim» deb	7
43.	«Tug'ilish» she'rida farzand qaysi oyda tug'iladi?	Iyul	7
44.	«Tug'ilish» she'rida eshikdan eshikka yugurib nima suyunchi so'raydi?	Shabada	7
45.	«Tug'ilish» she'rida chaqaloqning otasi qanday tasvirlangan?	Ko'ksida yulduzi, bir qo'li mayib	7
46.	Asqad Muxtorning qaysi she'rida bir tup o'rik soyasi bilan do'st bo'ladi?	«Bir tup o'rik...» deb boshlanuvchi she'rida	7
47.	Qaysi asarlarda yomon do'st ko'lankaga o'xshatiladi?	Abayning «Nasihatlar» asari, Asqad Muxtorning «Bir tup o'rik...» she'rlarida	7

**Quyidagi misralar Asqad Muxtorning
qaysi she'rlaridan olingan?**

48.	«Daf etolmas davlat qazoni, Boymi yo'qsil yerga cho'kkusi. O'lim tenglar shoh-u gadoni – Adolatning oliy cho'qqisi»	«Adolat haqida»	
49.	«Yer yosh: soflik jimirlar etin, Zoriqqan g'unchalar ochildi bog'da. Panjaradan oshib chiqib ketdi Maysalarda yurgan shabboda»	«Tug'ilish»	7
50.	«Donodir, nodondir, zukkodir, Barchasi o'limdan qo'rqqusi. Dono-yu nodonga o'lim bir – Adolatsizlikning oliy cho'qqisi»	«Adolat haqida»	
51.	«Yurganlarni daryo deydilar, Daryo – cheksiz umr ertagi»	«Yo'l»	7
52.	«Panjaradan oshib chiqib ketdi Maysalarda yurgan yashil shabboda»	«Tug'ilish»	7

**«Po'latjon yuz tup ko'chat ekmoqchi»
she'ri yuzasidan savollar**

53.	She'r qanday boshlanadi?	Po'latjonlar yangi uyga ko'chib chiqishi bilan	5
54.	«Po'latjon yuz tup ko'chat ekmoqchi» she'ri Aleksandr Dyumaning qaysi asari bilan mazmunan hamohang?	«Uch mushketyor» («Bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun» degan g'oya mujassam)	5
55.	«Uch mushketyor» asarida qanday fazilatlar ulug'lanadi?	Do'stlik, do'stga sodiqlik, ahillik kabi	

56.	Po'latjonning dadasining kasbi...	Injener	5
-----	-----------------------------------	---------	---

**«Hafta» she'ri yuzasidan savollar
Quyidagi misralar haftaning qaysi kunlari
nomidan aytilgan?**

57.	To'ng'ichiman haftaning	Yakshanba	5
58.	Har boringga baxt keltiray, Ilhom solay dilingga. Kunlar qadriga yeting, Ixlos qo'ying bilimga	Juma	5
59.	Qoq beliman haftaning	Chorshanba	5
60.	Ammo shon-shuhratdan Toj kiyishim mumkin man	Seshanba	5
61.	Yoqtirmayman kimda-kim Meni bekor oldirsa	Payshanba	5
62.	Meni tanir bolalar ham Tongim sabolaridan. Maktabdagi qo'ng'iroqning Kumush sadolaridan	Dushanba	5
63.	Kunlar to'plar misqollab Bayramlar shodligini. Kunlar bunyod etadi Umring obodligini	Juma	5
64.	Yoqtirmaydi meni yalqov	Dushanba	5
65.	Bo'lsa deyman ma'noli Minutlarim barchasi. Nega desang, men ham sening Umringning bir parchasi	Payshanba	5
66.	Biz shunaqa – bir butun, Bamisoli zanjirmiz. Birimizda ish unmasa, Hammamiz ham ranjiymiz	Chorshanba	5
67.	Gagarin Oyga uchgan kun qaysi?	Seshanba	5

68.	Qalbimni men ham jindak, Boyitaman galimda. Zimdan hisob so'rayman, Aylanib kelganimda	Payshanba	5
69.	Mehnat mendan start olar	Dushanba	5
70.	Ish haftasi bekildi	Shanba	5
71.	Hech: «Men buyuk», – demasman	Seshanba	5
72.	Yakshanbaning ukasiman	Dushanba	5
73.	Mehnat kuchga kiradi	Seshanba	5
74.	Sizning kam-u ko'stingizdir – Bizning kam-u ko'stimiz. Bizning yutuq – sizning yutuq, Biz odamning do'stimiz	Payshanba	5
75.	Umr o'zi kunlardandir, Shu kunlarning biriman. Men oxirgi mehnat kuni, Haftaning taqdiriman	Juma	5
76.	Haftaning qofiyasiz kuni	Juma	5
77.	Haftaning qaysi kunida Gagarin Oyga uchadi?	Seshanba kunida	5
78.	«Murodbaxsh kun»...	Chorshanba	5
79.	«Hafta she'rida qanday g'oya mujassam?	Kunlarni birlashtirgan haftalarni qanchalar foydali, unumli o'tkazilsa, kelgusi yillar xuddi shunday fazilatlarga boy, umidlar ro'yobga chiqqan farahli damlar bo'ladi. Demakki, umringiz mazmunli, hayotingiz shodliklarga to'la bo'ladi	

«Chinor» romani

80.	«Chinor» asarining kompozitsion tuzilishi boshqa romanlardan qanday farq qiladi?	«Romanda go'yo bir-biri bilan bog'lanmaydigan qator hikoyalar, rivoyatlar, hatto qissalar aralash tartibda kelaveradi. Ularda tasvirlangan voqea-hodisalar ham zamon, vaqt nuqtayi nazaridan izchil tizimga bo'ysunmaydi. Masalan, roman yaratilgan davr (o'tgan asrning oltmishinchi yillari) hodisalari hikoya qilib borilib, birdaniga asrning boshida yuz bergan fojialar tafsilotiga o'rin beriladi»	8
81.	Asar markazida turuvchi obraz...	Ochil bobo	8
82.	Ochil bobo necha yoshda?	93 yoshda	8
83.	Roman qaysi voqea bilan boshlanadi?	Butun yurtga tarqab ketgan uzoq-yaqin qarindoshlaridan xabar olgani otlangan Ochil bobo safarga chiqishi bilan boshlanadi	8
84.	Roman nima sababdan «Chinor» deb nomlangan?	Ko'plab insoniy taqdirlar bir-biri bilan Ochil bobo orqali bog'lanib, yagona shajarani – azim chinorni vujudga keltiradi	8
85.	Asqad Muxtor adabiyotimizga qaysi uslubni olib kirgan?	Shafqatsiz realizmni	8
86.	Asarda ramziy ma'noda chinor va mo'rt barglar kimlar?	Chinor – Ochil bobo, mo'rt barg – Akbarali	8

87.	«Chinor» romanida «mo'rt barg» iborasini kim qo'llaydi?	Ochil bobo	8
88.	Romanda «mo'rt barg» deb qaysi qahramon ta'riflanadi?	Akbarali	8
89.	Akbaralining kasbi...	Konchi	8

Quyidagi gaplar qaysi obrazlar nutqidan olingan?

90.	«Odam deb o'lgan odam – doim tirik»	Ochil buva	8
91.	«O'zini deb yashagan – o'lik»	Akbarali	8
92.	Chet eldan yurtdoshlarini ko'rish uchun kelgan qahramon...	Azimjon	8
93.	Ochil bobo nabirasi Azimjon bilan kimni ko'rgani kelishdi?	Akbaralini	8
94.	Ochil bobo va Azimjon qayerga joylashishdi?	Mehmonxonaga	8
95.	Mehmonxonani qidirayotgan bobo va nabira adashib qayerning eshigini qoqishdi?	Muzeyning	8
96.	Azimjon Akbaraliga qanday qarindosh?	Ammavachchasi	8
97.	Choy damlagani chiqqan Ochil bobo Akbaralini qanday tanib qoldi?	Ovozidan	8
98.	Bobosini tanib qolgan Akbaralining qo'lidan nima tushib sindi?	Piyola («Kubovaya» deb yozilgan, bug' bilan to'lgan xonada Akbarali Ochil boboni tanimay turib undan qaynagan suv so'ragan, bobo esa: «Savobtalab odammiz», – deb piyolani to'ldirib choy quyib bergan edi)	8

99.	Ochil bobo Akbaralini ko'rma- ganiga necha yil bo'lgan edi?	7 yil	8
100.	Ochil bobo dastlab Akbaralini nega tanimadi?	Akbarali juda qarib ketgan: 30 yoshligida 50 yoshli odam qiyofasiga kirgan, quruq suyagi qolgan, xolos, yonoqlari turtib chiqqan, oq oralagan soch-soqoli o'siq, ko'zlarida nur yo'q	8
101.	Akbarali qayerda yashar edi?	Shodasoyda	8
102.	Bir ko'zi ko'r odam...	Bektemir	8
103.	Akbaralining vafot etgan dada- sining janggohdagi do'sti...	Bektemir	8
104.	Akbaralining dadasi qachon vafot etgan?	Urushning birinchi yilida	8
105.	Akbaralining onasi u bilan birga yashar edimi?	Onasi boshqa er qilib ketgan edi	8
106.	Baland bo'yli, yuzini chuqur ajinlar tilkalagan, ko'zi ichiga cho'kkan, qora, cho'tir odam...	Bektemir	8

Bektemir haqida

107.	Bektemir qayerlik edi?	Kapsanlik – tog'lik	8
108.	Bektemir urushning nechanchi yilida asirga tushadi?	1942-yilda (Mozdok yaqinida qurshovda qolib, uch oy jang qilgandan keyin, ochlikdan sulaygan, o'q-dorisiz holda dushmanga asir tushdi)	8
109.	Nemislar asirlarni qanday ishlarga yollashar- di?	Nemislar ularni bir joyda uzoq tutishmas, dam allaqanday yer osti korxonasiga, dam tonnel qurilishiga, dam tosh karyeriga qo'yishar, kechalari bilan notanish yo'llardan kolonna qilib haydashar edi.	8

		Bir necha tillarni o'rgandi, necha-necha o'limlardan qoldi, necha xil kasalliklarga yo'liqdi	
110.	Urushdan keyin hamma unutilib ketgan asirlarni kimlar qutqardi?	Urushdan keyin ularni hamma unutilib tashlab ketgan asirlar lageridan amerikalik soldatlar kelib qutqardi	8
111.	Bektemir ozod bo'lganidan keyin nega Vatanga qaytmadi?	Yevropada elma-el sudralib yurdi. Gaplariga qaraganda, Vatanga qaytish xavfli, u yerda unga o'xshaganlar uchun yana lagerlar (qamoqxonalar) tayyor emish (Stalin: «Asir tushmay-san, oxirgi o'qni o'zingga otasan», – degan (ta'kid bizniki)	8
112.	Bektemir necha yilda uyiga qaytdi?	O'n uch yil sargardonlikdan keyin yuragini hovuchlab bo'lsa ham, yurtiga qaytdi	8
113.	Bektemirning oila-a'zolari...	Xotini va qizi bor edi	8
114.	Bektemir nega xotini va qizining oldiga bormadi?	Quruq qo'l bilan borishni xohlamadi	8
115.	Bektemir Akbaralining oldiga nega kelgan edi?	Akbarali bir ish topib beradi, deb umid qilib kelgan edi	8
116.	Bektemir yurtiga qaysi faslda qaytdi?	Kuzda	8
117.	Bektemir nega xursand edi?	Ertasi kuni Akbarali Bektemirni konga ishga olib borar edi. «Bektemir o'z smenasiga ketayotgandek ko'ngli yayraydi. Agar u konga ishga kirib olsa, har kuni mana shu yo'ldan yuradi. Necha yillardan beri birinchi marta o'z odamlari ichida, o'zi uchun	8

		yeng shimarib, terga botib, yayrab mehnat qiladi. Keyinroq xotini bilan qizini ko'chirib kelib, uy-joy ham qilib olsa! Bektemirning bir vaqtlar o'ylashga ham yuragi dov bermay yurgan orzulari shu emasmidi?»	
118.	Akbarali Bektemirning his-tuyg'ularini tushundimi?	Akbarali buning nimaligini tushunmaydi. Uning uchun bu oddiy bir ish kuni	8
119.	Novcha, ingichka, kamgap odam...	Akbarali	8
120.	«Ota o'rnida mehribon bir odam o'tirgandek bo'ldi», – deb Akbarali kimni nazarda tutyapti?	Bektemirni	8
121.	Bektemir: «Qizimni yoqtirsang, senga beraman», – deb kimga aytdi?	Akbaraliga	8
122.	Konga kiraverishda Akbari Bektemirga qaysi kiyimini berdi?	Konda kiyadigan pidjagini, yo'lakda esa bittadan karbit fonar olib, boshlariga kaska kiyishdi	8
123.	Bektemir Akbaraliga boshidan o'tkazgan qaysi voqealarni gapirib bordi?	Yevropada ishlagan konlarini, chiroqsiz, havosiz, xuddi ko'rkalamushdek yer qaziganlarini, u yerlarda insonning xorligini	8
124.	Konning ichida Akbarali va Bektemir qanday mudhish holatning guvohi bo'lishdi?	Yuqoridagi butun temir balkalardan payvandlab ishlangan og'ir shift bir chetidangina ilinib, lopillab turardi. Agar u tushib ketsa, ostidagi taransformator portlab ketar va katta yong'in chiqardi. Kon ichidagi barcha odamlarning hayoti xavf ostida qolar edi	8

125.	Bektemir qanday jasorat ko'rsatdi? Akbarali-chi?	Bektemir og'ir yashikni siljitib, transformatoridagi tokni o'chirdi, lekin o'zi chiqib ketishga ulgurmadi, og'ir temir shift bosib qoldi. Akbarali esa Bektemir yordamga chaqirganda ham bormadi. Ikki kishi harakat qilishganida Bektemir tirik qolarmidi. Akbarali qochib ketdi	8
126.	Odam kimdan qochib qutulolmaydi?	O'zidan	8
127.	Akbarali bir kishining o'limiga sababchi bo'lib qolganini kimga aytib berdi?	Bufetchi xotin Sonyaga	8
128.	Sonya qanday maslahat berdi?	«Ichgin, unutasan», — dedi	8
129.	Akbaralining onasi...	Sharofat xola	8
130.	Akbaralining onasi qay ahvolda?	Kasal, ustiga-ustak qarovsiz qolgan bemorning ahvoli kundan-kun og'irlashardi	8
131.	«Sen, bolam, bufetchi xotinga emas, boshqa hech kimga ham emas, faqat shodasoyliklar oldiga borib, gunohingdan o'tishlarini so'rashing kerak», — deb kim aytdi?	Sharofat xola	8
132.	Ona nima sababdan so'nggi ilinjini ham yo'qotgandek bo'ldi	Akbaralining undan yashirincha icha boshlaganini payqagach	8
133.	Akbarali onasining qaysi iltimosini bajarmadi?	Onaning Shodasoyga olib borishi, o'g'lining u yerdagi odamlardan kechirim so'rashi haqidagi iltimosini	8

134.	Sharofat xola o'limidan oldin qayerga ko'mishni vasiyat qildi?	Shodasoyga, otabuvalarining yoniga qo'yishni vasiyat qildi	8
135.	«Men o'ldirdim sizni, oyijon, men o'ldirdim, men, men, men!...» — degan qahramon...	Akbarali	8
136.	Qorong'ida qabristonda Akbarali nimani ko'rib qoldi?	O'zining bronzadan yasalgan haykalini	8
137.	Qabr ustidagi bronza haykal qanday daraxt soyasida edi?	Qayrag'och	8
138.	Nima uchun Akbaraliga haykal qo'yishgan edi?	Bektemir tanib bo'lmas darajada majaqlanib ketdi. Kiyib olgan pidjagi ichidan esa Akbaralining hujjatlari chiqdi. Konchi do'stlarining hayotini saqlab qoldi deb Akbaraliga bronzadan haykal o'rnatishdi	8
139.	Toshga o'yib zarhal harflar bilan yozilgan lavhada nima deyilgan edi?	AKBARALI G'OZIYEV (1931 – 1960) Konchi do'stlarini halokatdan qutqarish yo'lida qahramonlarcha halok bo'ldi	8
140.	Shodasoyliklar posyolkalarining nomini qaysi nomga o'zgartirishdi?	Akbarobod deb	8
141.	Ayanchli bir qo'rqq, chirkin bir hasharotdek kavaklarda pisib yurgan, o'zining la'nati, iflos vujudini, bir paqirga qimmat jonini o'ylab, do'stlik, muhabbat, ona mehridek ezgu narsalarni poymol qilgan qahramon...	Akbarali	8
142.	Ochil bobo aytgan «Odam deb o'lgan odam doim tirik» jumlasini kim anketa qog'ozning orqasiga yozib qo'ydi?	Azimjon	8

143.	«O'zini deb o'ylagan o'lik» jumlasini kim yozdi?	Akbarali	8
144.	Akbarali bobosi va Azimjonga boshidan o'tgan ayanchli voqeani aytib berdi. U bobosidan nimani kutgan edi?	Nasihat qilishini, maslahat berishini. Lekin bobosi: «Ertalab miya tiniqroq bo'ladi. Bir chorasini toparmiz, hozir kech bo'lib qoldi, sen ham yotib damingni ol», – deb chiqib ketdi	8
145.	«Men shu uzundan-uzoq umrimdachi, bolam, hech qachon bunday ojiz, bunday ayanch holga tushgan emasdim», – deb Ochil bobo kimga aytdi?	Nabirasi Azimjonga	8
146.	«Bizning shirkatimizning direktori kekxa odam. Nufuzli pirga qo'l bergan. «Pirimning olti ming muridi bor», deb maqtanardi. U pirni ko'rganman. Juda xasis odam, nasha chekar edi. Mashina bosib ketdi...» Bu voqeani kim aytib berdi?	Azimjon	8
147.	«Tagida yalmog'iz kamar bor deyishadi. Bolalarni u yerga yo'latishmaydi». Bu qaysi joy?	Shodasoy	8
148.	Ochil bobo va Azimjon Shodasoyga nega borishdi?	Ochil bobo Akbaralini o'z joniga qasd qilganiga ishonch hosil qilgan edi	8
149.	Azimjon Ochil boboga qaysi xatolarini eslatdi?	Komilani uydan haydaganini va Akbaraliga nasihat qilmaganini	8
150.	«Mo'rt barg edi» deb Ochil bobo kimni aytdi?	Akbaralini	8

151.	Akbarali konda yaxshi ishlagani uchun qanday taqdirlangan edi?	Faxriy yorliq bilan	8
152.	Akbaralining sevgan qizi bor edimi?	Akbarali bir qizni sevar edi. Ismi — Hadya	8
153.	Akbaralining do'stining ismi...	Abdusamad	8
154.	«Ba'zida bir nafas olgulik muddat Ming yulduz so'nishi uchun yetgulik» misralari muallifi...	G'afur G'ulom («Vaqt»)	8
155.	Asardagi parchadan qanday xulosa chiqadi?	Dunyoda faqat yaxshi bo'lishning, odobli, itoatli, yumshoqtabiat bo'lishning o'zi yetmasligi uqtiriladi. Zero, hayot shunchalar shafqatsiz, uning kutilmagan zarbalari, sinovlari shu qadar ko'pki, inson ularga doimiy tayyor turmog'i lozim, degan xulosa chiqadi	8
156.	O'sha mash'um daqiqada Akbaralining ichida qanday hislar bir-biri bilan ayovsiz olishardi?	Kamida ikki his. Ulardan biri: «Yur, Bektemirga yordam ber, agar ikki kishi bo'lsalaring, ulgurasizlar!» — desa, ikkinchisi: «Borma, xavfli, oldinda o'lim turibdi, yosh joning juvonmarg bo'lib ketadi! Yaxshisi — qoch! Joningni, hayotingni saqla» — der edi. Taqdir deganlari o'z aytganidan qolmadi — Akbaralini bir necha daqiqalik sinovga soldi va ... shafqatsizlarcha sindirdi!	8
157.	Akbarali qanday qilib Bektemirning umriga zomin bo'ldi?	Yo'q, u Bektemirni bo'g'ib, osib, urib o'ldirmadi. Hatto haqorat ham qilgani yo'q. Bor-yo'g'i ... hech nima qilmadi, xolos...	8

«To'qqizinchi palata»

158.	«To'qqizinchi palata» asari qanday janrda yozilgan?	Hikoya	L
159.	«To'qqizinchi palata» hikoyasi epigrafi...	«Nafing qancha bo'lsa – umring shuncha»	L
160.	Bahromov qayerda davolanar edi?	Qurilish shaharchasining yangi kasalxonasida	L
161.	«Keksa odam, ahvoli ancha og'ir, lekin ko'p sergap ekan, yotgan joyida ham inqillab gapirishini qo'ymaydi». Parchada kim tasvirlangan?	Bahromovning palatadagi qo'shnisi	L
162.	uzunchoq yuzli, bo'ydorgina qora qiz	Ma'mura	L
163.	Novcha bo'yli, tiyrak ko'zli, chayir o'spirin	Ergash	L
164.	«Ishtonsiz bo'lsa ham, nuqul qizil botinka kiygan, koptokdek yum-yumaloq – maysada jo'jami, chumchuqmi, kapalakmi, qoqina-turtina quvlagani-quvlagan» bola...	Alisher	L
165.	Kimga qimirlash mumkin emas?	Bahromovga	L
166.	«Imonsiz chol» deb Bahromov kimni aytdi?	Hoji buvani	L
167.	«Hindistonda keksalar muqaddas Gang bo'yida jon berishni orzu qilisharkan. U yerda o'lgan odam shahid ketib, to'g'ri jannatga noil bo'larmish. Shuning uchun odamlar Gang sohilida uzlat chekib, haftalab och yotishar, kecha-yu kunduz xudodan o'lim tilashar ekan». Bu voqeani kim gapirib berdi?	Bahromov	L
168.	Bahromovning nechta farzandi bor edi?	Ikkita. Ikkisini ham urush olib ketdi	

169.	Imtihondan yiqilib kelib, to'g'onga ishga kirgan Ergashvoy kimning nevarasi?	Hoji buvaning	L
170.	Kimning ahvoli og'irlashib qoldi?	Hoji buvaning	L
171.	«Qandaydir xunuk to'lishib, ovqatga to'yamaydigan bo'lib qoldi. Kasalxonada berganlari yuq bo'lmay, Ergash ko'tarib kelgan pomidormi, nonmi, kolbasami – barini ko'rdim demay supurib tashlaydigan bo'ldi. Shunda ham ko'zlari ola-kula. Bahromovning qolgan-qutganini ham kishi bilmas yamlab, yana eshikka alanglar, ovqat kutar edi. Ovqat kelsa, og'zini chapillatib, soqollarini iflos qilib, ochko'zlik bilan tez, xunuk eydi». Parchada tasvirlangan chol...	Hoji buva	L
172.	O'rnidan turishi mumkin bo'lmagan, bir yarim oy qimir etmay chalqancha yotgan Bahromov nima sababdan yugurib ketdi?	To'qqizinchi palatadan shifoxonaga yonma-yon qo'shni hovli ko'rinib turar edi. Tomdan elektr simi uzilib tushgan, kichkinagina Alisher koptogini olaman deb uzilgan sim tomon borar edi. Alisherni qutqarish uchun Bahromov o'rnidan turib, yugurib ketdi va bolani ko'tarib chetroqqa oldi, o'zi yog'och bilan uzilgan simni devor ustiga chiqardi	L
173.	Alisherning onasi o'g'lini yasantirib, qo'lida guldasta bilan Bahromovni ko'rgani kelishdi va nimaning guvohi bo'lishdi?	Bahromovning joni uzilganini	L

SAID AHMAD (1920 – 2008)

1.	«Xalqimiz Sizni milliy madaniyatimizning ravnaqiga ulkan hissa qo'shgan betakror so'z san'atkori, zahmatkash adib sifatida biladi va qadrlaydi... Sehrli qalamingizga mansub go'zal romanlar, rang-barang qissa va hikoyalar, sahna asarlari kirib bormagan xonadon yo'q. Ulardagi hayot manzaralari, insonning nozik qalb kechinmalari tasviri o'zining milliyligi, xalqchil va teranligi bilan adabiyot muxlislarining mehriga sazovor bo'lgan. Millatimiz ruhining badiiy ifodasi bo'lmish «Ufq» romani, jahonning turli mamlakatlarida namoyish etilayotgan «Kelinlar qo'zg'oloni» dramasi bu fikrning yorqin dalilidir». Said Ahmad haqidagi ushbu fikrlar muallifi...		Islom Karimov	L
2.	Said Ahmad Husanxo'jayev qachon qayerda tavallud topgan?	1920-yil 10-iyunda Toshkent shahrining «Samarqand darboza» mahallasida	6, 8	
3.	Said Ahmadning to'liq ismi familiyasi...	Saidahmad Husanxo'jayev	8	
4.	Said Ahmad qaysi ilm dargohlarida tahsil olgan?	Avval o'rta maktabda, Toshkent Rassomlik bilim yurtida, so'ng Navoiy nomli Toshkent pedagogika institutida o'qidi, uni 1943-yil tugalladi	6, 8	

5.	Bo'lajak yozuvchining ilk mashqi...	«Ishqiboz» nomli hajviy hikoyasi o'n olti yoshlarida «Mushtum» jurnalida chop etilgan	6
6.	Said Ahmadning mehnat faoliyati...	Avval «Mushtum» jurnalida, O'zbekiston radiokomiteta, «Qizil O'zbekiston» (hozirgi «O'zbekiston ovozi») gazetasida, «Sharq yulduzi» jurnalida muharrir, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida adabiy maslahatchi bo'lib ishlaydi	6, 8, 10
7.	Said Ahmad «Xalq dushmani» degan tuhmat bilan qachon nohaq qamalib chiqqan?	1947 – 1953-yillarda	6, 8
8.	Said Ahmad qaysi shahar lagerida hibsda bo'ladi?	Qozog'istonning Qarag'anda viloyati Jezqazg'an lagerida hibsda bo'ladi	10
9.	Adibning hibsda yurgan davri mahsuli hisoblangan to'plami...	«Lager turkumi» hikoyalar to'plami	10
10	Said Ahmad qanday unvon va medallar bilan taqdirlangan?	Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan, «O'zbekiston xalq yozuvchisi», «O'zbekiston Qahramoni» unvonlari, «Buyuk xizmatlari uchun», «Do'stlik» ordenlari bilan taqdirlangan	8, 10
11.	Said Ahmadning birinchi kitobi...	«Tortiq» nomli hikoyalar to'plami (1940-yilda nashr etilgan)	6, 8, 10
12.	Said Ahmadning kitoblari...	«Er yurak» (1942), «Farg'ona hikoyalari» (1948), «Muhabbat» (1949), «Cho'l burguti», «Yo'qotganlarim va topganlarim», «Qorako'z majnun», «Kiprikdagi tong», 3 jilddan iborat «Tanlangan asarlar»i	6, 8

13.	Said Ahmadning qissalari...	«Qadrdon dalalar» (1949), «Hukm» (1958)	6, 10
14.	Said Ahmad romanlari...	«Ufq», «Jimjitlik» (1988)	6, 8
15.	Dramatik asarlari...	«Kelinlar qo'zg'oloni» (1976), «Kuyov» pyesalari	6, 10
16.	Hajviy hikoyalar to'plamlari...	«Xandon pista» (1994), «Bir o'pichning bahosi» (1995)	6, 8
17.	Said Ahmad qaysi adiblarga bag'ishlab xotiralar yaratdi?	Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Mirtemir, Shuhrat, Saida Zunnunova, O'lmas Umarbekov kabi	6
18.	Adib ijodida alohida o'rin tutadigan asari...	«Ufq» romani	6
19.	Said Ahmad ijod borasida ustozlarining qanday fazilatlarini o'zida mujassamlashtirgan?	Oybekdan psixologik tasvir mahoratni, G'afur G'ulomdan yumorni, Abdulla Qahhordan ixcham va teran fikrlashni o'rgangan	8
20.	Dovrug'i olamga ketgan sahna asari...	«Kelinlar qo'zg'oloni» (1976)	8
21.	Istiqlol yillarida yaratgan to'plamlari...	«Xandon pista», «Bir o'pichning bahosi» hajviy hikoyalar to'plamlari, «Yo'qotganlarim va topganlarim», «Qorako'z majnun», «Kiprikdagi tong», 3 jildidan iborat «Tanlangan asarlar»i	8
22.	Turg'unlik yillarida «qizil imperiya»-ning rang-barang nayranglari tufayli hayoti fojiali kechgan kishilar taqdiri bo'yab-bejalmasdan, haqqoniy ko'rsatilgan asar...	«Jimjitlik» romani	8

23.	«Baxtiyor odam hammani o'ziga o'xshatadi». Ushbu fikr qaysi asardan olingan?	«Ufq» roman-trilogiyasidan	8
24.	«Ufq» roman-trilogiyasining qismlari...	«Qirq besh kun», «Hijron kunlarida», «Ufq bo'sag'asida»	8
25.	«Ufq» roman-trilogiyasida qaysi davr hayoti aks ettirilgan?	Xalqimizning Ikkinchi jahon urushigacha, urush davri, urushdan so'nggi qismati qalamga olingan	8
26.	Said Ahmad qaysi hikoyalarida ikkinchi jahon urushining dahshatli oqibatlarini hayajonli tasvirlaydi?	«Xazina», «Hayqiriq», «Rahmat, azizlarim» kabi hikoyalarida	10

«Qoplon» hikoyasi

27.	Yangi direktorning familiyasi...	Tillayev	
28.	Qurbonboyning kasbi...	Garajda mashina yuvuvchi	
29.	Qurbonboy nima uchun yangi direktorning uyiga keldi?	Tillayev ko'chishga mashina so'raganida zavgar qarashib yuboradi deb Qurbonboyini qo'shib bergan edi	
30.	Qurbonboyning xushomadgo'y, laganbardorligi qaysi harakatlarida yaqqol ko'rinadi?	Yangi direktorning uyiga it olib kelishi, itga uycha qurib berishi va suyak tashishi, pol yuvishi, gilam qoqishi, itni sayrga olib chiqishida	6
31.	Itning nomi...	Qoplon	6

32.	Tillayevning xotinining aytishicha, Qurbonboy imoratini necha yildan beri bitkazolmasmish?		Yetti yildan beri	6
33.	Tillayevning ixlosi Qurbonboyga nima sababdan oshib ketdi?	«Qurbonboy Tillayevga gap orasida ro'zg'ordan orttirib uchastkasining tomini yopolmayotganini aytib qoldi: – Ayb o'zimda... promkombinatda ham, raypoda ham oshnam bor, yuztagina shifer so'rasam, yo'q demaydi.... Aslo so'ramayman. – Nечta shifer yetmayapti? – dedi Tillayev... – Yo'q, xo'jayin so'ramang. Siz bilan shu maqsadda oshna bo'lmaganman. Bunaqa gapni aytasangiz uyingizga ikkinchi qadam bosmay ketaman», – deganidan so'ng		6
34.	Tillayevning yordamida Qurbonboy qaysi lavozimga ko'tarildi?	Garaj (avtobaza) mudiri muovini lavozimiga		6
35.	Tillayev Qurbonboyga qanday moddiy yordam berdi?	180 ta shifer, 30 ta tunuka		6
36.	Qurbonboy qaysi ishni tark qilmadi?	Har kuni tushlikka kelib, Qoplonni o'ynatib ketishni		6
37.	Tillayev qanday kasallikka chalindi?	Eski bod kasali tutib, yotib qoldi		6
38.	Tillayev ariza yozib ishdan bo'shatishlarini so'radi. Minstrlik bunga qanday javob berdi?	Minstrlik uning talabini qondirib, o'rniga boshqa direktor tayinladi		6
39.	Har kuni tushlikka kelib, Qoplonni o'ynatib ketishni kanda qilmaydigan Qurbonboy yangi direktor tayinlangan kuni nima qildi?	Qoplonni aylantirgani olib chiqib ketdi-yu, qaytib kelmadi		6

40.	Qurbonboyning oriyatsiz, ablahligi hikoyaning qaysi o'rnida yaqqol ko'rinadi?	Quyidagi o'rinda: «Tillayev hassaga tayanib ko'cha aylangani chiqdi, bir mahal qarasa, ko'chaning narigi betida Qurbonboy Qoplonni yetaklab yuribdi. Chaqirsa, it qaradi-yu, Qurbonoy qaramadi»	6
41.	Tillayev xotini bilan nima uchun yangi direktorning uyiga borishdi?	Yangi direktor o'g'lining tug'ilgan kuniga bazm qilib berayotganligi uchun, Tillayevni taklif qilib, unga mashina yubordi	6
42.	Yangi direktorning uyiga darvozadan kirishlari bilan yo'lakda nimani ko'rishdi?	Qoplonni, it ularni ko'rib, dumini likillatib erkalandi	6
43.	«Bu itni taniyman», – deganida Tillayev kimni nazarda tutdi?	Qurbonboy	6
44.	Qurbonboy bu paytda nima ish bilan band edi?	Qurbonboy nariroqda yangi direktorning charm to'nini tuflab artayotgan edi	6
45.	Kishilardagi xushomadgo'ylik, laganbardorlik, o'z manfaati yo'lida andisha-mulohazaga bormay surbetlarcha ish tutishi, odamlarning amal kursisiga qarab munosabat ko'rsatishi kabi yaramas illatlar tanqidiga bag'ishlangan satirik asar...	«Qoplon»	6
46.	Qurbonboy obrazi misolida yozuvchi qanday shaxs qiyofasini ko'rsatib beradi?	O'zini hali tanimagan rahbarlar pinjiga kirishning nozik yo'llarini topib olgan, hech bir istiholasiz laganbardorligini oshkora	6

		ko'rsatib, xo'jayinning polini yuvib, gilamini ham qoqib berishdan orlanmaydigan, vaqti kelganda shartta yangi boshliqqa xizmat qilib ketaveradigan, o'z manfaati uchun orini, vijdonini qurbon qiladigan oriyatsiz, ablah bir shaxs	
47.	Asarda qanday g'oya ilgari surilgan?	Qurbonboy kabi buqalamun kimsalar, ablah odamlarni jamiyatda, insonlar orasida o'rni bo'lishi kerak emas, degan g'oyani ilgari suradi	6

«Sobiq» hikoyasi

48.	«Sobiq» hikoyasining asosiy qahramoni...	Mexanizator yigit	6
49.	Hikoya qahramoni birinchi va ikkinchi kunlari paxta terim mashinasida necha tonna paxta teribdi?	Birinchi kuni to'qqiz tonna, ikkinchi kuni to'qqiz yarim tonna	6
50.	Hikoya qahramoni qanday obro'ga ega bo'ldi?	O'sha kuni oblastdan, Toshkentdan muxbirlar bosib ketdi, ovozini lentaga yozib, radiodan eshittirishdi. Televizorda ikki marta ko'rsatishdi, hamma yoqni xat bosib ketdi. Qahramon yigit bir gapirib, o'n kuladi. U yoqqa borsa, rais ham u yoqqa boradi, bu yoqqa borsa, bu yoqqa. Bechora rais uni yer-u ko'kka ishonmaydi	6

51.	Mexanizator yigitga «O'zingni tut, katta-kichikning oldida sharmanda qilma. Sen bizning mash'alimizsan. Ha, shundoq, soqolingni kunda olib tur. Dazmol bosilmagan shim kiyma», – deb nasihat qilgan qahramon...	Rais Berdiali aka	6
52.	Ikki kundan keyin gazetaning birinchi betida kimning surati bosilib chiqdi?	Mexanizator yigitning chakkasida paxta qistirib, kulib turgan surati	6
53.	Mexanizator yigit nima sababdan uch kun oblastda qolib ketdi?	Kengashga chaqirtirilgan edi	6
54.	Oblastdan qaytgan yigit nima uchun ikki kun ovora bo'ldi?	Toshkentdan kinochilar kelishgan edi. Qandoq qilib mashina haydashidan tortib, peshanasidagi terni qanaqa qilib, qaysi qo'l bilan sidirib olishigacha suratga olishdi	6
55.	Mexanizator yigit kimning mashinasida suratga tushdi?	Ummatalining mashinasida, o'sha tomonda paxta yaxshi ochilgan ekan	6
56.	Kinochilardan qutulib, holdan toyib, kiyim-boshi bilan uxlab qolgan qahramonni kim uyg'otdi?	Raisning o'zi	6
57.	Mexanizator yigit qayoqqa yo'l oldi?	Rayonga yangi qurilgan madaniyat uyining ochilish marosimida nutq so'zlash uchun	6
58.	Qahramonimiz ochilish marosimidan so'ng nima qildi?	Mehmonlar uchun joy qildirib qo'yishgan ekan. Artistlar bilan birga rosa pivoxo'rlik qilishdi	6

59.	Hikoyadagi soch qo'ygan ingichka mo'ylovli yigitning kasbi...	Rassom	6
60.	Surat qayerga qo'yilar ekan?	Vistavkaga	6
61.	Vistavkaga qo'yiladigan suratlarning ro'yxatini qayerda tasdiqlashadi?	Oblastda	6
62.	Rassom mexanizator yigitni necha kun deganda o'ziga o'xshatdi?	9 kun deganda	6
63.	Mexanizator yigit kimlar bilan uchrashuvga borolmadi?	Pionerlar, meditsina xodimlari, mebel fabrikasining ilg'or ishchilari bilan uchrashuvga	6
64.	Qahramonimizning navbatdagi safari qayerga edi?	Rayon o't o'chirish komandasining pensiyaga chiqayotgan kekxa xodimini tabriklashga bordi	6
65.	O't o'chiruvchilarning tantanasi qanday bo'lar ekan?	G'alati: yolg'ondakam o't ketdi qilib, birdan gupur-gupur qilishadi. Biri suv sepyapti, biri bolta bilan eski yashiklarni parchalab tashlayapti	6
66.	O't o'chiruvchilarning tantanasiga odam rosa yig'ilgan. Mexanizator yigit nechanchi bo'lib so'zga chiqdi?	Uchinchi bo'lib	6
67.	Qahramon yigit nima sababdan to'rt kun yotib qoldi?	Shamollab qolgani uchun	6
68.	Bu safar qahramonimizga rais qanday topshiriq berdi?	Fizkultura komitetidan telefon qilishdi. Mashhur polvonni kutib olish uchun soat yettida stansiyaga chiqish kerakligi haqida	6

69.	Poyezdning oltinchi vagonidan tushgan, bo'yi salkam bir terak keladigan, tarvuzni butun yutib o'yin ko'rsatadigan, olti kishilikni bir qilib, kosaga quyib qadah ko'targan odam...	Bu – polvon	6
70.	Polvon rayonga nima sababdan tashrif buyurgan ekan?	Tosh o'ynashni ko'rsatgani kelgan ekan	6
71.	To'rt kishi-to'rt kishi bo'lib nechta toshni sudrab tushirishdi?	20 ta toshni	6
72.	Hammalari kayf qilib, stansiyada nimani esdan chiqarishibdi?	Toshlarni («Qolsa, qolavermaydimi, uni ko'taradigan mard qayoqda», – dedi qahramonimiz)	6
73.	Oktabr oyi ham oxirlab qoldi. Mashinada paxta terimi tugay deb turibdi. Harna ozroq terib olay deb, qahramonimiz dalaga chiqsa, mashinani biram chang bosibdiki, kimdir bo'r bilan yoniga nima deb yozib ketibdi?	«Kolxozimizning sobiq mexanizatori falonchi mavsumda bir hafta dalaga chiqib, shu mashinada paxta tergan», – deb	6
74.	Mexanizator yigit bunaqa beodob gap yozgan odamni topib nima uchun ta'zirini bermadi?	Ishi tig'izroq edi. O'sha kuni yosh drujinachilar bilan rayon markazidagi somsapazlikni tekshirishi, kaloriyasini aniqlashi kerak edi	6

75.	«Sobiq» hikoyasida qanday mavzu qalamga olingan?	Sho'rolar davrining turg'unlik zamonlarida har narsani mafkuraga bog'lash odat tusiga kirganligi, hikoya qahramoni paxta terishda jonbozlik ko'rsatib, hech kutilmaganda dabdababozlikning nishoniga aylanishi, eng ilg'or paxtakor deb, asosiy ishini yig'ishtirib, turli kerak-nokerak majlis, kengash, yig'ilishlarga borishga majbur bo'lishi tasvirlangan	6
76.	Hikoyada qanday g'oya ilgari surilgan?	Jamiyatimizda halol kishilarning xatti-harakatlarida paydo bo'layotgan dabdababozlik	6
77.	Yozuvchi qahramonning zarur bo'lmagan yumushlarga chalg'ib, kulgili vaziyatlarga tushib qolishi kabi nuqsonlarni, yani bu xatti-harakatlarni bema'nilashib ketganini ta'kidlash uchun qanday badiiy tasvir vositalarini qo'llaydi?	Mubolag'a, lof kabi	6
78.	Yuqoridagi ikki hajviy hikoyani satirik va yumoristik kabi turlarga ajrating	«Qoplon» satirik, «Sobiq» yumoristik hikoya	6

Quyidagi so'zlarga izoh bering

79.	drujinachilar...	tartib saqlash ishida ko'ngilli bo'lib qo'shilgan yosh bolalar	6
80.	kaloriya...	lotincha <i>issiqlik</i> so'zidan olingan; hikoyada somsaning quvvati ma'nosida kelgan	6

«Ufq» romanidan «Qochoq» hikoyasi

81.	Vatan oldida qilgan xizmatlari uchun kim oliy mukofot bilan taqdirlandi?	Ikromjon Usmonov (u urushda bir oyog'idan ajrab kelgan)	8
82.	Qaysi voqea Ikromjonning qaddini bukib qo'ydi?	Yolg'izgina o'g'li Tursunboyning urushdan qochgani	8
83.	O'g'lining urushdan qochganini Ikromjon kimdan eshitdi?	Choyxonadagi kishilarning suhbatidan tasodifan eshitib qoldi (Rais Tog'a (ismi Rayim) buni tasdiqladi)	8
84.	Ikromjonning xotini...	Jannat xola	8
85.	Ikromjon va Jannat xolaning mehmoni...	Yosh yigit Nizomjon	8
86.	«Ikromjon ... qizil qutichani yoniga qo'ydi. Nizomjon buning nimaligini bilardi». Nizomjon bunday qutichani qachon ko'rgan edi?	Hamqish-log'i Asrora orden ol-ganda	8
87.	Jannat xolaning to'qay-ga pinhoni qatnab yurishiga, chodirdan ustara yo'qolishiga sa-bab nima edi?	Qochoq Tursunboyning to'qayda yashirinib yurishi	8
88.	Qochoq Tursunboyning to'qayda yashayotgani-ni kim bilardi?	Faqat Jannat xola	8
89.	Tursunboyning sevgan qizi...	Zebi	8
90.	Tursunboy to'qayda qamishlar orasidan qarab, Zebini kim bilan birga ko'rdi?	Begona yigit bilan (Nizomjon bilan)	8

91.	Tursunboy Zebini yolg'iz uchratganda nimani so'rardi?	Albatta, ovqat keltirishni yalinib so'rardi	8
92.	Tursunboyning hayotdan qanday ilinji bor edi, u nimani kutib yashardi?	Tursunboy ko'pincha er-tani emas, taqdirini emas, onasining olib keladigan ovqatini kutardi. Shundan boshqa hayotdan ilinji qolmagan edi	8
93.	Kimdan qoraxat keldi?	Raisning o'g'li Azizjondan (u qahramon bo'ldi)	8
94.	Tursunboy kampir onasiga nimalarni olib kelishini tayinladi?	Choy, ko'ylak, etik	8
95.	Shudgorda Zebi bilan Nizomjon turardi. Tursunboy qamishlar orasidan ularni kuzatib turardi. Shu paytda Tursunboyning ko'ziga nima a'lo tuyulib ketdi?	Sho'r ko'lmak ichaverib, Tursunboy choy ta'mini unutayozgan edi. Shu topdan unga Zebidan ko'ra uning qo'lidagi qumg'on a'lo tuyulib ketdi	8
96.	Jannat xola to'qaydan nima orqalab chiqdi?	Ildiz	8
97.	To'qaydan chiqqan Jannat xolaga Nizomjon va Zebilar qanday mehribonchilik ko'rsatishdi?	Nizomjon kampirning orqasidagi yukni olib ketdi, Zebi choy quyib uzatdi (kampir negadir ichmay to'qay tomonga qaradi)	8
98.	Kampirning choyni icholmayotganini ko'rgan Tursunboyning ko'nglidan nimalar kechdi?	Tursunboy tupugini yutdi. U o'z onasini yaxshi biladi. Agar u shu topda uning yonida bo'lganida, albatta, qo'lidan olib shu choyni ichardi. Ona bir qultum suvga zor bo'lib	8

		turgan bo'lsa ham, baribir olib ichardi. Chunki onasi o'zi yemay, unga yedirgan, o'zi ichmay, unga ichirgan	
99.	Tursun-boyni hayotda ushlab turadigan nima qoldi?	Tursun hamma narsadan kechganda ham birgina shu Zebidan kechmas edi. Shu tanholikda ham ko'nglining bir chekkasida qachonlardir u bilan topishish ilinji yashardi. Endi u shu ilinjdand ham mahrum bo'lganiga ishondi. Tursunboyni hayotda ushlab turadigan hech narsa qolmadi. Tursunboy hissiz ham yashay oladi. Yigitlik qasamidan kecha olgan, ona vujudini kemirayotgan dardni pisand qilmagan, sharmandalikda yashashga rozi bo'la olgan yigitda yana qanday his bo'lishi mumkin?	8
100.	Jannat xola qay ahvolda, u nimadan tashvishda?	Jannat xola yarimjon bo'lib yotib qolgan. U goh xud, goh bexud. Ikromjon bir oyoqlab shudgor kezadi. Jannat xola ishlayotganlarga choy tashiydi yoki ildiz teradi. Jannat xola butunlay yotib qolishdan qo'rqadi. Yotib qolsam, Tursunboyning holi nima kechadi, deb tashvishlanadi	8
101.	Jannat xolaga: «Po'k ildizdan o'tin chiqmas, bu o'tindan olov chiqmas», – degan kim?	To'lanboy	8
102.	Jannat xola bundan yetti kun avval uchrashganida Tursunboyga nima dedi?	«Bolam, odamlardan ajrab chiqolmayapman. Ovqatingni zovur orqasiga qo'yib ketaman», – deb tayinlagan edi	8

103.	Jannat xola kasal xoliga qaramay bir haftada necha marta ovqat olib bordi?	Ikki marta zovur orqasiga qo'yib ketdi	8
104.	Jannat xola kechadan beri o'rnidan turolmay yotgan bo'lishiga qaramay bolasi uchun nima qildi?	Chodir orqasiga o'tib qozon osdi. Go'shtsiz bo'lsa ham palov damladi-da, erining kelib qolishidan qo'rqib, dam yedirmay suzib oldi, grelkaga choy damlab beliga bog'ladi	8
105.	Kampir Tursunboyini qay ahvolda ko'rди?	Tursunboy bir haftadan beri tuz totmagan, isitmalab, bezgak tutib yotardi	8
106.	Tursunboy nega bir haftadan beri tuz totmayotgan edi?	Onasi Jannat xola ikki marta ovqat olib kelib zovur orqasiga qo'yib ketgan, lekin ovqatni itlar talab yeb ketgan edi	8
107.	Kasal bolasining oldidan ketolmay Jannat xola kechqurungacha qolib ketdi. Qamishlar orasidan bir necha mash'ala ko'rindi. «Jannat!» «Jannat!» degan ovozlari eshitildi. Odamlar Jannat xolani olib ketishdi, Kampirning ahvoli qanday edi?	Jannat xola aqlidan ozgan edi. U kechqurun jon berdi	8
108.	Tog'aga, raisga, xabar bergani Zirillamaga kim yo'lga otlandi?	Nizomjon	8
109.	Vijdonsiz Tursunboy onasining vafoti marosimini qanday kuzatib turdi?	Dadasining tobut oldida bel bog'lab yig'lab ketayotganini ko'rди-yu, ko'zlari bejo bo'lib ketdi... Endi unga kim ovqat olib	8

		keladi? Tursunboy qabrga yaqin kelmay, bo'riga o'xshab to'qaydan xunuk qarab turardi. U tug'ib katta qilgan onasining jasadini begonalar yelkada tabarruk qilib ko'tarib ketayotganlarini ko'rib turib ham bir qadam oldinga jilmasdi	
110.	Tursunboyning onasi nimanin niyat qilardi?	Ona qazoyim yetib olamdan o'tsam, bolam o'z qo'li bilan qabrga qo'yadi, deb umid qilardi. Ona, bolam orqamda qoladi, chirog'imni yoqadi deb niyat qilardi.	8
111.	Ona Tursunboyga nima uchun kerak edi?	Ona faqat unga kiydirish, yedirish uchun ona edi, xolos. Ona uning firoqida, dardida ado bo'ldi. Bolasi esa bu to'g'rida o'ylamasdi.	8
112.	Ikromjon to'qayga ovga chiqqan edi. U kimni ko'rib qoldi?	O'g'li Tursunboy	8
113.	Ikromjon Tursunboyning qanday tanidi?	Ko'zidan, sochlari o'sib yelkasiga tushgan, kiyimlarining julduri chiqqan, yuzlari chivin chaqqanidan yara bo'lib ketgan, ozib qorayib ketgan, chinakamiga u vahshiylik qolgan, yaqin olti oy birov bilan gaplashmay, odamsifat yotib-turmay, issiq tatimay shu ahvolga tushgan. Odam qiyofasi yillar o'tishi bilan, sharoit ta'siri bilan o'zgarib ketishi mumkin. Faqat odamning ko'zi o'zgarmaydi. O'g'lining ko'zidan tanidi	8

114.	«Onang qandoq xotin edi! Ona qabrga qo'yilayotganda ko'rib turib yoniga borolmagan, oqpadar! Sen uni o'ldirding! O'zing o'ldirib, yana o'zing uni tuproqqa qo'yishlarini tomosha qildingmi? Iflos! Seni o'rnigga it boqsak bo'lmasmidi. Xoin! Qochoq! Nomard! Hezalak!» Parchada qaysi qahramon nutqi...	Ikromjon-ning	8
115.	Ikromjon o'g'lini yurt oldiga olib bormoqchi edi. Tursunboy nima qildi?	Ikromjonni siltab tashlab, qochib ketdi. Ikromjon yonboshi bilan yiqildi. Miltig'ida o'g'lini nishonga oldi. Tursunboy qamishlar orasidan chopib ketayotgan edi. «Xayriyat, o'q tegmabdi», – dedi Ikromjon	8
116.	Ikromjon o'g'lining diliga insof solmoqchi bo'lib to'qayga keldi, uni qay ahvolda topdi?	Tursunboy to'qayda jon bergan edi. Ikromjon uning jasadini topdi va qo'ltiqtayoqda go'r qazidi	8
117.	Tursunboy to'qayda yolg'iz qancha vaqt yashadi?	To'rt oy	8
118.	Kechasi oy yoritib turgan to'qayda Ikromjon o'g'lining qabrini quchoqlab yotarkan, kim uni «Dada, dada, turing, ketamiz», – deb chaqirdi?	Nizomjon	8
119.	Ota diydoridan, ona mehridan, yor-birodarlar davrasidan olisda, chaqirsa ovoz yetmaydigan joyda quvg'in bo'lib, olamdan o'tgan yigit...	Tursunboy	8
120.	Urushda mardlarcha halok bo'lgan, Qahramon unvonini olgan Tursunboyning o'rtog'i...	Raisning o'g'li – Azizxon	8

121.	Odamlar qayerga o't qo'yishdi?	Yerlarni o'zlashtirish uchun Nayman to'qaylariga	L
122.	Tutun buralayotgan joydan nima qochib chiqdi?	Ozib, junlari osilib qolgan bir bo'ri otilib chiqib qum tarafga qochdi. Ammo sal nariroqqa borib yana orqaga qaytdi. Tutun orasiga kirib ketdi	L
123.	Bo'ri nima sababdan yana yonayotgan to'qayga qaytib kirdi?	Modasini olib chiqdi	L
124.	Ikki bo'ri bo'ri taqdiri...	Ikromjon mo'ljalga olib o'q uzdi. O'q yegan bo'ri oqsoqlanib uch oyoqlab yugurganicha tepalik orqasiga o'tib ketdi. Nizomjon bo'ri ortidan borib otib o'ldirdi. Modasi esa yong'inda qolib yonboshi kuygan ekan, qumga yetmay yiqildi	L
125.	«Bola malades, bo'rini qoyil qildi. Ayniqsa, modasi tirik qolsa, sal kunda hamma yoqni bo'riga bostirvorardi. Qo'yaver, bola, Tog'adan mukofot olib beraman», – degan qahramon...	To'lanboy amaki	L
126.	Odamlar yana yer ochishmoqchi, rais u yerga nima ektirmoqchi?	Qovun ektirmoqchi	L
127.	«Meni eng og'ir ishga qo'ying, iltimos qilaman. El qatori ishlab ter to'kay. Meni kichkina, nimjon demang. O'zlaring qatori ko'raveringlar. Dalada o'sganman. Ketmonda suyagim qotgan. Bir ishlay. Hech qanaqa shartim yo'q. Ishlab u-bu orttirish niyatim ham yo'q, menga hech narsa kerakmas.	Nizomjon-ning	L

	Boshpana bo'lsa, qornim to'q, ustim but bo'lsa bas. Nimaiki ishlab topsam kolxozga. Mehnat haqi ham kerakmas! – Nizomjon ko'p gapirmoqchi edi, o'pkasi to'lib, gapi tomog'idan chiqmay, hiqillab qoldi. U entikib gapini tamom qildi. – Chap qo'ling cho'ltoq ekan, deb urushga olishmadi. Uyimga sig'madim. Erta-indin og'aynilarim urushdan qaytib kelishadi. Shularning ko'ziga qandoq qarayman. Nima qilding, qaysi kovakda mog'or bosib yotgan eding, deyishsa nima deyman? Eshakda suv tashib, tirikchilik qilib yurdim, deymanmi? Yo'q, to'qay buzdim, bola-chaqalaringga ovqat topib berdim, ularni boqdim, deydigan ish qilmoqchiman. Jon akalar, meni ayamasdan ishga tashlayveringlar». Parcha qaysi qahramonning nutqi?	
128.	O'g'lining shu ahvolga tushishida Ikromjon kimni aybdor deb o'yladi? Ikromjonni bir narsa ko'proq qiynardi. Nega shunday bo'ldi? Nega uning bolasi qo'rqoq chiqdi? U o'ylab-o'ylab, o'yiga yetolmasdi. Yemay yedirdi, kiymay kiydirdi... Ikromjonning birdan ko'zlari ochilib ketdi. Ha, ha, hamma gap ana shunda. Qo'lini sovuq suvga urdirmadi. Og'ir ish qildirmadi. Yig'laganda qo'shilishib yig'ladi. Kalishini ham yuvib qo'yardi. Kasal paytida ham uni toyloqdek qilib opichib yurardi. Betini yuvganda o'zi suv quyib turardi... Ikromjon peshanasiga shatillatib bir tushirdi.	L

		– Jazangni tort, jazangni tort, Ikrom. Uni o'zing shu ko'yga solding. Endi ming yig'la, befoyda. Senga bu jazo kam! Ikromjon o'g'lining shu ko'yga tushishini sira o'zidan ko'rmagan edi. Endi bunga iqror bo'ldi. Iqror bo'ldi-yu, alamiga chidolmay ingrab yubordi	
129.	Nizomjon diliga qanday niyatni tugib qo'ydi?	Shu huvillab yotgan sokin cho'lni uyg'otish uchun bilak shimargan kishilar zora Ikromjonning ham yuragiga qo'l solib unda yangi umidlar uyg'ota olishsa, zora Ikromjon cho'l bilan baravar yashnab ketsa. Nizomjon uning qo'ltig'iga tirgak bo'ladi. Yuragidan iztirobli o'ylarni quvib chiqaradi. Atrofga umid bilan, odamlarga ochiq yuz bilan qaraydigan bo'lguncha yonidan jilmaydi. Yulduzlar miltirab turgan cho'l kechasida Nizomjon diliga ana shunday beg'ubor niyatni tugib qo'ydi.	L
130.	«Meni o'g'lim deysizmi?» – deb Ikromjonga kim aytdi?	Nizomjon	L
131.	Tursunboyning shu ahvolga tushishida kimlarni ayblash mumkin?	Yolg'iz o'g'illarini erka, tantiq qilib o'stirgan otanonani	8
132.	Asardagi barcha baxtsizliklarning sababi...	Urush	8
133.	Zebixonning sevgisini qozongan yigit...	Nizomjon	8
134.	Urushdan qochgan qochoq yigit...	Tursunboy	8

135.	Katta Farg'ona kanali qo'l kuchi bilan necha kunda qazib olingan? Uzunligi necha kilometr?	45 kunda, uzunligi 270 km	8
136.	Kanal qazib olishda necha kishi qatnashgan?	160 000 kishi	8
137.	Kanal trassasida qancha ish bajarilgan?	Kanal trassasida 17, 8 million metr kub tuproq chiqarilgan, shundan faqatgina 1, 7 million metr kub tuproq mexanizmlar yordamida qazilgan	8
138.	«Ufq» romanida xalqimizning urush ortidagi mehnati, mashaqqatli hayoti qaysi qahramonlar taqdiri orqali yorqin tasvirlanadi?	Ikromjon, Jannat xola, To'lanboy, Nizomjon, Asrora, Dildor, Zebi, A'zamjon, Tog'a – rais kabi	8
139.	Ikromjonning ruhiy iz-tiroblarida, musibatlarida ko'nglini ko'targan, dardiga malham bo'lgan kishilar...	To'lanboy, Nizomjon, Asrora, Dildor, Zebi, A'zamjon	8
140.	«Ufq» romani haqida qaysi yozuvchi: «Bu kitobni kitobxon boshdan oyoq shavq bilan, hech qayerda turtinmasdan, diqqati susaymasdan, ishtahasi bo'g'ilmasdan o'qib chiqadi... Kitobda qimirlagan har bir jonning qayg'usi, quvonchi, qilish-qilmishi, muhabbati, g'azabi, og'zidan chiqadigan har bir so'zi rost. Darhaqiqat, ushbu asar odamga quvvat beradigan umid, uning boshini «toshdan» qiladigan ishonch barq urib turgan haqiqiy hayot manzarasidir», – deya yuksak baho bergan?	Abdulla Qahhor	8

141.	Said Ahmadning trilogiyasi...	«Ufq»	8
142.	«Ufq» qanday romanlardan iborat?	«Qirq besh kun», «Hijron kunlarida», «Ufq bo'sag'asida»	8
143.	«Qochoq» hikoyasi trilogiyaning qaysi kitobidan olingan?	Romanning «Hijron kunlarida» deb ataluvchi ikkinchi kitobidan	8

«Qorako'z majnun»

144.	«Qorako'z majnun» asarining janri...	Hikoya	10
145.	Hikoya qachon yozilgan?	1999-yil, yanvar oyida	10

«Qorako'z majnun» asarining epigrafida berilgan quyidagi oyatlarning manbasini aniqlang

146.	«Sizlardan qaysi biringiz o'z dinidan qaytsa va shu kofirligicha o'lsa, bas, ana o'shalarining (qilgan savobli) amallari xabata (bekor) bo'lur, ular do'zax ahlidurlar va u yerda mangu qolurlar»	«Qur'oni Karim», «Baqara» surasi, 217-oyat	10
147.	«Jannatga kiradigan o'n nafar hayvondan biri bu «As'hobi kahf»ning vafodor itidir»	Hadisi sharif, «Al-jome al-Kabir»	10
148.	Saodat aya bomdod namozini o'qib, joynamoz ustida har kuni qaysi gaplarni takrorlardi?	Bundan uch yil oldin olamdan o'tgan eri usta Turobga atab qur'on tilovat qilardi. O'ris shaharlarida daydib qolib ketgan o'g'li Bo'rixonga xudodan insof tiladi. Baxti ochilmay, guldek umri xazon bo'layotgan qizi Qumriga achinib, shu farishta-ginaning yo'lini och, deb Alloh-ga iltijo qildi	10

149.	«Yoshligida juda chiroyli qiz bo'lgandi. Sochlari taqimini o'pardi. Taraganda shamshod taroq ushlagan qo'llari sochining uchigacha yetmasdi. Yarmini qismlab turib, buyog'ini tarardi. Opasi bu sochlarni qirqta qilib o'rganda, yana shunchasi ortib qolardi. – E, soching qursin! – derdi opasi. – Qo'llarim tolib ketdi, sochingni o'rdirishga odam yollash kerak. Ko'chada amirkon mahsi-kovushni g'irchillatib, sochlarini selkillatib yurganda qaragan ham qarardi, qaramagan ham. Yosh qizaloqlar orqasidan kelib, sochlarini ko'ziga surtib qochishardi». Hikoyada ta'riflangan qiz kim?		Saodat	10
150.	«Yillar o'tib soch ham oqardi, siyraklashdi-yu, baribir o'sha uzunligicha qoldi. Uchiga biror narsa taqmasa, hurpayib, bo'yni, yelkalarini tutib ketadi. Shuning uchun ham u sochining uchiga o'g'ri tutar sandiqning kalitini osib qo'yadi. Sandiqni ochayotganda kalitni yechib olmaydi. Sochi uzun bo'lganidan tizzalasa, kalit bemalol qulfga yetadi». Parchadagi qahramon...		Saodat aya	
151.	Erining frontdan olib kelgan og'irgina medalini nimaga osib qo'ygan?	O'rilgan sochiga osib olgan		10

152.	«Shu tut tagida bir oppoq it supurgi ustida uxlab yotibdi. Kichkinagina, belida belbog'dek ikkita – biri qora, biri jigarrang chizig'i bor. Xuddi kimdir ataylab bo'yab qo'yganga o'xshab ko'rinadi. Tumshug'i bilan ikki ko'zi qop-qora. Bir ko'zining tepasida to'mtoq qoshi ham bor». Parchadagi itning nomi...	Qorako'z	10
153.	Quyidagi dialog qaysi qahramonlarning suhbatidan olingan? – Ha-a, joningni huzurini bilmay o'l-a! Supurginiyam harom qilding. – Qo'y, urishma, opasi, Qorako'z hali bola-da! – Nima deyapsiz, oyijon! Bu it o'lgurga men nega opa bo'lar-kanman?! – dedi Qumrixon nolib. – Agar Qorako'zni yana supurgi bilan ursang, unga kosov otsang, bilib qo'y, ukalaringnikiga ketib qolaman. – Voy, oyijon-ey, it o'lsin, odamdan aziz bo'lmay! Shu itni deb bizni tashlab ketmoqchimisiz? Qo'ying-e! – Shu bilan ovunib yuribman. Qayoqqa borsam, yonim-da. Bir qadam nari ketmaydi. Menga aytchi, ukalaring, singillaring haftada bir xabar olsa oladi, olmasa yo'q. Kasalxonada yotganimda shu itgina ko'kragini qorga berib hovlida bir oy deraza tagida yotgan. Senlar qo'ni-qo'shnining qistovi bilan bir-ikki xabar oldilaring, xolos	Qumri va onasi Saodat aya suhbatidan	10

154.	«Ahmoq! – dedi kampir. – Qayoqlarda sanqib yurganding?! Yana marjabozlikka bordingmi? Majnun bo'lmay ketkur! Ahvolingni qara, xotin talashib rosa ta'ziringni yebsan-ku! E o'lmagin-a, shilinmagan joying qolmapti... Endi o'zingdan ko'r. Majnun, yaralaringga dori surtaman. Illo, dod demaysan!» – deb Saodat aya bu gaplarni nega aytdi?	Itga aytdi, uning bir qulog'ida, bo'ynida, oyoqlarida qon qotib qolganligini ko'rib (Qumrixon itning bo'ynidan bosib turdi, kampir yaralariga yod surta boshladi)	10
155.	Kampir- ning o'g'li Bo'rixon haqida gapiring	«Bo'rixon oltmish yettinchi yili armiyaga ketgan. Harbiy xizmati tugadi hamki uyga qaytmadi. O'sha yoqlarda uylanib, bola-chaqali bo'lib, qolib ketdi. Ba'zi-ba'zida undan «Ya zdorov» degan ikki enlikkina xat kelardi. Yaqin o'n besh yildirki, adresni unutib qo'yganmi, ishqilib, shu o'rischagina xat ham kelmay qo'ygan»	
156.	Kampir- ning qizi Qumrixon haqida ma'lumot bering	«Qumrixonning baxti chopmadi. Ikki bor turmush qildi, farzand ko'rmadi, qaytib keldi. Biron joyda ishlab ovunay desa, hayhotdek hovliga, munkillab qolgan onasiga kim qaraydi. Aka-ukalari, singillari: «Opa, qo'y, ishlama, tirikchiliging bizning bo'ynimizda, onamga qara», deb qo'yishmadi».	10
157.	Bir oydan beri kampir surunkasiga qanday tush ko'rdi?	Tushida Bo'rixonni ko'radi	10

158.	Kampirning o'g'illari, biznikida turing, oyi, deb xudoning zorini qilishadi. Lekin kampir nima uchun o'g'illari bilan yashamaydi?	«Otang chiqqan uyni tashlab ketolmayman, men ham shu uydan chiqazilaman, deb ko'nmadi. Kampir juda dono xotin edi. Bolalarim haftada bir marta xabar olishsa, yetti kun uyim to'ladi, albatta, ular quruq kelishmaydi, shu bahona Qumrining ham kuni o'tadi, deya qadrdon uyidan jilmasdi. Onalar shunaqa – baxti chopmagan bolasi bilan birga bo'ladi»	10
159.	«Buvijon, tashvishlanmang, tog'amning ishlari «besh». Ro'zg'ori but, tirikchilikdan kami yo'q. Uchta bolasi bor. O'zi o'zbekchani esidan chiqarib yuboribdi. Men bilan o'rischa gaplashdi. Bitta sog'in echkisi, to'rtta qanor qopdek cho'chqasi, o'ntacha cho'chqachalari bor ekan. Qish zabtiga olganda shu mollarini ham uyiga opkirib olisharkan. Bo'chka-bo'chka samogon-aroq yasab, qishi bilan ichisharkan. Qishloqdagilar tog'amni «Bo'rixon» demay, «dyadya Borya» deb chaqirishar ekan». Bo'rixon haqidagi ushbu xabarni kim yetkazib keldi?	O'tgan yili o'tli-shudli, har ish qo'lidan keladigan nevarasi Anvarjon, tog'amni topib kela-man, deb chiqib ket-di. Shu ketgancha yigirma kun deganda daragini to-pib kelgan edi	10
160.	Nima uchun birovga so'zini bermaydigan errayim kampirning shoxi sindi, ostona hatlamay uyda muqim o'tirib qoldi?	Anvarjon tog'asi Bo'rixon haqidagi xabarni qo'shnilari oldida aytgani uchun	10

161.	Qizirikiga otlangan kampir nevara qizlari va kelinlariga nimalar oldi?	O'sma va rayhon	10
162.	– Hoy, jinni, senga kim qo'yibdi otang tengi it bilan olishishni! Kampir Qorako'zga nega bu gapni aytdi?	Bo'ribosar itga zo'rlik qilmoqchi bo'lgandi, ta'zirini edi. Bo'ribosar uning gardanidan tishlab, uloqtirib tashlagani uchun	10
163.	Kampir nega Qorako'z-ni «Majnun» deydi?	Boshqa itlarning oldiga tez-tez borgani uchun	10
164.	Kampir qaysi qizirikiga yo'l oldi?	Dilbar qizirikiga	10
165.	Bolalar Qorako'zga nima berishdi?	Konfet, bittasi sergo'sht suyak berdi	10
166.	Kampir bolalarga nimalar ulashdi?	Qurt, yong'oq, turshak	10
167.	Saodat ayaning yillab qalbida qalashib yotgan g'uborlarini tarqatadigan, ko'ksidan tog'dek bosib yotgan armonlarni ushatadigan olamshumul bir yangilik nima edi?	Bo'rixonning kelishi	
168.	Bo'rixon ota uyiga kelganida necha yoshda edi?	60 dan oshgan	10
169.	Bo'rixondan qanday hid kelardi?	Aroq va sham yoqilgan uyning hidi kelardi	10
170.	O'g'li kampirga nima dedi?	– Nu zachem, zachem plachesh, mama, vot i priyexal, xvatit, xvatit	10
171.	Qassobning ismi...	Rahmon	10
172.	Kampir Bo'rixonning oyog'ining tagiga nima so'ydi?	Boquvdagi qo'yini	10

173.	«Kampir uning yuzlariga qarab ezilib ketdi. Qarib, adoyi tamom bo'pti. Basharasiga ham o'sha tomonlarning nuqsi urib, o'zbekligi qolmabdi. Ellik bir yoshda yetmish yashar chol bo'lib qo'ya qopti». Parchada kim tasvirlangan?	Bo'rixon	10
174.	Bo'rixon ukalarini ham, singillarini ham tanimadi. Ular ham buni tanishmadi. Bo'rixon ularga qarata nima dedi?	«Salyam!» (Boshqa gap aytmadi, chunki til bilmasdi)	10
175.	Hamma tarqadi. Hovli jimib qoldi. Qumri ona-bolaga supaga joy solib berdi. Kampir nima sababdan ro'molining uchi bilan burnini berkitgancha o'tiribdi	Bo'rixon to'ygunicha ichgan edi. Og'zidan gup-gup aroq hidi kelib turgani uchun	10
176.	Qarib ketgan, sochlari to'kilib, boshining yarmi yalang'ochlanib qolgan, yuzlarida ko'p ichadigan odamlardagina bo'ladigan zaxil bir befayzlik zohir bo'lgan, ko'zlarining tagi salqigan, tishlari tamakidan jigarrang tusga kirgan qahramon...	Bo'rixon	10
177.	«Uch yoshga kirguncha shu supada bag'rida olib yotgan edi. U do'mboqqina bola bo'lgandi. Uni yomon ko'zdan asrasin, deb kiyimlariga tumor-u ko'zmunchoqlar taqib qo'yardi. Sultonimga atab unga kokil qo'ygandi.	Bo'rixon	10

	Olti yoshga to'lganda uni er-xotin Turkistonga olib borib hazrat Yassaviy maqbarasining shayxiga ataganlarini berib, kokilini kesdirishgan, qo'y so'yib xudoyi qilishgan edi». Yuqoridagi fikrlar qaysi qahramon haqida?		
178.	Nima sababdan kampir quyidagi holatga tushdi? «Badanidan chayon o'rmalagandek seskandi, o'zini orqaga tashladi. Kampirning ko'zlari tindi. Bir dam uni shuur tark qildi. Telbadek sapchib o'rnidan turdi-yu ayvon tomonga chekindi. Oh, otaginasi tirik bo'lganda shu supa ustida bolta bilan chopib tashlardi-ya! Kampir ayvon tomon tisarilib borar ekan, ana shunday o'ylardi. U ayvonga yetolmay hushidan ketib yiqildi»	Bo'rixon-ning bo'ynidagi zanjir uchidagi yaltirab turgan butni ko'rib	10
179.	Bo'rixonning armiyaga ketganidan so'nggi hayoti...	Bo'rixon armiya xizmatini o'tagandan keyin ham uyga qaytmadi. O'rmon ichkarisidagi qishloq butxonasi qo'ng'iroqchisining erdan qolgan qiziga oshiq-u beqaror bo'lib qoldi. Qallig'ining otasi, boshqa dindagi odamga qizimni bermayman, deb turib oldi. Qiz Bo'rixonni xristian diniga kirishga undadi. Ishq-muhabbatdan ko'zini parda bosgan Bo'rixon hech ikkilanmay rozi bo'ldi. Uni cherkovda cho'qintirishdi. Keyin cherkov oqsoqoli kelin bilan kuyovga toj kiydirib, nikoh o'qidi. Ana shundan keyin Bo'rixon xotini, qaynonasi bilan har kuni	10

		cherkovga borib cho'qinadigan bo'ldi. Qaynotasi o'lgandan so'ng uning o'rniga cherkov qo'ng'iroqchisi qilib qo'yishdi. Nimaiki ish bo'lsa, barini u bajaradigan bo'ldi. Piligi so'xta bo'lgan shamlarning uchini qaychilaydi, yonib tamom bo'lganlarini almashtiradi	
180.	Bo'rixon qachon musulmon dinidan chiqdi?	1970- yilning kech kuzida bir musulmon bolasi dindan chiqdi	10
181.	Kampir behush yotganida it kimni boshlab keldi?	Qumrini	10
182.	Qumri ertalab kampirdagi qanday o'zgarishni ko'rdi?	Ertalab kampir hech narsa bo'lmagandek o'rnidan turdi. Qumri qarasa, onasining qolgan qora sochlari ham bir kechada oqarib, ajinlari ko'payib ketibdi	10
183.	Abdumalik akasi Bo'rixonga qayerlarni ko'rsatmoqchi edi?	Abdumalik mashinada kelib akasini olib ketdi. Unga Toshkentning mustaqillikdan keyingi manzarasini ko'rsatmoqchi, Chorsu bozoridan uning bolalariga sovg'a-salomlar olib bermoqchi edi	10
184.	Bo'rixonning milliy qadriyatlarimizga munosabati...	Bo'rixon uchun O'zbekistonda mustaqillik bo'ldimi, bo'lmadimi, baribir edi. U o'zga yurtning fuqarosi, o'zga e'tiqodning sig'indisi edi. Tug'ilgan yurtga muhabbat tuyg'usi uni tark qilganiga ko'p yillar bo'lgan. Ona tili qadim-qadim zamonlardayoq unutilib ketgan Shumer tili qatori tumanlar orasida qolib ketgandi	10

185.	Qumri chemodan ichidagi nimani ko'rdi?	Xristianlarning muqaddas kitobi – Injilni	10
186.	Kampir joynamoz ustida odatdagidek duo qildimi?	Eriga atab qur'on tilovat qildi. Baxti chopmagan Qumriga bag'ishlab shu farishtaginaning yo'lini och, deb Allohga iltijolar qildi. G'oyibdan hozir bo'lgan o'g'lining nomini tilga ham olmadi	10
187.	Kampir Bo'rixonning tug'ili-shini eslab va buguni-ni o'ylab, qanday xayolga bordi?	Saodat aya shu bolasiga to'lg'oq tutayotganda oftob charaqlab turardiyu, yomg'ir sharros quyayotgan edi. Derazadan hovliga qarab turgan doya xotin: «Bo'ri bolalayapti», degandi. Shuning uchun ham o'g'liga u Bo'rixon deb ism qo'ygandi. Oradan ellik bir yil o'tib, bu bolani men emas, bo'ri tuqqan ekan, degan xayolga bordi. Bu bolani men emas, bo'ri tuqqan... Bir marta dadam qani, deb so'ramadi-ya! Qandoq ota edi-ya rahmatli	10
188.	Kampirning nevarasi Abdunabi mehmondorchilikka kimlarni olib ketdi?	Bo'rixonni, kampir bormadi, Qumri onasidan xavotirlanib yarim yo'ldan qaytib keldi	10
189.	Kampir nimalarni yoqib yubordi?	Bo'rixonning go'dakligida, bolaligida kiygan kiyimlarini. Gulxanda Bo'rixonning bolaligi yonardi	10
190.	Qumri onasining qaysi gapini ko'ngliga olmadi?	«Ko'p kuyinmang endi, bo'lar ish bo'ldi. Xudoning irodasi bu», – dedi Qumri. «E, qizim-a, bola tug'magansan-da, bilmaysan!» Kampir qiziga hech qachon «tug'magansan»	10

		deb aytmagan. Aytsa, ta'na qilayotgandek bo'lardi. Qizining shundoq ham dardi ichida. Bu gapni begona aytsa chidash mumkindir. Ammo o'z onang aytsa, yuragingni kimga ochasan? Qumri onasining gapini malol olmadi	
191.	Kampir behush yiqildi. Kampirni yo'qlab kimlar kelishdi?	Hovliga mahalla machitining imom-xatibi bilan mutavallisi kirdi. Kampirning ahvolini ko'rib, bir-biriga qarab olishdi. – Qizim, – dedi mutavalli, – bemavrid kelib qopmiz. Onaxondan suyunchi olmoqchi edik. Ular ayvon oldiga kelishdi. So'nggi nafasini olayotgan kampirga: – Onajon, kecha muborak haj safaridan qaytdik. Sizning hajingiz qabul bo'ldi, – deyishdi. Imom-xatib Saodat ayaning «Hoji badal» bo'lgani to'g'risidagi hujjatni uzatdi. Kampir qo'lini ko'tara olmadi. Ko'zini arang ochib, o'zingga shukur, Allohim, deya oldi, xolos. U qiziga bir nima demoqchi bo'lgan edi, tili kalimaga kelmadi. Qumri uning nima demoqchiligini bildi. Yugurib uyga kirdi-yu ikkita ohorli to'n ko'tarib chiqdi. – Oyim shu kunga atab saqlab yurgan edilar. U shunday deb ikkovining yelkasiga to'n tashladi.	10

192.	Kampirning tugab borayotgan umriga umr qo'shgan xabar...	Kampir hajga ketayotganlarga pensiyadan yiqqan pullarini «hoji badal» uchun berib yuborgan edi. Haj qabul bo'ldi, degan xushxabar	10
193.	Kampir jon berishdan oldin nimalarni vasiyat qildi?	«Abdumalik, endi bularga sen ota o'rnida otalik qilasan. Qumri, qizim, endi sen mening o'rnimga qolasan. Abdunabini shu hovlida uylantiringlar. Yilimni kutib o'tirmay to'y qilaveringlar. Shundoq qilsalaring, arvohim shod bo'ladi. Abdunabi kelin bilan Qumrining oldida qolsin. Shu uy uniki. Onam go'rida tinch yotsin, desanglar Qumrini aslo yolg'izlatib qo'ymanglar. Yilim o'tguncha bo'ladigan marosimlarga yetarli pulni Qumriga berib qo'yganman. Qizim, qulog'imdagi ziragimni, mahsi-kovushimni g'assolga bergin. – U endigi aytmoqchi bo'lgan gapidan iymandi shekilli, jilmaydi. – Azaga kelgan xotinlar oldida xunugim chiqib yotmayin, qoshimga o'sma...»	10
194.	Kampirni ko'mishga olib ketishayotganda Qorako'zni qayerda qoldirishdi?	Qo'shnining hujrasiga qamab qo'yishdi	10
195.	Kampirning qirqi o'tgandan keyin egasi ketib fayzi yo'qolgan hovlida kim qoldi?	Qumri va Qorako'z mung'ayib qolishdi	10

196.	Kampirning bolalari qayerda yashaydi?	Kampirning bolalaridan ikkitasi Toshkentda, bittasi Chirchiqda, ikkitasi Qibrayda yashaydi	10
197.	Qorako'z kampirni qidirib qayerlarga borardi?	Qorako'z tong otgandan to kun botguncha kampirning bolalarining hammasining uyiga borardi. Kampirni topolmay, horib-charchab qaytib kelardi	10
198.	Qorako'z kampirning ovozi qayerda eshitib qoldi?	Kimyogarlar shaharchasida kampirning kerja qizi turadi. O'g'li magnitofon jinnisi. Hammaning ovozi tasмага yozib yuradi. Shu yil bahorda buvisining ovozi ham bildirmay yozibdi. O'shanda kampir supada o'tirib, allaqayoqlarda daydib kelgan Qorako'zga tanbeh berayotgan edi. Qorako'z Kimyogarlar shaharchasining eng chekkadagi «dom»ga yetib kelganda kampirning nevarasi shisha bankada sut olib kelayotgan edi. Qorako'z unga dumini likillatib yaltoqlandi. Unga ergashib uchinchi qavatga chiqdi. Uyga kirmay qaytib tushdi. Bir ozdan keyin kampirning ovozi eshitila boshladi: «Qorako'zgina, qayoqlarda sanqib yuribsan? Hech uyda o'tirasanmi-yo'qmi? Qorning ham ochgandir? Tentakkina. Gapimga quloq sol, nega beozor musichani quvasan?...»	10

		Qorako'zning qulog'i ding bo'ldi. Yaqin ikki oydan beri yo'qotgan qadrdon kishisining ovozi eshitib yig'layotgandek g'ingshidi. Qorako'z uchinchi qavatga otilib chiqdi. Eshikni timdalab vovulladi. Yana qaytib tushdi. Boloxonaga qarab vovullayverdi, vovullayverdi..	
199.	Qorako'z qanday jon berdi?	Itning vovullaganini eshitib to'rtinchi qavatda yashovchi bir odam otib tashladi	10
200.	«... Qorako'z o'lmagur, Majnuningina, yana qayoqqa ketyapsan? Ma'shuqalaring oldigami? Kelinni qachon ko'rsatasan? Laylingni bir olib kel, ko'ray...». Ushbu gaplar qaysi qahramonga tegishli?	Saodat ayaning magnito-fonga yozib olingan gaplari	10

SAIDA ZUNNUNOVA
(1926 – 1977)

1.	Asarlarida o'zbek qizlarining tortinchoq, hayo to'la sajiyasini, Sharq ayolining andishaga o'ralgan qiyofasini, onalarning cheksiz mehri va uning o'ziga o'xshash ayollargagina xos bo'lgan matonatni, sadoqatni tarannum etgan shoira...	Saida Zunnunova	7
2.	«Xalqimizning Saidaga qilgan yaxshi niyati bekor ketmadi. U xotin-qizlarga xos nazokat, iforli, tatimli lirikasi bilan dillarimizni erkalab, hordiqalarimizni yozib, mehnatga rag'batlarimizni toblantiradigan, idrokimizni go'zalliklar tomon yetaklaydigan fahmli shoiramiz bo'lib yetishdi». Saida Zunnunova haqidagi ushbu ta'rif muallifi...	G'afur G'ulom	
3.	Saida Zunnunova qachon qayerda tavallud topgan?	1926-yil 15-fevralda Andijon shahrida xizmatchi oilasida dunyoga keldi	7
4.	Yosh Saida kimlarning qo'lida ulg'aydi?	Otadan erta yetim qolgan shoira onasi va qarindoshlari qo'lida ulg'aydi, kamol topdi	7
5.	Saida Zunnunova qaysi bilim dargohlarida tahsil oldi?	Andijon shahridagi 30-maktabni tugatgach, 1941-yilda Andijon o'qituvchilar institutiga o'qishga kirib, uni 1943-yilda tamomladi, 1947 – 1952-yillarda hozirgi O'zMUning filologiya fakultetida o'qidi	7

6.	Saida Zunnunovanning mehnat faoliyati...	Birmuncha muddat maktabda muallimlik qildi, viloyat gazetasi redaksiyasida ishladi. «Gulxan» jurnali, «O'zbekiston madaniyati» gazetasida adabiy xodim, badiiy adabiyot nashriyotida muharrir hamda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida adabiy maslahatchi bo'lib ishladi	7
7.	Saida Zunnunova qachon, necha yoshida vafot etdi?	1977-yil 20-martda 51 yoshida	7
8.	Shoira nomini abadiylashtirish uchun yurtimizda qanday ishlar amalga oshirilmogda?	Toshkent ko'chalaridan biri va 244-maktabga, shuningdek, Andijon shahridagi ko'cha va maktablarning biriga hamda Bo'z tumanidagi akademik litseyga uning nomi berilgan. Poytaxtimizdagi dam olish maskanida Said Ahmad va Saida Zunnunova xotirasiga muhtasham haykal o'rnatildi	7
9.	Saida Zunnunovanning birinchi she'ri...	«Salom senga» 1945-yili Andijon viloyatining «Paxta fronti» gazetasida bosilgan	7
10.	Birinchi she'riy kitobi...	«Qizingiz yozdi» (1948)	K, 7
11.	Birinchi she'riy kitobining nomini kim qo'yib bergan?	Akademik shoir G'afur G'ulom	7
12.	Saida Zunnunovanning she'riy to'plamlari...	«Yangi she'rlar» (1950), «Gullar vodiysi», «Qizlarjon», «She'rlar», «Bir yil o'ylari», «Nilufar»	7
13.	Saida Zunnunovanning dostonlari...	«Sodiq va Anor», «Xayrixon», «Surat bilan suhbat», «Qo'shnilarim»	7

14.	Shoiraning iymoni butun onalarga, ayollarga madhiya sifatida bitilgan asari...	«Surat bilan suhbat» (1963 – 1966), (Kasb-hunar kollejlari darsligida «Ruh bilan suhbat» deb nomlangan)	7
15.	«Surat bilan suhbat» asarida qanday voqealar qalamga olingan?	Dostonda onaning urush tufayli ota mehridan benasib bo'lgan, ne mashaqqatlar bilan o'stirgan o'g'lining nikoh kechasidan keyingi iztirobli o'y-xotiralari tasvirlanadi. Onaning qalbida ikki qarama-qarshi kechinma – farzandning kamolga yetganini, to'yini ko'rganidan quvonch, shukronalik hamda shu kunlarga yetolmaganlar haqidagi g'am-anduhli xotiralar kurashadi	K, 7
16.	Saida Zunnunovaning hikoya va qissalardan iborat to'plam-kitoblari...	«Gulbahor», «Povest va hikoyalar», «Gulxan», «Do'stlik», «Qanot», «Olov», «Ko'chalar charog'on», «Bo'ylaringdan o'rgulay»	7
17.	Adibaning pyesalari...	«Ona», «Ko'zlar»	7
18.	Saida Zunnunovaning turmush o'rtog'i ...	Said Ahmad	
19.	Quyidagi misralarning yozilish tarixini izohlashga harakat qiling. «Vaslingning umidida dunyodan o'tib borgum, Qanoatda Saida filcha bo'lurmi hay-hay»	Said Ahmadning boshiga og'ir kunlar tushib – tuhmat bilan «xalq dushmani» sifatida qamalganida, Saida opa uning hayotga, ijodga qaytishiga madad bo'ldi.	7

		O'zining boshiga tushgan og'ir sinovlarga ham bardosh berdi. Undan: «Ering xalq dushmani, undan voz kech», – deb talab qildilar. Bunga rozi bo'lmagan yosh ayolga do'q-po'pisa yog'dirdilar, qo'rqitishga urindilar. Ta'qib etdilar, tazyiq o'tkazdilar, xo'rladilar. Bu azoblar bir emas, ikki emas, davomli bo'ldi. U hammasiga chidadi. To'g'ri, halol va pok deb bilgani turmush o'rtog'ini kutdi. Sevimli qo'shiq bo'lib kuylanayotgan bu she'rdagi satrlar o'sha davrdagi hayotini, ruhiy holatini aks ettirgan bo'lsa, ajab emas	
20.	Said Ahmad qamalgan yillarda (1947 – 1953) Saida Zunnunova qayerda ishladi?	«Xalq dushmani»ning xotini deb, hech qaysi tashkilot ishga olmadi. Saida opa qo'sh oliy ma'lumotli diplomi bo'lishiga qaramay, uyida harf teruvchi bo'lib, tirikchilik qildi	
21.	«Saidaxon ellik bir yil umr ko'rib, birovga bosh egmadi. Imonini mahkam ushladi. O'ziga gard yuqtirmadi. Laganbardorlik, birovga mutelik, he'sadgo'ylik unga begona edi». Shoir haqidagi ushbu fikrlar muallifi...	Said Ahmad	7
22.	Shoiraning «Jahon mening bag'rimdami yo men jahon bag'rida» deb boshlanuvchi she'ri kimga bag'ishlangan?	Qiziga	7

23.	«Yuz yil umr ko'rsam, yuz yil she'r yozsam» deb boshlanuvchi she'r qanday mavzuda?	Vatan	7
24.	Saida Zunnunovaning «Buvilar duoga qo'llarin ochib» she'rida «Boshi toshdan bo'lsin jigar-laringizning, Ammo tosh bo'lmasin ko'ksida yurak» satrlaridan kelib chiqadigan ma'noni ayting.	Boshi toshday qattiq bo'lsin-u, ammo yuragi toshday bo'lmasin, odamlarni tushunadigan, ularni ayaydigan bo'lsin	7
25.	«Yo'qlatmagan har kuning yilcha bo'lurmi hay-hay» deb boshlanuvchi, sevimli qo'shiq bo'lib kuylanayotgan ushbu misralar qaysi shoiraning qalamiga mansub?	Saida Zunnunova	7
26.	Saida Zunnunovaning «Yer uzra qo'ndi oqshom» she'ridagi «Dudog'ing guldin xushbo'y, Yuzlaring undan xushro'y» tasviri kimga qaratilgan?	Qiziga	7
27.	Qaysi ijodkor xotiralaridan birida: "Kurashsiz, mehnatsiz shodlik, kulguni O'g'irlik mol deyman, qilaman hazar. Qalbimning parchasi singmasa agar, Rozimasman, birov hadya etsa zar", misralarini keltirib, «Bu satrlar Saidaxonning she'rida chizilgan suratiga o'xshaydi», – degan edi.	Said Ahmad	7

ODIL YOQUBOV (1927 – 2009)

1.	Odil Yoqubov qachon, qayerda tavallud topgan?	Odil Yoqubov hujjatlarga ko'ra, 1926-yil 20-oktabrda hozirgi Janubiy Qozog'iston viloyatiga qarashli Qarnoq qishlog'ida tug'ilgan. Aslida esa 1927-yilda dunyoga kelgan	6, 9
2.	Odil Yoquvobning otasi va oilasi boshiga tushgan falokat haqida gapiring	Otasi Egamberdi Yoqubov 1916-yili mardikorlikka olinib Belorussiya o'rmonlarida daraxt kesib, rus tilini o'rganib, qishloqqa qaytgan. Egamberdi Yoqubov o'z vaqtida sho'rolar hukumatining ishongan kishilaridan bo'lib, Qozog'istonda mas'ul lavozimlarda ishlagan. Keyinroq shaxsga sig'inish avj olgan davrda avval amaldan pastlatilgan, so'ng 1937-yilda qatog'onga yo'liqib, qamoqqa olinganicha qaytib kelmagan. Birgina uzatilgan qizdan boshqa to'rt norasida beva ayol qo'lida qoladi	9
3.	Odil Yoqubov qaysi urushda ishtirok etadi?	Odil Yoqubov 1944-yilda o'rta maktabni tugatib, 1945-yilda asli 1927-yilda tug'ilgan bo'lishiga qaramay, o'zini 1926-yilda tug'ilgan va o'n sakkizga to'lgan qilib ko'rsatib, ko'ngilli ravishda Ikkinchi jahon urushiga jo'naydi. Ikkinchi jahon urushi tugash arafisida edi. U avval Uzoq Sharqda xizmat qilgan, so'ng Mo'g'ilistonning cheksiz Gobi cho'lini piyoda bosib o'tib, Yaponiya davlatiga qarshi urushda ishtirok etadi. Uni 1950-yilga kelibgina uyga jo'natishadi	6, 9

4.	Odil Yoqubov qaysi oliy dargohda tahsil oladi?	50-yillarda u armiya xizmatidan qaytib, 1951 – 1956-yillarda O'rta Osiyo davlat universitetining filologiya fakultetining rus tili va adabiyoti bo'limida o'qiydi	6, 9
----	--	---	------

Odil Yoqubov quyidagi yillarda qanday mehnat faoliyati bilan mashg'ul bo'ldi?

5.	1959-yilgacha	O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida maslahatchi bo'lib ishlaydi	9
6.	1959 – 1963, 1967 – 1970-yillar	«Literaturnaya gazeta»ning O'zbekiston bo'yicha muxbiri	9
7.	1970 – 1982-yillarda	«O'zbekfilm» kinostudiyasida, Respublika kinematografiya qo'mitasida bosh muharrir, G'afur G'ulom nomidagi nashriyotda bosh muharrir o'rinbosari	9
8.	1982-1989-yillarda	«O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasida bosh muharrir	9
9.	1989-1996-yillarda	Respublika Yozuvchilar uyushmasini boshqaradi	9
10.	1996 – 2004-yillarda	Atamashunoslik qo'mitasi raisi	9
11.	2005-yilgacha	Markaziy Osiyo xalaqlari madaniyati assambleyasining birinchi vitse-prezidenti lavozimida faoliyat yuritadi	9
12.	Adibning ilk asari...	«Tengdoshlar» qissasi, 1951-yilda «Sharq yulduzi» jurnalida bosilib chiqqan (bu asar harbiy xizmatda ekanida yozilgan)	9

13.	Odil Yoqubov qanday unvon va ordenlar bilan mukofotlangan?	Yozuvchi 1985-yilda O'zbekiston xalq yozuvchisi unvoni, 1994-yilda «Do'stlik», 1998-yilda esa «El-yurt hurmati» ordenlari bilan mukofotlangan	6
14.	Odil Yoqubovning dastlabki yirik asari...	1951-yilda bosilib chiqqan «Tengdoshlar» qissasi	9
15.	Odil Yoqubovning hikoyalar to'plamlari...	«Dastlabki qadam» (1953), «Ikki muhabbat» (1955) hikoyalar to'plami	6
16.	1956-yilda bosilgan nasriy asarlar kitobi...	«Ikki muhabbat»	9
17.	Qissa va hikoyalar to'plami...	«Tilla uzuk» (1961)	6
18.	Dramatik asarlari...	«Chin muhabbat» (1955), «Aytsam tilim, aytnmasam dilim kuyadi» (1956), «Yurak yonmog'i kerak» (1957), «Olma gullaganda» (1960), «Muzaffar Temur» (1996), «Bir koshona sirlari» (2000) singari pyesalar	9
19.	Qissalari...	«Qaydasan, Moriko?», «Muqaddas» (1960), «Bir felyeton qissasi», (1961), «Qanot juft bo'ladi» (1969), «Billur qandillar» (1975) «Izlayman», «Matluba», «Tilla uzuk», «Larza» qissalari	9
20.	Romanlari...	«Er boshiga ish tushsa» (1969), «Ulug'bek xazinasini» (1974), «Ko'hna dunyo» (1983), «Diyonat» (1973), «Oqqushlar, oppoq qushlar» (1988), «Adolat manzili» (1998), «Osiy banda» (2006) romanlari	9

21.	Mustaqillik yillarida yozgan asarlari...	«Adolat manzili» (1998) romani, «Muzaffar Temur» (1996), «Bir koshona sirlari» (2000) singari pyesalari hamda o'nlab hikoyalari	6
22.	Odil Yoqubov Abu Rayhon Beruniy haqida qanday asar yozgan?	«Ko'hna dunyo»	6
23.	Yozuvchining bosh estetik prinsiplarini tayin etuvchi asar sifatida ham qadrlı bo'lgan qissa...	«Muqaddas»	L

«Muzqaymoq» hikoyasi

24.	«Muzqaymoq» asarining janri...	Hikoya	6
25.	Oilasi boshiga og'ir kulfat tushganda hikoyani so'zlab berayotgan qahramon necha yoshda edi?	10 yoshda	6
26.	Hikoya qahramonining dadasi uyidagi kitoblarning deyarli hammasini uch-to'rt qopga solib, qayerga yashirib qo'ygan edi?	Bolaxonadagi beda tagiga yashirgan va eshigiga katta qulf osgan	6
27.	Egamberdi Yoqubov oilasi bilan qayerda yashar edi?	Turkiston shahrining eng so'lim go'shalaridan biri – Lager ko'chasida	6
28.	Bola tuynukdan tushib, yashirilgan kitoblarning suratlarini tomosha qilayotib nimaga xayron bo'lar edi?	Suratdagi qahramonlarning ko'zlari o'yib olingan yoki yuzlariga ko'k siyoh tortilganiga	6

29.	Yoqubovlar-ning uyiga kimlar mehmon bo'lib kelishdi?	Egamberdi Yoqubovning SAGU (Sredno Aziyskiy Gosudarstvenniy universitet – O'rta Osiy Davlat universiteti)da birga o'qigan o'rtoqlari (ikki kishi va bir ayol)	6
30.	Bolaga oyisi kimlarni chaqirib kelishni tayinladi?	Bola mahkamadan dadasini, maktabdan opasi va pochchasini chaqirib kelishi kerak edi	6
31.	«To'ladan kelgan, novcha, qirraburun, o'sha davrda rasm bo'lgan to'mtoq mo'ylovli, xushqad, salobatli kishi. Egnida o'sha mahalda Stalinga taqlidan kiyiladigan ko'krak cho'ntakli yashil kostyum va galife shim kiygan, oyoqlarida ham o'sha zamonlarda rasm bo'lgan g'arch-g'urch xrom etik. Diydası qattiqroq, o'ktam, kamgap odam» Parchada kim rasvirlangan?	Hikoya qahramonining dadasi – Egamberdi Yoqubov	6
32.	Egamberdi Yoqubov qayerda ishlardi?	Egamberdi Yoqubov bir mahallar Qozog'iston Xalq komissarlari kengashi qoshida tuzilgan mayda millatlar (asosan o'zbeklar) xalq komissari lavozimida ishlagan. SAKUni tugatganlaridan keyin esa hozirgi Chimkent viloyatining Sayram rayonida birinchi kotib, keyinroq esa Qozog'iston temir yo'li Siyosiy boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari vazifalarida xizmat qilgan. Lekin keyingi yillar	

		«Otang so'fi bo'lgan, sen buni yashirgansan», – degan aybnoma bilan pastga surila-surila, yumalay-yumalay oxir – pirovardida Turkiston tumani moliya bo'limiga mudir etib tayinlangan edi	
33.	Hikoya qahramonining buvasi haqida ma'lumot bering	Buvasi Yoqub (joylari jannatda bo'lg'ay!) haqiqatan Qarnoq qishlog'ining eng katta masjidida to inqilobgacha so'filik qilgan. Odamlarning aytishicha, u kishining ovozlari shu darajada zo'r bo'lgan emishki, har subhidam masjid mezanasiga chiqib azon aytganlarida nafaqat o'n ming kishilik Qarnoq ahli, balki o'ttiz chaqirim naridagi Turkiston namozxonlari ham eshitgan emishlar. Shu boisdan Qarnoq ahli ularning ismlariga shayx so'zini qo'shib. Yoqub shayx deb ataganlar	
34.	Odil Yoqubovning otasi va bobosi qanday qilib sinfiy dushmanga aylanib qolgan?	O'n oltinchi yilgi qattiq qurg'oqchilikda bobosi Yoqub shayx og'ir ahvolga tushgan. Shu bois otasi oilasini boqa olmay, bir-ikki qo'y, bir-ikki qop g'alla evaziga bir boyning o'g'li o'rniga mardikorlikka ketgan-u, uyoqdan bolshevoy bo'lib qaytgan. Shu-shu, ota-bola biri – shayx, biri – bolshevoy, qip-qizil sinfiy dushmanga aylangan	
35.	Hikoya qahramoni – bola nimani eslolmaydi?	Otasining biror marta boshining silaganini	6

Qimiz voqeasi

36.	Bolaning dadasi ur kaltak, sur kaltak tagidan chiqolmay, ishdan haydala-haydala oxir pirovardida qishloqqa qaytib, uyda ko'kragini zaxga berib yotgan paytlar. Bir kun onasi qo'liga pul va ikki-uch litrli grafin (dadasi katta lavozimlarda ishlagan mahalda orttirgan nodir matoh) tutqazib, nima olib kelishni buyurdi	Qimiz	6
37.	Bola nega qimiz olib kelmadi?	Do'konda yo'q ekan	
38.	Bola uyiga nega kech keldi?	Bolaning yo'li yog'och va temir qoziqlar qoqilgan mol bozoridan o'tardi. To'satdan nimadir «shaq» etdi. Qarasa, qo'lidagi grafin temir qoziqlardan biriga tegib, tangaday joyi o'pirilib tushibdi. Yuragi orqaga tortib ketdi. Uyga qaytishga jur'at qilolmay anchagacha bog'lari poyidagi soy bo'yida aylanib yurdi	
39.	Qimiz olib kelmagan, qolaversa, grafinni sindirgan o'g'lini ota qanday jazolamoqchi bo'ldi?	Dadasi shitob bilan qaddini rostladi-yu xontaxtadagi grafinni olib, unga qarab otdi. Zarb bilan otilgan grafin bolaning shundoq qulog'i tagidan o'tib (chamasi, jonholatda boshini olib qochgan bo'lsa kerak!) devorga tegib chil-chil sindi. (– Qimiz ham o'lsin! Qimiz deb bolamni o'ldirmoqchimisiz, adasi? – dedi onasi. Keyinchalik dadasi ham bu qilmishidan pushaymon bo'lgan»	
40.	Otasi bolaga umrida birinchi marta nima olib bermogchi bo'ldi?	Muzqaymoq	6

41.	Otasi nega muzqaymoq olib berolmadi?	Do'konlar yopilgani uchun	6
42.	Hikoya qahramonining onasining ismi...	Gulshan	6
43.	Yozda go'shtni qayerda saqlashardi?	Hovlida, shundoq o'choq yonida bir tup gujum o'sar, gujum tagida chuqur quduq bo'lar, issiq yoz va iliq kuz kunlari go'shtni shu quduqda asrashardi	6
44.	Hikoya qahramonining uyiga kimlar kirib kelishdi?	Harbiylar	6
45.	Tintuv paytida oila a'zolari va mehmonlarning holatini bola qanday eslaydi?	«Uyda qiy-chuv boshlangan, katta opamlar o'rta eshikda haykalday qotib qolgan dadamlarning bo'yniga osilib yig'lamoqda, oyimlar ham dadamlarning yelkasiga suyanib, unsiz titramoqda, kichik opamlar bilan ukalarim burchakka tiqilishib, xuddi kalxatlardan qo'rqqan jo'jalarday, ko'zlari ola-kula, bir-birining pinjiga kirib olishgandi. Ichkari xonaning to'rida SAKUda dadamlar bilan birga o'qigan mehmonlar, ranglarida rang yo'q, tippa-tik serrayib turishardi», – deya eslaydi	6
46.	Tintuv paytida harbiylar albomlarni ko'rishdi. Albomlar allaqanday rahbarlarning suratlariga to'la bo'lib, nega odamlarning yuzlariga ko'k siyoh chaplangan, ko'zlari o'yib olingan, ba'zi suratlarning kallalari «kesib» tashlangan edi?	Bu odamlarning ham aksari allaqachon qamalgani uchun	

47.	«Malades! Kelgusida Pavlik Morozov chiqadi sendan!» – deb kapitan nega bolani maqtadi?	Shkafning tortmasini mix bilan ochib bergani uchun	6
48.	Pavlik Morozov qanday qilib qahramonga aylangan?	Sho'ro zamonida o'z otasini dushman sanab, qizil askarlarga tutib bergani uchun	6
49.	Bola keyinchalik yuqoridagi voqeani eslaganida nima sababdan o'zidan ijirg'anib yuradi?	Keyinchalik, katta bo'lganida, uydagi dod-faryodga qaramasdan otasini qamashga kelgan jallodning maqtovidan bir zumbina bo'lsa-da, yayrab ketgani uchun. Bola: «Ammo o'sha daqiqada, afsus- nadomatlar bo'lsinkim, uning so'zlaridan g'ururlanib ketganim ham haqiqat, mudhish haqiqat!» – deb eslaydi	6
50.	Tintuv paytida otasi nima so'radi?	Suv	6
51.	Kapitan bolaning opasiga qanday xushomad qildi?	«Shunday chiroyli qiz ham bunaqa yig'loqi bo'ladimi?» – deb (bola HKVD xodimining maqtovidan qancha xursand bo'lgan bo'lsa, kapitanning opasiga qilayotgan xushomadidan shuncha nafratlandi)	6
52.	Suvni quduqdan kim olib berdi?	Pochchasi lom-mim demasdan qo'lidagi chaqaloqni bolaga tutqazib, quduqdan yarim chelak suv olib berdi-da, sharpasiz odimlab hovlining qorong'i burchagiga qarab ketdi. Keyinchalik marhum oyisi ko'p aytguchi edilar: «O'sha kuni pochchangni xudo o'zi asradi! Agar pochchang opang bilan birga kelganida, kim bilsin, uni ham birga opketisharmidi bu toshbag'irlar?»	6

53.	NKVD xodimlari mehmonlarga nimani uqtirishdi?	SAKUchi sho'rlik mehmonlarga Turkistondan ketishdan avval NKVDga borib, ruxsat olishlari shart ekanini uqtirishib, qo'llaridan tilxat olishdi	6
54.	«O'rtoq Stalin tirik ekan, bu tuhmatlardan qutqarib oladi hali!» – degan qahramon...	Bolaning otasi	
55.	Hikoya qahramoni keyinchalik otasining Stalin haqidagi gaplarini eslab, ko'nglidan qanday fikrlarni o'tkazdi?	«Men hozir, shaxsga sig'inish davrining mudhish kirdikorlari, mudhish inqilob dohiylari, ayniqsa, Stalin hukmronligi davrida yuz bergan shafqatsiz qatl-u qirg'inlar, million-million begunoh kishilarning boshiga tushgan g'urbatlar, ota boladan, bola otadan ayrilib, odamlarning ko'z yoshi daryo bo'lib oqqan o'sha zimiston yillar haqida o'ylaganimda, dadamlarning Stalin to'g'risida gaplarini eslab, hayron bo'laman. «Nahot otam bu qirg'inbarotni ko'rmagan-sezmagan bo'lsalar, nahot Stalin bu jabr-u sitamlardan bexabar edi, degan sodda, bemantiq so'zlarga ishongan bo'lsalar?», degan fikr bot-bot ko'nglimdan o'tadi»	
56.	«O'rtoq Stalin sodiq farzandlarini xor- zor qilib qo'ymaydi», – degan gapni takrorlay-takrorlay yarim chelak suvni ichib tugatdi. Otasi nega Stalinga bunchalik ishondi?	O'sha davrda hukm surgan inqilob chavandozlari orasida mash'um Inqilobning soxta otashin chaqiriqlar, jo'shqin qo'shiqlar, alvonlari, «dohiy»ning alangali nutqlariga	

		astoydil ishongan, bo'layotgan qatl-u qirg'inlarning hammasi insoniyat baxti uchun qilinyapti, degan mudhish yolg'onga uchgan soddadil, oqko'ngil odamlarning biri bo'lgan edi otasi	
57.	Tintuv tugagandan so'ng dadasini olib ketishayotganida otasi bolaga nima dedi?	«Hay, attang! – dedilar to'satdan ko'zlariga yosh olib. – Umrimda bir marta senga muzqaymoq olib bermoqchi bo'luvdim. Shuniyam eplayolmadim- ov, bolam!..»	6
58.	Qish yaqinlashib qolgan, kun sayin uning qahrli nafasi kuchayib borar, uylarida yoqishga nima bor?	Na o'tin bor, na ko'mir!.. Ular tancha qurib, bir amallab kun kechirishgan	6
59.	Qamoqxonada haftada necha marta ovqat olishadi?	Haftada bir marta, shanba kuni	6
60.	Qamoqxona qayerda joylashgan?	Turkistonda Qul Xo'ja Ahmad Yassaviy maqbarasining shundoq biqinida O'rta Osiyoni zabt etgan general Chernyayev qurdirgan besh-oltita mustahkam g'ishtin binolar bo'lardi. Chernyayev bu binolarni chor askarlari uchun qurdirgan. Sho'ro hokimiyati esa ularni qamoqxonaga aylantirgan-u atrofini tikanli sim bilan o'rab tashlagan	6

61.	Har shan-ba tikanli sim bilan chegara-langani bu qal'a ro'parasida kimlar turi-shadi?	Kamida 150 – 200 ayol, chol-kampirlar yig'ilishadi, bular – «xalq dushmanlari»ning oila a'zolari. Yosh-yosh juvonlar, qaqshab-qaltirab qolgan keksalar hibsxona xodimlarining ovqat qabul qilishini kutib, ertalabdan kechgacha tikanli sim oldida diydorab turishadi	6
62.	Oyisi qamoq-xonaga bo-lasini nima sababdan yetaklab boradi?	Oyisi qamoqxonaga gohida uni ham yetaklab borishiga sabab – mabodo dadasi bilan yuz ko'rishish nasib etsa, otasi o'g'lini ko'rib qolsin degan niyatda edi. Lekin dadasini biror marta ko'rsatishmadi, ko'rsatishmaganlari ham mayli, bot-bot olib borgan ovqatlarini qabul qilmasdan qaytarib yuborishardi	6
63.	Qayerda har kuni miting bo'lar edi?	Hibsxonaning shundoq yonginasidagi shahar bog'ida	6
64.	Mitingdan maqsad nima edi?	«Shahar maktablaridan nog'oralar gumburi va karnay-surnaylar sadosi ostida bolalar saf tortib boqqa kelishardi. Bog' o'rtasiga qizil alvon bilan o'ralgan ulkan minbar o'rnatilgan bo'lib, charm palto kiygan, to'pponcha taqqan faollar unga chiqib vaʼz aytishar, vaʼzlarning aksariyati trotskiychilar' va ularning «dum»larini fosh qilishga bag'ishlanardi. Bu va'zxonliklarning dahshatli tomoni shunda ediki, bugun Trotskiyning «dum»larini fosh etib, otashin nutq so'zlagan notiqnlarning aksari ertasiga o'zlari «dum»ga aylanib, fosh etilganlar ro'yxatiga tushib qolishardi»	6

65.	<i>Trotskiychilar kimlar ...</i>	<i>Trotskiychilar – 20-yillarda sobiq kommunistik partiya ichidagi oqimlardan biri</i>	
66.	Hikoya qahramonini bu mitinglarga borishga nima chorlagan? Bu hol qachongacha davom etdi?	Aftidan, karnay-surnay va nog'oralar sadosi saf tortib o'tadigan tengdoshlarining quvnoq va jo'shqin qo'shiqlari bo'lsa, ajab emas. Chunki bu gumbur-gumbur sadolar, otashin qo'shiqlar qulog'iga chalinishi bilan xuddi nog'oraga o'rgangan harbiy otday oyoqlari o'z-o'zidan raqsga tushib, yuragi hapriqib ketaverardi. Faqat bir narsa murg'ak qalbini ezar, u ham bo'lsa, minbardan turib aytiladigan nutqlarda ba'zi-ba'zida dadasining nomi ham «dum»lar qatori tilga olinadi. Lekin shunday paytlarda dadasining Stalin to'g'risidagi so'zlari esiga tushardi-yu yuragiga quyilib kelgan alamli tuyg'uni haydardi. Bu hol toki shahar yoshlar qo'mitasining kotibi bilan yuzma-yuz kelgunicha davom etdi	6
67.	Qo'shnisi bo'lgan, yosh, xushqad, xushsurat yigit – dadasining shogirdi – shahar yoshlar qo'mitasining kotibi haqida hikoya qahramonining fikrlari...	«Bu yosh, xushqad, xushsurat yigitcha bizga qo'shni edi. Oilamiz boshiga musibat tushgunga qadar, u xonadonimizga bo'zchining mokisidek qatnar, dadamlar bilan kechalari uzoq suhbatlashib o'tirardi. U o'sha yozda uylangan, xotini ham, o'ziga o'xshash ko'hlik, xushqad, xushsurat edi. Dadamlar ularning to'ylariga to'yboshi	6

		bo'lgan, oyimlarning aytishicha, dadamlar unga moddiy yordam ham bergan ekanlar. Dadamlar qamalganlaridan keyin yon qo'shnimiz qorasini ham ko'rsatmaydigan bo'ldi. Bunga ajablanmasa ham bo'lardi, chunki shogird tugul qarindosh-urug'lar ham bu og'ir, g'urbatli kunlarda uyimizni chetlab o'tishar, bitta-yarimta kelsa ham kechalari qo'rqa-pisa kelib, so'ng devor panalab qaytib ketardi»	
68.	– Ha, qashqirdan tug'ilgan qashqircha! – dedi titroq bosib. – Bitta shaltoq buzoq bir to'da podani buzadi! Bo'yingga soxta qizil galstuk taqib, bu sofdil qizil pionerlarni buzmoqchimisan? – U qo'limni og'ritib siqqancha o'ziga torta boshladi. Lekin shu payt jikkak mo'ysafid: – Qo'yib yubor, bolapaqirni, – dedi oraga tushib. – O'rtoq Stalin aytdi-ku, bola otasi uchun javob bermaydi, deb? Gunohi nima bu norasidaning! U qovog'idan qor yoqqanicha bir qariyaga, bir charm paltoli harbiyga qaradi-da, qo'limni qo'yib yubordi va: «Yo'qol ko'zimdan!» – deb o'shqirdi. Hikoya qahramonini nohaq tahqirlagan yigit kim?	Qo'shnisi – shahar yoshlar qo'mitasi-ning kotibi	6

69.	«Yoshi anchaga borgan, tishlari to'kilib qolgan, ammo juda muloyim, mehribon rus kampiri dars berardi. Bir oydan beri bu kampir kasal bo'lib, o'rniga yosh tatar yigitcha dars bera boshlagan edi». Bu paytda hikoya qahramoni nechanchi sinfda o'qirdi?		3-«A» sinfda
70.	Tatar muallimi-ning hikoya qahramoniga munosabatiga doir qaysi voqealarni eslaydi?	«Qattiq oqsoqlanib yuradigan bu yigitcha bizga qo'shni bo'lmish raykom kotibining qaynisi bo'lib, dadam qamalganlaridan keyin menga o'qrayib qaray boshlagan edi. Ammo hayotning o'yinini qarangki, dadamlardan keyin bir hafta o'tar-o'tmas yosh o'qituvchimizning pochchasi ham hibsga olinib, «xalq dushmani» deb e'lon qilingan edi. Shu-shu battar mung'ayib, avvalgidan battar oqsoqlanib qolgan o'qituvchi menga achinib qaraydigan, yo'lakdami, hovlidami – tanho yurganimni ko'rsa, boshimni silaydigan bo'lib qolgandi»	
71.	«Pushkin suratlari ichiga qabih aksilinqilobiy so'zlar yozilgan emish», degan gap tarqalgan edi. O'qituvchi o'quvchilarga topshiriq berdi. Bu «aksilinqilobiy» so'zlarni kim topdi?	Hikoyamiz qahramoni topdi («Doloy SSSR!, ya'ni «Yo'qolsin SSSR!»)	
72.	Qaysi marosim keyinga qoldirildi?	Pushkinning rasmi tushirilgan daftarlarni yoqish marosimi (Aslida daftarlari Pushkin vafotining 100 yilligi munosabatiga chiqarilgan edi)	

73.	Dadasi bilan vidolashishga necha kishiga ruhsat berishdi?	3 kishiga	6
74.	Turmush o'rtog'i uchun Gulshan opa nimalar tayyorladi?	Bug'doy talqon, so'k talqon va yana allaqanday narsalar tayyorlashdi	6
75.	«Azaldan barvasta, to'ladan kelgan, novcha odam bir-ikki oy ichida cho'pday ozib, lunjlari ichiga botgan, ko'zlari kirtayib, qiyg'ir burni so'rrayib qolgandi». Parchada tasvirlangan qahramon...	Egamberdi Yoqubov	6
76.	Otasi bilan uchrashgani oila a'zolaridan kimlar borishdi?	Hikoya qahramoni, onasi va katta opasi	6
77.	Otasi Egamberdi Yoqubov bilan suhbatlashishga necha daqiqa vaqt berishdi?	15 daqiqa	
78.	Bolaning otasi yana Stalin haqida gapirdimi?	Bu safar chorak soat davom etgan vidolashuv davomida dadasi biror marta Stalinning nomini tilga olmadi, qamalgan kunlaridagidek: «Men partiya oldida gunohkor emasman! O'rtoq Stalin barhayot ekan, meni oyoqosti qilib qo'ymaydi!», – demadi	
79.	Bolaning onasi dadasiga necha so'm pul berdi?	50 so'm	
80.	Dadasining oxirgi gapi...	– Umrimda bir marta senga muzqaymoq olib bermoqchi bo'lgan edim, bu ham nasib etmadi, – deb 50 so'mdan besh so'mini ajratib berdi. – Bu pulga daftar-kitob ol! Qolganiga muzqaymoq olib ye, o'g'lim!..	–

81.	Shaxsga sig'inish zulmidan jabr chekkan million-million oilalar kabi Egamberdi Yoqubovning taqdirini, o'lik yo tirik ekanini (ungacha yozgan o'nlarcha xatlarining bittasiga ham javob ololmaganlar) so'rab, yuqori tashkilotlarga qachon murojaat qilishdi?	1955-yili Xrushchevning butun dunyoni larzaga solgan mashhur nutqidan keyin
82.	Qaysi idoralarga xat yo'llashdi?	Maktublarning bittasini Qozog'iston Kompartiyasi Markaziy Qo'mitasiga, ikkinchisini SSSR Davlat xavfsizligi qo'mitasiga
83.	Hikoya qahramoni xatlariga qanday javob olganini aytadi?	«Taxminan to'rt-besh oydan keyin birin- ketin ikkita javob keldi. Javoblarning birinchisi Qozog'iston Markaziy Qo'mitasidan bo'lib, unda dadamlarning partiyaviy ishi ko'rib chiqilgani, u kishi Stalin shaxsiga sig'inish qurboni bo'lganligi e'tirof etilgan va 1918- yildan e'tiboran partiya a'zosi sifatida tiklangani xabar qilingan edi. Ikkinchi javob Moskvadan, Davlat xavfsizligi qo'mitasidan bo'lib, unda aytilishicha, dadamlar Uzoq Sharqdagi qaysi bir o'rmon xo'jaligida daraxt kesuvchi bo'lib ishlagan, 1943- yil qish oylarida (vaqti aniq aytilmagan) daraxt kesayotgan paytida yiqilib vafot etgan. Birinchi javobdan farqli o'laroq, bu xatda shunday ilova ham bor edi. Agar volidamiz (men yozgan xat, tabiiy, oyimlar nomidan bitilgan edi) nafaqa yoshida bo'lsalar, u kishiga davlat tegishli miqdorda nafaqa to'laydi. Agar oyimlarning turar joyi bo'lmasa, u kishi qo'mitadan kelgan ushbu javob asosida shahar kengashiga murojaat qilib, navbatsiz uy oladilar...»

84.	Oilaga beriladigan yordamni qabul qilishdimi?	«Har ikkala xat ham haqiqatni qaror toptirish, adolatni tiklashga qaratilgan edi. Ammo men negadir, ehtimol, Uzoq Sharqda olti yil oddiy soldat bo'lib, butun qiyinchiliklarni boshimdan o'tkazganim uchundir, nogahon o'zim ko'rgan bepoyon sovuq o'rmon, qor tagida egilib turgan daraxtlar, qish ko'z oldimga keldi. Bir zum nigohim oldiga bu qorong'i o'rmonda behol imillab daraxt kesayotgan dadamlar keldi, keldi-yu, alam, iztirob, mehr-shafqat va xo'rlik tuyg'ulari toshqinday guvillab vujudimni qaqshatib yubordi. «Yo'q! Bu nopoklar 1918- yildan firqa aʼzosi bo'lmish otamni nohaq qamaydilar, qariganida ham ozod qilishni istamay, qahraton qishda ham o'rmon kesdirib, o'limga mahkum etadilar-u, endi o'z gunohlarini yuvish umidida judolik azobidan ikki bukilib qolgan bevasiga nafaqa to'larmishlar, boshpana berarmishlar! Yo'q, men bitta onamni ular bergan sadaqasiz ham boqib olaman, ularsiz ham boshpana topib beraman!» Xayolan shunday deb, yaxshi niyat bilan yozilgan ikki xatni burda-burda qilib yirtib tashladim... »	
85.	Qaysi adib qaysi hikoyasida o'z otasi misolida qatag'on davrining dahshatlarini badiiy talqin etgan?	O.Yoqubov, «Muzqaymoq»	6

86.	«Xalqimiz va millatimizning yaqin o'tmishidagi yopiq sahifalarni to'la ochib berish, shu tarixdan saboq chiqarib, bugungi va kelajak hayotimizga ongli qarashni shakllantirish, begunoh qurbon bo'lgan insonlar xotirasini abadiylashtirish biz uchun ham qarz, ham farz». Ushbu fikrlar muallifi...	I.A.Karimov («Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asaridan)	6
-----	--	---	---

«Ulug'bek xazinasi» romani

87.	Ali Qushchi quyma tilladan yasalgan taxt o'rnatilgan xonaga kirdi. Ali Qushchi nazarida bu xonaga kirganidan go'yoki kim norizo edi?	Amir Temur ruhi	L
88.	Mirzo Ulug'bek Ali Qushchini qayerga olib bordi	Ko'ksaroydagi xazina yashirilgan yashirin quduqqa	L
89.	Quduqda nechta po'lat sandiq bor edi?	To'rtta	L
90.	Bir sandiqning qopqog'ini ochishdi. Ichida qanday toshlar bor edi?	Olmos, la'l, yoqut, inju, zabarjad va yana qandaydir nafis tovlangan qimmatbaho toshlar bilan limmo-lim edi	L
91.	Bu toshlar qayerdan keltirilgan edi?	Mirzo Ulug'bekning bobosi Amir Temur Sulton Boyazidni tor-mor keltirganida Bog'dod va Kohira xazinalaridan keltirgan	L
92.	Mirzo Ulug'bek Ali Qushchiga qancha oltin, javohir berdi?	Qizil charm xaltachaga piyoladay-piyoladay quyma oltindan o'nta, besh-olti hovuch javohir solib berdi	L

93.	Mirzo Ulug'bek Ali Qushchiga tillani tangaga almashtirish zarur bo'lsa, kimga uchrashini tayinladi?	Xoja Salohiddin zargarga murojaat qilishini tayinladi va o'g'li mavlono Muhiddinga ham salomini yetkazishini aytdi. Shahzoda Abdulazizning gunohidan o'tishlarini so'radi	L
94.	Shahzoda Abdulaziz qanday gunoh ish qilgan edi?	Ali Qushchi yosh mudarris Qalandar Qarnoqiya Mavlono Muhiddinning qizi Xurshidabonuni so'rab sovchilikka bordi. Lekin qizning otasi va bobosi qattiq qarshilik qilishdi va qizlarini amir Ibrohimbek Tarxonning kenja o'g'liga nikohlab berishdi. Mirzo Ulug'bek o'g'li Abdulatifga qarshi qo'shin tortib, Jayhun bo'ylariga ketganida Samarqandda qolgan shahzoda Abdulaziz amir Ibrohimbek o'g'lini qatl ettirib, yosh xotinini o'z haramiga olgan va barcha lashkarboshilarning noroziligiga sabab bo'lgan	9
95.	Qalandar Qarnoqiyni taqdiri nima bo'ldi?	Madrasani tark etib, ustiga janda, boshiga kuloh kiyib, darveshlikni ixtiyor etdi	L
96.	Mirzo Ulug'bek: «Shahzoda – nogiron, qalbi majruh», – deb qaysi o'g'lini nazarda tutadi?	Shahzoda Abdulazizni	L
97.	Xurshidabonuning taqdiri nima bo'ldi?	102-savolning javobida berilgan	
98.	Mirzo Ulug'bek qolgan boyliklarni kimning ulushi dedi?	Shahzoda Abdulazizning	L

99.	Mirzo Ulug'bek chin boyligim deb nimani nazarda tutdi?	Toj-u taxtni emas, ilm-ma'rifat yo'lida qilgan xizmatlarini, bitgan asarlarini, to'plagan ilm xazinasini	L
100.	Mirzo Ulug'bek bu bebaho ilm xazinasining taqdiri kimning qo'linda ekanligini, bu xazinani bo'lg'usi avlodlar uchun asrab qolmoq kimning gardanida ekanligini aytdi?	Ali Qushchining	L
101.	Mirzo Ulug'bek Ali Qushchiga: «Uni tog'larga olib chiqib aniq bir joyga yashirursen. Ehtiyot shart, shu bugundan usta topib, o'n-o'n besh po'lat sandiq yasatib qo'ymoq maqbul bo'lur», – deb nimani yashirishga buyruq berdi?	O'z asarlari-ni, to'plagan ilm xazina-sini	L
102.	O'g'illaridan yolchimagan Mirzo Ulug'bek kimni «o'g'lim» deb ataydi?	Ali Qushchini	L
103.	Ali Qushchi Mirzo Ulug'bekning mehribonchiligidan so'ng beixtiyor qaysi ustozini yodga oldi?	Jannatmakon ustoz Qozizoda Rumiyni	L
104.	Mirzo Ulug'bekning suyuqli navkari ...	Bobo Husayn Bahodir	L
105.	Bu muazzam saroydagi son-sanoqsiz xonalar orasida Mirzo Ulug'bek qaysi xonani ko'proq xushlar edi?	Ovchilik o'ljalari bilan bezatilgan xonani	L
106.	Mirzo Ulug'bek saltanat ishlari ko'ngliga tekkanida aksariyat qaysi xonada o'tirib hordiq chiqarar, mutolaa va mushohada lazzatini surar edi?	Ovchilik o'ljalari bilan bezatilgan xonada	L

107.	Kesh qal'asi dorug'asi...	Amir Kamoliddin	L
108.	Bobo Husayn Bahodir qanday xabarni keltirdi?	Qal'a dorug'asi Amir Kamoliddin Kesh kalitini shahzoda Abdullatifga qarshiliksiz qo'sh-qo'llab topshirganini	L
109.	<i>Cherik</i> so'zining ma'nosi...	Lashkar. Bu yerda ko'ngillilar ma'nosida	L
110.	Bobo Husaynning fuqaro orasidan cherik yig'ish kerak, degan taklifiga Mirzo Ulug'bek qanday javob berdi?	«Yo'q, – dedi Mirzo Ulug'bek. – Lashkar bas kelmagan joyda cherik ne qiladi?»	L
111.	«Bu amirlarga inonma, o'g'lim! Ularni sodiq bo'lsin desang, qilichingni ilgingda mahkam ushla!» – deb Amir Temur kimga aytgan?	Amir Temur Hirotida, «Bog'i Jahon»da Shohruh Mirzoga aytgan	L
112.	Mirzo Ulug'bek Hirotning a'yon va boyonlari qurshovida Madrasayi Shohruhiyadan chiqib, qiblagohi qurdirgan qalandarlar xonaqosidan o'tayotganida kim uning yo'lini to'sib, Olloning qahriga duchor bo'lishini bashorat qilgan edi?	«Telba devona darvesh uning sarkardalari Hirot tevaragidagi qishloqlarnigina emas, hatto yo'qsillar va gadolar xonaqohlarini ham talon-toroj qilganidan so'zlagan, bu ish uchun Olloning qahriga duchor bo'lishini bashorat qilgan edi»	L

113.	Otasi Shohruh Mirzo vafotidan so'ng kimning kirdikorlari tufayli Hirot saroyida nizo-nifoq avj olib, beqiyos saltanat xavf ostida qoldi?	Validayi mehriboni Gavharshodbegimning	L
114.	«Uzun bo'yli, ko'k ipakdan keng ko'ylak kiyib, boshiga ko'k ro'mol o'ragan, qo'lidan tasbehi tushmaydigan kalondimog' bir xotin keldi. U qosh-ko'zlari qop- qora, qiyg'ir burun, xushsurat xotin bo'lsa ham, farishtasi yo'q, chehrasi sovuq ayol». Parchada ta'riflangan ayol...	Gavhar-shodbegim	L
115.	Mirzo Ulug'-bekning onasi Gavharshodbegimning kirdikorlari...	1) Amir Temur Oлло rahmatiga yo'l tutib, Xuroson taxtiga Shohruh Mirzo o'tiribdi hamki, ... toj-u taxtni o'z qo'lga oldi; 2) saroyini johil gumrohlari ila Xoqoni Saidni ko'rolmaydigan badxohlarga to'ldirib yubordi. Hirot fisqi fujur uyasiga aylandi; 3) Shohruh Mirzoni chalg'itib, sayidlarni qatl qildirdi; 4) shahzodalar orasiga nizo tushirgan, suyuqli nabirasi Alouddavla bilan Abdullatifni bir-biriga qayrab solib qatl-u qirg'in chiqardi ... 5) bu fitna-yu xunxorliklardan ish chiqmagach, o'z o'g'li Mirzo Ulug'bekka «shohi sharir» (buzuq shoh) degan nom taqib, shahzoda Abdullatifni qayrab soldi	L

116.	Shahzoda Abdullatif kimning domiga ilinib qoldi?	Naqshbandiylar jamoasining rahnamosi janob Nizomiddin Xomush yanglig' din peshvolarining domiga	L
117.	Amir Temur Ko'ragoniy vafot etgandan keyin ...bu kiyimni, ko'k ipak ko'ylagi bilan ko'k ro'molini tashlamas, go'yo o'zini sohibqiron uchun to o'lguncha motam tutgandek, shu bilan bu dunyo ishlaridan qo'l yuvib, u dunyo g'amiga o'tgandek ko'rsatgan qahramon...	Gavhar-shodbegim	L
118.	«Mirzo Ulug'bek saltanat talashmasdan toj-u taxtni shahzodalarga berib, ilm-u idrok yo'liga o'tsa bas, shahzodalar uni o'z holiga qo'yadilar, suyuqli ishing bilan shug'ullan deb, rasadxona va madrasalarning darvozalarini ochib beradilar», – deb kim o'ylaydi?	Ali Qushchi o'ylaydi	
119.	Mirzo Ulug'bek nima uchun toj-u taxtni Abdullatifga topshirmadi?	Saltanatni boshqarishga noliyiqligi uchun	
120.	Shayxulislom Burhoniddin va shahzoda Abdulaziz Mirzo Ulug'bekka qanday xabar keltirishdi?	Iskandar Barlosdan chopar kelibdi. Nomada shahzoda Abdulatifning hirovul (qo'shinning old tomoni) qo'shinlari pistirmadan chiqib, uning qalb (markaziy) qo'shinlariga hamla qilgani, shahzodaning qo'shinida fillar ham borligi, fillar dahshat	9

		solgani boisdan qo'shin dorussaltana tomon chekingani yozilgan edi	
121.	Mirzo Ulug'bek mahramlari orasida qaysi shahzodalar tirardi?	Shahzoda Abdulla bilan Abu Said Mirzo	9
122.	Xontaxtalar yog'liq patirlar, meva-cheva, qovurilgan g'oz va kaboblarga to'la edi. Mirzo Ulug'bek ichida kulib qo'ydi va nima dedi?	«O'lim oldidan bazmi jamshid!»	9
123.	Suyukli navkari Bobo Hu- sayndan kelgan nomaning mazmu- ni...	«Amir Sulton Jondor qayoqqadir qochgan, qo'shinda yolg'iz amir Iskandar barlos qolgan. Bobo Husayn Mirzo Ulug'bekka Samarqandga chekinishni maslahat bergan, o'zi esa amir Iskandar barlos bilan Dimishq atrofida jang qilib, shahzoda lashkarlarini to'xtatib turish niyatida ekanini yozgan»	9
124.	«Siz Dimishqda qolib, Iskandar barlos suvoriylariga ko'mak bergaysiz, amir! Boshingiz ketsa-da, shu bugun shahzoda lashkarlarini to'xtatgaysiz», – deb Mirzo Ulug'bek kimga buyruq berdi?	Idris tarxon amirga	9
125.	Mirzo Ulug'bek Abdulazizga ikki shahzodani dorussaltanaga olib ketishni buyurdi. Ular...	Abdulla va Abu Said Mirzo	9
126.	Mirzo Ulug'bek Abdulazizga dorug'a Mironshohga amri oliyni yetkazishini, barcha a'yon-u boyonlar darhol qayerga yig'ilishini tayinladi?	Ko'ksaroy- ga	9
127.	Tund yuzli deb tasvirlangan qahramon...	Saroybon	9

128.	Kimlar Mirzo Ulug'bekka xiyonat qilib qaysi darvozalarni ochishmadi?	Dorug'a Mironshohning buyrug'iga ko'ra Amir Sulton Jondor Samarqanddagi «Darvozayi ohanin»ni va qal'a boshlig'i turkman begi Ibrohim Po'lat o'g'li topshirig'iga ko'ra Shohruhiya qal'asini ochishmadi	9
129.	«Salohdorning boshini olishga qo'ling kaltalik qiladur! Buning boshi emas, o'z boshingga ehtiyot bo'lg'il, Muhammad Tarag'ay!» Darvozani ochmagan, qolaversa, Mirzo Ulug'bekka yuqoridagi gaplarni aytgan qahramon...	Amir Sulton Jondor	9
130.	«Amir Sulton Jondor! Humo qushi kimning boshiga qo'nur, buni yolg'iz Haq taolo biladur. Humo qushi meni tark etsa – seni baxting», – degan qahramon...	Mirzo Ulug'bek	9
131.	Bir paytlar uzoq Yassidan haqiqat izlab, Ulug'bek taxtiga bosh urib kelgan va undan ko'p yaxshiliklar ko'rgan iste'dodli shoir, arslonyurak jangchi ...	Qalandar Qarnoqiy	9
132.	Yo'lbars bilan olishgan sheryurak qahramon...	Ali Qushchi	9
133.	Hukmdorning qimmatbaho xazinasi bo'lmish kitoblarini saqlab qolishda Mirzo Ulug'bekning shogirdi Ali Qushchiga yordam bergan qahramon...	Qalandar Qarnoqiy	9
134.	Haqiqat izlab topolmagan, adashgan banda...	Qalandar Qarnoqiy	9

135.	Ali Qushchida tilla borligini Qalandar Qarnoqiylar qayoqdan bildi?	Ali Qushchi Xoja Salohiddin zargarga yetkazgan edi. U hazrat Nizomiddin Xomushga aytgan. Ularning suhbatini orqali Qalandar Qarnoqiylar eshitgan	9
136.	Mirzo Ulug'bek kitoblarni «makruh kitoblar» degan qahramon...	Nizomiddin Xomush	9
137.	Rasadxonadan tashqariga chiqadigan lahim borligini kimlar bilardi?	Faqat ikki kishi – Mirzo Ulug'bek va Ali Qushchi bilar edi	9
138.	Rasadxonadan lahm orqali Urgut tomonlarga yo'l olgan Ali Qushchi va Qalandar Qarnoqiylarning maqsadlari nima edi?	Mirzo Ulug'bek bergan oltin, javohirlarni yashirish va nodir kitoblarni rasadxonadan biror g'orga olib ketish uchun o'n besh-yigirmatacha sandiq yasatish	9
139.	Ali Qushchi va Qalandar Qarnoqiylar kimning oldiga borishdi?	G'orda yashaydigan mashhur temirchi usta Temur Samarqandiyning oldiga	9
140.	Ustaning g'oridagi to'nkada Ali Qushchidan avval kimlar o'tirishgan edi?	Amir Temur va Shohruh Mirzolar	9
141.	Amir Temur usta Temur Samarqandiyga nima ichirgan?	Boda tutgan	9
142.	Usta Temur Samarqandiy Amir Temurga nima chektirgan ekan?	Nasha	9

143.	Usta Temur bobo Shohruh Mirzo haqidagi qaysi voqeani aytib berdi?	Usta Temur qilich yasamaslikka ont ichgan. Shohruh Mirzo quyma oltin keltirib qilich yasab berishni buyurgan. Usta esa bundan bosh tortganligini	9
144.	Ali Qushchi mish-mishlardan yuqoridagi voqeani qanday yakunlanganini eshitgan edi?	Shohruh Mirzo ustadan g'azablanib dorga osishga buyurgan, Mirzo Ulug'bek o'rtaga tushib temirchini o'limdan olib qolgan	9
145.	«Serajin yuziga qora qurum bosgan, pahmoq qoshlari ostida tiyrak ko'zlari. Cholning keng yuzi, ko'ksiga tushgan oppoq soqoli, kuch yog'ilib turgan baquvvat jussasi, tizzasiga tirab o'tirgan qoqsuyak qo'llari xuddi cho'ng qoyadan o'yib yasalganga o'xshar, vujudidagi bo'lakcha bir mardonavorlik, iroda, kuch yog'ilib turardi». Parchada kim tasvirlangan?	Usta Temur Samarqandiy	9
146.	Usta Temur Samarqandiy qayerda xizmat qilgan?	Amir Temur lashkarida, shuningdek, Hirot, Bag'dod, Damashq madrasalarida hovli supurib, ko'p donishmandlarning xizmatini qilgan	9
147.	«O'z padariga qilich ko'targan zurriyot, inshoolloh, haq taoloning qahriga yo'liqur, mavlono», – degan qahramon	Usta Temur Samarqandiy	9

148.	Ali Qushchi olib borgan oltin, javohirlarni nima qilishdi?	Ko'mib qo'yishdi	9
149.	Ko'ksaroyning chekkasidagi bir xonaga qamab qo'yilgan Mirzo Ulug'bek suhbatga chaqirishini so'rab shahzodaga nechta maktub yo'lladi?	Ikkita, ikkalasi ham javobsiz qoldi	9
150.	Bakovul Mirzo Ulug'bekning oldiga qip-qizil pishgan ikkita patir, bir tovoq osh va bir choynak choy qo'ydi-da patirga imo qilib ko'zini qisib chiqib ketdi. Mirzo Ulug'bek patirni sindirdi. Ichidan naycha qilib o'ralgan, imzo chekilmagan noma chiqdi. Nomaning mazmunini ayting	Noma saroydagi voqealar bilan boshlangan. Shahzodayi valiahd dorussaltanani zabt etib, Ko'ksaroyga kirishi bilan qiyomat-qoyim boshlangan, kecha masjidi jomeda xutba o'qilib, Mirzo Ulug'bek Movarounnahr g'animi, deb atalgan va toj-u taxtdan judo qilingan. Xutbada Movarounnahr sultoni deb, shahzodaning ismi zikr qilingan va uning nomiga pul zarb etilmoqqa fatvo berilgan. Shahzoda bu kunlarda ko'p zot-u shariflarni, Mirzo Ulug'bekning ko'p navkarlari va sarkardalarini hibsga olgan. Qarshilik qilganlar esa qatl etilgan. Shahzoda Mirzo Ulug'bekni Makkayi mukarramaga hajga yubormoqqa jazm qilgan. Lekin xutbada Sayid Abbos degan kimsa xun dovlagan. Zero, Ulug'bek hazratlari uning padari buzrukvorini begunoh qatl qildirgan emish. Bu diyonatsiz	9

		kimsaning soxta dovini qozi Xoja Miskin janoblaridan boshqa bir kimsa, hatto shahzodaning o'zi ham rad qilmagan. Alqissa, uning hayoti qil ustida turibdi. Noma'lum kimsa unga qochmoqni maslahat bergan. Basharti onhazratlari bu maslahatni maqbul topsa, bakovulga ishora qilmog'i lozim. Bakovul posbonni dori bilan uxlatib, Mirzo Ulug'bekni Ko'ksaroy tagidagi lahmndan olib chiqadi	
151.	Mirzo Ulug'bek noma haqida qanday o'yladi?	Tuzoq deb	9
152.	Bandi bo'lgan Mirzo Ulug'bekni salomxonaga, Abdulatif oldiga kimlar olib borishdi?	Ot yuzli o'ng qulog'iga isirg'a taqqan balxiy ikkita sipoh hamda surmarang salla o'ragan zanjiday qop-qora notanish yasovul	9
153.	«Ha, hazratim. Fatvo mubohara qilmoq uchun ilmdan ogoh bo'lmoq darkor. Nadomatlar bo'lg'aykim, bu murofaaga (hukmronlik da'vo qilishga) aqli zukko ulamolar emas, ilm-u ma'rifatdan yiroq johillar yig'ilibdur... Zerokim, o'g'il bilan ota o'rtasiga nifoq solib, farzandni o'z padariga qayrash... Gunohi kabir emasmu, hazratim?» Salomxonada Mirzo Ulug'bek ushbu gaplarni kimga aytdi?	Nizomiddin Xomushga	9

154.	«Uning so'nik yuzi go'yo ganchdan yasalgan niqobday sovuq tuyular, chuqur botgan ko'zlari bejo charaqlar, qo'sh-qo'sh tilla uzuk taqilgan ingichka, qoramtir barmoqlari asabiy titrardi». Parchada kimning portreti aks etgan?	Abdullatif-ning	9
------	--	-----------------	---

**Mirzo Ulug'bekning gaplariga
Abdullatif qanday javob qaytardi?**

155.	– Shahzodayi juvonbaxt! Taxtimning valiahdi sen eding. Ollo taolo faqirni o'z rahmatiga chorlasa, bu taxtga sen o'tirar eding. Olloning inoyati bilan ko'zim tirigida bu taxt senga nasib bo'libdi, men bunga rozimen...	– Balli sizga, qiblagoh! Va lekin men bu taxtni sizning ixtiyoringiz bilan emas, birlamchi, haq taoloning inoyati, ikkilamchi, o'z kuch-qudratim ila qo'lga kiritdim!	9
156.	– Movarounnahr sarhadiga qadam qo'ymay qiyomat-qoyim qilasenmu?	– Nechun qadam qo'ymaganmen? Movarounnahr ulusi oyog'im ostidadur!	9
157.	– Esingda bo'lg'ay, bu tuproqni oyoq osti qildin degan ne-ne fotihlar, ne-ne jahongirlar o'tgandur. Ularning hoki qayda tirik banda bilmaydi va lekin bu el, bu tuproq abadulabad turajakdur!	– Suhbatdan muddaongiz shu bo'lsa, men bunday nasihatlariga muhtoj emasmen! Boshqa kalomingiz bo'lsa ayting, yo'qsa...	9

158.	«Yo'q bundan shafqat tilab bo'lmas. Bundan shafqat tilamoq...» Mirzo Ulug'bek fikrini davom ettiring	«Ajdardodan jon tilamoq bilan barobardur!»	9
159.	Mirzo Ulug'bek Abdullatifning oxirgi gapini bo'lib, qanday tilagini aytdi?	– Senga aytadurg'on yolg'iz tilagim bor. So'nggi tilagimdir bu ... O'z padaringni Movarounnahr sarhadidan haydamoqni niyat qilbsen... Meni bu maskandan haydagandin qatl qilganing a'lodur! Qatl!	9
160.	Mirzo Ulug'bek Abdullatifni qanday ataydi?	«Burgut! Qora Burgut!» – deb, yana ichida «quzg'un» deydi	9
161.	Hajga yuborish bir hiyla edi. Abdullatifning asl maqsadi nima edi?	Otasini o'ldirish	
162.	Abdullatif otasini kimning qo'li bilan o'ldirdi?	Sayid Abbosning	
163.	Abdullatif qaysi bog'da tunab qoladigan, Ko'ksaroyga qaytmaydigan bo'ldi?	«Bog'i maydon»da	9
164.	Qaysi shahzoda z'ndondan qochgani uchun Abdullatif iztirobda yurgan edi?	Abu Said Mirzo	
165.	Xurshida bonuning taqdiri nima bo'ldi?	Xurshida bonuni Abdullatif o'z haramiga olmoqchi bo'ldi. Uning otasini zindondan chiqardi. Qiz bilan Qalandar Qarnoqi – ikki sevishgan yosh qochib ketishdi. Amir Sulton Jondor ham qizning ishqida yonardi. U Qalandar Qarnoqiyni o'ldirib qizni otasining uyiga olib keldi. Xurshida bonu zahar ichib o'ldi. Otasi Mavlono Muhiddin aqldan ozgan edi	

166.	«Bog'i maydon»da tunab qolmoqchi bo'lgan Abdullatif saroybonga kimlarni olib kelishni tayinladi?	Ko'ksaroyga chopar yuborib, besh-olti yosh kanizlar bilan xonandalarni olib, darhol yetkazib kelishni	
167.	Abdullatif qanday tush ko'rdi?	Tushida amir Sulton Jondor kiyikning kallasini keltirdim deb Abdullatifga oltin barkashni uzatdi. Oltin barkashda qonga bo'yalgan Abdullatifning boshi tirjayib turardi	9
168.	«Padarkush... toj-u taxt... olti oydan oshmaydur...» Abdullatif ushbu jumlani kimning kitobidan o'qidi?	Nizomiy Ganjaviyning (aynan o'sha kuni Abdullatif taxtga o'tirganiga olti oy bo'lgan edi)	9
169.	Abdullatif 6 oy taxtda o'tirdi. Abdullatif qaysi oyda taxtga o'tirgan va qachon o'ldirilgan?	Sha'bon oyida taxtga o'tirgan, rabbiul avval oyida (1450-yilning may oyida) o'ldirilgan	9
170.	Abdullatifni kimlar o'ldirdi?	Amir Sulton Jondor, Bobo Husayn Bahodir	
171.	«Tag'in bir narsadan – kelgusi avlodlar bandayi ojizdan hazar qilmasmu, deb qo'rqamen. Mi zo Ulug'bekday koinot sirlarini ochmoqni tilagan, fozillikni da'vo etgan mavlono, hayhot, oxir-oqibat barcha shoh, barcha taxt sohiblariday saltanatni deb, o'z pushti kamaridan bo'lgan farzandi bilan toj-u taxt talashibdir-da degan nom qoldirmoqdin qo'rqaman...» Mirzo Ulug'bek ushbu gaplarni kimga aytgan?	Ali Qushchiga	9

172.	Asardagi Abdullatif boshliq qora kuchlar...	Salohiddin zargar, Amir Sulton Jondor, ayg'oqchi Qashqir, Sayid Abbos	9
173.	Ali Qushchi boshliq ma'rifat fidoyilari...	Miram Chalabiy, Qalandar Qarnoqiy, Usta Temur Samarqandiy, Xurshida Bonu	9
174.	O'z ustozidan yuz o'g'irgan obraz...	Mavlono Muhiddin	9
175.	«Ko'hna dunyo» romanida qaysi buyuk qahramonlar taqdiri haqida gap ketadi?	Ibn Sino va Beruniy	
176.	«Ko'hna dunyo» romanida haqiqiy Ibn Sinoni haydab soxta Ibn Sinoni boshga ko'tarib, e'zozlagan qahramon...	Mahmud G'aznaviy	
177.	Yangi o'zbek adabiyotida dastlabki mistik sujet (mistifikatsiya) yo'nalishi kimning qaysi asarida namoyon bo'lgan?	Odil Yoqubovning «Ko'hna dunyo» romanida	
178.	«Obi rahmat» arig'i, «Nog'oratepa» nomlari qaysi asarda keltirilgan?	«Ulug'bek xazinasi» romanida	9
179.	«Ulug'bek xazinasi» romanida berilgan quyidagi parcha qaysi qahramonning nutqidan olingan? «Shunday zukko odam quzg'un sarkardalarga inonib, qarigan chog'ida ko'p pand yedi»	Usta Temur Samarqandiy	9
180.	Mirzo Ulug'bek saroyidagi qozi...	Xoja Miskin	9

181.	Quyidagi fikrlar qaysi qahramonga taalluqli? «Yo tavba! Bu toj-u taxtda ne sehr, ne sir-asror bor ekankim, unga o'ltirgan har bir kimsa darhol o'zgaradi? Odamiylikni, umri bebaqo bir faqir-u haqir ekanini darhol unutadi? Bu toj-u taxt, bu saltanat hech bir kimsaga vafo qilmasligini yodidan chiqaradi?»	Mizo Ulug'bek (Abdulatif taxtda o'tirganida o'ylagan)	9
------	---	--	---

Quyidagi so'zlarni izohlang

182.	lojuvard	qimmatbaho ko'k tosh, zangori	I
183.	rax	forscha: kertik (kertma) belgi, yoriq; tirqish; eshik, deraza va shu kabilarning burchagi, qirrasi, zihi	I
184.	serbar	eni keng, enli	I
185.	filhaqiqat	arabcha: haqiqatan, darhaqiqat	I
186.	gustox	odobsiz, andishasiz	I
187.	shikasta	ezgin, ezilgan, xasta	I
188.	bosqon	temirchining katta, og'ir bolg'asi	I
189.	falak-iqtidor	iqtidori falakday buyuk	I
190.	dorug'a	bosh mirshab, shahar idorasi boshlig'i	I
191.	cherik	lashkar, ko'ngillilar ma'nosida	I
192.	ilik	qo'l	I
193.	masrur	shod, sevingan	I
194.	badxoh	birovga yomonlik istovchi, buzuvchi, niyatli	I
195.	xunxorlik	qon to'kishlik	I

196.	manhus	baxtsizlik keltiruvchi, shumoyoq	1
197.	hirovlul	qo'shinning old tomoni	9
198.	qalb	qo'shin markazi	9
199.	arroda	toshotar qurol, manjaniq	9
200.	murofaa	hukmdorlik da'vo qilish	9
201.	muqarrab	yaqinlar, do'stlar	9
202.	rabbiul avval	1950-yilning may oyi	9

PIRIMQUL QODIROV (1928 – 2011)

1.	Cho'lpon iborasi bilan aytganda, «boshini zo'r ishga berib qo'ygan» ijodkorlardan biri...	Pirimqul Qodirov	6
2.	Pirimqul Qodirov qachon qayerda tavallud topgan?	1928-yilning 25-oktabrida hozirgi Xo'jand viloyati hududidagi Kengko'l qishlog'ida cho'pon oilasida dunyoga kelgan	6
3.	Pirimqul Qodirovning otasi boshiga qanday falokat tushadi?	Kolxozlashtirish (1930 – 1933-yillar) davrida ko'pchilik qatori uning otasi – o'ziga to'q Qodir cho'pon ham quloq qilinadi	6
4.	Pirimqul Qodirov qaysi bilim dargohlarida tahsil olgan?	Qishloq maktabini tugatib, ToshDUning sharqshunoslik fakultetiga o'qishga kirib, 1951-yilda bitiradi. Keyinchalik Moskvadagi aspiranturaga o'qishga kiradi	6
5.	Pirimqul Qodirovning mehnat faoliyati...	1954 – 1963-yillarda Yozuvchilar uyushmasida, Til va adabiyot institutida ishladi	6
6.	Pirimqul Qodirov qaysi yozuvchi ijodi yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borgan?	Ustozi Abdulla Qahhor asarlarining til va uslubiy jihatlarini tadqiq etilgan nomzodlik dissertatsiyasini yoqlaydi	6

7.	Primqul Qodirov qanday mukofotga sazovor bo'lgan?	Hamza nomidagi Davlat mukofotiga (1968) sazovor bo'lgan	
8.	Pirimqul Qodirovning dastlabki kitobi qaysi qatorda ko'rsatilgan?	«Studentlar», 1951-yil	6
9.	Pirimqul Qodirovning hikoyalari...	«Jon shirin», «Qalbdagi quyosh», «Kayf», «Olov»	L
10.	Primqul Qodirovning qissalari...	«Meros» (1974), «Erk» (1968), «Qadrim» (1961), «Yayra institutga kirmoqchi» (1979), «Najot» (1980)	6
11.	Primqul Qodirovning romanlari...	«Uch ildiz» (1958), «Qora ko'zlar» (1966), «Olmos kamar» (1976), «Yulduzli tunlar» (1979), «Avlodlar dovoni» (1989)	6
12.	Primqul Qodirovning tarjima asarlari...	Rus adiblari Tolstoyning «Kazaklar», K.Fedinning «Ilk sevinchlar», turkman yozuvchisi X.Deryayevning «Qismat» romanlari	

Pirimqul Qodirovning quyidagi asarlarida qaysi kasb egalarining hayoti yoritilgan?

13.	«Meros»	Paxtakorlar	6
14.	«Qadrim»	Neft konlarini izlovchilar	6
15.	«Uch ildiz»	Ziyolilar	6
16.	Gavharshodbegim siymosiga bag'ishlangan, yaxlit sujet asosiga qurilmagan, mustaqil hamda bir-birining uzviy davomi sifatida 25 dan ortiq hikoyalardan tashkil topgan asar...	«Ona lochin nidosi»	

**«Yulduzli tunlar» («Bobur»)
(romanidan parcha)**

17.	Bobur tezroq Andijonga borib, ota yurtini kimning istilosidan xalos qilishga oshiqadi?		Ahmad Tanbalning	6
18.	Bobur mirzoni Xo'jandda to'xtatib kuch yig'ishga, vaziyat yetilishini kutishga undayotgan qahramon...		Qosimbek	6
19.	Ahmad Tanbal kimni osib o'ldirdi?	Bobur mirzoning ustози Xo'ja Abdullani		6
20.	Boburning onasi va opasining ismlari...	Qutlug' Nigor xonim va Xonzodabegim		6
21.	Bobur mirzo onasi va opasi bilan necha oydan beri ko'rishmas edi?	10 oydan beri		6
22.	Ahmad Tanbal qo'shinining soni...	10 000		6
23.	Ahmad Tanbal Andijonda Bobur haqida qanday xabar tarqatdi?	«Bobur, Samarqandda vafot etdi» deb		6
24.	Andijondagi qo'shin shumxabarni eshitib kimlarga bo'yin egdi?	Ahmad Tanbal bilan Jahongirga		6
25.	Qosimbekning xatosi...	Boburni behush ahvolda ko'rgan navkarni Samarqandda to'xtatib turmagani, bu voqeani sir tutmagani		6
26.	Bobur mirzoning qancha navkarlari qoldi?	Bir yarim mingga yetar-yetmas		6
27.	Bobur mirzo bu paytda necha yosh edi?	16 yosh		6
28.	Qutlug' Nigor xonim Bobur mirzoga qanday sovg'a in'om qildi?	Bobokaloni Amir Temur-dan qolgan noyob meros – oltin sopli qilich (Bu sovg'a «Boburnoma»da aks etmagani)		6

29.	Qilichning qiniga nima deb yozilgan?	«Bizkim, maliki Turon, podshohi Turkiston Amir Temur Ko'ragon farzandimiz Mironshoh mirzoga To'xtamish bilan muhorabada ko'rsatgan jasorati uchun o'z qilichlarimizdan birini in'om etdik»	6
30.	Qilichdagi yozuv bayoni...	«Rosti – rusti» («Kuch adolatdadir»)	6
31.	Bu qilichni Mironshohdan so'ng kim taqqan?	Bobur mirzoning bobolari – Abusaid mirzo	6
32.	Abusaid mirzo vafot etganidan so'ng qolgan meroslari o'g'illari orasida taqsim etilgan. Katta o'g'illar oltin-u javohir to'la sandiqlarni talashib olishgan vaqtda mirzoning qaysi o'g'li Amir Temurga doir xotirotlar bilan uning oltin sopli qilichini afzal ko'rgan tarixiy qahramon...	Umarshayx mirzo	6
33.	Mo'g'ulistondan ellik ming qo'shin bilan kelib, Temurbek tarafdorlarini qirib tashlagan shaxslar...	Tug'luq Temurxon bilan uning o'g'li Ilyosxo'ja	6
34.	Temurbekning o'zi Qoraqum, Qizilqum sahrolarida, Hisor-u Badaxshon tog'larida necha yil quvg'inda yurib kuch to'playdi?	To'rt yil	6
35.	Temurbek haqidagi qaysi voqealar yosh Boburga kuchli ta'sir qilgan edi?	Temurbekning suyukli yosh xotini O'ljoy Turkon og'a bilan eng og'ir damlarda birga bo'lgani, goho xotinini otiga mindirib, o'zi qum sahrosida piyoda yurganlari	6

36.	Xonzoda-begim Bobur mirzoning qaysi xayrli ishlarini yodiga soldi?	O'zini (Xonzodabegimni) Ahmad Tanbalning tajovuzidan qutqargani, bo'lajak kelin Oyisha begimni Samarqanddan yog'iy asoratidan xalos qilib, Toshkentga kuzatib qo'ygani, yetti oy qamal azobini tortgan samarqandliklarga oshlik tarqatgani, urug'lari qolmagan dehqonlarga bahorda urug'lik keltirib berganini	6
37.	Temurbekka tajovuz qilgan qaysi dushmanlari Ahmad Tanbaldan yuz chandon qudratliroq va xatarliroq edi?	Ilyosxo'ja va Amir Bekchiklar	6
38.	Bobur mirzoga xiyonat qilib, Andijonni Ahmad Tanbalga yashirincha topshirgan shaxs...	Ali Do'stbek (Bobur mirzoning tog'asi)	6
39.	Andijon va Samarqand shaharlari ham qo'lidan ketgan, sargardonlikda yurgan Bobur mirzo onasi va opasini qayerga joylashtirdi?	O'ratepaga, xolasi Xub Nigor xonimning uylariga keltirib qo'ydi	6
40.	Boburning qancha navkari qoldi?	300 ga yaqin	6
41.	Bobur navkarlari bilan qayerga ketdi?	Janubdagi tog'larga chiqib ketdi. Ovchi qishlog'i yaqinida chodir va o'tovlar tikib, ancha vaqt ov o'ljalari bilan ro'zg'or tebratishdi	6
42.	Chodirda Bobur mirzo qaysi kitobni mutolaa qildi?	Mirzo Ulug'bekning «Tarixi arbaa ulus» kitobini	6

43.	Marg'ilon-dan kelgan chopar yigit qanday xabarni yetkazdi?	Ahmad Tanbal Ali Do'stbekning uyiga bostirib borib, uning yaxshi ko'rgan qizlarini zo'ravonlik bilan haramga olib ketgani, uning mol-mulkini talatgani, Ahmad Tanbal barchaga jabr-zulmni haddan oshirib yuborgani, el-yurt ularga qarshi isyon ko'taradigan bo'lib turgani, agar Bobur mirzo kelsalar qo'rg'on darvozalarini ochib berishlari haqidagi xabarni aytdi	6
44.	Bobur mirzoning Ali Do'stbekka yaqin qarindosh bo'lgan momolarining ismi...	Eson Davlat begim	6
45.	Bobur mirzo va yigitlari Marg'ilongacha bo'lgan to'rt kunlik yo'lni necha kunda bosib o'tishdi?	Bir yarim kunda	6
46.	Marg'ilon egallanganidan so'ng Qosimbek Bobur mirzo nomidan qanday xayrli ishni amalga oshirdi?	Doshqozonlarda palov damlatib, minglab odamlarga osh ulashildi, mahallalarda nog'oralar, karnay-surnaylar yangradi	6
47.	Andijonda katta qo'shin bilan Marg'ilonga yo'lga chiqqan Ahmad Tanbal qanday qilib mag'lubiyatga uchradi?	Marg'ilondagi barcha kuchlar birlashdi: beg-u navkarlar, qo'rg'ondan tashqaridagi mahallalar va qishloqlardan yig'ilgan minglab botir yigitlar yordamida Tanbal qo'shinini uloqtirib tashlashdi. Bu orada quvaliklar Tanbalga orqadan zarba berdilar	6

48.	Qaysi shahar xalqlari Tanbalga qarshi isyon ko'tarib, Boburga ko'mak yubordilar?	O'sh va O'zgan xalqi	6
49.	Andijon dorug'asi Nosirbek Ahmad Tanbalni nega qal'aga kiritma olmasdi?	Andijon xalqi Ahmad Tanbalga qarshi isyon ko'tarib Bobur mirzoni qo'llab-quvvatlagani uchun	6
50.	Andijonliklar Bobur mirzoni qanday kutib olishdi?	Karnay va nog'oralar chalib, u minib kelayotgan gulibodom otning oyog'i tagiga gilam poyandozlar to'shab	6
51.	Ahmad Tanbalga sadoqat saqlab turgan Axbi dorug'asi...	Uzun Hasan (Bobur uni asir oldi)	6
52.	Ahmad Tanbalning so'nggi umidi	Axbi va Popdan ayrilgan Ahmad Tanbal G'ova orqali Chotqol tog'lariga qarab chekindi. Uning so'nggi umidi – katta akasi Tilba Sulton yoki Toshkent xoni Mahmudxondan edi	6
53.	Ahmad Tanbal Farg'ona vodiysini talon-taroj qilib oltirgan boyliklaridan katta bir qismini kimga sovg'a qildi?	Ohangaron orqali Toshkent hokimi Mahmudxonga yubordi	6
54.	Mahmudxon Bobur mirzoga qanday qarindosh?	Qutlug' Nigor xonimning akasi, Boburning tog'asi	6
55.	Tilba Sultonning lavozimi...	Toshkent xoni Mahmudxonning eshik og'asi	6

56.	Ahmad Tanbal qayerga yashirindi?	Chotqol tog'i etagiga	6
57.	Ahmad Tanbalni nega tezda qo'lga olishmadi?	Ali Do'stbekning: «Qorong'i tushib qoldi, yovni o'zimiznikilardan ajratish qiyin bo'lg'ay. Qamalni ertalabdan boshlaylik», – degan taklifi uchun	6
58.	Ahmad Tanbalni qo'lga olishdimi?	Mahmudxonning katta qo'shini Ahmad Tanbalni qutqarib oldi	6
59.	Mahmudxon nega Ahmad Tanbal bilan til biriktirdi?	Mahmudxon va Ahmad Tanballar chingiziylar avlodidan. Shuni ro'kach qilib, Tibla Sulton Mahmudxonni Boburga qarshi qayradi. Shuning uchun Ahmad Sulton bilan til biriktirgan	6
60.	Qutlug' Nigor xonimning shajarasi...	Boburning onasi Qutlug' Nigor xonim Yunusxonning ikkinchi qizi, Sulton Mahmudxon va Sulton Ahmadxonning egachisi bo'lgan. Yunusxon esa Chingizxonning ikkinchi o'g'li Chig'atoyxonning naslidan	6
61.	Pirimqul Qodirovning aytishicha, «mustabid tuzum tazyiqi ostida «Yulduzli tunlar» asari necha yil chop etilmay yotdi?»	Olti yil	6

**«Yulduzli tunlar» romanidan
Sekri. Qayta ko'z ochgan buloq**

62.	Primqul Qodirovning dastlabki tarixiy asari...	«Yulduzli tunlar»	
63.	«Yulduzli tunlar» romani qachon yozilgan?	1969 – 1978-yillar	
64.	Boburning maxsus taklifi bilan Hirotdan Agraga uch oyga yaqin yo'l yurib kelayotgan qahramonlar...	Mavlono Xondamir, shoir Shihob Muammiy va mudarris Ibrohim Qonuniylar	
65.	«Badraqa» so'zini izohlang	Qaroqchilardan himoya qiluvchi ikki yuz- uch yuz kishilik qo'riqchi askarlar	
66.	«Karvonsaroylarda ham ularni «podshohning xos mehmonlari» deyishib, eng yaxshi xonalariga joylashtirishar, qo'llaridagi qog'ozlariga binoan kundalik taomlari uchun bepul guruch, go'sht, yog' berishar, tag'in mayda xarajatlari uchun maxsus ulufa ham to'lashardi. Charchagan ot- ulovlarini almashtirishlari kerak bo'lib qolsa, yomchilar boquvdagi ot- ulovlaridan ularga birinchi navbatda berishar edi». Podshohning bu xos mehmonlari kimlar?	Mavlono Xondamir, shoir Shihob Muammiy va mudarris Ibrohim Qonuniylar	
67.	Qaysi jangdan keyin Boburni astoydil tan olib elchi yubora boshlagan podshohlar ko'payib qolgan edi?	Sekri degan joyda Bobur Ra'no Sango bilan urushib, Panipatdagidan ham ulkanroq g'alabaga erishgandan keyin	

68.	Oq tuyaning zar uqali kajavasida parvarishlab olib ketilayotgan ikkita go'zal cherkas qizini Boburning haramiga atab yuborgan shoh...	Shoh Taxmasp	
69.	«Boburga Samarqandning soyaki mayizlaridan, Konibodomning subhoni o'riklaridan, Buxoroning o'tkir maylaridan, Movarounnahrning boshqa noyob ne'matlaridan yetti tuyaga sovg'a-salom yuklab, yoniga ikki yuzta yaxshi otni ham tortiq qilib qo'shib keltirgan» qaysi shohning elchisi...	Samarqand taxtida o'ltirgan Ko'chkinchi xonning elchisi	
70.	«E, mavlono, biz Hindistonda ko'rgan xirmon-xirmon oltinlarni hali hech kim ko'rmagandir. Bobur mirzo quyma oltindan qilingan taxtda o'ltiribdir. Taxtning pastiga katta gilam to'shalgan ekan. Viloyat hokimlari har yili beradigan oltinlarini shu gilamning ustiga keltirib to'kdilar. Birpasda oltindan katta xirmon ko'tarildi». Qaysi elchining Xondamirga aytgan gaplari?	Shayboniy- xonlardan bo'lgan Samarqand taxtida o'tir- gan Ko'ch- kinchi xon elchisining	

**Xondamirning savollariga samarqandlik
elchi qanday javob qaytardi?**

71.	– Janob elchi bu xirmondan kapsan olmadilarmi?	– Podshoh bizga qimmatbaho sarupolar kiydirdi. Gilam ustidagi oltindan hazrat Ko'chkinchixonga atab sovg'a berildi. Oltin tangalarni sanab ham o'ltirmadilar. Ikki yuz ellik misqolini bir kumush tosh bilan tortib berdilar-qo'ydilar.	–
-----	--	---	---

72.	– Ikki orada biron shartnoma tuzildimi?	– Ha, bemaolol bordi-keldi qiladigan bo'ldik. Savdo-sotiq tiklandi. Aloqalar ilgarigidan yaxshiroq ravnoq topg'usidir. Biz bulardan ipak, ziravor olurmiz. Bularga ho'l-u quruq mevalar, ot- ulovlar soturmiz... Yo'li uzoq bo'lsa ham karvonlarimiz ishtiyiq bilan kelib ketadi. Chunki Bobir mirzo butun qalamravida tamg'a ¹ solig'ini bekor qilmishlar. O'zbek, turkman, tojik, hind, arab, ajam, fors – qo'ying-ki, hamma bani bashar ² bu og'ir soliقدan xalos bo'lib, daromadlari oshibdi. Hunarmand-u savdogarlar ham shunisidan juda mamnun. Faqat Bobur podshoning bir amri bizga ma'qul kelmadi.	–
73.	– Qaysi amri? – qiziqib so'radi Xondamir.	– Butun mamlakatida may ichish man etilmishdir. Bobur mirzoning o'zi ham «minba'd ichmaymen», deb butun el oldida tavba qilibdirlar. May ichiladigan oltin-kumush kosalami sindirmishlar. G'aznidan o'n to'rt tuyada ikki oy ovora bo'lib asl chog'irlardan Agraga olib borgan ekanlar. Hammasiga tuz soldirib, sirkaga aylantirmishlar. «Butun mamlakatda hech kim ichimlik sotmasin, hech kim chetdan ham olib kelmasin!» – deb qatag'on qilinmishdir... Bazmlari ichkiliksiz... muzdakkina!	–

74.	Elchining may ichilishini man etish haqidagi hikoyasi Xondamirning ko'nglidagi qaysi tashvishini tarqatib yubordi?	«Husayn Boyqaroni va uning o'g'illarini ichkilik balosi qay darajada xarob qilgani hali mavlononing esidan chiqqan emas edi. Bundan to'qqiz yilcha burun Bobur Hirotga ikkinchi marta borganda Xondamir uning ham mayxo'rlikka ruju qila boshlaganini ko'rgan: «Nahotki, bu nodir siymo ham boshqa ko'p temuriylar singari iste'dodini ichkilikka boy bersa!» – degan tashvishlarini	
75.	<i>Bani bashar</i> so'zining ma'nosi...	Odam farzandi	
76.	Hindistonga kelayotganida Xondamir necha yoshda edi?	Yoshi 50 dan oshgan	
77.	Xondamir Agraga kelib kirganda daryo bo'yiga qurilgan qaysi bog'larga mahliyo bo'ldi?	Hisht Bihisht va Zarafshon bog'lariga	
78.	<i>Tolor</i> so'zining ma'nosi...	Shiypon	
79.	So'nggi yillarda ko'p kasal bo'lib, juda ozib ketgan, jussasi xiyla kichrayib qolgan qahramon...	Bobur (bu paytda u 46 yoshda edi)	

80.	Xondamir Boburning Hindistonga kelib tuzgan yangi devonini bugun ertalab o'qigan edi. Shu devondagi qaysi ruboiy uning esiga tushdi?	<i>Jismimda isitma kunda mahkam bo'ladur, Ko'zdin uchadur uyqu chu oqshom bo'ladur. Har ikkalasi g'amim bila sabrimdek, Borg'on sari bu ortadur, ul kam bo'ladur</i>	
81.	Tabiblar Boburga qanday maslahat berishdi?	«Sizga orom kerak», «Davlat tashvishlarini unuting», «Kechalari she'r yozmang», – deyishdi	
82.	Bobur nima sababdan Sekriga chiqqanini qanday izohladi?	«Sekriga chiqib keldim. Ijod uchun bu yer tinchroq... Anchadan beri masnaviy yozmoqdamen. Sanasam, bir kecha-kunduzda ellik bayt masnaviy bitibmen»	
83.	«Habib ussiyar» – «Sevimli do'stning tarjimai holi» kimning asari?	Xondamirning asari. O'zining bu katta asarida Arab, Eron, O'rta Osiyo, Xuroson tarixining olam paydo bo'lganidan to XVI asrgacha o'tgan eng muhim davrlari haqida so'z yuritadi	
84.	Xondamir «Habib ussiyar» asarini necha yilda yozgan?	O'n bir yilda	
85.	Hirotda yigirma yildan beri qaysi mazhabga mansub guruhlar o'rtasida kurash boradi?	Sunniyparastlar bilan shiaparastlar	

86.	Shia-sunniy adovati Movarounnahr bilan qaysi davlatlarning madaniy aloqalarini uzib tashladi	Xuroson va Eronning	
87.	Odamlar qaysi binoning g'ishtlarini olib ketib, o'z hovlilariga ishlatmoqda emishlar?	Ulug'bek rasadxonasining	

Ushbu fikrlar qaysi qahramonlar nutqidan olingan?

88.	«Tarixiy zarurat bizdan zo'r bo'lishini ko'p sezmişmen»	Xondamir	
89.	«Darhaqiqat, tarix alohida shaxslar irodasiga bo'ysunmas ekan»	Bobur	
90.	«Ichdan ko'tarilib o'sib boruvchi tog'dek tuyuladir», – deb Xondamir qaysi mamlakatni nazarda tutyapti?	Hindistonni	

Quyidagi allomalar qayerlik?

91.	Beruniy	Xorazmlik	
92.	Ibn Sino	Buxorolik	
93.	Firdavsiy	Tuslik	
94.	Yusuf Xos Hojib	Bolasog'unlik	
95.	Beruniy, Ibn Sino, Firdavsiylarni bog'lab turuvchi umumiy holat...	Ular asrdosh	
96.	Madaniy taraqqiyotimiz iplarini bir necha asrga uzib tashlagan bosqinchilar...	Chingizxon va uning avlodlari	

97.	Samarqandda, Hirotida qaysi allomalar davrida juda ko'p madaniy daholar yana uyg'ondi?	Ulug'bek va Navoiylar davrida	
98.	Xondamir «Habib ussiyar»ning so'nggi tahririni qayerda tugallamoqchi ekanini aytadi?	Hindistonda	
99.	Xondamir Hirotida kimlarning kutubxonalaridan foydalangan?	Husayn Boyqaro va Navoiyning	
100.	Boburning ulkan kutubxonasida necha kishi ishlardi?	Ellik kishi	
101.	Abdullaning kasbi...	Kitobdor	
102.	Abdulla kitobdorning ixtiyorida qaysi tilni yaxshi biladigan tarjimon olimlar bor?	Sanskritni	
103.	Xondamir Boburdan nimani iltimos qildi?	Boburning kutubxonasidan foydalanishni va «Boburnoma»ni o'qishni	
104.	Bobur: «Men shu vaqtgacha ko'rgan janglarning eng dahshatlisi o'sha edi», – deb qaysi jangni nazarda tutdi?	Rano Sango bilan bo'lgan dahshatli jangni	
105.	Xondamir Boburning asarini o'qib nega taajjublandi?	Bobur qalamga olgan voqealar juda murakkab bo'lsa-da, muallif ularni og'zaki hikoyaga yaqin bir tarzda xiyla oddiy	

		uslubda yozgan edi. Nazokatli o'xshatishlar, jimjimador majozlar va shoirona ko'tarinki uslubdan chetlangan	
106.	«...Xat bitirda takalluf qilay deysen, ul jihattin mug'laq bo'ladur. Betakalluf pok alfoz bila biti, senga ham tashvish oz bo'lur va o'qig'uvchig'a» Boburning kitobida keltirgan ushbu xat kimga yozilgan?	Boburning o'g'li Humoyunga yozgan xatidan	
107.	Mutlaq so'zining ma'nosi...	Tushunib bo'lmaydigan	
108.	Miz so'zining ma'nosi...	Taxta, stol	
109.	Xondamir: «Bobur mirzo uchun pok uslub belgisi hisoblanur ekan», – deb nimani nazarda tutgan?	Betakalluf til bilan asar bitmoqni	
110.	«Boburnoma»ning oxirgi boblarida yana ajib bir xat uchradi. Bobur Agradan Kobulga yuborgan bu maktub kimga atab yozilgan edi?	Oxirgi boblarida yana ajib bir xat uchradi. Bobur Agradan Kobulga yuborgan bu maktub Mohim begimga (Boburning zaharlanish tafsilotlari bitilgan edi)	
111.	«Dasturxon ustida ikki-uch marta ko'nglum barham urib, qusayozdim. Oxir ko'rdukim bo'lmas, ko'ndum... Obxonaga borib qalin qusdim. Hargiz oshdin so'ng qusmas edim, balki	«Boburnoma»dan olingan bu parcha Boburning zaharlanish tafsilotlari haqida	

	ichganda ham qusmas edim. Ko'nglimga shubha kechdi. ...Jon mundoq aziz nima emish, muncha bilmas edim, ul misra' borkim: <i>«Kim o'lar holatga yetsa, Ul bilur jon qadrini»</i>. Tangri taoloning inoyati bor ekandir, manga yangi boshdan jon bag'ishladi». <i>Parcha qaysi voqea haqida?</i>		
112.	«Boburnoma»da ushbu parcha nima sababdan yozilgan? «Bu o'tgan ikki yilda chog'ir majlisining orzu va ishtiyoqi behad va g'oyat edi, andoqi, chog'ir ishtiyoqidan borlar (ba'zi vaqtlar) yig'lamoq sarhadiga yetar edim»	Ichkilikni tashlagan Bobur uni haligacha qaytib og'ziga olmas edi. Buning oson bo'lmaganini yozgan	
113.	Xondamir «Boburnoma»ning qaysi bobiga tanqidiy fikr bildirdi?	Hirotda Husayn Boyqaro saroyiga oid boblar xiyol tahrirtalabligini aytdi	
114.	Bobur: «Bu yirtqichlar janglardan so'ng o'laksa yeb mazaxo'rak bo'lmishlar», – deb qaysi qushlarni nazarda tutdi?	Kalxatlarni	

115.	Bobur asarida Bajur qo'rg'oni va Panipatdagi qaysi mash'um voqealarni eslaydi?	«Bajur qo'rg'onida uch ming kishining qilichdan o'tkazilgani... Panipatda bir necha yuz asirning to'fangdan otib o'ldirilgani... Bizning odamlar ham kallaminoralar qo'pargani...»ni	
116.	Bobur Xondamir bilan Hirotda uchrashganida o'z hayotini nimaga o'xshatganligini aytgan?	Ko'chki bosgan buloqqa	
117.	«Hirotni va Alisher Navoiy bilan Husayn Boyqaro orasidagi murakkab munosabatlarni esladi. Bu ikki zot yoshlikdan bir-birlarini yaxshi ko'rar edilar, ammo podshohning shafqatsiz ishlari shoirning nafis tuyg'ulariga shu darajada zid kelar ediki, Alisher Navoiy Husayn Boyqaro bilan bir shaharga, hatto bir mamlakatga sig'ishmay qoladigan va Xurosonni tashlab chiqib ketishga astoydil intiladigan paytlari bo'lardi». Parchadagi ushbu fikrlar qaysi qahramonning xayolidan o'tdi?	Xondamirning	
118.	Bobur ijodiy ishga berilgan sari uning qalbidagi qanday tug'yonlarning murosa qilishi qiyinlashib ketardi?	Shoh bilan shoirning murosa qilishi	
119.	Boburning onasi...	Qutlug' Nigor xonim	
120.	Boburning opasi...	Xonzodabegim	

121.	Birinchi umr yo'ldoshi...	Oyshabegim	
122.	Boburga eng sadoqatli rafiqasi...	Mohim	
123.	Ibrohim Lodining onasi...	Malika Bayda	
124.	Boburni zaharlagan obraz...	Malika Bayda	
125.	Malika Bayda shohdan o'lim kutadi, bu bilan u shoh ustidan ma'naviy tantanaga erishmoq, onani o'limga hukm etgan shohni el oldida sharmanda qilmoq istaydi. Buni sezgan Bobur qanday yo'l tutadi?	Bobur Malika Baydani jazolamay, o'zining tanti shoh ekanligini ko'rsatadi	
126.	«Avlodlar haqiqatni bilsinlar, bizni farishta deb o'ylamasinlar. Qilgan gunohlarimiz o'zimizga nechog'liq og'ir tushganidan ogoh bo'lsinlar... Toj-u taxt bevafoqligini ko'pdan beri sezib yuribman. Menga vafo qilsa, faqat yozgan asarlarim vafo qilishi mumkin. Vatanimga o'zim qaytibmasam ham asarlarim qaytmog'i mumkin. Endigi orzum – men tug'ilgan yurtimga qilolmagan farzandlik xizmatimni asarlarim qilsa...» Parchadagi fikrlarni Bobur Mirzo kimga aytgan?		Xondamirga

**«Nizomning tantiligi»
(«Avlodlar dovoni» asaridan)**

127.	«Avlodlar dovoni» romanining asosiy voqealari qayerda bo'lib o'tadi?	Buyuk sarkarda Mirzo Bobur vafotidan so'ng, u yangidan tashkil etgan Hind mamlakatida yuz beradi	
128.	Romanning bosh qahramonlari...	Humoyun va Akbar	
129.	Boburiylar sulolasi taqdiriga jiddiy xavf solgan qahramon...	Aqlli va makkor Sherxon	
130.	Romandagi to'qima obrazlar...	Nizom, Hamida	
131.	Nizomning sevgan yori...	Hamida (Hamida ham Nizomga ko'ngil qo'ygan)	
132.	Asarda Hamidaning go'zalligiga yana kim maftun bo'lib yuradi?	Humoyun Mirzo	
133.	Humoyun qanday tush ko'radi?	«Humoyun oyoq qo'ygan yer o'pirilib tushib, tubsiz jarga aylanadi. U tubsiz jarga yiqilay deganda bir daraxtni ikki qo'llab tutib qoladi. Bir payt daraxt ham ildizi bilan sug'urilib chiqq boshlaydi. Humoyun jarga yiqilib tushishini sezganda qichqirib uyg'onadi»	
134.	Gangaga qaysi daryo kelib qo'shiladi?	Karamnasa	
135.	Karamnasa qachon vahimali tusga kiradi?	Odatda, suvi uncha ko'p bo'lmaydigan bu daryo yomg'ir fasli boshlangandan beri bo'tana sellarga to'lib, vahimali tusga kiradi	

136.	Hindlarning e'tiqodi bo'yicha qaysi daryoning suvi tekkan odam bir umr qilgan toat-ibodatidan ayrilib, kasofatning tagida qolib ketarmish?	Karamna-saning	
137.	Taqvodor hindlar Karamnasaning narigi cirg'og'iga o'tmoqchi bo'lsalar nima qiladilar?	Irim qilib – uning o'zidan emas, Gangaga quyilgan joyning narigi yog'idan kema bilan aylanib o'tardilar	
138.	Hindlarning Karamnasa daryosidan qo'rqishini Bobur qaysi asarida yozib qoldirgan?	«Boburnoma»da	
139.	Uch tarafi daryo bilan o'ralgan bu joyni qo'shinga qarorgoh qilib, bir hafta turgan va shu atrofdagi yovlarni yengib, Agraga g'alaba bilan qaytgan shoh...	Bobur	
140.	Uch tarafi daryo bilan o'ralgan bu joyni Humoyun ham qo'shinga qarorgoh qilib tanladi. Otasi bu joyni tanlaganida ob-havo va sharoit qanday edi?	Havo quruq, daryolarda suv oz, bu atrofda Sherxonday xatarli yov yo'q edi	
141.	Pashkol qanday fasl?	Yomg'ir fasli	
142.	Humoyun ko'rgan tushi orqali nimani his qildi?	Hozir pashkol fasli. Uch tomonda toshib chiqayotgan daryolar uni to'rtinchi tarafdin bostirib kelayotgan yovlarga tuzoq bo'lib tutib beradigandek tuyuldi	
143.	Sherxon bilan bo'lgan jangda Humoyun necha yoshda edi?	31 yoshda	

144.	Qoshlari qalin, ko'zlari ko'kish, qirra burun, kalta qirqilgan soqoli va qayrilma mo'ylovi o'ziga juda yarashgan, durkun gavdali, qarashlari burgutni eslatadigan qahramon...	Sherxon	
145.	Humoyun va uning qo'shinini qanday yovlar o'rab olgan?	Yomg'ir fasli boshlanib, suv ko'payib, uch tarafdin daryolar iskanjasida qolgan, to'rtinchi tomonni (janubi-sharqni) Sherxon askarlari bekitib olgan	
146.	Humoyun qo'shini bilan qamalda necha oy qoldi?	2 oy (ungacha Sherxon hujumga o'tmadi)	
147.	Ikki oy mobaynida Humoyun qo'shinida qanday holat yuzaga kelgan edi?	«O'tgan vaqt Sherxonning foydasiga ishlayotgan edi. Humoyun qarorgohida o'n mingdan ortiq odamlarni va ulardan ikki barobar ko'p ot-ulovni boqish uchun g'amlangan zahiralar tugab bormoqda. Daryolar zaxidan va yomg'ir faslining rutubatidan kasalga uchrab safdan chiqayotgan navkarlar soni esa tobora ko'payib ketyapti».	
143.	Humoyunga atrof dan keladigan yordamning yo'lini nimalar va kimlar to'sib turibdi?	Toshqin daryolar va Sherxon qo'shini	
149.	Sharqiy viloyatlarning qulf-kaliti bo'lgan qal'a...	Chunor	
150.	Humoyun Chunorni necha oy jang qilib olgan?	Olti oy jang qilgan, juda katta talofot ko'rgan	

151.	Humoyun elchilari: «Bizdan ne tilagingiz bor», – degan savoliga qanday javob olishdi?	Sherxon elchisi orqali Chunor qal'asi va Bixar viloyatini so'radi	
152.	Sherxonga Chunorni berish taklifini kim qo'llab-quvvatladi?	Bayramxon	
153.	«... Bag'rimdan bir parcha etni yulib olib, g'animga bergandek og'ir». Gap qaysi shahar haqida bormoqda?	Chunor haqida	
154.	Sherxon bir paytlar nazr-niyoz berib, kimning fотиhasini olgan?	Xo'ja Husaynning	
155.	Humoyun Bayramxonga «Sherxonga, mabodo, biz Chunorni topshirsak, ... ni tinch qo'yarmikin?» – dedi. Nuqtalar o'rnida qaysi joy nomlari keltirilgan?	Bangola va Gaur	
156.	Humoyun: «Chunor bilan Bixarni Sherxonga beramiz», – dedi. Lekin qaysi viloyatga tegmasa deb talab qo'ydi?	Bangolaga	
157.	Pashkol (yomg'ir) faslida hind xalqining qanday azaliy odati bor edi?	Yomg'ir faslida hind xalqi sayohatga chiqishmaydi. Chunki odam ham, ot-ulov ham bu faslda qayoqqa qadam qo'ymasin, rivojga kirgan birorta tirik jonni yoki giyohni bosib oladi, Tirik jonni bosib nobud qilgan odamning haji qanday qabul bo'lsin?	
158.	O'sha paytda Bangola necha yildan beri Humoyun qo'l ostida edi?	9 yildan beri	

159.	Humoyun Sherxonning oldiga kimlarni elchi qilib yubordi?	Bayramxon va Xo'ja Husaynni	
160.	Sulh qanday yakun topdi?	Chunor va Bixar jangsiz Sherxonga berildi. Humoyun qo'shini Karamnasa daryosidan va Banorasdan nariga o'tguncha Sherxon hozirgi qarorgohidan qo'zg'almay turishga so'z berdi	
161.	Sherxonga Qur'on kitobini berib: «Davlatpanoh, siz aytgan dono gaplarga mana shu Kalomi Olloh guvoh bo'lsin, oling!» – degan qahramon	Xo'ja Husayn	
162.	Sherxonning Farangistonlik xufiyasi...	Alvaro Pakavira	
163.	Alvaro Pakavira yo'llarda Humoyun qo'ygan odamlarning qo'liga tushib qolmaslik uchun qanday kiyimda kelgan?	Hind savdogari kiyimida	
164.	Sherxonga qarshi chiqmaydigan, Humoyunning Sherxon bilan jang qilib, mag'lub bo'lishini kutayotgan, shundan so'ng toj-u taxtni egallash umidida yurgan qahramon...	Komron	
165.	Humoyun Agraga kutvol qilib (qal'a boshlig'i) tayinlagan, poraga sotilmaydigan, podshohga sadoqat bilan xizmat qiladigan, vijdonli odam...	Amir Bahlul	
166.	Asarda tuhmat balosiga yo'liqib qochgan va o'ldirilgan obraz...	Amir Bahlul	
167.	Sherxonning Agradagi xufyalari masjidi jomeda kim bilan aloqa o'rnatib, Bahlulni qanday daf qilishning rejasini tuzdilar?	Said Xalil bilan	

168.	Yarim tunda Amir Bahlulning uyiga kimlar bostirib bordilar?	Mirzo Hindol va Zohidbek o'z navkarlari bilan	
169.	Navkarlar Amir Bahlulning uyiga nega bostirib borishdi?	Unga Sherxon yozgan maktubni va taxta ortilgan aravalar tagiga yashirilgan qurollarni ko'rsatdilar	
170.	Amir Bahlulning taqdiri...	Amir Bahlul bu qadar ustalik bilan to'qilgan bo'htondan qutulishning ilojini topolmay: – Tuhmat balosidan meni faqat Humoyun hazratlari qutqargaylar! – dedi-yu qochib ketdi... Bahlulni tungi otishmada o'ldirdilar va boshini kesib qaytdilar	
171.	Sherxon xufiyalari yordamida Humoyun bilan Mirzo Hindol orasiga qanday qilib nifoq soldi?	Sherxon Alvaro Pakavira yordamida Amir Bahlulni o'ldirtirdi. Mirzo Hindol bu ish uchun Humoyun oldida javob berishi kerak	
172.	Sherxon Pakavirani qanday mukofotladi?	Ikki man oltin berdi (bunga yangi kema sotib olish mumkin edi)	
173.	Karamnasa daryosining kasofatidan qo'rqqan kemachi va eshkakchi hindlarning besh-oltitasi tungi shamol-to'polonda Ganga orqali suzib kelib, kim tomoniga o'tdi?	Sherxon ixtiyoriga	
174.	Boburiylar ittifoq bo'lsa, ularga hech kim bas kelolmasligini Sherxon qachon ko'rgan?	Dalaxruada va Gujarotda Mahmudxon va Bahodirshohlarning mag'lubiyatida ko'rgan	
175.	Sherxon shuncha vaqt chekinib, xazinasini qayerga bekitib yurar edi?	Tog'dagi Roxtaslarga	

176.	Sherxonning Humoyun askarlari safida xizmat qilib, uning tantiliklarini ko'p ko'rgan o'g'li...	Qutbxon	
177.	Sherxon nima sababdan sulhni buzdi va Humoyun qo'shiniga qarshi yurish boshladi?	Sherxon: «Humoyun Agraga borib o'zini tez o'nglaydi. U kechirimli yigit. Agar boshimga yangidan balo orttirishni istamasam, fursatni boy bermasligim va Humoyunni daryolar sirtmog'idan tirik chiqarmasligim kerak», – deb o'yladi va dushmanni g'aflatda qoldirib, tong qorong'usida hujum boshladi	
178.	Sherxon hujum boshlashdan avval kimlarni mashvaratga chaqirdi?	4 kishini: O'g'illari Qutbxon bilan Jalolxon, Rajputlar sarkardasi Bikramadit Gaur, lashkarboshisi Havasxonni	
179.	Mashvaratda Sherxon elchilarga nima sababdan sulhga rozi bo'lganini aytadi?	Elchilarni cho'chitib qo'ymaslik uchun	
180.	Rajputlar sarkardasi...	Bikramadit Gaur	
181.	Sherxonning lashkarboshisi...	Havasxon	

Quyidagi fikrlar qaysi qahramonlar nutqidan olingan?

182.	«Dushmanni g'aflatda qoldirib bosadigan payt kelibdi-kul!»	Havasxon	
183.	«Sulhni harbiy hiylaga aylantirib bostirib borish... mardlikka kirarmikin»	Qutbxon	

184.	«Vatanni kelgindilardan ozod qilish – dunyodagi eng katta mardlikdir. Bobur bilan fotihlar Panipatda 40 ming kishini o'ldirdilar. Bajur qo'rg'onida Boburning farmoni bilan uch ming kishi qatli om qilinganida ularning kallasidan minora yasalmishdir! Humoyun Panipatda ikki yuz kishini asir olganida, Bobur siyosat uchun shu asirlardan yuztasini to'fanglardan otib o'ldirishni buyurmishdir. U paytda bizning odamlar to'fang nimaligini bilmas edi. «Fotihlarda ilohiy qurol bor emish, hind xudosi Shivaga o'xshab, ko'zidan olov purkab, uzoqdagi odamni o'ldira olarmish!» degan ovozarlar tarqalmishdir. Xalqni qo'rqitib, bo'ysundirishga qaratilgan bu ovozarlar harbiy hiyla emasmidi?»	Sherxon	
185.	«Ha, temuriylar bizni zo'ravonlik bilan ham qirgan, hiyla-yu nayrang bilan ham qirgan! Endi shu kecha ularga qasos qaytmog'i kerak!»	Bikramadit Gaur	
186.	«Bajurda qonxo'rlarcha qatli om qilinganlar uchun, Panipatda vahshiylarcha otilgan harbiy asirlar uchun ham biz qasd olmog'imiz kerak!»	Sherxon	
187.	Boshqa kunlar Sherxonning qo'qqis hujum qilishini kutib sergak yotadigan Humoyun kechagi sulh xabarini eshitgandan keyin qay holatda dam oldi?	Xotirjam bo'ldi. Kechqurun jüda qattiq uyquga ketdi	

188.	Humoyun sulhni buzib dushman bostirib kelganini kimdan eshitdi?	Javhar oftobachidan	
189.	Humoyun zambaraklarni o'qlashni kimga buyurdi?	Ustod Xonquliga	
190.	«Sherxon sulhni buzib, nomardlik qildi! Hazratimni o'rtağa olinglar!» – deb buyurgan qahramon...	Bayramxon	
191.	Humoyun bilan birga kelgan qizi va xotinlarining ismi...	Olti yashar qizchasi Aqiqa begim, xotinlari: Beka begim, Chand bibi	
192.	Qarorgohda Humoyunnning qancha qo'shini bor edi?	O'n ikki ming	
193.	Humoyunning harbiy fillari va zambaraklari qay darajada ish berdi?	Humoyunning harbiy fillari Sherxonnikidan oz, ko'p zambaraklarining chaqmoq bilan yondiriladigan piltalari rutubatli zax havoda nam tortib qolgan edi	
194.	Xaylxona so'zining ma'nosi...	Podshoh va a'yonlarining xotin, bola-chaqalari	
195.	Humoyun xaylxonani kemaga eltib joylashni kimga buyurdi?	Mavludbekka	
196.	Mavludbek Humoyun-ning topshirig'ini bajardimi?	Mavludbek ayollar va bolalarni kemalarga chiqarolmadi. Chunki ular qirg'oqqa yetib borguncha daryo chetidagi kema va qayiqlar oldinroq qochib borgan bek-u navkarlarga to'lib qolgan edi. Vahima ichida tartib-intizomni unutgan, jonidan boshqa narsa ko'ziga ko'rinmay qolgan odamlar birdan bir najot mana shu kema va qayiqlar ekanini allaqachon sezishgan edi	

197.	Nizom qaysi kemanding eshkakchisi edi?	«Gunjoyish» kemasining	
198.	Nizom jonini qutqarishning qanday yo'lini topdi?	Qirg'oq chetidagi ombordan katta meshni olib chiqdi va daryo tomon yo'l oldi	
199.	Humoyunning qilichi qayerda qoldi?	Dushman filining terisi bilan tish suyagi orasiga kirib ilinib qoldi	
200.	Humoyun qanday yaralandi?	Dushman yoyining o'qi o'ng yelkasini yaraladi?	
201.	Yaralangan Humoyun nima uchun afsuslandi?	Shoshilinchda zirhli kiyim kiymagani uchun	
202.	Humoyunni kimlar himoya qilib turishdi?	Bayramxon va La'l Chand	
203.	Humoyunning oti...	Saman ot	
204.	Humoyun oti bilan daryoga sakradi. Daryo birdan chuqurlashib, otning oyog'i yerga tegmay qoldi va suvga cho'kib keta boshladi. Humoyun otni qo'yib yuborib, bir qo'llab suza boshladi. Kutilmagan girdoblar uni pastga tortib ketayotganday bo'ldi. Bu orada Humoyun oqim kuchi bilan kimga yaqinlashib qoldi?	Meshga ko'kragini berib suzayotgan Nizomga	
205.	Nima sababdan Nizomning Humoyundan anchagina alami bor?	Uning otasini tuhmat bilan Agradagi zindonga tashlaganlar, sevgan qizi – Hamidabonuni yaqin kunlarda Humoyun haramiga keltirmoqchilar	
206.	Tagida chuqur o'pqonlari ko'p, suv girdobi ularga quyilib tushayotganda odamni ham pastga tortib ketadigan daryo...	Karamnasa	

207.	Yomg'ir faslida Karamnasa daryosiga tog' ichidagi simob konlaridan nima oqadi?	Ko'ngilni aynitadigan, hat- to odamni es-hushidan ketkizadigan badbo'y, za- harli narsalar oqadi	
208.	«Laganbardor beklari Humoyunni «yengilmas botir» deb maqtashadi. Qani, Karamnasa ichida shu botirligini bir ko'rsatsin! Boya daryoga ot sakratib kirganiga qaraganda hash-pash demay narigi qirg'oqqa suzib o'tsa, ajabmas», – deb o'ylagan qahramon...	Nizom	
209.	Daryo bo'yida o'sgan, suvga g'arq bo'layotgan kattami, kichikmi, kimni ko'rsa yordam qilib o'rgangan yigit...	Nizom	
210.	Saman otga nima bo'ldi?	Saman otni o'pqnlar allaqachon suv ostiga tortib ketgan edi	
211.	Humoyunning: «Meni qo'ying, o'zingizni qutqaring», – degan gapiga Nizom qanday javob berdi?	«Yo'q, hazrat! Men sizning kemangizda xizmat qilib maosh olurman. Sizni suvdan o'tkazib qo'ymasam, menga bergan noningiz harom bo'lg'ay. Men halol non yeb o'rganganman!»	
212.	G'ayir so'zining ma'nosi...	O'jar, teskari	

**Quyidagi dialog qaysi
qahramonlar nutqidan olingan?**

213.	«Agar meni rostdan ham ini o'rnida ko'rsangiz, sizga ikki og'iz arzim bor»	Nizom	
------	--	-------	--

214.	«Poraxo'r amaldorlar bilan aldamchi shayxlar mamlakat xalqini sizdan bezdirdi. Qancha hind yigitlari Sherxon tomonga o'tib ketdi. Axir Sherxon hindi-uy muslimni bir-biridan ajratmas ekan!..»	Nizom	
215.	«Men ham hindi-yu muslimni yakdil qilish orzusida edim. Ammo bu mushkul ishda kimga tayanishimni bilmadim»	Humoyum	
216.	«Hind eliga tayaning-da, hazrat. Bu elda bhaqtriylar bor»	Nizom	
217.	Bhaqtriylar kimlar...	Adolatparvar xalq harakatining ishtirokchilari	
218.	Nizomning otasi nima sababdan zindonband etilgan?	Bhaqtriy bo'lgani uchun tuhmat bilan zindonga tashlangan	
219.	Humoyunni qutqarib qolgan yigit...	Nizom	
220.	Humoyunga munosib raqib bo'lgan, o'qimishli, aqlli, tadbirkor, harbiy san'atni puxta egallagan shaxs...	Sherxon	
221.	«Yulduzli tunlar» va «Avlodlar dovoni» romanlarini yozishda Pirimqul Qodirov qaysi manbalarga asoslangan?	Boburning «Boburnoma», uning qizi Gulbadanbegimning «Humoyunnoma» asarlariga asoslangan	

Quyidagi so'zlarni izohlang

222.	xirgoh	qarorgoh	
223.	pashkol	yomg'ir fasli	
224.	shomiyona	tunashga mo'ljallangan chodir	
225.	shahnishin	maxsus o'rindiq	
226.	kutvol	qal'a boshlig'i, komendant	

OZOD SHARAFIDDINOV (1929 – 2005)

1.	Ozod Sharafiddinov qachon qayerda tavallud topgan?	1929-yilning 1-martida Qo'qon shahri yaqinidagi Oxunqaynar qishlog'ida tavallud topgan	8
2.	Ozod Sharafiddinov qaysi bilim dargohlarida tahsil olgan?	Toshkent shahrida o'rta maktabni tugatib, ToshDU-ga o'qishga kiradi, Moskvada nomzodlik dissertatsiyasini himoya qiladi	8
3.	Ozod Sharafiddinovning mehnat faoliyati...	1955 – 1995-yillar oralig'ida, qariyb 40 yil hozirgi O'zbekiston Milliy universitetida, 1996 – 1997-yillarda «Tafakkur» jurnalida bosh muharrir o'rinbosari vazifasida, 1997-yildan to umrining oxiriga qadar jahon adabiyoti jurnali Bosh muharriri vazifasida ishlaydi	8
4.	Ozod Sharafiddinov asarlarining asosiy mavzusi	Ozod Sharafiddinov o'z asarlarida asosan o'zbek adabiyoti durdonalarini mohir zargar singari sinchiklab tahlil etgan, shuningdek, hali el nazariga tushmagan o'nlab iste'dodlarni kashf etgan	8
5.	Ozod Sharafiddinov qaysi adibning adabiy tanqidchilik maktabidan ijodiy saboq olgan?	Abdulla Qahhorning	8
6.	Adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinovning dastlabki kitobi...	1962-yilda chop etilgan «Zamon. Qalb. Poeziya» kitobi	8

7.	Ozod Sharafiddinovning asarlari jamlangan kitoblari...	«Adabiy etudlar» (1968), «Yalovbardorlar» (1974), «Iste'dod jilolari» (1976), «Birinchi mo'jiza», «Talant – xalq mulki» (1979), «Adabiyot hayot darsligi» (1980), «Hayot bilan hamnafas» (1983), «Go'zallik izlab» (1985) kitoblari	8
8.	Ozod Sharafiddinovning ko'plab maqolalari adabiy jamoatchilik orasida birdan og'izga tushar, turli katta-kichik davralarning munozara mavzusiga aylanardi. Shunday maqolalariga misollar keltiring	«Zaharxanda qahqaha» (1962), «Hayotiylik jozibasi, sxematizm inersiyasi», «Yurtim madhi bo'ldi so'nggi satri ham» (1979), «She'r ko'p, ammo shoir-chi?» (1983), «Bir tilda gaplashaylik» (1987)...	8
9.	Ozod Sharafiddinov muharrirlik qilgan, 1968-yilda chop etilgan, lekin hamma yerdan yig'ishtirib olingan to'plam...	«Tirik satrlar» (1968-yil)	8
10.	Adabiyotshunos olimning mustaqillik yillaridan so'ng yaratgan asarlari...	«Yo'lboshchi», «Mustaqillik me'mori», «Istiqlol jilolari» singari maqolalari, «Istiqlol fidoyilari» (1993), «Sardaftar sahifalari» (1999), «Ma'naviy kamolot yo'llarida» (2001), «Dovondagi o'ylar», «Ijodni anglash baxti» (2004) ...	8
11.	Ozod Sharafiddinov «Jahon adabiyoti» jurnalining nechta sonini tayyorlashga ulgurdi?	100 ta sonini	8

12.	Ozod Sharafiddinovning tarjima asarlari...	L.Tolstoyning «Iqrornoma», P.Koeloning «Alkimyogar», A.Savelaning «To'xtating samolyotni tushib qolaman» asarlari	8
13.	Ozod Sharafiddinov qaysi adabiy tanqidchining ijodiy maktabidan saboq olgan?	Abdulla Qahhorning	8
14.	Ozod Sharafiddinov qanday unvon va medallar bilan taqdirlangan?	«Mehnat shuhrati» (1997), «Buyuk xizmatlari uchun» (1999) ordenlari va «O'zbekiston Qahramoni» (2002) unvoni bilan taqdirlangan	8
15.	Ozod Sharafiddinovning farzandlariga so'nggi vasiyati...	«Kitoblarimni asranglar, mening eng katta boyligim mana shu kitoblar edi...»	8
16.	«... Vatan muhabbati ... shunday pokiza, oliyjanob, beminnat bo'lmog'i, har qanday maqtanchoqlikdan, sun'iylikdan, pisandadan xoli bo'lmog'i kerak...» Parcha Ozod Sharafiddinovning qaysi maqolasidan olingan?	«O'lsam ayrilmasman quchoqlaringdan» maqolasidan	8
17.	«O'ylaymanki, o'zini o'zbek xalqining farzandi degan har qaysi inson ana shunday fidoyi yurtdoshlarimiz bilan cheksiz faxrlanadi,	Islom Karimovning «Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch» asarining «Eng buyuk jasorat» deb nomlangan faslida	8

	unib-o'sib kelayotgan bolalari, shogirdlariga ma'naviy jasorat timsoli sifatida aynan mana shunday odamlarni namuna qilib ko'rsatadi. Va hech shubhasiz, umr bo'yi el-yurt manfaati, Vatan istiqboli uchun kurashib yashaydigan shunday qahramon farzandlari bor xalq hech qachon kam bo'lmaydi». Ozod Sharafiddinovga berilgan ushbu yuksak baho qaysi asardan olingan?		
18.	«Axir bu go'zal Vatan Allohning el qatori menga ham atalgan buyuk tuhfası». Ushbu fikr muallifi...	Ozod Sharafiddinov	8

JUMANIYOZ JABBOROV (1930-YILDA TUG'ILGAN)

1.	Jumaniyoz Jabborov qachon qayerda tavallud topgan?	1930-yil 25-oktabrda Qashqadaryo viloyatining Koson tumaniga qarashli Po'lat qishlog'ida tug'ilgan	
2.	Jumaniyoz Jabborov tahsil olgan bilim dargohlari...	O'rta maktabni tugatgach, 1947 – 1952-yillarda hozirgi O'zbekiston Milliy universitetining filologiya fakultetida, so'ng Moskvadagi Oliy adabiyot kursida o'qiydi	
3.	Jumaniyoz Jabborovning mehnat faoliyati...	1953-yildan boshlab o'n yil davomida «Sharq yulduzi» jurnalida avval bo'lim mudiri, so'ngra mas'ul kotib lavozimlarida, 1960 – 1970-yillarda hozirgi «O'zbekiston ovozi» gazetasida, yuqori idoralarda mas'ul lavozimlarda, 1981-yildan G'afur G'ulom nashriyotida direktor, 1985-yildan Respublika Yozuvchilar uyushmasida adabiy maslahatchi, 1990-yildan boshlab, o'n besh yildan ortiq davr mobaynida O'zbekiston Davlat mukofotlari qo'mitasida mas'ul kotib, rais o'rinbosari vazifalarida xizmat qildi	
4.	Jumaniyoz Jabborovning ilk she'riy to'plami...	1953-yilda nashr etilgan «Vatanimni kuylayman» to'plami	

5.	Jumaniyoz Jabborovning dostonlari...	«Guliston», «Tog'lar sadosi», «Ona yer qo'shig'i», «Yo'ldagi o'ylar», «Quyosh yurti»...	
6.	Jumaniyoz Jabborovning sahna asarlari...	«O'jarlar», «To'ydan oldin tomosha», «Yillar o'tib», «Cho'l chqmog'i», «Mening oppoq kabutarlarim», «Al-Farg'oni» kabi	
7.	Oxirgi yillarda yaratgan pyesalari...	«Neksiya», «Otabek va Kumushbibi», «Oysaraning tug'ilgan kuni»	
8.	Jumaniyoz Jabborovning she'riy, nasriy va dramatik asarlari to'plamlari...	«Bahor nafasi» (1956), «Maqsad yo'lida» (1958), «Tog'lar sadosi» (1961), «Ona yer qo'shig'i» (1962), «Subhidam xayollari» (1964), «Ilhom daqiqalari» (1971), «Sohillar hikoyasi» (1974), «E'tiqod» (1978), «Xayolimda o'zing» (1985), «Ko'nglim go'zali» (1991), «Ajab dunyo sevgisi» (1996), «Hayrat olami» (2004), «Sevgim samosi» (2006), «Yulduzlarda xayolim» (2006), «Tug'ilgan kuning» (2008)	
9.	Abulqosim Firdavsiyning «Shohnoma» asaridan kattagina qismini o'zbek tiliga tarjima qilgan shoir	Jumaniyoz Jabborov	
10.	Jumaniyoz Jabborov «Sizniki» she'rini kimlarga bag'ishlagan?	Yosh do'stlariga (o'quvchi va talabalarga)	
11.	Misr Arab Respublikasining Qohira shahrida Nil daryosi bo'yida minnatdor arab xalqi qaysi allomaga haykal tikladi?	Ahmad al-Farg'oniya	

12.	Jumaniyoz Jabborovning «Kitob javonim» she'rida qanday shoh asarlar nomi tilga olingan?	Sa'diy Sheroziyning «Bo'ston», Dantening «Jahannam», Firdavsiyning «Shohnoma» asari	
13.	Jumaniyoz Jabborovning «Farg'oniy monologi» qaysi asaridan olingan?	«Ahmad al-Farg'oniy» she'riy dramasi	
14.	G'arbda Alfraganus nomi bilan mashhur bo'lgan zot...	Al-Farg'oniy	
15.	«Ahmad al-Farg'oniy» she'riy dramasi asosida qaysi bastakor tomonidan opera yaratilgan?	Mustafo Vafoiyev tomonidan	
16.	Ahmad al-Farg'oniy haqida hikoya qiluvchi ilk badiiy asar...	«Ahmad al-Farg'oniy» she'riy dramasi	

«Kitob javonim» she'ri

17.	J. Jabborovning qaysi she'rida Sharq-u G'arb adabiyoti namoyondalarini yonmayon tasavvur etish, dunyo yagonaligi, adabiyot, badiiy so'z, chegara bilmaydigan umuminsoniy hodisa degan g'oya ifodalangan?	«Kitob javonim»	
18.	«Kitob javonim» she'rida shoir qanday badiiy san'atga ko'proq murojaat qilgan?	Talmeh san'atiga	

**Quyidagi ta'riflar va yashash joylari
«Kitob javonim» she'rida nomlari
tilga olingan qaysi shoirlarga taalluqli?**

19.	XVIII – XIX asrda yashab o'tgan mashhur ingliz shoiri...	Bayron	
20.	Amir Temur avlodlaridan bo'lgan shoh va shoir...	Bobur	
21.	XIX asrda yashagan atoqli nemis shoiri...	Genrix Geyne	
22.	XVII – XVIII asrlarda Hindistonda yashab ijod etgan, asli kelib chiqishi shahrisabzlik faylasuf shoir...	Bedil	
23.	X – XII asrlarda Eronning Nishopur shahrida yashab o'tgan buyuk matematik olim va shoir...	Umar Hayyom	
24.	Hindlarning ehtirosli shoiri...	Iqbol	
25.	XIX asr fransuz adabiyotini cho'qqiga ko'targan shoir...	Balzak	
26.	XVI asrda yashab o'tgan otashnafas ozarbayjon shoiri...	Muhammad Fuzuliy	
27.	Jumaniyoz Jabborov «Kitob javonim» she'rida XIX asrda yashagan atoqli nemis shoiri Genrix Geyneni qaysi o'zbek shoiri bilan mushoira-muloqotda tasavvur etadi?	Furqat bilan	
28.	Jumaniyoz Jabborovning «Kitob javonim» she'rida quyidagi shoirlardan kimlarning nomlari keltirilmagan? 1. Navoiy bilan Pushkin. 2. Bayron bilan Bobur. 3. Geyne bilan Furqat. 4. Bedil. 5. Umar Hayyom. 6. Sa'diy Sheroziy. 7. Mayakovskiy. 8. Lermontov.	Jomiy va Muqimiy	

	9. Jomiy va Muqimiy. 10. Balzak bilan Gulxaniy. 11. Dante. 12. Fuzuliy. 13. Gogol. 14. Tolstoy. 15. Firdavsiy.		
29.	Jumaniyoz Jabborovning «Kitob javonim» she'rida qaysi asarni «bor yomonlik bo'lur kul» deya yovuzlikka, jaholatga, tuban ishlarga qarshi ezgulikni, ma'rifatni ulug'lovchi doston ekanini ko'zda tutadi?	Dante Alligerining «Ilohiy komediya» asarini	
30.	Umar Hayyom ruboiylarida may mavzusidan so'z ocharkan, qanday g'oyalar kuylanganini aytmoqchi bo'ladi?	Mayning obraz, ya'ni she'riy timsol ekanini, may orqali hayotsevarlik, umidbaxshlik g'oyalari kuylanganini aytmoqchi bo'ladi	

«Kitob javonim» she'rida quyidagi o'zbek shoirlar nomi qaysi ijodkorlar nomi bilan yonma-yon keltirilgan?

31.	Navoiy	Pushkin	
32.	Bobur	Bayron	
33.	Furqat	Geyne	
34.	Gulxaniy	Balzak	

XUDOYBERDI TO'XTABOYEV (1932-YILDA TUG'ILGAN)

1.	O'zlari e'tirof etganidek, «...Bola va o'smir ruhidagi go'zallikni himoyalashga e'tibor» berib kelayotgan yozuvchi...	Xudoyberdi To'xtaboyev	6
2.	Xudoyberdi To'xtaboyev qachon qayerda tavallud topgan?	Xudoyberdi To'xtaboyev 1932-yil 17-dekabrda Farg'ona viloyatining Kattatagob qishlog'ida tug'ilgan	6
3.	Xudoyberdi To'xtaboyev kimlar qo'lida tarbiyalandi?	Otadan juda erta yetim qolgani uchun Xudoyberdi bobosi Erkaboy va buvisi Robiyabilarning tarbiyasida o'sadi	6
4.	Xudoyberdi To'xtaboyevning tahsil olgan bilim dargohlari...	Avval o'rta maktabni, 1949-yil Qo'qon pedagogika bilim yurtini, 1955-yili ToshDU (hozirgi O'zMU)ni bitirgan	6
5.	Xudoyberdi To'xtaboyevning mehnat faoliyati...	Bir necha yil Farg'ona viloyatining Bag'dod, O'zbekiston tumanlaridagi maktablarida o'qituvchi, ilmiy bo'lim mudiri, maktab direktori lavozimlarida ishlagan. Bo'lg'usi adib 1958-yili Toshkentga keladi, «Toshkent haqiqati», «Sovet O'zbekistoni» gazetalarida, «Guliston», «Gulxan», «Sharq yulduzi», «Yosh kuch» jurnallarida, «Kamalak» nashriyotida ishladi, «Oltin meros» xalqaro xayriya jamg'armasi raisi sifatida ham uzoq yillar (1980 – 1998) samarali faoliyat ko'rsatgan	6

6.	Xudoyberdi To'xtaboyev 12 yil davomida turli gazeta nashrlarida ishlaganda ko'proq qaysi janrda faoliyat ko'rsatadi?	12-yil davomida turli gazetalarda ishlash davomida, hozirjavob, qalami o'tkir jurnalist sifatida elga taniladi. Jamiyatdagi illatlarni fosh etuvchi 300 dan ortiq felyeton yozadi	6
7.	70-yillar boshida o'z ijodiy faoliyatini bolalar hayotini keng tasvirlagan asarlar yaratishga yo'naltiradi. Yozuvchi o'zining tarjimai holida bu qarorini qanday izohlaydi?	«Ruhi dunyosi pok bo'lgan, tarbiyaga quloq soladigan, savob va gunohni bilishga intiladigan, ruhi go'zallikka talpinayotgan bolalar dunyosida ishlasam qanday bo'lar ekan deb o'ylay boshladim va qaror ham qabul qildim, bolalar, o'smirlar dunyosiga paqqos o'tib ketdim»	6
8.	Xudoyberdi To'xtaboyev qanday unvonlar bilan taqdirlana-dı?	Xudoyberdi To'xtaboyev 1982-yilda «O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi», Hamza nomidagi Davlat mukofoti (1989) sovrindori, 1991-yilda esa «O'zbekiston xalq yozuvchisi» kabi yuksak unvonlar bilan taqdirlangan	6

Xudoyberdi To'xtaboyev quyidagi janrlarda qanday asarlar yaratgan?

9.	Qissa	«Omonboy bilan Davronboy sarguzashti» qissasi (1974)	6
10.	Hujjatli qissa	«Yangi ohangda kuylayotgan viloyat» (2013)	6

11.	Roman	«Sariq devni minib» (1968), «Sariq devning o'limi» (1973), «Besh bolalik yigitcha» (1976), «Qasoskorning oltin boshi» (1981), «Yillar va yo'llar» (1983), «Shirin qovunlar mamlakati» (1986), «Mungli ko'zlar» (1988), «Jannati odamlar» (1996), «Qiz bolaga tosh otmang» (2003), «Qiz talashgan o'smirlar» (2010), «Quyvonlar saltanati» (2013)	6
12.	Adibning hikoya to'plamlari...	«Shoshqaloq» (1961, birinchi hikoyalar to'plami), «So'qmoqlar» (1966), «Muhabbat qo'shig'i» (1967), «Jonginam, shartingni ayt» (1969)	
13.	Oxirgi yillarda Xudoyberdi To'xtaboyevning qanday yangi asarlari nashr etildi?	«Tagob qishloq ertaklari» (2016), «Qaylarda qolding, bolaligim» (2016), «Aka-uka Omonboy bilan Davronboyning qishloqqa gaz olib kelgani haqida jajji qissa», «Telebola» («Peshonasiga televizor yopishib qolgan bolaning sarguzashtlari»), «Yovvoyi echkilar» ertak-qissa va o'nlab hikoyalari	6
14.	Qahramonlari hajv va yumor bilan tasvirlangan roman	«Sariq devni minib»	6
15.	«Sariq devni minib» romanining mantiqiy davomi hisoblangan asar...	«Sariq devning o'limi»	6
16.	«Sariq devni minib» romani nechanchi yilda yozilgan?	1968-yilda yozilgan	6

17.	Xudoyberdi To'xtaboyevning «Sariq devni minib» romani nechta tilga tarjima qilingan?	24 ta (6-sinf darsligidagi ma'lumot)	6
18.	«Sariq devni minib» romani italiyalik qaysi buyuk bolalar yozuvchisining tahsiniga sazovor bo'lgan?	Janni Rodarining	6

«Sariq devni minib»

II bob

«Shaytonning yelkasiga igna sanchdim»

19.	«Sariq devni minib» romani qahramonlari...	Hoshimjon, onasi, Oysha, Dono, Mirobiddinxo'ja, Soraxon folbin, Orif, Otajon Azizovich, Hayitvoy, Qosim ...	
20.	Hoshimjon sehrli qalpoqcha haqida kimdan eshitadi?	Bir oy avval Qashqir qishloqda turadigan buvisidan	6
21.	Hoshimjon: «Oyim aytyapti», – deb qo'shninikidan nima oladi?	Ikkita non	6
22.	Tashlandiq, hech kim yashamaydigan uydan qorong'ida Hoshimjon qalpoqchani qidirayotganida qaysi burchakka qarasa, ajinami, alvastimi ko'zini lo'q qilib unga qarab turganga o'xshaydi. Ikki marta bo'rini ko'rgandek bo'ldi, qarasa u nima ekan?	Ikkovi ham mushuk ekan	6
23.	Hoshimjon qalpoqchani qayerdan topdi?	Qishloq chekkasidagi tashlandiq bir uydan (molxonadagi oxurdan)	6
24.	Qalpoqcha nimadan to'qilgan va rangi qanday?	Jundan to'qilgan, rangi oq	6

25.	Hoshimjon uyiga bordi. Oyisi qanday ish bilan band edi?	Oyisi tepki mashinada Donoga ko'ylak tikib o'tirgan ekan	6
26.	Hoshimjon qalpoqchanning sehrini birinchi marta qayerda sinab ko'rdi?	Uyiga kirib oyisining oldiga borib sekingina: «Oyi», – dedi. Oyisi boshini ko'tarib: «Tavba», – dedi	6
27.	Sehrli qalpoqchani kiyib olgan Hoshimjon osh yeyayotganda nima sababdan oyisi va singlisi: «Tavba!» – deb yoqalarini ushlashdi?	Hoshimjonning tomog'iga osh tiqilib, hiqichoq tutib qolgani, o'n besh minut nag'ma qilgani uchun (chunki Hoshimjon ko'rinmayotgan edi-da)	6
28.	Boshidan qalpoqchasini olgan Hoshimjonga onasi: «Qayoqdan paydo bo'lib qolding?» – deb savol berdi. Bunga Hoshimjon qanday javob berdi?	«Xolodilnikning ichida yotuvdim», – dedi	6
29.	Hoshimjon sehrli qalpoqcha yordamida, avvalambor, kimning ishini taftish qildi?	Qishlog'ida yashaydigan Soraxon folbinning	6
30.	«Soraxon folbinga ishonmanglar, hammasi yolg'on», – deb kim aytadi?	Hoshimjonning o'qituvchisi	6
31.	Soraxon folbinning oldiga keladigan bemorlar nimalar olib kelishadi?	Birovi shaxdor qo'y, birov sariq echki, birov qog'ozga o'ralgan pul, bir xillari katta tog'orada to'rt quloqli somsa	6
32.	Soraxon folbinning o'g'li...	Mirobiddinxo'ja	6

33.	Mirobiddinxo'ja akasi bilan nega Hoshimjonni urishdi?	Mirobiddinxo'janing ikkita velosipedi bor. Hoshimjon bittasini minib, bir oz sayr qilib, qosqonini egib qo'yganligi uchun	6
34.	Mirobiddinxo'ja ko'chada nima deb maqtanadi?	«Bizning uydan Xudoning ovozi eshitilib turadi», – deb	6
35.	Hoshimjon qalpoqchasini kiyib, Soraxon folbinning uyiga kiranida uning uyida kimlar o'tirar edi?	7 ta xotin, 5 ta chol, 3 ta bola	6
36.	Hoshimjon Soraxon folbinning uyidagi bemorlarning rangini nimaga o'xshatadi?	Sap-sariqligi uchun oftob urgan xamakka (pishmagan qovun)	6
37.	Soraxon folbinning oldida qanday ayol o'tirar edi?	Bola ko'targan, Hoshimjonning oyisiga o'xshagan cho'ziq yuzli ayol	6
38.	Soraxon folbinning «O'g'lingizni sariq jin uribdi, qizim», – deganidan so'ng qanday ovozlari eshitildi?	Shu payt g'oyibdan sariq jinlarning childirma chalayotgani, jangir-jungir qilib o'yinga tushayotgani, so'ngra: «Ovm-i-i-n!» – degan ovoz eshitildi	6
39.	Soraxon folbin ayolga nima olib kelishni buyurdi?	«Sariq echki so'yib, terisiga bolangni o'raysan», – dedi. «Ovm-i-i-n!» – degan ovoz eshitilgandan so'ng, folbin xola: «Xudoning o'zi shifo beradi, ana, arshi a'lodan uning tabarruk ovozi eshityapti, eshit!», – dedi	6

40.	Hoshimjon nima uchun qo'rqmasdan jangur-jungur ovoz kelayotgan tomonga bordi?	«Boshimda qalpoqcham bor. Jinlar baribir meni ko'rolmaydi», – deb	6
41.	Bolali ayol chiqib ketgandan so'ng kirib kelgan odamga Soraxon folbin nima dedi?	«Oh, otaginam, otaginam, sizga qora dev hamla qilibdi, suf, suf, suf!» – dedi	6
42.	Hoshimjon katta xumning ichida kimni ko'rdi?	Bilaklariga har xil shiqildoqlar taqib olgan, do'ppidan sal kattaroq childirmani qo'lida ushlagan Mirobiddinxo'jani ko'rdi	6
43.	Hoshimjon Mirobiddinxo'jani qanday jazoladi?	Qo'lidagi to'g'nag'ichni olib bor bo'yicha yelkasiga sanchib oldi	6
44.	Yelkasiga to'g'nag'ich sanchilgan Mirobiddinxo'ja: «Voy-dod!» – deb qichqirdi. Bu ovozni eshitib Soraxon folbin oldida o'tirgan odamga nima dedi?	«Otaginam, kasalingiz g'oyat og'ir, ana quloq soling, parilarim faryod chekyapti», – deb javray boshladi	6
45.	Sehrli qalpoqchani kiyib, ko'rinmas odamga aylanib olgan Hoshimjon Mirobiddinxo'jaga o'zini kim deb tanitdi?	«Azroyil», – deb	6

**Hoshimjonning savollariga
Mirobiddinxo'ja qanday javob berdi?**

46.	– Dodlama, Hoshim degan bolani taniysanmi?	– Taniyman, Azroyil bobo, taniyman	6
-----	--	------------------------------------	---

47.	– Tanisang, nega unga velosipedingni berib turmading?	– Berdim-kul!	6
48.	– Nega uni akang bilan ikkovlashib urdilaring?	– Tavba qildim, endi urmaymiz	6
49.	– Nega odamlarni aldaysan?	– Oyim aytdilar-da	6
50.	– Yolg'onligini maktabga borib aytasanmi yoki joningni olib qo'ya qolaymi?	– Aytaman, bugunoq aytaman	6
51.	– Uy vazifalarini yaxshilab tayyorlagin, Hoshim degan bola so'rasa, yo'q demagin	– Xo'p bo'ladi	6
52.	Folbin xola xaltachalardagi qanday dorilarni Xudoyi taolo ato qilgan noyob dorilar deb pullayotgan ekan?	Penitsillin, biomitsin, yurak o'ynoqni bosadigan poroshok...	6
53.	Oradan o'n-o'n besh kun o'tar-o'tmas ichi surilib darmondan ketgan bemorlar «Sen bizni ataylab zaharlamoqchi bo'ldingmi», – deb Soraxon folbininni tutib rosa do'pposlashdi. Ularning nega ichi surildi?	Hoshimjon folbin xolaning cho'ntagidan besh-o'n so'm so'm oldi-da, tug'ruqxona oldidagi aptekadan ichni suradigan har xil dorilarni olib Soraxon folbinning xaltachalariga joylab qo'ygan edi. Soraxon folbin o'sha dorilarni bemorlarga berib yuborgani uchun	6
54.	Hoshimjon uy vazifalarini qayerdan ko'chirar edi?	O'qituvchilarining konspekt daftaridan	6

55.	Hoshimjon og'zaki so'raladigan fanlardan savollarga qanday javob berardi?	«Mening og'zaki nutqim rivojlanmagan, yozma ravishda talab qilaveringlar», – derdi	6
56.	Agar Hoshimjon bir xatoga yo'l qo'ymaganida sinfda qaysi lavozimga saylanardi?	Sinfkomlik-ka	6
57.	Hoshimjon Ro'ziyev qaysi xatoga yo'l qo'yib, butun maktabga sharmandayi sharmisor bo'ladi.	O'zi va do'sti Qosimjonga yettita fandan a'lo baho qo'yib, chorak tugamagan bo'lsa ham, chorak baholarini ham chiqarib qo'ya qolgani uchun	6
58.	Hoshimjonning jurnalga baho qo'rganini qaysi fan o'qituvchilari bilib qolishdi?	Bu ishni avval ona tili o'qituvchisi, so'ngra fizika o'qituvchisi	6
59.	Hoshimjonning algebra muallimi...	Qobilov	6
60.	Hoshimjon o'qimay turib sehrli qalpoqcha yordamida qaysi kasblarni egallashiga qattiq ishonar edi?	Agronom, zootexnik, injener, shoir-u artist	6
61.	Hoshimjonga ikki baholar qo'yishdan hech charchamaydigan o'qituvchi...	Matematika o'qituvchisi Qobilov	6
62.	Hoshimjon nima sababdan uyidan ketdi?	Qahramonliklar ko'rsatib, shon-u shuhrat taratib, o'qituvchilarini, direktor Otajon Azizovichni hayratda qoldirish niyatida	6

«Baxtim kulib boqqan edi»

63.	Sehrli qalpoqcha Hoshimjonga qanday mo'jizalar ko'rsatdi?	Ovqat tekin, poyezd-u avtobuslar tekin, cho'ntagida agronomlik mutaxassisligi haqidagi ko'k jildli, dumaloq muhr bosilgan diplom	6
64.	Hoshimjon yo'lda ikki marta nimalarning galasiga duch keldi?	Ilonlar	6

Maktab-internat faoliyati

65.	Romanning qaysi bo'limida Hoshimjon Mirzacho'dagi maktab-internat o'quvchilarining faoliyatiga guvoh bo'ladi?	«Baxtim kulib boqqan edi» deb nomlangan III bobida	6
66.	Maktab-internat nomi...	Krupskaya (V.I.Leninning turmush o'rtog'i)	6
67.	Maktab-internat direktori...	Xursanali Sharafiddinovich	6
68.	Hoshimjon juda katta dala maydoniga duch keldi. Katta maydon mayda-mayda bo'laklarga bo'lib tashlangan, har bir bo'lakchada uchtdan-to'rttdan bo'lib Hoshimjon tengi bolalar va qizlar ishlab yotishibdi. Bu maydon necha gektardan iborat?	100 gektarcha keladi	6
69.	G'o'zaning o'tini yulayotgan bola nega uyalib, sholg'omdek qizarib ketdi?	Hoshimjon: «Horma», – dedi. U bola boshini ko'tarmay: «Ishingni qil», – dedi. Chunki Hoshimjonni	6

		o'zlarining Shavkat degan o'rtog'i deb o'ylagan	
70.	Maktab-internat qayerda joylashgan edi?	Mirzacho'lda	6
71.	6 ta bola necha gektar yerdagi g'o'zani o'zlari ekib, o'zlari parvarishlagan?	10 gektar yerdagi	6
72.	Bolalar paxtani qanday terib olishmoqchi?	Mashinada	6
73.	Dalada ishlayotgan bolalar nechanchi qovun chopiqni qilishayotgan edi?	Ikkinchi	6
74.	Maktab-internat uzum-zorida Hoshimjon uzumning necha xilini sanadi?	22 xilini	6
75.	Oshqovoqdek semirib ketgan sariq sochli bir qiz nima ish qilib yurgan edi?	Tovuqlarga don berayotgan edi	6
76.	Krupskaya nomli maktab-internat fermasida qancha hayvonlar bor edi?	Sakkizta sigir, o'n to'rtta cho'chqa, uchta qo'tir echki, qo'y va echkilar cho'lda edi	6
77.	Fermada nechta bola ishlardi?	8 ta	6
78.	Maktab-internatning quyon fermasi qayerda joylashgan edi?	Katta bog'ning ichida	6
79.	Maktab-internatning necha gektar yerda mevazor bog'i bor edi?	30 gektar yerda	6
80.	O'quvchilar bog'dagi mevalarni nima qilishar edi?	Yarmini yeyishib, yarmini bozorga chiqarib sotishardi	6

81.	Sigirlarni kim sog'ib berardi?	O'ninchi sinfnng qizlari	6
82.	«Bu qizlardan ajoyib sotuvchilar yetishib chiqadi», – degan qahramon...	Direktor Xursanali Sharafiddinovich	6
83.	O'g' xalat kiymasdan savdo qilib, tekshiruvchilar borganda qo'lga tushib qolgan qahramon...	Budkada sut-qatiq sotib o'tiradigan 10-«B» sinf o'quvchisi Sanobar	6
84.	Tartibni buzgani uchun Sanobarga qanday chora ko'rishdi?	Muhokama qilib, ogohlantirish berishdi va o'n besh so'm jarima qilishdi	6
85.	Maktab-internatda yig'ilgan pullarni nima qilishadi?	Maktab-internatni bitirib ketishayotganda, har kim o'ziga tegishli pulni olib ketadi	6
86.	O'tgan yili maktab-internatni necha kishi bitirdi, qanchadan pul ulashildi?	50 kishi bitirdi, Xursanali Sharafiddinovich har biriga 1000 so'mdan pul ulashdi (O'sha paytda bu pulga zavoddan yangi chiqqan «Volga» mashinasini sotib olsa, bo'lardi)	6
87.	«Maktabdagi tirik burchakda ikkita ori quyon bor edi, ularning ham bittasi ochidan o'lib qolgan. Kattagina mevazor bog'i bor. Lekin bu daraxtlar meva qiladimi, yo'qmi, xotirlay olmadi». Bu maktabda qaysi qahramon o'qigan?	Hoshimjon	6

88.	O'z maktabi va o'rtoqlari to'g'risida Hoshimjonning yolg'on gaplari...	«Bizning maktabimizda sher, arslonlargacha bor». Mana shu ustimdagi ko'y-lak maktabimizdagi artelda tikilgan. Oyog'imdagi tuflini Shokir degan bitta og'aynim tikib bergan»	6
89.	Hoshimjon kimga ko'maklashib qo'ydi?	Hayitvoyga (avval molxonani, so'ng cho'chqaxonani tozalashdi)	6
90.	Hoshimjon nima uchun Hayitvoyni bilmasdan qattiqroq itarib yubordi, bechora ikki-uch dumalab ketdi?	Hayitvoy Hoshimjonni kiyim tikadigan artelga olib bordi. Hoshimjon ikkita chiroyli qalpoqchani «Singillarimga sovg'a qilaman», – deb, qarzga olmoqchi bo'ldi, lekin Hayitvoy rozi bo'lmadi, shuning uchun Hoshimjon uni itarib yubordi	6
91.	Sut-qatiq bilan ta'minlab, nonushtaga qaymoqlar yetkazib berayotgan ukajonlarini ranjitgani uchun chok tikayotgan qizlardan nechitasi qo'llariga biri qaychi, biri pichoq, biri qizdirilgan dazmol olib Hoshimjonga tashlanishdi?	28 tasi	6
92.	Hoshimjon qanday qilib qizlar hujumidan omon qoldi?	Boshiga sehrli qalpoqchasini kiyib	6
93.	Direktor radiouzel orqali e'lon qilib, Hoshimjonni qidirishga nechta o'quv-chini safarbar qildi?	550 ta	6

94.	Hayitvoy Hoshimjon-ni qanday ta'rifladi?	«12 – 13 yoshlarda, o'zi qorachadan kelgan, oriql... burni angishvonaga o'xshaydi. Gapirganda tutilib-tutilib qoladi. Ustida oq shoyidan sorochkasi bor, shimi yo'l-yo'l sherstdan, dazmollanmagan. Aft-boshiga bir haftadan buyon suv tegmagan bo'lsa kerak, hamma yog'i kir»	6
95.	Hayitvoy radiodan e'lon berayotgan vaqtda Hoshimjon qayerda edi?	Direktorning kabinetida u bilan yonma-yon choyxo'rlik qilayotgan edi	6
96.	Vijdoni qiynalgan Hoshimjon qalpoqlarni kimga topshirdi?	Hayitvoyga	6

**Hoshimjon quyidagi mutaxassislar
kerak emasmi deb kimlardan so'ragan?**

97.	Agronom	Qovun chopiq qilayotgan bolalardan	6
98.	Zootexnik	Tovuqlarga qarayotgan qizchadan	6
99.	Mol doktori	Hayitvoydan	6

**IV bob
«Hasharotni kaltaklashga buyurdim»**

100.	«Xoh g'o'zam, xoh-xoh g'o'zam, Hosili oppoq g'o'zam», – deb kim ashula aytgan?	Hoshimjon	6
101.	Hoshimjon dalada kimga duch keldi?	Suvchi Polvon tog'aga	6
102.	Yetmish yoshlarga kirgan, oppoq soqoli ko'ksiga tushib turgan qahramon...	Polvontog'a	6

103.	Polvon tog'a Hoshimjonni qachon sizlay boshladi?	Sehrli qalpoqcha orqali Hoshimjon bo'yini o'stirib olganidan so'ng	6
104.	Hoshimjon Polvon tog'aga o'zini qayerdanman deb tanishtirdi?	Farg'onadan	6
105.	Hoshimjon o'sha kuni Polvon tog'a bilan qayerda tunab qoldi?	Dalaning o'zida	6
106.	«Baland bo'yli, yelkalari keng, polvonnamo, gapirganda ovozi xuddi xumning ichidan chiqqandek jaranglab eshitaladi. Kulganda tomni ko'tarib yuborgudek qattiq kuladi, yurganda uyning pollari lapanglab ketadi». Parchada qaysi qahramon ta'riflangan?	Sovxoz direktori Akbar Nosirov	6
107.	Hoshimjon nechanchi bo'limga agronom etib tayinlandi?	4-bo'limga	6
108.	Hoshimjon ixtiyorida nechta brigada va qancha paxta maydoni bor edi?	1200 gektar paxta maydoni, 12 ta brigada	6
109.	Hoshimjonga minib yurishga qanday avtoulov berishdi?	«IJ» markali mototsikl	6
110.	Hoshimjon mototsikl minishni necha kunda o'rgandi?	Uch kunda	6
111.	Asardagi bo'lim boshlig'i va 4-brigada boshlig'i	O'rmon aka – bo'lim boshlig'i, Rahimjon aka – 4-brigada boshlig'i	6

Quyidagi savollarga Hoshimjon qanday javob berdi?

112.	– O'rtoq agronom, sizningcha, mahalliy o'g'itga superfosfatni aralashtirib solgan yaxshimi yoki superfosfatni selitra bilan tashlayveraylikmi?	– Shuni ham so'rab o'tiribsizlarmi, kim aytadi sizlarni Mirzacho'lning mashhur paxtakorlari deb, uyat emasmi!	6
113.	O'rmon aka: – O'rtoq agronom, agar malol kelmasa, mana bu Rahimjonga, uning a'zolariga kompost to'g'risida bir gapirib bersangiz?	– Marhamat, o'rtoqlar, kompost juda foydali ichimlik, uni asosan meবাদan tayyorlashadi. Mevalarning xili qancha ko'p bo'lsa, u shuncha shirin bo'ladi... Xullas, kompost ichmabsiz, dunyoga kelmabsiz...	6
114.	Hoshimjon gapini tugatmasdan odamlar nima uchun rosa kulishdi?	Hoshimjon obdan sharmanda bo'lgan edi. Go'ngni achitib tayyorlanadigan kompost bilan mevalardan tayyorlanadigan kompotning farqiga bormasdan rosa aljiragani uchun	6
115.	Agronom Hoshimjon kimlarga xat yozdi?	Oyisi va Otajon Azizovichga	
116.	Hoshimjon Otajon Azizovichga qanday mazmunda xat yozdi?	«Qadrli Otajon Azizovich!.. Siz yolg'onchi bo'lib chiqdingiz, kishi o'qimasa, yoshlikda ilm olmasa, algebra, geometriya, ona tilini puxta egallamasa, agronom ham, injener ham bo'la olmaydi devdingiz, yolg'on ekan. Mana men agronomman.	

		Ishonmasangiz, shu xat bilan yuborgan rasmimga qarang. Endi ordenli bo'lganimda uchrashamiz. Xayr. Salom bilan agronom, Hoshimjon Ro'ziyev»	
117.	Hoshimjon: «Qishlog'imizdagi savodsiz agronom», – deb kimni aytadi?	Anorboy tog'ani	
118.	Hoshimjon ilmsiz, sehrgar rahbar ekanligini yashirish uchun nima qilardi?	Ishlab turgan kishilarning yoniga borib, bo'lar-bo'lmasga baqirardi, shovqin solardi	
119.	G'o'zalarga shira tushganini Hoshimjonga kim aytdi?	2-brigada boshlig'i Murodjon aka	
120.	– Shira? Qanaqa shira? Yopishqog'idan tushibdimi?... Shira g'o'zalarning bargiga tushibdimi? Hoshimjonning savoliga qanday javob berishdi?	Bargiga tushmay, poyasiga tusharmidi? – dedi Murodjon aka	
121.	– Qalpoqcham, yordam bergin, aql o'rgatgin	– Ilm, aql degan narsalar katta-katta, qalin jildli kitoblarda bo'ladi, dono kishilarning boshida bo'ladi. Umrim bino bo'lib, bitta ham kitob o'qigan emasman, Xat-savodim yo'q...	

122.	Hoshimjon Murodjon akaga qanday maslahatlar berdi?	G'o'zalarning tubidan ushlab qattiqroq silkitish, g'o'zaning ustidan chelaklab suv quyishni	
123.	Hoshimjon g'o'zaning ustidan chelaklab suv quyishni buyurganida Murodjon aka nega dalani boshiga ko'tarib, xaxolab kulib yubordi?	Hoshimjon hazil qilyapti deb o'yladi	
124.	2-brigadada nechta ishchi bor edi?	55 ta	
125.	Hoshimjonning shiraga qarshi yangi metodi...	G'o'zaning shira tushgan barglarini kaltaklash	
126.	Har bir ishchiga nechtdan tol navdasi berishdi?	20 donadan	
127.	Go'zalarni kaltaklashni eshitgan brigadir: «Nima? – dedi ko'zlari joyidan chiqib ketgudek bo'lib. Hushingiz joyidami o'zi o'rtoq agronom? Axir bunda g'o'zalar nobud bo'ladi-ku!» – degan savoliga Hoshimjon qanday javob berdi?	«G'o'za nobud bo'lsa, men javob beraman, agronom javob beradi. Shiraga qarshi kurashishning yangi metodi bo'ladi – bu. Tushundingmi? Zamondan orqada qopsan, kallavaram...» – dedi	
128.	«Esizgina mehnat, Eshvoy!», «Nimasini aytasiz, Qobilvoy», «Aslida, agronomning o'zini tutib olib kaltaklash kerak edi!» – degan qahramonlar...	2-brigada ishchilari	

129.	Ishchilar g'o'zani kaltaklashni nega to'xtatishdi?	Sovxoz direktori Akbar Nosirov kelib qoldi va g'azablanib Hoshimjonni ushlashni buyurdi. Hoshimjon esa sehrli qalpog'ini kiyib qochib qoldi	
130.	«Rayon militsiya bo'limi mehnatkashlarga shuni yozib bildiradiki, bundan uch kun avval to'rtinchi sovхозdan Hoshimjon Ro'ziyev nomli bir yig'it qochdi, O'zini agronom qilib ko'rsatib yurgan bu shaxs, aslida, shahar jinnixonalarining biridan qochib kelgan kimsadir. Bo'yi terakdek novcha, o'zi igna yutgandek ozg'in, yurganda biroz oqsab yuradi. Gapida ma'no yo'q, yosh bolalardek aljib gapiradi. Ko'rgan-bilganlar bo'lsa, militsiya bo'limiga xabar qilishini so'raymiz...» degan xabar qanday tarqaldi?	Gazeta orqali	
131.	«Musofir bo'lmaguncha musulmon bo'lmaysan, deydilar keksalar». Ushbu gap qaysi qahramon nutqidan olingan?	Polvon tog'a (Hoshimjonga aytgan)	6
132.	« Sariq devni minib » asaridagi sehrli qalpoqcha hayotda kimlarning yoki nimaning ramziy timsoli?	Ota-onalarning	
133.	X.To'xtaboyevning «Sariq devni minib» asarida Hoshimjonning sehrli qalpoqcha yordamida ko'p yerda sharmanda bo'lishiga nima sabab bo'lgan?	Bilimsizligi	6

134.	Xudoyberdi To'xtaboyevning « Sariq devni minib » romani qahramoni – Hoshimjon Ro'ziyev ilmsizligi uchun agronom, injener, shoir bo'lolmaydi. Ammo u ilmi bo'lib qaysi sohada shuhrat topadi?	Militsionerlikda	
135.	«Sariq devni minib» asarida Hoshimjon Ro'ziyevga maslahatlar bergan shoir...	Jo'ra Juman	
136.	«Sariq devni minib» asariga qaysi mashhur yozuvchi yuksak baho bergan?	Janni Rodari	6
137.	«Sariq devni minib» asari roman janrining qaysi turiga mansub?	Sarguzasht asar	6
138.	Chet el adabiyotidan sarguzasht asarlarga misol keltiring	Jonatan Sviftning «Gulliverning sayohatlari», Daniyel Defoning «Robinzon Kruzo», Jyul Vernning «O'n besh yoshli kapitan» asari	6
139.	Navoiy «Xamsa»sining qaysi dostonlari sarguzasht asarning mukammal namunasi hisoblanadi?	«Farhod va Shirin»	6
140.	Fantastik va detektiv holatlar uyg'unlashgan tarzda ifoda etilgan 6-sinf o'quvchisining qilmishlari qiziqarli voqealar asosida hikoya qilingan asar...	«Sariq devni minib»	6

TO'RA SULAYMON (1934 – 2005)

1.	To'ra Sulaymon qachon qayerda tavallud topgan?	1934-yil 15-fevralda Jizzax viloyati, Baxmal tumanidagi Aldashmon qishlog'ida	8
2.	Shoirning bolalik yillarida oila boshiga qanday falokat tushadi?	To'ra Sulaymonning otasi «xususiy mull egasi» sifatida quloq qilinadi – boshqa yurtlarga surgun qilinadi	8
3.	Quloq so'zining ma'nosi...	(ruscha «kulak» – mushtumzo'r so'zining o'zbekchaga moslashtirilgan shakli)	8
4.	1939-yilda otasi qamoqdan qaytgandan so'ng oila qayerga ko'chib ketadi?	Sirdaryoga	8
5.	To'ra Sulaymon o'qigan bilim dargohlari...	Avval qishloq maktabida, so'ngra hozirgi O'zMU ning filologiya fakultetida (1958 – 1964)	8
6.	To'ra Sulaymonning mehnat faoliyati...	Guliston tumanidagi maktablarda ona tili va adabiyotdan dars beradi, tuman, viloyat gazetalarida ishlaydi, Respublika Yozuvchilar uyushmasining Sirdaryo viloyat bo'limi mas'ul kotibi, adabiy maslahatchisi lavozimlarida faoliyat yuritadi	8
7.	To'ra Sulaymon qaysi shoirlar bilan yaqin aloqada bo'lgan?	Mirtemir, Nosir Fozilov, Sa'dulla Siyoyi	8

8.	To'ra Sulaymon qanday unvon bilan taqdirlangan?	O'zbekiston xalq shoiri (1999-yilda)	8
9.	To'ra Sulaymonning ilk she'rlari qaysi yildan nashr etila boshlandi?	1958-yildan	8
10.	To'ra Sulaymonning birinchi she'riy to'plami...	«Istar ko'ngil» (1962-yil)	8
11.	To'ra Sulaymon dostonlari...	«Qorasoch», «Jahongashta» (1970)	8
12.	To'ra Sulaymonning maqolalar to'plami...	«Hamqishloqlarim»	8
13.	To'ra Sulaymonning satirik va yumoristik asarlar to'plami...	«Alhazar» (1976)	8
14.	To'ra Sulaymonning she'riy to'plamlari...	«Istar ko'ngil» (1962-yil), «Menga qayga borar bo'lsam», «Intizor» (1973-yil), «Sirdaryo qo'shiqlari» (1974-yil), «Iltijo» (1976-yil), «To'yboshi» (1977-yil), «Sizni eslayman» (1980-yil), «Qorako'zginam» (1981-yil), «Gulshan» (1988-yil), «Sarvinoz» (1989-yil)	8
15.	To'ra Sulaymonning yillik mukofotlarga sazovor bo'lgan kitoblari...	«Xarsang» (1994), «Jahonnoma», «Gul bir yon, chaman bir yon» (1996), «Yovqochdi»	8
16.	To'ra Sulaymon qanday mukofot bilan taqdirlangan?	1999-yilda «O'zbekiston xalq shoiri» degan yuksak unvon bilan taqdirlangan	8
17.	«Iltijo» she'ridagi bahor nimaning ramziy timsoli bo'lib gavdalanadi?	Vatan, barcha tiriklikka jon ato etguvchi muqaddas yurt timsoli	8
18.	To'ra Sulaymonning qaysi she'rida har bir fasl nomi ramziy ma'noni ifodalab kelgan?	«Iltijo»	8

19.	To'ra Sulaymonning qaysi she'rida farzandi uchun chin dildan iztirob chekuvchi faqat ona ekanligi tasvirlanadi?	«Tavallo»	8
20.	To'ra Sulaymonning qaysi she'rining har bir bandi «Bahor, ketma mening bog'imdan» deb yakunlanadi?	«Iltijo» she'rining	8
21.	To'ra Sulaymon qaysi she'rida odam bolasi ikki dunyo orasida muallaq qolmaslikni istasa, Yerga – o'zi singari odamlarga va Osmonga – o'zini yaratgan qudratga suyanmog'i lozimligini birgina misrada ifoda etadi?	«Armon»	8
22.	To'ra Sulaymonning quyidagi misralari qaysi she'ridan olingan? «Bir mard bilan nopokning taqdirin tutash ko'rsam... Bir betayin kimsaning oyog'ida bosh ko'rsam...»	«Armon»	8
23.	Qaysi shoir ko'nglida yotgan armonni cho'kib qolgan nortuyaga, quyosh tushmaydigan yerdagi erimay qolgan qorga qiyoslab ta'riflagan?	To'ra Sulaymon	8
24.	«To'ra Sulaymonning qaysi she'rida faqatgina Ona yig'isi samimiy bo'lishi qalamga olingan?	«Tavallo» she'rida	8
25.	T.Sulaymon qaysi she'rida «Maysadagi shudringlar – kimlarning ko'z yoshlari» degan falsafiy ifoda yaratgan?	«Iltijo» she'rida	8
26.	T.Sulaymonning «Iltijo» she'rida <i>sahro</i> so'zi nimaning obrazi?	Vatangado kimsalarning	8

27.	To'ra Sulaymonning qaysi she'rida Go'ro'g'li sulton nomi tilga olinadi?	«Gul bir yon, chaman bir yon» she'rida	8
28.	G'afur G'ulomning qaysi she'rida kichik hayotiy detallardan katta umumlashmalar yasay olgan?	«Vaqt» she'rida	8
29.	«Bahorsiz ham diyorsiz el ichra benazarman» degan shoir...	To'ra Sulaymon	8

To'ra Sulaymonning «Iltijo» she'ridagi ramziy timsollarning to'g'ri talqin qiling

30.	sahro	vatangado kimsalar	8
31.	tog'-u tosh	qilmishi qing'ir zotlar	8
32.	bahor	bahor fasli, ezgulik ramzi, vatan, barcha tiriklikka jon ato etuvchi muqaddas yurt timsoli	8
33.	shudring	ko'z yoshlar	8

Quyidagi so'zlar qanday ma'nolarni anglatadi?

34.	suralay	patlari rang-barang qush turi	8
35.	qishlovlar...	qishloqlar	8
36.	uzangidoshlari...	yor-do'stlari, birga ot chopishgan jo'ralari	8
37.	benazarman	e'tibordan, nazardan qolganman	8
38.	nor	bir o'rkachli erkak tuya	8
39.	terskay	quyosh nuri tushmaydigan joy	8

40.	qalbi quroq	qalbi aynigan, ruhiyati maydalashib, «yamoq bosib ketgan» kimsa ma'nosida	8
41.	yog'och ot	tobut	8
42.	olqov	maqtov, rahmat ma'nosida	8
43.	andalib	bulbul	8

MUNDARIJA

T/r	Mavzular nomi	Sahifa raqami	Savollar soni
	XX ASR ADABIYOTI		
1.	Mahmudxo'ja Behbudiy	3	119
2.	Abdulla Avloniy	16	110
3.	Avaz O'tar	31	28
4.	So'fizoda	34	20
5.	Abdurauf Fitrat	38	205
6.	Hamza Hakimzoda Niyoziy	64	131
7.	Abdulla Qodiriy	78	466
8.	Cho'lpon	135	372
9.	G'afur G'ulom	177	231
10.	Oybek	202	176
11.	Abdulla Qahhor	224	237
12.	Mirkarim Osim	256	67
13.	Maqsud Shayxzoda	265	121
14.	Hamid Olimjon	282	138
15.	Mirtemir	298	96
16.	Usmon Nosir	310	99
17.	Zulfiya	322	48
18.	Shuhrat	329	69
19.	Turob To'la	339	56
20.	Asqad Muxtor	346	173

21.	Said Ahmad	366	200
22.	Saida Zunnunova	401	27
23.	Odil Yoqubov	406	202
24.	Pirimqul Qodirov	442	226
25.	Ozod Sharafiddinov	474	18
26.	Jumaniyoz Jabborov	478	34
27.	Xudoyberdi To'xtaboyev	483	140
28.	To'ra Sulaymon	503	43

Izoh va qaydlar uchun

MAKTUBHONA

MAKTUBHONA SAVOL-JAVOB

3-son

MAKTUBHONA

MAKTUBHONA

MAKTUBHONA

MAKTUBHONA

MAKTUBHONA

Nilufar RASULOVA

**ADABIYOTDAN
MUKAMMAL SAVOL-JAVOBLAR
3-kitob**

Muharrir:

Xurshidbek IBROHIMOV

Texnik muharrir:

Abduqodir YULDASHEV

Dizayner va sahifalovchi:

Xurshidbek IBROHIMOV

21000

«Nurafshon ziyo yog'dusi» nashriyotida tayyorlandi.
Toshkent shahri Chilonzor tumani Cho'ponota ko'chasi 28-A uy.

Murojaat uchun telefonlar:

(+998 93) 181-10-04, (+998 93) 183-10-04,
(+998 94) 695-11-44, (+998 94) 653-11-44

Nashriyot litsenziyasi: AI №300 22.05.2017

Bosishga ruxsat etildi: 25.10.2018

Gazeta qog'ozi. Qog'oz bichimi: 84x108 ¹/₃₂

Arial garniturası. Ofset bosma.

Hisob-nashriyot t.: 14,41. Shartli b.t.: 26,88.

Adadi 5000 nusxa.

Buyurtma № 70.

«Nurafshon ziyo yog'dusi» MChJ bosmaxonasida muqovalandi.
Toshkent shahri Chilonzor tumani Cho'ponota ko'chasi 28-A uy.

«Yosh kuch press matbuoti» MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri Chilonzor tumani Chilonzor ko'chasi 1-A uy.